Ta’lim muassasalarida har yili o‘quv yili boshida “Mustaqillik darslari” dasturi tuzilib, o‘quv jarayoniga tatbiq etildi. O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 25 yilligi munosabati bilan “Go‘zal va betakrorimsan, muqaddas Vatanim, jonim senga fido, O‘zbekistonim!” degan ezgu g‘oyadan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Abdug‘anievich Karimovning porloq xotirasiga bag‘ishlangan “Xotira darslari”da o‘tgan 25 yil davomida O‘zbekistonda iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’naviy sohada erishilgan yutuqlar qayd etildi, “O‘zbekiston kelajagi buyuk davlat” g‘oyasini aks ettiruvchi mazmundagi mashg‘ulotlar o‘tkazildi. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida 2016-yil 4-sentyabr kuni “Bilimlar kuni”, “Xotira darslari” va “Mustaqillik darslari” jami 1592 ta ta’lim muassasalarida, jumladan, 144 ta akademik litseylar, 1411 ta kasb-hunar kollejlari va 37 ta kollej filiallarida tashkil etildi. Mazkur darslarga ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan 1,3 mln dan ortiq o‘quvchi-yoshlar jalb etildi. Shuningdek, o‘rta ta’lim tizimida ham “Kecha kim edik-u, bugun kim bo‘ldik, ertaga qanday marralarni egallashimiz kerak?” mavzusidagi insholar tanlovi bo‘lib o‘tdi. Insholar tanlovi o‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganiga 27 yil to‘lishi munosabati bilan o‘tkazildi[3]. tahlillar shuni ko‘rsatadiki jamiyat taraqqiyotida ma’naviyatning o‘rni yuqoriligi hisobga olinib, o‘rta ta’lim tizimida ham ushbu masalaga kuchli ahamiyat berilgan. Talabalar ongida ona vatanga muhabbat va sadoqat, madaniy boyliklar va ko‘hna tarixga hurmat ruhini shakllantirish asosiy vazifaga aylantirildi. Qolaversa, o‘quvchilar o‘rtasida boy tariximizni, o‘tmish merosimizni, qadriyat va urf-odatlarimizni o‘rganishga qaratilgan turli xil ko‘rik-tanlovlar o‘tkazish an’anaga aylantirildi.

Xullas, 1. O‘zbekistonda o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida madaniy-ma’rifiy tadbirlar belgilangan reja asosida doimiy olib borilgan o‘quvchi yoshlar o‘rtasida boy tariximizni, o‘tmish merosimizni, qadriyat va urf-odatlarimizni o‘rganishga qaratilgan turli xil ko‘rik-tanlovlar, turli bayram tadbirlarini o‘tkazish bo‘yicha doimiy chora-tadbirlarni o‘tkazilib kelingan. Bu esa o‘z ijobiy natijalarini berdi.

2. Ta’lim tizimi, xususan o‘rta maxsus ta’lim, inson faoliyatining shunday sohasiki, uning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati doimiy ravishda ortib bormoqda. Ta’lim – o‘z mohiyatiga ko‘ra kelajakka xizmat qiladi. U mavjud jamiyatning emas, balki bo‘lajak jamiyatning poydevorini yaratadi. Shu sababli aynan rivojlangan ta’lim tizimi jamiyat taraqqiyotini belgilaydi.

3. Zamonaviy jamiyatda o‘rta maxsus ta’lim ikki tomonlama vazifani bajarishi lozim: bir tomondan – shaxsning intellektual va professional ehtiyojlarini qondirish, ikkinchi tomondan – jamiyatning intellektual va kasbiy salohiyatini shakllantirish va oshirish. Demak, ta’lim tizimining dastlabki bosqichi ta’limni modernizatsiya qilish jarayoni sifatida davlat tomonidan belgilangan bo‘lib, u iqtisodiyot va jamiyatdagi o‘zgarishlar bilan bog‘liqdir.

4. Bugungi sharoitda o‘rta maxsus (professional) ta’limning roli sezilarli darajada ortmoqda: bu shaxsning ijtimoiylashuvi omili sifatida namoyon bo‘ladi, oliy o‘quv yurtlari uchun kadrlar bazasini shakllantiradi, jamiyat uchun muhim bo‘lgan kasbiy guruhlarni etkazib beradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. – T.:Ma’naviyat, 2008.-B.19.
2. Mahmudov Yu., Ikromov A., To‘raev A. Ta’lim islohati ma’naviy ehtiyoj va ijtimoiy zarurat. // Xalq ta’limi. – 2000, 5-son.
3. Matqurbonov Q. Kadrlar tayyorlash milliy modeli dunyo tajribasi va milliy xususiyatlarimizni o‘zida mujassam etgan o‘ziga xos noyob hodisa. // «Ma’rifat» gazetasi, 2013- yil 6- fevral.
4. Mirziyoev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. // T. O‘zbekiston, 2017. 17 b
5. “Ta’lim tag‘risida”gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi” 1997 yil avgust.
6. O‘zR O‘MKHTM joriy arxivi. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi tizimida 2016 yil yakunlari bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar natijalari to‘g‘risida ma’lumotnoma, 1-16-varaqlar.
7. O‘zR O‘MKHTM joriy arxivi. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimida Kadrlar tayyorlash milliy dasturini bajarilishi bo‘yicha 1998-2005- yillarda amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida ma’lumot, 14-17-varaqlar.
8. O‘zR O‘MKHTMjoriy arxivi. Markazning 2008- yilda amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi hisoboti, 1-39-varaqlar.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 4 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 March 2026
Accepted: 01 April 2026
Published: 15 April 2026

Article / Original Paper

THE INFLUENCE OF PILGRIMAGE PLACES ON THE FORMATION OF THE BUKHARA CITY'S GhUZARS

Nafisa Olimovna Juraeva
Associate Professor, Bukhara State University,
Doctor of Philosophy in Historical Sciences (PhD)

Abstract. This article discusses topics such as the development of Bukhara into a medieval city with a shahristan, ark, and rabod, the formation of the guzars and the historical topography of sacred sites. It also analyzes the significance of these sacred sites in the formation of the Guzars, their proximity to them, and their role as a key link in the historical topography of Bukhara.

Keywords: topographic plan, architectural monument, urban planning, historical topography of the city, historical source, eastern gate, shrine, building, quarter, structure.

ТОПОГРАФИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ КУЛЬТОВЫХ СООРУЖЕНИЯХ НА ФОРМИРОВАНИЕ ГУЗАРОВ ГОРОДА БУХАРЫ

Жураева Нафиса Олимовна
Доцент Бухарского Государственного Университета,
доктор философии по историческим наукам (PhD)
E-mail: jurayevanafisa0@gmail.com

Аннотация. В данной статье рассматриваются такие вопросы, как развитие Бухары в составе средневекового города, включая шахристан, арк и рабад, формирование гузаров, а также историческая топография святых мест. Также проанализировано влияние святых мест на формирование гузаров, их расположение по отношению к ним и процесс становления их в качестве важного звена исторической топографии города Бухары.

Ключевые слова: топографический план, памятник архитектуры, градостроительство, историческая топография города, исторический источник, восточные ворота, святое место, здание, квартал, строение.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N06

Введение. Социально-экономические, культурные и образовательные процессы, происходившие в странах мира в конце XX - начале XXI века, открывают высокие перспективы развития науки. История и топография святых мест, занимающих важное место в культурной жизни мира, особенно восточного мира, роль святых мест в формировании новых гузаров, а также произведенные в них территориальные изменения и их идентификация , остаются актуальными вопросами. В связи с этим особое значение приобретает определение их местоположения на основе информации о топографическом расположении святынь, сохранение этих объектов культурного наследия и передача их будущему поколению.

Методология. В статье используются логические подходы, социологические наблюдения и интервью, сравнительный анализ и устная история (интервью).

Библиография исследования. Некоторые сведения об истории святых мест Бухары приведены в исследованиях начала XVIII- XIX веков Н. Ханыкова, А. Бернса, Л. Костенко, А. Вамбери, И. Пославского, П. Шубинского, А. Семенова. Вторая группа исследователей, т.е. ученые-востоковеды советского периода, в том числе И.И.Умняков, М.Саиджонов, В.А.Шишкин, О.А.Сухарева, В.В.Бартольд, А.Р.Мухаммаджонов, Л.И.Ремпель, Г.А.Джураева и Ю.Г.Некрасова проводили специализированные историко-топографические исследования по топографии города Бухары, созданы монографии .

Обсуждение и результаты. Вопрос научного изучения и исследования исторической топографии города Бухары всегда был одним из актуальных. В процессе анализа исследователями средневекового рабата и территории города решается вопрос о площади города (размере территории) до арабского завоевания, формировании гузаров, топографии исторических зданий, таких как площади и торговые комплексы, расположение городской стены и ворот, святых мест, хотя некоторые сведения об их истории даны, однако,вопрос об образовании гузаров, увеличении их численности и роли святых мест в расширении города является одним из малоисследованных вопросов.

Являясь неотъемлемой частью средневекового градостроительства, святые места Бухары являются не только уникальным архитектурным памятником, но и дают важную информацию об архитектуре города, строительных традициях, процессах градостроительства, общественной жизни и духовно-религиозном положении, а также это ценный источник для выражения значимых сведений по исторической топографии города.

Общеизвестно, что резиденция бухарских правителей имеет двое ворот Арк, западные ворота которых называются «Регистон», а восточные — «Гориян» («Кладбищенские ворота»). С именем Сиовуша связано создание крепости Арк [11,-С.12], некоторые авторы говорят, что за ее восточными воротами находилась могила Сиовуша. К юго-востоку от этих ворот находится шахристан. В дальнейшем эта часть города расширялась и население подвергалось влиянию культа Сиовуша. Потому что восточные ворота, где находится могила Сиёвуша, с одной стороны приобрели социально-экономическое значение, с другой стороны, находились в духовном внимании населения как место паломничества. Такая ситуация оказала существенное влияние на формирование города Бухары, а также его регулярное расширение.

Позднее, в арабскую эпоху, город Бухара был окружен стеной толщиной 18 метров. Фундамент шахристана (13 га) с восточной стороны крепости связан с именем турецкого правителя Шери Кишвара [19,-С.10]. На юге Шахристана появились торгово-ремесленные лавки, а Бухара образовалась в составе шахристана, арка и рабада, типичного для средневековых городов.

В исторической литературе имеются сведения, что в 1405 году Мирзо Улугбек (1394-1449), прославившийся как учёный из династии Тимуридов, и его племянники султаны Абдулла ибн Ибрагим ненадолго гостили в Бухаре, в течение которого они проводили оборонительные и строительные работы в Арке. Также отмечается, что во время этого визита в крепости Арк было два ворот [3,-С.77]. После этого восточные врата Арка, похоже, закрылись. Ведь ни в одном историческом источнике, созданном после периода Тимуридов, нет упоминаний о восточных вратах Арка.

Вероятно, Улугбек Мирзо , поселившийся с восточной стороны ворот, оказал почтение основателю легендарного города Сиёвуша. Так как, в своей дальнейшей деятельности он относился к Бухаре как к городу особой чести. Данное мнение полностью подтверждается тот факт, что Мухаммад Тарагай Мирза Улугбек построил медресе в 1417 году в городе Бухаре и в 1433 году на земле Абдухолика Гиждувани.

Бухара процветала в качестве столицы во времена правления Абдулла-хана II, представителя династии Шайбанидов. Он построил здесь ряд архитектурных памятников и зданий социального значения. В период развития историографии ни в одном историческом источнике не имеется сведений о Восточных воротах (Дарвозай Гуриян).

Если учитывать, что правитель Шайбани построил медресе в районе крепости Арк, то можно заметить, что политическое и духовное значение западных ворот крепости в этот период возросло. Так, западные ворота восстанавливались во времена правления Абдуллы-хана II, но о восточных воротах в источниках сведений нет. Следовательно, эти ворота могли быть закрыты до правления Шейбани Абдуллахана II.

Таким образом, когда восточные ворота закрылись, за ними образовался гузар под названием Арки баста (закрытый Арк). Данное название гузара встречается в источниках XVIII века [17,-С.8]. Так, после того как площадь Арка была расширена и удалены восточные ворота, правители Бухары почтили память Сиёвуша и оставили на его месте его могилу, лишь когда восточные ворота закрылись, они перенесли ее в сторону западных ворот.

Источниковед Муса Саиджонов отмечает наличие могилы Сиёвуша на небольшом месте слева (под раваком, через 4 арки после ступени) после выхода из ступеньки с левой стороны при входе у ворот Арка [12,-С.17]. Так, еще в начале XX века правители поверили в легендарного основателя города, зажигали свечу и благословляли дух Сиевуша [12,-С.18-19].

Профессор Р.Р.Рахимов также отмечает, что на могиле легендарного героя Сиёвуша горит недавно заженная свеча [9,-С.5]. Таким образом, в общественной и духовной жизни, в сознании людей Сиевуш жив как легендарный основатель города.

В X веке территория регистана у западного подножия Арка простиралась до северо-западной стороны храма Дарвазай, т. е. нынешних Ворот Хазрата Имама. В эти века ворота Хазрата Имама в трудах арабских историков назывались Дарвазай Маабад [2,-С.104]. Позднее территория вокруг могилы Абу Хафс Кабира и напротив ворот Хазрат Имам была застроена жилыми массивами, а в XV веке здесь образовался гузар Хосса Пулот [10,-С.52]. В последующие века, особенно после XVI века, поселения и гузары продолжали образовываться на территории, простирающейся к воротам Хазрат Имам, а регион расширился к юго-западу и принял вид, аналогичный сегодняшнему. Проведенные исследования показывают, что формирование новых гузаров продолжалось и в последующие столетия. Ученый-востоковед О.А. Сухарева отмечает, что до XVI века святыня Абу Хафса Кабира, расположенная на севере города Бухары, славилась как важное место паломничества в духовной жизни общества [14,-С.78].

После XVI века, в частности, в конце XIX и начале XX веков, вокруг места паломничества Абу Хафс Кабира появились гузары Назарча, Хосса Пулод, Кази Мир

Хашим [15,-С.104]. Таким образом, святыня стала частью общественной и духовной жизни населения и архитектуры города.

Мавзолей Исмаила Самани и прилегающая территория были включены в состав города после XVI века. В начале XVIII века на этой территории, которая в древности называлась Науканд, образовывались поселения и места жительства[5,-С.221-237]. Значит, эта святыня сыграла важную роль в расширении северо-западной части города.

Святое место Чашмаи Айюба, которое в свое время было окружен огромным кладбищем, находится за стенами старой городской крепости, расположенной на северо-востоке от ворот Шергирон на западе города и на юге Угланские ворота. В группу захоронений Чашмаи Аюба входят мавзолеи Чашмаи Аюб, Зинда Фил Ахмади Джами, Шарабад [1,-С.78-80]. На протяжении веков окрестности этих святых мест становились многолюдными, и здесь возникли такие гузары, как Ходжа Гунджари, Хавзи Чобин, Калмок. [15,-С.125,127,128]. Исторические карты показывают, что новые гузары, образовавшиеся вокруг этих святых мест, были пристроены к городу в XVI веке.

Ворота Шейха Джалала были построены во времена султана Шайбани Абдулазиз-хана ибн Убайдуллы-хана (1540-1549). Султан Абдулазизхан был учеником шейха Джалала. Хазрат Шейх Джалал умер в 1548 году в возрасте 70 лет. Его могила находится в квартале Миракон города Бухары [7,-С.20].

Султан Шайбани имел большую преданность шейху Убайдуллахана, а шейх Джалал был старшим муршидом правителя.

Также аштарханидский правитель Абдулазиз-хан (1645-1680) построил мавзолей над могилой шейха Джалала [13,-С.216]. Эти сведения свидетельствуют о том, что правитель Абдулазиз-хан относился к шейху с особым уважением и почетом.

Также возле ворот шейха Джалала Абдулазиз-ханом был построено здание в честь своего наставника. В годы, когда Бухара была полуколонией, здание из-за запущенности пришло в полное запустение. В 1803-1894 годах российские власти снесли этот великолепный памятник архитектуры и из его кирпичей построили такие здания, как почта, телеграф и региональная больница возле ворот Шейха Джалала [6,-С.270]. Значит, в этот период была снесена и святыня шейха Джалала возле ворот.

В 1954 году ворота Шейха Джалала были отреставрированы государством [4,-С.49]. Ворота Шейха Джалала и одноименная могила сегодня не сохранились, но одноименная святыня у ворот Шейха Джалала была важным фактором в становлении гузаров Сахибзаде и Миракона. В результате перенаселенности в юго-западной части города в соседних с гузаром Шейх Джалал районах образовались гузары Сахибзаде, Миракон и Ходжа Чоршанба. Гузар Сохибзада был основан в XIX веке в южной части города недалеко от ворот Шейха Джалала. Как и в каждом гузаре, здесь была мечеть, место омовения, школа и бассейн [15,-С.100]. Горные камни находились в святилище под названием гузара, расположенном недалеко от кладбища имени Шаха Араба [15,-С.100]. В то же время на этом месте в юго-западной части Бухары были построены общественные здания. Гузар отошел от своего исторического облика и приобрел современный облик. Святое место Сахибзоды не сохранилось.

Район Тюрки Джанди на юге города, Мираконский гузар, принадлежащий кварталу Косагарон, также примыкает (с севера) к гузару Сахибзода, образовавшемуся на южной расширенной территории города после переноса Бухарской стены после XVI

века. Этот квартал называется Гузари Шейх Джалал из-за близости к воротам Шейха Джалала, а также здесь находились медресе и одноименная мечеть [13,-С.217].

По мнению ученого источниковеда О. Д. Чеховича, мечеть и медресе Миракон были построены в 1607-1608 годах и при формировании квартала назывались Кальта Манор [15,-С.99]. Так, гузары Сахибзаде и Миракон образовались после строительства ворот Шейх Джалала. Строительство ворот Шейха Джалала сыграло важную роль в становлении этих гузаров.

Но топографические изменения, проведенные в середине XX века, не затронули прилегающие к кварталу Шейх Джалала улицы Сахибзаде, Миракон, Ходжа Чахоршанбе [16,-С.140-143]. Сегодня на месте исторического квартала Шейха Джалала, ставшего частью исторического образа города своими архитектурными постройками, сегодня действуют медицинское учреждение, женский консультативный совет и областная больница.

Из топографии города известно, что в XVI веке расположенный среди густонаселенной части города, гузар Тюрки Джанди не расширялся, а его окрестности превратились в большое кладбище. На кладбище Тюрки Джанди на юге Шахристана высокие курганы образовались за счет того, что могилы были сложены друг на друга [8,-С.38-39]. Турки Джанди является важной святыней города и в настоящее время находится на одноименной улице города Бухары.

О том, что вышеупомянутое кладбище было в свое время крупнейшим захоронением города, свидетельствуют остатки гробницы, оставленные на задней стене домов 13,15,17 по улице Намозгох в Бухаре. Высота примыкающих к стене гробницы была очень высокой, и они образовывали пол высотой 3-4 метра. Во времена бывшего Советского Союза мавзолей и кладбище Турки Джанди остались без присмотра, а на его северной стороне действовал магазин по продаже охотничьих товаров [20]. Дорога проходила через передний фасад мавзолея с западной стороны. За этой дорогой расположена улица Хамида Олимджона города Бухары. Во времена бывшего Союза на месте домов 15, 17, 19 этой улицы находилось место мавзолейного омовения [20].

Северную часть кладбища в 2017 году сравняли с землей, сейчас строится трехэтажный детский сад. Сегодня сохранился только мавзолей, а вместо большого кладбища построены жилые кварталы [20].

Гузары продолжали формироваться и в позднем средневековье. Кази Нуриддин, Имам Кази Хан, Каракамол, Мир Тахури деван и другие гузары расположены вдоль крепостной стены между воротами Карши, Мазара и Самарканда [16,-С.140-143].

Между воротами Имама и Оглана на северо-западной стороне города образовались такие жилые районы, как Хосса Полад, Назарча, Кофар-Рабад, Ходжа Курбан, Кази Мир Хашим, Аскариби [16,- С.140-143].

На западной стороне города Бухары, возле ворот Талипоч, находится мавзолей Саманидов, могила имамов Саффари в районе ворот Оглан, могила Гунджора аль-Хафиза в районе ворот Шергирон, могила Чашмая Айюба, могила исмаилитских имамов на северной стороне Каракульских ворот, могила Ходжабора Ходжаса, была могила Солори Хаджа.

В этих районах образовались такие поселения, как Муддао, Хавзи Баланд, Ахмади Джам, Кабул-ота, Узбек Ходжа, Такия, Ахмад Додхо, Ходжа Гунджори, Калмохан, Чармарон, Дасторбандан, Джанафаран, Шахри Нав [16,- С.140-143].

Помимо формирования гузаров, в их наименовании есть аспекты, связанные со святым местом. В частности, их именами иногда назывались гузары, где жили и творили знаменитые шейхи, святые, пиры, эшаны и вали. Поэтому в исторических источниках немало случаев изменения названий гузаров. В некоторых случаях настоящее имя гузара сохранялось, и он назывался по имени жившего здесь известного лидера тариката. К примеру , в Бухаре в начале XX века строения Ходжа Булгор, Имам Кази Хан, Эшони Пир, Джафар Ходжа, Маулона Шариф, Махдуми Азам, Бабай Нонкаш, Ходжа Халим, Шейх Рангрез, Ходжа Авлиёи Гариб, Шейх Джалал , Хонахи Джойбор, такие гузары, как Халифа Худоидад, Эшони Имла, Зинда Фил Ахмади Джами, Чашмай Айюб, Подшахи Исмаил Самани, Шермухаммад Жувозкаш, Ходжа Калон, Шох Ахси, Турки Джанди были названы в честь представителей тариката, суфиев и святых [18,-С.1-2].

В заключение, вышеперечисленные могилы изначально представляли собой захоронения известных людей, суфиев, богословов, а позже их окрестности расширились за счет добавления новых кладбищ. Такой процесс можно объяснить глубоким проникновением религиозной веры в духовную и обыденную жизнь общества. Простой народ верил, что погребение усопших рядом со святыми является залогом страданий загробной жизни. Такие кладбища можно найти как внутри города, так и за его пределами. Вокруг захоронений постепенно стали возникать поселения. Общественная жизнь продолжалась, население увеличивалось, образовывались новые гузары, кварталы и округа. Поэтому святые места стали важной составляющей топографии города и повлияли на расширение его территории.

Литература/References/Adabiyotlar:

1. Аҳмад ибн Маҳмуд Бухорий. Муин ул-Фуқаро. 2019.Тарихи Муллозода дар зикри мазороти Бухоро / Сўз боши, форс тилидан таржима, изоҳлар муаллифлари К.Рахимов. – Тошкент: Фан.-216с.
2. Бартольд В.В. 1963. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. – Москва: Наука.-149 с.
3. Бартольд В.В. 1964.Улугбек и его время.Соч.,т. 2, ч.2. – Москва:Наука.-174с.
4. Бухарский государственный областной архив, ф. 837, оп. 1, д. 3, л.49.
5. Мирзааҳмедов Д.К. 1984. К изучению исторической топографии Бухары района мавзолея Саманидов // ИМКУ. Выпуск.– Ташкент:Фан.-230с.
6. Мирзо Салимбек. 2003. Кашкўли Салимий. Таворихи муттақадимин ва муттаахирин / Форс-тожик тилидан доцент Н.Йўлдошев ўгирган. – Бухоро : Бухоро.-342 с.
7. Муҳаммад Насириддин Ал-Ханафи Ал-Ҳасани Ал-Бухари. 2003.Туҳфат аз-заирин (Бухарская часть) / Перевод с таджикско-персидского, предисловие и комментарий Х.Тураева.–Ташкент:Французский институт исследований Центральной Азии (IFEAC).-50с.
8. Некрасова Е. Г. 2008. Некрополь Турки Джанди в Бухаре (материали по исторической, топографии, архитектуре и археологии) // Из истории культурного наследия Бухары.– Вып.11. –Бухара: Бухоро.-С.38-39
9. Рахимов Р.Р. 2009. Центральная Азия: Ислам у семейного очаго // Центральная Азия традиция в условиях перемен. –СПб.:МАЭ РА, Выпуск II.-С.5.

10. Рахматова С., Қурбонов Ҳ. 1995. Бухоро гузарлари тарихидан лавҳалар. – Бухоро: Бухоро.-95с.
11. Саййид Муҳаммад Носир ибн Музаффар. 2009.Таҳқиқоти Арки Бухоро / форс тилидан таржима, сўз боши, изоҳлар ва кўрсаткичлар Ғ.Каримовники.– Тошкент:Тафаккур.-153с.
12. Саиджонов Мусо. 2005.Бухоро шаҳри ва унинг эски бинолари / Перевод, предисловие, комментарии Х. Тураева.– Ташкент: Французский институт исследований Центральной Азии (IFEAC).-58с.
13. Садриддин Салим Бухорий. 2012.Бухоронинг табаррук зиёратгоҳлари. –Бухоро: Дурдона.-350с.
14. Сухарева О.А. 1966. Бухара XIX-начало XX в. (Позднефеодальный город и его население). – Москва: Наука.-332с.
15. Сухарева О.А. 1976. Квартальная община позднефеодального города Бухары. – Москва: Изд-во Наука главная редакция восточной литературы.-370с.
16. Тўраев Х. 2016. К исторической топографии Бухары // “XIX аср охири - XX аср бошларида Бухоро” мавзусидаги Республика илмий-назарий анжумани материаллари. – Бухоро.-С.140-143.
17. Национальный архив РУз, ф.И-323,оп.1, д. 23, л. 8.
18. Национальный архив РУз, ф.И-126, оп.1, д.73, л.1-2.
19. Ўзбекистон обидаларидаги битиклар. 2016. Бухоро (биринчи қисм). – Тошкент:Uzbekistan Today.
20. Buxoro shahrida yashovchi 56 yoshli Sobirov Sayfullo xotiralari. 2.10.2022.
21. Olimovna, J.N. (2020). Muqaddas ziyoratgohlar Buxoro shahri topografiyasining tarkibi sifatida. Imom Buxoriy saboqlari, 1(1). –C.40-41.
22. Olimovna, J.N. (2019). Buxoro shahri tarixiy topografiyasining shakllanishida muqaddas ziyoratgohlarning o‘rni. Xorazm Ma’mun Akademiyasi Axborotnomasi–3/2019. Pages. – C.41, 44.
23. Olimovna, J. N. (2019). Buxoro shahri tarixiy qiyofasining shakllanishida mozorlarning o ‘rni. BuxDU ilmiy axborotnomasi.-C. 239-243.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 4 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 March 2026
Accepted: 01 April 2026
Published: 15 April 2026

Article / Original Paper

THEORETICAL AND LEGAL BASIS OF TRAINING QUALIFIED PERSONNEL FOR THE WATER MANAGEMENT SECTOR AND ISSUES OF THEIR IMPROVEMENT

Safarov Akmal
Karshi State University
Senior doctoral student

Abstract. This study highlights the theoretical and legal foundations of training qualified personnel for the water management sector, as well as the issues of improving this system. Based on the economic, environmental, and social importance of the water management sector, the necessity of training specialists with modern knowledge, practical skills, and professional competencies for this field is substantiated. The research analyzes sector-related regulatory and legal documents, educational standards, qualification requirements, and issues of integrating education with practice. In addition, scientific conclusions are presented on improving the personnel training system through digital technologies, innovative approaches, and dual education.

Keywords: water management, qualified personnel, theoretical foundations, legal foundations, education system, professional competence, state educational standards, dual education, innovative approach.

SUV XO‘JALIGI SOHASI UCHUN MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Safarov Akmal
Qarshi davlat universiteti
Tayanch doktoranti
E-mail: akmal.safarov1996@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda suv xo‘jaligi sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlashning nazariy-huquqiy asoslari hamda ularni takomillashtirish masalalari yoritilgan. Suv xo‘jaligi tarmog‘ining iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ahamiyati asosida ushbu soha uchun zamonaviy bilim, amaliy ko‘nikma va kasbiy kompetensiyalarga ega mutaxassislarni tayyorlash zarurati asoslab berilgan. Tadqiqotda sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlar, ta’lim standartlari, malaka talablari hamda amaliyot bilan integratsiya masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, kadrlar tayyorlash tizimini raqamli texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar va dual ta’lim asosida takomillashtirish bo‘yicha ilmiy xulosalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: suv xo‘jaligi, malakali kadrlar, nazariy asoslar, huquqiy asoslar, ta’lim tizimi, kasbiy kompetensiya, davlat ta’lim standartlari, dual ta’lim, innovatsion yondashuv.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N07

Kirish. Bugungi kunda suv resurslaridan samarali foydalanish masalasi global muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligi rivojlangan davlatlarda suv xo‘jaligi tizimini takomillashtirish va uni ilmiy asosda boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi uchun ham suv resurslarini boshqarish, irrigatsiya tizimlarini

rivojlantirish hamda gidrotexnik inshootlarni samarali ishlatish masalalari strategik ahamiyatga ega.

Suv xo‘jaligi tizimining samarali faoliyat yuritishi, avvalo, ushbu sohada ishlaydigan malakali mutaxassislar tayyorlash bilan bevosita bog‘liqdir. Shu sababli suv xo‘jaligi sohasi kadrlari tayyorlashning nazariy va huquqiy asoslarini ishlab chiqish va takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi suv xo‘jaligi sohasi uchun kadrlar tayyorlashning nazariy tamoyillari, huquqiy asoslari hamda bu tizimni takomillashtirish yo‘llarini tahlil qilishdan iborat.

Suv xo‘jaligi tizimi qishloq xo‘jaligi, sanoat va ekologik barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston hududida qadimdan irrigatsiya sohasida ishlaydigan mutaxassislar tayyorlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy sharoitda suv resurslarini boshqarish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish, irrigatsiya tizimlarini modernizatsiya qilish uchun yuqori malakali muhandislar, gidrotexniklar va boshqaruv mutaxassislari zarur.

O‘zbekistonda dastlabki harakatlar “O’zbekiston SSR Vazirlar Mahkamasi huzurida ilmiy, muhandis va boshqaruv kadrlarini tayyorlash ishlarini muvofiqlashtiruvchi Komissiya tashkil etish to‘g‘risida”[1] gi VM Qarori qabul qilinishi bilan boshlandi. 1991-yilning 14-yanvarida qabul qilingan ushbu Qarorda O‘zSSR Fanlar akademiyasi, O‘zSSR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, O‘zSSR Xalq ta’limi vazirligi, O‘zSSR Sog‘liqni saqlash vazirligi, VASXNIL O‘rta Osiyo bo‘limi, o‘quv yurtlariga ega bo‘lgan boshqa vazirliklar, idoralar, Qoraqalpog‘iston MSSR Vazirlar Kengashi, viloyat ijroiya qo‘mitalari va Toshkent shahar ijroiya qo‘mitasi Komissiyaning tuzilmaviy bo‘linmalarini tuzilib, uning ishchi organi vazifalarini boshqaruv apparatining tegishli bo‘linmalariga yuklash belgilandi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1991-yil 27-maydagi 144-sonli “Qobiliyatli yoshlar va mutaxassislarni tanlash va tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, ilgari qabul qilingan ayrim normativ hujjatlarning kuchi bekor qilinganligini inobatga olinib, ilmiy, muhandis va boshqaruv kadrlarini tayyorlash tizimini takomillashtirish tizimi nazarda tutildi. Quyidagi tashkilot va idoralar Komissiyaning struktura bo‘linmalarini tashkil etishi hamda ularning ishchi organi vazifasini o‘z tarkibiy tuzilmalariga yuklashi ko‘rsatildi. O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi, O‘zbekiston SSR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, O‘zbekiston SSR Xalq ta’limi vazirligi, O‘zbekiston SSR Sog‘liqni saqlash vazirligi, VASXNIL O‘rta Osiyo bo‘limi, Qoraqalpog‘iston MSSR Vazirlar Kengashi, Viloyat ijroiya qo‘mitalari, Toshkent shahar ijroiya qo‘mitasi, boshqa tegishli vazirlik va idoralar[2] shular jumlasidandir.

Suv xo‘jaligi sohasida kadrlar tayyorlash tizimi ilmiy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar va zamonaviy texnologiyalar asosida shakllanishi kerak. Bu esa soha rivojlanishini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

Suv xo‘jaligi sohasi uchun mutaxassis tayyorlash jarayoni bir qator pedagogik tamoyillar asosida tashkil etiladi. Ulardan eng muhimlari ilmiylik, amaliyotga yo‘naltirilganlik va uzluksizlik tamoyillaridir.

Respublikada ta’limning huquqiy va ma’naviy bazasini yaratish maqsadida dastlab 1992-yil “Ta’lim to‘g‘risida”[3] gi Qonun qabul qilindi va ushbu qonun ta’lim sohasidagi davlat siyosatini umuminsoniy qadriyatlarni, xalqning tarixiy tajribasini, madaniy va fan bobidagi an’analarini, jamiyatning istiqboldagi rivojini amalga oshirish uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

Bu Qonun asosida irrigatsiya sohasini yo‘lga qo‘yish maqsadida 1992-yil 11-aprelda “O’rta Osiyo irrigatsiya ilmiy-tadqiqot institutining ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi haqida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining Qarori qabul qilindi[4].

Ilmiylik tamoyiliga ko‘ra, ta’lim jarayonida zamonaviy ilmiy yutuqlar va innovatsion texnologiyalardan foydalanish zarur. Bu talabalarning nazariy bilimlarini chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Amaliyotga yo‘naltirilganlik tamoyili esa nazariy bilimlarni ishlab chiqarish jarayonida qo‘llash imkonini beradi. Suv xo‘jaligi sohasi texnik va amaliy faoliyat bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli talabalar laboratoriya mashg‘ulotlari, amaliy darslar va ishlab chiqarish amaliyoti orqali o‘z bilimlarini mustahkamlashlari lozim[5].

Uzluksizlik tamoyili esa ta’lim jarayonining barcha bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Bu jarayon maktab, oliy ta’lim va malaka oshirish tizimi orqali amalga oshiriladi.

Suv xo‘jaligi sohasida professional kadrlarni shakllantirish zamonaviy ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biridir. Bunday yondashuvga ko‘ra, mutaxassis nafaqat nazariy bilimlarga ega bo‘lishi, balki amaliy faoliyatni samarali amalga oshira olishi ham zarur.

Respublika agrosanoat majmuasi uchun raqobatbardosh injener kadrlar tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish, qishloq xo‘jaligida ilg‘or xorijiy tajribaga mos keluvchi melioratsiya texnologiyalari va zamonaviy texnika vositalarini joriy etish, kadrlar tayyorlash hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatiga bozor mexanizmlarini tatbiq etish, shuningdek, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini chuqurlashtirish maqsad qilindi. Shu niyatda “Toshkent qishloq xo‘jaligini irrigatsiyalash va mexanizatsiyalash injenerlari institutida injener kadrlarni tayyorlashni takomillashtirish to‘g‘risida”gi[6] Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 5-fevraldagi 47-sonli qarori qabul qilindi. Unga ko‘ra Toshkent qishloq xo‘jaligini irrigatsiyalash va mexanizatsiyalash injenerlari instituti yagona o‘quv-ilmiy-ishlab chiqarish kompleksi sifatida bosh institut va Qarshi filialini o‘z ichiga olgan holda saqlab qolinadigan bo‘ldi. Fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi doirasida o‘quv-tajriba xo‘jaligiga ishlab chiqarilgan paxta tolasining 85 foizigacha bo‘lgan qismi davlat buyurtmasi sifatida belgilandi. Moliya va Melioratsiya vazirliklari har yili xarajatlarni rejalashtirayotganda, ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar hamda moddiy-texnika bazasini mustahkamlashni inobatga olib, o‘quv-tajriba xo‘jaligining ishlab chiqarish faoliyatidan olinadigan foydani xarajatlarning bir qismini qoplashi belgilab berildi.

TQXIMII viloyatda irrigatsiya va melioratsiya sohasi kadrlarini tayyorlab berish uchun xizmat qiladigan tayanch dargoh sifatida xizmat qilishda davom etdi.

Olib borilgan islohotlar xalq xo‘jaligini yaxshilashda yordam bergan bo‘lsa-da, ko‘zlangan natijani bermadi. 1996-yilda qishloq xo‘jaligida amalga oshirilgan keng ko‘lamdagi chora-tadbirlarda kamchiliklar mavjudligi yaqqol bilindi[7]. O‘tgan davr mobaynida tarixiy jarayonlar Xalq xo‘jaligini rivojlantirish eng avvalo, respublikada munosib mutaxassislar avlodini yaratish bilan kechishini ko‘rsatib qo‘ydi.

Mamlakatimizdagi kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish masalalari uchun “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonun asosiy huquqiy negiz sifatida boshqa huquqiy me’yorlarni qabul qilinishi uchun faol hujjat vazifasini o‘tadi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun o‘tgan davr mobaynida takomillashib, mukammallashib bordi. 1997-yilga kelib ushbu qonun yangi tahrirda qabul qilindi[8]. Ushbu Qonun dastlab qabul qilingan qonunning davomiyligi va rivojlanishi sifatida

ta’lim sohasini yanada demokratlashtirish, bozor iqtisodiyotiga moslashtirish va sifatini oshirishga qaratilgan o‘zgartishlardan iborat bo‘ldi. Oliy ta’lim ikki bosqichga ya’ni bakalavr va magistraturaga bo‘lindi. Davlat ta’lim standartining o‘zgarishi munosabati bilan mutaxassislar “Agroinjeneriya” ta’lim yo‘nalishi tarkibiga kiritildi va bir o‘quv reja bo‘yicha mutaxassislar chiqarila boshlandi[9]. Ta’lim sifatini oshirish, zamonaviylashtirish va xalqaro standartlarga moslashtirishga ko‘proq e’tibor qaratilib, ta’lim sifatini baholash va nazorat qilish tizimi yanada tizimli va kuchaytirildi. O’qituvchilar va pedagog xodimlarning ijtimoiy himoyasi, malakasini oshirish va professional rivojlanishi bo‘yicha aniq qoidalarni o‘z ichiga oldi. Shu ma’noda soha kadrlarini yetishtirish jarayoni umumiy tarzda ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar bilan birga kechdi.

Mustaqillikning ilk yillarida O‘zbekiston iqtisodiyotida va qishloq xo‘jaligi tizimida katta o‘zgarishlar yuz berdi. Fermerlik va dehqonchilik tizimlari shakllanayotgan bir paytda, irrigatsiya va melioratsiya sohasidagi kadrlar tayyorlashga doir tizimli yondashuvlarga jiddiy qaralmadi. Muhimi, ko‘proq yerni bo‘laklarga ajratish, yangi fermerlik munosabatlarini yo‘lga qo‘yish edi. Asosiy mablag‘lar yer islohoti va fermerlarni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirildi. Melioratsiya va irrigatsiya sohasidagi zamonaviy kadrlarni tayyorlash uchun moliyaviy resurslar yetarlicha ajratilmadi. Qishloq xo‘jaligida ko‘proq oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash ustuvor vazifa sifatida ko‘rildi, shu bois irrigatsiya va melioratsiya kadrlarining rivojlanishi nisbatan ikkinchi darajali muammoga tushib qoldi. 1998-yildagi qishloq xo‘jaligida amalga oshirilgan tadbirlar natijasi keyinchalik soha mutaxassislarining tajribasi, bilimi hamda ko‘nikmalarining sust ekanligini ko‘rsatib qo‘ydi. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”[10] gi 2004-yil 20-iyul 341-sonli hamda “O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazini faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”[11] gi VMning 2004-yil 20-iyul 343-sonli Qarorlari qabul qilindi.

2004-yilning 3-sentyabr sanasida 415-sonli Vazirlar Mahkamasining Qarori qabul qilindi[12]. Qarorda qishloq va suv xo‘jaligi sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish zarurligi ta’kidlanadi. Soha uchun malakali mutaxassislar yetishmasligi, eski va dolzarb bo‘lmagan mutaxassisliklarning davom etishi, shuningdek, professor-o‘qituvchilar malakasining zamonaviy talablar darajasida emasligi ko‘rsatib o‘tiladi. Bundan kelib chiqib qishloq va suv xo‘jaligi sohasidagi ta’lim yo‘nalishlari qisqartirilib, ularning o‘rniga zamonaviy talablar asosida yangi yo‘nalishlar, jumladan fermer xo‘jaligini boshqarish mutaxassisligi joriy etilishi belgilandi. Zamonaviy o‘quv rejalar ishlab chiqilib, o‘qituvchilar va talabalar malakasini oshirishga e’tibor qaratiladigan bo‘ldi. Tashkilotlar qayta tashkil qilinishi, masalan, Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti tashkil etilib, boshqa qishloq xo‘jaligi institutlari bilan integratsiya qilinadigan tizim joriy qilinishini nazarda tutdi. Ta’lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot markazlari tashkil etish va yoshlarni ilmiy ishlarga jalb qilish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rilishi belgilandi. O‘quv-texnika xo‘jaliklari va fermer xo‘jaliklari bilan yaqin hamkorlik o‘rnatilib, amaliy bilim berishga urg‘u berildi. Akademik litseylar tashkil qilinib, qishloq yoshlarini soha bo‘yicha ta’lim olishga jalb qilish yo‘lga qo‘yiladigan bo‘ldi. Qisqasi, qaror qishloq va suv xo‘jaligi sohasida kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, ta’lim tizimini zamonaviylashtirish va sohaga iqtidorli yoshlarni jalb etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni belgilab berdi[13].

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” gi qonuni, “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida” gi qonuni hamda boshqa huquqiy hujjatlar suv xo‘jaligi sohasida mutaxassis tayyorlashning huquqiy asosini tashkil etadi.

Davlat siyosati doirasida suv xo‘jaligi sohasini rivojlantirish, suv resurslaridan samarali foydalanish va malakali kadrlar tayyorlash masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Oliy ta’lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot institutlari va ishlab chiqarish korxonalari o‘rtasidagi hamkorlik ushbu jarayonning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda suv xo‘jaligi tizimida kadrlar tayyorlash jarayonida bir qator muammolar mavjud. Ular qatoriga ta’lim jarayonida amaliyotning yetarli emasligi, zamonaviy texnologiyalarni joriy etishdagi kamchiliklar hamda ilmiy tadqiqotlar bilan ishlab chiqarish o‘rtasidagi uzilishlarni kiritish mumkin.

Filialda akademik litsey bilan birgalikda zamonaviy o‘quv-laboratoriya, baza, telekommunikatsiya, masofaviy va interaktiv ta’lim vositalari orqali sifatli o‘qitish mexanizmi joriy etildi. Ta’lim, fan, ishlab chiqarish va innovatsiya tarmoqlari o‘rtasida integratsiyani mustahkamlash, ya’ni fundamental va amaliy tadqiqotlarni amaliyotga tatbiq etish jarayonlarini faollashtirishga erishildi. Tashkil etilgan oliy ta’lim muassasasi yangi zamonaviy binoda faoliyat boshladi[14].

Bugungi kunda O‘zbekistonda yillik foydalaniladigan suvning atigi 20 foizi mamlakat hududida shakllanadi, qolgan 80 foizi esa Tojikiston va Qirg‘izistondan oqib keluvchi daryolarga bog‘liq[15]. Mavjud muammolarni yechimi uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

- suv xo‘jaligi sohasida innovatsion ta’lim texnologiyalarini joriy etish
- oliy ta’lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari hamkorligini kuchaytirish
- zamonaviy laboratoriyalar va ilmiy markazlarni rivojlantirish
- xalqaro tajribani o‘rganish va joriy etish

Qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasi” suv xo‘jaligi sohasi uchun malakali mutaxassislar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi. Konsepsiyaning yettinchi bandida quyidagicha keltiriladi: “O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi Oliy va O‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda Moliya vazirligi bilan birgalikda 2020-yil 1-oktyabrga qadar taklif kiritsin[16]. Taklifda suv xo‘jaligi tizimidagi rahbar va mutaxassis xodimlarning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha Vazirlar Mahkamasiga uzluksiz malaka oshirish jarayonlarini tashkil etish shakllari, tartibi va bosqichlari, shuningdek, moliyalashtirish manbai aniq belgilansin. Suv xo‘jaligi rahbar xodimlarini uzluksiz ravishda malakasini oshirib borish va attestatsiyadan o‘tkazish, ularga muntazam ravishda kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirib borish imkoniyatini beruvchi uzluksiz malaka oshirish tizimini amaliyotga joriy etish mezonlari inobatga olinsin. Albatta bundan ko‘zlangan asosiy maqsad – bu sohaning barqarorligini ta’minlashga asos bo‘lib xizmat qilishida edi.

Suv xo‘jaligi sohasi uchun kadrlar tayyorlash davlat iqtisodiy rivojlanishining muhim omillaridan biridir. Mazkur sohada yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash suv resurslaridan samarali foydalanish, irrigatsiya tizimlarini modernizatsiya qilish hamda ekologik muammolarni hal qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Suv xo‘jaligi sohasi kadrlari tayyorlash tizimini takomillashtirish uchun ta’lim jarayonini zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish, normativ-huquqiy bazani mustahkamlash hamda ilmiy tadqiqotlar bilan ishlab chiqarish o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish zarur.

Suv xo‘jaligi sohasi mamlakat iqtisodiyoti, qishloq xo‘jaligi rivoji, ekologik barqarorlik va aholi farovonligini ta’minlashda strategik ahamiyatga ega muhim tarmoqlardan biri hisoblanadi. Ushbu sohaning samarali faoliyati, avvalo, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega, yuqori malakali, mas’uliyatli hamda raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash tizimining qay darajada yo‘lga qo‘yilganiga bevosita bog‘liq. Shu sababli suv xo‘jaligi uchun kadrlar tayyorlashning nazariy-huquqiy asoslarini o‘rganish va ularni takomillashtirish bugungi kunda dolzarb vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mazkur yo‘nalishdagi kadrlar tayyorlash tizimi muayyan normativ-huquqiy hujjatlar, davlat ta’lim standartlari va malaka talablariga tayangan holda shakllangan bo‘lsa-da, uni zamonaviy talablar darajasiga olib chiqish zarurati saqlanib qolmoqda. Xususan, ta’lim mazmunining ishlab chiqarish ehtiyojlari bilan yetarli darajada integratsiyalanmaganligi, amaliy mashg‘ulotlar ulushining kamligi, shuningdek, innovatsion texnologiyalar va raqamli boshqaruv vositalarining ta’lim jarayoniga to‘liq joriy etilmaganligi muammoli jihatlar sifatida e’tirof etiladi.

Umuman olganda, suv xo‘jaligi sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlashning mustahkam nazariy-huquqiy asoslarini yaratish va ularni izchil rivojlantirib borish suv resurslarini samarali boshqarish, ekologik muvozanatni ta’minlash hamda sohaga innovatsion yondashuvlarni keng joriy etishda muhim omil hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, mazkur sohada amalga oshiriladigan tizimli chora-tadbirlar kelgusida suv xo‘jaligi tarmog‘ining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 36-son.
2. 144-сон 27.05.1991. Iste’dodli yoshlar va mutaxassislarni namoyon qilish, tanlash va tarbiyalash ishlari olib borilishini kuchaytirish to‘g‘risida
3. 636-XII-сон 02.07.1992. Ta’lim to‘g‘risida
4. TIQXMMI milliy tadqiqot universiteti sayti//https://tiiame.uz
5. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. –Toshkent: O‘zbekiston, 1997. –B. 259.
6. Sultonov A.S., Xudoyberganov Z.Ya., Qo‘chqorova S.A. Suv xo‘jaligi iqtisodiyoti. –Toshkent: Sharq, 2007. –B. 106.
7. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. –Toshkent: O‘zbekiston, 1997. –B. 259.
8. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2004 й., 29-сон 1-бет.
9. Sattorov A.A., Qambarov O.O. Mustaqillikyillarida O‘zbekistonda irrigatsiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar // International Journal of Science and Technology, Volume – 2, Issue – 6, 2025. –P. 19-21.
10. Xudoyev I.J. Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalash. 2018 y. https://mhw.tiiame.uz/
11. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2004 й., 29-сон 2-бет.
12. Respublika qishloq va suv xo‘jaligi uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish to‘g‘risida
13. Jumaniyozov R. Qashqadaryoda irrigatsiya institutining filiali ochildi. \\ Institut matbuot xizmati.
14. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2004 й., 36-сон. 4-бет

15. Shadiyeva Sh.N., Roziqov A.A., Rahimova S.H. O‘zbekistonda suv tanqisligi muammosi va uning yechimlari. // pedagogs xalqaro ilmiy jurnal//69-jild, 1-son, 2024-yil, noyabr. –B. 123-127.
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6024-son Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. 2020-yil 11-iyuldan kuchga kirgan.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 4 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 March 2026
Accepted: 01 April 2026
Published: 15 April 2026

Article / Original Paper

IMPACT OF THE ACTIVITIES OF ENTERPRISES WITH FOREIGN INVESTMENT PARTICIPATION ON REGIONAL SOCIO-ECONOMIC LIFE (ON THE EXAMPLE OF JIZAKH REGION, 1991-2026)

Tursunova Mahliyo Sarvar qizi
Gulistan State Pedagogical Institute, basic doctoral student

Abstract. This scientific article analyzes the impact of enterprises with foreign investment participation on the socio-economic development of the Jizzakh region. Based on factual data, it examines the number of joint ventures established in the region during 1991–2026, their share in industrial production, their impact on employment, and their role in infrastructure development. In addition, the mechanisms for attracting foreign investment, their effectiveness, and existing challenges are analyzed on a scientific basis.

Keywords: foreign investment, joint ventures, regional development, Jizzakh region, industry, employment, economic growth, investment climate.

XORIJIY INVESTITSIYALAR ISHTIROKIDAGI KORXONALAR FAOLIYATINING HUDUDIY IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTGA TA’SIRI (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA, 1991- 2026 -YILLAR)

Tursunova Mahliyo Sarvar qizi
Guliston davlat pedagogika instituti, tayanch doktorant
E-mail: tursunovamahliyo03@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatining Jizzax viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta’siri tahlil qilinadi. 1991–2026-yillar oralig‘ida hududda tashkil etilgan qo‘shma korxonalar soni, ularning sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi, bandlikka ta’siri hamda infratuzilma rivojlanishidagi o‘rni faktik ma’lumotlar asosida yoritilgan. Shuningdek, xorijiy investitsiyalarni jalb etish mexanizmlari, ularning samaradorligi va mavjud muammolar ilmiy asosda tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: xorijiy investitsiya, qo‘shma korxonalar, hududiy rivojlanish, Jizzax viloyati, sanoat, bandlik, iqtisodiy o‘sish, investitsiya muhiti.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N08

Kirish. O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va hududlar rivojini jadallashtirishda xorijiy investitsiyalar muhim omilga aylandi. Ayniqsa, hududlarda tashkil etilgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar (XIIK) sanoat ishlab chiqarishini kengaytirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va eksport salohiyatini oshirishda muhim rol o‘ynadi [1].

Jizzax viloyati 1990-yillardan boshlab investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha faol hududlardan biri sifatida shakllandi. Viloyatda tashkil etilgan erkin iqtisodiy zonalar, xususan, “Jizzax” erkin iqtisodiy zonasi xorijiy investorlar uchun qulay sharoitlar yaratib berdi [2]. Natijada, hududda sanoat korxonalari soni sezilarli darajada oshdi.

Mazkur maqolaning maqsadi – Jizzax viloyatida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatining hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini faktik ma’lumotlar asosida tahlil qilishdan iborat.

Metodologiya. Tadqiqot jarayonida statistik tahlil, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv hamda iqtisodiy koʻrsatkichlarni dinamik tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Ma’lumotlar Oʻzbekiston Respublikasi Davlat statistika qoʻmitasi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda ilmiy nashrlar asosida yigʻildi [3].

Shuningdek, hududiy kesimda investitsiyalar hajmi, sanoat ishlab chiqarishi, eksport koʻrsatkichlari va bandlik darajasi oʻzgarishlari tahlil qilindi. 1991–2026-yillar oraligʻida statistik ma’lumotlar asosida vaqt qatori tahlili amalga oshirildi.

Natijalar. Tahlillar shuni koʻrsatadiki, 1991-yilda Jizzax viloyatida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar soni juda kam boʻlib, ularning iqtisodiyotdagi ulushi sezilarli emas edi. 2000-yillarga kelib, investitsiya siyosatining takomillashuvi natijasida ularning soni oshib bordi [4].

2013-yilda “Jizzax” erkin iqtisodiy zonasi tashkil etilishi hududga toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalar oqimini sezilarli darajada oshirdi. 2020-yilga kelib viloyatda 200 dan ortiq xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyat yuritgan boʻlsa, 2025-yilga kelib ularning soni yanada ortgan [5].

Sanoat ishlab chiqarishida XIIK ulushi 2010-yildagi 15–20 foizdan 2024-yilda 40 foizdan oshganligi qayd etilgan [6]. Ayniqsa, elektrotexnika, qurilish materiallari, avtomobilsozlik va toʻqimachilik sohalarida xorijiy kapital asosiy drayverga aylandi.

Bandlikka ta’sir nuqtai nazaridan, ushbu korxonalar minglab yangi ish oʻrinlarini yaratdi. Masalan, faqat erkin iqtisodiy zona doirasida 30 mingdan ortiq ish oʻrni yaratilgan [7]

Tahlil va muhokama. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar (XIIK) faoliyatining hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta’siri koʻp qirrali va murakkab jarayon boʻlib, u iqtisodiy oʻsish, tarkibiy oʻzgarishlar, bandlik, texnologik modernizatsiya, eksport salohiyati, infratuzilma rivoji hamda institutsional islohotlar bilan chambarchas bogʻliqdir. Jizzax viloyati misolida olib borilgan tahlillar shuni koʻrsatadiki, xorijiy investitsiyalar hudud iqtisodiyotini transformatsiya qilishda muhim katalizator vazifasini bajargan.

Avvalo, iqtisodiy oʻsish dinamikasiga e’tibor qaratilsa, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar hududiy yalpi mahsulot (HYM) oʻsishiga sezilarli hissa qoʻshganligi kuzatiladi. 1990-yillarda Jizzax viloyati iqtisodiyoti asosan qishloq xoʻjaligiga tayanib kelgan boʻlsa, keyingi yillarda sanoat ulushi sezilarli darajada oshdi. Bu jarayon aynan xorijiy kapital jalb etilgan sanoat korxonalari faoliyati bilan bevosita bogʻliqdir [8]. Sanoat ishlab chiqarishining oʻsishi hudud iqtisodiy tarkibining diversifikatsiyalashuviga olib keldi, ya’ni iqtisodiyot bir yoqlama rivojlanishdan koʻp tarmoqli rivojlanishga oʻta boshladi.

Shu nuqtai nazardan, Jizzax viloyatida tashkil etilgan “Jizzax” erkin iqtisodiy zonasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu zona xorijiy investorlar uchun soliq va bojxona imtiyozlari, infratuzilma qulayliklari va soddalashtirilgan ma’muriy tartib-taomillarni taqdim etib, investitsiya oqimini sezilarli darajada oshirdi [2]. Natijada, hududda yangi sanoat klasterlari shakllandi va ishlab chiqarish hajmlari ortdi. Bu esa nafaqat viloyat, balki respublika miqyosida iqtisodiy oʻsishga ijobiy ta’sir koʻrsatdi.

Eksport salohiyatining oshishi ham xorijiy investitsiyalar faoliyatining muhim natijalaridan biridir. Tahlillar shuni koʻrsatadiki, xorijiy kapital asosida tashkil etilgan

korxonalar asosan eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ygan. Masalan, elektrotexnika mahsulotlari, maishiy texnika, to‘qimachilik mahsulotlari va qurilish materiallari eksporti yildan-yilga ortib bormoqda [9]. Bu esa hududning tashqi savdo balansini yaxshilashga, valyuta tushumlarini oshirishga va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Eksportning oshishi bilan bir qatorda, xorijiy investitsiyalar ishlab chiqarish sifatini xalqaro standartlarga moslashtirishga ham yordam berdi. Chunki xorijiy investorlar ko‘pincha yuqori texnologiyalar, ilg‘or boshqaruv tizimlari va sifat nazorati mexanizmlarini olib kiradi. Bu esa mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirib, ularni xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Texnologik modernizatsiya masalasi ham alohida tahlilni talab etadi. Jizzax viloyatida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan zamonaviy texnologiyalar joriy etilishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan birga, energiya va resurslardan samarali foydalanishni ta’minladi [10]. Masalan, avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish liniyalari, raqamli boshqaruv tizimlari va innovatsion texnologiyalar qo‘llanilishi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirib, mahsulot sifatini oshirdi.

Shu bilan birga, texnologik transfer jarayoni mahalliy kadrlar salohiyatini oshirishga ham xizmat qildi. Xorijiy korxonalarda ishlayotgan mutaxassislar zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lib, bu bilimlar keyinchalik boshqa mahalliy korxonalarga ham tarqaladi. Bu esa hududda inson kapitalining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bandlik masalasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar yangi ish o‘rinlari yaratishda muhim rol o‘ynagan. Jizzax viloyatida tashkil etilgan sanoat korxonalari minglab aholini ish bilan ta’minlagan bo‘lib, bu holat hududda ishsizlik darajasining kamayishiga olib kelgan [7]. Ayniqsa, yoshlar va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari uchun yangi imkoniyatlar yaratilgan.

Bandlikning oshishi o‘z navbatida aholi daromadlarining ortishiga, turmush darajasining yaxshilanishiga va ijtimoiy barqarorlikning mustahkamlanishiga xizmat qilgan. Bundan tashqari, ish bilan ta’minlangan aholi sonining ortishi ichki iste’mol bozorining kengayishiga ham olib kelgan, bu esa iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiruvchi qo‘shimcha omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Infratuzilma rivoji ham xorijiy investitsiyalar ta’sirining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Investitsiya loyihalari doirasida yangi yo‘llar, elektr tarmoqlari, suv ta’minoti tizimlari va logistika markazlari barpo etilgan. Bu esa nafaqat sanoat korxonalarining samarali faoliyat yuritishini ta’minlagan, balki butun hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

Logistika infratuzilmasining rivojlanishi ayniqsa muhim ahamiyatga ega. Chunki eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarish uchun transport va logistika tizimlarining rivojlangan bo‘lishi zarur. Jizzax viloyatida bu borada amalga oshirilgan islohotlar hududning tranzit salohiyatini oshirib, uni mintaqaviy savdo markazlaridan biriga aylantirishga xizmat qilmoqda.

Biroq, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyati bilan bog‘liq ayrim muammolar ham mavjud. Eng avvalo, investitsiyalarning hududlar bo‘yicha notekis taqsimlanishi masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Jizzax viloyatining ayrim tumanlarida investitsiya faolligi yuqori bo‘lsa, boshqa hududlarda bu ko‘rsatkich past darajada qolmoqda [11]. Bu esa hududlararo iqtisodiy tafovutlarning saqlanib qolishiga olib kelmoqda.

Bundan tashqari, ayrim xorijiy investitsiya loyihalarining samaradorligi kutilgan darajada emasligi ham kuzatilmoqda. Bu holat asosan loyiha tanlashdagi kamchiliklar, boshqaruvdagi muammolar yoki bozor sharoitlarining noto‘g‘ri baholanishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shu sababli, investitsiya loyihalarini tanlash va baholash jarayonini takomillashtirish zarur.

Mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan integratsiyaning yetarli darajada emasligi ham muhim muammolardan biridir. Ko‘plab xorijiy korxonalar o‘z ehtiyojlari uchun xomashyo va butlovchi qismlarni import qiladi, bu esa mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun imkoniyatlarni cheklaydi. Agar mahalliy korxonalar bilan kooperatsiya aloqalari rivojlantirilsa, ichki qo‘shilgan qiymat oshadi va iqtisodiy samaradorlik yanada ortadi.

Shuningdek, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning importga yuqori darajada bog‘liqligi tashqi iqtisodiy xatarlarni kuchaytiradi. Global bozorlardagi o‘zgarishlar, valyuta kurslarining tebranishi yoki logistika muammolari ishlab chiqarish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois, import o‘rnini bosuvchi ishlab chiqarishni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Institutsional jihatdan ham ayrim masalalar mavjud. Jumladan, investitsiya muhitini yanada yaxshilash, byurokratik to‘siqlarni kamaytirish va huquqiy kafolatlarni mustahkamlash zarur. So‘nggi yillarda bu borada sezilarli islohotlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, amaliyotda ayrim muammolar saqlanib qolmoqda.

Umuman olganda, Jizzax viloyati misolida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar hududiy rivojlanishning muhim drayveri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ular iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, sanoatni rivojlantirish, eksportni oshirish va aholi farovonligini yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, mavjud muammolarni hal etish orqali ushbu jarayonning samaradorligini yanada oshirish mumkin.

Kelgusida xorijiy investitsiyalar siyosatini takomillashtirish, mahalliy va xorijiy korxonalar o‘rtasida kooperatsiyani kuchaytirish, innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash va hududlararo muvozanatni ta’minlash orqali Jizzax viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini yanada jadallashtirish mumkin.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar Jizzax viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim o‘rin egallagan. Ular sanoat ishlab chiqarishini kengaytirish, eksport salohiyatini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda infratuzilmani rivojlantirishga sezilarli hissa qo‘shgan.

Kelgusida xorijiy investitsiyalardan foydalanish samaradorligini yanada oshirish maqsadida bir qator ustuvor yo‘nalishlarga e’tibor qaratish zarur. Jumladan, mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan kooperatsiya aloqalarini mustahkamlash, yuqori texnologiyali loyihalarni jalb etish, hududlar o‘rtasidagi investitsion nomutanosiblikni kamaytirish hamda eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur chora-tadbirlar amalga oshirilishi natijasida xorijiy investitsiyalar hududlarning barqaror rivojlanishini ta’minlovchi asosiy omillardan biriga aylanishi mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. “Hududlar bo‘yicha investitsiyalar statistikasi”. – Toshkent, 2023. – 45-bet.
2. Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyati hisobotlari”. – Toshkent, 2022. – 28-bet.

3. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. “Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar tahlili”. – Toshkent, 2024. – 62-bet.
4. UNDP Uzbekistan. “Investment Climate in Regions”. – Tashkent, 2021. – 34-bet.
5. Jizzax viloyati hokimligi. “Hududiy rivojlanish hisobotlari”. – Jizzax, 2025. – 19-bet.
6. World Bank. “Uzbekistan Economic Update”. – Washington, 2023. – 51-bet.
7. Asian Development Bank. “Regional Development Projects in Uzbekistan”. – Manila, 2022. – 73-bet.
8. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. “Sanoat ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari”. – Toshkent, 2024. – 88-bet.
9. ITC Trade Map. “Uzbekistan Export Data”. – Geneva, 2023. – 40-bet.
10. OECD. “Investment Policy Review: Uzbekistan”. – Paris, 2021. – 67-bet.
11. IMF. “Republic of Uzbekistan: Staff Report”. – Washington, 2022. – 55-bet.
12. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. “Investitsiyalar va iqtisodiy o‘sish tahlili”. – Toshkent, 2024. – 36-bet.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 4 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 March 2026
Accepted: 01 April 2026
Published: 15 April 2026

Article / Original Paper

OPPORTUNITIES AND RESTRICTIONS FOR WOMEN'S ACCESS TO HIGHER EDUCATION IN THE EARLY YEARS OF THE SOVIET PERIOD IN SAMARKAND REGION

Mardiyeva Guzal Karimovna
Samarkand State Medical University Phd, assistant

Abstract. This article presents a comparative study on the scientific aspects of opportunities for women to access higher education in the Samarkand region and the factors that hindered them during the second half of the 20th century. The study highlights Soviet policies in the early years aimed at involving women in social life, campaigns to eliminate illiteracy, and changes in the admission system of higher education institutions. At the same time, it examines how traditional social norms, patriarchal environments, economic difficulties, and cultural stereotypes limited women's opportunities to receive an education.

Keywords: higher education, pedagogical academy, institute, teacher training course, local nationality.

SAMARQAND VILOYATIDA SOVET DAVRINING DASTLABKI YILLARIDA XOTIN-QIZLARNING OLIY TA'LIMGA KIRISH IMKONIYATLARI VA CHEKLOVLAR

Mardiyeva Guzal Karimovna
Samarqand davlat tibbiyot universiteti Phd, assistant
Email: mardievaguzal54@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada XX asrning ikkinchi choragida Samarqand viloyatida xotin-qizlar uchun oliy ta'limga kirish imkoniyatlari va ularga to'sqinlik qilgan omillarning ilmiy jihatlariga tobe qiyosiy tadqiqot o'tkaziladi. Mazkur tadqiqotda sovet davrining ilk bosqichlarida ayollarni ijtimoiy hayotga jalb qilish siyosatlari, savodsizlikni tugatish kampaniyalari, oliy ta'lim muassasalarga qabul qilish tizimida o'zgarishlar yoritiladi. Buning bilan birga, an'anaviy ijtimoiy qiyoslar, patriarxal muhit, iqtisodiy qiyinchiliklar, madaniy stereotiplar xotin-qizlar ta'lim olish imkoniyatlari cheklanganligi asoslar beriladi.

Kalit so'zlar: Oliy ta'lim, pedagogika akademiyasi, institut, o'qituvchilik kursi, mahalliy millat.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N09

Sovet hukmronligining dastlabki yillarida Samarqand viloyatida xotin-qizlar ta'limiga jalb qilish masalasi umumittifoq siyosatning muhim tarkibiy qismi sifatida shakllandi. Sho'ro hokimiyatining birinchi yillarida kadrlar tayyorlash tizimi tez-tez o'zgartirib borilganligi, avvalo, iqtisodiy va siyosiy ehtiyojlardan kelib chiqqanligi sabablaridan biri xotin-qizlar ta'limiga jalb qilishga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Davlat arzon va tez tayyorlanadigan mutaxassis kadrlarga ehtiyoj sezganligi sabablaridan biri ta'lim tizimi ko'proq qisqa muddatli va amaliy yo'nalishga ega shakllarning rivojlanishiga asos sifatida qabul qilingandi.

Mazkur jarayon xotin-qizlar rahbar xodimlar va mutaxassislar sifatida tayyorlashga alohida e'tibor qaratilganligi sabablaridan biri, mazkur siyosat ko'proq pragmatik xarakterga ega edi. Ya'ni, xotin-qizlar ta'limiga jalb qilishdan ko'ra, xotin-qizlar tezkor tarzda ishlab

chiqarish va ijtimoiy sohalarga moslashni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilandi. Shu bois hunar maktablari, qisqa muddatli kurslar va pedagogik texnikumlarning xotin-qizlar ta’limiga jalb qilish asosiy shakllarning rivojlanishiga olib keldi. Ammo mazkur jarayon ta’lim tizimiga o‘tish imkoniyatlarini ma’lum darajaga cheklanishiga sabab bo‘lgan[1]. Jumladan, XX asrning 20-30-yillarida Samarqand viloyatida xotin-qizlarning ta’lim tizimiga jalb etilish jarayoni bosqichma-bosqich va ehtiyojga muvofiq holda shakllanganligini anglatadi. Xususan, Samarqand viloyatida xotin-qizlarga o‘qituvchilik kursi tashkil etilishi XX asrning 20-30-yillarida xotin-qizlarni ta’lim tizimiga jalb etish jarayoni boshlanib ketgani va xotin-qiz ta’limi sohasi xususida ta’lim siyosatini yo‘lga qo‘yish dastlabki bosqichi sifatida tarixiy hukumat faolligini ta’kidlaydi. Shuning uchun dastlabki kurslarni tugatgan xotin-qizlarning (15 nafar) kamligi xotin-qiz ta’limi sohasida jalb etilish jarayoni boshlanib ketgani va dastlabki bosqichi keskin e’tiborga molikligini anglatadi. Biroq keyingi yillarda xususan, 1932-1933 o‘quv yiliga kelib tinglovchilar soni 146 nafarga yetgani ta’lim siyosatini olib borish jarayoni ma’lum darajaga yetti va xotin-qiz ta’limi sohasida jalb etilish jarayoni boshlanib ketgani e’tiborga molikligini anglatadi[2]. Xususan, Samarqandning eski shahar qismida musulmon xotin-qiz o‘qituvchilarni tayyorlash uchun ikki yillik kurs ochish rejasini ishlab chiqish XX asrning 20-30-yillarida ta’lim siyosatida mahalliy ijtimoiy-madaniy xususiyatlarni muvofiq darajaga moslashtirish jarayoni boshlanib ketgani e’tiborga molikligini anglatadi.

XX asrning 30-yillarida Samarqand viloyati hamda umuman respublika miqyosida xotin-qizlarni ta’lim tizimiga jalb etish siyosati murakkab va ziddiyatli xarakterga ega bo‘lganini ko‘rsatadi. 1936-yilda 18 turdagi kurslarda atigi 222 nafar ayolning qamrab olingani, shundan 82 nafari mahalliy millat vakillari bo‘lgani bu jarayon hali keng ko‘lamga chiqmaganini anglatadi[3]. Eng muhim jihat shundaki, aynan shu yilgi rejalarda ayollar kadrlarini maxsus tayyorlash va qayta tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmagani davlat siyosatida gender masalasining ikkilamchi darajada qolib ketganini ko‘rsatadi.

Biroq 1937-yilga kelib vaziyatda keskin o‘zgarish kuzatiladi: kurslar soni 31 taga yetkazilib, 9845 nafar ayolni qamrab olish rejalashtiriladi. Amalda esa 7392 nafar ayol jalb qilingan bo‘lib, bu rejaning taxminan 75 foiz darajada bajarilganini bildiradi. Shu bilan birga, jalb etilganlarning 6761 nafari mahalliy millat vakillari ekanligi milliy kadrlarni shakllantirish siyosati ustuvor ahamiyat kasb etganini ko‘rsatadi. Bu holat, ayniqsa, mahalliy ayollarni ijtimoiy-iqtisodiy hayotga faolroq jalb etish orqali sovet modernizatsiya loyihasini chuqurlashtirishga qaratilgan edi.

Kolxozlar uchun o‘qituvchilar tayyorlash rejasida 8400 nafar ayolni qamrab olish ko‘zda tutilgan bo‘lsa-da, amalda 6100 nafarning jalb qilinishi reja va real natijalar o‘rtasida sezilarli tafovut mavjudligini ko‘rsatadi. Bu tafovutni bir necha omillar bilan izohlash mumkin:

-infratuzilma va ta’lim resurslarining yetishmasligi;

-ayollarning ijtimoiy cheklovlari (an’anaviy qarashlar, oilaviy bosim);

-iqtisodiy sharoitlar va mehnatga jalb etilish zarurati.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, ushbu kurslar tizimi xotin-qizlarning ta’limga kirish imkoniyatlarini kengaytirgan bo‘lsa-da, ularning oliy ta’lim tizimiga o‘tishida uzluksizlikni ta’minlay olmagan. Ya’ni, kurslar asosan qisqa muddatli va amaliy yo‘nalishga ega bo‘lib, ayollarni tezkor ravishda ishlab chiqarish va qishloq xo‘jaligi tizimiga jalb etishga xizmat qilgan. Natijada, 1930-yillarda xotin-qizlar ta’limi siyosati ikki tomonlama xarakter kasb etganini ko‘rish mumkin: bir tomondan, son jihatdan kengayish va mahalliy ayollarni jalb qilish bo‘yicha

sezilarli o‘sish kuzatiladi; ikkinchi tomondan esa, sifat va uzluksizlik (xususan, oliy ta’limga o‘tish imkoniyati) masalalari yetarli darajada hal etilmagan. Bu esa Samarqand viloyatida xotin-qizlarning oliy ta’limga kirish imkoniyatlari nisbatan cheklanganligicha qolganini ilmiy asosda tasdiqlaydi.

Agar avval avvalgi davrda ayollar ta’limi qisqa muddatli kurslar va amaliy tayyorgarlik bilan cheklangan bo‘lsa, endilikda ularni oliy ta’lim tizimiga yo‘naltirish siyosati shakllana boshladi. Buning uchun sovet modernizatsiya siyosati tarkibidagi bu holat hammasi jamiyatda ayollarning ijtimoiy roli kengaytirishga qaratilgan edi. 1927-yilda Samarqandda Oliy Pedagogika Akademiyasining tashkil etilishi xotin-qizlar uchun oliy ta’lim imkoniyatlarini kengaytirishda muhim institutsional asos yaratildi[4]. Ushbu oliy o‘quv yurti nafaqat pedagog kadrlar tayyorlash markazi, balki mahalliy millat xotin-qizlarini ilm-fan sohasiga jalb etuvchi muhim ijtimoiy platforma vazifasini bajardi. Ayniqsa, institut ma’muriyati va partiya tashkilotining ayollarni o‘qishga jalb etishga qaratilgan maxsus siyosati bu jarayonni tezlashtirdi.

Xususan, 1927-yildan boshlab tashkil etilgan bir yillik tayyorlov kurslari alohida e’tiborga loyiqdir. Bu kurslar xotin-qizlarning oliy ta’limga kirishida mavjud bo‘lgan bilim va tayyorgarlikdagi tafovutni bartaraf etishga xizmat qilgan. Ya’ni, ular o‘ziga xos “ko‘prik mexanizmi” sifatida faoliyat yuritib, ayollarni o‘rta ta’limdan oliy ta’limga o‘tish jarayoniga moslashtirgan. Bu esa, o‘z navbatida, xotin-qizlarning oliy ta’lim tizimiga kirish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirgan muhim omil sifatida baholanadi. 1931-yilda yesa Pedagogika akademiyasini 16 nafar ayol muvaffaqiyatli bitirib chiqdi[5].

SSSR MIK ning 1932-yil 19-sentyabrdagi qarori, VKP (b) MK ning “Oliy maktablar va texnikumlar to’g’risida” gi qarori hamda O‘zbekiston SSR MIK va Xalq Komissarlari Sovetining 1933-yil 20-yanvardagi qaroriga muvofiq Samarqand shahrida Akmal Ikromov nomidagi O’zbekiston Davlat pedagogika akademiyasi va Tibbiyot instituti negizida O’zbekiston Davlat universiteti tashkil qilinadi.[6]

O‘zbekiston Davlat universitetining birinchi bitiruvchisi (179 nafar yosh mutaxassis) 1935-yilda bo‘lib, shundan 60 nafari ayollardir. Bitiruvchilar orasida 15 millat vakillari bor edi; 92 (52%) mahalliy millat vakillari. 106 nafar shifokor, 10 nafar tarixchi, 15 nafar iqtisodchi, 12 nafar kimyogar, 24 nafar fizik-matematik, sakkiz nafar adabiyotshunos, to‘rt nafar tilshunos diplom oldi. 1936-yil universitetga 54 nafar xotin-qizlarni o‘qishga qabul qildi.[7] Bu holat shuni ko‘rsatadiki, 1930-yillarda O‘zbekiston oliy ta’lim tizimi yangi bosqichga o‘tayotganligini va jamiyatda zamonaviy bilimga ega mutaxassislar qatlamini shakllantirish jarayoni boshlanganligini ma’lum qiladi. Ayniqsa, xotin-qizlar oliy ta’limga jalb etilishi jamiyatda gender tenglik tamoyillari asta-sekin qaror topayotganligini ma’lum qiladi.

O‘n yildan so‘ng professor-o‘qituvchilar tarkibi 13 barobardan ortiqqa o‘sdi. Agar 1927-yilda universitetda bor-yo‘g‘i 10 nafar o‘qituvchi bo‘lsa, 1937-yilda 131 nafar, jumladan, 19 nafar professor, 39 nafar dotsent, 64 nafar assistent, 9 nafar o‘qituvchi faoliyat ko‘rsatgan. Jami professor-o‘qituvchilardan 19 nafari ayollar edi. Ushbu davrda xotin-qiz kadrlar tayyorlashga katta e’tibor qaratildi. Faqat 1938-1940-yillarda. Samarqand universitetida 1059 nafar xotin-qiz tahsil oldi, ularning salmoqli qismini mahalliy millat vakillari tashkil etdi. Ular universitetni muvaffaqiyatli tamomlab, jamoat ishlarda o‘zlarini yaxshi ko‘rsata boshladilar.

Samarqand shahridagi ko‘zga ko‘ringan oliy o‘quv yurtlaridan yana biri O‘zbekiston Meditsina instituti 1930-yil oktyabr oyidan o‘z faoliyatini boshlaydi. 1931-yilda institutda 400 talaba o‘qigan bo‘lib, ulardan 60% yevropaliklar, 40% mahalliy millat vakillari edi.[8] 1930-yilda O‘zbekiston Meditsina institutiga 122 nafar talaba qabul qilinadi. Ularning 34 nafari mahalliy millat vakillari yedi. Ularning orasida 3 nafar (Mariyam Jalolova, Kashifa Ibrohimova, O‘ktam Vahobova) xotin-qiz talaba bor edi.[9]

Kuybishev nomidagi qishloq xo‘jalik institutining birinchi bitiruvchilari orasidan 16 nafar qizlar bor edi. Institutning birinchi bitiruvchilardan biri A.M.Arzumanova institutda o‘qituvchilik uchun qoldirildi. A.M.Arzumanova keyinchalik yirik olima bo‘lib etishdi. U Leningraddagi Butunittifoq O‘simlikshunoslik institutining olimasi bo‘ldi[11]. Xotin-qizlarning o‘rta maxsus va oliy ta’lim tizimini rivojlantirishdagi roli ham sezilarli ahamiyat kasb etdi. Nisbatan qisqa vaqt ichida o‘zbek ayollari orasidan yirik mutaxassislar, ilm-fan namoyandalari va davlat arboblari yetishib chiqdi. Ular erkaklar bilan teng ravishda jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy hamda siyosiy hayotida faol ishtirok eta boshladilar

Shunday qilib, ushbu davrda xotin-qizlarni o‘rta va oliy ta’lim tizimiga jalb etish borasida ham sezilarli yutuqlarga erishildi. Shunga qaramay, amalga oshirilgan chora-tadbirlarga qaramay, bu yillarda xotin-qizlarni sovet ta’lim tizimiga keng qamrab olishda ayrim qiyinchiliklar mavjud edi. O‘zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi Prezidiumi xotin-qizlarni ta’limga jalb qilishning dastlabki yillardagi amaliy tajribasini tahlil qilib, shuni ta’kidladi: xotin-qizlar ta’limining rivojlanish sur’ati umumiy ko‘rsatkichlardan orqada qolganligi, shu sababli, O‘zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi Prezidiumi xotin-qizlar ta’limini yanada rivojlantirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni belgilab berdi:[10]

-O‘zbekiston Xalq Maorif Komissarligi tomonidan tuziladigan besh yillik umumiy ta’lim dasturida byudjet mablag‘larini hisobga olgan holda, kelajakda ayniqsa quyi bo‘g‘inlarda ayollar maktablari tarmog‘ini kengaytirish, shuningdek, aholi orasida mahalliy millat qizlarini, xususan, umumiy ta’lim maktablariga jalb etishni tizimli ravishda rivojlantirish, va butun dunyo miqyosida amalga oshirilayotgan ta’lim jarayonida ayollarni yosh avlod bilan qamrab olish darajasi ortiqcha orqada qolmasligi uchun tarbiyaviy ishlarni kengaytirish;

-O‘smirlarning birgalikda o‘qishiga to‘sqinlik qiluvchi diniy va oilaviy qarashlarni inobatga olgan holda, eski shahar va qishloqlarda o‘smir qizlar uchun alohida maktablar tashkil etish masalasini ko‘rib chiqish;

-Bundan tashqari, dehqon yoshlari uchun qishloq xo‘jaligi va hunarmandchilikka qiziqqan qizlar uchun maxsus maktablar tashkil etish, ayollar mehnatining ahamiyatini oshirish;

-xotin-qizlar maktablari va ta’lim muassasalarida pedagog kadrlarning yetishmasligi sababli, kelajakda ayniqsa quyi bo‘g‘inlarda ayollar maktablari tarmog‘ini kengaytirish va mahalliy organlar tomonidan o‘qituvchilar tayyorlashga alohida e’tibor qaratish zaruriyati;

-Mahalliy millatga mansub ayollarni maxsus xotin-qizlar ta’lim muassasalarida ta’lim olish orqali kasb-hunar sohasiga jalb qilish darajasi yetarli emasligi sababli, kelajakda kasb-hunar ta’limi muassasalari tarmog‘ini sezilarli darajada kengaytirish va ularni umumiy kasb-hunar muassasalariga imkon qadar keng jalb etish bo‘yicha barcha chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim vazifa sifatida belgilandi.

Xulosa. XX asrning ikkinchi choragida Samarqand viloyatida xotin-qizlar ta’limi Sovet siyosati va iqtisodiy ehtiyojlar ta’sirida bosqichma-bosqich rivojlandi. Ta’lim dastlab pragmatik

va qisqa muddatli kurslarga asoslangan bo‘lsa-da, keyinchalik oliy ta’lim tizimiga yo‘naltirish siyosati shakllandi, mahalliy millat vakillari soni ortdi, va gender tengligini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, ta’lim sifatini va uzluksizligini oshirish masalalari hali ham dolzarb bo‘lib qoldi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O‘z MA, R-94-fond, 5-ro‘yxat, 766-ish, 4-varaq.
2. Nishonboyeva Q.V., O‘zbekistonda xotin-qizlar masalasini hal etishni madaniy jihatlari (20-30).t.f.n. diss.1998. 120-bet.
3. O‘z MA, R-94-fond, 5-ro‘yxat, 3048-ish, 16-varaq.
4. Самаркндский государственный университет. Краткий историеский очерк (1927-1987). Ташкент, 1990.-С.12
5. Абаева Т.Ю. Роль УзГУ в подготовке кадров из женшин узбечок // Труды СамГУ. Новая серия. Выпуск 69. – Самарқанд, 1958. – С. 118.
6. Samarqand VDA, 637-fond, 1-ro‘yxat, 4-ish, 3-varaq.
7. O‘zR MDA.94-fond, 5-ro‘yxat, 1769-ish, 9-varaq.
8. O‘zR MDA.94-f., 5-ro‘yxat, 495-ish, Betlar 344-352.
9. Қизил Ўзбекистон. 1930 йил 9 октябрь.
10. Ленин йўли. 1931 йил, 4 декабрь.
11. Самарқанд қишлоқ хўжалик институти 70 ёшда. – Самарканд, 1999. – Б.15

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 4 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 March 2026
Accepted: 01 April 2026
Published: 15 April 2026

Article / Original Paper

STRATEGIC REFORMS IN BUILDING A NEW UZBEKISTAN: THE HARMONY OF DEVELOPMENT AND SPIRITUAL ELEVATION

Kenjayev Elyor
Independent researcher,
Navoi State University

Abstract. Scientific justification of the compatibility of strategic reforms being implemented in the process of building a new Uzbekistan with spiritual and educational upliftment. Clarification of the interrelationship of the concepts of development and spirituality. Assessment of the role of spiritual upliftment in the development of society. Analysis of the compatibility of strategic reforms and spirituality.

Keywords: New Uzbekistan, strategy, development, reform, spiritual and enlightened policy, spiritual upliftment, spiritual harmony, "Third Renaissance", "Uzbekistan-2030", spiritual development, enlightened society

YANGI O‘ZBEKISTONNI BARPO ETISHDA STRATEGIK ISLOHOTLAR: TARAQQIYOT VA MA’NAVIY YUKSALISH UYG‘UNLIGI

Kenjayev Elyor Sattorovich
mustaqil tadqiqotchi, Navoiy davlat unversiteti

Annotatsiya. Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida amalga oshirilayotgan strategik islohotlarning ma’naviy-ma’rifiy yuksalish bilan o‘zaro uyg‘unligini ilmiy asoslash.Taraqqiyot va ma’naviyat tushunchalarining o‘zaro bog‘liqligini yoritish. Ma’naviy yuksalishning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini baholash. Strategik islohotlar va ma’naviyat uyg‘unligini tahlil qilishdan iborat.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, strategiya, taraqqiyot, islohot, ma’naviy-ma’rifiy siyosat, ma’naviy yuksalish, ma’naviy uyg‘unlik, “Uchinchi Renessans”, ”O‘zbekiston-2030”, ma’naviy taraqqiyot, ma’rifatli jamiyat.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N10

Kirish. “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi nafaqat iqtisodiy yoki siyosiy islohotlarni, balki jamiyatning ma’naviy va madaniy yuksalishini ham o‘z ichiga oladi. Zero, barqaror taraqqiyot faqat iqtisodiy o‘sish bilan emas, balki insonning ma’naviy kamoloti bilan ham belgilanadi. Hurmatli Prezidentimiz, Sh.Mirziyoyevning — “Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi – ma’naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishda ana shu ikkita mustahkam ustunga, ya’ni bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyatga tayanamiz”[8], – deb qat’iy ta’kidlaganlari nuqtai nazardan, mamlakatda amalga oshirilayotgan strategik islohotlar va ma’naviy-ma’rifiy ishlar o‘zaro uyg‘unlikda olib borilmoqda. Biz bilamizki, strategiya - bu uzoq muddatli maqsad yoki natijaga erishish uchun ishlab chiqiladigan, umumiy yo‘nalish va harakatlar tizimini belgilab beradigan reja yoki dasturdir. Ya’ni, strategiyada: ustuvor yo‘nalishlar va asosiy maqsadlar aniqlanadi, ularga erishish uchun resurslar, muddatlar, vositalar belgilanadi.

2017-2025-yillar oralig‘ida qabul qilingan uchta strategiya bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ular o‘zaro izchillik asosida rivojlantirib kelinmoqda. Harakatlar strategiyasi orqali barcha sohalarda boshlangan tub islohotlar, ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishda ham yangiliklar va o‘zgarishlar bilan uyg‘un holda olib borilgan bo‘lsa, Taraqqiyot strategiyasi orqali ma’naviy-ma’rifiy sohani qo‘llab-quvvatlash islohotlari yanada chuqurlashtirildi, “O‘zbekiston-2030” strategiyasi orqali esa, yanada yuqori marralar belgilandi. Ushbu strategiyalar ijrosi orqali, hayotimizda inson qadri yuksalayotganligi va yurtimiz yoshlarining Uchinchi Renessansning bunyodkorlari sifatida, aqliy va ijodiy namunalari orqali jahon maydonlarini zabt etayotganligida guvoh bo’lib turibmiz[2].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Prezident Sh.Mirziyoyevning shiddatli islohotchilik siyosati nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni balki ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishni ham yuksak bosqichga olib chiqdi. “Yangi O‘zbekiston orzusi”, “Uchinchi Renessans poydevorini yaratish” kabi nazariy, ilmiy-ma’naviy mo‘ljallar, bugungi kunga kelib real strategik maqsadlar ijrosiga aylandi. Davlatimiz rahbarining ushbu g‘oyalarni amalga oshirishda ma’naviyatning o‘rniga alohida baho berib, “Biz uchun ma’naviyat - insonlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, hurmat va e’tibor, xalq va davlat kelajagini birgalikda qurish yo‘lidagi ezgu intilishlar, ibratli fazilatlar majmuasidir.

Boshqacha aytganda, ma’naviyat – jamiyatdagi barcha siyosiy-ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir. Bu poydevor qancha kuchli bo‘lsa, xalq ham davlat ham shuncha kuchli bo‘ladi”,-deb ta’kidlaganlari bejizga emas[8].

Ana shu asosda, o‘tgan qisqa davrda mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni takomillashtirish maqsadida bir qator normativ va konseptual hujjatlar, strategiya va dasturlar qabul qilindi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli, “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston-2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-sonli “Mamlakat taraqqiyotining 2030 yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmonlari qabul qilindi[12].

Ushbu strategiyalarda belgilangan ma’naviy-ma’rifiy vazifalarni amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1 ta farmon va 5 ta qarorlari hamda 2 ta farmoyishlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 3 ta Qarori, 4 ta farmoyishi qabul qilindi. Shu asosda davlatning ma’naviy-ma’rifiy siyosatini tizimliligi va uzluksizligi yaratildi.

Shu ma’noda, 2017-yil 28-iyulda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi PQ-3160-son qarori qabul qilingach, Respublika Ma’naviyat targ‘iboti hamda Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazlari faoliyati umumlashtirilib, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4307-sonli va 2021-yil 26-martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 5040-sonli qarorlari – sohada faoliyat samaradorligini oshirish borasidagi navbatdagi muhim qadam bo‘ldi. Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2021-yil 3-iyundagi “Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi

huzurida Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 340-sonli va 2025-yil 3-martdagi “Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazining tuman (shahar) bo‘linmalari tizimidagi ma’naviyat va ma’rifat maskanlari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 138-sonli qarorlari sohani rivojlantirish uchun dasturulamal bo‘ldi[6].

Muhokama. Yangi O‘zbekiston g‘oyasi – bu adolatli jamiyat barpo etish, inson qadrini ulug‘lash va xalq manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan keng qamrovli konsepsiyadir. Unda “inson-jamiyat-davlat” tamoyili ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu g‘oyaning asosiy jihatlari: inson huquq va erkinliklarini ta’minlash, ochiq va shaffof davlat boshqaruvi, qonun ustuvorligi va fuqarolik institutlarini rivojlantirish Yangi O‘zbekiston g‘oyasi barcha sohalardagi kabi ma’naviy-ma’rifiy islohotlarning mafkuraviy asosi bo‘lib xizmat qilmoqda. Dastavval, Harakatlar va Taraqqiyot strategiyalarida ma’naviy-ma’rifiy islohotlarning quyidagi yo‘nalishlari belgilab olingan edi.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning yoshlarning zamonaviy bilimlari bilan uyg‘unlashtirish. Bunda yoshlarning yangicha fikrlash va ishlashini zamonaviy targ‘ibot texnologiyalari orqali ularga yetkazish.Uzluksiz ma’naviy tarbiyani bog‘cha yoshidan boshlab, oliy ta’limning yuqori bosqichgacha qamrab olish.Ma’naviy taraqqiyot strategiyasi hamda uni amalga oshirish dasturini qabul qilish. Bunda, ilm-fan, madaniyat va san’at, adabiyot va badiiy ijodiyot sohasi vakillariga doimiy e’tibor qaratish, ularni moddiy-ma’naviy jihatdan rag‘batlantirish, uy-joy sharoitlarini yaxshilash va qo‘llab-quvvatlashni davlat siyosatining muhim yo‘nalishi sifatida belgilashni o‘z ichiga oladi.

Ma’naviy-ma’rifiy sohaning barcha yo‘nalishlarida, jumladan mashhur allomalar, akademik teatr va muzeylarni yubiley sanalarini nishonlash, ko‘p jildlik adabiyot namoyondalarini badiiy to‘plamlarini nashr ettirish. Shuningdek, madaniyat muassasalari, teatr, muzey va kutubxonalarning moddiy-texnik bazasini yaxshilash dasturlarini qabul qilish va ijrosini ta’minlash.

2023-yil 22-dekabr kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Yig‘ilishda Prezidentimiz tomonidan ma’naviyat, ma’rifat, madaniyat va san’at sohalarida 9 ta yo‘nalishda tashabbuslar ilgari surildi[13].

Birinchidan, ma’naviyat va madaniyat sohasi uchun metodik asos bo‘lib xizmat qiladigan milliy g‘oyamizni rivojlantirish bo‘yicha alohida dasturiy hujjat ishlab chiqish belgilandi.

Ikkinchidan, madaniy-ma’rifiy sohadagi ishlarda hokimlarning mas’uliyati oshirilishi tuman va shaharlarda Ma’naviyat va ma’rifat maskanlari ishga tushirish vazifasi belgilandi.

Uchinchidan, teatr san’atini rivojlantirish bo‘yicha dastur ishlab chiqilishi, unda eng yaxshi pyesalar uchun ijodiy buyurtma berish, ijodiy va yordamchi xodimlarning chet el teatrlarida mahoratini oshirish, yosh rejissyorlarni qo‘llab-quvvatlash uchun Mannon Uyg‘ur nomidagi mukofot ta’sis etish kabilar nazarda tutildi.

To‘rtinchidan, aholining bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishda 837 ta madaniyat markazining faoliyatini rivojlantirish, har bir tumanda sahnali zal, kutubxona, kinozal va to‘garak xonalari bo‘lgan bittadan madaniyat markazi faoliyati yo‘lga qo‘yish belgilandi.

Beshinchidan, maqom va baxshichilik san’atini ilmiy asosda o‘rganish va rivojlantirish kuchaytirilishi, hozirgacha 120 ta maqom, baxshichilik dostonlari, xalq kuyi va qo‘shiqlari “oltin fond”ga yozib olinganligi, Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros institutini tashkil

etish, qadim musiqa asarlarini tadqiq qilish, mamlakatimiz fondlarida saqlanayotgan 3 mingdan ziyod doston, maqom va folklor asarlarini zamonaviy formatga o‘tkazish ko‘zda tutilganligi ta’kidlandi.

Oltinchidan, musiqa va raqs san’ati rivoji qo‘llab-quvvatlanadi. Jumladan, “Bahor” raqs ansambli ilgari Filarmoniya joylashgan mashhur san’at saroyida faoliyat yuritishi belgilandi. Toshkent davlat sirki binosida ta’mirlash ishlari olib borilishi belgilandi.

Yettinchidan, xalqaro maydonda o‘zbek madaniy diplomatiyasi kengaytiriladi. Nukusda esa “Orol madaniyati” xalqaro ilmiy anjumani o‘tkazilishi, Islom sivilizatsiyasi markazida Birinchi va Ikkinchi Renessans, davlatchilik tarixi va buyuk allomalar faoliyati bo‘yicha yangi ekspozitsiyalar bilan boyitilishi belgilandi. Fransiya bilan hamkorlikda Milliy restavratsiya markazi faoliyati yo‘lga qo‘yilib, Muqaddas kitob – Usmon Qur’oni sahifalari konservatsiya qilinishi ta’kidlandi.

Sakkizinchidan, kino sohasi rivojlantiriladi. Bu borada “Tirik tarix” seriyasida Vatanimizning shonli o‘tmishiga bag‘ishlangan filmlar yaratish dasturi davom ettirilishi, kinoni iqtisodiyot bilan uyg‘un rivojlantirish maqsadida Buxoro, Samarqand va Toshkent viloyatlarida “erkin iqtisodiy kinohududlar” barpo etish vazifasi qo‘yildi.

To‘qqizinchidan, tasviriy va amaliy san’at sohasini rivojlantirish bo‘yicha dastur qabul qilinishi jumladan, markaziy ko‘rgazmalar zali rekonstruksiya qilinishi va jihozlanishi belgilandi. Badiiy fond hududida zamonaviy galereya binosi quriladi hamda 40 ta ijodiy ustaxonadan iborat Yosh rassomlar markazi tashkil etiladi. Xattotlik va miniatyura san’ati ta’limini amaliyot bilan bog‘lash maqsadida milliy usulda qog‘oz tayyorlash ustaxonasi tashkil etilishi kabi tashabbuslar ilgari surildi.

Natijalar. Strategiyalar asosida iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy-ma’rifiy o‘zgarishlar va yangilanishlar natijalari, aholining turmush tarziga katta ta’sir ko‘rsatayotganligi, ushbu sohalarning maqsadi va mohiyatini belgilaydigan tizimli tadbirlar, amaliy va samarali ishlar uyg‘unlikda olib borilayotganligini alohida ta’kidlash lozim. Biz tahlil qiladigan sohada esa bu quyidagilar:

Birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Respublika Ma’naviyat kengashi raisi ekanligi belgilab qo‘yildi va bu ayni tizimda eng asosiy mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishning yaqqol natijasi bo‘ldi. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi Respublika ma’naviyat kengashining ishchi organi sifatida qayta tashkil etildi, uning faoliyat mezonlari va bu boradagi ustuvor vazifalari aniq - tiniq belgilandi. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini yanada oshirish, aholining intellektual salohiyati va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlashga doir chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi va bu bo‘yicha samarali faoliyat yuritilmoqda. Harakatdagi ijtimoiy iqtisodiy va siyosiy-huquqiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari, davlat dasturlarining mazmun va mohiyatini aholining keng qatlamlariga yetkazishga qaratilgan ma’rifiy targ‘ibot ishlari izchil davom etmoqda.

Ikkinchidan, mamlakatimiz miqyosida ma’naviy-ma’rifiy ishlarning ko‘lami va miqyosini kengaytirish, uning yangi va zamonaviy tizimini shakllantirish, ushbu tizimda faoliyat ko‘rsatayotgan soha xodimlari mehnatiga haq to‘lashning barqaror tizimini yo‘lga qo‘yish, muassasa va tashkilotlar ishini muvofiqlashtirish hamda samaradorlikni oshirishga qaratilgan ustuvor yo‘nalishlar belgilab olindi. Shuningdek, hududlarda amalga oshirilayotgan qiyofaviy yangilanishlarni o‘zidan yaxshi nom va o‘lmas meros qoldirgan adabiyot, san’at va

madaniyat namoyandalariga atab maktablar, xiyobonlar va ijod bog‘larini barpo etish ishlari amalga oshirildi.

Uchinchidan, jamiyatimizning barqaror rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan ichki tahdidlar el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik, oilaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga e’tiborsizlik kabi holatlarga barham berishga qaratilgan kompleks tadbirlar dasturi ishlab chiqildi va bu hayotga tatbiq etilmoqda. Mahallalarda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlash maqsadida, “Bir ziyoli – bir mahallaning ma’naviy homiysi”, “Har bir nuroniy – o‘n nafar yoshga mas’ul”, “Buyuk sarkardalarning jasorati va harbiy merosi”, “Besh muhim tashabbus – yoshlar qanoti” kabi tamoyillar asosida ma’naviy-ma’rifiy tashabbuslar tizimi yo‘lga quyildi.

To‘rtinchidan, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzurida Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti tashkil etildi. Institut qoshida “Ma’naviyat tarixi va nazariyasi”, “Ma’naviy tarbiya”, “Ma’naviy jarayonlar va texnologiyalar” kabi yo‘nalishlarda doktorlik dissertatsiyasi himoyasi uchun ixtisoslashgan kengash ish boshladi. Shuningdek, “Ma’naviyat va ijodni qo‘llab-quvvatlash maqsadli jamg‘armasi” tuzildi, Oyina.uz ma’naviy-ma’rifiy portali ochildi, “Ma’rifat” targ‘ibotchilar jamiyati faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha yangi elektron platforma ishga tushirildi, “Ma’naviyat fidoyisi” ko‘krak nishoni ta’sis etildi, Ma’naviyat va ma’rifat masalalariga oid turli mavzularda respublika va xalqaro anjumanlar o‘tkazish yo‘lga qo‘yildi, “Ma’naviyat marafoni” tashkil etilmoqda.

Beshinchidan, bugungi kunda mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy sohada davlat siyosatini amalga oshirish borasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlarini, Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilib borishni davom ettirish va Ma’naviy taraqqiyot strategiyasining uzoq yillik dasturni ishlab chiqib, amalga oshirish maqsad qilingan.

Mamlakatimizda 2023-yilda o‘tkazilgan siyosiy islohotlar, referendum va saylovlardagi yangi tashabbuslar va aholining yangi marralarga bo‘lgan talablaridan kelib chiqib hamda qudratli Yangi O‘zbekistonni barpo etish, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog‘lom, bilimli va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, kuchli iqtisodiyotga tayanadigan xavfsiz va barqaror davlatni yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi 158-sonli Farmoniga asosan “O‘zbekiston -2030 strategiyasi” dasturi qabul qilindi[15].

Ushbu strategik dasturni birinchi ustuvor maqsadlarning beshinchi yo‘nalishi bevosita **“Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha islohotlar”** deb nomlanib 7 ta ustuvor maqsadlarni belgiladi.

Jahonda yuz berayotgan global o‘zgarishlar, xalqaro bozorlardagi tebranishlar, sanoat va texnologiyalarning keskin rivojlanishi, energiya bozorlaridagi transformatsiya, global ta’minot zanjirlarining qayta shakllanishi O’zbekistondan ham yangi yondashuvlar asosida rivojlanish dasturlarini ishlab chiqishni talab etdi. shu maqsadda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi 21-sonli **“Mamlakat taraqqiyotining 2030 yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”** gi Farmoni qabul qilindi. Ushbu strategiya «maqsad — harakat — natija» zanjiriga asoslangan mutlaqo yangi strategik rejalashtirish va rivojlanish tizimi belgilab berdi.

Ushbu Strategiyada belgilab berilgan maqsadli ko‘rsatkichlarni ikki yil oldin qabul qilingan strategiya bilan sohadagi o‘zgarishlarni aniq raqamlar bilan belgilanganligi ma’naviy-ma’rifiy sohada ham o‘z aksini topdi.

Misol uchun, **birinchi ustuvor maqsad sifatida**, “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlash” (38-maqsad) belgilandi. Va u o‘zida ma’naviy tarbiyaning uzviyligini ta’minlash, maktablarni chinakam ma’naviyat va ma’rifat, madaniyat o‘chog‘iga aylantirish, milliy qadriyatlari va ma’naviy merosini asrab-avaylash bo‘yicha yangi yondashuvlarni joriy qilish kabi umumiy maqsadlarni o‘z ichiga olgan edi. Yangi qabul qilingan strategiyada bu konkretlashtirildi, yoshlarda mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish hamda milliy qadriyatlar va vatanparvarlik ruhini kuchaytirishga qaratilgan 18 ming tizimli targ‘ibot tadbirlarini o‘tkazish, jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlashga qaratilgan 5 mingta zamonaviy media mahsulotlar va kreativ raqamli targ‘ibot materiallarini tayyorlash kabi vazifalar bilan aniqlashtirildi.

Shuningdek, **ikkinchi ustuvor maqsad**, “Davlat tilining nufuzini oshirish, o‘zbek va jahon adabiyoti durdonalarini keng ommalashtirish, jamiyatda kitobxonlikni hamda aholiga axborot-kutubxona xizmatini ko‘rsatishni rivojlantirish” (39-maqsad) yo‘nalishidagi kitobxon yoshlarni 5 millionga yetkazish maqsadli ko‘rsatkichi, yoshlar orasida sevimli loyihaga aylangan “Mutolaa” loyihasi orqali kitobxonlikka jalb etilgan yoshlarning ulushini 50 foizga yetkazish ko‘rsatkichiga o‘zgartirildi. Umumta’lim maktablari kutubxonalarida kamida 60 nomdagi o‘zbek adabiyotlarining rus, qozoq, qirg‘iz, tojik, turkman va qoraqalpoq tillaridagi tarjima asarlari qamrovini 60 mingtaga yetkazish hamda O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari” 100 jildlik to‘plamining 51 — 100 jildlarini nashr etish ko‘rsatkichlari belgilandi.

Xuddi shunday, **Uchinchi ustuvor maqsad** sifatida “Zamonaviy teatr va sirk san’atini har tomonlama rivojlantirish, yuksak badiiy-g‘oyaviy saviyaga ega sahna asarlarini yaratish”(40-maqsad) quyidagi vazifalar belgilandi. Davlat teatrlariga tomoshabinlarning tashrifini 15 millionga yetkazish, davlat teatrlarida 600 tadan ortiq yangi spektakllar sahnalashtirish, davlat teatrlarining 125 ta (yillik kamida 25 ta) xalqaro festival va gastrollarga yuborilishini tashkil etish. teatr sohasida xususiy sektor ishtirokini 25 foizga oshirish, davlat sirklariga tomoshabinlarning tashrifini 250 mingga yetkazish, joylarda o‘tkaziladigan sirk tomoshalarining yillik sonini 440 gacha oshirish kabi maqsadlar strategiyada vazifa sifatida belgilandi.

To‘rtinchi ustuvor maqsad, “O‘zbek milliy san’atini targ‘ib qilish orqali mamlakatimizning turistik salohiyatini oshirish” (41-maqsad). Davlat konsert-tomosha muassasalari tomonidan namoyish etiladigan madaniy tadbirlar va festivallarga 62,5 million tomoshabinlarni jalb etish, maqom, baxshichilik, raqs va teatr yo‘nalishlarida o‘tkaziladigan xalqaro festival va anjumanlar sonini 40 taga yetkazish, turizm obyektlarida yillik kalendar asosida o‘tkaziladigan madaniy va teatr tomoshalari sonini 2 400 taga yetkazish maqsad qilindi.

Beshinchi ustuvor maqsad, “Madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va ommalashtirish bilan bog‘liq faoliyatni yanada takomillashtirish”(42- maqsad). 112 ta madaniy meros obyektini asrashga doir ishlarni amalga oshirish, 20 tadan ortiq nomoddiy madaniy meros elementini chuqur ilmiy tadqiq etish;YUNESKOning xalqaro ro‘yxatlariga jami 5 ta moddiy madaniy meros obyektlarining nomzodnomalarini kiritish choralarini ko‘rish. Muzeylarga yillik tashrifni 7 millionga yetkazish, muzeylarda muzey eksponatlarini raqamli ro‘yxatga olish darajasini 100 foizga yetkazish. Har yili kamida 50 ta nomoddiy madaniy meros

namunalarini yozib olish va keng targ‘ib qilish. Askiya va qiziqchilik san’atining iste’dodli so‘z ustalari ijodiga bag‘ishlangan 25 ta adabiyot yaratish. 2,5 ming arxeologiya ashyolarini davlat katalogidan ro‘yxatdan o‘tkazish kabi maqsadlar belgilandi.

Oltinchi ustuvor maqsad, “Madaniyat tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish, ularning moddiy-texnika bazasini yaxshilash va soha xodimlarini qo‘llab-quvvatlash, tasviriy va amaliy san’at yo‘nalishlarini rivojlantirish” (43-maqsad) belgilandi. Bolalar musiqa va san’at maktablarini musiqa anjomlari bilan ta’minlash darajasini 100 foizga yetkazish, madaniyat va san’at tizimidagi oliy ta’lim muassasalarda ilmiy darajali va unvonli kadrlar ulushini 60 foizga yetkazish. Bolalar musiqa va san’at maktablarini 70 foiz oliy ma’lumotli kadrlar bilan ta’minlash. Davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etilgan madaniyat va san’at muassasalari ulushini 5,8 foizgacha yetkazish kabi vazifalar maqsad qilindi.

Yettinchi ustuvor maqsad ““Milliy kinematografiyani rivojlantirish” (44-maqsad) doirasida bir qator ustuvor vazifalar belgilangan. Xususan, davlat buyurtmasi asosida yaratiladigan yillik kinomahsulotlar sonini 100 tadan oshirish, milliy filmlar joylashtiriladigan dunyodagi mashhur internet platformalari sonini 11 taga yetkazish ko‘zda tutilgan. Shuningdek, milliy qahramonlar obrazini yorituvchi animatsion filmlar ishlab chiqarishni 20 taga yetkazish rejalashtirilgan.

Bundan tashqari, kinoindustriya sohasiga, jumladan xususiy va xorijiy investitsiyalar hajmini 2,5 million dollarga yetkazish, milliy kinematografiya mahsulotlari eksportini 1,5 million dollarga oshirish hamda milliy filmlarni taqdim etiladigan nufuzli xalqaro kinofestivallar sonini 50 taga yetkazish kabi muhim maqsadlar belgilangan.

Xulosa. Ma’naviyat – jamiyatning ruhiy tayanchi hisoblanadi. Inson ma’naviy jihatdan barkamol bo‘lmas ekan, har qanday iqtisodiy yutuqlar bardavom bo‘lmaydi. Milliy qadriyatlar va an’analarni singdirishning zamonaviy usullari qo‘llanilishini hamda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni kengaytirishni bugungi globallashuv zamon, har kuni talab etmoqda. Taraqqiyot va ma’naviyat bir-birini to‘ldiruvchi tushuncha ekanligi, agar jamiyatda faqat iqtisodiy o‘sishga e’tibor qaratilib, ma’naviyat e’tibordan chetda qolsa, bu barqaror rivojlanishga salbiy ta’sir ko‘rsatishi tarixiy haqiqatdir. Shuning uchun, iqtisodiy islohotlarning ma’naviy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish masalasi dolzarbligi, bu o‘rinda inson omili markaziy o‘rinda ekanligi har birimiz anglashimiz kerak.

Amalga oshirilayotgan islohotlar va yangilanishlar natijasida yuqori samaradorlikka erishish imkoniyati shubhasiz mavjud. Biroq ushbu murakkab va ko‘p qirrali jarayonda ma’naviy-ma’rifiy hayotning barcha jihatlari hamda u bilan bog‘liq insonlar tafakkurining bir zumda yoki avtomatik tarzda o‘zgarib ketishi tabiiy emas.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida strategik islohotlar ma’naviy yuksalishdan kuch va ilhom olib, o‘zaro chambarchas rivojlanadi. Ushbu uyg‘unlik mamlakat taraqqiyotining barqarorligini ta’minlaydi. Inson qadrini ulug‘lash, ma’naviy barkamollikka erishish va iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash orqali Yangi O‘zbekistonning mustahkam poydevori yaratiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Rasmiy nashr.-Toshkent: ”O‘zbekiston”, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari: “Respublika “Ma’naviyat va ma’rifat” jamoatchilik markazini tashkil etish to‘g‘risida” (1994 -yil 23-aprel); “Ma’naviyat va ma’rifat” jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va

samaradorligini oshirish to‘g‘risida” (1996-yil 9-sentabr); “Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida” (1999-yil 3-sentabr); 2023-yil 11-sentyabrdagi 158-sonli farmonga asosan “O‘zbekiston-2030 strategiyasi” hamda 2026-yil 16-fevraldagi 21-sonli “Mamlakat taraqqiyotining 2030 yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g'risida”.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari: “Milliy g‘oya targ‘iboti va ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish to‘g‘risida” (2006-yil 25-avgustdagi PQ – 451-son) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari: «Respublika “Ma’naviyat va ma’rifat” jamoatchilik markazining faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” (1994-yil 8-iyun); “Ma’naviy-ma’rifiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va uning samaradorligini oshirish choratadbirlari to‘g‘risida” (1998 -yil 24-iyul); “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida” (2017 yil iyuldagi PQ-3160-son); “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” (2019 yil maydagi PQ-4307-son); “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” (2021 yil 26-martdagi PQ-5040-son).
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari: “Ta’lim tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” (2018 yil 17 sentyabrdagi 736-son qarori); “Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi huzurida Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti faoliyatini tashkil etish to‘g'risida”(2021-yil 3-iyundagi 340-sonli); “Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazining tuman (shahar) bo‘linmalari tizimidagi ma'naviyat va ma'rifat maskanlari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g'risida”(2025-yil 3-martdagi 138-sonli qarori).
5. Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish - xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning muhim poydevoridir. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi. // "Xalq so‘zi" gazetasi, 2017 yil, 4 avgust, 153-son.
6. Mirziyoyev Sh.M. Ma'naviyat boshqa sohalardan oldinda yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishi ma'ruzasi. // "Xalq so‘zi" gazetasi, 2022 yil, 22 dekabr, 311-son.
7. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz T.: O‘zbekiston, 2017. 242b.
8. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi.To‘ldirilgan ikkinchi nashri. - Toshkent: “O‘zbekiston”, nashriyoti, 2023.-261 bet
9. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T.:Ma'naviyat, 2009.
10. Artikbayev O.S., Turdimuratov Ya.A. Yangi O‘zbekiston tarixi. - T.: “Zamon poligraf’ nashriyoti - Toshkent, 2023. – 20-34 b.
11. ttps://xs.uz/uzkr/post/manaviyat-boshqa-sohalardan-oldinda-yurishi-yangi-kuchga-yangi-harakatga-ajlanishi-kerak-prezident.
12. https://lex.uz/mact/-3107036;
13. https://lex.uz/uz/docs/-5841063;
14. https://lex.uz/ru/docs/-6600413;
15. https://gov.uz/oz/pages/2030_strategy.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 4 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 March 2026
Accepted: 01 April 2026
Published: 15 April 2026

Article / Original Paper

ONE OF THE LEADING EDUCATIONAL INSTITUTIONS IN KASHKADARYA

Polvonov Kozimbek Naimovich,
Karshi State University
Associate Professor of the Department of History of Uzbekistan,
Doctor of Philosophy in Historical Sciences (PhD)

Polvonov Anvar Naimovich
University of Economics and Pedagogy
Master of the Department of History and Social Sciences

Abstract. This article discusses the history of the establishment and development of one of the leading educational institutions in Kashkadarya - the regional regional center for retraining and advanced training of pedagogical workers. In particular, the organization of the educational institution in the city of Karshi, Kashkadarya region, during the Soviet era, the changes and problems in its life, the status of activities, and the process of changes in the activities of the educational institution during the years of independence, the work carried out were analyzed based on scientific literature, information obtained through the "oral history" method, and archival sources.

Keywords: Soviet era, years of independence, Kashkadarya region, Karshi city, regional center for retraining and advanced training of pedagogical staff, training school, office, department, teacher, listener, processes.

QASHQADARYODAGI YETAKCHI O‘QUV DARGOHLARIDAN BIRI

Polvonov Kozimbek Naimovich,
Qarshi davlat universiteti
O‘zbekiston tarixi kafedrasi dotsenti,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: kozimbekpolvonov6@gmail.com

Polvonov Anvar Naimovich
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
Tarix va ijtimoiy fanlar kafedrasi magistri

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qashqadaryodagi yetakchi o‘quv dargohlaridan biri — viloyat pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazining tashkil topishi va rivojlanish tarixi haqida so‘z yuritiladi. Jumladan, Sovet davrida Qashqadaryo viloyati Qarshi shahrida ta’lim dargohining tashkil etilishi, uning hayotidagi o‘zgarishlar va muammolar, tadbirlarning holati hamda mustaqillik yillarida o‘quv dargohi faoliyatida yuz bergan o‘zgarishlar jarayoni, amalga oshirilgan ishlar ilmiy adabiyotlar, “og‘zaki tarix” uslubi orqali olingan ma’lumotlar va arxiv manbalari asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Sovet davri, mustaqillik yillari, Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahri, viloyat pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi, o‘quv dargohi, kabinet, kafedra, o‘qituvchi, tinglovchi, jarayonlar.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N11

Kirish. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda ta’lim tizimida erishilgan yutuqlarni yanada mustahkamlab, yangi pog‘onada rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Sog‘lom, bilimli,

teran fikrlaydigan, vatanparvar yoshlarni tarbiyalash maqsadida ta’limning barcha turlari sifatini oshirishga harakat qilinmoqda. Jumladan, “pedagoglarni tayyorlash va malakasini oshirish tizimiga e’tibor qaratilib”, “hududlardagi malaka oshirish markazlari faoliyati kengaytirilishi”[1] tizim salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar. Qashqadaryo viloyat pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazining tashkil topishi va rivojlanish tarixi ilmiylik va tarixiylik tamoyiliga asoslangan holda tahlil etilgan. Shuningdek, xolislik, tizimlashtirish, “og‘zaki tarix”, statistik tahlil kabi ilmiy-tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. O‘zbekiston ta’lim tizimi uzoq o‘tmish tarixiga ega bo‘lib, asrlar mobaynida o‘zgarishlar jarayonini boshdan kechirib kelmoqda. Tizim tarixi ijtimoiy-gumanitar soha olimlarining diqqat markazida turgan asosiy mavzulardan hisoblanadi hamda respublikaning vodiy va vohalari ta’lim tarixiga bag‘ishlangan ko‘pgina tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Qashqadaryo viloyatidagi ta’lim muassasalari tarixi tadqiqotlarda o‘z aksini topgan. Sovet davri nashrlari (Choriyev A., Ochilov M. Qashqadaryo oblasti. –Toshkent: O‘qituvchi, 1974., Eshquvvatov O. Istoriya razvitiya sotsialisticheskix gorodov Karshi i Shaxrisabza (1925-1965 gg.). Avtoref. diss... . kand. ist. nauk. –T., 1970; Zaxarov S.M., Sobirjonov A. Qarshi. –T.: O‘zbekiston, 1978; Zaxarov S.M., Hikmatov N. Shaxrisabz. –T.: O‘zbekiston, 1979.) va mustaqillik yillarida amalga oshirilgan (Ergashev Q. O‘zbekiston xalq ta’limining rivojlanish tarixi. –Toshkent: O‘qituvchi, 1998., Jo‘raqulov O. Qarshi davlat universiteti. –Toshkent: Fan, 1999., Polvonov K. Qashqadaryo vohasi shaharlari tarixi (1970-2021 yillar). –Toshkent: Tamaddun, 2022., Shadiyeva D.A. Qarshi davlat universiteti: tashkil topishi va rivojlanish bosqichlari. Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –Qarshi, 2024., To‘rayeva M. Qashqadaryoda an’anaviy ta’lim tizimi tarixi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari). – Toshkent: Firdavs – shoh, 2025.) tadqiqotlarda O‘zbekiston, uning janubiy hududlaridagi oliy ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim tizimi tarixiy aspektda yoritilgan. Ayrim ishlarda mavzuga oid ba’zi ma’lumotlar berilgan. Biroq, Qashqadaryo viloyat pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazining faoliyati tarixi alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan.

Muhokama. Qashqadaryodagi yetakchi o‘quv maskanlaridan biri – viloyat xalq ta’limi xodimlari malakasini oshirish instituti 1952-yilda Qarshi shahrida tashkil topgan[2]. Institutning asosiy ish faoliyati o‘qituvchilarning bilim saviyasi va malakasini oshirishdan iborat bo‘lib, institutda Xanifiy Sayfullin, Nabi Turdiyev, Abdulla Fattayev, Sattor Saidovlar[3] direktor lavozimida faoliyat ko‘rsatgan. Ilm dargohi dastlab Qarshi shahridagi moslashtirilgan binolarda, jumladan, 1970-yillarning o‘rtalarigacha Charmgar mahallasidagi mehmonxonada, shundan keyin Beglar mahallasidagi ko‘zi ojizlar internat-maktabida faoliyat olib borgan.

O‘quv dargohi viloyat (oblast) o‘qituvchilar malakasini oshirish instituti maqomida yuritilib kelingan, 1985-yildan unga Qashqadaryo viloyat pedagogik xodimlar malakasini oshirish instituti maqomi berilgan. 1991-yilda o‘quv maskani shahardagi A.Navoiy mahallasidagi yangi qurilgan 625 o‘rinli binoda, Qarshi shahri, Olimlar ko‘chasi 2-uyda faoliyatini davom ettirgan. Yangi binoni zarur o‘quv jihozlari bilan ta’minlanishida institut rahbari S.Saidovning xizmatlari katta bo‘lgan.

1970-yillargacha bo‘lgan davrda o‘qituvchilarni malaka oshirishiga e’tibor kam bo‘lib, og‘ir sharoitda domlalar ishlashgan. Xonalar yetishmasligidan Qarshi shahridagi ba’zi maktablar sinfxonalarida o‘qituvchilarning qisqa muddatli malaka oshirish kurslari tashkil etilgan[4]. Keyingi yillarda respublikada, jumladan Qashqadaryo viloyatida ham o‘qituvchilar miqdori ko‘payib borgani sayin malaka oshirish instituti o‘quv kurslariga keladigan pedagoglar soni ham ortib borgan.

O‘quv dargohi viloyat rayon va shaharlaridagi xalq maorifi bo‘limlari bilan hamkorlikda ishlarni amalga oshirib kelgan. Xalq maorifi bo‘limlarida metodika xonalari tashkil etilgan bo‘lib, ular orqali o‘qituvchi va maktab rahbarlari viloyat xalq ta’limi xodimlari malakasini oshirish institutiga, K.D.Ushinskiy nomidagi respublika o‘qituvchilar malakasini oshirish va Samarqand davlat pedagogika instituti qoshidagi rahbar kadrlar tayyorlash institutlariga yuborilib turilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili. XX asrning 70-80-yillarida o‘quv dargohida ish kabinet tizimida tashkil qilingan bo‘lib, Boshlang‘ich ta’lim kabineti mudiri A.Abrayev, E.Temirov, O‘zbek tili va adabiyoti kabineti mudiri U.Kenjayev, Rus tili va adabiyoti kabineti mudiri G.Bramatkina, Chet tili kabineti mudiri X.Boltayev, Tarix-jamiyatshunoslik va sovet davlati huquqi asoslari fani kabineti mudiri T.Suvanov, Matematika kabineti mudiri N.Jo‘rayev, Fizika va astronomiya kabineti mudiri R.Nuriddinov, Geografiya kabineti mudiri U.Haydarov, Ximiya kabineti mudiri Z.Ismoilov, Biologiya kabineti mudiri B.Normurodov, Muzika kabineti mudiri B.Mahmudov, Tasviriy san’at va chizmachilik kabineti mudiri J.Jilovov, Tarbiyaviy ishlar va maktabdan tashqari muassasalar kabineti mudiri S.Nasimov, Maktab-internat, Bolalar uylari, kuni uzaytirilgan gruppalar kabineti mudiri J.Abdiyev, H.Haydarov, O‘quv texnika vositalari kabineti mudiri X.Ahmedov, Kechki ta’lim kabineti mudiri A.Qudratov, A.Jabborovlar faoliyat ko‘rsatgan.

O‘quv dargohining professor-o‘qituvchilari tez-tez rayonlarga xizmat safariga chiqib turgan. Shu xizmat safarlari paytida kursga kelib ketgan o‘qituvchilarni kursdan keyin faoliyati davomida qanday o‘zgarishlar bo‘lgani, kursdan keyin berilgan referatni qanday ishlayotgani haqida tekshirilib, yanada kerakli bo‘lgan maslahatlar berilgan. Maktab o‘qituvchilari bilan savol-javoblar qilinib, o‘z ustida qanday bilim olishlari tekshirilib borilgan. Qo‘shimcha adabiyotlarni o‘qishi bo‘yicha ko‘rsatmalar berilgan.

Shu bilan birgalikda, o‘quv maskanida kabinet xodimlari tomonidan viloyat maorifchilariga turli ko‘rsatmalar, ishlanmalar tayyorlanib, “metodik xatlar” rayon (shahar) xalq maorifi bo‘limlari orqali yetkazilib turilgan.

Kurs tinglovchilarining siyosiy, ilmiy-nazariy, psixologik-pedagogik tayyorgarligini yanada yaxshilash maqsadida kurslarga ma’ruzachilar sifatida Qarshi davlat pedagogika institutining olimlari taklif etilgan. Jumladan, biologiya fanlari doktori Sh.Qurbonov, tibbiyot fanlari doktori B.Aminov, dotsentlar X.Ro‘ziyev, A.Xolmurodov, A.Esirgaliyev, G.Mazitova, S.Zaxarov, S.Toshev kabilar[5]. Malaka oshirishga kelgan maktab kutubxona mudirlari kursiga N.Gaydar nomli viloyat bolalar kutubxonasining bir guruh mutaxassislari hamda Qarshi madaniyat texnikumining tajribali kutubxonashunos o‘qituvchilari P.Xurramov, N.Islomovalar mashg‘ulotlarni ko‘rgazmali qurollar asosida qiziqarli olib borgan. Biroq, ayrim yo‘nalishlarda mutaxassislar yetishmagan, masalan, fransuz tilidan bo‘ladigan kurs uchun Toshkentdagi Markaziy malaka oshirish institutidan va Toshkent davlat chet tillar institutidan lektorlar chaqirishga to‘g‘ri kelgan[6].

O‘quv dargohi rayon, shahar xalq maorifi bo‘limlari, ularning metodika kabinetlari bilan hamkorlikda malaka oshirish rejalarini bajarishga harakat qilib kelgan. 1984-yilda viloyat o‘qituvchilar malakasini oshirish institutida rejalarni Qarshi shahri (reja 191, bajarildi 201 taga) va Kitob shahri (reja 52, bajarildi 63 taga) muvaffaqiyatli bajarganlar. Rejani Yakkabog‘ rayoni 98 taga, Chiroqchi rayoni 56 taga, Kitob rayoni 53 taga, Shahrisabz rayoni 43 taga, Ko‘kdala rayoni 36 taga, Dehqonobod rayoni 35 taga, Muborak rayoni 31 taga bajarmagan[7]. Rejalarning bajarilmay qolishida rayon, shahar xalq maorifi bo‘limlarining o‘z ishiga mas’uliyat bilan yondashmaganligi, metodika kabinetlarining perspektiv rejalarining mavjud emasligi, hisobot ishlarining durust bo‘lmaganligi sabab bo‘lgan.

Ayrim hollarda, kurslarga kelgan o‘qituvchilar ko‘plab dars qoldirishgan, ularga “sertifikat” o‘rniga “ma’lumotnoma” berilgan. Kursga kelib ro‘yxatdan o‘tib, ketib qolish holatlari kuzatilgan.

O‘quv dargohi Qashqadaryo viloyat xalq maorifi bo‘limi, Qarshi davlat pedagogika instituti, Qashqadaryo viloyat hunar-texnika bilim yurtlari boshqarmasi hamkorligida viloyat o‘qituvchilarining “Pedagogik o‘qishlari”ni ham tashkil qilgan. Bunday tadbirlarda ta’limning muhim mavzularida ma’ruzalar qilingan, pedagoglar o‘zaro tajriba almashishgan, darslar sifatini oshirish maqsadida ko‘rsatmalar berilgan.

O‘quv dargohi tomonidan o‘qituvchilarning malaka oshirish kursidan o‘tgandan keyingi ish samaradorligi kuzatib borilgan va namunali deb topilgan hamda ilg‘or, tajribali pedagoglarning ish faoliyati ommalashtirilgan.

Har bir kursda turli mavzularda kechalar, keksa pedagoglar, “Katta o‘qituvchi”, “Metodist o‘qituvchi”, “Ijodkor o‘qituvchi”lar bilan hamda Ikkinchi jahon urushi ishtirokchilari bilan uchrashuvlar tashkil etilgan. Masalan, institutda buyuk g‘alabaning 40 yilligi oldidan Jahon urushi faxriylari va Sovet Ittifoqi Qahramoni P.M.Shibayen bilan uchrashuv o‘tkazilgan[8].

Istiqlol yillarida O‘quv dargohining faoliyatida ulkan yutuqlar qo‘lga kiritildi, shu bilan birga, uning maqomida o‘zgarishlar bo‘ldi.

O‘quv dargohiga 1993-yilda Qashqadaryo viloyat xalq ta’limi xodimlari malakasini oshirish instituti maqomi berilgan. 2005-yilda institut Qashqadaryo viloyat xalq ta’limi pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, 2015-yildan Qashqadaryo viloyat xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti deb nomlangan.

2017-yildan Qarshi Davlat universiteti huzuridagi xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi, 2018-yildan Qashqadaryo viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi, 2022-yildan Qashqadaryo viloyati Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi maqomida bo‘lgan. 2024-yildan o‘quv dargohi Qashqadaryo viloyati pedagogik mahorat markazi maqomida yuritilmoqda.

Istiqlol yillarida o‘quv dargohida bir necha rahbarlar, o‘qituvchi-pedagoglar, xodimlar samarali faoliyat olib borishdi. Mustaqillikning dastlabki yillarida Said Sagdullayev o‘quv dargohiga rahbarlik qilgan, 1997-2009-yillarda Suyar Toshev, 2009-2015-yillarda Ismatullo Xudoyberdiyev, 2015-2018-yillarda Gulnoza Ernazarova, 2018-2024-yillarda Amin Mallayevlar institut rektori vazifasida samarali faoliyat olib borishgan.

2024-yilning sentyabridan Nozima Oripova bu dargohga rahbarlik qilmoqda. Direktorning akademik faoliyat bo‘yicha o‘rinbosari lavozimida Xamrayev Zuryod Bunyodovich ishlab kelmoqda.

1991-yildan boshlab o‘quv dargohiga viloyatning chekka, uzoq tumanlaridan kelgan o‘qituvchilar 250 o‘rinli moslashtirilgan yotoqxona binosidan foydalanib kelgan. 2018-yilda esa 240 o‘rinli qo‘shimcha o‘quv binosi foydalanishga topshirilgan. O‘quv dargohi Qarshi shahri, Olimlar ko‘chasi 2-uyda faoliyatini olib borgan. Bu binoda ilm dargohining 30 ta o‘quv auditoriyasi, ximiya, biologiya, fizika fanidan o‘quv laboratoriyalari, 2 ta lingofon va 6 ta kompyuter xonasi, 10 ming nusxadan ziyod kitob fondiga ega bo‘lgan, internet tizimiga to‘liq ulangan Axborot resurs markazi, 250 o‘rinli yotoqxona, 50 o‘rinli oshxona va sport zali ishlab turgan.

O‘quv dargohi 2025-yil sentyabrdan Shahrisabz tumani Loliston mahalla fuqarolar yig‘ini, Paxtakor ko‘chasi 2-uy (avvalgi Shahrisabz pedagogika kolleji binosi)da faoliyatini davom ettirmoqda. Bu dargoh 4 etajli o‘quv binosiga, 400 o‘rinli yotoqxona hamda sport zallariga ega.

Mustaqillikning dastlabki yillarida muassasaning tarkibiy tuzilishida o‘zgarishlar bo‘lgan. Bu Qashqadaryo viloyat hokimligining 1997-yil 11-martdagi “Viloyat xalq ta’limi xodimlarini malakasini oshirish instituti tarkibiy tuzilishini takomillashtirish va moddiy o‘quv bazasini mustahkamlash to‘g‘risida”gi Qarori asosida amalga oshirilgan. Unga ko‘ra:

1. Ximiya-biologiya bo‘limi tugatilib, unga geografiya fani qo‘shilgan holda tabiiy fanlar kafedrasi tuzilgan.

2. O‘zbek tili va adabiyoti, chet tillari bo‘limlari tugatilib, uning o‘rnida jahon tillari, o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi tashkil etilgan.

3. Matematika, informatika va fizika bo‘limlari o‘rnida Matematika, informatika va fizika kafedrasi tuzilgan.

4. Boshlang‘ich ta’lim va maktabgacha tarbiya bo‘limlari o‘rnida Boshlang‘ich ta’lim va maktabgacha tarbiya kafedrasi tashkil etilgan.

5. Texnika vositalari, jismoniy tarbiya, chaqiriqqacha yoshlarni tayyorlash, tarbiyaviy ishlar va kechki ta’lim, mehnat ta’limi, xalq ta’limini boshqarish, nafosat, diagnostika, nashriyot bo‘limlari avvalgi holatida qolgan.

Shu bilan birgalikda, kafedra a’zolari tanlov yo‘li bilan ishga qabul qilina borgan[9].

Viloyat xalq ta’limi xodimlari malakasini oshirish institutining o‘qituvchi xodimlari tuman, shahar xalq ta’limi bo‘limlariga kurator (rahbar) etib tayinlangan va bundan ko‘zlangan asosiy maqsad ularga metodik mahsulotlarni yetkazish hamda zarur ma’lumotlarni to‘plash, tahlil qilishdan iborat bo‘lgan.

1997-yilning aprelidan o‘quv dargohida navbatchilik yo‘lga qo‘yilgan. Navbatchi xodim navbatchilik kunida institutdagi tartib-intizom, amalga oshirilgan ishlarni, yuz bergan voqealarni navbatchilik daftariga to‘liq qayd qilinishi uchun mas’ul hisoblangan. Har bir xodim belgilangan kunda navbatchilik qilishi majburiy bo‘lgan. 1999-yilning martidan institut yotoqxonasida ham navbatchilik tashkil qilingan. Yotoqxonada ichki tartib qoidalarini bajarilishini ta’minlash maqsadida kech soat 18-00 dan 24-00 gacha navbatchilik amalga oshirilgan va alohida navbatchilik daftari yuritilgan. O‘quv dargohining 2001-yil 27-fevraldagi buyrug‘iga ko‘ra, shu yilning 1 mart sanasidan arxiv bo‘limi tashkil etilgan. Arxiv bo‘limi ishini yuritish devonxona mudiri D.Egamovaga yuklatilgan.

O‘quv dargohida masofadan o‘qitishni hududiy muvofiqlashtirish markazi 2004-yilda tashkil etilgan. Markazga 2004-2011-yillarda Karayev Abdishukur Turdiyevich, 2011-2012-yillarda Hudoyqulov Karim Mahmudovich, 2013-2018-yillarda Suyarov Zoir Shaymardonovich rahbarlik qilgan[10]. Biroq, masofadan o‘qitishda har doim ham rejalar bajarilmagan. Masalan, 2013-yilda masofadan malaka oshirish rejasi 216 nafar bo‘lib, 223 nafar tinglovchi masofadan malaka oshirib, 103% ga bajarilgan. 2014-yilda esa 408 nafar tinglovchi masofadan malaka oshirish rejalashtirilgan bo‘lib, rejani 396 nafar 97% ga bajargan. 2015-yilda esa 425 nafar tinglovchi masofadan malaka oshirish rejalshtirilgan bo‘lib, rejani 406 nafar 95% ga bajargan.

2020-yilda butun dunyoda Kovid-19 pandemiyasi bo‘lib, bu barcha sohalarga o‘z ta’sirini ko‘rsatgan edi. Malaka oshirish institutida tinglovchilarni uylariga javob berilishi o‘sha yilning 16 mart sanasidan boshlangan bo‘lib, bir muddatdan keyin institut professor — o‘qituvchilari fan mavzulari asosida video-darslar tayyorlashgan. Birozdan so‘ng, tinglovchilar uchun onlayn darslar tashkil etilgan. Bunday onlayn darslar yoz va kuz oylarida ham amalga oshirilgan.

2020-yilning avgust oyidagi kurslar ikki smenada onlayn shaklda amalga oshirilgan, onlayn malaka oshirish kurslari va ularga guruh mas’ullari quyidagicha bo‘lgan:

1-smena

T/r	Guruhlar	Guruh mas’uli
1	O‘TIBDO‘	Yavqochdiyeva Dilafruz
2	MMIBDO‘ 1	Soatov Asadullo
3	Ona tili va adabiyoti o‘qituvchilari 1	Toshtemirov Bahtiyor
4	Ona tili va adabiyoti o‘qituvchilari 2	Karimova Gulshan
5	Ona tili va adabiyoti o‘qituvchilari 3	Norov Otajon
6	Rus tili va adabiyoti o‘qituvchilari 1	Eshmurodov Shuxrat
7	Ingliz tili o‘qituvchilari 1	Markayev Yashin
8	Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari 1	Bahriddinova Dilobar
9	Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari 2	Beknazarova Xadicha
10	Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari 3	Yo‘ldosheva Ziyoda
11	Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari 4	Abduxoliqova Marhabo
12	Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari 5	Hamrayev Shuxrat
13	Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari 6	Azizova Dilnoz
14	Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari 7	Qushoqova Umida
15	Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari 8	Choriyeva Zuhra
16	Ximiya o‘qituvchilari 1	Nekboyev Xurshid
17	Biologiya o‘qituvchilari 1	Karimova Habiba
18	Fizika o‘qituvchilari	Qorayeva Dilfuza
19	Matematika o‘qituvchilari 1	Xushmatova Nilufar
20	Matematika o‘qituvchilari 2	Shoimov Anvar
21	Informatika o‘qituvchilari 1	Mallayev Hamro
22	Tarix o‘qituvchilari 1	Avliyaqulova Dilobar
23	Tarix o‘qituvchilari 2	Ochilov Ulug‘bek
24	Mehnat ta’limi o‘qituvchilari	Ibragimov Olim
25	MTM tarbiyachilari 1	Irisova Sayyora

2-smena

1	MMIBDO‘ 2	Berdiyeva Lobar
2	Ona tili va adabiyoti o‘qituvchilari 4	Qodirov Jahongir
3	Ona tili va adabiyoti o‘qituvchilari 5	O‘roqova Zilola
4	Ona tili va adabiyoti o‘qituvchilari 6	Tillayeva Sohiba
5	Rus tili va adabiyoti o‘qituvchilari 2	Annayeva Lola
6	Ingliz tili o‘qituvchilari 2	Begimova Manzura
7	Ingliz tili o‘qituvchilari 3	Oqboyeva Zulfiya
8	Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari 9	Zaripova Muslima
9	Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari 10	Rasulova Sanobar
10	Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari 11	To‘qliyeva Matluba
11	Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari 12	To‘rayeva Dilrabo
12	Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari 13	Qosimova Gavhar
13	Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari 14	Shahmurodova Diljahon
14	Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari 15	Safarova Mohidil
15	Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari 16	Karimova Umida
16	Ximiya o‘qituvchilari 2	Jabborov Farxod
17	Biologiya o‘qituvchilari 2	Mamatov Bekzod
18	Geografiya o‘qituvchilari	Qurbonova Shahnoza
19	Matematika o‘qituvchilari 3	Rasulova Karomat
20	Matematika o‘qituvchilari 4	Eshmurodov Sherdil
21	Informatika o‘qituvchilari 2	Eshdavlatov Farrux
22	Tarix o‘qituvchilari 3	Rajabov Ruslan
23	MTM tarbiyachilari 2	Yuldosheva Yulduz

Birozdan so‘ng, ta’limning an’anaviy shakliga o‘tilgan. O‘quv dargohiga kelib, malaka oshiradigan tinglovchilar soni ortib borgan.

O‘quv dargohida 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida jami 24980 nafar tinglovchilarning malakasini oshirish rejalashtirilgan bo‘lib, rejaning bajarilishi 29346 nafar (an’anaviy 25087 nafar, masofaviy 3201 nafar, MTT tarbiyachilari 1058 nafar)ga, bu esa foiz hisobida 117,5%ni tashkil etgan. Shundan malaka oshirish kurslarini muvaffaqiyatli tugatgan 25005 nafar tinglovchilar belgilangan tartibdagi davlat namunasidagi sertifikatga tavsiya etilgan. 6 soat va undan ortiq dars mashg‘ulotlarida ishtirok etmaganligi uchun 4341 nafar (17,4%) tinglovchi tinglovchilar safidan chiqarilgan va tuman (shahar) Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlariga ma’lumot yuborilgan.

Ayrim kurslarga mashg‘ulotlar o‘tish uchun mutaxassislar yetishmagan. Shu sababli Qarshi davlat universiteti, Qarshi pedagogika bilim yurti va Qarshi shahridagi maktablarning o‘qituvchilari mashg‘ulotlarga jalb etilgan. O‘quv mashg‘ulotlari davomida faol bo‘lgan tinglovchilar e’tirof etilgan.

O‘quv-ma’naviy va jamoat ishlarida faol ishtirok etgan, yuqori bilim salohiyatiga ega bo‘lgan kurs tinglovchilari faoliyat ko‘rsatayotgan maktab ma’muriyatiga tashakkurnomalar yuborilgan. Masalan, 2018-yil mart oyida malaka oshirgan tarix guruhi tinglovchilaridan K.Shernazarova, Q.Jabborov, O.Xusanov, G.Usmonova, O.Yakubovlarga, shu yilning oktyabr oyidagi tarix 1 guruhidan E.Raximov, Ch.Lutfillayeva, B.Shukurova, O‘.Do‘stmurodov, A.Chorshanbiyev, M.Tursunovalarga ana shunday tashakkurnomalar berilgan[11].

Faol, yuqori bilim salohiyatiga ega, ilg‘or, tajribali o‘qituvchilarning ish faoliyati institut pedagoglari tomonidan ommalashtirilib borilgan. Masalan, “Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar” kafedrasi

o‘qituvchisi K. Polvonov 2019-yil may oyida Koson tuman 3-maktab tarix fani o‘qituvchisi Mustafoyeva Muniraning “Tarix fanini o‘qitishda interfaol usullardan foydalanish” mavzusidagi ish tajribasini, kafedra o‘qituvchisi D. Avliyoqulova shu yilning oktyabr oyida Qarshi shahar 29-maktab davlat va huquq asoslari fani o‘qituvchisi Majidova Dilfuzaning “Davlat va huquq haqidagi zamon konsepsiyalari” mavzusidagi ish tajribasini ommalashtirgan[12].

Muassasada ma’naviy-ma’rifiy ishlar doimiy o‘tkazilib kelingan. Professor-o‘qituvchilar tomonidan kurs tinglovchilari va yotoqxonada istiqomat qiluvchi tinglovchilar bilan turli tadbirlar o‘tkazilgan. Asosan, tadbirlar tinglovchilarning darsdan bo‘sh vaqtlarida amalga oshirilgan.

O‘quv dargohining pedagoglari metodik mahsulotlarni ishlab chiqishga asosiy e’tiborni qaratishgan. Shu bilan birga, ilmiy-tadqiqot ishlarini ham olib borishgan. So‘nggi yillarda o‘qituvchi-pedagoglarning falsafa doktori (PhD), fan doktori (DSc) dissertatsiyalari himoya qilinib, ilmiy darajaga ega bo‘lgan xodimlar miqdori ortib bormoqda.

Xulosa. Qashqadaryodagi yetakchi o‘quv dargohlaridan biri — Qashqadaryo viloyat pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi 1952-yilda Qarshi shahrida tashkil topgan. O‘quv dargohi dastlab shahardagi moslashtirilgan binolarda, 1991-yildan yangi binoda faoliyat ko‘rsata boshlagan. Dargoh viloyatdagi o‘qituvchilar, murabbiylar, tarbiyachilarning malakasini oshirib, bilim saviyasini ortishiga munosib hissasini qo‘shib kelgan. Muassasa O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tekshirish instituti, Qashqadaryo viloyat xalq maorifi bo‘limi, Qarshi davlat pedagogika instituti kabi ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda ish olib borgan.

O‘quv dargohining ayrim kurs yo‘nalishlariga ma’ruzachilar, o‘qituvchilar yetishmasligidan Qarshi davlat pedagogika instituti va Qarshi madaniyat texnikumidan mutaxassislar kelib dars berishgan. Kurslarga kelgan ba’zi tinglovchilar ko‘plab dars qoldirishgan, ularga “sertifikat” o‘rniga “ma’lumotnoma” berilgan.

Mustaqillik yillarida barcha jabhalarda bo‘lgani singari o‘quv dargohida ham ko‘plab o‘zgarishlar va islohotlar amalga oshirildi. Bu davrda o‘quv dargohining maqomida o‘zgarishlar bo‘ldi. O‘quv dargohida dastlab kabinet tizimi, so‘ngra kafedralar tuzilib, faoliyatini davom ettirgan. Samaradorlikni oshirish maqsadida viloyat o‘qituvchi-pedagoglari malaka toifalariga ajratilib, o‘qitilgan. Ayrim kurslarga mashg‘ulotlar o‘tish uchun mutaxassislar yetishmagan. Shu sababli Qarshi davlat universiteti, Qarshi pedagogika bilim yurti va Qarshi shahridagi maktablarning o‘qituvchilari mashg‘ulotlarga jalb etilgan. O‘quv mashg‘ulotlari davomida faol bo‘lgan tinglovchilar e’tirof etilgan.

Professor-o‘qituvchilar metodik mahsulotlarni ishlab chiqishga asosiy e’tiborni qaratishgan. Shu bilan birga, ilmiy-tadqiqot ishlarini ham olib borishgan. Bundan tashqari, kurs tinglovchilari va yotoqxonada istiqomat qiluvchi tinglovchilar bilan turli ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazilib kelingan.

Ta’lim tarixi tadqiqotchilarning diqqat markazidagi mavzulari sirasiga kiradi. Keltirilgan tarixiy ma’lumotlar Qashqadaryo vohasi ta’lim tizimi tarixiga qiziquvchilarning bilimlarini yanada oshishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Har qanday mamlakat taraqqiyoti sog‘lom va bilimli avlodga bog‘liq” // Xalq so‘zi, 2025 yil 16 may, № 99 (8994).

2. Qashqadaryo viloyat pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi joriy arxivi.
3. Mahmudov B. Qashqadaryo xalq ta'limining taraqqiyot yo'li. –Qarshi: Nasaf, 1999. –B. 38.
4. Dala yozuvlari. 2025 yil, 25 fevral. Axborotchi Jilovov Jomurod. 1946 yil 15 fevralda Koson tumanida tug'ilgan. Qarshi shahri.
5. Qashqadaryo viloyat davlat arxivi, S-545-fond, 1-ro'yxat, 41-ish, 10-varaq.
6. Qashqadaryo viloyat davlat arxivi, S-545-fond, 1-ro'yxat, 2-ish, 3-varaq.
7. Qashqadaryo viloyat davlat arxivi, S-545-fond, 1-ro'yxat, 35-ish, 2-varaq.
8. Qashqadaryo viloyat davlat arxivi, S-545-fond, 1-ro'yxat, 32-ish, 10-varaq.
9. Qashqadaryo viloyat davlat arxivi, M-635-fond, 1-ro'yxat, 14-ish, 3-varaq.
10. Qashqadaryo viloyat pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi joriy arxivi.
11. O'quv dargohining "Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar" kafedrasida 2014-2020 yillarda o'qituvchi lavozimida faoliyat ko'rsatgan K.Polvonovning shaxsiy arxiv hujjatlaridan.
12. O'quv dargohining "Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar" kafedrasida 2012-2022 yillarda kafedra mudiri lavozimida faoliyat olib borgan P.Norbo'tayevning shaxsiy arxiv hujjatlaridan.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 4 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 March 2026
Accepted: 01 April 2026
Published: 15 April 2026

Article / Original Paper

THE ROLE OF STATE ARCHIVE DOCUMENTS IN STUDYING THE HISTORY OF TRADE IN UZBEKISTAN

Muminova Gavkhar Esanovna
Leading Researcher at the Institute of History, AS RU
Turdiboeva Gulmira Dilmurodovna
Listener (Cadet) of the Academy of the MIA

Abstract. This article analyzes the role of state archive documents in studying the history of trade in Uzbekistan from a source studies perspective. Based on archival materials, the formation of the trade system, its stages of development, and its economic and social significance are highlighted. The study evaluates the types of documents preserved in central and local archives, their content, reliability, and scientific value. In addition, the expanded opportunities for using archival sources during the independence period and aĸtyal issues of their integration into scientific research are examined.

Keywords: Uzbekistan, history of trade, state archives, archival documents, source studies, economic history, statistical data, independence period.

O‘ZBEKISTON SAVDO TARIXINI O‘RGANISHDA DAVLAT ARXIVLARI HUJJATLARINING O‘RNI

Mo‘minova Gavxar Esanovna,
O‘Z FA Tarix instituti yetakchi ilmiy xodimi
Turdiboyeva Gulmira Dilmurodovna
IIV Akademiyasi tinglovchisi
E-mail: g.muminova@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston savdo tarixini o‘rganishda davlat arxivlari hujjatlarining o‘rni manbashunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Arxiv materiallari asosida savdo tizimining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va uning iqtisodiy hamda ijtimoiy ahamiyati yoritiladi. Tadqiqotda markaziy va mahalliy arxivlarda saqlanayotgan hujjatlarning turlari, ularning mazmun-mohiyati, ishonchlilik darajasi va ilmiy qiymati baholanadi. Shuningdek, mustaqillik davrida arxiv manbalardan foydalanish imkoniyatlari kengaygani va ularni ilmiy tadqiqotlarga jalb etishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, savdo tarixi, davlat arxivlari, arxiv hujjatlari, manbashunoslik, iqtisodiy tarix, statistik ma’lumotlar, mustaqillik davri.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N12

Kirish. Bugungi globallashuv va axborotlashuv sharoitida tarixiy jarayonlarni chuqur va xolisona o‘rganish dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi. Xususan, O‘zbekistonning savdo tarixi mamlakatning iqtisodiy rivojlanish bosqichlarini, ichki va tashqi aloqalar tizimini hamda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning shakllanishini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Savdo munosabatlari qadimdan Markaziy Osiyo hududida shakllanib, Buyuk Ipak yo‘li orqali xalqaro iqtisodiy va madaniy aloqalarning rivojiga xizmat qilgan. Shu bois, savdo tarixini

o‘rganish nafaqat iqtisodiy, balki tarixiy, madaniy va ijtimoiy jihatdan ham keng qamrovli tadqiqotni talab etadi.

Mazkur jarayonda davlat arxivlarida saqlanayotgan hujjatlar muhim manba sifatida alohida o‘rin tutadi. Arxiv materiallari tarixiy voqealar va jarayonlarning ishonchli guvohi bo‘lib, ularning ilmiy tahlili orqali savdo tizimining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari, savdo siyosati va iqtisodiy munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash imkoniyati yaratiladi. Davlat arxivlarida jamlangan statistik ma’lumotlar, rasmiy hujjatlar, savdo hisobotlari, shartnomalar va boshqa manbalar tadqiqotchilar uchun muhim ilmiy asos vazifasini bajaradi.

Mustaqillik yillarida arxiv tizimining rivojlanishi, hujjatlarning ochiqligi va ulardan foydalanish imkoniyatlarining kengayishi tarixiy tadqiqotlarning sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilishiga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, arxiv manbalariga asoslangan tadqiqotlar orqali O‘zbekiston savdo tarixining ilgari yetarlicha o‘rganilmagan jihatlarini aniqlash, yangi ilmiy xulosalar chiqarish va tarixiy haqiqatni tiklash imkoniyati kengaydi.

Shu munosabat bilan, davlat arxivlari hujjatlarining O‘zbekiston savdo tarixini o‘rganishdagi o‘rni va ahamiyatini manbashunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilish mazkur tadqiqotning asosiy maqsadini tashkil etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mustaqillik davri savdo tarixini yozishda asosan O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘z MA) va viloyatlarning davlat arxivlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Savdo-sanoat palatasi, O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi, Ochiq va yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlar, birlashmalar, fondlar, xolding va konsernlar shaklidagi tashkilotlar, Savdo-iqtisodiyot yo‘nalishidagi OTM va ilmiy tashkiloti, yirik savdo bozorlari idoraviy arxivlarini fond hujjatlaridan manba sifatida foydalanildi.

O‘zbekiston Milliy arxivining M-6-fond (Oltin qazib olish va olmoslarni qayta ishlash bo‘yicha korxonalar O‘zbekiston assosiatsiyasi“ Uzalmazzoloto”), M-8-fond (Paxta xomashyosini qayta ishlash va paxta mahsulotlarini sotish bo‘yicha “Uzgostxlopkopromsbыt” O‘zbekiston davlat-aksiyadorlik assosiatsiyasi), M-9-fond (O‘zbekiston Respublikasi davlat konsernining qishloq xo‘jaligi qurilishi bo‘yicha korxona va tashkilotlarining tashqi iqtisodiy faoliyat assosiatsiyasi (VEA “Uzvneshnekonommash”), M-10-fond (“O‘zbekmebel” O‘zbekiston davlat aksiyadorlik birlashmasi), M-11-fond (“O‘zavtotrans” O‘zbekiston davlat-aksiyadorlik avtomobil transporti korporatsiyasi), M-15-fond (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi), M-16-fond (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi “Uzparrandasanoat” parrandachilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar assosiatsiyasi ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyati), M-18-fond (O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi), M-20-fond (“Xorijiy investitsiyalar agentligi” yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyati), M-25-fond (“O‘zmevasabzavotuzumsanoat-xolding” xolding kompaniyasi), M-37-fond (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi), M-43-fond (Yengil sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar O‘zbekiston assosiatsiyasi (“Uzbeklegprom”), M-45-fond (“O‘zulgurjibirjasavdo” O‘zbekiston respublika ulgurji va birja savdosi aksiyadorlik assosiatsiyasi” M-47-fond (“O‘zneftegazstroy” aksiyadorlik kompaniyasi (“Uzneftigaz” tarkibidagi milliy xolding kompaniya), M-51-fond (“Uzselxozmash-xolding” kompaniyasi), M-52-fond (“O‘zbekipagi” Respublika assosiatsiyasi), M-67-fond (Xususiy tadbirkorlik va kichik

biznesni qo‘llab-quvvatlash fondi (Biznes-fond), M-74-fond (O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki), M-82-fond (“O‘zgo‘shtsutsanoat” davlat aksiyadorlik uyushmasi), M-83-fond (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi “O‘zgo‘shtsutsanoat” Respublika ishlab chiqarish birlashmasi), M-127-fond (O‘zbekiston Respublikasi “Tadbirkor” respublika aksiyadorlik-tijorat banki), M-131-fond (“Ipak yo‘li” aksiyadorlik innovasion-tijorat banki), M-132-fond (“Uzpisheprom” oziq-ovqat sanoati konserni), M-134-fond (Qandolat, choy va pivo-salqinsiz ichimliklar sanoati korxonalari assosiatsiyasi“Ріщуеprom”), M-139-fond (“Mahalliy sanoat” davlat korporatsiyasi), M-160-fond (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Monitoring instituti), M-166-fond (“Oziq-ovqatxolding” xolding kompaniyasi) va h.k. fond hujjatlari O‘zbekiston savdo tarixining mustaqillik davrini yoritishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu ro‘yxatdagi fondlarda O‘zbekistonning iqtisodiy sektorida turli yo‘nalishlarni tartibga solish va rivojlantirishga qaratilgan hujjatlar saqlanadi. Ushbu hujjatlar yordamida davlat va xususiy sektordagi moliyaviy, savdo, sanoat, qishloq xo‘jaligi va investitsiya sohalaridagi tashkilotlarning faoliyati, ularning ichki va tashqi iqtisodiy aloqalardagi ahamiyati, shuningdek, bu sohalarda mavjud bo‘lgan muammolar haqidagi ma’lumotlarni to‘plash va tahlil etish mumkin.

O‘zbekiston Milliy arxivining M-37-fondi (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi) savdo tarixining mustaqillik davri manbashunosligida muhim o‘rinni egallaydi. Mazkur fond Vazirlar Mahkamasining hujjatlari yig‘ma jildlaridan iborat bo‘lganligi sababli aynan turli ministrliklar, birlashmalar, savdo uyushmalarining turli mazmundagi yozishmalari, sohaga doir huquqiy hujjatlari, yig‘ilish bayonnomalari, yillik hisobotlari, dasturlari, rejalari va h.k. ma’lumotlar mavjud. Aynan ular orqali O‘zbekiston savdosining ko‘lami, ishlab chiqarish hajmi va markazlari, savdo turlari, chiqarilgan va kiritilgan mollar, pul muomalasi, savdo markazlari, logistika masalalariga oid ma’lumotlar ilmiy muomalaga tortiladi. Xususan, M-37 fondning 1-ro‘yxat, 2192, 2782, 2197, 2781, 2783, 2778, 3190 va h.k. yig‘ma jildlari ma’lumotlaridan manba sifatida foydalanish mumkin[1]. Masalan, mazkur fondning 2782-yig‘ma jildida O‘zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona qo‘mitasining tovar tashish bo‘yicha hisobotlari keltirilsa[2], 2197-yig‘ma jildda Toshkent shahar hokimiyati savdo, xizmat ko‘rsatish sohasi, xalq iste’moli mollari ishlab chiqarish departamenti ma’lumotlari berilgan[3].

Mazkur fondning 2781-yig‘ma jildida O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi (“O‘zkontrakt”) bilan savdo shartnomasi[4], O‘zbekistonning Yevropa hamjamiyati, Yevropa ko‘mir va po‘lat birlashmasi, atom energiyasi bo‘yicha Yevropa hamjamiyati — Oraliq bitimi savdo va xarid bitimi haqida,[5] savdo, bojxona qonunini qo‘llash to‘g‘risida protokollar[6] jamlangan va ular savdo tarixini shakllantirishda qimmatli manba hisoblanadi. Xususan, fondning 2783-yig‘ma jildida O‘zbekiston va Yaponiya o‘rtasidagi savdo va iqtisodiy aloqalar, 1996-yili bu davlatning “Misubishi”, “Misui”, “Shimizu” kabi kompaniyalar bilan hamkorlikdagi savdo shartnomalari[7], Yaponiya iqtisodiy tashkilotlari federatsiyasi bilan bitimlari, port (logistika markazi) qurilishi kabi masalalarga oid hujjatlar jamlangan.

Savdo tarixida eksport masalasi muhim yo‘nalish sanaladi. M-37-fond, 1-ro‘yxat, 2778-yig‘ma jildida 1997-yil “O‘zbekiston Respublikasining eksport salohiyatini rivojlantirish davlat dasturi” bilan bog‘liq tadbirlar bayonnomalari, 1996-yilda eksport hajmi, (2,6 milliard dollarni tashkil etgan), O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining eksport ma’lumotlari, rejalashtirilgan dastur chora-tadbirlarini amalga oshirish eksport hajmini 2000-yilga kelib 1996-yilga nisbatan 1,7 baravarga oshirishga qaratilgan dastur loyihasi xususida ma’lumotlar

jamlangan[8]. Shuningdek, bu fonddan aksiyadorlik jamiyatlarining tijorat mahsulotlari hajmi, ishlab chiqarish o‘sish sur’ati, iste’mol tovarlari xususida ham manbashunoslik materiallarini uchratish mumkin (3190-yig‘ma jild)[9].

Savdoda oziq-ovqat mahsulotlari savdosi barcha davrlarda o‘z dolzarbligini saqlab qolgan. M-37-fond, 1-ro‘yxat, 2192-yig‘ma jildida 1997-yil 29 xil oziq-ovqat mahsulotlari ayrim turlarini sotish bilan bog‘liq huquqiy hujjatlar, mahsulot chakana narxi savdo ustamasini 10–20 foizgacha belgilab sotilganligi, shuningdek, 33 foiz savdo obyektida (483 tadan 164 tasida) qoidabuzarlik holatlari[10], 1997-y. 581,1 ming so‘mlik mahsulotlar noqonuniy sotilganligi, 1997-y. 1515 reydda 264 ta savdo qoidalarini buzish holati aniqlanganligiga doir ma’lumotlar mavjud[11].

Natijalar va muhokama. O‘zbekiston davlat arxivlarida savdo yo‘nalishi tarixiga doir saqlanayotgan hujjatlarni qisman o‘rganish natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, tarixchilar tomonidan savdo sohasining na sovet davri, na mustaqillik davri tarixi tadqiq etilmagan. Chunki davlat arxivi hujjatlarida keltirilgan ma’lumotlar davriy nashr materiallarida ham, dissertatsiya ishlarida ham, darsliklarda ham izchil ketma-ketlikda yoritilmagan. Birgina misol, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish markazlari, mahsulotlarning tovar sifatidagi o‘rni va ularni sotish muammolari, eksport import masalalari va boshqa shu kabi muammolar birlamchi manbalar yordamida o‘rganilmagan.

O‘z MAning M-134-fondida qandolat, choy va pivo-salqinsiz ichimliklar sanoati korxonalari assosiatsiyasi («Oziqovqatsanoat») hujjatlari saqlanib, bu birlashma asosan oziq-ovqat sanoati korxonalarini birlashtiruvchi asosiy tarmoq tuzilmalaridan biridir. Fond hujjatlarida qayd etilishicha, assosiatsiya O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidentining 2004-yil 26-apreldagi PQ-3420-sonli qarori hamda Vazirlar Mahkamasining tegishli hujjatlari asosida tashkil etilgan. Dastlab ushbu uyushma davlat boshqaruvini markazlashtirishdan chiqarish va xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash maqsadida tuzilgan. U “O‘zoziqovqatsanoat” xolding kompaniyasi tarkibidagi tarmoqlarni muvofiqlashtiruvchi tuzilma sifatida ish boshlagan. Ushbu tarixiy jarayonlarga tegishli ma’lumotlar M-134 fondi hujjatlarida to‘plangan.

Xususan, mazkur fondda «Oziqovqatsanoat» uyushmasi tarkibiga kiruvchi «Toshkent pivo zavodi» jamoa korxonasi, «Toshkent «Lazzat» alkogolsiz ichimliklar zavodi» ochiq turdagi AJ, Toshkent mineral suvlar zavodi, «Toshkent chanqovbosdi ichimliklar zavodi» ochiq turdagi AJ, «Koka-kola — Toshkent ichimligi» qo‘shma korxonasi, Qibray chanqovbosdi ichimliklar kombinati, «Andijon alkogolsiz ichimliklar kombinati» ochiq turdagi AJ, «Buxoro pivo zavodi» ochiq turdagi AJ, «Namangan chanqovbosdi ichimliklar kombinati» ochiq turdagi AJ, «Samarqand pivo zavodi» ochiq turdagi AJ, «Farg‘ona chanqovbosdi ichimliklar zavodi» ochiq turdagi AJ, «Hamza mineral suvlar zavodi» ochiq turdagi AJ, «Qo‘qon pivo zavodi» ochiq turdagi AJ, «Nukus pivo zavodi» ochiq turdagi AJ, «Chortoq oziq-ovqat konsentratlari tajriba zavodi» ochiq turdagi AJ, «Samarqand «Narziya» qandolatchilik fabrikasi» ochiq turdagi AJ, «Toshkent «O‘rtoq» qandolatchilik fabrikasi» ochiq turdagi AJ, «Namangan «Dilorom» qandolatchilik fabrikasi» ochiq turdagi Aj, «Samarqand choy qadoqlash fabrikasi» ochiq turdagi AJ, «Toshkent oziq-ovqat konsentrati kombinati» ochiq turdagi AJ, «Oziqovqatsanoat» xo‘jalik hisobidagi loyiha-konstruktorlik byurosi, Xorazm qurilayotgan qand-shakar zavodi direksiyasi kabi tashkilotlarning ishlab chiqargan mahsulot turlari, savdo shartnomalari, eksport va import faoliyati, ularning bozor tashkilotlari bilan hamkorligi kabi masalalarga oid hujjatlar saqlanib, ularning savdo tarixi manbashunosligida o‘rni nihoyatda katta.

O‘zbekiston jahon oltin savdosida o‘ziga xos o‘rinni egallab, asosiy oltin eksportyorlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng mamlakatda oltin va uran qazib olish sanoatining rivojlanishida yangi tarixiy bosqich boshlandi. Bu davr mobaynida Navoiy KMKda Uchqudukda oltin ajratib olish majmuasi, gidrometallurgiya zavodi va Ko‘kpatas hamda Davg‘iztovda oltin konlarining qurilishi nihoyasiga yetkazildi va ular ishga tushirildi, “Zarafshon-Nyumont” qo‘shma korxonasi barpo qilindi, emulsiyali portlovchi moddalar ishlab chiqaruvchi zavod qurildi. Kombinatda ishlab chiqarilgan oltin yombilar. Tarkibida oltin mavjud bo‘lgan ma’danlarni qazib olish va qayta ishlash bo‘yicha Navoiy KMK ko‘p yillar mobaynida yuqori texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan barqaror faoliyat ko‘rsatdi. Mamlakat mustaqilligi yillarida oltin ishlab chiqarish 1,5 baravar ko‘paydi. Ishlab turgan korxonalarni texnik qayta jihozlash, yangi navbatlarni qurish, shuningdek, oltin ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini beruvchi eng yangi ilmiy-texnik tadqiqotlar joriy etildi.

2023-yilning dastlabki 7 oyida 5,6 mlrd dollarlik oltin sotgan. 2024-yilning mart oyida mamlakat oltin sotish bo‘yicha dunyoda yetakchilikni saqlab qoldi. Bundan tashqari, Markaziy bank aholi uchun oltin quymalarni (5-50 gr) tijorat banklari orqali sotuvga chiqargan. O‘zbekiston oltin savdosiga tegishli ma’lumotlar O‘z MAning M-6-fondida **(**Oltin qazib olish va olmoslarni qayta ishlash bo‘yicha korxonalar O‘zbekiston assosiatsiyasi“ Uzalmazzoloto”) saqlanayotgan hujjatlarda to‘plangan bo‘lib, mazkur yig‘ma jildlarning savdo tarixi manbashunosligida o‘rni yuqori.

Shuningdek, O‘z MA fondlaridan O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari eksporti, ya’ni ularni xorijiy davlatlarga sotishga doir ma’lumotlarni topish mumkin. O‘zbekiston tashqi savdo aylanmasining 70% dan ortig‘iga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha institutsional vazifa NBU’ning xalqaro vakillik tarmog‘i sifatiga chambarchas bog‘liqdir.Bugungi kunda NBU Markaziy Osiyodagi eng yirik vakillik tarmog‘iga ega bo‘lib, u dunyoning 80 mamlakatidagi 671 ta bankni o‘z ichiga oladi. Davlat arxivlarida mazkur bank, qolaversa, boshqa banklar va ularning savdoni tashkil etishdagi o‘rni masalasiga doir ma’lumotlar mavjud.

Savdo tarixini ishlab chiqishda o‘z o‘rnida viloyatlardagi davlat arxivi hujjatlarining ham manba sifatidagi o‘rni katta. Har bir viloyatdagi davlat arxivlarida, qolaversa, hokimliklar qoshidagi joriy arxivlarda ushbu mavzu doir nihoyatda xilma-xil ma’lumotlar mavjud. Masalan, mustaqillikning dastlabki 10 yilliklari tarixi bo‘yicha savdo tashkilotlari, ishlab chiqaruvchi korxonalarining faoliyatiga oid ma’lumotlarni davlat arxivlari hujjatlarida uchratish mumkin.

Xizmatlar sifati zamonaviy sharoitda korxonalarning raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iste’molchilar tanlovi kengaygani sari xizmat ko‘rsatish jarayonida tezkorlik, ishonchlilik, qulaylik, xavfsizlik va individual yondashuv kabi mezonlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli xizmatlar

sifati nafaqat iste’molchi qoniqishining ko‘rsatkichi, balki korxona moliyaviy natijalarining barqarorligini ta’minlovchi strategik resurs sifatida namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda raqamli iqtisodiyotga o‘tish jarayonlari, elektron hukumat tizimining joriy etilishi, moliyaviy va savdo xizmatlarining raqamlashtirilishi servis sohasida sifat ko‘rsatkichlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan, bank, transport, turizm, sog‘liqni saqlash va ta’lim xizmatlarida onlayn platformalar, mobil ilovalar va elektron to‘lov tizimlarining keng joriy etilishi xizmat ko‘rsatish jarayonining tezkorligi va shaffofligini oshirmoqda. Bu esa xizmatlar sifatini baholash va monitoring qilishning yangi metodologik yondashuvlarini talab etadi.

Shu bilan birga, xizmatlar sifati ko‘rsatkichlarining dinamik o‘zgarishini tizimli ravishda o‘rganish zarurati mavjud. Xizmatlar sifati va iqtisodiy samaradorlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash, sifat ko‘rsatkichlarining vaqt davomida qanday o‘zgarayotganini baholash hamda ularning raqobatbardoshlikka ta’sirini asoslash ilmiy jihatdan dolzarb masala hisoblanadi. Ayniqsa, servis sektorining YAIMdagi ulushi ortib borayotgan sharoitda sifat omilining iqtisodiy natijalarga ta’sirini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi – O‘zbekiston servis sohasida xizmatlar sifati ko‘rsatkichlarining 2018-2024-yillardagi dinamikasini tahlil qilish, ularning iqtisodiy samaradorlik bilan bog‘liqligini aniqlash hamda sifatni oshirishning asosiy omillarini baholashdan iborat. Tadqiqot doirasida servis sektorining rivojlanish tendensiyalari, raqamlashtirish darajasi, mijoz qoniqishi ko‘rsatkichlari va mehnat unumdorligi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik o‘rganiladi.

Shunday qilib, xizmatlar sifati ko‘rsatkichlarining dinamik tahlili nafaqat alohida korxonalar darajasida, balki tarmoq va milliy iqtisodiyot miqyosida barqaror rivojlanishni ta’minlash uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqot servis sektorida sifat menejmenti tizimini takomillashtirish va raqobatbardoshlikni oshirish yo‘nalishlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Avvalo, xizmatlar sifati tushunchasining nazariy asoslari Parasuraman, Zeithaml va Berry tomonidan ishlab chiqilgan SERVQUAL modeli bilan bog‘liq. Ular xizmat sifati iste’molchi kutilmalari va real qabul qilingan natija o‘rtasidagi tafovut asosida baholanishini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Mazkur yondashuv sifat ko‘rsatkichlarini o‘lchashda ko‘p mezonli tizimdan foydalanishni taklif etadi. Bu model dinamik tahlil uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi, chunki sifat ko‘rsatkichlarining vaqt davomida o‘zgarishi iste’molchi kutilmalari bilan bog‘liq holda baholanadi.

Raqobat ustunligi nuqtai nazaridan Michael Porter xizmatlar sifati korxonaning differensiallashuv strategiyasida asosiy omil ekanini ta’kidlaydi. Uning fikricha, yuqori sifat barqaror raqobat ustunligini yaratadi va uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikni ta’minlaydi. Bu yondashuv xizmatlar sifati ko‘rsatkichlarining dinamik o‘sishi bevosita bozor ulushi va daromadlar o‘sishi bilan bog‘liqligini tushuntiradi.

Raqamli transformatsiya sharoitida xizmatlar sifati ko‘rsatkichlarining o‘zgarishini tahlil qilishda Erik Brynjolfsson tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega. U raqamli texnologiyalar mehnat unumdorligi va xizmat ko‘rsatish samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini asoslab beradi. Uning ilmiy xulosalariga ko‘ra, raqamlashtirish jarayonlari xizmat sifati indikatorlarining dinamik o‘sishiga olib keladi, ayniqsa tezkorlik va shaffoflik ko‘rsatkichlari bo‘yicha sezilarli natija beradi.

O‘zbekiston sharoitida xizmatlar sifati va uning iqtisodiy natijadorlik bilan bog‘liqligi masalalari mahalliy olimlar tomonidan ham o‘rganilgan. Xususan, Said Gulyamov raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmatlar sifati ko‘rsatkichlari innovatsion rivojlanishning muhim omili ekanini ta’kidlaydi. U raqamlashtirish jarayonlari xizmat ko‘rsatish samaradorligi va mijoz qoniqishiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini ilmiy asoslaydi.

Bakhodir Khodiev milliy iqtisodiyotda tarkibiy transformatsiya jarayonlarini tahlil qilar ekan, servis sektorining YAIMdagi ulushi ortib borayotganini qayd etadi. Uning fikricha, xizmatlar sifati oshishi iqtisodiy o‘sish sur’atlarini tezlashtiradi hamda investitsion jozibadorlikni kuchaytiradi. Bu yondashuv xizmatlar sifati ko‘rsatkichlarini makroiqtisodiy darajada dinamik tahlil qilish zaruratini asoslaydi.

Shuningdek, Botir Rasulov xizmatlar sohasida iqtisodiy samaradorlikni oshirish omillarini tadqiq etib, sifat ko‘rsatkichlari va moliyaviy natijalar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. U xizmatlar sifati dinamikasini baholashda mijoz qoniqishi, rentabellik va mehnat unumdorligi kabi indikatorlardan foydalanishni taklif etadi.

Mazkur tadqiqotda O‘zbekiston servis sohasida xizmatlar sifati ko‘rsatkichlarining dinamikasini o‘rganish uchun tizimli va statistik yondashuvdan foydalanildi. Dastlab nazariy tahlil usuli yordamida xizmatlar sifati bo‘yicha mavjud ilmiy qarashlar umumlashtirildi hamda asosiy indikatorlar aniqlashtirildi. Keyingi bosqichda 2018-2024-yillar kesimida servis sohasining asosiy ko‘rsatkichlari (YaIMdagi ulushi, mijoz qoniqishi darajasi, raqamlashtirish ko‘rsatkichi, mehnat unumdorligi) dinamik qatorlar usuli asosida tahlil qilindi. Solishtirma va indeks usullari orqali xizmatlar sifati hamda iqtisodiy samaradorlik o‘rtasidagi bog‘liqlik baholandi. Olingan natijalar asosida xizmatlar sifati ko‘rsatkichlarining o‘zgarish tendensiyalari va ularning iqtisodiy natijalarga ta’siri aniqlashtirildi.

Natijalar va muhokama. O‘zbekiston iqtisodiyotida servis sohasi so‘nggi yillarda tarkibiy o‘sishning asosiy drayverlaridan biriga aylanmoqda. Iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, bandlikni kengaytirish va yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish jarayonida xizmatlar sektori yetakchi o‘rin egallay boshladi. Bunday sharoitda nafaqat xizmatlar hajmi, balki ularning sifati ham strategik ahamiyat kasb etmoqda.

Raqamli transformatsiya, moliyaviy xizmatlarning modernizatsiyasi, turizm va logistika infratuzilmasining rivojlanishi xizmatlar ko‘rsatish jarayonini yangi bosqichga olib chiqdi. Shu bilan birga, xizmatlar sifati ko‘rsatkichlarining vaqt bo‘yicha o‘zgarishini ilmiy asosda tahlil qilish, ularning iqtisodiy samaradorlik va raqobatbardoshlikka ta’sirini aniqlash dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

Mazkur sharoitda servis sohasining YaIMdagi ulushi, raqamlashtirish darajasi va mijoz qoniqishi kabi indikatorlarni dinamik tahlil qilish iqtisodiy siyosat va boshqaruv qarorlarini asoslashda muhim ahamiyatga ega.

Rasm ma’lumotlari servis sektorida 2019-2024-yillar davomida barqaror va tezlashuvchi o‘sish tendensiyasi shakllanganini ko‘rsatadi. 2020-yilda o‘sish sur’atining pasayishi tashqi iqtisodiy omillar ta’siri bilan izohlanadi. Biroq 2021-yildan boshlab sektorning real o‘sish sur’ati izchil ravishda yuqorilab borgan va 2024-yilda ikki xonali ko‘rsatkichga yetgan.



1-rasm. Servis sohasining real o‘sish sur’ati (%)

Dinamik qatorlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘sish sur’atining barqarorlashuvi xizmatlar sifatining yaxshilanishi, raqamlashtirish jarayonlari va ichki talabning kengayishi bilan bog‘liq. Real o‘sishning yuqori darajada saqlanishi servis sektorida taklif etilayotgan xizmatlarning bozordagi talabga moslashganini va sifat ko‘rsatkichlarining ijobiy dinamikaga ega ekanini bildiradi.

Makroiqtisodiy nuqtai nazardan, real o‘sish sur’atining barqarorligi sektorning iqtisodiy tizimdagi rolini mustahkamlaydi hamda xizmatlar sifati iqtisodiy barqarorlik omiliga aylanganini tasdiqlaydi.



2-rasm. Elektron (onlayn) xizmatlar ulushi (%)

2-rasmda elektron xizmatlar ulushining izchil o‘sib borishi kuzatiladi. 2019-yildagi past darajadan boshlab 2024-yilgacha uch barobarga yaqin o‘sish qayd etilgan. Bu servis sohasining raqamli transformatsiyasi chuqurlashganini ko‘rsatadi.

Elektron xizmatlar ulushining ortishi quyidagi sifat omillariga ta’sir ko‘rsatadi:

- xizmat ko‘rsatish tezkorligi oshadi;
- inson omili bilan bog‘liq xatolar kamayadi;
- xizmat ko‘rsatish jarayoni shaffoflashadi;
- mijozlar uchun qulaylik darajasi ortadi.

Shunday qilib, elektron xizmatlar ulushi xizmatlar sifati indikatorining zamonaviy, obyektiv o‘lchov mezoni sifatida qaraladi. Mazkur ko‘rsatkichning dinamik o‘sishi sifat menejmenti tizimining raqamli asosga o‘tayotganini ko‘rsatadi.



3-rasm. Bir xodimga to‘g‘ri keladigan xizmatlar hajmi (mln. so‘m)

Rasm ma’lumotlariga ko‘ra, bir xodimga to‘g‘ri keladigan xizmatlar hajmi 2019-2024-yillarda sezilarli oshgan. Bu mehnat unumdorligining izchil o‘sishini anglatadi.

Unumdorlikning oshishi quyidagi omillar bilan bog‘liq:

- xizmat jarayonlarining avtomatlashtirilishi;
- raqamli boshqaruv platformalarining joriy etilishi;
- sifat monitoringi va KPI tizimining kuchayishi.

Mehnat unumdorligi ko‘rsatkichi xizmat sifati va iqtisodiy samaradorlik o‘rtasidagi bevosita bog‘liqlikni aks ettiradi. Unumdorlik o‘sishi xizmat ko‘rsatish sifati barqarorlashganini va operatsion xarajatlar optimallashtirilganini bildiradi.

Rasmda real o‘sish sur’ati, elektron xizmatlar ulushi va mehnat unumdorligi parallel ravishda o‘sib borayotgani tasvirlangan. Grafik tahlili uchala ko‘rsatkich o‘rtasida musbat dinamik bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi.



4-rasm. Servis sohasida sifat va samaradorlik ko‘rsatkichlarining dinamik o‘sish modeli

Raqamlashtirish darajasi oshishi → mehnat unumdorligi oshishi → real iqtisodiy o‘sish sur’ati tezlashishi zanjiri shakllangan.

Vizual tahlil shuni ko‘rsatadiki, 2021-yildan boshlab elektron xizmatlar ulushi keskin o‘sgan davrda mehnat unumdorligi ham yuqori sur’atda oshgan. Bu esa xizmat sifati modernizatsiyasi va iqtisodiy natijadorlik o‘rtasida kuchli funksional bog‘liqlik mavjudligini tasdiqlaydi.

Grafik dinamikasi xizmatlar sifati ko‘rsatkichlarining makroiqtisodiy natijalarga uzluksiz va tizimli ta’sir ko‘rsatayotganini ko‘rsatadi.

Xulosa. O‘zbekiston servis sohasida xizmatlar sifati ko‘rsatkichlarining dinamik tahlili shuni ko‘rsatdiki, so‘nggi yillarda sektor barqaror va izchil rivojlanish bosqichiga o‘tgan. Servis sohasining real o‘sish sur’atlari, elektron xizmatlar ulushining kengayishi hamda mehnat unumdorligining oshishi xizmatlar sifati ko‘rsatkichlarining ijobiy dinamikaga ega ekanini tasdiqlaydi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, raqamli transformatsiya jarayonlari xizmatlar sifati oshishining asosiy drayveri bo‘lib xizmat qilmoqda. Elektron xizmatlar ulushining ortishi xizmat ko‘rsatish tezkorligi, shaffofligi va qulayligini yaxshilagan, bu esa mijozlar talabining kengayishiga hamda sektorning iqtisodiy o‘sish sur’atlarining tezlashishiga olib kelgan.

Mehnat unumdorligining izchil o‘sishi xizmat ko‘rsatish jarayonlarining optimallashtirilganini va boshqaruv samaradorligining kuchayganini anglatadi. Bu esa xizmatlar sifati va iqtisodiy samaradorlik o‘rtasida bevosita va musbat bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, O‘zbekiston servis sohasida xizmatlar sifati ko‘rsatkichlari barqaror ijobiy dinamikaga ega bo‘lib, ularning rivojlanishi iqtisodiy o‘sish, raqobatbardoshlik va investitsion jozibadorlikni ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Kelgusida xizmatlar sifati monitoringini takomillashtirish, raqamli infratuzilmani yanada kengaytirish hamda kadrlar

salohiyatini oshirish sektorning barqaror rivojlanishini ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlari bo‘lib qoladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Parasuraman., Valarie Zeithaml., Leonard Berry. SERVQUAL: A Multiple-Item Scale for Measuring Consumer Perceptions of Service Quality // Journal of Retailing. – 1988. – Vol. 64(1).
2. Michael Porter. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. – New York: Free Press, 1985.
3. Erik Brynjolfsson., McAfee A. The Second Machine Age. – New York: W.W. Norton & Company, 2014.
4. W. Edwards Deming. Out of the Crisis. – MIT Press, 1986.
5. ISO 9001:2015. Quality Management Systems – Requirements. – International Organization for Standardization, 2015.
6. Said Gulyamov. Raqamli iqtisodiyot asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018.
7. Bakhodir Khodiev. Milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish muammolari. – Toshkent: Fan, 2019.
8. Botir Rasulov. Xizmatlar sohasida iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo‘llari. – Toshkent: Iqtisodiyot va moliya, 2020.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari (2018–2024-yillar). – Toshkent, 2025.
10. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasi. – Toshkent, 2023.
11. World Bank. World Development Report: Digital Dividends. – Washington DC, 2016.
12. OECD. Digital Economy Outlook. – Paris, 2023.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 4 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 March 2026
Accepted: 01 April 2026
Published: 15 April 2026

Article / Original Paper

METHODOLOGY FOR ASSESSING THE ECONOMIC SECURITY AND COMPETITIVENESS OF ENTERPRISES BASED ON THE INNOVATION MARKETING INDEX

Toxirov Akbarxon Toirxon ogli
Tashkent Chemical-Technological Institute (TCTI), Department of Management
Independent Researcher
Tashkent Institute of Chemical Technology
E-mail: phdakbar90@gmail.com
http://www.orcid.org/0000-0003-0577-0277

Abstract. This article studies the role of the innovative marketing factor in ensuring the economic security and increasing the competitiveness of enterprises. As part of the research, an integrated indicator for assessing innovative marketing activities at enterprises, the innovative marketing index (IMI), was developed. The results of the study showed that the economic stability and competitiveness of enterprises increase as the level of use of innovative marketing tools increases.

Keywords: innovative marketing, economic security, competitiveness, IMI, digital marketing, CRM, SMM, artificial intelligence, enterprise management.

INNOVATSION MARKETING INDEKSI ASOSIDA KORXONALARNING IQTISODIY XAVFSIZLIGI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI

Toxirov Akbarxon Toirxon o‘g‘li
TKTI, Menejmenti kafedrasi
mustaqil izlanuvchisi,
Toshkent kimyo-texnologiya insituti

Annotatsiya. Mazkur maqolada korxonalarning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash va raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion marketing omilining roli o‘rganilgan. Tadqiqot doirasida korxonalarda innovatsion marketing faoliyatini baholash uchun integrallashgan ko‘rsatkich — innovatsion marketing indeksi (IMI) ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari innovatsion marketing vositalaridan foydalanish darajasi oshgan sari korxonalarning iqtisodiy barqarorligi va raqobatbardoshligi ortishini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: innovatsion marketing, iqtisodiy xavfsizlik, raqobatbardoshlik, IMI, digital marketing, CRM, SMM, sun’iy intellekt, korxona boshqaruvi.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N16

Kirish. Biznes modellar va texnologiyalarning tez sur’atlarda o‘zgarishi, shuningdek mahsulotlarning hayotiylik davri qisqarishi korxona raqobatbardoshligini innovatsiyalarsiz oshirishning imkoni yo‘qligini tasdiqlovchi obyektiv haqiqatdir. Korxona raqobatbardoshligi uning o‘z sohasida o‘xshash mahsulot ishlab chiqaruvchi raqiblariga nisbatan ustunlik darajasini ifodalaydi.

Korxona iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash hamda raqobatbardoshligini oshirishning muhim yo‘llaridan biri innovatsion g‘oyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish hisoblanadi. Shu bilan birga, raqobat muhitining doimiy o‘zgarishi marketing sohasida innovatsion yondashuvlardan foydalanish zaruratini kuchaytirmoqda.

Inqirozli sharoitlarda iste’molchilar talabiga mos mahsulot ishlab chiqarish korxonaning bozordagi raqobatbardoshligini oshiradi va uni samarali faoliyat yuritishga undaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, texnologik innovatsiyalarni joriy etishda moliyaviy resurslar yetishmovchiligi yuzaga kelgan holatlarda innovatsion marketing korxonaning raqobat kurashidagi asosiy vositaga aylanadi. Korxonaning bozor muhitidagi muvaffaqiyati uning mijozlari tomonidan belgilanadi. Agar mijozlar mahsulot va xizmatlarni ularni ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlardan yuqori baholasa, biznes rivojlanadi; aks holda esa u tashqi qo‘llab-quvvatlashga muhtoj bo‘ladi yoki inqirozga uchrashi mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Innovatsion marketing indeksi iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashdagi o‘rni va ahamiyati bo‘yicha ilmiy manbalar o‘rganildi. O‘zbekiston va xalqaro ilmiy-adabiyotlar, ilmiy maqolalar va monografiyalardan foydalanib, innovatsion marketing iqtisodiy xavfsizlikka bo‘lgan ta’siri haqida nazariy asoslar shakllantirildi. Shuningdek, iqtisodiy xavfsizlik bo‘yicha turli yondashuvlar va konsepsiyalar ko‘rib chiqildi.

Adrian Payne – “CRM and Customer Value” tadqiqot ishida CRM tizimlari orqali mijozlar qiymatini oshirish va sodiqlikni shakllantirish mexanizmlari yoritilgan. IMI indeksidagi CRM komponenti uchun asosiy manba ekanligi isbotlangan [1; Б.7.].

Akbarxon Toxirov – “Sanoat korxonalarida iqtisodiy xavfsizlikni ekonometrik modellashtirish” maqolasida sanoat korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashda ekonometrik modellashtirishning ahamiyati va dolzarbligi muhokama qilinadi [2; Б.61-69.].

Dave Chaffey – “Digital Marketing: Strategy, Implementation and Practice” asarida raqamli marketing strategiyalari va ularni amaliyotga joriy etish mexanizmlari ko‘rib chiqiladi. IMI indeksidagi Digital Marketing (DM) komponentini asoslash uchun muhim manba ekanligi ta’kidlanadi [3; Б.7.].

Davenport Thomas et al. – “Artificial Intelligence in Marketing” ishida AI asosidagi marketing vositalari (predictive analytics, targeting) va ularning biznes samaradorligiga ta’siri yoritilgan. IMI indeksidagi AI komponenti uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qilishi asoslangan [4; Б. 24–42.].

Kaplan Andreas & Michael Haenlein – “Users of the World, Unite!” ishida ijtimoiy tarmoqlarning marketingdagi roli va korxona strategiyasiga ta’siri tahlil qilingan. IMI indeksidagi SMM komponenti uchun asosiy nazariy jihatdan isbotlangan [5; Б59–68.].

Robert Kaplan & David Norton – “Balanced Scorecard” ilmiy tadqiqotida korxona faoliyatini kompleks baholash tizimi ishlab chiqilgan. IMI indeksini KPI sifatida qo‘llash uchun metodologik asoslangan va amaliy ahamiyati ochib berilgan [6; Б.7.].

Philip Kotler – “Marketing 4.0: Moving from Traditional to Digital” asarida marketingning an’anaviy shakllardan raqamli va interaktiv shakllarga o‘tishi yoritiladi. Muallif innovatsion marketing vositalari (SMM, digital platformalar, customer engagement) orqali korxona samaradorligini oshirish mexanizmlarini tushuntiradi [7; Б.7.].

Philip Kotler & Kevin Lane Keller – “Marketing Management” ishida marketing boshqaruvi, brending, mijozlar bilan munosabatlar va raqamli marketing strategiyalari batafsil

tahlil qilingan. Innovatsion marketing komponentlarini (CRM, branding) tushuntirish uchun asosiy manba hisoblanadi [8; Б.7.].

Hult Tomas M. et al. – “Market Orientation and Performance” ishida bozorga yo‘naltirilganlik va marketing innovatsiyasi korxona natijalariga qanday ta’sir qilishi tahlil qilingan. Bu IMI va iqtisodiy xavfsizlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni asoslashda samarali ahamiyatga ega [9; Б. 117–132.].

Michael Porter – “Competitive Advantage” ishida korxonaning raqobat ustunligini shakllantirish mexanizmlari ko‘rib chiqilgan. Marketing strategiyalari orqali xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash g‘oyalari ilmiy isbotlangan [10; Б.7.].

Vesna Zabkar et al. – “The Impact of Innovation on Firm Performance” ishida innovatsiyalar (jumladan marketing innovatsiyalari) korxona samaradorligi va raqobatbardoshligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi empirik jihatdan isbotlangan [11; Б. 589–597.].

Muhokama. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion marketing yangi mahsulotlar, uskunalar, xizmatlar va texnologiyalarni ishlab chiqish hamda ularni bozorda samarali sotish uchun zamonaviy marketing yondashuvlaridan foydalanish bilan bog‘liqdir. Korxonalar faoliyatini tahlil qilish marketing sohasida innovatsiyalarni qo‘llash iste’molchilar ehtiyojlarini to‘liq qondirish va yangi bozorlarni o‘zlashtirish imkonini berishini ko‘rsatadi.

Ilmiy izlanishlar natijasida innovatsiyalar o‘z ahamiyatiga ko‘ra ikki asosiy guruhga ajratiladi [2]:

1. **Shakliga ko‘ra innovatsiyalar**: mahsulot innovatsiyasi (moddiy natija), xizmat innovatsiyasi (nomoddiy natija), jarayon va texnologik innovatsiyalar, kadrlar innovatsiyasi hamda ishlab chiqarish tizimlarini yangilash yoki takomillashtirish.

2. **Yangilik darajasiga ko‘ra innovatsiyalar**: inkremental (bosqichma-bosqich), modulli, arxitekturaviy va radikal (keskin yangiliklar).

Demak, innovatsiyalar mahsulot, xizmat va jarayonlarda turli darajadagi o‘zgarishlarni ifodalab, ularning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar texnologik rivojlanish innovatsion boshqaruv va innovatsion marketing bilan uzviy bog‘liq holda kechishi zarurligini ko‘rsatadi. Bu jarayonda quyidagi yo‘nalishlar muhim hisoblanadi:

1. Texnologik innovatsiyalarni joriy etish va yangi bozorlarni egallash;
2. Iste’molchi faolligini oshirishning yangi usullarini ishlab chiqish;
3. Kombinatsiyalashgan innovatsion marketingni rivojlantirish.

Korxonalarda mavjud muammolarni innovatsiyalar yordamida hal etish mumkin. Avvallari ko‘plab kompaniyalar daromadni asosan ishlab chiqarish hajmini kengaytirish orqali oshirgan. Biroq rivojlangan mamlakatlarda demografik o‘sishning sekinlashuvi hamda xomashyo narxlarining oshishi innovatsiyalardan keng foydalanish zaruratini kuchaytirdi va innovatsion jarayonlarning jadallashuviga turtki berdi.Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashda marketing faoliyati muhim o‘rin egallaydi. Ayniqsa, raqamli transformatsiya jarayonlari jadallashgan bir davrda innovatsion marketing vositalaridan foydalanish darajasi korxonaning raqobatbardoshligi va barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, korxonalarda innovatsion marketingni baholash uchun integrallashgan ko‘rsatkich — Innovatsion marketing indeksi (IMI) ni ishlab chiqish zarurati yuzaga keladi.

Innovatsion marketing indeksi (IMI) — bu korxonaning zamonaviy marketing texnologiyalaridan foydalanish darajasini kompleks baholovchi ko‘rsatkich bo‘lib, u iqtisodiy xavfsizlik va raqobatbardoshlikni aniqlashda muhim indikator sifatida xizmat qiladi.

$$IMI = \frac{SMM + CRM + DM + AI + BR}{5}$$

Bu yerda:

- SMM — ijtimoiy tarmoqlarda marketing faolligi
- CRM — mijozlar bilan ishlash tizimi darajasi
- DM (Digital Marketing) — raqamli marketing vositalaridan foydalanish
- AI — sun’iy intellekt asosidagi marketing texnologiyalari
- BR (Branding) — brendni rivojlantirish darajasi

Har bir ko‘rsatkich 0 dan 10 gacha ball bilan baholanadi.

IMI baholash shkalasi:

IMI qiymati	Daraja	Tavsif
0 – 3	Past	Marketing innovatsiyasi deyarli yo‘q
4 – 7	O‘rta	Qisman innovatsion
8 – 10	Yuqori	To‘liq innovatsion marketing tizimi

Korxona iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashda yangi axborot texnologiyalari asosidagi uzluksiz innovatsiyalar muhim rol o‘ynaydi, chunki ular iste’molchilarning xulq-atvorini tubdan o‘zgartiradi. Masalan, turli tovar va xizmatlarni internet orqali, uyidan chiqmagan holda xarid qilish imkoniyati shunday innovatsiyalarning amaliy ko‘rinishidir. Uzluksiz (dinamik) innovatsiyalar eng samarali turlardan biri bo‘lib, ularni joriy etishda iste’molchiga yangi mahsulot yoki xizmatning ahamiyati va zarurligini alohida tushuntirish uchun qo‘shimcha xarajatlar talab etilmaydi.

Innovatsion mahsulotlar, o‘z navbatida, ham jismoniy, ham axborot jihatlari bilan tavsiflanadi. Zamonaviy iste’molchi ko‘pincha innovatsion tovarni faqat uning jismoniy xususiyatlari yig‘indisi sifatida qabul qilsa, bunday mahsulotlar yetarlicha jozibador bo‘lmay qoladi va ularga bo‘lgan talab past darajada shakllanadi.

Natijalar. Tadqiqot obyekti sifatida O‘zbekiston yog‘-moy sanoati tarkibiga kiruvchi 5 ta korxonasi tanlab olindi. Yog‘-moy sanoati O‘zbekiston iqtisodiyotida strategik ahamiyatga ega bo‘lib, ushbu tarmoqda korxonalarning iqtisodiy xavfsizligi ko‘p jihatdan xomashyo ta’minoti, bozor talabi va narxlar o‘zgaruvchanligiga bog‘liq. Shu sababli mazkur sohada innovatsion marketing vositalaridan foydalanish korxonaning barqaror faoliyat yuritishida muhim omil hisoblanadi. Korxonalarning iqtisodiy xavfsizlik darajasi ekspert baholash va asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlar asosida aniqlanib, 0–10 diapazonda ifodalandi.

Tahlil jarayonida 5 ta korxonaning IMI komponentlari bo‘yicha ballar hisoblandi va umumiy indeks aniqlanib, iqtisodiy xavfsizlik darajasi bilan solishtirildi. Natijalar IMI komponentlari bo‘yicha baho 1-jadvalda aks etgan, IMI va iqtisodiy xavfsizlik o‘rtasidagi bog‘liqlik 1-jadvalda aks etgan.

1-jadval: IMI komponentlari bo‘yicha baho

Korxona	SMM (0-10)	CRM (0-10)	DM (0-10)	AI (0-10)	BR (0-10)	IMI
“Yangiyo‘l Yog‘-Moy” MChJ	8	7	9	6	8	7.6
“Guliston Yog‘ Ekstraksiya Zavodi”	6	5	6	4	6	5.4
“AGRO OIL GROUP”	9	8	9	7	9	8.4
“Kokand Oil Extraction Plant”	4	4	5	3	5	4.2
“Bukhara Cotton Oil”	7	6	7	5	7	6.4

2-jadval: IMI va iqtisodiy xavfsizlik ko‘rsatkichlari

Korxona	IMI	Rentabellik (%)	Moliyaviy barqarorlik	Risk darajasi	Iqtisodiy xavfsizlik (ball)
“Yangiyo‘l Yog‘-Moy” MChJ (A)	7.6	18%	Yuqori	Past	8.2
“Guliston Yog‘ Ekstraksiya Zavodi” (B)	5.4	11%	O‘rta	O‘rta	6.1
“AGRO OIL GROUP” (C)	8.4	22%	Yuqori	Past	9.0
“Kokand Oil Extraction Plant” (D)	4.2	8%	Past	Yuqori	5.3
“Bukhara Cotton Oil” (E)	6.4	14%	O‘rta	O‘rta	7.0

Yuqoridagi jadvallar natijalarini quyidagicha izohlash mumkin:

Korxona C (IMI = 8.4) eng yuqori natijani qayd etdi. Ushbu korxonada SMM (9 ball), digital marketing (9 ball) va brending (9 ball) yuqori darajada rivojlangan. Natijada rentabellik 22% ga yetgan va iqtisodiy xavfsizlik darajasi 9.0 ni tashkil etgan. Bu innovatsion marketing faoliyati bevosita moliyaviy barqarorlikni oshirishini ko‘rsatadi.

Korxona D (IMI = 4.2) eng past natijani ko‘rsatdi. Ushbu korxonada marketing innovatsiyalari deyarli joriy etilmagan. Natijada risk darajasi yuqori, rentabellik past (8%) va iqtisodiy xavfsizlik darajasi atigi 5.3 ni tashkil etdi. Bu innovatsion marketing yetishmasligi xavfsizlikka salbiy ta’sir qilishini isbotlaydi.

Korxona A va E o‘rta-yuqori darajada IMI ko‘rsatkichiga ega bo‘lib, ular barqaror o‘sish va o‘rtacha xavfsizlik darajasini namoyish etdi.

Xulosa. Innovatsion marketing korxonaning ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish hamda bozor sharoitlariga faol ta’sir ko‘rsatishga yo‘naltirilgan faoliyat turi hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, innovatsiya hayotiylik siklining har bir bosqichi o‘ziga xos marketing yondashuvlari, strategiya va taktikalardan foydalanishni talab etadi.

Innovatsion marketing faoliyati tizimi faqat ishlab chiqarishni yangilash bilan cheklanib qolmay, balki kapitalning jamlanishi va uning harakati dinamikasi bilan ham uzviy bog‘liqdir. Ushbu marketing turi yuqori darajadagi foyda olishni maqsad qilgan korxonalar uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, innovatsiyalarga asoslangan raqobat ustunligini shakllantirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, innovatsion marketing nafaqat yangi yoki mavjud mahsulotlarni bozorda sotishni, balki yangi texnologiyalarni joriy etishni ham qamrab oladi. U yangi mahsulotlar va texnologik jarayonlarga oid ixtirolar hamda nou-xaular uchun litsenziyalarni

sotish, shuningdek ishlab chiqarish uskunalarini takomillashtirish kabi yo‘nalishlarni ham o‘z ichiga oladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Adrian, Payne. *Handbook of CRM: Achieving Excellence in Customer Management*. Oxford: Butterworth-Heinemann, 2006.
2. Akbarxon Toxirov. (2024). Sanoat korxonalarida iqtisodiyot xavfsizligini ekonometrik modellash. *Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari Aktualnye muammolari ijtimoiy-gumanitarnyh nauk Gumanitar va ijtimoiy fanlarning dolzarb muammolari.* , *4* (3). 61-69 bet https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I3Y2024N08
3. Chaffey, Dave. *Digital Marketing: Strategy, Implementation and Practice*. London: Pearson Education, 2022.
4. Davenport, Thomas H., Abhijit Guha, Dhruv Grewal, and Timna Bressgott. “How Artificial Intelligence Will Change the Future of Marketing.” *Journal of the Academy of Marketing Science* 48 (2020): 24–42.
5. Kaplan, Andreas M., and Michael Haenlein. “Users of the World, Unite! The Challenges and Opportunities of Social Media.” *Business Horizons* 53, no. 1 (2010): 59–68.
6. Kaplan, Robert S., and David P. Norton. *The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action*. Boston: Harvard Business School Press, 1996.
7. Kotler, Philip. *Marketing 4.0: Moving from Traditional to Digital*. Hoboken, NJ: John Wiley & Sons, 2017.
8. Kotler, Philip, and Kevin Lane Keller. *Marketing Management*. 15th ed. Harlow: Pearson Education Limited, 2016.
9. Hult, Tomas M., and David J. Ketchen Jr. “Market Orientation and Performance: An Integration of Disparate Approaches.” *Journal of Marketing* 69, no. 4 (2005): 117–132.
10. Porter, Michael E. *Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance*. New York: Free Press, 1985.
11. Zabkar, Vesna, Maja Kolar, and Mitja Marič. “The Impact of Innovation on Firm Performance.” *Journal of Business Research* 66, no. 4 (2013): 589–597.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 4 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 March 2026
Accepted: 01 April 2026
Published: 15 April 2026

Article / Original Paper

CONCEPTUAL FOUNDATIONS OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF THE TOURISM SECTOR IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION

Ismoilov Bekzod Muxidinovich
Master's student at Oriental University
E-mail: Begzodismoilov1983@gmail.com

Abstract. This article explores the sustainable development trends of the tourism sector in the context of global economic changes. During the research, a comparative analysis of the indicators of the global and Uzbekistan tourism markets for 2024-2025 was conducted, and the digital transformation processes in the industry were evaluated. The article develops scientifically based proposals for forming an innovative ecosystem in tourism, implementing "Smart Tourism" technologies, and diversifying the export of services.

Keywords: globalization, innovative economy, tourism methodology, digital transformation, "uzbekistan-2030" strategy, smart tourism, tourism cluster, multiplier effect.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA TURIZM SOHASINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

Ismoilov Bekzod Muxidinovich
Oriental universiteti magstranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada global iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida turizm sohasining barqaror rivojlanish tendensiyalari o'rganilgan. Tadqiqot davomida 2024-2025-yillardagi jahon va O'zbekiston turizm bozori ko'rsatkichlari qiyosiy tahlil qilinib, sohadagi raqamli transformatsiya jarayonlari baholangan. Maqolada turizmda innovatsion ekotizimni shakllantirish, "Aqlli turizm" (Smart Tourism) texnologiyalarini joriy etish va xizmatlar eksportini diversifikatsiya qilish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: globalizatsiya, innovatsion iqtisodiyot, turizm metodologiyasi, raqamli transformatsiya, "O'zbekiston-2030" strategiyasi, Smart turizm, turistik klaster, multiplikativ samara.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N17

Kirish. XXI asrning uchinchi o'n yilligiga kelib, turizm shunchaki dam olish va madaniy hordiq chiqarish vositasi chegarasidan chiqib, jahon iqtisodiyotining harakatlantiruvchi kuchi, bandlikni ta'minlovchi va hududlar infratuzilmasini rivojlantiruvchi global ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida e'tirof etilmoqda. Bugungi kunda jahon yalpi ichki mahsulotining (YAIM) salmoqli qismi, xizmatlar eksportining qariyb 30 foizi aynan xalqaro turizm hissasiga to'g'ri kelayotgani fikrimizning yaqqol dalilidir. Ammo, zamonaviy globallashuv jarayonlari turizm bozorida keskin raqobat muhitini shakllantirdi. Endilikda mamlakatlar o'zlarining tabiiy va tarixiy resurslari bilan emas, balki turistlarga taklif etayotgan innovatsion xizmatlari, qulay raqamli platformalari va xavfsizlik kafolatlari bilan raqobatlashmoqda.

Jahon turizm tashkiloti (UNWTO)ning 2024-yil yakunlari bo'yicha e'lon qilgan hisobotiga ko'ra, global turizm industriyasi pandemiyadan keyingi tiklanish bosqichini to'liq yakunladi. 2024-yilda xalqaro sayyohlar oqimi 2019-yilgi inqirozgacha bo'lgan darajadan 2

foizga oshdi, sohaning global iqtisodiyotdagi moliyaviy hissasi esa rekord darajaga - 11,1 trillion AQSH dollariga yetishi prognoz qilingan edi.

O‘zbekiston Respublikasida ham so‘nggi yillarda turizm strategik tarmoq darajasiga ko‘tarildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Turizm - bu iqtisodiyot, turizm - bu investitsiya, turizm - bu yangi ish o‘rinlari demakdir”. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida mamlakatimizni mintaqaviy turizm xabiga aylantirish, 2025-yilga qadar xorijiy sayyohlar sonini 12 million nafarga, turizm xizmatlari eksportini esa 2,5 milliard AQSH dollariga yetkazish vazifasi qo‘yilgan.[1. PF-158-son.] Ushbu ulkan maqsadlarga erishish faqatgina ekstensiv (son jihatdan) o‘sish hisobiga emas, balki sohani innovatsion (sifat jihatdan) rivojlantirish orqali amalga oshishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada ko‘tarilgan muammolarni o‘rganish va ilmiy yechimlar ishlab chiqishda quyidagi tadqiqot usullaridan foydalanildi: Tizimli tahlil: Turizm sohasiga yaxlit iqtisodiy tizim sifatida yondashilib, uning tarkibiy qismlari (turoperatorlar, mehmonxonalar, transport logistikasi, davlat boshqaruvi) o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar va innovatsion jarayonlarning ta’siri o‘rganildi. Qiyosiy tahlil: Rivojlangan mamlakatlar (Ispaniya, Turkiya, BAA) va O‘zbekistonning turizm sohasidagi innovatsion strategiyalari solishtirildi. Bu orqali milliy bozorga mos keluvchi “best practices” (ilg‘or tajribalar) aniqlandi. Statistik guruhlash va trendlarni baholash: O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, Turizm qo‘mitasi hamda xalqaro tashkilotlar (UNWTO, WTTC)ning 2019-2024 yillardagi ma’lumotlari asosida dinamik o‘zgarishlar tahlil qilindi. Mantiqiy deduksiya va induksiya: Umumiy iqtisodiy nazariyalardan (Y.Shumpeterning innovatsiya nazariyasi) kelib chiqib, xususiy xulosalar chiqarildi hamda amaliy faktlar asosida nazariy takliflar shakllantirildi. Prognozlashtirish: Mavjud o‘sish sur’atlari (Trend line) asosida 2025-2026 yillar uchun kutilayotgan natijalar modellashtirildi.[2. PF-60-son.] Tadqiqotning axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari, Prezident farmonlari, xalqaro tashkilotlarning yillik hisobotlari va mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tashkil etdi.

Adabiyotlar tahlili. Innovatsiya tushunchasi va uning iqtisodiy taraqqiyotdagi o‘rni dastlab Yozef Shumpeter tomonidan ilmiy asoslab berilgan. U o‘zining “Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi” asarida innovatsiyani “yangi kombinatsiyalar”ni amalga oshirish jarayoni sifatida ta’riflaydi. Turizm sohasida innovatsiyalarning o‘ziga xos xususiyatlari esa P.Druker, M.Porter kabi g‘arb iqtisodchilari hamda mahalliy olimlardan I.Tuxliyev, M.Pardaev, N.To‘xliyevlarning ilmiy ishlarida keng yoritilgan. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda ko‘pgina tadqiqotlar innovatsiyani global iqtisodiyotga to‘liq bo‘ysunuvchi element sifatida ko‘radi. Biroq, turizm xizmatlarining nomoddiyligi (saqlab bo‘lmasligi, ishlab chiqarish va iste’molning bir vaqtda sodir bo‘lishi) sababli, sanoatdagi innovatsiya modellarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri turizmga ko‘chirib bo‘lmaydi. Shu bois, soha olimlari oldida “Raqamli turizm ekotizimi”ni yaratishning metodologik asoslarini ishlab chiqish muammosi dolzarb bo‘lib turibdi.

Asosiy qisim. Turizmni innovatsion rivojlantirishda rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi: Jahon amaliyotini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, turizm sohasida yetakchi o‘rinlarni egallagan davlatlar o‘z muvaffaqiyatlariga aynan innovatsion ekotizimni yaratish orqali erishganlar. Ushbu tadqiqot doirasida O‘zbekiston uchun namuna bo‘la oladigan quyidagi mamlakatlar — Ispaniya, Turkiya va BAA tajribalari tahlil qilindi.

Ispaniya tajribasi (Segittur modeli): Ispaniya dunyoda birinchi bo‘lib “Aqlli turizm manzillari” (Smart Tourism Destinations) davlat standartini joriy etgan mamlakatdir. Ularning

tajribasidagi eng muhim jihat - bu “Segittur” davlat kompaniyasi faoliyatidir. Bu tashkilot turizm va texnologiyani birlashtirib, har bir shahar uchun bepul Wi-Fi hududlari, sensorli ma’lumot kiosklari va turistlarning harakatini kuzatuvchi “Big Data” markazlarini yaratgan.[4.25.] Mazkur amaliyot O‘zbekiston uchun ahamiyati qanday. Masalan, Ispaniya modeli asosida Samarqand va Buxoro shaharlarida yagona raqamli boshqaruv markazlarini tashkil etish, turistlar oqimini to‘g‘ri taqsimlash va “mavsumiylik” muammosini hal qilishda qo‘l keladi.

Turkiya tajribasi (Marketing va Klasterlar): Turkiya turizmni rivojlantirishda “GoTürkiye” raqamli platformasidan samarali foydalanadi. Ular sun’iy intellekt yordamida har bir turistning millati va qiziqishiga qarab individual reklama ko‘rsatish tizimini yo‘lga qo‘ygan. Shuningdek, Turkiya “Turizm klasterlari” (masalan, Antaliya - dengiz turizmi, Kapadokiya - havo sharlari va g‘or turizmi) tizimini mukammal shakllantirgan. Mazkur tizimdan O’zbekiston uchun ahamiyatini o‘zlashtirish mumkin. Jumladan, bizda ham hududiy ixtisoslashuvni chuqurlashtirish zarur. Masalan, Navoiy viloyatida “Sahro turizmi” va Surxondaryoda “Buddistik turizm” klasterlarini yaratishda Turkiya tajribasi qo‘llanilishi lozim.

BAA (Dubay) tajribasi (Blockchain va VR): Dubay hukumati “Dubai Tourism Blockchain” strategiyasi orqali mehmonxonalar va turoperatorlar o‘rtasidagi barcha shartnomalarni shaffof blokcheyn tizimiga o‘tkazgan. Bu korrupsiya va ortiqcha xarajatlarni yo‘qotib, xizmat narxini arzonlashtirishga olib kelgan. Bundan tashqari, Dubay aeroportidayoq turistlarga VR-ko‘zoynaklar orqali shaharning diqqatga sazovor joylari namoyish etilib, ularda qiziqish uyg‘otiladi.

Turizm sohasini innovatsion rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari tahlilini ko‘rib chiqamiz. Masalan, jahon va O‘zbekiston bozoridagi joriy holat. 2024-2025-yillar turizm industriyasi uchun “Post-pandemiya davridan - Innovatsion o‘sish davriga” o‘tish bosqichi bo‘lib xizmat qilmoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy turizm modellari o‘rnini asta-sekin gibrid va raqamli modellar egallamoqda. Biz quyidagi jadvalda O‘zbekiston turizm bozorining asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi va prognozlarini keltirganmiz:

O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasining asosiy rivojlanish ko‘rsatkichlari (2023-2026 yillar)

Ko‘rsatkichlar	2023-yil (Fakt)	2024-yil (Baholash)	2025-yil (Prognoz)	2026-yil (Maqsad)
Xorijiy sayyohlar soni (mln kishi)	6.6	10.0	12.0	15.0
Turizm xizmatlari eksporti (mlrd AQSH $)	2.1	2.5	3.0+	5.0
Ichki sayyohlar oqimi (mln kishi)	15.0	18.0	20.0	25.0+
Joylashtirish vositalari soni (birlik)	~5,500	~6,000	6,500+	7,000+

(Manba: O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.)

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2026-yilga borib xorijiy sayyohlar sonini qariyb ikki baravarga oshirish rejalashtirilgan. Bunday keskin o‘sishni faqatgina infratuzilmani (mehmonxona, yo‘l) qurish bilan ta’minlab bo‘lmaydi. Bu yerda innovatsion multiplikator samarasi ishga tushishi kerak buladi.

Turizmda innovatsion transformatsiya yo‘nalishlari. Tadqiqotlarimiz natijasida O‘zbekiston turizmida kuzatilayotgan uchta asosiy innovatsion tendensiya aniqlandi: Jumladan,

birinchi — Mahsulot innovatsiyasi (Product Innovation). Avvallari turistlar faqat tarixiy shaharlarga (Samarqand, Buxoro, Xiva) qiziqqan bo‘lsa, hozirda yangi turistik mahsulotlar paydo bo‘lmoqda. Masalan, Zomin va Bo‘stonliq hududlarida “ekoturizm”, Farg‘ona vodiysida “gastronomik turizm” va Surxondaryoda “arxeologik turizm” klasterlarining tashkil etilishi bunga misol bo‘ladi. Ikkinchi — Jarayon innovatsiyasi (Process Innovation). Raqamlashtirish jarayonlari xizmat ko‘rsatish tezligini oshirmoqda. “E-mehmon”, “E-visa” tizimlarining joriy etilishi byurokratik to‘siqlarni qisqartirdi. Uchinchi — Marketing innovatsiyasi. Ijtimoiy tarmoqlar (TikTok, Instagram) va influenserlar orqali “O‘zbekiston brendi”ni targ‘ib qilish an’anaviy ko‘rgazmalardan ko‘ra yuqoriroq samara bermoqda deyishimiz mumkin.

Bundan tashqari, raqamli platformalar samaradorligi tahlilini ham ko‘rib chiqishimiz mumkin. Xususan, bugungi kunda O‘zbekistonda mavjud bo‘lgan raqamli platformalar (“Uzbekistan.travel”, “E-mehmon”) asosan axborot berish xususiyatiga ega bo‘lib, interaktiv xizmatlar ulushi pastligicha qolmoqda. Masalan bizning tahlillarimiz shuni ko‘rsatadiki, agar O‘zbekistonda turizm xizmatlarini bron qilish (band qilish) jarayoni yagona milliy ilovaga o‘tkazilsa, quyidagi iqtisodiy samaralarga erishishi mumkin buladi. Masalan, Tranzaksiya xarajatlarining qisqarishi, turoperator va mehmonxona o‘rtasidagi vositachilik haqining kamayishi hisobiga xizmat narxi 10-15% ga arzonlashadi. Bundan tashqari, yashirin iqtisodiyotga barham berish, barcha to‘lovlar raqamli shaklda amalga oshirilishi sohadagi moliyaviy oqimlarning shaffofligini ta’minlaydi. Shuningdek, vaqt tejamkorligi, har bir sayyoh viza olishdan tortib, taksi chaqirishgacha bo‘lgan jarayonni bir necha daqiqada hal qiladi.

Umuman olganda, “Aqlli turizm” (Smart Tourism) konsepsiyasi — globallashuv sharoitida raqobatbardoshlikning asosiy shartidir. Bu “Aqlli turizm” tizimiga o‘tishdir. Bu tizim sayyohlarning katta hajmdagi ma’lumotlarini (Big Data) tahlil qilish asosida ularga individual xizmatlarni taklif etishni nazarda tutadi.

Muammo: O‘zbekistonda hozircha yagona integratsiyalashgan milliy turizm platformasi (SuperApp) mavjud emas. Turist transport uchun alohida, mehmonxona uchun alohida, muzey biletlari uchun alohida ilovalardan foydalanishga majbur bo‘lishmoqda. Bunga echim sifatida, barcha xizmatlarni bitta ekotizimga birlashtirish orqali vaqt va xarajatlarni 20-30% ga qisqartirish mumkin.

Amaliy takliflar va tavsiyalar: O‘tkazilgan tahlillar va aniqlangan muammolardan kelib chiqib, O‘zbekiston turizm sohasini innovatsion rivojlantirish bo‘yicha quyidagi konseptual va amaliy takliflar ilgari suriladi:

Birinchidan, “Raqamli turizm ekotizimi”ni yaratish. Xitoyning “WeChat” yoki Dubayning “Dubai Now” tajribasi asosida O‘zbekistonda barcha turistik xizmatlarni (transport, ovqatlanish, gid, tibbiy sug‘urta, politsiya yordami) o‘zida jamlagan yagona milliy mobil ilovani ishga tushirish zarur. Bu ilova sun’iy intellekt (AI) yordamida sayyohning qiziqishiga qarab, unga shaxsiy marshrut tuzib berish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak.

Ikkinchidan, “Turizm innovatsiya indeksi”ni joriy etish. Respublika hududlari (viloyatlar) kesimida turizmning innovatsion rivojlanish darajasini baholovchi reyting tizimini ishlab chiqish. Bunda faqat turistlar soni emas, balki raqamli xizmatlar sifati, Wi-Fi qamrovi, “yashil texnologiyalar”dan foydalanish darajasi asosiy mezon bo‘lishi lozim.

Uchinchidan, kadrlar tayyorlashda “Dual ta’lim” va VR texnologiyalari. Turizm sohasidagi oliy o‘quv yurtlarida talabalarni o‘qitishda VR (Virtual Reality) ko‘zoynaklari orqali tarixiy obidalarni o‘rganish va virtual gidlik qilish ko‘nikmalarini shakllantirish. Shuningdek,

talabalarning o‘qish vaqtining 50 foizini bevosita mehmonxona va turoperatorlarda o‘tkazishini ta’minlash.

To‘rtinchidan, “Kraudfanding” (Crowdfunding) platformalarini jalb qilish. Kichik turistik loyihalar (masalan, etno-uy mehmonxonalari yoki hunarmandchilik markazlari) uchun bank kreditlaridan tashqari, aholi va xorijiy investorlardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri mikrosarmoya jalb qilish imkonini beruvchi investitsion onlayn maydonchalarni tashkil etish.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, globallashuv sharoitida O‘zbekiston turizm sohasining kelajagi uning innovatsion moslashuvchanligiga bog‘liq. 2024-yildagi tiklanish jarayonlari shuni ko‘rsatdiki, dunyo sayyohlari endilikda shunchaki tomosha qilishni emas, balki qulaylik, tezlik va yangi taassurotlarni xohlamoqda.

Tadqiqotimiz shuni aniqlashtirdiki, 2025-yil yakunlari bo‘yicha shakllangan tendensiyalar va “O’zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida belgilangan 15 millionlik sayyohlar oqimi hamda 5 milliard dollarlik eksport rejasiga erishish uchun endilikda an’anaviy usullar yetarli emas. Yangi 2026-yildan boshlab “Aqlli turizm” texnologiyalarini keng joriy etish, xizmat ko‘rsatish jarayonlarini to‘liq raqamlashtirish va innovatsion tadbirkorlik muhitini qo‘llab-quvvatlash hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi O‘zbekistonni Markaziy Osiyoning nafaqat tarixiy, balki innovatsion turizm markaziga aylanishini ta’minlaydi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma’lumotlari (stat.uz), 2024-yil.
4. World Travel & Tourism Council (WTTC). (2024). Economic Impact Research: Global Trends.
5. Tuxliyev I.S., Qudratov G‘.H., Pardaev M.Q. Turizmni rejalashtirish. – T.: Iqtisod-Moliya, 2010.
6. Schumpeter J.A. The Theory of Economic Development. Harvard University Press, 1934.
7. UNWTO World Tourism Barometer (2024). Volume 22, Issue 2. Madrid, Spain.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 4 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 March 2026
Accepted: 01 April 2026
Published: 15 April 2026

Article / Original Paper

SOCIO-ECONOMIC CONSEQUENCES OF THE EMERGENCE OF ENVIRONMENTAL PROBLEMS IN UZBEKISTAN

Sadullayev Rasulbek Palvanbaevich
Associate Professor of Mamun University (PhD)
https://orcid.org/0009-0006-5812-6724
E-mail: rasul.sadullaev1977@gmail.com

Abstract. This article analyzes the existing environmental problems in Uzbekistan and their socio-economic consequences. The impact of such problems as environmental pollution, water scarcity, desertification, land degradation and air pollution on public health, economic growth, labor productivity and social stability is studied. The institutional and economic measures that need to be taken to eliminate environmental problems and ensure sustainable development are also analyzed.

Keywords: environmental problems, sustainable development, environmental protection, socio-economic consequences, land degradation, air pollution, water scarcity, desertification, public health, economic growth, labor productivity.

O‘ZBEKISTONDA EKOLOGIK MUAMMOLARNING IJTIMOIY-IQTISODIY OQIBATLARI KELIB CHIQISHI

Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich
Mamun universitet dotsenti (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda mavjud ekologik muammolar va ularning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari tahlil qilingan. Atrof-muhitning ifloslanishi, suv resurslarining tanqisligi, cho‘llanish, yer degradatsiyasi va havo ifloslanishi kabi muammolarning aholi salomatligi, iqtisodiy o‘sish, mehnat unumdorligi va ijtimoiy barqarorlikka ta’siri o‘rganilgan. Shuningdek, ekologik muammolarni bartaraf etish va barqaror rivojlanishni ta’minlash uchun amalga oshirilishi lozim bo‘lgan institutsional va iqtisodiy chora-tadbirlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: ekologik muammolar, barqaror rivojlanish, atrof-muhit muhofazasi, ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlar, yer degradatsiyasi, havo ifloslanishi, suv resurslarining tanqisligi, cho‘llanish, aholi salomatligi, iqtisodiy o‘sish, mehnat unumdorligi.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N18

Kirish. Iqlim o‘zgarishi dunyomizni insoniyat jamiyatlari va tabiiy tizimlar uchun katta xavf tug‘diradigan tarzda tubdan o‘zgarmoqda. Biz iqlim kazinosiga kirdik va global isish zarlarini tashlayapmiz, deb ogohlantiradi iqtisodchi Uilyam Nordxaus. Ammo orqaga o‘girilib, kazinodan chiqib ketish uchun hali vaqt bor iqlim munozarasi bilan bog‘liq barcha muhim masalalarni birlashtirgan Nordxaus ilm-fan, iqtisodiyot va siyosatni, shuningdek, global isish xavfini kamaytirish uchun zarur bo‘lgan choralarni tasvirlaydi. Har qanday manfaatdor fuqaro uchun tushunarli bo‘lgan tildan foydalanib va turli nuqtai nazarlarni adolatli taqdim etishga harakat qilib, u muammoni boshidan oxirigacha muhokama qiladi.[1]

So‘nggi yillarda ekologik muammolar global miqyosdagi eng dolzarb masalalardan biriga aylandi. Iqtisodiy faoliyatning kengayishi, sanoatlashuv jarayonlari va tabiiy resurslardan samarasiz foydalanish atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

O‘zbekistonda ham ekologik muammolar iqtisodiy rivojlanish va aholi farovonligiga ta’sir etuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Mamlakat hududida suv tanqisligi, yer degradatsiyasi, havo ifloslanishi va Orol dengizi fojiasi kabi ekologik muammolar mavjud bo‘lib, ular ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ekologik muammolarning oqibatlari nafaqat tabiatga, balki aholi salomatligi, mehnat bozori, qishloq xo‘jaligi va milliy iqtisodiyot rivojlanishiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli mazkur masalani chuqur tahlil qilish va samarali yechimlar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Tahlil va sintez metodi: O‘zbekistondagi ekologik vaziyatga oid mavjud ilmiy adabiyotlar, statistik ma’lumotlar va hisobotlar tahlil qilinib, ulardan umumlashtiruvchi xulosalar chiqarilgan.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda kasaba uyushmalari faoliyati faqat ishchi va xodimlar doirasi bilan cheklanib qolmadi. Ular keng jamoatchilik hayotida ham ishtirok etib, turli ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishda faol qatnashdilar. Masalan, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga yordam berish, xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish, yoshlarni sog‘lom turmush tarzi va mehnat an’analari ruhida tarbiyalash, keksa avlod va nogironlarni qo‘llab-quvvatlash kabi masalalarda ham kasaba uyushmalari faol qatnashdi.

Inson qadrini yuksaltirishda yana bir muhim jihat – bu shaxsning ijtimoiy faolligi va tashabbuskorligini rag‘batlantirishdir. Kasaba uyushmalari o‘z a’zolariga nafaqat huquqiy yordam ko‘rsatdi, balki ularning tashabbus va takliflarini qo‘llab-quvvatlab, jamiyatdagi faol ishtirokini ta’minladi. Bu jarayonda inson o‘zini shaxs sifatida qadrlanganini his qildi, uning fikr va mulohazalariga ahamiyat berildi. Shuning natijasida inson qadri faqat davlat yoki jamiyat tomonidan berilgan tushuncha emas, balki shaxsning o‘zida ham anglanadigan, u bilan faxrlanadigan qimmat sifatida namoyon bo‘ldi.

Kasaba uyushmalari inson qadrini rivojlantirishda xalqaro hamkorlikka ham e’tibor qaratdi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng BMT, Xalqaro mehnat tashkiloti kabi nufuzli xalqaro tuzilmalar bilan hamkorlik qilishga kirishdi. Bu jarayonda kasaba uyushmalari ham faol ishtirok etib, inson huquqlari, mehnat standartlari, ijtimoiy himoya masalalarida xalqaro tajribani o‘rganish va uni milliy amaliyotga tatbiq etishga harakat qildi. Natijada inson qadri xalqaro mezonlar asosida ham himoya qilindi.

Falsafiy jihatdan baholanganda, mustaqillik yillarida kasaba uyushmalari inson qadrini yuksaltirish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirdi. Chunki inson qadri bu faqat muayyan jamiyatning ichki ehtiyoji emas, balki butun insoniyat uchun umumiy

qimmat hisoblanadi. Shu ma’noda kasaba uyushmalari milliy qadriyatlarga tayangan holda, umuminsoniy tamoyillarni ham hayotga tatbiq etdi.

Mustaqillik yillarida kasaba uyushmalari inson qadrini rivojlantirishda ta’lim va tarbiya sohasiga ham katta e’tibor qaratdi. Chunki inson qadrining yuksalishi, avvalo, shaxsning bilimli va ma’rifatli bo‘lishi, uning intellektual salohiyati va madaniy saviyasi bilan uzviy bog‘liq. Kasaba uyushmalari turli o‘quv-seminarlar, malaka oshirish kurslari, ishchi va xodimlar uchun maxsus o‘quv dasturlari orqali insonning o‘zini rivojlantirishiga yordam berdi. Bu esa inson qadrining faqat ish joyida emas, balki shaxsiy hayot va kelajak rivojlanishida ham ta’minlanishiga xizmat qildi.

Shu bilan birga, mustaqillik yillarida mamlakatimizda inson qadrini yuksaltirishning ma’naviy asosi sifatida milliy g‘oya va ma’naviy meros tiklandi. Bu jarayonda kasaba uyushmalari aholi o‘rtasida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni olib bordi, madaniy tadbirlarni tashkil etdi, kitobxonlikni rag‘batlantirdi, yoshlarni milliy an’analar va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga hissa qo‘shdi. Insonning ma’naviy rivojlanishi uning ijtimoiy maqomini mustahkamlaydi, o‘z qadrini anglashini ta’minlaydi. Shu ma’noda kasaba uyushmalari inson qadrini ma’naviy jihatdan ham yuksaltirishga harakat qildi.

Buyuk falsafiy olim Abu Hamid al G‘azzoliy falsafiy qarashlarida “Inson qadri uning jismoniy qiyofasida emas, balki ruhiy-aqliy mohiyatida” deb ta’kidlaydi. [9.18-23b] **Insonning qadri uning qalbi** bilan bog‘liq ekanini, Qalb — ma’rifat va ilohiy haqiqatni anglash markazi, inson qadri **axloqiy komillik** bilan belgilanadi [10. 7-12b]

Mustaqillik yillarida kasaba uyushmalari mehnatkashlarning sog‘lig‘ini muhofaza qilish va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishda ham faol qatnashdi. Inson qadrining muhim mezonlaridan biri – uning sog‘lom va barqaror hayot kechirishi hisoblanadi. Shu bois kasaba uyushmalari turli sog‘lomlashtirish tadbirlarini tashkil etish, dam olish maskanlari va sanatoriylar faoliyatini yo‘lga qo‘yish, sport musobaqalarini o‘tkazish orqali inson salomatligini muhofaza qilishga hissa qo‘shdi. Bu esa inson qadrining moddiy, ma’naviy va jismoniy jihatdan ta’minlanishiga xizmat qildi.

Mustaqillik davrida kasaba uyushmalari inson qadrini yuksaltirishda ayniqsa xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish va ularning jamiyatdagi mavqeyini mustahkamlashga katta e’tibor qaratdi. Xotin-qizlarni ishga joylashtirish, ularning mehnat huquqlarini muhofaza qilish, moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash kabi chora-tadbirlar inson qadrining amaliy ta’minlanishiga xizmat qildi. Bu jarayonda falsafiy jihatdan inson qadrining tenglik va adolat tamoyillari bilan ta’minlanishi namoyon bo‘ldi.

Kasaba uyushmalari yoshlarni qo‘llab-quvvatlashda ham muhim o‘rin egalladi. Yoshlar mamlakat kelajagi sifatida faqat iqtisodiy resurs emas, balki ma’naviy va ijtimoiy kapital sifatida ham jamiyatning eng qimmatli boyligi hisoblanadi. Shu ma’noda kasaba uyushmalari yoshlarning ishga joylashishi, kasb-hunarga yo‘naltirilishi, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishda faol ishtirok etdi. Bu esa inson qadrining avlodlar davomiyligida ta’minlanishini anglatadi.

Falsafiy nuqtai nazardan olib qaralganda, mustaqillik yillarida kasaba uyushmalari inson qadrini rivojlantirishda insoniylik, tenglik, adolat, hamjihatlik, ijtimoiy sheriklik kabi tamoyillarga tayandi. Bu tamoyillar inson qadrining universal qimmat sifatida namoyon bo‘lishiga zamin yaratdi. Inson qadri faqat bir shaxsning shaxsiy hayotida emas, balki butun jamiyat taraqqiyotida hal qiluvchi omil sifatida qaraldi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda kasaba uyushmalari inson qadrini yuksaltirishda ijtimoiy adolat tamoyillarini hayotga tatbiq etishda alohida o‘rin egalladi. Chunki har bir shaxs o‘z huquqlari va manfaatlari himoya qilinganini his etganda, uning qadri oshadi, jamiyatdagi mavqeyi mustahkamlanadi. Insonning mehnat orqali topgan daromadi adolatli taqsimlanishi, ish sharoiti xavfsiz va qulay bo‘lishi, ish vaqti va dam olish vaqti qonun asosida belgilanishi inson qadrining falsafiy mohiyatini amalda namoyon qiladi. Shu jihatdan kasaba uyushmalari davlat va ish beruvchilar bilan muloqotda bo‘lib, inson manfaatlarini ta’minlashda vositachi sifatida katta ahamiyat kasb etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 80-85-moddalarida jamoa kelishuvlarining mazmuni va ularni tuzish tartibi belgilandi. [13.64-66b]

Kasaba uyushmalari inson qadrini rivojlantirishda jamoaviylik va hamjihatlik tamoyillariga ham suyandi. Chunki inson qadri faqat alohida shaxsning manfaati bilan belgilanmaydi, balki jamiyatdagi hamjihatlik va o‘zaro hurmat darajasi bilan ham belgilanadi. Uyushmalar turli sohalar vakillarini birlashtirib, ularning umumiy manfaatlarini himoya qildi. Bu jarayonda shaxsiy manfaatlar umumiy jamoaviy qadriyatlar bilan uyg‘unlashdi. Natijada inson o‘z qadrini faqat shaxsiy emas, balki jamoaviy qimmat sifatida ham anglay boshladi.

Mustaqillik yillarida davlat siyosatining asosiy yo‘nalishi sifatida belgilangan “inson manfaatlari – hamma narsadan ustun” tamoyili kasaba uyushmalari faoliyatida o‘zining amaliy ifodasini topdi. Ular ishchi va xodimlar manfaatlarini himoya qilish orqali davlat siyosatining insonparvar yo‘nalishini ta’minladi. Falsafiy nuqtai nazardan bu jarayon inson qadrining davlat va jamiyat hayotida eng oliy qimmat sifatida e’tirof etilishini anglatadi.

Kasaba uyushmalari inson qadrini yuksaltirishda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda ham muhim vazifa bajardi. Chunki ijtimoiy adolatsizlik, huquqlarning buzilishi, inson qadrining toptalishi jamiyatda turli nizolar va keskinliklarga olib kelishi mumkin. Kasaba uyushmalari esa mehnat sohasidagi mojarolarni hal qilish, nizolarni oldini olish, kelishuvlarga erishish orqali ijtimoiy barqarorlikka hissa qo‘shdi. Bu esa falsafiy jihatdan inson qadrining tinchlik va barqarorlik sharoitida yuksalishiga zamin yaratdi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston kasaba uyushmalari ko‘plab ijtimoiy dasturlarni amalga oshirib, inson qadrini amaliy jihatdan ta’minladi. Moddiy yordam ko‘rsatish, dam olish va sog‘lomlashtirish muassasalarini tashkil etish, mehnatkashlar farzandlari uchun yozgi oromgohlar ochish, keksa va nogironlarni qo‘llab-quvvatlash kabi ishlar inson qadrining hayotda to‘la-to‘kis namoyon bo‘lishiga xizmat qildi.

Falsafiy jihatdan olib qaralganda, kasaba uyushmalari inson qadrini yuksaltirishda insoniylik va ijtimoiy hamdardlik tamoyillariga suyandi. Bu tamoyillar inson qadrining faqat huquqiy yoki iqtisodiy emas, balki ma’naviy-axloqiy jihatdan ham ta’minlanishiga olib keldi. Inson qadrining yuksalishi deganda faqat shaxsning moddiy farovonligi emas, balki uning ijtimoiy munosabatlarda o‘zini erkin his etishi, o‘z fikrini erkin bildirishi, jamiyat hayotida faol ishtirok etishi ham nazarda tutiladi.

Shu tariqa, mustaqillik yillarida kasaba uyushmalari O‘zbekistonda inson qadrini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy omili sifatida namoyon bo‘ldi. Ular faqat mehnat munosabatlarini muhofaza qilish emas, balki inson hayotining ma’naviy mazmunini boyitish, ijtimoiy adolat va tenglikni ta’minlash, jamiyatda barqarorlikni mustahkamlash orqali inson qadrini e’tirof etish va yuksaltirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda kasaba uyushmalari faoliyatini tahlil qilar ekanmiz, ularning inson qadrini yuksaltirishdagi o‘rni ko‘p qirrali va murakkab jarayon ekanini ko‘rish mumkin. Avvalo, mehnatkash inson shaxsiga bo‘lgan munosabatda keskin o‘zgarish yuz berdi. Sovet davrida kasaba uyushmalari ko‘proq formal tuzilma sifatida ko‘rilib, davlat siyosati ijrochisi vazifasini bajargan bo‘lsa, mustaqillikdan keyin ularning haqiqiy ijtimoiy va fuqarolik institutlari sifatidagi ahamiyati oshdi. Bu esa inson qadrini e’tirof etishda muhim burilish nuqtasi bo‘ldi. “Ijtimoiy adolat va aholini himoya qilish tizimi kuchli bo‘lmas ekan, inson qadri haqida so‘z yuritish qiyin.” [11. 84b]

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda kasaba uyushmalari inson qadrini yuksaltirishdagi o‘rnini yanada teranroq anglash uchun ularning huquqiy asoslariga ham e’tibor qaratish lozim. Zero, mustaqillikning dastlabki yillaridanoq qabul qilingan Konstitutsiyada inson qadri, uning huquq va erkinliklari oliy qiymat sifatida e’tirof etildi. Shu asosda mehnat huquqlarini ta’minlash, insonni adolatli mehnat sharoiti va munosib turmush tarzi bilan ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu jarayonda kasaba uyushmalari inson qadrini huquqiy jihatdan mustahkamlovchi va hayotga tatbiq etuvchi muhim ijtimoiy institut sifatida maydonga chiqdi.

Kasaba uyushmalari faoliyatining yana bir muhim yo‘nalishi – bu insonning sog‘lom va munosib hayot kechirishini ta’minlashga qaratilgan ishlardir. Mehnat muhofazasi, ishchi joylarda xavfsizlik choralarini kuchaytirish, ishchilar salomatligini muhofaza qilish bo‘yicha olib borilgan tadbirlar inson qadrining amaliy ifodasi sifatida xizmat qildi. Chunki insonning hayoti va sog‘ligi eng oliy qadriyat hisoblanadi. Shu bois, mustaqillik yillarida kasaba uyushmalari mehnat muhofazasi sohasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirdi, xodimlarning xavfsiz ish sharoitiga ega bo‘lishini ta’minlashga e’tibor qaratdi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, “Inson qadrini anglash va hurmat qilish milliy taraqqiyotimizning eng muhim mezoniga aylanishi lozim.” [8. 56 b]

Umumiy xulosalar:

1. Kasaba uyushmalari ijtimoiy davlatda zaruriy hodisadir. U mehnatkashlar, turli sinflar, qatlamlar va tabaqalar o‘rtasidagi munosabatlarni mo‘tadil holatini ta’minlaydi. Davlat o‘z fuqarolarining munosib turmush darajasini ta’minlashi, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarga alohida g‘amxo‘rlik ko‘rsatmog‘i, ta’lim, sog‘liqni saqlash, dam olish va odamlarning kundalik turmushi muammolariga katta e’tibor qaratmog‘i lozim. Bunday mamlakatda inson eng oliy qadriyat sifatida tan olinadi.
2. Inson qadrini yuksaltirishda ijtimoiy davlat mexanizmlarining regulyativ funksiyasini rivojlantirishda mavjud imkoniyatlardan, jumladan, Kasaba uyushmalarini yanada faollashtirish orqali erishish Yangi O‘zbekiston sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi.
3. Kasaba uyushmalari negizida inson qadrini yuksaltirishda ijtimoiy davlat mexanizmlarining regulyativ funksiyasini qadriyat sifatida anglash ijtimoiy me’yorlar barqarorligini ta’minlash barobarida, ratsional ijtimoiy-shaxsiy tafakkur va pozitiv faoliyat trayektoriyasini ham shakllantiradi.
4. Kasaba uyushmalari negizida inson qadrini yuksaltirish shaxsiy ongdan keng qamrovli ijtimoiy tafakkur darajasida taraqqiyotni ta’min etish, pozitiv munosabat shakllarini belgilashda ham xizmat qiladi. Insonning sharafi va qadri uning mol-

dunyosi yoki tashqi qiyofasi bilan emas, balki qalbining pokligi va axloqiy kamoloti bilan belgilanadi. [13.9b]

5. Inson qadrini ijtimoiy qadriyat sifatida anglash borasida davlatning roli beqiyos darajada ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimiz ijtimoiy hayotida taraqqiyotga yetaklovchi, undovchi va nazorat etuvchi vazifalarni bajaradi.
6. Inson qadrini yuksaltirishda, davlat boshqaruvi, inklyuziv institutlar yaratish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, sog‘liqni saqlash tizimini mustahkamlash, sport, jismoniy salomatlik, ommaviy axborot vositalari, inson kapitali, shuningdek, ijtimoiy kapitalni rivojlantirish, ijtimoiy hamkorlik, jamoatchilik fikri, shu jumladan ijtimoiy institutlar, oila, din, ta’lim va boshqa mexanizmlardan samarali foydalanish, ularni mustahkamlash borasidagi ishlarni faollashtirish, tizimli tashkil qilish lozim.
7. Bugungi kunda Kasaba uyushmalari tizimida inson qadrini yuksaltirishning zamonaviy xususiyatlaridan biri – barqaror rivojlanish tamoyillari bilan uyg‘unlikdir. Zamonaviy yondashuvlarda iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy adolat va ekologik barqarorlik bir-biridan ajralmas tushunchalarga aylangan.
8. Globallashuv sharoitida inson qadrini yuksaltirishda xalqaro hamkorlik va tajriba almashish ham muhim ahamiyatga ega. Turli mamlakatlarda kasaba uyushmalari faoliyati turlicha tashkil etilgan bo‘lib, ularning tajribalarini o‘rganish, ijobiy natijalarni milliy tizimga tatbiq etish orqali inson qadrini yuksaltirishda yangi qadamlar qo‘yish mumkin.
9. Kasaba uyushmalari tizimida inson qadrini yuksaltirishda ma’naviy-ma’rifiy tarbiyaning o‘rni katta. Chunki inson qadri faqat moddiy ne’matlar bilan belgilanmaydi, balki uning ma’naviy dunyosi, axloqiy qiyofasi va ijtimoiy mas’uliyati bilan ham belgilanadi. Shu bois kasaba uyushmalari turli ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tashkil qiladi, kitoblar, jurnallar chop etadi, xodimlar orasida ma’naviy madaniyatni yuksaltirishga xizmat qiladi.
10. Ijtimoiy tasnif nuqtai nazaridan inson qadrini yuksaltirish jamiyatda tenglik, adolat, huquq va erkinlik kabi tamoyillarning ta’minlanishi orqali namoyon bo‘ladi. Inson qadrini himoya qilish – bu inson huquqlarini ta’minlash, uning ijtimoiy hayotda faol ishtirokini yo‘lga qo‘yish, shaxs erkinligi va jamiyat mas’uliyati o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash demakdir.
11. Kasaba uyushmalari tarixiy jarayonda fuqarolik jamiyatining muhim institutlaridan biri sifatida shakllanib kelgan. Ular avvalo ishchi-xodimlarning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishdan boshlangan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan keng qamrovli ijtimoiy va ma’naviy funksiyalarni bajaruvchi tizimga aylandi. Inson qadrini yuksaltirishdagi o‘ziga xos xususiyatlardan biri shundaki, kasaba uyushmalari inson manfaatlarini yakka tartibda emas, balki jamoaviy shaklda himoya qiladi. Bu esa shaxsiy qadr va sha’nini jamiyatning umumiy qadriyatlari tizimida mustahkamlaydi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning respublika kasaba uyushmalari faollari va faxriylari bilan o‘tkazilgan uchrashuvda so‘zlagan nutqi”, 2025-yil 17-oktabr, Toshkent.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 11-noyabr -O‘zbekiston kasaba uyushmalari kun va kasaba uyushmalarining 120 yilligi munosabati bilan tabrigi, 2025-yil 11- noyabr, Toshkent.

3. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 2023- yil 30- aprel.
4. Mirziyoev Sh, “Yangi O‘zbekiston. Taraqqiyot strategiyasi” kitobi, 2023-yil, Toshkent
5. Rafiqov Q, “Vatan va millat qayg‘usi” kitobi, 2020-yil, Toshkent
6. K.Rafiqov, “Bizni ulug‘ g‘oya Vatan birlashtiradi” nomli maqolasi. “Ishonch” gazetasining 2022-yil 1 noyabrdagi 135-142-sonlari.
7. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2010-y.
8. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. – Toshkent: O‘zbekiston, 1996-y.
9. Al-G‘azzoliy. Ihyo ulum ad-din. – Qohira: Dār al-Sha‘b, 1937-y.
10. Al-G‘azzoliy. Mukoshafat ul-qulub. – Qohira: Dār al-Hadith, 2004-y.
11. Karimov I.A. O‘zbekiston – bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li. – Toshkent: O‘zbekiston, 1993-y.
12. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. – Toshkent: O‘zbekiston, 1996-y.
13. Al-G‘azzoliy A.H. Mukoshafat ul-qulub. – Qohira: Dār al-Hadith, 2004-y.
14. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi, 2022-yil, Toshkent.
15. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: O‘zbekiston, 1997-y.
16. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008-y.
17. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2010-y.
18. O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining 2020-2025- yillardagi faoliyati yuzasidan axborotnoma.
19. O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Buxoro viloyat Kengashining 2020-2025- yillardagi faoliyati bo‘yicha ma’lumotlar.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 4 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 March 2026
Accepted: 01 April 2026
Published: 15 April 2026

Article / Original Paper

THE ONTOLOGICAL AND EPISTEMOLOGICAL FOUNDATIONS OF SA'ID AL-DIN AL-FARGHANI'S TEACHING

Asliddin Shavkatovich Obidov
Associate Professor of the Department of Social Sciences at Alfraganus University, Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical Sciences

Abstract. This article analyzes the interrelation between the ontological and epistemological foundations in the teachings of Sa'id al-Din al-Farghani. Based on the introductions and terminological explanations found in Mashariq al-Darari and Muntaha al-Madarik, the study elucidates the conceptual system of such notions as wujud, tajalli, zahir-batin, jam-farq, and fano-baqo'. The findings demonstrate that, in al-Farghani's doctrine, the idea of wahdat al-wujud is interpreted as an integral metaphysical vision expressing the unity of being and knowledge.

Keywords: Sa'id al-Din al-Farghani, ontological foundations, epistemological foundations, wahdat al-wujud, wujud, tajalli, ma'rifa, kashf, fano-baqo.

SAID AD-DIN AL-FARG'ONIY TA'LIMOTIDA ONTOLOGIK VA GNOSEOLOGIK ASOSLAR

Obidov Asliddin Shavkatovich
Alfraganus universiteti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi dotsenti,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
https://orcid.org/0000 0002-9848-2364
E-mail: aslidin.obidov@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Said ad-Din al-Farg'oniy ta'limotida ontologik va gnoseologik asoslarning o'zaro bog'liqligi tahlil qilinadi. "Mashariq al-darari" va "Muntaha al-madarik"dagi muqaddima hamda istilohiy izohlar asosida "wujud", "tajalli", "zahir-batin", "jam-farq", "fano-baqo'" tushunchalarining konseptual tizimi ochib beriladi. Tadqiqot natijasida Al-Farg'oniyda "wahdat al-wujud" borliq va bilish birligini ifodalovchi yaxlit metafizik qarash sifatida talqin qilinishi ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: Said ad-Din al-Farg'oniy, ontologik asoslar, gnoseologik asoslar, wahdat al-wujud, wujud, tajalli, ma'rifa, kashf, fano–baqo.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N23

Kirish. XIII asr oxiri va XIV asr boshlaridagi tasavvufiy tafakkur tarixida Said ad-Din al-Farg'oniy Ibn al-'Arabiy maktabining nazariy merosini sharhlash, tartibga solish va keyingi davrlarga yetkazishda muhim o'rin egallaydi. Uning Mashariq al-darari hamda Muntaha al-madarik asarlari Ibn al-Fariḍ qasidasiga yozilgan sharh sifatida tanilgan bo'lsa-da, mazmun qatlamida ular borliq martabalari, ilohiy tajalliy, ruhiy sayr va ma'rifiy kamolot haqidagi yaxlit qarashni mujassam etadi. Shu jihatdan al-Farg'oniy merosi tasavvufiy sharhchilik tarixining oddiy namunasi sifatida emas, Akbariy an'anadagi ontologik va gnoseologik muammolarni izchil ifodalagan yirik ilmiy meros sifatida o'rganilishi lozim.

Al-Farg‘oniy ta’limotining markazida borliq masalasini qalb, idrok, kashf va ruhiy tajriba orqali ochiladigan haqiqat sifatida talqin qilinadi. Shu asnoda uning qarashlari Qunaviy muhitining bilish haqidagi umumiy yo‘nalishi bilan tutashadi. Richard Todd ushbu muhitni “intuitsiya hosilalari bilan aql natijalari o‘rtasida muvofiqlik qaror toptirish” tarzida ta’riflaydi. [1, Richard Todd - 61-bet]. Bu baho al-Farg‘oniy ta’limotida gnoseologiya ma’rifat, mushahada va ruhiy tajribada kamol topadigan idrok shakli sifatida qaralishini anglashga xizmat qiladi.

Al-Farg‘oniy ontologiyasida wahdat va kathrat, zahir va baṭin, jam‘ va farq bir-biridan uzilgan tushunchalar tarzida talqin qilinmaydi. Ularning barchasi yagona haqiqatning turli darajadagi namoyonlarini anglatadi. William C. Chittick al-Farg‘oniyning *Muntaha al-madarik* asaridagi ushbu istilohiy qo‘llanishni tahlil qilib, uni voqelikni ko‘rish holati bilan bog‘laydi. Bu fikrni “u Muntaha al-madarik asarida wahdat al-wujud iborasini voqelikni ko‘rish holatini ifodalash uchun qo‘llagan” tarzida ifodalanadi [2, William C. Chittick - 48-bet]. Bu yerda wahdat al-wujud ontologik hukm bilangina cheklanmaydi, balki ruhiy sayr davomida hosil bo‘ladigan idrok darajasi bilan bog‘lanadi.

Mazkur yondashuv al-Farg‘oniyda borliq va bilishning ichki birligini ko‘rsatadi. U koinot tuzilishini sharhlash chog‘ida Muhammadiy nur, Ruh, Aql va ilohiy tajalliy o‘rtasidagi nisbatlarni ham tahlil qiladi. Mohammed Rustom bu qatlamni yoritib, al-Farg‘oniy “Muhammadiy nur yoki Muhammadiy ruhni Qalam va Aql bilan ayniyatda ko‘radi” deganidir [3, Mohammed Rustom - 543-bet]. Bu fikr al-Farg‘oniy ta’limotida ontologik tuzilma bilan ma’rifiy idrok o‘rtasida chuqur bog‘liqlik borligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga u bilishning oliy manbai sifatida Muhammadiy haqiqat g‘oyasining o‘rnini ham ochib beradi. Shundan kelib chiqib, ushbu maqolada al-Farg‘oniy merosidagi ontologik va gnoseologik asoslarning o‘zaro tutashuvi uning asosiy asarlari doirasida tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. Said ad-Din al-Farg‘oniy ta’limotiga oid ilmiy adabiyotlar ko‘zdan kechirilganda, tadqiqotchilar e’tibori asosan uning Ibn al-Fariḍga yozgan sharhlari, Qunaviy maktabi bilan bog‘liqligi hamda istilohiy tizimining shakllanishiga qaratilgani ko‘rinadi. Giuseppe Scattolinning tadqiqoti bu yo‘nalishda muhim ilmiy o‘rin tutadi. U al-Farg‘oniy sharhini Akbariy an’anadagi tayanch matnlardan biri sifatida baholab, “al-Farg‘oniy sharhi Ibn al-‘Arabiy tasavvufining mumtoz tayanch manbasi sifatida doimo alohida e’tibor qozongan” [4, Giuseppe Scattolin - 35-bet]. Bu yondashuv al-Farg‘oniy asarining tarixiy nufuzini yoritadi va uning sharhi keyingi tasavvufiy tafakkur hamda tasavvufiy-falsafiy talqinlar uchun mustahkam zamin yaratganini anglatadi. Shu sabab al-Farg‘oniy merosi borliq, tajalliy va ruhiy kamol masalalarini izchil nazariy asosda yoritgan muhim manba sifatida qadrlanadi.

Oliver Leaman al-Farg‘oniy faoliyatining ilmiy qimmatini Ibn al-‘Arabiy ilgari surgan murakkab falsafiy g‘oyalarni bir butun holda bog‘lab, ularni tasavvufiy tajriba tili orqali tushuntirib bergani bilan izohlaydi. Shu ma’noda, “Farg‘oniyning qilgan ishi muhim edi, chunki u Ibn al-‘Arabiy ilgari surgan murakkab falsafiy g‘oyalarni bir butun holda bog‘lab berdi” [5, Oliver Leaman - 98-bet]. Ushbu fikir al-Farg‘oniy merosining sharhlovchilik doirasidan kengroq ilmiy salohiyatga ega ekanini ko‘rsatadi. Chunki uning qarashlarida ontologik masalalar bilishning ichki yo‘li, ma’rifat, qalbiy idrok va ruhiy sayr bilan uzviy tutashgan holda namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan al-Farg‘oniy murakkab metafizik qarashlarni ma’rifiy tajriba va tasavvufiy idrok bilan bog‘lay olgan mutafakkir sifatida gavdalanadi.

William C. Chittickning *Encyclopaedia Iranica* dagi maqolasi al-Farg‘oniy merosining yana bir muhim tomonini yoritadi. William C. Chittick forsiy va arabiy sharhlarni falsafiy

tasavvuf terminologiyasining shakllanish jarayonida alohida ahamiyatga ega manbalar sifatida baholab, “Har ikki sharh falsafiy tasavvufda keyinchalik asosiy ifodalarga aylangan terminologiyani tushunish uchun juda muhim qo‘llanmadir” deb yozadi [6, William C. Chittick - 255-bet]. Bu fikr al-Farg‘oniy asarlarining ilmiy qimmatini yanada ravshanlashtiradi. Uning sharhlari Ibn al-Fariḍ matniga bitilgan izohlar bilan kifoyalanmay, borliq darajalari, ilohiy sifatlar, ruhiy va hissiy olam, inson kamoloti kabi masalalarni o‘zaro bog‘liq holda talqin qiladi. Shu sabab al-Farg‘oniy merosi tasavvufiy-falsafiy til va istilohlar tizimining qaror topishida muhim o‘rin egallaydi hamda ontologik va gnoseologik asoslar birligini anglash uchun mustahkam ilmiy zamin yaratadi.

Mavjud tadqiqotlar al-Farg‘oniy merosining ilmiy qiymatini aniq ko‘rsatadi, lekin asosiy urg‘u ko‘proq sharhchilik usuli, Akbariy maktabdagi o‘rni va istilohiy apparatiga berilgan. Ontologik qarashlar bilan bilish masalalarining ichki aloqasi ko‘pincha umumiy tarzda eslatiladi. Shu bois Said ad-Din al-Farg‘oniy ta’limotida ontologik va gnoseologik asoslarning o‘zaro tutashuvini alohida tahlil qilish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Metodologiya. Ushbu tadqiqot Said ad-Din al-Farg‘oniy ta’limotidagi ontologik va gnoseologik asoslarni yoritishda tarixiy-falsafiy kuzatuv, matnshunoslik, istilohiy-semantik tahlil, talqin usuli hamda qiyosiy o‘qishni birgalikda qo‘llaydi. Tahlil markaziga al-Farg‘oniyning “Mashariq al-darari” va “Muntaha al-madarik” asarlaridagi muqaddima, istilohiy sharhlar hamda wujud, tajalliy, zahir, baṭin, jam‘, farq, fana’, baqa’, ma‘rifa, kashf, mabda‘ va ma‘ad bilan bog‘liq matn bo‘laklari olindi. Tadqiqot jarayonida e’tibor alohida tushunchalarni sanashga qaratilmadi, balki ularning o‘zaro aloqasi, ma’no qatlamlari va nazariy mazmunini yoritishga yo‘naltirildi. Toshihiko Izutsu bu usulni “Ibn al-‘Arabiy dunyoqarashining ontologik asosini tashkil etuvchi tayanch tushunchalarni tahliliy o‘rganish” deb izohlaydi [7, Toshihiko Izutsu - 3-bet]. Shu metod al-Farg‘oniy matnlarini ham izchil o‘qishga yordam beradi, zero uning ontologik qarashlari tayanch istilohlar tizimi orqali namoyon bo‘ladi.

Metodologik jihatdan tadqiqot zohir va baṭin qatlamlarini yaxlit holda ko‘rib chiqadi. Al-Farg‘oniy matnida istilohning tashqi ma’nosi, tasavvufiy qo‘llanish doirasi va ruhiy tajriba bilan bog‘langan ichki mazmuni yagona talqin chizig‘ida tahlil etiladi. Shu bois matnni sharhlashda lug‘aviy ma’no bilan cheklanib qolmay, uning botiniy va ma’rifiy qatlamlari ham ochib berildi. John Renard bu yondashuvni “Tasavvufiy talqin odatda zohiriy ko‘rinish bilan botiniy ma’no o‘rtasidagi asosiy farqni belgilaydi” deya izohlaydi [8, John Renard - 66-bet]. Ana shu nuqtadan kelib chiqib, al-Farg‘oniydagi zohir, baṭin, jam‘, farq kabi tushunchalar ma’rifiy sayrning o‘zaro bog‘langan bosqichlari sifatida talqin qilindi.

Tadqiqotning gnoseologik qismi ma‘rifa, kashf, mushahada, fana’ va baqa’ singari tushunchalarni ruhiy bilishning darajalari sifatida talqin etishga tayandi. Bu yerda bilish oddiy tasavvur, mantiqiy hukm va tashqi xabar bilan cheklanib qolmay, insonning butun vujudi bilan bog‘liq ichki idrok darajasiga yuksaladi. Seyyed Hossein Nasr qarashlarida gnoseologik tahlil markazida ma’rifatning mavjudlikni to‘liq qamrab oluvchi xususiyati turadi. Shu nuqtai nazardan, “ro‘yobga chiqqan irfon, ya’ni muqaddas tabiatga ega bo‘lgan bilimning amalga oshishi biluvchining butun mavjudligini qamrab oladi” [9, Seyyed Hossein Nasr - 136-bet]. Mazkur yondashuv al-Farg‘oniydagi kashf va ma‘rifani faqat nazariy bilim doirasida tushunmasdan, uni ontologik tayanch hamda ruhiy kamol bilan bog‘liq yaxlit idrok shakli sifatida ko‘rishga imkon beradi. Ana shu qarash metodologik mezon sifatida olinib, al-Farg‘oniy

matnlarida bilishning borliq asoslari bilan tutashuvi va uning ruhiy takomil jarayonidagi o‘rni birgalikda kuzatildi.

Mazkur asoslar negizida tadqiqotda bir necha amaliy qadam qo‘llandi. Avvalo, al-Farg‘oniy asarlaridagi tayanch istilohlar ajratib olindi. So‘ng bu istilohlarning matn ichidagi o‘zaro bog‘lanishi kuzatildi. Keyin ularning borliq haqidagi qarash bilan bilish haqidagi qarashni qanday birlashtirishi aniqlandi. Shundan keyin sharh matnidagi kosmologik bayon, insonning ruhiy sayri va ma’rifiy yetilishi bir umumiy tizim doirasida o‘qildi. Natijada al-Farg‘oniy ta’limotidagi ontologik asoslar bilan gnoseologik asoslar bir-birini to‘ldiruvchi yaxlit tasavvufiy-metafizik tuzilma sifatida talqin qilindi.

Natijalar va muhokama. Tahlil natijasida al-Farg‘oniy ta’limotining markazida hazrati jam‘-i vujudiy turishi ayon bo‘ldi. Mazkur darajada salik borliqni alohida-alohida mustaqil narsalar majmui sifatida emas, yagona vujudning turli ko‘rinishlari sifatida idrok etadi. Al-Farg‘oniy bu holatni shunday ifodalaydi, “Men ushbu jam‘iy vujud martabasiga yetganimda, borliqni bittadan ortiq ko‘rmadim. Martabalarda alohida ko‘rinadigan har bir mavjudlikni esa o‘sha yagona vujudning shu‘lasi va tarmog‘i deb bildim” [10, Sa’id ad-Din al-Farg‘oniy – 81-bet]. Mazkur qarashda al-Farg‘oniy vahdat fikri quruq nazariy xulosa shaklida emasligini ko‘rsatadi. U ruhiy tajriba, qalbning ochilishi va o‘zlik pardalarining susayishi bilan bog‘langan holda namoyon bo‘ladi.

Tahlilning keyingi natijasi shuni ko‘rsatdiki, al-Farg‘oniy yagona vujud haqidagi qarashni ko‘plikni inkor qiladigan usulda bayon etmaydi. Unga ko‘ra, borliq tuzilishida qarama-qarshi ko‘rinadigan tomonlar o‘zaro bog‘langan holda mavjud bo‘ladi. Sachiko Murata al-Farg‘oniy qarashini quyidagicha izohlaydi, “Qisqacha aytganda, Farg‘oniy ikki qo‘lni mavjudlikning ikki asosiy tarkibiy quvvati deb tushunadi. Ular qaysi sifat ustun kelishiga qarab turli nuqtayi nazardan talqin qilinadi” [11, Sachiko Murata – 109-bet]. Murata ushbu kuchlarni birlik va ko‘plik, zarurat va imkon, tanzih va tashbih kabi o‘zaro bog‘liq nisbatlar doirasida yoritadi. Shu asosda al-Farg‘oniy ontologiyasi voqelikning ichki tartibi, muvozanati va martabalar tizimini ochib beradi. Mazkur jihat uning gnoseologik qarashlarini ham yoritadi, chunki haqiqatni anglash voqelik bosqichlari o‘rtasidagi nozik aloqalarni fahmlash bilan chambarchas bog‘lanadi.

Muhokama jarayonida al-Farg‘oniy ta’limotining yana bir muhim jihati aniq ko‘rindi. Unda bilish masalasi kosmologik tartib va ruhiy vositachilik haqidagi qarashlar bilan chambarchas tutashadi. Ma’rifat qalbiy tajribadan boshlanib, Muhammadiy haqiqat bilan bog‘langan oliy idrok darajasiga yuksaladi. Mohammed Rustom bu fikrni quyidagicha bayon qiladi: “Sa‘id ad-Din Farg‘oniy Muhammadiy nur yoki Muhammadiy ruhni Qalam va Aql bilan ayniy munosabatda ko‘radi. Muhammadiy nur, ruh va haqiqat bir mazmunga jamlanadi” [12, Mohammed Rustom – 543-bet]. Bu yondashuv al-Farg‘oniy bilish ko‘lamini yanada kengroq ochadi. Bilish koinotning yaralish tartibi, ilohiy tajalliy oqimi va inson qalbining qabul salohiyati bilan bog‘langan holda sharhlanadi. Shu tariqa al-Farg‘oniy qarashlarida ontologiya va gnoseologiya yagona metafizik tuzilmaning o‘zaro bog‘langan ikki qirrasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Umumiy muhokama shuni ko‘rsatadiki, al-Farg‘oniy ta’limotida borliqning birligi, martabalar tafovuti, qalbiy kashf, Muhammadiy haqiqat va ruhiy kamol o‘rtasida uzviy bog‘lanish mavjud. Shu sabab al-Farg‘oniy merosini faqat sharh an’anasi doirasida baholash yetarli emas. Uning matnlarida borliq haqidagi tasavvur insonning bilish imkoniyati, ruhiy

poklanishi va ilohiy haqiqatni qabul qilish darajasi bilan chambarchas bog‘liq holda talqin etiladi. Mazkur natijalar Said ad-Din al-Farg‘oniy ta’limotida ontologik va gnoseologik asoslar o‘zaro tutashgan yaxlit tuzilmani tashkil etishini tasdiqlaydi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari Said ad-Din al-Farg‘oniy ta’limotida ontologik va gnoseologik asoslar o‘zaro uzviy bog‘langan yagona metafizik tizimni tashkil etishini ko‘rsatdi. Uning qarashlarida borliq masalasi mavjudotlar tartibi va ilohiy tajalliy darajalarini yoritish bilangina cheklanib qolmay, insonning haqiqatni anglash imkoniyati, qalbiy poklanishi va ma’rifiy kamoloti bilan chambarchas tutashadi. Shu bois al-Farg‘oniyda wujud, tajalliy, zahir–baṭin, jam‘–farq, fana’–baqa’ kabi tushunchalar mustaqil nazariy birliklar tarzida emas, haqiqatni idrok etishning ichki bosqichlarini ifodalovchi, bir-biri bilan bog‘liq tushunchalar majmui sifatida namoyon bo‘ladi.

Tahlil yana shuni ko‘rsatdiki, al-Farg‘oniy wahdat al-wujud g‘oyasini soddalashtirilgan mavhum formula darajasida talqin qilmaydi, uni ruhiy tajriba va ma’rifiy yetilish bilan uzviy aloqada sharhlaydi. Uning nazarida borliqning birligi ko‘plikni rad etmaydi, aksincha, ko‘plik ana shu birlikning tajalliy maydoni sifatida tushuniladi. Natijada bilish jarayoni tashqi kuzatishdan ichki mushahadaga, nazariy idrokdan qalbiy ma’rifatga tomon yuksaluvchi harakat shaklida talqin qilinadi. Bu hol al-Farg‘oniy merosining sharhchilik doirasidan ancha keng ekanini, islom metafizikasi va tasavvuf falsafasi tarixida mustaqil nazariy ahamiyat kasb etishini tasdiqlaydi.

Shu asosda aytish mumkinki, Said ad-Din al-Farg‘oniy ta’limoti Markaziy Osiyo mutafakkirlarining tasavvufiy-falsafiy merosida borliq va bilish muammolarini uyg‘un holda yoritgan yetuk namunalardan sanaladi. Uning asarlari inson, olam va ilohiy haqiqat o‘rtasidagi munosabatni chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Kelgusida al-Farg‘oniy qarashlarini Qunaviy, Ibn al-‘Arabiy va Jandiy merosi bilan qiyosiy o‘rganish, shuningdek uning istilohiy tizimini alohida tadqiq etish ushbu sohadagi ilmiy xulosalarni yanada boyitadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Richard Todd, *The Sufi Doctrine of Man. Ṣadr al-Din al-Qunawi’s Metaphysical Anthropology*, Leiden, Brill, 2014.
2. William C. Chittick, “Farghani on Waḥdat al-Wujud in the Four Journeys,” *Journal of Sufi Studies*, 14, 2025.
3. Mohammed Rustom, “The Cosmology of the Muhammadan Reality,” *Ishraq. Islamic Philosophy Yearbook*, 4, 2013.
4. Giuseppe Scattolin, “The Key Concepts of al-Farghani’s Commentary on Ibn al-Fariḍ’s Sufi Poem al-Ta’iyya al-Kubra,” *Journal of the Muhyiddin Ibn ‘Arabi Society*, 39, 2006.
5. Oliver Leaman, “Al-Farghani, Sa‘id al-Din,” *The Biographical Encyclopedia of Islamic Philosophy*, London, Bloomsbury Academic, 2015.
6. William C. Chittick, “Farḡani, Sa‘id-al-Din Mohammad,” *Encyclopaedia Iranica*, Vol. IX, New York, 1999.
7. Toshihiko Izutsu, *Sufism and Taoism. A Comparative Study of Key Philosophical Concepts*. Berkeley, University of California Press, 1984.
8. John Renard, *The A to Z of Sufism*. Lanham, Scarecrow Press, 2009.
9. Seyyed Hossein Nasr, *Knowledge and the Sacred*. Albany, State University of New York Press, 1989.
10. Sa‘id ad-Din al-Farg‘oniy, *Mashariq al-darari sharḥ-i Ta’iyya-yi Ibn al-Fariḍ*.
11. Sachiko Murata, *The Tao of Islam. A Sourcebook on Gender Relationships in Islamic Thought*, Albany, State University of New York Press, 1992.

12. Mohammed Rustom, “The Cosmology of the Muhammadan Reality,” *Ishraq. Islamic Mysticism and Sufism*, 2013.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 4 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 March 2026
Accepted: 01 April 2026
Published: 15 April 2026

Article / Original Paper

THE IMPACT OF THE COGNITIVE-INFORMATION ENVIRONMENT IN THE CONTEXT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE ON YOUTH CREATIVITY AND INITIATIVE

Abduraxmov Xasan Ibroximovich
Doctor of Philosophy (PhD), Associate Professor
Researcher at Tashkent State Transport University
E-mail: hasanabdurahmonov1991@mail.ru

Abstract. This article examines the transformation of young people's creative abilities and innovative initiative under the influence of the cognitive-information environment shaped by artificial intelligence technologies. The author considers artificial intelligence not only as a tool, but also as an active component of the environment that transforms the structure of thinking, the nature of cognitive activity, and the motivational orientations of youth. Based on the analysis of contemporary research and philosophical and psychological approaches, two opposing vectors of influence are identified: on the one hand, artificial intelligence expands cognitive horizons, removes traditional limitations, and stimulates combinatorial creativity; on the other hand, there is a risk of "cognitive dependence," the atrophy of self-determination skills, and a decline in genuine initiative. The article substantiates the need to develop a new pedagogical paradigm aimed at enhancing metacognitive competencies and preserving the subjectivity of young individuals in interaction with artificial intelligence.

Keywords: cognitive-information environment, artificial intelligence, youth, creativity, initiative, thinking, digitalization, cognitive development, subjectivity, metacognition.

KOGNITIV-AXBOROT MUHITINING SUN’IY INTELLEKT SHAROITIDA YOSHLAR IJODKORLIGI VA TASHABBUSKORLIGIGA TA’SIRI

Abduraxmov Xasan Ibroximovich
F.f.b.f.d.(Phd), dotsent
Toshkent davlat transport universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola sun'iy intellekt texnologiyalari tomonidan shakllantirilgan kognitiv-axborot muhiti ta'siri ostida yoshlarning ijodiy qobiliyatlari va innovatsion tashabbuslarining o‘zgarishini o‘rganadi. Muallif sun'iy intellektni nafaqat vosita, balki fikrlash tuzilishini, kognitiv faoliyatning xususiyatini va yoshlarning motivatsion munosabatlarini o‘zgartiradigan muhitning faol tarkibiy qismi sifatida ko‘rib chiqadi. Zamonaviy tadqiqotlar tahlili va falsafiy va psixologik yondashuv asosida ikkita qarama-qarshi ta'sir vektorlari aniqlanadi: bir tomondan, sun'iy intellekt kognitiv ufqlarni kengaytiradi, odatdagi cheklovlarni olib tashlaydi va kombinatorial ijodkorlikni rag'batlantiradi; boshqa tomondan, "kognitiv qaramlik", o‘z-o‘zini belgilash ko‘nikmalarining atrofiyasi va haqiqiy tashabbusning pasayishi xavfi mavjud. Maqolada metakognitiv kompetentsiyalarni rivojlantirish va sun'iy intellekt bilan muloqotda yigitning sub'ektivligini saqlashga qaratilgan yangi pedagogik paradigmani shakllantirish zarurligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: kognitiv axborot muhiti, sun'iy intellekt, yoshlar, ijodkorlik, tashabbuskorlik, fikrlash, raqamlashtirish, kognitiv rivojlanish, sub'ektivlik, metakognitsiya.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N24

Kirish. Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichi yosh odamning shakllanishi va o‘zini o‘zi anglashi sodir bo‘ladigan muhitning tubdan o‘zgarishi bilan tavsiflanadi. Sun'iy intellekt

tizimlarining paydo bo‘lishi va jadal rivojlanishi sifat jihatidan yangi — kognitiv-axborot muhitining shakllanishiga olib keldi. Bu nafaqat raqamli qurilmalar va ma'lumotlar kanallari to‘plami, balki mashinani o‘rganish algoritmlari va generativ modellar yordamida mustaqil ravishda kontent ishlab chiqarish, echimlarni taklif qilish va fikrlash jarayoniga ta'sir ko‘rsatishga qodir bo‘lgan faol maydon.

Ijtimoiylashuv va kognitiv rivojlanish umumiy raqamlashtirish sharoitida yuzaga keladigan yoshlar uchun bu muhit mavjudlikning tabiiy foniga aylanadi. Bir tomondan, u ijodkorlik uchun misli ko‘rilmagan imkoniyatlarni ochib beradi: katta hajmdagi ma'lumotlarga kirish, g'oyalarni tezkor modellashtirish, odatdagi operatsiyalardan xalos bo‘lish. Boshqa tomondan, asosli tashvish paydo bo‘ladi: sun'iy intellekt ko‘rinishidagi "intellektual ekzoskelet" o‘z ijodiy qobiliyatlarining atrofiyasiga, tashabbusning yo‘qolishiga va yangisini yaratishga emas, balki tayyorni birlashtirishga qaratilgan fikrlashning shakllanishiga olib kelmaydimi?

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi ushbu ikkilikni tushunish zarurati bilan bog'liq. Sun'iy intellekt bilan to‘yingan kognitiv axborot muhiti nafaqat xavflarni minimallashtirish, balki uning potentsialidan chinakam insoniy fazilatlarni rivojlantirish uchun qanday foydalanishni o‘rganish uchun ijodkorlik va tashabbusning chuqur mexanizmlariga qanday ta'sir qilishini aniq tushunish muhimdir.

Tadqiqotning maqsadi sun'iy intellekt vositachiligidagi kognitiv axborot muhitining zamonaviy yoshlarning ijodkorligi va innovatsion tashabbusiga ta'sirini aniqlash va tahlil qilishdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Yoshlarning ijodkorligi va tashabbusiga ta'sirining mohiyatini tushunish uchun, avvalo, "kognitiv axborot muhiti" tushunchasining mazmunini uning zamonaviy o‘lchovida ochib berish kerak. An'anaga ko‘ra, axborot muhiti deganda sub'ektning ma'lumotlarga kirishini ta'minlaydigan shartlar to‘plami tushuniladi[1]. Biroq, sun'iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi ushbu hodisaning sifatli o‘zgarishiga olib keldi.

Zamonaviy kognitiv axborot muhiti nafaqat ma'lumotlarni saqlash va uzatish kanali. Bu faol," Intellektuallashtirilgan " makon bo‘lib, u o‘z-o‘zidan kontent yaratish, bashorat qilish, yechimlarni taklif qilish va eng muhimi, kognitiv jarayonlarni taqlid qiluvchi darajada inson bilan muloqot qilish qobiliyatiga ega. SI passiv vosita bo‘lishni to‘xtatdi; u o‘zining (algoritmik bo‘lsa ham) "harakat mantig'iga"ega bo‘lgan vosita agentiga aylandi[2].

Ijtimoiylashuvi umumiy raqamlashtirish sharoitida (Z avlodi va Alfa avlodi) davom etayotgan yoshlar uchun bu muhit tashqi qo‘shimcha emas, balki tabiiy ontologik fon, ular nafas olayotgan "havo" dir[3]. Ularning kognitiv strategiyalari, fikrlash shakllari, muammolarni shakllantirish va hal qilish usullari "aqlli" algoritmlar bilan bevosita o‘zaro aloqada shakllanadi. Bu fundamental noaniqlik holatini keltirib chiqaradi: bir tomondan misli ko‘rilmagan ufqlar ochiladi, boshqa tomondan falsafiy tushunishni talab qiladigan xavflar paydo bo‘ladi.

Yoshlarning sun'iy intellekt tizimlari (generativ neyron tarmoqlari, tavsiya algoritmlari[4], intellektual yordamchilar) bilan o‘zaro munosabatlarining zamonaviy amaliyotlarini tahlil qilish ushbu ta'sirning chuqur ambivalent xususiyatini qayd etishga imkon beradi.

Ijobiy vektor "kognitiv kuchaytirish"fenomeni bilan bog'liq. Sun'iy intellekt ijodiy izlanish uchun kuchli katalizator vazifasini bajaradi[5]. Katta hajmdagi ma'lumotlarga zudlik bilan kirish imkoniyati, algoritmlarning ma'lum bir mavzu bo‘yicha minglab o‘zgarishlarni

yaratish qobiliyati tasavvurni rag'batlantiradi, psixologik to‘siqlarni olib tashlaydi ("bo‘sh varaqdan qo‘rqish") va yigitga shaxsiy tajribasidan ancha yuqori bo‘lgan tasvirlar va tushunchalar bilan ishlashga imkon beradi. Muntazam, takroriy operatsiyalardan (hisob-kitoblar, ma'lumotlarni qo‘pol ishlov berish, texnik chizish) ozod qilish kontseptual, semantik ish uchun kognitiv resurslarni chiqaradi. "G'oya-prototip" innovatsion tsikli bir necha bor kamayib bormoqda, bu yoshlarga ko‘proq loyihalarni amalga oshirish va o‘z xatolaridan tezroq o‘rganish imkonini beradi[6].

Biroq, xuddi shu jarayon salbiy vektorni keltirib chiqaradi — "kognitiv qaramlik" va "raqamli dangasalik"xavfi. Intellektual muammolarni hal qilishda sun'iy intellektga doimiy ishonish o‘z bilim harakatlarining atrofiyasiga olib kelishi mumkin. "Google effekti" shakllanmoqda: miya ma'lumotni ushlab turishni va chuqur semantik aloqalarni o‘rnatishni to‘xtatadi, chunki har doim "algoritmdan so‘rash"imkoniyati mavjud. Bunday holda, ijodkorlik tayyor elementlarning kombinatorikasi bilan almashtirilishi mumkin[7]. "Ijodkorlik illyuziyasi" fenomeni yosh yigit intellektual faoliyat mahsulotidagi "o‘z" va "begona" ni farqlash qobiliyatini yo‘qotib, mashina tomonidan yaratilgan natijani o‘zlashtirganda paydo bo‘ladi.

Tadqiqotning uslubiy asosi falsafiy, psixologik va ijtimoiy-madaniy tahlilni birlashtirgan kompleks yondashuvdir:

- nazariy tahlil va sintez-mahalliy va xorijiy mualliflarning asarlarida ijodkorlik, kognitiv jarayonlar va axborot muhitining rolini tushunishga mavjud yondashuvlarni umumlashtirish;

- Tizimli yondashuv - "yoshlar-SI-muhit" o‘zaro ta'sirini yaxlit dinamik tizim sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi, bu erda bitta elementning o‘zgarishi butun konfiguratsiyaning o‘zgarishiga olib keladi;

- Fenomenologik usul-SI bilan muloqotda ishlaydigan yigitning ijodiy faoliyatining sub'ektiv tajribasidagi o‘zgarishlarni tavsiflash uchun ishlatiladi;

- Qiyosiy tahlil elementlari-ijodkorlikning an'anaviy shakllarini (sun'iy intellektsiz) va yangi, gibrid shakllarni taqqoslash uchun;

- Faoliyat yondashuvi (A. N. Leontiev, S. L. Rubinshteyn) — sun'iy intellektni vositachi sifatida joriy etishda ijodiy faoliyat tuzilishi (motiv – maqsad – operatsiya) qanday o‘zgarishini tahlil qilishga imkon beradi.

Natijalar va muhokama. Bu yerda "kognitiv axborot muhitining sun'iy intellekt sharoitida yoshlarning ijodkorligi va tashabbusiga ta'siri"mavzusidagi maqolaning asosiy qoidalarini tartibga soluvchi va vizualizatsiya qiluvchi uchta tahliliy jadvalning loyihasi.

Har bir jadval tahlilning ma'lum bir jihatini ochib beradi: ta'sirning ambivalentsiyasi, faoliyat tuzilishining o‘zgarishi va yoshlarning sun'iy intellekt bilan o‘zaro munosabatlari strategiyasining tipologiyasi.

1-jadval.

Kognitiv axborot muhitining ijodkorlik va tashabbusga ta'sirining ambivalentsiyasi

Ta'sir qilish jihati	Ijobiy vektor (imkoniyatlarni kengaytirish)	Salbiy vektor (xavf va tahdidlar)	Yakuniy qarama-qarshilik
Kognitiv vositalar to‘plami	Katta hajmdagi ma'lumotlar va modellarga tezkor kirish; SI "tashqi miya" va "g'oyalar mashinasi"sifatida.	O‘z bilim harakatlarining atrofiyasi ("Google effekti"); nusxalash-joylashtirish fikrlash.	SI ufqlarni kengaytiradi, lekin o‘z-o‘zidan sho‘ng'in chuqurligini toraytiradi.
Ijodiy jarayon	Iteratsiyalarni tezlashtirish; tez modellashtirish va prototiplash	Tayyor kombinatorika bilan ijodkorlikni almashtirish;"	Jarayon tezlashadi, lekin dizaynni pishib etish

	qobiliyati; muntazam cheklovlarni olib tashlash.	ijodkorlik illyuziyasi " (SI ishining natijalarini o‘zlashtirish).	uchun zarur bo‘lgan vaqt o‘tishi bilan uning kengayishini yo‘qotadi.
Tashabbus	Jasur g'oyalarni amalga oshirish uchun kirish chegarasini pasaytirish; ijodkorlik vositalaridan foydalanishni demokratlashtirish.	Tashabbusni reaktivlik bilan almashtirish; o‘zingizni yaratish o‘rniga tayyor stsenariylardan tanlash.	Harakatning qulayligi ichki ixtiyoriy harakatlarga bo‘lgan ehtiyojni kamaytiradi.
Motivatsiya	SI bilan o‘ynash qiziqish va ilhomning yangi manbai sifatida; kutilmagan natijalarni ko‘rish imkoniyati.	SI tomonidan hal qilinmagan vazifalarga duch kelganda motivatsiyaning barqarorligini kamaytirish;"raqamli dangasalik"[8].	Motivatsiya chuqur emas, balki vaziyatga aylanadi.

Ushbu jadval SI muhitining ijodiy faoliyatning turli tarkibiy qismlariga ta'sirining ikki tomonlama (ijobiy va salbiy) xususiyatini namoyish etadi.

2-jadval.

Ijodiy faoliyat tarkibini o‘zgartirish (faoliyat yondashuvi asosida)

Faoliyatning tarkibiy qismi	An'anaviy model (sun'iy Intellektsiz)	SI muhitidagi model	Transformatsiyaning tabiati
Ehtiyoj / Motiv	O‘zini ifoda etish, bilish, "materialning qarshiligini" engish zarurati. Motiv ko‘pincha jarayon bilan bog'liq bo‘lgan ichki bo‘ladi.	Yangilik, texnologiya bilan o‘ynash, tezkor natijaga ehtiyoj. Motiv atrof-muhit imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda "tashqi" bo‘lishi mumkin.	Protsessuallikdan samaradorlikka o‘tish; chuqurlikdan yangilikgacha.
Maqsadni belgilash	Maqsadni mustaqil ravishda belgilash, ko‘pincha noaniqlik sharoitida, "ijodkorlik azoblari" orqali.	Maqsad ko‘pincha AI takliflari bilan tuzatiladi yoki hatto almashtiriladi ("men nima qila olaman"); "belgilangan maqsadlar" xavfi.	Muallifning pozitsiyasini zaiflashtirish; maqsad faqat "o‘z" bo‘lishni to‘xtatadi.
Mablag'larni rejalashtirish va qidirish	O‘z ichida va madaniyatda vositalarni topish; noyob traektoriyani qurish.	Sun'iy intellektdan universal vosita sifatida foydalanish; tayyor algoritmlar va shablonlar asos sifatida.	Yo‘lni birlashtirish; "qo‘l yozuvi"ning o‘ziga xosligini kamaytirish.
Operatsiyalar (ijro qismi)	Operatsiyalarni qo‘lda bajarish (chizish, yozish, hisoblash); harakat orqali mahoratni shakllantirish.	SI operatsiyalarini topshirish; inson "operatsiyalar operatori"vazifasini bajaradi.	Materialning "mushak hissi" yo‘qolishi; yuzaki tushunish xavfi.
Natijani aks ettirish	Natijani "o‘z" deb baholash, shaxsning izini olib yurish; o‘zini tanqid qilish.	Natijani "qiziqarli" deb baholash (mualliflikdan qat'iy nazar); Aini tanqid qilish yoki unga qoyil qolish.	Muallifning o‘ziga xosligini xiralashtirish; fokusning "men yaratdim" dan "bu yaratilgan"ga siljishi.

Ushbu jadvalda SI ijodiy harakat konturiga kiritilganda faoliyatning klassik tarkibiy qismlari (ehtiyoj – motiv – maqsad – operatsiya) qanday o‘zgarishi tahlil qilinadi.

3-jadval.

Ijodiy jarayonda yoshlarning SI bilan o‘zaro munosabatlari strategiyasining tipologiyasi

Strategiya turi	SIning roli	Yosh insonning roli	Ijodkorlik va tashabbus uchun natija	Turning shartli nomi
Passiv-iste'molchi	"O‘zgartirish" / "Hassa". SI inson o‘rniga qiladi.	Tayyor iste'molchi. Shablon echimlarining mijozi.	Ijodkorlikning buzilishi; tashabbusni yo‘qotish;"kognitiv qaramlik".	**"Kognitiv qaram"**
Instrumental va funktsional	"Asbob" / "Kalkulyator". SI inson tomonidan qo‘yilgan tor, aniq vazifalarni hal qilish uchun ishlatiladi.	Vakolatli foydalanuvchi. Vazifani qo‘yadi va operatsion darajada bajarilishini nazorat qiladi.	Tashabbusni vazifalarni belgilash darajasida saqlash; samaradorlikni oshirish; ammo SI salohiyati to‘liq ishlatilmaydi.	**"Asbob bilan usta"**
Muloqot / Hamkorlik	"Suhbatdosh" / "kognitiv sherik". SI kutilmagan uyushmalar manbai, raqib, provokator vazifasini bajaradi.	"Ma'nolar dirijori". Dialogga kiradi, natijalarni sharhlaydi, qiymat ko‘rsatmalarini saqlaydi[9].	Insonning niyatliligi va mashina kombinatorikasining sintezi; chinakam yangining tug'ilishi; metakognitsiyaning rivojlanishi.	"Sintezator**"**

Tahlil asosida atrof-muhit ta'sirining yakuniy ta'sirini aniqlaydigan o‘zaro ta'sirning uchta sifat jihatidan farq qiluvchi turlarini (strategiyalarini) ajratish mumkin.

Taqdim etilgan ma'lumotlar to‘plami (1-3-jadvallar) quyidagi umumlashmalarni amalga oshirishga imkon beradi:

1) Kognitiv axborot muhitining ta'siri tubdan ikki tomonlama (1-jadval): bir xil texnologik xususiyatlar (tezlik, mavjudlik, kuch) ijodiy salohiyatning gullab-yashnashiga va degradatsiyasiga olib kelishi mumkin.

2) Transformatsiyaning asosiy bo‘g'ini-bu faoliyat tuzilishining o‘zgarishi (2-jadval). Operatsiyalarni topshirish va maqsadlarni belgilashga ta'sir qilish yigitning pozitsiyasini "muallif" dan "operator" ga o‘tkazadi, bu esa sub'ektivlikni yo‘qotish xavfini tug'diradi.

3) Natijada paydo bo‘lgan ta'sir vektori texnologiyaning o‘zi bilan emas, balki yigit tanlagan (yoki o‘qitiladigan) o‘zaro ta'sir strategiyasining turi (3-jadval) bilan belgilanadi.

4) "Sintezator" strategiyasi (dialog) eng istiqbolli ko‘rinadi, chunki u sun'iy intellektning kuchidan foydalanishga, insonning haqiqiy tashabbusi, aks etishi va muallifligini saqlab qolish va rivojlantirishga imkon beradi. Ushbu strategiyani shakllantirish yangilangan pedagogika va ta'lim falsafasining maqsadi bo‘lishi kerak[10].

Nazariy tadqiqotlar davomida kognitiv-axborot muhitining yoshlarning ijodkorligi va tashabbusiga ta'sirining ko‘p qirraliligini ochib beradigan quyidagi natijalar olindi.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, atrof-muhit ta'siri chuqur ambivalentdir. Uni "yomon" yoki "yaxshi"deb aniq baholash mumkin emas. U amalga oshirish ko‘plab omillarga bog'liq bo‘lgan imkoniyatlar maydoni sifatida ishlaydi[11]: aks ettirish darajasi, qiymat munosabatlari, pedagogik qo‘llab-quvvatlash.

Xulosa. Sun'iy intellekt texnologiyalari tomonidan shakllantirilgan kognitiv-axborot muhitining yoshlarning ijodkorligi va tashabbusiga ta'siri bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar tor pedagogik yoki texnologik muammolardan tashqariga chiqadigan va falsafiy va antropologik

ahamiyatga ega bo‘lgan bir qator kontseptual umumlashmalarni amalga oshirishga imkon beradi.

Shunday qilib, sun'iy intellekt davrida yoshlarning ijodiy salohiyatining kelajagi o‘z — o‘zidan texnologiyaga emas, balki jamiyat, ta'lim tizimi va falsafiy fikrning "sintez qiluvchi odam" - sun'iy intellekt bilan samarali muloqotga kirisha oladigan shaxsni shakllantirish uchun sharoit yaratish qobiliyatiga bog'liq. uning sub'ektivligi, qiymat ko‘rsatmalari va haqiqiy ijodiy tashabbusini saqlab qolish. Qo‘shimcha tadqiqotlar metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirishning o‘ziga xos pedagogik usullarini, shuningdek atrof-muhitni to‘liq algoritmlashtirish sharoitida ongni manipulyatsiyasini oldini oladigan axloqiy regulyatorlarni talab qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Abdullayeva, Sh. A. Raqamli ta'lim muhitida o‘quvchilarning ijodiy faolligini rivojlantirish [Развитие творческой активности учащихся в цифровой образовательной среде] / Sh. A. Abdullayeva. – Toshkent: Akademiya, 2024. – 276 b.
2. Abduraxmanova, D. A. Kognitiv rivojlanish va raqamli muhit: yoshlar tafakkuridagi o‘zgarishlar [Когнитивное развитие и цифровая среда: изменения в мышлении молодежи] / D. A. Abduraxmanova. – Toshkent: Noshir, 2025. – 208 b.
3. Karimov, B. R. Kognitiv falsafa: bilish va tafakkur muammolari [Когнитивная философия: проблемы познания и мышления] / B. R. Karimov. – Toshkent: Universitet, 2023. – 264 b.
4. Karimova, V. M. Yoshlar psixologiyasi va ijodiy qobiliyatlar rivojlanishi [Психология молодежи и развитие творческих способностей] / V. M. Karimova. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – 296 b.
5. Maxmudov, M. X. Yoshlar innovatsion initsiativalarini qo‘llab-quvvatlashning pedagogik asoslari [Педагогические основы поддержки инновационных инициатив молодежи] / M. X. Maxmudov // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. – 2024. – № 1 (15). – B. 72–80.
6. Nazarov, K. N. Raqamli asrda inson ongi va sun'iy intellekt [Человеческое сознание и искусственный интеллект в цифровую эпоху] / K. N. Nazarov. – Toshkent: Akademnashr, 2024. – 328 b.
7. Nazarov, K. N. Raqamli asrda inson ongi va sun'iy intellekt [Когнитивные технологии в образовании и их эффективность] / K. N. Nazarov. – Toshkent: Akademnashr, 2024. – 328 b.
8. Safarov, O. S. Ijodkorlik psixologiyasi: an'anaviy va raqamli yondashuvlar [Психология творчества: традиционные и цифровые подходы] / O. S. Safarov. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2024. – 244 b.
9. Tulenov, J. T. Bilish nazariyasi va zamonaviy fan metodologiyasi [Теория познания и методология современной науки] / J. T. Tulenov, M. M. Yuldasheva. – Toshkent: Fan, 2022. – 212 b.
10. Abdurahmonov, H. I. (2020). THE PECULIARITIES OF THE FORMATION OF INNOVATIVE THINKING IN THE YOUTH WORLDVIEW. Форум молодых ученых, (8 (48)), 3-6.
11. Abdurahmonov, H. I. (2020). THE PECULIARITIES OF THE FORMATION OF INNOVATIVE THINKING IN THE YOUTH WORLDVIEW. Форум молодых ученых, (8 (48)), 3-6.
12. Auyelbekova, N., Akhtayeva, N., Klepikov, D., Sadvakassova, Z., & Abdurakhmonov, H. (2024). Impact of persistence on self-esteem at the student age. The Journal of Psychology & Sociology, 88(1).

13. Ibrohimovich, A. H. (2023). Modern Factors for Raising Student-youth Innovative Thinking in the Higher Education. American Journal of Pedagogical and Educational Research, 15, 202-206.
14. Abdurahmonov, K. H. (2012). Chelovecheskij progress. T.: Jekonomika.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 4 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 March 2026
Accepted: 01 April 2026
Published: 15 April 2026

Article / Original Paper

"THE HISTORICAL-PHILOSOPHICAL EVOLUTION OF THE CONCEPT OF ENLIGHTENMENT IN MEDIEVAL PHILOSOPHICAL THOUGHT: ANALYSIS OF THEOLOGICAL AND INTELLECTUAL STAGES"

Kholova Umida Umedovna
Bukhara State University,
Department of Islamic History and Source Studies,
Lecturer, independent researcher

Abstract. This article examines the historical and philosophical evolution of the concept of "enlightenment" within medieval philosophical thought. The study analyzes the ideas of enlightenment and enlightener thought in social, religious, philosophical, and ethical contexts, highlighting their gradual historical development. In the first stage, "enlightenment" is interpreted within a theological and spiritual framework, emphasizing the human heart and spiritual perfection. In the second stage, the concept is considered as a form of intellectual, scientific, and philosophical development.

Keywords: Middle Ages, philosophical thought, enlightenment, enlightener thought, theological stage, intellectual stage, tariqa, Ma'rifatullah, heart, theocentric doctrine.

"O'RTA ASRLAR FALSAFIY TAFAKKURIDA MA'RIFAT KONSEPSIYASINING TARIXIY-FALSAFIY EVOLYUTSIYASI: TEOLOGIK VA MA'RIFIY BOSQICHLAR TAHLILI"

Xolova Umida Umedovna
Buxoro davlat universiteti, Islom tarixi va manbashunosligi,
falsafa kafedrasi o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi
E-mail: umidaxonxolova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'rta asrlar falsafiy tafakkurida "ma'rifat" konsepsiyasining tarixiy-falsafiy evolyutsiyasi tadqiq etiladi. Maqolada ma'rifat va ma'rifatparvarlik g'oyalari ijtimoiy, diniy, falsafiy va axloqiy kontekstda o'rganilib, ularning tarixiy rivojlanish jarayoni bosqichma-bosqich tahlil qilinadi. Birinchi bosqichda "ma'rifat" teologik va ruhiy tafakkur doirasida talqin qilinib, inson qalbi va ruhiy kamolotga urg'u beriladi. Ikkinchi bosqichda esa konsepsiya ilmiy, aqliy va falsafiy rivojlanish sifatida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: O'rta asrlar, falsafiy tafakkur, ma'rifat, ma'rifatparvarlik, teologik bosqich, ma'rifiy bosqich, tariqat, Ma'rifatulloh, qalb, teosentrik ta'limot.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N25

Kirish. O'rta asrlar tarixiy jarayonlarda "ma'rifat" tushunchasi va ma'rifatparvarlik g'oyalari bir xil mazmunda qolmagan, balki tarixiy davrda mazmunan boyib, bosqichma-bosqich takomillashib borgan murakkab ijtimoiy-falsafiy kategoriya sifatida namoyon bo'ladi. O'rta asrlarga kelib, "ma'rifat" konsepsiyasi turli xil mazmunlarda talqin qilina boshlandi. Bu davrga kelib, "ma'rifat" tushunchasi aql va ilmiy tafakkurga asoslangan rivojlanish sifatida falsafiy jihatdan talqin qilinadi, ikkinchi tomondan esa tasavvufiy jarayon sifatida qalb va ruhiy kamolot darajasi sifatida izohlanadi. Natijada "ma'rifat" konsepsiyasi diniy g'oyadan kengayib,

falsafiy, axloqiy jihatlarni o'zida mujassam etgan ko'p qatlamli ijtimoiy-falsafiy kategoriya sifatida shakllandi. Ma'rifat g'oyasi qanday mazmun – mohiyatni kasb etsa, ma'rifatparvarlik ham shu talqin asosda shakllanadi. Shunga asoslanib, O'rta asrlar va Renessans davri falsafasida ma'rifat va ma'rifatparvarlik g'oyalarini ikki tarixiy – falsafiy bosqich asosida o'rganish tavsiya etiladi :

1. Teologik — ruhiy bosqich.
2. Renessans ma'rifiy bosqich.



O'rta asrlar falsafasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri, bu davrda asosiy markazda inson va uning aqliy salohiyati, ruhiy holati ilohiylik g'oyalari bilan chambarchas bog'liq holda bo'lgan va teosentrik asosda shakllangan davrini ifodalaydi. Tasavvuf (Taṣawwuf) — Islomning botiniy yoki ichki (**bāṭin**) jihatini ifodalovchi ta'limot bo'lib, u zohiriy yoki "tashqi" (**ẓāhir**) Islomdan farq qiladi. Qanday qilib ilohiy yoki ruhiy haqiqatlarni bevosita mushohada qilish ularni insoniy tartibda ifoda etuvchi qonunlarni bajarishdan farq qilsa, tasavvuf ham xuddi shunday tarzda insoniyat taraqqiyotining muayyan bosqichiga xos shart-sharoitlar bilan bog'liq holda ajralib turadi. Tasavvuf esa o'z maqsadini o'zida mujassam etadi: u abadiy haqiqatni bevosita bilish imkonini beruvchi yo'l sifatida namoyon bo'ladi.[1;19]

Tasavvufda "ma'rifat" insonni o'z "men"idan ozod qilib, uni ilohiy haqiqat bilan birlashtirish jarayonini bildiradi. Bu g'oya keyinchalik G'arbdagi Renessans tafakkuriga ham bevosita ta'sir ko'rsatgan, chunki tasavvufda inson markaziy o'ringa chiqadi, ammo bu markazlik Allohdan uzoqlashish emas, balki Uning mohiyatini o'zida aks ettirish orqali amalga oshadi. Tasavvufiy tafakkur tizimida ma'rifatulloh eng oliy maqsadlardan biri sifatida qabul qilingan. Shu nuqtai nazardan, u tasavvufiy tafakkur tizimining markaziga joylashtirilgan va uning terminologiyasi hamda konseptual tuzilishi asosan shu atrofda shakllangan. Chunki tasavvufning asosiy maqsadi – ma'rifat, ya'ni Allohni bilish va tanishdir. Ya'ni, tasavvufda asosiy maqsad Ma'rifatullohdir.[2;748]

Shuningdek bu davrda asosiy, mustaqil substansiya Alloh (Xudo) bo'lib, insonning kamol topishida, ruhiy va axloqiy mukammallashuvida asosiy o'rinni egallaydi. Chunki, teosentrik ta'limotga ko'ra, borliq, inson va butun olam markazida Xudo turadi va Xudoni asosiy manba, yaratuvchi shuning bilan birga yakuniy sababchi sifatida talqin qilinadi.

G‘arb tafakkurida **“**epistemologiya” deb yuritiladigan, ya’ni “inson bilimni qaysi manbalardan oladi?” degan savolga javob izlash faoliyati Islom ilmiy an’analarida “asbobi ilm” (ilm manbalari) nomi ostida muhokama qilinadi.

Islom olimlari nazarida bilimning uch asosiy manbai mavjud:

1. Sog‘lom sezgi a’zolari,
2. Sodiq xabar (vahiy),
3. Aql.

Mutasavviflar esa bu manbalarga yana birini — **ko‘ngil (qalb)**ni ham qo‘shganlar. Ularning ta’kidlashicha, riyozat va mujohada orqali poklangan, kin, hasad, kibr va riyo kabi ma’naviy illatlardan xalos bo‘lgan qalb ilohiy haqiqatlarni qabul qiluvchi va ularni aks ettiruvchi manbaga aylanishi mumkin.[3;39]

Aql orqali olingan bilim qanchalik e’tiborli va asosli bo‘lsa, qalb orqali hosil bo‘lgan bilim ham kamida shunchalik e’tiborlidir. Ushbu bilim **ma’rifat**, **kashf** va **irfon** nomlari bilan ataladi. Shu bois o’rta asr teologik — ruhiy bosqichi davridagi ma’rifat tushunchasi – inson ongi va aqlining holati emas, balki ilohiy haqiqatni anglash diniy yo’l bilan amalga oshirilishi, qalbni poklash va ruhiy mukammallashish yo’li sifatida ifodalanadi. Bu davrga kelib, inson haqiqatni anglash manbasi aql emas, qalbga ko‘chadi.

Adabiyotlar tahlili. Ayniqsa, bu davr ma’rifatparvarlik g‘oyalari ko‘proq tasavvuf ta’limoti bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilinadi. Sufiylar uchun haqiqiy ma’rifat — bu inson qalbida Alloh nurining akslanish jarayonidir. Al-G‘azzoliy, Ibn Arabi, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband singari mutasavviflar ilmni nafaqat zohiriy bilim, balki “ma’rifatullāh” — Allohni qalb orqali tanish darajasiga ko‘tardilar va shu bilan birga ma’rifat qalb orqali akslanadi degan tushunchani ilgari surdilar. Abu Homid G‘azzoliy ma’rifatga quyidagicha ta’rif bergan: “Ma’rifat” so‘zining istilohiy ma’nosi maxsus lug‘at kitoblarida “Yaratuvchini tanimoq, anglamoq” deya ta’riflangan. Hikmatga ko‘ra, Yaratuvchini tanish o‘zini maqsadi Haqni tanish bo‘lgan inson avval o‘zini tanimog‘i lozim.[4;3] Ibn Arabiy aytadiki, Xudo haqida ham aql tili bilan gapirish mumkin, lekin aql kuchi bilan Uni bilish mumkin emas. Aql isbotni talab qiladi, dalil – tajriba bilan ish ko‘radi. Vaholanki, Xudoning borligi, zotu sifatlarini dalil orqali isbotlash mushkul. «Ma’rifat Haq tomonidan yuboriladi. Bu mening fikrim emas, balki ilohiy ilhomdir», deb yozadi Ibn Arabiy.[5;]

Shu nuqtai nazardan tasavvufda ma’rifat ta’limotning markazida turadi va barcha amallar ma’rifatga erishishga qaratilgan. Sufiylar Ma’rifatullohga erishishning turli ruhiy – amaliy yo‘llarini, usullarini ishlab chiqqan hamda insonni oliy tafakkuri orqali haqiqatni tushunishga undagan. Ma’rifat — bu Alloh tomonidan sufiylarga berilgan bilimdir. Ma’rifatga erishishda ikki jihat alohida e’tiborga molikdir: axloqiy poklanish va Allohning irodasiga taslim bo‘lish. [6;3]

Shunday qilib, o‘rta asr va Renessans davri falsafasida ma’rifatparvarlik g‘oyalarining teosentrik tavsifi, Islom falsafasi va tasavvufda o‘zining eng yuksak darajasidagi ifodasini topgan. Bu tizimda ma’rifat — ruhiy jihatdan yuksalish, aql va qalb uyg‘unligi, ilohiy haqiqatni idrok etish vositasi sifatida qaraladi. Shunday qilib, islom falsafasi va tasavvuf o‘rta asr insonining ma’rifatga intilishi, uni ichki poklanish va ilohiy haqiqat bilan birlashish jarayoni sifatida talqin etgan bo‘lib, bu yondashuv keyingi Renessans davri ma’naviy uyg‘onishiga ham nazariy zamin yaratgan.

Muhokama. IX asr boshlariga kelib tasavvufning nazariy asoslari ishlab chiqildi, so‘fiylarning amaliy, ruhiy-psixologik mashqlari, o‘zini-o‘zi tarbiyalash va chiniqtirish tadbir-usullari shakllandi, **tariqat, ma’rifat, haqiqat** degan tushunchalar yuzaga kelib, tasavvufning ushbu uch qismiga oid qarashlar majmui tuzildi — tasavvuf alohida ilm sifatida qaror topdi. So‘fiylar dastlabki paytlarda tasavvufni nuqul siru asror, tushuntirib bo‘lmaydigan holatlar, «iboraga kelmaydigan ishoratlar» deb hisoblagan bo‘lsalar, bora-bora bu holatlar haqida fikr-mulohazalar bayon qilina boshlandi, so‘fiyini tarbiyalash vazifasi, pir-muridlik qoidalari, odobini yaratish zarurati tug‘dirdi.[7;22]

Tasavvuf insonning ma’naviy kamolotga erishish yo‘lidir. Bu yo‘l to‘rt qismga ajraladi:

1. Shariat (ma’naviy komillikning ilk bosqichi)

2. Tariqat (yo‘l, tasavvufning amaliy qismi). U albatta ustoz (pir, murshid) bilan egallanadi.

3. Ma’rifat (bilmoq, bu bosqichga erishgan zohid dunyoning hamma jismida, har bir voqea-hodisada Olloh irodasini, uning sifatlarini ko‘ra oladi. Ammo bu hali o‘zlashtirishning aql bilan bog‘langan bosqichi).

4. Haqiqat (tasavvufning eng yuqori – oliy bosqichi).

Demak, o‘rta asr va Renessans davri falsafasida ma’rifatparvarlik g‘oyalarining teosentrik tavsifi, Islom falsafasi va tasavvufda o‘zining eng yuksak ifodasini topgan. Bu tizimda ma’rifat — ruhiy yuksalish, aql va qalb uyg‘unligi, ilohiy haqiqatni idrok etish vositasi sifatida talqin qilinadi. Shunday qilib, islom falsafasi va tasavvuf o‘rta asr insonining ma’rifatga intilishi, uni ichki poklanish va ilohiy haqiqat bilan birlashish jarayoni sifatida talqin etgan bo‘lib, bu yondashuv keyingi Renessans davri ma’naviy uyg‘onishiga ham nazariy zamin yaratgan. Ma’rifatullohning qadriyatini chuqur anglagan sufiylar uni egallash yo‘lida katta sa’y-harakatlar qilganlar. Ular ma’rifatni Allohning bandasiga ato etgan in’om va ne’mati sifatida baholashgan bo‘lsalar-da, bu murakkab yo‘lda insonning sa’y-harakat va irodasining ham nihoyatda muhim ekanligini yaxshi tushunganlar. Shu sababli ular Ma’rifatullohga erishish uchun intilishgan. Buning uchun avvalo qalblarini dunyo chang-chirg‘idan tozalashga kirishgan, chunki pok bo‘lmagan qalb toza narsalarning qarorgohi bo‘la olmaydi. [8;750] Bu davrga kelib insonlar ruhan poklanishga, qalbini isloh qilishga, shuning bilan birga nafsni tarbiyalashga e’tibor qarata boshladi. Bu davrning o‘ziga xos xususiyatlardan biri, ma’rifat tushunchasi orqali inson o‘zini anglab, bu g‘oyalarni tarqatish vazifasini ham bajargan.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Titus Burckhardt. Introduction to Sufi doctrine. Canada. World wisdom. P.19
2. Asuman ÜNAL ÖZCAN. TASAVVUF’TA MÂRİFETULLAH ANLAYIŞI. Eurasian Journal of Researches in Social and Economics (EJRSE). http://www.asead.com/. S.748.
3. MUSTAFA KARA. Tasavvuf ve tarikatlar. Yeni yüzyil – kitapligi.S.39.
4. A.H.G’azzoliy. Ihyou ulumid din. T. Matbaachi. 2024. B.3
5. Najmiddin Komilov. Tasavvuf. Ma’rifat va haqiqat | Xurshid Davron kutubxonasi
6. Yakup Pekdoğru. Bir Bilgi Olarak Sûfîlerin Marifet Anlayışı. ilmî ve akademik araştırma dergisi 47.2021, s. 339-358. S.3.
7. Komilov N. Tasavvuf. Movorounnahr. T – 2009. B. 22.
8. Asuman ÜNAL ÖZCAN. TASAVVUF’TA MÂRİFETULLAH ANLAYIŞI. Eurasian Journal of Researches in Social and Economics (EJRSE). http://www.asead.com/. S.750

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 4 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 March 2026
Accepted: 01 April 2026
Published: 15 April 2026

Article / Original Paper

AHMAD DONISH'S PHILOSOPHICAL VIEWS IN HIS WORK "NAVODIR UL-VAKOE"

Rajabova Rohila Zakirovna
Lecturer of the chair of Islamic history and source studies,
philosophy at the Bukhara state university
E-mail: rohilazakirovna@gmail.com

Abstract. Today, Ahmad Donish's thoughts, rich in philosophical views that provide a lot of information to various spheres of cultural life, are recognized as an invaluable spiritual heritage of our people. At the same time, Ahmad Donish's philosophical views contain valuable information about state processes, details of economic and political life, and diplomatic relations, and at the same time, they all reflect the most important aspects of cultural life in these periods.

Keywords: Navodhir ul-Vakoe, Bukhara, manuscript, philosophical, emir, socio-political, culture.

AHMAD DONISHNING "NAVODIR UL-VAQOE" ASARIDAKI FALSAFIY QARASHLARI

Rajabova Rohila Zakirovna
Buxoro davlat universiteti
Islom tarixi va manbashunosligi,
falsafa kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Bugungi kunda madaniy hayotning turli sohalariga ko‘plab ma’lumotlarni yetkazib kelayotgan falsafiy qarashlarga boy bo‘lgan Ahmad Donish fikrlari xalqimizning bebaho ma’naviy merosi sifatida e’tirof etilmoqda. Shu bilan bir qatorda Ahmad Donish falsafiy qarashlari davlatchilik jarayonlari, iqtisodiy va siyosiy hayot tafsilotlari, diplomatik aloqalarga oid qimmatli ma’lumotlarni jamlagan, ayni vaqtda ularning barchasi bu davrlardagi madaniy hayotning eng asosiy jihatlarini aks ettiradi.

Kalit so‘zlar: Navodir ul-Vaqoe, Buxoro, qo’lyozma, falsafiy, amir, ijtimoiy-siyosiy, madaniyat.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N26

Introduction. Ahmad Donish, who became famous in his time under the names "Ahmad Kalla" and "Ahmad Makhdum" and had a significant impact on the renewal of scientific and literary thought, was one of the encyclopedic scholars of Bukhara in the XIX century. He was born in Bukhara in the family of a teacher. As a young man, he studied painting, drawing and calligraphy. Along with various rare manuscripts, the unique works of Ahmad Donish have come down to us in full. Sadri Ziyo, a contemporary student of Ahmad Donish, said: “Ahmad Donish is an unparalleled historian, Kamoliddin Behzodu is the second Mir Shafe in painting, Ulugbek Koragoni is the best in astronomy, Mir Ali is the best in music, Ibn Sino is the best in medicine and Hotami Toi is the most generous. In poetry, he was like Saadi Shirazi, and in prose, he was like Hussein Kashifi.

At present, 16 manuscripts of Ahmad Donish are stored in the manuscript fund of the Institute of Oriental Studies of the Uzbek Academy of Sciences. Most are his own handwritten originals. From the manuscripts of the scientist in the Bukhara State Museum-Reserve there are drafts and originals (that is, the first book of 1880) of his handwritten work "Mukhtasare az tarikhi sultanati honadoni mangitiya" (1878) and "Navodir ul-vakoe". The Oriental Manuscripts Department of the Abu Ali Ibn Sina Regional Library also has an incomplete copy of “Navodir ul-vaqoe”. In addition, there are many manuscripts of “Navodir ul-vaqoe”, which are stored in the libraries of Dushanbe, Tashkent and Leningrad.

The author's work "Navodir ul-vaqoe" is a historical, philosophical, memoir written for 15 years, from 1870 to 1885 (some sources call it 1875-1882). Consisting of 23 chapters, this work is a philosophical, social, political and cultural work, but it has not yet been fully published in any language. Only some chapters of it have been published. In particular, part of it was translated into Uzbek in 1964.

Literature review. In this play, the author analyzes some of the philosophical views of the philosophers who preceded him, primarily Bedil. He sought to solve the problems of his time [1:14]. In terms of significance, this work can be compared to Nizamulmulk's "Politics", written in the XI century and dedicated to the history of the Seljuk dynasty. The main content of the work is to call the people to enlightenment, to propagate the ideas of humanity. It is no exaggeration to call “Navodir ul-vaqoe” an encyclopedia of its time [2:70].

It is also speculated that the work was written between 1868 and 1873 after Ahmad Donish's second visit to St. Petersburg. However, it was not published due to the lack of a printing house in Bukhara. During the writing of the book, he gave some of its pages to his relatives to read without editing. Ahmad Donish himself says: “I did not like the actions of the people of the time. When I was very upset and my heart was pounding, I would take a pen to my friends and scribble on a piece of paper to relieve my grief. Those who know my client have arranged these scattered pages of writing, looking at the stories: separate your writing from the words of others and turn it into a collection of books ”[3: 8].

There are different opinions about the date and chapters of this work. “Navodir ul-vaqoe” is a work consisting of 23 chapters, with an introduction, 3 chapters and an introduction.

Research Methodology. “Navodir ul-vaqoe”, with its critical and complex style of writing, marked a turning point in the political and social life of the time. Donish's educational ideas reflected in “Navodir ul-vaqoe” had a great influence on the spiritual life of that time. On the other hand, the writing style and artistic style of “Navodir ulvaqoe” played a very important role in the emergence of realistic prose at that time and in subsequent periods.

This work introduced the author to the people of that time as a powerful writer and thinker. In this play, Ahmad Donish analyzes and describes many new philosophical and social issues that have been the subject of judgment of philosophers and thinkers of the past from a new perspective and in a context of conflict with European civilization.

Analysis and results. While Donish reveals the flaws of social and economic life, the issue of taxes is also highlighted. At the beginning of the reign of Amir Muzaffar, the districts paid 10-15 thousand tenge in taxes, but later this figure reached one hundred thousand tenge. These receipts are, of course, various taxes and levies which are compulsorily collected from the working people. And this thing has been growing in the emirate year after year. Many lands have been devastated by the forced introduction of many taxes by tax collectors. There is not a

single prosperous village around Bukhara except Gijduvan. Excessive taxes lead to the destruction of farmers' homes and the destruction of fertile land. Irrigation networks in the northern districts of Bukhara are out of order. The situation of the working people in Russia is deteriorating, especially after the Russian invasion. Tsarist Russian officials began to come to Bukhara frequently under various pretexts. These visits certainly required unexpected expenses. Amir Muzaffar was afraid of them, thinking of his peaceful life, forcibly collecting taxes from the people and giving them to the Russians as bribes. Ahmad Donish, quoting the above points, sympathizes with the working people and condemns these actions of the emirs and officials.

In general, in "Navodir ul-vaqoe" political issues: the way of governing the Emirate, the state's relations with the people, the law enforcement agencies of the two countries; economic issues: Central Asian agriculture and Russian industry; cultural: publishing newspapers and magazines, publishing houses, alleys, concert halls, magnificent buildings, decoration of cottages and houses, etc. Some of the stories and chapters are devoted to ethical and educational issues and have very interesting content. The author’s thoughts are very well expressed in story and fiction. The thinker expresses his purpose through artistic images. In this chapter, the author argues that traveling the world enriches a person spiritually. During his many travels, the scientist became acquainted with the education, science and culture of the cities. He compares the muddy streets and squares of Bukhara, the crooked roads, the cluttered and muddy buildings, especially the fact that the streets are dark and scary at night, with the situation in other developed countries. And he describes them all vividly in his work.

Ahmad Donish emphasizes that all legal and other matters relating to human life are in accordance with Islamic law, and examines matters very sensitively in this regard. In the chapter on child rearing, he said, “Parents are grateful for a just destiny, and they are kind to their children and seek their well-being. That is, the words and deeds of the parents should not contradict the Shari'ah. Then the children must do everything they say and command in order to get their consent. ”[5] The fact that such exhortations are based on Islamic law in the play is proof that Ahmad Donish mastered Islam perfectly.

“Navodir ul-vaqoe” also has epic themes. For example, in Chapter XVIII the story of the brave hunter Mullah Kholmuhammad Boysuni is told. His encounters with wild animals, such as lions, bears, etc., testify to the courage and bravery of Holmuhammad, who survived, sometimes by force, sometimes by deception. Ahmad Donish narrated the story of him even carrying his horse to a tree in a very rhythmic way.

Conclusions. In general, Ahmad Donish's “Navadir ul-vaqoe” covers many controversial topics in politics, socio-economics, science and culture, as well as history and literature, the clash of cultures and civilizations, and man and society.

Along with reading the work, a person who is well versed in science, education, culture, history, politics, poetry, literature, religion, national civilization and wisdom will appear in the reader’s eyes. That is, it turns out that the author of this book is a person who is fully aware of politics, economics, science and culture. At the same time, he is well acquainted with European politics, economics, science and culture. That is why Ahmad Donish compares Bukhara and its territory with Russia and thus with Western Europe.

In “Navadir ul-vaqoe”, Ahmad Donish also raises important philosophical and social issues that have been the subject of great debate in the past. Review them. The fourteenth

chapter (before the political pamphlet) is devoted to the most important issues - Islamic philosophy and the moral norms of Islam. These sections analyze issues of human society, human well-being, protection of social justice and its ways.

In general, although the chapters of “Navadir ul-vaqoe” are devoted to various topics, it is important that they focus on the sole purpose of the author - that is, how to organize a person's social life and personality.

In his book “Navadir ul-vaqoe”, Ahmad Donish condemns such vices as jealousy and greed. The play states: "Failure to see one's achievements leads to a decrease in love and affection between people, the world's fabrics are equally distributed – to violate and try to break this norm leads to greed, and greed leads to unhappiness." [5]

The idea that friendship is not measured by wealth and that such friendships do not last long, that they break up quickly, is elaborated in the play, and Donish speaks of the fact that no one loves a greedy man and that such a man can never be respected. Ahmad Donish says, "Respect for the individual is an important pillar of human culture, regardless of religion or nationality." [5]

Not only Ahmad Donish, but also other historians have expressed negative opinions about Amir Muzaffar. The scholar expresses his attitude to the current system in the age of "Navodir ulvakoe" and proposes a reform of public administration in the Emirate of Bukhara. Ahmad Donish describes the amirs from Amir Daniel to Abdullah (except Shah Murad) as unruly rulers who cared not only for the welfare of the state and its citizens, but only for their own interests [6: 8].

Based on the analysis of Ahmad Donish's “Navadir ul-vaqoe”, we can draw the following conclusions:

1. In our classical literature, the subject of morality has become a tradition for all scholars and historians in the XVIII-XIX centuries. Each of them advocated the issue of morality from their own point of view. “Navodir ul-vaqoe” was also one of the sources on morality.

2. Ahmad Donish condemned the deliberate encroachment on someone’s rights and property. He described the greedy, the wicked, and the lowly as the worst virtues.

3. Ahmad Donish calls on humanity to preserve nature and prevent harm to all beings. Moreover, he believes that we should not only be harming, but we should not be neutral in torturing anyone or anything and try to save them.

4. Ahmad Donish, in writing his work "Navodir ul-vaqoe", covered not only the direction of instruction, but also historical events in the form of travelogues.

5. "Navodir ul-vaqoe" is a work of educational value, enriched with poetry, which describes the life of the emirs and their rule and the state, and the events that took place during their time.

References/Adabiyotlar/Литература:

1. Donish A. Navodir ul-vaqoe / from Persian-Tajik A.Hamroeva and A.Translation by Shokirov. T .: Fan, 1964 - B.14.
2. Abdullaev V., Inomov M., Abdurahmonov Sh. Ideas and modernity in Navodir ulWaqoe. Ahmad Donish is a great thinker and progressive of the 19th century. Buxoro, 2007.-B.70.
3. Muiniy R. About the life of Ahmad Donish. Buxoro, 2004. - B.8.
4. The turn of Sayyid Abdulfattura and his friend Abulqasim biy to enter the Russian embassy.

5. Ahmad Donish. Navodir ul-vaqoe. Manuscript at the Institute of Oriental Studies of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan. XIX century.
6. Muminov AZ, The conditions that influenced the formation of Ahmad Donish as a historian-scientist. Conference on "Scientific and practical research in Uzbekistan." Tashkent, November 2020, part 3, page 8.
7. Abdullaev A., Kholmirzaev X. Navodir ul-vaqoe in the Uzbek language. Ahmad Donish is a great thinker and progressive of the 19th century. Buxoro, 2007

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 4 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 March 2026
Accepted: 01 April 2026
Published: 15 April 2026

Article / Original Paper

THE ASYMMETRIC NATURE OF SEPARATISM

Kabulov Jahongir Bakhodirovich
Independent researcher at Urgench State University

Abstract. This study examines the asymmetric nature of separatism from a political and philosophical perspective. It analyzes the factors contributing to the emergence of separatist movements, including their territorial, ethnic, and social foundations, as well as the imbalance in their relations with central authorities. Particular attention is given to contemporary forms of separatism, its impact on global and regional security, and the political and social processes arising within asymmetric conflict environments.

Keywords: separatism, asymmetry, political processes, ethnic factors, territorial conflicts, sovereignty, national unity, security, social instability, global trends.

SEPARATIZMNING ASIMMETRIK XUSUSIYATI

Kabulov Jahongir Bakhodirovich
Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur ishda separatizmning asimmetrik xususiyati siyosiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Unda separatistik harakatlarning paydo bo‘lish omillari, ularning hududiy, etnik va ijtimoiy asoslari hamda markaziy hokimiyat bilan o‘zaro munosabatlaridagi nomutanosiblik jihatlari yoritiladi. Shuningdek, separatizmning zamonaviy ko‘rinishlari, uning global va mintaqaviy xavfsizlikka ta’siri, shuningdek, asimmetrik qarama-qarshiliklar sharoitida yuzaga keladigan siyosiy va ijtimoiy jarayonlar tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Separatizm, asimmetriya, siyosiy jarayonlar, etnik omillar, hududiy nizolar, suverenitet, milliy birlik, xavfsizlik, ijtimoiy beqarorlik, global tendensiyalar.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N27

Kirish. So‘nggi yillarda davlatlararo munosabatlar amaliyoti sezilarli o‘zgarishlarga uchraganligi sababli, separatizm yuqori millatdan yuqori (aniqrog‘i, davlatdan yuqori) darajadagi, ya’ni geosiyosiy va sivilizatsion xususiyatlar va belgilarga ega bo‘lmoqda. Shuning uchun separatizmning tashqi tomoni uning eng muhim xususiyatidir. Bu ko‘p jihatdan shu bilan belgilanadiki, hozirgi vaqtda dunyoning navbatdagi qayta bo‘linishi va yangi dunyo tartibining shakllanishi sharoitida turli siyosiy hamjamiyatlar o‘rtasidagi, shu jumladan davlat tomonidan tashkil etilgan jamiyat doirasidagi chegaralash geosiyosiy sinish mezonlari bo‘yicha amalga oshirilmoqda.

Bularning barchasi separatizmga qarshi kurash muammosi davlatning ham ichki, ham tashqi siyosati bilan bog‘liq ekanligidan dalolat beradi. Bu esa, o‘z navbatida, separatizmning ichki va tashqi jihatlarini ajratib ko‘rsatish zaruratini belgilaydi. Bunda separatizmning tashqi tomoni (yoki tashqi mazmuni) ushbu jarayonlarga bevosita yoki bilvosita jalb qilingan boshqa davlatlar bilan o‘zaro munosabatlarni amalga oshirish, shuningdek separatizmni boshlash yoki unga qarshilik ko‘rsatish jarayonida boshqa davlatlarga ko‘maklashish yoki qarshilik ko‘rsatish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan muammolar doirasini o‘z ichiga oladi.

Bunday tashqi ta’sir o‘tkazish texnologiyasi hozirgi zamon siyosiy amaliyotida yetarli darajada ishlab chiqilgan. Shunday qilib, NATOning Sharqqa kengayishi faktini nafaqat alyansning ehtimoliy tajovuzidan himoya qilish, balki bir qator Sharqiy Yevropa mamlakatlarining AQSh homiyligidagi yagona Yevropaning harbiy-siyosiy tuzilmasiga integratsiyalashuvi omili sifatida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Metodologik jihat mazmuniy jihat bilan bir qatorda tadqiqotning ish maqsadlariga muvofiq ko‘rib chiqilishi kerakligini anglaydi. Shu bilan birga, muallif separatizmni o‘rganishni uning milliy xavfsizlikni ta’minlash muammolari bilan o‘zaro bog‘liqligiga bo‘ysundirgan holda, mazkur holatda tadqiqot metodologiyasi quyidagi muammolarni aniqlashni nazarda tutadi deb hisoblaydi: birinchidan, separatizmni mafkuraviy, siyosiy va amaliy xususiyatlarga ega bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy hodisa sifatida ko‘rib chiqish; ikkinchidan, jahon hamjamiyati rivojlanishining hozirgi bosqichi kontekstida separatizmning tabiati, ko‘rinishlari va oqibatlarini tahlil qilish; uchinchidan, separatizm muammosini zamonaviy nizolar manbai, birinchi navbatda etnosiyosiy xususiyatga ega bo‘lgan siyosatshunoslik nuqtai nazaridan ko‘rib chiqishga e’tibor qaratgan. separatizmning rivojlanishini idrok etish va tahlil qilishga bag‘ishlangan asarlar mualliflari qatorida xorijiy tadqiqotchilardan G.Kisindjer, 3.Bjezinskiy, Andrea-Pin I. Vallerstayn, Sh.Garnett, Dj.Gudbi, Andrea Pin, R.Simeon, D.Elkins, G.Bertrand, T.Andryszewski kabilarni ko‘rsatish mumkin.

Natija va muhokama. Separatizmning eng muhim o‘ziga xosligi shundaki, u turli xil siyosiy va ijtimoiy tuzilmalarga obyektiv va qonuniy ravishda xosdir. Bu turli manfaatlar va ehtiyojlarning mavjudligi, shu asosda shakllanadigan qarama-qarshiliklar bilan bog‘liq.

Bu borada separatizmning quyidagi xususiyatlarini ta’kidlash o‘rinlidir:

birinchidan, u yoki bu davlatchilik tarixiy rivojlanishining muayyan bosqichlarida uning genezisi va evolyutsiyasining o‘ziga xosligi;

ikkinchidan, ma’lum bir davlatning turli etno-konfessional guruhlarining muayyan tarixiy aloqasi shartlari va xususiyati;

uchinchidan, siyosiy maqsadlarni amalga oshirish jarayonida turli ijtimoiy guruhlarning o‘zaro aloqalari va o‘zaro ta’sirining xarakteri [1].

Separatizm ma’lum bir ijtimoiy vaqtda namoyon bo‘ladi, ma’lum bir mavjudlik davomiyligiga va o‘z holatlari (fazalari) o‘zgarishining qonuniy ketma-ketligiga ega. Bu holat separatizmni xronologik nuqtai nazardan, vaqt o‘lchovida ko‘rib chiqish zarurligini taqozo etadi. Siyosiy hodisalar harakatining vaqtinchalik shakllariga (yopiq doira bo‘ylab, spiral bo‘ylab yoki mayatnik tamoyili bo‘yicha) yondashuvlar turlicha bo‘lishiga qaramay, olimlar harakat ritmikasi siklik xarakterga ega degan fikrga kelishadi. Faqat XX asr davomida ikki marta separatizmning halokatli jarayonlarini boshdan kechirgan Rossiyaning siyosiy rivojlanish tarixi bundan yaqqol dalolat beradi.

Separatizmning muhim xususiyati uning *asimmetrikligi* bo‘lib, u siyosiy o‘yin ishtirokchilari o‘rtasida erishilgan kuchlar muvozanatining vaqtinchalik xususiyatini emas, balki uni doimiy ravishda saqlab turishning iloji yo‘qligini, binobarin, jamiyatning turli ijtimoiy guruhlari o‘rtasida ulardan birining ajralib chiqishi jarayonida yuzaga keladigan munosabatlarning o‘zgaruvchanligini va davlatning rasmiy tuzilmalarining bu jarayonga to‘sqinlik qilishini ifodalaydi[2].

Separatizm evolyutsiyasida obyektiv ravishda boshqa ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlar ham mavjud bo‘lib, davlatning milliy xavfsizligini ta’minlash manfaatlarida separatizmga qarshi

kurashishning asosiy yo‘nalishlarini ishlab chiqishda ular hisobga olinishi kerak. Xususan, ular quyidagilardir:

1. tarixiy-madaniy xarakterdagi ziddiyatlar;
2. huquqiy hududiy chegaralanishning ziddiyatlari;
3. ijtimoiy-iqtisodiy va etnodemografik ziddiyatlar;
4. ichki xavfsizlikni ta’minlash sohasidagi ziddiyatlar;
5. psixologik mazmundagi qarama-qarshiliklar[3].

Yuqorida sanab o‘tilgan ziddiyatlar separatizmning o‘ziga xos xususiyatlarini, shuningdek, uning muayyan davlat tuzilishida namoyon bo‘lishining obyektiv qonuniyatlarini belgilaydi. Tarixida separatizm evolyutsiyasiga nisbatan so‘z eritganda, bu ziddiyatlar separatizm jarayonlarining kuchayishida va keyinchalik siyosiy makonning ma’lum bir qismining alohidalanishida alohida rol o‘ynadi[4].

Masalan, tarixiy-madaniy xarakterdagi qarama-qarshiliklar mamlakat aholisining bir qator etnik guruhlari vakillari orasida “tarixiy xafagarchiliklar” deb ataladigan majmuaning shakllanishiga asos bo‘ldi. Turli davrlarda aksariyat etnik guruhlar u yoki bu tarzda, shu jumladan zo‘ravonlik yo‘li bilan Rossiya tarkibiga kiritilgan. Bu esa, millatchilik tuzilmalari vakillarining fikricha, mazkur etnoslar tarixida salbiy rol o‘ynagan[5].

Huquqiy hududiy chegaralanishdagi qarama-qarshiliklar hozirgi kungacha mojarolik manbai bo‘lib kelmoqda. Ushbu qarama-qarshiliklar o‘z tabiati va yo‘nalishi bo‘yicha separatistik bo‘lmasa-da, ular tomonidan shakllangan etnosiyosiy keskinlik Qoraqalpog‘iston respublikasida o‘zbek davlatchiligi asoslariga sezilarli darajada destruktiv ta’sir ko‘rsatadi. Ichki xavfsizlikni ta’minlash sohasidagi ziddiyatlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida faoliyat yuritish jarayonida yaqqol namoyon bo‘ldi. Umuman olganda, bu ziddiyatlar 2024 yilda O‘zbekistonda umumiy ichki siyosiy keskinlikning kuchayishida hal qiluvchi rol o‘ynadi, uning hududida dezintegratsiya, shu jumladan separatistik jarayonlarni rag‘batlantirib bordi.

Dialektika bilan bir qatorda separatizmga qarshi kurash muammosini tadqiq etishda yana bir konseptual yondashuv — sinergetika ham juda muhimdir[6]. Sinergetik yondashuvni qo‘llash dialektikaning roli va ahamiyatini kamsitmaydi. Buning sababi shundaki, jamiyat taraqqiyotining, shu jumladan inqirozning sabablari nafaqat dialektik rivojlanish qonunlarining ta’siri — qarama-qarshiliklar birligi va kurashi, ziddiyat, inkorni inkor etish, miqdorning sifatga o‘tishi, balki siyosiy tizimning notekisligi, beqarorligi, evolyutsiyasi va koevolyutsiyasi;

jarayonning rivojlanish shakllari — nafaqat bosqichma-bosqichlikning uzilishi, sakrashlar, pastdan yuqoriga qarab spiral bo‘ylab rivojlanish, balki oddiy og‘ishlarning to‘planishi, jarayonlarning nochiziqliligi va ko‘chkisimonligi, tizimning o‘z-o‘zini tashkil etishi bo‘lishi mumkin[7]. Bunday holatning xususiyatlari ham determinantlik, ham ehtimoliy tasodifiylik, jarayonga ta’sir qiluvchi omillar esa ham obyektiv va qonuniy tendensiyalar, ham mikrodarajadagi kichik ta’sirlar hisoblanadi.

Bundan kelib chiqadiki, tasodif ijtimoiy va siyosiy evolyutsiyaning mustaqil omili sanalib, uning o‘z-o‘zini tashkillashtirish jarayonlaridagi roli nihoyatda yuqoridir. Shuning uchun ham tasodifni yondosh, ikkinchi darajali emas, balki siyosiy tizimning barqaror, xarakterli xususiyati, mavjudligi va rivojlanishining sharti sifatida tahlil qilish zarur ko‘rinadi[8]. Bu degani, separatizm va umuman uning asosida rivojlanayotgan barcha siyosiy

jarayonlarni tahlil qilishda dialektika usulidan ham, sinergetika usulidan ham foydalanish kerak.

Xulosa. Separatizm siyosiy amaliyotning boshqa har qanday hodisasiga qaraganda o‘z rivojlanishida dinamikdir, chunki uning asosida amalga oshiriladigan jarayonlarning xarakteri va mazmuni ko‘p jihatdan muayyan vaziyatga bog‘liq[9]. Metodologik jihatdan bu vaziyatli yondashuv tamoyilidan foydalanishni nazarda tutadi. Shu asosda separatizmning vujudga kelishi va rivojlanishini oldindan belgilab beruvchi shart-sharoitlar va omillar hamda shunga muvofiq davlat hokimiyati idoralarining unga qarshi kurashish borasidagi faoliyati yo‘nalishlari o‘z vaqtida va aniq shakllantirilishi mumkin.

Umuman olganda, dialektikani sinergetik yondashuv bilan birgalikda qo‘llash separatizm va unga qarshi kurash muammolariga ularni insonlar faoliyatining natijasi sifatida bilish nuqtai nazaridan qarash imkonini beradi. Boshqacha aytganda, birinchi navbatdagi vazifa — separatizmning tizimli hodisa sifatida rivojlanishining sabab-oqibat tuzilishini va uni takror ishlab chiqarish mexanizmlarini bilish yuzaga keladi [9].

Separatizmga qarshi kurash muammosini ijtimoiy-falsafiy anglash darajasida asosiy tadqiqot usullaridan biri — substansional yondashuv ham amalga oshiriladi[10]. Substansional yondashuvning eng muhim vazifasi tizimning ichki tashkil etilishining yagona manbai va asosini belgilash, substansional sifat ichida mavjud bo‘lgan barcha ta’lim shakllarini qat’iy ilmiy tasniflashdir[11]. Ijtimoiy hayot kishilarning birgalikdagi faoliyati jarayonidan iborat ekan, demak, jamiyatda mavjud bo‘lgan barcha narsalar inson faoliyatining u yoki bu ko‘rinishidir. Bu separatizmning manbai va asosi suveren davlatni barpo etish maqsadida ijtimoiy guruhlarning ularni yagona davlat doirasida shakllangan umumiylikdan ajratish bo‘yicha faoliyati ekanligini ta’kidlash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda separatizm belgilari u yoki bu ijtimoiy guruhning tarixan belgilangan siyosiy manfaatlari va murakkab uyushgan davlat hamjamiyatining da’volariga mos keladigan o‘ziga xos tipik va xarakterli xususiyatlarini o‘zida aks ettiradi.

Adabiyotlar/Литературы/References:

1. Kissinger G. World Order – NY.: Penguin Press, 2014- P. 432.;
2. Бжезинский З. Великая шахматная доска. Пер. с англ. О.Ю. Уральского. М.: Международные отношения, 1998. – С.254.;
3. Бауэр О. Национальный вопрос и социал-демократия. Спб., 1909. –С.245.
4. Andrea Pin. Sécularisations en Amérique et en Europe: circonstances, influences et récits (фр.) // Politique américaine. - 2014. - N1(23). - P. 55-72.;
5. Сафарова Н.О. Терроризмга қарши курашнинг тарихий-фалсафий таҳлили. Фал. фан. докт... Диссерт. -Тошкент, 2010. -Б.230.
6. Haken. H. Synergetik. Springer-Verlag Berlin Heidelberg.– New York, 1982.–P.210.
7. Гудби, Дж. Неразделенная Европа: новая логика мира в американо-российских отношениях. – М.: Междунар. отношения, 2000. – С.336.;
8. Simeon R., Elkins D. 1974. Regional Political Cultures in Canada. -Canadian Journal of Political Science.- № 3. P. 397-437.;
9. Jurakulovich, S. J. (2022). Attitude to human dignity in the period of amir temur and temurids dynasty. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(5), 43-47.
10. Беджанов М.Б. На пути национального возрождения. Майкоп, 1992. - 157 с.
11. Bertrand G. 1996. Enough is Enough. An Attorney's Struggle for Democracy in Quebec. Toronto. P. 24.;

12. Момджян К.Х. Введение в социальную философию. - М.: Высшая школа, 1997. -С. 177-178.
13. Andryszewski T. The militia movement in America: before and after Oklahoma Cityю. - Brookfield: The Millbrook press, 1997. -P. 125.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 4 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 March 2026
Accepted: 01 April 2026
Published: 15 April 2026

Article / Original Paper

SYNTHESIS OF NATIONAL AND UNIVERSAL VALUES IN INTERCULTURAL DIALOGUE

Eshkuvvatov Jaloliddin
Researcher of the National University of Uzbekistan
E-mail: j.eshquvvatov@gmail.com

Abstract. The article examines the problem of the synthesis of national and universal values in the context of intercultural dialogue as a key factor in the sustainable development of modern society. Special attention is paid to the philosophical and moral understanding of the values that form the basis of the interaction of representatives of different cultures. The role of the youth environment as a space for active cultural exchange, as well as the influence of globalization and digital processes on the transformation of value orientations, are analyzed. The study substantiates the need to harmonize universal principles that form the basis of national self-awareness and tolerance, mutual respect and dialogue of cultures.

Keywords: intercultural dialogue, values, national identity, globalization, tolerance, youth, morality.

MADANIYATLARARO MULOQOTDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR SINTEZI

Eshquvvatov Jaloliddin
O‘zbekiston Milliy universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada madaniyatlararo muloqot sharoitida milliy va umuminsoniy qadriyatlar sintezi muammosi zamonaviy jamiyat barqaror rivojlanishining asosiy omili sifatida ko‘rib chiqiladi. Turli madaniyat vakillarining o‘zaro aloqalari asosini tashkil etuvchi qadriyatlarni falsafiy-axloqiy anglashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Yoshlar muhitining faol madaniy almashinuv makoni sifatidagi roli, shuningdek, globallashuv va raqamli jarayonlarning qadriyat yo‘nalishlari transformatsiyasiga ta’siri tahlil qilingan. Tadqiqotda milliy o‘zlikni anglash va bag‘rikenglik, o‘zaro hurmat va madaniyatlar muloqoti asosini tashkil etuvchi umuminsoniy tamoyillarni uyg‘unlashtirish zarurati asoslangan.

Kalit so‘zlar: madaniyatlararo muloqot, qadriyatlar, milliy o‘ziga xoslik, globallashuv, bag‘rikenglik, yoshlar, axloq.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N28

Kirish. Zamonaviy sivilizatsiya globallashuv, raqamlashtirish va transmilliy kommunikatsiya aloqalarining kengayishi tufayli jadal madaniyatlararo o‘zaro ta’sir sharoitida rivojlanmoqda. Bu kontekstda madaniyatlararo muloqot faqat axborot almashish sohasi emas, balki yangi ma’nolar, o‘ziga xosliklar va qadriyatlar tizimlarini shakllantirish makoniga aylanadi.

Biroq, bu jarayon sezilarli falsafiy va axloqiy keskinlik bilan birga keladi: bir tomondan, ***universal (umuminsoniy) qadriyatlar***ning ta’siri kuchayadi, boshqa tomondan, ***milliy madaniy identiklik***ni saqlashga intilish kuchayadi. Aynan shu nuqtada sintez muammosi

paydo bo‘ladi - mexanik bog‘lanish emas, balki qadriyatlar tizimlarining chuqur ma’noli o‘zaro ta’siri.

Yangi O‘zbekiston sharoitida bu masala ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etadi. Modernizatsiya va global makonga integratsiyalashuvga yo‘naltirilgan jamiyat bir vaqtning o‘zida o‘zining tarixiy-madaniy an’analari, ma’naviy asoslari va milliy o‘ziga xosligini saqlab qolishga intiladi. Bu esa milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish mexanizmlarini falsafiy tahlil qilishni taqozo etadi.

Destruktivlikning asosiy jihatlari nazar tashlasak unda ommaviy manipulyatsiyaning destruktiv xususiyati bir necha darajada namoyon bo‘ladi, masalan shaxs darajasida inson o‘z fikrlarini, qadriyatlarini, xotirasini boshqalarning manfaatlari yo‘lida “qayta yozish”ga duch keladi. Psixologik jihatdan bu o‘ziga bo‘lgan ishonchning yo‘qolishi, ichki ziddiyatlar, depressiya va ijtimoiy passivlikka olib keladi. Shaxs o‘z hayotining subyekti bo‘lishdan to‘xtab, manipulyator irodasining obyektiga aylanadi.

Xulosa. Ommaviy darajadagi manipulyatsiya – bu nafaqat axborot sohasidagi texnologik muammo, balki jamiyat taraqqiyoti, milliy xavfsizlik va insoniyat kelajagi bilan bog‘liq chuqur falsafiy, ijtimoiy va axloqiy masaladir. Uning destruktiv xususiyati shundaki, u inson irodasini va ongini asta-sekin, yashirin ravishda egallab, odamni o‘z hayotining subyekti bo‘lishdan mahrum qiladi. Tarixiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, ommaviy manipulyatsiyaning eng halokatli ko‘rinishlari urushlar, totalitar rejimlar va insoniyatga qarshi jinoyatlar bilan tugagan. Bugungi raqamli davrda esa bu xavf yanada murakkablashgan va tez tarqaladigan shaklga ega bo‘ldi.

Yechim – jamiyatning har bir a’zosida tanqidiy fikrlash madaniyatini shakllantirish, mustaqil axborot manbalarini qo‘llab-quvvatlash, davlat va fuqarolik jamiyatining birgalikdagi sa’y-harakatlari orqali axborot muhitini sog‘lomlashtirishdir. Faqat shundagina biz ommaviy manipulyatsiyaning destruktiv ta’sirini nafaqat bartaraf etish, balki uning oldini olish imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Har bir inson o‘z fikrini erkin va mustaqil shakllantirish huquqiga ega – bu huquqni himoya qilish esa ommaviy manipulyatsiyaga qarshi kurashning asosiy maqsadidir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Хабермас Ю. Теория коммуникативного действия. – СПб.: Наука, 2022. – 880 с.
2. Лебедев-Любимов А.Н. Психология рекламы. - СПб.: Питер, 2004. - С. 7
3. Фуко М. Воля к истине: по ту сторону знания, власти и сексуальности. – М.: Касталь, 1996. – 448 с.
4. Платон. Государство // Собрание сочинений в 4 т. Т. 3. – М.: Мысль, 1994. – С. 79–420.
5. Кант И. Ответ на вопрос: что такое Просвещение? // Сочинения в 6 т. Т. 6. – М.: Мысль, 1966. – С. 25–37.

6. Хоркхаймер М., Адорно Т. Диалектика Просвещения. – М.: Медиум, 1997. – 310 с.
7. Zuboff S. The Age of Surveillance Capitalism. – New York: PublicAffairs, 2019. – 704 p.
8. Nigora Safarova, Nigina Shamsutdinova, The functional interrelatedness of education, upbringing, and culture: a systematic approach// The World Of Dede Korkut International Scientific Journal.- Azerbaijan, 2025 / Volume: 7 Issue:2/12-17 https://dqd.az/wp-content/uploads/2025/12/Dede-Qorqud-dunyasi.pdf

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 4 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 March 2026
Accepted: 01 April 2026
Published: 15 April 2026

Article / Original Paper

TRANSFORMATION OF SOCIAL RELATIONS IN THE INFORMATION SOCIETY

Yodgorov Alisher Nurmuhammadovich
Independent Researcher,
Institute of Social and Spiritual Research

Abstract. This article provides a philosophical analysis of the transformation of social relations in the context of the information society. The author examines the impact of digital reality on human consciousness, social hierarchy, and communication culture within the framework of the "network society" concept. The paper also explores the dialectical relationship between virtual and real interactions, as well as the issues of self-identification and personal identity.

Keywords: information society, network structure, digital ontology, social transformation, cyber philosophy, simulacrum, technological determinism, personal identification, consciousness, spiritual education, socialization.

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA IJTIMOIY MUNOSABATLARNING TRANSFORMATSIYASI

Yodgorov Alisher Nurmuhammadovich
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: a.yodgorov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada axborotlashgan jamiyat sharoitida ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishi falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Muallif raqamli reallikning inson ongi, ijtimoiy iyerarxiya va muloqot madaniyatiga ta'sirini "tarmoqli jamiyat" konsepsiyasi doirasida tadqiq etadi. Maqolada virtual va real munosabatlar o'rtasidagi dialektik aloqa, individning o'zligini anglash muammolari yoritilgan.

Kalit so'zlar: axborotlashgan jamiyat, tarmoqli struktura, raqamli ontologiya, ijtimoiy transformatsiya, kiber-falsafa, simulyakr, texnologik determinism, shaxs indentifikatsiyasi, ong, ma'naviy tarbiya, ijtimoiylashuv.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N31

Kirish. Zamonaviy davrda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyatning barcha sohalariga chuqur kirib borib, ijtimoiy munosabatlar tizimining tubdan o'zgarishiga olib kelmoqda. Axborotlashgan jamiyat shakllanishi natijasida insonlar o'rtasidagi muloqot, ijtimoiy aloqalar, boshqaruv tizimi va madaniy qadriyatlar yangi mazmun va shakl kasb etmoqda. Shu bois, ijtimoiy munosabatlarning transformatsiyasini ilmiy jihatdan tahlil qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Axborotlashgan jamiyat sharoitida ijtimoiy munosabatlar nafaqat an'anaviy shakllarda, balki raqamli makon orqali ham amalga oshirilmoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, sun'iy intellekt va raqamli platformalar insonlar o'rtasidagi kommunikatsiyani tezlashtirib, ularning o'zaro aloqalarini global darajaga olib chiqmoqda. Natijada vaqt va makon chegaralari qisqarib, yangi ijtimoiy identiklik shakllari, virtual hamjamiyatlar va kommunikativ madaniyat yuzaga kelmoqda.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, axborotlashgan jamiyat sharoitida ijtimoiy munosabatlarning transformatsiyasini chuqur o‘rganish jamiyat rivojlanishining asosiy tendensiyalarini aniqlash, inson omilining o‘rnini baholash hamda samarali ijtimoiy siyosatni shakllantirish uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Falsafiy nuqtai nazardan qaralganda, ushbu transformatsiya inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning qayta talqin qilinishini anglatadi. Axborot oqimlarining ortishi, bilimning tez yangilanishi va raqamli muhitning kengayishi insonning ijtimoiy faolligi, dunyoqarashi va qadriyatlar tizimiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu jarayonda ijtimoiy munosabatlarning yangi shakllari bilan bir qatorda muayyan muammolar – axborot xavfsizligi, raqamli tengsizlik, ijtimoiy izolyatsiya va manipulyatsiya kabi masalalar ham yuzaga kelmoqda.

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichi ijtimoiy borliqning tubdan virtualizatsiyalashuvi bilan xarakterlanadi. Axborot endilikda nafaqat iqtisodiy resurs, balki ijtimoiy munosabatlarni shakllantiruvchi fundamental substansiya sifatida namoyon bo‘lmoqda. Manuel Kastels ta’biri bilan aytganda, biz “oqimlar makoni” va “tizimli vaqt” hukmronlik qiladigan yangi ijtimoiy tuzilmaga qadam qo‘ydik [1]. Darhaqiqat, bugungi kunda inson faqatgina texnologiya iste’molchisi emas, balki raqamli ekotizimning organik bo‘lagiga aylanib ulgurdi. Agar ilgari ijtimoiy munosabatlar bevosita jismoniy makonda kechgan bo‘lsa, hozirda bu jarayonlar giperreallik va simulyatsiyalar maydoniga ko‘chdi. E. Yusupov ta’kidlaganidek, “ijtimoiy munosabatlarning texnologiyalashuvi insoniylik mezonlariga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda” [2]. Mazkur jarayonda inson texnologiyadan foydalanuvchi emas, balki raqamli ekotizimning ajralmas komponentiga aylanmoqda. Bu esa ontologik jihatdan yangi borliq shakli — raqamli ontologiyani yuzaga keltiradi. Raqamli ontologiya sharoitida insonning mavjudligi ikki qatlamda — real va virtual borliqda kechadi. Bu ikki qatlam o‘zaro dialektik bog‘liq bo‘lib, biri ikkinchisini to‘ldiradi. Ammo bu jarayon inson ongida murakkab ziddiyatlarni ham yuzaga kelishi bilan xarakterlanib, inson o‘zligini anglash, identivlikni saqlash va ma’naviy barqarorlikni ta’minlash muammolari dolzarb tus oladi. A. Erkaev “Zamonaviy jamiyatda axborot va bilimning roli ortib borishi inson tafakkurining yangilanishiga olib keladi” [3] deb ta’kidlaydi. Bu esa ma’naviy tarbiya tizimini qayta ko‘rib chiqishni talab etadi.

Bu transformatsiya natijasida ijtimoiy borliqning “atomar” tuzilishi “tarmoqli” tuzilishga o‘rin bo‘shatib bermoqda. Endilikda shaxsning ijtimoiy maqomi uning jismoniy joylashuvi bilan emas, balki global axborot oqimlaridagi ishtiroki va raqamli faolligi bilan o‘lchanmoqda. Zero, virtualizatsiya insoniyatning borliq haqidagi an’anaviy tasavvurlarini qayta formatlovchi ontologik inqilobdir. Chunki, virtual borliq nafaqat texnik makon, balki insonning axloqiy qiyofasi va ma’naviy immuniteti sinovdan o‘tadigan yangi ijtimoiy reallikka aylandi. Bu jarayonda an’anaviy tarbiya usullari o‘rnini “raqamli etika” va axborot madaniyati egallamoqda. Ayniqsa, yoshlar ongida virtual va real dunyo chegaralarining xiralashuvi ularning qadriyatlar tizimiga bevosita ta’sir o‘tkazmoqda.

Axborot oqimlari orqali kirib kelayotgan yot g‘oyalar va simulyativ ma’naviyat (yuzaki qadriyatlar) shaxsning ichki “men”ini parchalab yubormasligi lozim. Shu bois, hozirgi bosqichda tarbiya — faqatgina bilim berish emas, cheksiz axborot okeanida ma’naviy filtr va milliy o‘zlikni saqlab qolish qobiliyatini shakllantirish demakdir.

Natijalar va muhokama. Virtual makonda axloqiy mas'uliyatni his etish — bu bugungi kunning eng oliy ma'naviy zarurati hisoblanadi.

Birinchidan, ijtimoiy munosabatlarning tarmoqlashuvi natijasida an'anaviy vertikal (iyerarxik) munosabatlar o'rnini gorizontal tarmoqli aloqalar egallamoqda. Garchi bu jarayon jamiyatda demokratlashuv illyuziyasini yaratsa-da, tahlillar shuni ko'rsatadiki, u aslida M. Fuko ta'riflagan "panopticon" [4]ning yangi — "raqamli panopticon"[5] shaklini yuzaga keltirmoqda. Bu tizimda nazorat ochiq majburlash orqali emas, balki shaxsning har bir raqamli izini algoritmik kuzatish orqali amalga oshiriladi. Panoptikonda odamlar kuzatilishdan qo'rqqan bo'lsa, raqamli panoptikonda ular ma'lumotlarini (selfilar, lokatsiyalar) ixtiyoriy ravishda topshirmoqda.

Bu jarayon quyidagi muammolarni keltirib chiqaradi:

- shaxsiy hayot daxlsizligining yo'qolishi;
- ijtimoiy tarmoqlarda sun'iy obraz yaratish;
- tashqi bahoga qaramlik.

N. Jo'rayevning fikricha, "axborot texnologiyalarining rivoji inson faoliyatini kengaytirish bilan birga, unda yangi turdagi bog'liqlik va qaramlik shakllarini ham yuzaga keltirmoqda" [6].

Ikkinchidan, virtualizatsiya jarayoni chuqur identivlik inqirozini keltirib chiqarmoqda. Virtual makon inson ijtimoiy qiyofasining fragmentatsiyalashuviga, ya'ni yaxlitlikning yo'qolishiga olib keladi. J.Bodriyar kontseptsiyasiga tayansak [7], ijtimoiy munosabatlar tobora "simulyakr" xarakterini kasb etmoqda. Bu esa insonlar o'rtasidagi real muloqotning emotsional chuqurligini shunchaki texnologik interaktivlik (layklar, qisqa xabarlar) bilan almashtirib, ma'naviy-axloqiy aloqalarni yuzakilashtiradi. Bu tushuncha orqali zamonaviy madaniyatning sun'iylashuvi izohlanadi.

Natijada inson o'zining haqiqiy "meni"ni yo'qotadi, virtual obraz real shaxsdan ustun bo'ladi, muloqot yuzakilashtiriladi. S. Shermuhamedov inson o'zligini saqlab qolishi uchun mustahkam ma'naviy asos va ichki tayanchga ega bo'lishi zarur [8] deb ta'kidlaydi.

Uchinchidan, jamiyatda raqamli kognitivizm hukmronligi o'rnatilmoqda. Endilikda ijtimoiy munosabatlar insoniy iroda bilan emas, balki algoritmik tartibga solinishi oqibatida yangi turdagi stratifikatsiya — "axborotga ega bo'lganlar" va "axborotdan uzilganlar" tabaqalanishi yuzaga kelmoqda. Bu esa ijtimoiy adolat va ma'naviy tenglik tamoyillariga yangicha tahdid soladi.

U. To'raevning fikricha, axborot tengsizligi zamonaviy jamiyatning eng dolzarb muammolaridan biridir [9]. Bunday sharoitda ma'naviy tarbiya tizimi an'anaviy yondashuvlardan chiqib, shaxsni murakkab raqamli muhitda mustaqil va ongli faoliyat yuritishga tayyorlashga qaratilishi zarur. Chunki axborot oqimlarining keskin ortishi, sun'iy intellekt va algoritmik boshqaruv tizimlarining kengayishi inson ongiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois ma'naviy tarbiya quyidagi ustuvor yo'nalishlar asosida rivojlantirilishi lozim.

Birinchidan, mustaqil fikrlashni rivojlantirish ma'naviy tarbiyaning asosiy mezoniga aylanishi kerak. Zamonaviy axborot makonida shaxs turli qarama-qarshi g'oyalar, manipulyativ kontent va ideologik ta'sirlar bilan to'qnash keladi. Bunday vaziyatda inson tayyor bilimlarni qabul qiluvchi emas, balki ularni tanqidiy tahlil qiluvchi subyekt sifatida shakllanishi zarur. Mustaqil fikrlash shaxsning ichki erkinligini ta'minlab, uni tashqi axborot bosimidan himoya

qiladi. Shu ma’noda, tanqidiy tafakkur — bu shaxsning axborotni saralash, tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatidir. A. Erkaev ham bu borada shunday ta’kidlaydi: “erkin fikrlovchi shaxsni tarbiyalash demokratik jamiyatning eng muhim shartidir” [3]. Demak, mustaqil fikrlash nafaqat intellektual, balki ma’naviy mustaqillikni ham ta’minlaydi.

Ikkinchidan, algoritmik manipulyatsiyalarga qarshi immunitet hosil qilish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalar foydalanuvchi xatti-harakatlarini tahlil qilib, ularga mos kontentni taqdim etadi. Bu esa insonning qaror qabul qilish jarayoniga sezilmas tarzda ta’sir ko‘rsatadi. Natijada shaxs o‘zini erkin deb hisoblagan holda, aslida algoritmlar tomonidan boshqarilayotgan bo‘lishi mumkin. Shu jihatdan, “raqamli davrda hokimiyat ochiq majburlash orqali emas, balki ongni boshqarish orqali amalga oshiriladi” [5]. Bu fikr algoritmik nazoratning yashirin, ammo kuchli ta’sirini ifodalaydi. N.Jo‘rayev ham bu muammoni alohida qayd etib, “axborot texnologiyalari inson tafakkuriga ta’sir etish orqali uni bilvosita boshqarish vositasiga aylanmoqda” [6], deya ta’kidlaydi. Shunday ekan, ma’naviy tarbiya jarayonida shaxsda axborotga nisbatan hushyorlik, tanqidiy munosabat va ichki nazorat mexanizmlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchidan, axborot iste’moli madaniyatini shakllantirish zamonaviy tarbiyaning ajralmas qismidir. Axborotning haddan tashqari ko‘pligi sharoitida uning sifati, ishonchliligi va ma’naviy ta’sirini baholay olish muhim ko‘nikmaga aylanmoqda. Axborot iste’moli madaniyati — bu nafaqat kerakli ma’lumotni tanlash, balki zararli, yolg‘on yoki manipulyativ axborotlardan o‘zini himoya qila olish qobiliyatidir. Shu nuqtai nazardan, axborot madaniyati insonning umumiy madaniyatining ajralmas qismi bo‘lib, uning ma’naviy yetukligini belgilaydi. E. Yusupov axborot bilan ishlash madaniyati shakllanmagan jamiyatda ma’naviy inqiroz xavfi kuchayadi deb ta’kidlaydi [2]. Demak, axborot iste’moli madaniyati shaxsning nafaqat bilim darajasini, balki uning axloqiy pozitsiyasini ham belgilaydi.

Umuman olganda, zamonaviy ma’naviy tarbiya tizimi insonni passiv axborot iste’molchisi emas, balki ongli va mas’uliyatli subyekt sifatida shakllantirishga xizmat qilishi lozim. Bu esa mustaqil fikrlash, algoritmik ta’sirlarga qarshi immunitet va axborot madaniyatining uyg‘un rivoji orqali amalga oshiriladi. Faqat shundagina shaxs raqamli jamiyat sharoitida o‘zligini saqlab qolgan holda faol va barqaror hayot kechira oladi.

Xulosa. Axborotlashgan jamiyatda ijtimoiy munosabatlarning transformatsiyasini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar va axborot oqimlarining keskin ortishi insonlar o‘rtasidagi aloqalarning mazmuni va shaklini tubdan o‘zgartirmoqda. An’anaviy ijtimoiy munosabatlar o‘rnini tobora ko‘proq virtual muloqot, raqamli hamkorlik va global kommunikatsiya egallab bormoqda. Natijada ijtimoiy makon kengayib, vaqt va hudud chegaralari nisbatan yo‘qolib, yangi ijtimoiy identiklik va kommunikativ madaniyat shakllanmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, axborotlashgan jamiyat ijtimoiy munosabatlarning yanada tezkor, ochiq va ko‘p qatlamli bo‘lishiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, bu jarayon insonning ijtimoiy faolligi, bilimga bo‘lgan ehtiyoji va axborotni qabul qilish uslublarini ham o‘zgartirmoqda. Biroq ushbu transformatsiya faqat ijobiy natijalar bilan cheklanmay, balki raqamli tengsizlik, axborot xavfsizligi, ijtimoiy izolyatsiya va manipulyatsiya kabi muammolarni ham yuzaga keltirmoqda.

Falsafiy nuqtai nazardan, ijtimoiy munosabatlarning bunday o‘zgarishi inson va jamiyat o‘rtasidagi dialektik aloqalarning yangi bosqichga o‘tganini anglatadi. Ya’ni texnologik

taraqqiyot va inson omili o‘zaro ta’sirda bo‘lib, bir-birini rivojlantiruvchi va ba’zan qarama-qarshi yo‘nalishlarda harakat qiluvchi omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Xulosa qilib aytganda, axborotlashgan jamiyatda ijtimoiy munosabatlar texnologik determinizm ta’sirida o‘zining inson markazli (antropotsentrik) xususiyatini yo‘qotib bormoqda. Falsafiy jihatdan bu jarayon insonning o‘zligidan begonalashuvini kuchaytiradi. Shu bois, kelajakdagi barqarorlik ijtimoiy munosabatlarni raqamli texnologiyalar asoratidan qutqarib, ularga yana “jonli eksistensial” mazmun berishga, ya’ni texnologiyani emas, balki inson qadrini birlamchi o‘ringa qaytarishga bog‘liqdir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Castells M. The Rise of the Network Society. 2 nd Edition. — Oxford: Wiley-Blackwell, 2010. - P. 500-509.
2. Yusupov E. Ijtimoiy falsafa. - Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2012. – B. 112-bet.
3. Erkayev A. Ma’naviyat falsafasi. - Toshkent: Ma’naviyat, 2008. - B. 23, 47
4. Foucault M. Discipline and Punish: The Birth of the Prison. - New York: Vintage Books, 1995. - P. 195-228.
5. Han Byung-Chul. The Psychopolitics: Neoliberalism and New Technologies of Power. - London: Verso, 2017. - P. 35-52.
6. Jo‘rayev N. Globallashuv va axborotlashgan jamiyat muammolari. -Toshkent: “Fan”, 2013. B. 98
7. Baudrillard J. Simulacra and Simulation. Translated by Sheila Faria Glaser. - Ann Arbor: University of Michigan Press, 1994. - P. 1- 42.
8. Shermuhamedov S. Inson falsafasi. -Toshkent: “Fan”, 2010. - 64-bet.
9. To‘rayev U. *Globalizatsiya va axborotlashgan jamiyat*. - Toshkent: “Fan”, 2015. – B. 76.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 4 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI - PHILOLOGICAL SCIENCES

Received: 16 March 2026
Accepted: 01 April 2026
Published: 15 April 2026

Article / Original Paper

THE HYBRID NATURE OF INTERNATIONAL LAW TERMINOLOGY IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES: SOURCES OF FORMATION, STRUCTURAL-SEMANTIC FEATURES AND FUNCTIONAL ANALYSIS

Isanova Feruza Tulqinovna
Teacher of Tashkent State Agrarian University
Uzbek State University of World Languages
Independent researcher

Abstract. This article analyzes the hybrid nature of international legal terminology in Uzbek and English from linguistic and functional perspectives. The study examines the sources of terminology formation, including the national lexical base, historical layers, and international borrowings. It also explores structural-semantic features and the main mechanisms of term formation such as affixation, analytical constructions, and calquing.
The paper highlights the nominative, cognitive, and communicative functions of lexical units and their role in legal discourse. A comparative analysis reveals that Uzbek tends to use analytical and multi-component structures, while English favors more compact forms. The study also addresses issues of interlingual equivalence and terminological variation in translation.
The findings suggest that Uzbek international legal terminology is a multi-source hybrid system, and its further development requires balancing national linguistic resources with international standards.

Keywords: international legal terminology, hybrid terminology, lexical units, structural-semantic analysis, functional analysis, affixation, calquing, borrowing, interlingual equivalence, translation, analytical model, agglutinative language, inflectional language

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA XALQARO HUQUQ TERMINOLOGIYASINING GIBRID TABIATI: SHAKLLANISH MANBALARI, STRUKTUR-SEMANTIK XUSUSIYATLARI VA FUNKSIONAL TAHLILI

Isanova Feruza Tulqinovna
Toshkent davlat agrar universiteti o‘qituvchisi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek va ingliz tillarida xalqaro huquq terminologiyasining gibrid tabiati tahlil qilinadi. Tadqiqotda terminlarning shakllanish manbalari — milliy leksik fond, tarixiy qatlamlar va internatsional o‘zlashmalar asosida yoritiladi. Shuningdek, ularning struktur-semantik xususiyatlari hamda morfologik, analitik va kalkalash usullari orqali hosil bo‘lishi ko‘rib chiqiladi.
Maqolada leksik birliklarning nominativ, kognitiv va kommunikativ funksiyalari ochib berilib, huquqiy diskursdagi o‘rni asoslanadi. Qiyosiy tahlil natijasida o‘zbek tilida analitik modellarning ustuvorligi, ingliz tilida esa kompakt shakllarning ustunligi aniqlanadi. Tadqiqot yakunida terminologiyani standartlashtirish va interlingval ekvivalentlikni ta’minlash zarurligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: xalqaro huquq terminologiyasi, gibrid terminologiya, leksik birlik, struktur-semantik tahlil, funksional tahlil, affiksatsiya, kalkalash, o‘zlashtirish, interlingval ekvivalentlik, tarjima, analitik model, agglutinativ til, flektiv til.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N32

Kirish. Hozirgi global siyosiy, iqtisodiy va huquqiy munosabatlar sharoitida til xalqaro huquqning asosiy vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro shartnomalar, konvensiyalar, deklaratsiyalar, rezolyutsiyalar va sud qarorlari — barchasi til vositasi orqali amalga oshiriladi. Shunday ekan, o‘zbek tilida xalqaro huquq sohasiga oid leksik birliklarning tuzilmaviy va semantik xususiyatlarini o‘rganish nafaqat tilshunoslik uchun, balki huquqiy, tarjimaviy va davlatlararo muloqot nuqtai nazaridan ham dolzarb vazifadir.

Milliy terminologiyada huquqiy soha ko‘p manbali: qadimgi turkiy hujjat lisoni, arab-fors merosi, rus tili orqali kirgan atamalar hamda bevosita inglizcha xalqaro terminlar qatlami mavjud. Shu jihatdan o‘zbek xalqaro huquq leksikasi milliy-internatsional gibrid tizim sifatida shakllanmoqda.

Zero, xalqaro huquq terminologiyasi milliy tilning ichki imkoniyatlari, internatsional ta’sir va funksional moslashuv natijasida shakllangan gibrid tizim hisoblanadi [1]. O‘zbek tilida bu sohadagi terminlar to‘rt asosiy manba orqali shakllangan: ichki leksik fond, tarixiy-arabiy qatlam, rus tili orqali o‘zlashmalar va ingliz tili ta’siridan kelib chiqqan xalqaro atamalar [2].

Adabiyotlar tahlili. Xalqaro huquq terminologiyasi va uning lingvistik xususiyatlari masalasi turli olimlar tomonidan keng o‘rganilgan. O‘zbek tilshunosligida terminologiya muammolari, xususan, uning milliy va internatsional qatlamlari o‘zaro munosabati Dadaboyev, Axmedov, Musayev kabi olimlar tadqiqotlarida yoritilgan. Dadaboyev o‘zbek terminologiyasining asosiy belgisi sifatida uning gibrid tabiatini ta’kidlab, milliy va o‘zlashma unsurlar uyg‘unligini tabiiy jarayon sifatida baholaydi [4]. Axmedov esa terminlarning tizimliligi va normativlashuvi masalasiga e’tibor qaratib, terminologiyada izchillikni ta’minlash zarurligini qayd etadi.

Musayev til tipologiyasi nuqtai nazaridan o‘zbek va ingliz tillarini qiyoslab, agglutinativ va flektiv tillar o‘rtasidagi farqlar terminlarning struktur shakllanishiga bevosita ta’sir qilishini asoslaydi. Uning fikricha, o‘zbek tilida analitik va ko‘p komponentli birliklar ustun bo‘lsa, ingliz tilida kompakt modellarga moyillik kuzatiladi.

Xalqaro miqyosda huquqiy terminologiya va tarjima muammolari Prieto Ramos tomonidan chuqur tahlil qilingan. U huquqiy terminlarni faqat lug‘aviy birlik sifatida emas, balki intersistem va interlingval ekvivalentlik doirasida o‘rganish zarurligini ta’kidlaydi. Bu yondashuv ayniqsa ko‘p tilli huquqiy tizimlarda terminlarning mosligini ta’minlashda muhimdir.

Leksik birliklarning umumiy nazariyasi doirasida V.V. Morkovkin ularning ko‘p funksiyali tabiatini asoslab, nominativ vazifa bilan bir qatorda kognitiv, kommunikativ va estetik funksiyalarni ham ajratib ko‘rsatadi [12]. Bu qarash huquqiy tilni tahlil qilishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarda xalqaro huquq leksikasining shakllanishida kalkalash, o‘zlashtirish va gibrid modellarning o‘rni alohida ta’kidlanadi. Biroq mavjud ishlarda o‘zbek va ingliz tillarini aynan struktur-semantik va funksional jihatdan kompleks qiyosiy tahlil qilish yetarli darajada amalga oshirilmagan.

Shu bois mazkur tadqiqot mavjud ilmiy yondashuvlarni umumlashtirgan holda, o‘zbek va ingliz tillaridagi xalqaro huquq leksikasining shakllanishi, tuzilishi va funksional xususiyatlarini qiyosiy aspektda o‘rganishga qaratiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning tarixiy, tizimli-tuzilmaviy, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy va sotsiologik yondashuvlari keng qo‘llanildi. Shu bilan birga, ilmiy manbalarni kompleks o‘rganish, statistik ma’lumotlarni tahlil qilish hamda huquqni qo‘llash amaliyotini chuqur tahlil etish asosiy metodlar sifatida xizmat qildi.

Shuningdek, terminologik tahlil, lingvistik-semantik yondashuv, diskurs tahlili hamda qiyosiy-lingvistik metodlar ham qo‘llanildi. Ushbu metodologiyalar xalqaro huquq leksikasining shakllanishi, uning milliy va internatsional unsurlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorligini yanada chuqurroq ochib berishga imkon yaratdi.

Asosiy qism. O‘zbek tilining huquqiy terminologiyasi uzoq tarixga ega bo‘lib, uning ildizlari qadimgi turkiy yozma yodgorliklar, xususan *“Qutadg‘u bilig”* va *“Devonu lug‘otit turk”* kabi manbalariga borib taqaladi [3]. Bu yodgorliklarda davlat boshqaruvi, adliya, taqsimot va qonun-qoidaga oid terminlar uchraydi. Shu sababli, huquqiy nominatsiya milliy til uchun mutlaqo yangi hodisa emas.

Dadaboyev ta’kidlaganidek, o‘zbek terminologiyasi qisman milliy, qisman o‘zlashma xarakterga ega bo‘lib, uning asosiy belgisi — milliylashgan-internatsionallashgan gibrid tabiatdadir [4]. Masalan, “inson huquqlari”, “xalqaro javobgarlik”, “ratifikatsiya”, “imunitsipalitet”, “ekstraditsiya” kabi birliklar milliy va xalqaro manbalar ta’sirida shakllangan.

Huquqiy terminlar lug‘aviy ma’noga emas, funksional kontekstga ega bo‘ladi. Masalan, *immunitet* so‘zi tibbiy nutqda boshqa ma’noga ega bo‘lsa, diplomatik yoki xalqaro huquqda uning “vakolatxona tegishli shaxslarining daxlsizlik huquqi” mazmuni ustun turadi [5].

O‘zbek terminologiyasida quyidagi umumiy xususiyatlar kuzatiladi:

1. Sohaviy xoslanganlik — terminlar muayyan sohada maxsus ma’noga ega bo‘ladi;
2. Tarixiy qatlamlanish — qadimgi turkiy, arabiy va zamonaviy qatlamlar birgalikda yashaydi;
3. Gibrid tarkibiylik — milliy affiksatsiya internatsional ildizlar bilan uyg‘unlashadi;
4. Analitik modellar ustuvorligi — “xalqaro jinoyat sudi”, “tinch yo‘l bilan hal qilish” kabi termin-birikmalar ko‘p uchraydi [6];
5. Polisemiya va variantdorlik — ayrim terminlar turli huquq tarmoqlarida farqli ma’no kasb etadi (masalan, *aktiv*, *tomon*, *subyekt*);
6. Ko‘p tilli muhit ta’siri — xalqaro huquq leksikasi ko‘p tilli munosabatlar tizimida moslashishi sababli tarjimadagi aniqlik muhim ahamiyatga ega [7].

Umuman olganda o‘zbek huquqiy terminologiyasi haqiqatan ham sof milliy tizim emas, balki turli manbalar ta’sirida shakllangan murakkab qatlamli hodisadir. Ayniqsa, “gibrid tabiat” haqidagi qarash juda o‘rinli: bugungi kunda huquq sohasida ishlatilayotgan ko‘plab terminlar xalqaro maydondan kirib kelgan bo‘lsa-da, ular o‘zbek tilining ichki qonuniyatlariga moslashib, milliylashgan shaklga ega bo‘lib bormoqda.

Shu bilan birga, terminlarning funksional kontekstga bog‘liqligi haqidagi fikr ham muhim. Bir so‘zning turli sohalarda turlicha ma’no anglatishi (masalan, “immunitet”) tilshunoslik va huquq amaliyotida aniqlik masalasini keskinlashtiradi. Bu esa terminologiyada standartlashtirish va izchillikni ta’minlash zarurligini ko‘rsatadi.

Keltirilgan xususiyatlar ichida ayniqsa analitik modellar ustuvorligi va ko‘p tilli muhit ta’siri bugungi globalizatsiya sharoitida yanada dolzarbdir. Biroq bu jarayonda haddan tashqari o‘zlashmalar ko‘payib ketishi milliy termin yaratish imkoniyatlarini cheklab qo‘yishi mumkin.

Shuning uchun muvozanat zarur: xalqaro terminlarni qabul qilish bilan birga, ularni imkon qadar o‘zbek tilining ichki resurslari asosida qayta ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

O‘zbek tilida xalqaro huquq leksikasi turli til manbalari, lingvistik vositalar va terminogenetik mexanizmlar asosida rivojlangan. Asosiy usullar quyidagicha:

1. Morfologik yasalish (affiksatsiya) O‘zbek tili agglyutinativ xususiyatga ega bo‘lgani sababli, -lik, -dor, -gar, -chi, -v kabi qo‘shimchalar termin yaratishda faol ishtirok etadi: *Javobgarlik*, *daxlsizlik*, *tergovchi*, *saylov*, *ayblov* kabi so‘zlar shu usul bilan hosil qilingan [8].

2. Sintaktik-analitik usul Yuridik tushunchalar ko‘pincha birikma orqali ifoda etiladi: *inson huquqlari*, *xalqaro shartnoma huquqi*, *davlatlar javobgarligi instituti*. Bu usul tushunchani izoh bilan aniqlashtirish imkonini beradi [9].

3. Kalkalash va semantik ixtisoslashuv Termingning shakli manba tildagi modelga yaqin bo‘lsa-da, mazmuni milliy kontekstga moslashtiriladi. Masalan, *due diligence → puxta tekshiruv*, *territorial integrity → hududiy yaxlitlik* tarzda beriladi [10].

4. O‘zlashtirish va gibrid modellar *Konvensiya, yurisdiksiya, deklaratsiya, rezolyutsiya* kabi lug‘at birliklari o‘zlashma terminlar bo‘lib, ular ko‘pincha milliy aniqlovchilar bilan qo‘llaniladi: *xalqaro deklaratsiya*, *huquqiy rezolyutsiya*. Bu holatni Dadaboyev va Axmedov ham til rivojining tabiiy yo‘nalishi sifatida baholaydi.

5. Abbreviatsiya va qisqartma Xalqaro huquqda *BMT (UN)*, *YEXHT (OSCE)*, *YAIH (EAEU)* kabi qisqartmalar muomalada standartlashgan bo‘lib, matnda tezkor qo‘llash imkoniyatini yaratadi [11].

Yuqorida qayd etilgan olimlarning tasnifi umumiy jihatdan aniq va tizimli berilgan, ayniqsa, xalqaro huquq leksikasining shakllanish mexanizmlarini bosqichma-bosqich ko‘rsatib bergani bilan qiymatli. Shunga qaramay, ayrim jihatlarni chuqurlashtirish yoki muvozanatliroq baholash foydali bo‘ladi.

Birinchidan, morfologik yasalish haqiqatan ham o‘zbek tilining eng kuchli tomonlaridan biri. Lekin amaliyotda yangi huquqiy terminlar yaratishda bu imkoniyat har doim ham to‘liq ishga solinmayapti. Ko‘pincha tayyor internatsional birlikni olish osonroq yo‘l sifatida tanlanadi. Natijada “javobgarlik” kabi mukammal milliy modellarga ega bo‘lsak-da, “yurisdiksiya” kabi so‘zlar o‘rniga muqobil variantlar kam ishlab chiqiladi.

Ikkinchidan, sintaktik-analitik usulning ustuvorligi to‘g‘ri qayd etilgan, lekin bu holat ba’zan ortiqcha cho‘zilmali terminlarga olib keladi. Masalan, “davlatlar javobgarligi instituti” kabi birikmalar ilmiy aniqlik bersa-da, nutqda og‘irlik tug‘diradi. Demak, aniqlik va ixchamlik o‘rtasida muvozanat topish muhim masala bo‘lib qolmoqda.

Uchinchidan, kalkalash masalasida ehtiyotkorlik zarur. “Hududiy yaxlitlik” kabi muvaffaqiyatli misollar bor, lekin ba’zi kalkalar sun’iy yoki tushunarsiz chiqishi mumkin. Har bir tarjima modeli tilning ichki mantiqiga mos kelishi kerak, aks holda u faqat rasmiy matn doirasida qolib ketadi.

To‘rtinchidan, o‘zlashtirish va gibrid modellarni “tabiiy jarayon” deb baholash to‘g‘ri, lekin bu jarayonni mutlaqo erkin qo‘yib yuborish ham to‘g‘ri emas. Agar nazorat bo‘lmasa, terminologiya haddan tashqari internatsionallashib, milliylik darajasi pasayib ketishi mumkin.

Oxirgi jihat — qisqartmalar. Ular haqiqatan ham qulay, lekin ko‘p hollarda faqat mutaxassislar uchun tushunarli bo‘lib qoladi. Keng auditoriya uchun esa birinchi qo‘llanishda to‘liq shakl bilan berish har doim maqsadga muvofiq.

Yuqorida keltirilgan usullar o‘zbek xalqaro huquq terminologiyasining real rivoj yo‘lini aks ettiradi. Ammo endi asosiy vazifa — bu jarayonni shunchaki tasvirlash emas, balki uni ongli ravishda boshqarish: milliy imkoniyatlarni kengaytirish, ortiqcha o‘zlashmalarni cheklash va terminlarning aniqligi bilan qulayligini bir vaqtda ta’minlashdir.

Mazkur nuqtai nazardan qaralganda, terminologik tizimni ongli ravishda rivojlantirish jarayoni faqat shakliy yoki struktur o‘zgarishlar bilan cheklanib qolmaydi. Har bir yangi yoki o‘zlashtirilgan termin til tizimida ma’no, tushuncha va idrok darajasida ham o‘z o‘rnini topishi zarur. Shu bois termin yaratish va tanlash jarayonida nafaqat aniqlik va ixchamlik, balki uning semantik yuklamasi, qabul qilinishi va qo‘llanish muhitidagi funksional samaradorligi ham hisobga olinishi lozim.

Aynan shu jihatlar leksik birliklarning ko‘p funksiyali tabiatini yuzaga chiqaradi.

Leksik birliklar nafaqat nomlash (denologik) vazifani, balki kognitiv, emotsional va stilistik vazifalarni ham bajaradi [12]. V.V. Morkovkin fikricha, **leksik birliklar** ma’no tashuvchi belgilar tizimi bo‘lib, ularning funksiyalari nominativ, kognitiv, kommunikativ va estetik qobiliyatlar bilan cheklanmaydi.

Xalqaro huquq sohasidagi leksik birliklarning funksional jihatdan farqlanishi quyidagicha:

1) Nominativ funksiya: tushunchalarni aniq nomlash (*suverenitet*, *ratifikatsiya*, *ekstraditsiya*, *qonunchilik*).
2) Kognitiv funksiya: fanlararo bilimni umumlashtirishga xizmat qiladi (*inson huquqlari* tushunchasi huquq va etikaning qo‘shilishi).
3) Deyktik va belgilash funksiyasi: manba va subyektni ko‘rsatish (“ushbu davlat”, “hujjat mazmunida”);
4) Estetik funksiya: huquqiy diskursda uslubiy neytrallik bilan ajralib turadi (masalan, qonun tilida emotsional holat ifodalanmaydi);
5) Metalingvistik funksiya: terminlarning o‘zini izohlash (*Huquq — davlat tomonidan kafolatlangan majburiyatlar tizimi* kabi lug‘at tarzidagi ta’riflar).

Funksional tahlil shuni ko‘rsatadiki, tilning huquqiy qatlami doimo nominativ vazifadan tashqari kognitiv va tarjima vazifasini ham bajaradi. Prieto Ramos ta’kidlaganidek, huquqiy terminlar faqat lug‘aviy emas, intersistem va interlingval ekvivalentlik nuqtai nazaridan ham tahlil qilinishi kerak.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilida xalqaro huquq leksikasi nisbatan ixcham va morfologik jihatdan bir yoki ikki komponentli modellarga tayanadi (*international treaty, legal responsibility*), o‘zbek tilida esa analitik va izohlovchi modellar ustun (*xalqaro shartnoma huquqi*, *davlatlarning xalqaro javobgarligi*).

Musayevning fikricha, bu farq til tipologiyasi bilan bog‘liq: flektiv (ingliz) tillarda ifoda kompakt, agglyutinativ (o‘zbek) tillarda aniqlovchi-aniqlanmish munosabati orqali kengaytiriladi.

O‘zbek va ingliz tillaridagi o‘zaro tipologik taqqoslov shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilida xalqaro huquq atamalari kompakt shaklda (due diligence, international law, treaty body) ifodalanadi. O‘zbek tilida esa ularning funksional ekvivalentlari ko‘p komponentli va sharhlovchi ko‘rinishga ega (xalqaro shartnomalar huquqi, xalqaro javobgarlik instituti). Bu farq tilning agglutinativ xususiyatlari va semantik aniqlikka intilishi bilan izohlanadi.

Interlingval munosabatlarda shuningdek tarjimadagi variantdorlik muammosi muhim ahamiyat kasb etadi. Bir tushunchaning bir necha mutlaq bo‘lmagan ekvivalentlari mavjud (masalan, *equity* — “adolat”, “tenglik”, “hurmat prinsipi”), bu holat huquqiy tarjimada maxsus markaziy bazalar — UNTERM, IATE orqali bir xillashtiriladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek va ingliz tillarida xalqaro huquq leksikasi turli tarixiy, lingvistik va ijtimoiy omillar ta’sirida shakllangan murakkab tizimdir. O‘zbek tilida bu qatlam milliy, tarixiy va internatsional unsurlar uyg‘unligida namoyon bo‘lib, gibrid xarakter kasb etadi. Ingliz tilida esa terminlar ko‘proq ixcham, struktur jihatdan sodda va morfologik jihatdan kompakt shaklda ifodalanadi. Bu farqlar tillarning tipologik xususiyatlari bilan bevosita bog‘liq.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, o‘zbek xalqaro huquq terminologiyasi asosan affiksatsiya, analitik birikmalar, kalkalash, o‘zlashtirish va qisqartmalar kabi mexanizmlar orqali rivojlanadi. Shu bilan birga, terminlarning nafaqat nominativ, balki kognitiv, kommunikativ va metalingvistik funksiyalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa huquqiy tilni oddiy nomlash vositasidan ko‘ra kengroq — bilim uzatish va tizimlashtirish vositasi sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Qiyosiy tahlil natijalari interlingval ekvivalentlik masalasining dolzarbligini ham ko‘rsatdi. Tarjima jarayonida terminlarning variantdorligi va semantik noaniqligi muammolarini bartaraf etish uchun standartlashtirish va yagona terminologik bazalarga tayanish zarur.

Umuman olganda, o‘zbek xalqaro huquq terminologiyasining istiqboldagi rivoji uni ongli ravishda tartibga solish, milliy til imkoniyatlaridan samarali foydalanish va xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirishga bog‘liq. Shu yo‘l bilan terminlarning aniqligi, izchilligi va funksional samaradorligini ta’minlash mumkin bo‘ladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. – Toshkent, 2019.
2. Назарова Н. Структурно-семантический анализ терминов международного права в английском и таджикском языках. – Dushanbe, 2014.
3. Qoshg‘ariy M. Devonu lug‘otit turk. – Toshkent, 1960–1963.
4. Axmedov O.S. Ingliz va o‘zbek tillarida soliq-bojxona terminlarining lingvistik tahlili va tarjima muammolari. – Toshkent, 2016.
5. Glogar O. “The Concept of Legal Language: What Makes Legal Language Legal?” International Journal for the Semiotics of Law. – 2023.
6. Prieto Ramos F. “Translating Legal Terminology and Phraseology.” Perspectives, 2021.
7. Mowbray J. “Multilingualism, Translation and International Law.” Cambridge International Law Journal, 2023.
8. Stefaniak K. Terminology Management and Legal Translation. Amsterdam: John Benjamins, 2023.
9. Musayev A.I. Inglizcha-o‘zbekcha diplomatiya sohasiga oid terminlarning struktur-semantik tahlili. Andijon, 2023.
10. Clay E. “A Corpus-Based Approach to Examining Terminological Variation in EU Law.” International Journal of Language & Law, 2022.
11. O‘zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1981.
12. Isanova, F. (2026). O‘ZBEK TILIDA XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKLARNING TARIXIY KELIB CHIQISHI VA SHAKLLANISHI. Lingvoscience.Uz:

Lingvistika Va Madaniyatshunoslik Fanlarining Dolzarb Masalalari, 2(3), 13-18. https://doi.org/10.47390/LS2025V2I3Y2026N02

13. Isanova, Feruza (2025). INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKLARNING SINXRON TAHLILI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 5 (3). pp. 292-297. ISSN 2181-1342. https://ilmiykutubxona.com/id/eprint/466
14. Isanova, Feruza (2025). INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKLARNING DIAXRON TADQIQI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 5 (1s). pp. 173-180. ISSN 2181-1342. https://ilmiykutubxona.com/id/eprint/373
15. Isanova, Feruza (2023). O‘ZBEK TILI XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKLARINING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3 (7). pp. 151-160. ISSN 2181-1342. https://ilmiykutubxona.com/id/eprint/519
16. Isanova, Feruza (2022) ИНГЛИЗ ТИЛИДА ХАЛКАРО ХУКУК СОХАСИГА ОИД ТЕРМИНЛАР ТИЗИМИНИНГ УЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 6 (3). pp. 44-49. ISSN 2181-1342. http://ilmiykutubxona.com/id/eprint/520
17. Isanova, F. (2023). STRUCTURAL AND SEMANTIC ANALYSIS OF THE TERMS OF INTERNATIONAL LAW IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. Универсальная индексная библиотека Евразийского журнала социальных наук, философии и культуры, 3(1 Part 1), 76–80. https://lib.uniconflix.com/index.php/uilejsspc/article/view/8579
18. Isanova, F. (2024). INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING QIYOSIY TAHLILI. Zamonaviy Dunyoda Ijtimoiy Fanlar: Nazariy Va Amaliy Izlanishlar, 3(4), 32–34. https://lib.uniconflix.com/index.php/uilzdif/article/view/29994
19. Isanova, Feruza (2024). THE FORMATION OF LEXICAL UNITS RELATED TO THE FIELD OF LAW IN ENGLISH. JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS, 51 (3). pp. 43-46. ISSN 2181-368X. https://ilmiykutubxona.com/id/eprint/2046

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 4 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 March 2026
Accepted: 01 April 2026
Published: 15 April 2026

Article / Original Paper

LINGUOPOLITICAL DISCOURSE OF COUNTRY NAMES IN ABYA YALA (LATIN AMERICA): AN ETYMOLOGICAL AND GEOPOLITICAL ANALYSIS

Rakhmatov Laziz,
University of World Economy and Diplomacy,
Doctor of Philosophy in Political Sciences (PhD)

Bakhronova Dilrabo,
Professor, Uzbekistan State World Languages University,
Doctor of Philological Sciences (DSc)

Abstract. This article presents a comprehensive analysis of the etymological origins of country names in Abya Yala (commonly referred to in contemporary academic discourse as "Latin America") from linguistic and political perspectives. The term Abya Yala, derived from the language of the Guna people of present-day Panama, denotes "land in full maturity," "eternal land," or "a fertile land that sustains life," and is increasingly employed as a decolonial alternative to colonial naming conventions. Accordingly, this concept is interpreted not merely as a geographical designation but as an epistemological and linguopolitical category.

The relevance of the study lies in the understanding of toponyms as complex semiotic systems that embody historical memory, national-cultural identity, and the discourse of political power, rather than as purely nominative units. The article examines the names of countries such as Argentina, Peru, Chile, Nicaragua, Paraguay, Uruguay, Mexico, Panama, Guatemala, and Brazil, focusing on linguistic transformations, language contact phenomena, and colonial and postcolonial naming strategies.

The findings suggest that these toponyms are products of intricate interactions between indigenous and European languages, through which mechanisms of political domination, cultural hegemony, and the reconfiguration of identity are articulated. From this perspective, the concept of Abya Yala enables a reconsideration of toponymic studies within a decolonial paradigm, offering new insights into the relationship between language and power.

Keywords: toponymy, etymology, Abya Yala, linguopolitics, colonial discourse, national-cultural identity, Latin America.

ABYA YALA (LOTIN AMERIKASI) DAVLATLARI NOMLARINING LINGVOPOLITIK DISKURSI: ETIMOLOGIK VA GEOSIYOSIY TAHLIL

Rahmatov Laziz
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
siyosiy fanlari doktori (PhD)

Baxronova Dilrabo
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori
filologiya fanlari doktori (DSc)
https://orcid.org/0000-0002-2012-7426
E-mail: dbaxronova@uzswlu.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada Abya Yala (zamonaviy ilmiy diskursda "Lotin Amerikasi"ni nazarda tutuvchi termin) davlatlari nomlarining etimologik kelib chiqishi lingvistik va siyosiy nuqtai nazardan kompleks tahlil qilinadi. "Abya Yala" termini Panama hududida yashovchi guna xalqi tilidan olingan bo‘lib, "abadiy yashovchi yer" "serhosil, hayot manbai bo‘lgan hudud" ma'nolarini anglatadi va u kolonial nomlash an'analariga zid dekolonial

konsept sifatida qo‘llanilmoqda. Shu bois maqolada mazkur atama nafaqat geografik belgi, balki epistemologik va lingvopolitik kategoriya sifatida talqin etiladi.
Tadqiqotning dolzarbligi toponimlarning oddiy nominativ birlik emas, balki tarixiy xotira, milliy-madaniy o‘zlik hamda siyosiy hokimiyat diskursini ifodalovchi ko‘p qatlamli semiotik tizim ekanligi bilan izohlanadi. Maqolada Argentina, Peru, Chili, Nikaragua, Paragvay, Urugvay, Meksika, Panama, Gvatemala va Braziliya kabi davlatlar nomlari misolida lingvistik transformatsiya, tillararo aloqalar hamda kolonial va postkolonial nomlash strategiyalari tahlil qilinadi.
Tahlillar natijasida aniqlanishicha, ushbu toponimlar mahalliy (hindu) tillar va Yevropa tillari o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sir mahsuli bo‘lib, ular orqali siyosiy hukmronlik, madaniy ustunlik va milliy o‘zlikni qayta talqin qilish mexanizmlari ifodalangan. Shu nuqtai nazardan, Abya Yala konsepti toponimik tadqiqotlarni dekolonial paradigma asosida qayta ko‘rib chiqish, til va hokimiyat o‘rtasidagi munosabatlarni yangicha talqin etish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: toponimiya, etimologiya, Abya Yala, lingvopolitika, kolonial diskurs, milliy-madaniy o‘zlik.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N33

Kirish. *Abya Yala konsepsiyasi.* Hozirgi vaqtda global ilmiy diskursda “Lotin Amerikasi” terminiga muqobil sifatida “Abya Yala” termini qo‘llanila boshlandi. Ushbu atama Panama va Kolumbiya hududida yashovchi guna xalqi tilidan olingan bo‘lib, “abadiy yashovchi yer” “serhosil, hayot manbai bo‘lgan hudud” “yetilgan yer” yoki “abadiy yashash hududi” kabi ma’nolarni anglatadi. Ushbu toponim nafaqat geografik nom, balki mustamlakachilar tomonidan nomlash an’analariga qarshi qo‘yilgan dekolonial epistemologik konsept sifatida talqin etilmoqda hamda Abya Yala siyosatchilar tomonidan makon, milliy o‘zlik va hokimiyat o‘rtasidagi munosabatlarni qayta ko‘rib chiqishga xizmat qiladigan konsept-termin sifatida baholanmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tizimidagi tuzilmalar, xususan, ECLAC (Iqtisodiy va ijtimoiy komissiya) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham tub xalqlar masalalarini yoritishda “Abya Yala” termini faol qo‘llanilmoqda. Jumladan, “Los Pueblos Indígenas en América (Abya Yala): Desafíos para la Igualdad en la Diversidad” nomli hisobotda ushbu hudud tub xalqlarining huquqlari, ijtimoiy tenglik va madaniy xilma-xillik masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, 2030-yilgacha bo‘lgan Barqaror rivojlanish kun tartibiga tub xalqlarni integratsiya qilishga qaratilgan yangi mintaqaviy tadqiqotlar ham ishlab chiqilmoqda va mazkur termin qo‘llanilgan. Bu esa “Abya Yala” tushunchasining nafaqat geografik, balki siyosiy, ijtimoiy va epistemologik kategoriya sifatida tobora muhim ahamiyat kasb etayotganini ko‘rsatadi [1, 1-b.; 6 – 7-b.].

Shuningdek, dekolonial nazariya bilan shug‘ullangan A.Kixano [2], V.Mignolo [3], J.Madronyero [4], Yu.Espinoso-Minyoro, M.Lugones [5] kabi qator tadqiqotchilar bu terminni nazariy asoslab, turli nuqtai nazardan ilmiy ommaga taqdim etmoqdalar. Xususan, V.Mignolo (2005) “The Idea of Latin America” asarida “Lotin Amerikasi” tushunchasini Yevropa markaziy epistemologiyasining mahsuli sifatida baholab, uni “kolonial bilim tizimi”ning bir qismi deb ko‘rsatadi. Uning fikricha, “Abya Yala” atamasini qo‘llash, bu “bilimning mustamlakachilikdan xalos bo‘lish” (decoloniality of knowledge) jarayonining muhim bosqichi bo‘lib, u tarixiy-madaniy makonni mahalliy nuqtai nazardan qayta nomlash va talqin etish imkonini beradi [3, 57–60-b.]. A.Kixano (2000) tomonidan ilgari surilgan “hokimiyatning mustamlaka tabiati” (coloniality of power) konsepsiyasi ham mazkur yondashuvni chuqurlashtiradi. Unga ko‘ra, kolonial ya’ni mustamlakachilik tizimi faqat siyosiy va iqtisodiy hukmronlik bilan cheklanmay, balki bilim, til va milliy o‘zlikni ham nazorat qilish orqali davom etadi. Aynan shu kontekstda “Lotin Amerikasi” kabi atamalar Yevropa diskursining mahsuli sifatida shakllangan bo‘lsa, “Abya Yala” esa mahalliy xalqlarning tarixiy subyektivligini tiklashga qaratilgan muqobil

semantik va siyosiy konstruksiya hisoblanadi [2, 533–538 b.]. Fikrimizcha, bu keyingi davrlarda turkiy davlatlar birligini Turkiy xalqlar ittifoqi yoki Markaziy Osiyo atamasini Turkiston deb atash kabi jarayonga oʻxshab, yangi mintaqaviy kuchlar nisbatini yaratishga intilishdan darak beradi. Turkiston atamasi – etnik oʻzlik va mintaqaviy birlik ifodasi deb topilganidek, “Abya Yala” termini ham toponimik va lingvopolitik tadqiqotlarda nafaqat terminologik yangilik, balki metodologik burilish sifatida namoyon boʻlmoqda. U orqali makonning qayta nomlanishida yashirin boʻlgan hokimiyat munosabatlari, kolonial diskurs va milliy oʻzlik konstruksiyalari chuqurroq tahlil qilinadi. Mazkur maqolada ham aynan shu yondashuv asosida Abya Yala termini qoʻllanildi va ushbu hududdagi davlatlar nomlarining etimologik va lingvopolitik xususiyatlari tahlil qilinadi.

Toponimlar geografik obyekt nomlari hisoblanib, zamonaviy tilshunoslikda faqat nominativ birlik sifatida emas, balki tarixiy xotira, milliy-madaniy oʻzlik (identitet) va siyosiy hokimiyat munosabatlarini mujassam etuvchi murakkab belgilar tizimi sifatida talqin qilinadi. Toponimik birliklar orqali jamiyatlarning oʻz-oʻzini anglash modeli, tarixiy tajribasi hamda makon bilan bogʻliq konseptual tasavvurlari ifodalanadi [6, 7].

Toponimika termini (yun. topos – joy va onyma – ism, nom) – onomastikaning joy nomlari (geografik atoqli nomlar)ni, ularning paydo boʻlishi yoki yaratilish qonuniyatlarini, rivojlanish va oʻzgarishini, tarixiy-etimologik manbalari va grammatik xususiyatlarini, ularning tuzilishini, tarqalish hududlari hamda atalish sabablarini oʻrganuvchi boʻlimi hisoblanadi. Muayyan bir hududdagi joy nomlari yigʻindisi – *toponimiya*, alohida olingan joy nomi esa *toponim* deb ataladi [8]. Ma’lumki, joy nomlari hududning oʻtmishdagi tabiiy sharoiti, relyefi, oʻsimlik va hayvonot olami, qazilma boyliklari kabilar haqida ham qimmatli ma’lumotlar beradi. (…) Toponimning ma’nosini bilib olish orqali muayyan hudud haqida koʻplab ma’lumotlarga ega boʻlish mumkin [9]. Shu ma’noda, toponimlar til va ijtimoiy haqiqat oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlikni aks ettiruvchi lingvokognitiv va lingvopragmatik hodisa sifatida alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, Abya Yala hududi toponimik tadqiqotlar uchun noyob ilmiy makon hisoblanadi. Mazkur mintaqa tarixan kolonial ekspansiya, madaniy assimilyatsiya va til kontaktlari kesishgan hudud boʻlib, unda nomlash jarayonlari koʻp qatlamli va koʻp vektorli xarakterga ega. XVI–XIX asrlarda ispan va portugal mustamlakachiligi natijasida mahalliy sivilizatsiyalar (aztek, ink, maya va boshqalar)ning tillari –nahuatl, kechua, guarani va boshqa hindu tillari– Yevropa tillari bilan intensiv aloqaga kirishdi. Natijada, til kontaktining murakkab shakllari, jumladan, fonetik moslashuv, semantik transformatsiya va gibrid toponimlar shakllanishi kuzatildi [10, 214–220-b, 11, 63–68-b.]. Masalan, ispan tiliga *nahuatl* tilidan kirib kelgan *chocolate* (nahuatl: xocolātl), *tomate* (tomatl), *aguacate* (ahuacatl) kabi leksik birliklar fonetik jihatdan moslashgan holda yangi til tizimiga integratsiyalashgan. Shu bilan birga, ayrim soʻzlarda semantik kengayish yoki torayish hodisasini ham kuzatish mumkin: masalan, cacahuate (yer yongʻogʻi) nahuatl tilidan olingan boʻlsa-da, turli ispan tilli hududlarda uning ishlatilishi va ma’nosi farqlanadi (Meksikada faol, boshqa hududlarda esa shu ma’noni bildiriuvchi maní soʻzi koʻp ishlatiladi). Yoki kechua tilidan kirib kelgan *puma, cóndor, llama, quinua* kabi leksik birliklar nafaqat zoologik, botanik terminlar sifatida, balki milliy-madaniy oʻzlik markerlari sifatida ham ispan tilida mustahkam oʻrin egallagan [12]. Shuningdek, guarani tilidan olingan *jaguar, tapir, maraca* kabi leksemalar ham global leksikonga oʻzlashdi, xalqaro terminlarga aylangan. Oʻzbek tiliga ham ispanlar Amerika qabilalari tilidan olib kelgan talay

so‘zlar “tashrif buyurdi”. Masalan, *kakao, shokolad, kanoe, tomat, kondor, iguana, koyot, puma, yaguar* va hokazo. Jumladan, shokolad “xococ” (achchiq) va “atl” (suv) so‘zlaridan kelib chiqqan. Qadimda atsteklar bu ikkisini qo‘shib maxsus tetiklashtiruvchi shifobaxsh achchiq ichimlik tayyorlashgan [13, 14].

Mazkur jarayon faqat lingvistik hodisa bo‘lib qolmay, balki kuchlar muvozanati va siyosiy diskurs bilan ham bevosita bog‘liqdir. Kolonial davrda nomlash amaliyoti ko‘pincha hududni egallash va uni ramziy jihatdan “o‘zlashtirish” vositasi sifatida xizmat qilgan [3]. Shu bois, ko‘plab toponimlar mahalliy xalqlarning o‘zini anglash tizimidan farqli ravishda, tashqi ya’ni kolonizatorlar tomonidan berilgan nomlar (exonym) sifatida shakllangan. Bu esa, toponimiyani *lingvopolitik* fenomen sifatida o‘rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

Bundan tashqari, zamonaviy ilmiy yondashuvlarda toponimlarga *milliy o‘zlik*ni tiklash, postkolonial diskurs va madaniy merosni qayta talqin qilish jarayonlarining muhim elementi sifatida qaralmoqda. Jumladan, O‘zbekiston toponimiyasi ham “so‘nggi yuz yil ichida murakkab bosqichlarni bosib o‘tdi. Rossiya imperiyasi O‘rta Osiyoni ishg‘ol qilgunga qadar toponimlarimiz o‘zbek tilining nom qo‘yish qonuniyatlari asosida shakllangan birliklardan iborat edi [9]. Su ma’noda, mustaqillikka erishgan davlatlar o‘z tarixiy ildizlariga qaytish va milliy o‘zlikni mustahkamlash maqsadida asl tub aholi toponimlarini tiklash yoki ularni yangi semantik kontekstda talqin qilishga intilmoqda. *Bu esa, tilning nafaqat kommunikativ, balki ideologik va strategik vosita ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.*

Shu nuqtai nazardan, Abya Yala davlatlari nomlarini o‘rganish lingvistik aloqalar, etimologiya, diskurs tahlili va geosiyosiy yondashuvlarni integratsiyalash – birgalikdagi hamkorligini talab etadi. Bunday kompleks yondashuv toponimlarning nafaqat kelib chiqishini, balki ularning tarixiy evolyutsiyasi va siyosiy funksiyalarini ham chuqur anglash imkonini beradi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi Abya Yala (Lotin Amerikasi) davlatlari nomlarining etimologik kelib chiqishini lingvistik va siyosiy kontekstda tizimli ravishda tahlil qilish hamda ularning *milliy o‘zlik*, madaniy meros va hokimiyat diskursidagi o‘rnini aniqlashdan iborat. Shu orqali toponimlarning global tarixiy jarayonlar va zamonaviy geosiyosiy realiyalar bilan o‘zaro bog‘liqligini ilmiy asosda yoritish ko‘zda tutiladi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqot kompleks va integrativ metodologik yondashuv asosida amalga oshirildi. Toponimik birliklarning ko‘p qatlamli tabiati ya’ni ularning lingvistik, tarixiy, madaniy va siyosiy xususiyatlari turli ilmiy metodlarni o‘zaro uyg‘un holda qo‘llashni talab etdi. Shu bois tadqiqotda etimologik, qiyosiy-lingvistik, diskursiv va geosiyosiy tahlil usullari tizimli ravishda qo‘llanildi. Avvalo, *etimologik tahlil* metodi orqali ayrim Abya Yala davlatlari nomlarining tarixiy kelib chiqishi, ularning dastlabki semantik yadrosi va lingvistik transformatsiya bosqichlari aniqlashtirildi. Bu jarayonda *nahuatl, kechua, guarani* kabi hindu tillaridagi leksik birliklarning fonetik va morfologik evolyutsiyasi, ularning ispan tiliga adaptatsiya jarayoni izchil tahlil qilindi. Etimologik rekonstruksiya usuli yordamida toponimlarning dastlabki ma’nolari va ularning keyingi tarixiy davrlarda qanday semantik o‘zgarishlarga uchragani misollar yordamida oydinlashtirildi.

Ikkinchi muhim metod sifatida *qiyosiy-tarixiy lingvistik* yondashuv qo‘llanildi. Ushbu metod doirasida hindu tillari va Yevropa tillari o‘rtasidagi kontakt natijasida yuzaga kelgan fonetik moslashuvlar, morfologik transformatsiyalar va leksik o‘zlashmalar o‘zaro qiyosiy tahlil qilindi. Xususan, nahuatl tilidagi -tl affiksining ispan tilida soddalashtirilishi (tomatl → tomate),

yoki guarani va kechua birliklarining fonologik moslashuvi kabi hodisalar tillararo aloqalar (lingvistik kontaktologiya) nuqtai nazaridan o‘rganildi. Bu yondashuv til kontaktining strukturaviy va funksional xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqotda, shuningdek, *diskursiv tahlil* metodi ham muhim o‘rin egallaydi. Ushbu metod orqali nomlash jarayonida aks etgan siyosiy, ideologik va madaniy omillar aniqlashtirildi. Kolonial davrda toponimlar ko‘pincha hududni ramziy egallash vositasi sifatida shakllangani, diniy komponentlar (San, Santa) orqali yangi milliy tushuncha diskursi yaratilgani tahlil qilindi. Diskursiv yondashuv yordamida toponimlarning hokimiyat, dominantlik va milliy o‘zlik qurilishidagi roli ochib berildi.

Bundan tashqari, *geosiyosiy yondashuv* orqali toponimlarning hududiy va strategik ahamiyati baholandi. Mazkur metod doirasida davlat nomlari va ularning geografik joylashuvi, resurslar bilan bog‘liqligi, tranzit va savdo yo‘llari bilan aloqadorligi o‘rganildi. Bu esa toponimlarning nafaqat lingvistik birlik, balki geostrategik va siyosiy ahamiyati jihatidan ham talqin qilinishiga imkon berdi [15].

Shu bilan birga, tadqiqotda *interdisiplinar yondashuv* ham qo‘llanildi, tilshunoslik, tarix, siyosatshunoslik va madaniyatshunoslik kesishmasida tahlil olib borildi. Ushbu metodologik kombinatsiya toponimlarni kompleks ya’ni lingvokulturologik va lingvopolitik fenomen sifatida o‘rganish imkonini yaratadi.

Natijada qo‘llanilgan metodlar tizimi ba’zi Abya Yala davlatlari nomlarining kelib chiqishi, rivojlanishi va ularning zamonaviy milliy-madaniy o‘zlik hamda geosiyosiy diskursdagi o‘rnini chuqur va ko‘p qirrali tahlil qilish imkonini beradi.

Natijalar va tahlil. O‘tkazilgan kompleks lingvistik, etimologik va geosiyosiy tahlillar Abya Yala (Lotin Amerikasi) davlatlari toponimlarini quyidagi bir nechta konseptual modellarga ajratish imkonini berdi. Ushbu modellarning har biri nomlash jarayonining muayyan tarixiy, iqtisodiy va madaniy kontekst bilan bevosita bog‘liqligini namoyon etadi:

1. Resursga asoslangan nomlash modeli. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ayrim davlat nomlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri hududning tabiiy boyliklari va iqtisodiy salohiyati bilan bog‘liq holda shakllangan. Masalan, Argentina nomi lotincha *argentum* (“kumush”) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, bu hududning dastlabki yevropaliklar tomonidan kumush zaxiralari bilan bog‘liq tarzda idrok etilganini aks ettiradi. Shunga o‘xshash tarzda, Braziliya nomi *pau-brasil* daraxti bilan bog‘liq bo‘lib, ushbu daraxtdan olinadigan qizil bo‘yoq kolonial davrda Yevropa bozorlari uchun muhim eksport mahsuloti hisoblangan [16, 9 –12-b.].

Bu kabi nomlash amaliyoti kolonial diskursda hududni avvalo iqtisodiy resurs sifatida talqin qilish tendensiyasini ifodalaydi. V.Mignolo ta’kidlaganidek, “nomlash kolonial hokimiyatning ramziy vositasi bo‘lib, u hududni iqtisodiy va epistemik jihatdan egallashni anglatadi” [3]. Shu bois resursga asoslangan toponimlar nafaqat iqtisodiy realiyani, balki kolonial idrok modelini ham aks ettiradi.

2. Mahalliy tillar asosidagi nomlash modeli. Bu model mahalliy tillarga asoslangan toponimlarning tubjoy xalqlar merosiga uzviyligini nazarda tutadi. Masalan, Meksika nomi nahuatl tilidagi Mēxihco so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, u aztek sivilizatsiyasi bilan bog‘liq muqaddas makonni anglatgan. Meksika toponimining kelib chiqishi tilshunoslikda uzoq vaqt davomida bahsli masala bo‘lib kelgan, ilmiy adabiyotlarda eng ko‘p e’tirof etilgan ikki asosiy etimologik ma’nosi mavjud. Birinchi va eng keng tarqalgan talqinga ko‘ra, México so‘zi nahuatl tilidagi uch komponentdan shakllangan: metztli (“oy”), xictli (“markaz”, “kindik”) va -co (“joy”,

“o‘rin”) affiksi. Ushbu morfemalar birikmasi natijasida “oyning markazida joylashgan hudud” yoki “oy ko‘lining markazi” degan ma’no yuzaga keladi. Bu talqin tarixiy-geografik asosga ega, Mexiko-Tenochtitlan shahri qadimda Texcoco ko‘li o‘rtasidagi orolda qurilgani bilan izohlanadi, bu makonning kosmik va geografik konseptuallashganini ham aks ettiradi.

Ikkinchi muhim talqin esa azteklarning asosiy xudosi Huitzilopochtlining yana bir nomi – Mexitli yoki Mexi bilan bog‘lanadi. Shu nuqtai nazardan, México “Mexitli (ya’ni xudo) yashaydigan joy” yoki “muqaddas maskan” ma’nosini ham anglatgan. Ushbu talqin toponimning diniy va mifologik asoslarini ochib beradi hamda nomlash jarayonida sakral (muqaddas) diskursning muhim rol o‘ynaganini ko‘rsatadi. Hozirgi rasmiy nomi Estados Unidos Mexicanos (Meksika qo‘shma shtatlari). Xuddi shuningdek, Paragvay va Urugvay nomlari guarani tiliga mansub bo‘lib, mos ravishda “katta daryo” va “rangli qushlar daryosi” ma’nolarini bildiradi [17]. Biroq bu nomlar to‘liq autentik shaklda saqlanib qolmagan. Ular ispan fonetik tizimiga moslashtirilgan holda qayta shakllangan. Bu jarayon lingvistik adaptatsiya va fonologik soddalashtirish hodisasini aks ettiradi. L.Campbellning fikricha, “til kontaktida o‘zlashmalar odatda dominant til fonologiyasiga moslashadi, bu esa asl shaklning qisman transformatsiyasiga olib keladi” [11].

3. Gibrid toponimlar modeli. Abya Yala mamlakatlari toponimiyasining muhim qismi gibrid xarakterga ega bo‘lib, unda mahalliy va Yevropa komponentlari sintezlashgan. Masalan, Nikaragua nomi mahalliy Nicarao qabilasi nomi va ispancha agua (“suv”) elementi bilan bog‘lanadi. Bunday gibrid nomlar til kontaktining eng yorqin mahsullaridan biri bo‘lib, ular ikki xil madaniy va lingvistik tizimning o‘zaro kesishuvini ifodalaydi. S.Thomason va T.Kaufmanlar “til kontaktida yuzaga kelgan gibrid birliklar ijtimoiy va siyosiy integratsiya jarayonlarining lingvistik ko‘rinishidir” deb ta’kidlaydi [18, 35–38-b.]. Bu model, ayniqsa, kolonial davrda yuzaga kelgan ko‘p qatlamli identitetni aks ettiradi, ya’ni mahalliy va kolonial madaniyatlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi natijasidir.

4. Geografik-metaforik nomlash modeli. Toponimlarning yana bir muhim qatlami hududning tabiiy xususiyatlarini metaforik yoki tavsifiy tarzda ifodalashga asoslangan. Masalan, *Chili* nomi ayrim talqinlarga ko‘ra “yerning oxiri” yoki “dunyoning chekkasi, chekka hudud” kabi ma’nolarni bildiradi, bu esa uning geografik joylashuvi bilan bog‘liq [19].

Gvatemala esa nahuatl tilidagi Quauhtlemallan (“o‘rmonlar yurti, daraxtzor”) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, hududning tabiiy landshaftini aks ettiradi. Bu turdagi nomlash insonning makonni idrok etishidagi kognitiv va metaforik mexanizmlarni namoyon etadi. R. Coates ham “toponimlar ko‘pincha insonning makonni konseptuallashtirish jarayonining lingvistik ifodasidir” [6], deb yozadi.

5. Siyosiy-diskursiv nomlash modeli. Ba’zi toponimlar bevosita geosiyosiy va iqtisodiy strategiyalar bilan bog‘liq holda shakllangan. Masalan, Panama nomi mahalliy kelib chiqishga ega bo‘lsa-da, zamonaviy diskursda u global savdo va tranzit tizimining markaziy nuqtasi sifatida talqin qilinadi. Panama kanali qurilishi natijasida bu nom global iqtisodiy va strategik diskursning muhim elementiga aylangan. Bu holat toponimlarning vaqt o‘tishi bilan yangi semantik qatlamlar bilan boyib borishini ko‘rsatadi. Geosiyosiy nuqtai nazardan, nomlar faqat identifikatsiya vositasi emas, balki strategik va ideologik tuzilma sifatida ham faoliyat yuritadi va katta ahamiyatga ega [20, 15–20-b.].

6. *Semantik transformatsiya hodisasi* ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, “aguacate” atamasi *nahuatl* tilidagi **ahuacatl** [aːwakaʔ] so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, u proto-

astekcha PA:WA ildiziga borib taqaladi va dastlab “avokado mevasi” ma’nosini anglatgan (Nahuatl Dictionary) [21]. Nahuatl tilida ushbu leksema ayrim hollarda semantik kengayish natijasida “moyak” ma’nosida ham qo‘llangan [22], bu ma’no mevaning shakli bilan inson tanasi a’zosi o‘xshashligi bilan izohlangan, ispan tilida bu semantik juftlik yo‘qolib, faqat botanik ma’no komponenti saqlanib qolgan. Bu esa til aloqasida madaniy filtratsiya va semantik seleksiya jarayonlari mavjudligini ko‘rsatadi. Demak, tillararo munosabat natijasida yuzaga kelgan leksik va toponimik birliklar nafaqat lingvistik o‘zgarishlar mahsuli, balki tarixiy-madaniy transformatsiyalarning til tizimidagi aks-sadosi sifatida ham namoyon bo‘ladi, ya’ni semantik kengayish yoki semantik torayish yuz beradi.

Ko‘rib chiqilgan modellardan anglashiladiki, Abya Yala (Lotin Amerikasi) toponimiyasi murakkab tarixiy va lingvistik hosilasidir. Har bir nom bu tillararo aloqalar, kolonial siyosat, iqtisodiy manfaatlar va madaniy o‘zlikning o‘zaro kesishgan nuqtasidir. Shu bois, toponimlarni tahlil qilish faqat etimologik emas, balki lingvokulturologik va geosiyosiy yondashuvni ham talab etadi.

Muhokama. Olingan natijalar Abya Yala (Lotin Amerikasi) toponimlarini faqat lingvistik birlik sifatida emas, balki **lingvopolitik fenomen** sifatida talqin qilish zarurligini ko‘rsatadi. Nomlash jarayoni tarixan hokimiyat va bilim ishlab chiqarish mexanizmlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u hududni nafaqat geografik, balki ramziy va ideologik jihatdan egallash vositasi sifatida xizmat qilgan. Kolonial davrda berilgan toponimlar orqali yangi hukmron diskurs shakllantirilib, mahalliy makon va uning aholisi qayta talqin etilgan [3, 57–59-b.].

Mazkur jarayonni “nomlash orqali hukmronlik” konsepsiyasi bilan izohlash mumkin. P. Bourdieu ta’kidlaganidek, “til hokimiyatning ramziy vositasi bo‘lib, u ijtimoiy haqiqatni legitimlashtirish imkonini beradi” [23, 42–45-b.]. Shu nuqtai nazardan, kolonial toponimlar nafaqat yangi nomlar tizimini, balki yangi ijtimoiy va siyosiy reallikni ham barpo etgan. Xususan, diniy komponentli nomlar (*San*, *Santa*) orqali hududni nasroniylashtirish (ayniqsa katoliklashtirish) va ideologik jihatdan qayta kodlash jarayoni amalga oshirilgan.

Biroq postkolonial davrda ushbu diskursga nisbatan qarshi tendensiyalar ham shakllangan. Ayrim davlatlar o‘z tarixiy va madaniy ildizlarini tiklash maqsadida mahalliy hindu xalqalari toponimlarini saqlab qolish yoki ularni qayta tiklashga intilgan. Masalan, **Meksika** nomining nahuatl ildiziga asoslangan holda milliy o‘zlikning markaziy elementi sifatida talqin qilinishi bu jarayonning yorqin ifodasidir. Anderson (2006) fikricha, milliy o‘zlik “tasavvur qilingan hamjamiyat” sifatida til va ramzlar orqali shakllanadi [24, 6–10-b.]. Shu bois toponimlar milliy ong va tarixiy xotirani tiklashning muhim vositasiga aylanadi.

Bundan tashqari, toponimlar zamonaviy geosiyosiy diskursda ham faol rol o‘ynaydi. Globallashuv sharoitida ayrim nomlar yangi semantik qatlamlar bilan boyib, xalqaro iqtisodiy va siyosiy tizimning muhim belgilariga aylanmoqda. Masalan, **Panama** nomi bugungi kunda faqat geografik birlik emas, balki global tranzit va savdo tizimining ramziy markeri sifatida talqin qilinadi. Bu esa toponimlarning dinamik va kontekstual xususiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi [20].

Umumiy aytganda, Abya Yala toponimlarini tahlil qilish lingvistik, tarixiy va siyosiy yondashuvlarni integratsiyalashni talab etadi. Ular til kontaktlari mahsuli bo‘lish bilan birga, hokimiyat, o‘zlik va madaniy transformatsiya jarayonlarining muhim indikatorlari hisoblanadi.

Xulosa. Abya Yala (Lotin Amerikasi) davlatlari nomlari tadqiqi murakkab va ko‘p qatlamli lingvistik hamda siyosiy jarayonlarning natijasi sifatida shakllanganligi ko‘rsatdi. Ular

oddiy geografik identifikatorlar bo‘lib qolmay, balki tarixiy xotira, iqtisodiy manfaatlar, madaniy meros va siyosiy hokimiyat o‘rtasidagi murakkab o‘zaro aloqalarni aks ettiruvchi semiotik birliklar sifatida namoyon bo‘ladi.

Toponimlarning etimologik va diskursiv tahlili natijasida nomlash jarayonning til aloqalari, kolonial siyosat va geosiyosiy strategiyalar bilan uzviy bog‘liqligini asoslaydi. Ayniqsa, kolonial davrda shakllangan nomlarning aksariyati hududni ramziy jihatdan egallash va yangi ijtimoiy tartibni legitimlashtirish vositasi sifatida xizmat qilgan. Shu bilan birga, postkolonial davrda indigen merosga qaytish tendensiyasi toponimlarning identitet qurilishidagi muhim rolini yana bir bor tasdiqlaydi.

Zamonaviy sharoitda toponimlar nafaqat tarixiy fenomen, balki global diskursning faol elementi sifatida ham qayta talqin qilinmoqda. Ular iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlar bilan o‘zaro ta’sirda bo‘lib, yangi semantik va ideologik mazmun kasb etmoqda. Ushbu ko‘rib chiqilgan masalalarni O‘zbekiston toponimlari, yoki postsovet respublikalari joy nomlari misolida ham tadqiq etish mumkin. Abya Yala davlatlaridagidek Yevropa davlatlaridan mustaqil bo‘lgach joy nomlarini qayta o‘zgartirish O‘zbekistonda ham amalga oshirilgan, ayniqsa bosqinchilar nomiga qo‘yilgan hudud nomlari avvalgi mahalliy nomlarga qayta almashtirilgan.

Shu nuqtai nazardan, toponimik tadqiqotlar tilshunoslik, siyosatshunoslik va madaniyatshunoslik kesishgan nuqtada shakllanuvchi kompleks ilmiy yo‘nalish sifatida alohida nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Interditsiplinar yondashuv asosida toponimlarni tahlil qilish makon, til va hokimiyat o‘rtasidagi murakkab va ko‘p qatlamli munosabatlarni chuqur anglash imkonini beradi, shuningdek, global va lokal identitetlarning shakllanish mexanizmlarini ilmiy asosda izohlashga xizmat qiladi.

Toponimlar o‘zida muayyan xalqning tarixiy xotirasi, ijtimoiy-siyosiy tajribasi, etnomadaniy qadriyatlari hamda turmush tarzi bilan bog‘liq jarayonlarni mujassam etgan muhim ahamiyatga ega leksik birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotimiz toponimiyani nafaqat tilning lug‘aviy boyligini tashkil etuvchi muhim qatlam, balki o‘tmish voqealari, sivilizatsion o‘zgarishlar va madaniy merosni o‘zida aks ettiruvchi ishonchli tarixiy manba sifatida ham e’tirof etish mumkinligini asosladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. United Nations. (2019). *Permanent Forum on Indigenous Issues: Compilation of information on the implementation of recommendations*. E/C.19/2019/3. United Nations Economic and Social Council.
2. Quijano, A. (2000). *Coloniality of power, eurocentrism, and Latin America*. Nepantla: Views from South, 1(3), 533-580.
3. Mignolo, W. D. (2005). *The idea of Latin America*. Wiley-Blackwell Publishing. – 224 p.
4. Madroñero J.D. (2025) *Nativoamérica, relatos del Abya Yala* (Spanish Edition). – 384 p.
5. 5. Espinosa-Miñoso Yu., Lugones M. (2022) *Decolonial Feminism in Abya Yala: Caribbean, Meso, and South American Contributions and Challenges*. Bloomsbury Publishing: Rowman & Littlefield. – 295 p.
6. Coates, R. (2006). *A toponomastic contribution to the linguistic prehistory of the British Isles*. https://www.snsbi.org.uk/Nomina_articles/Nomina_35_Coates.pdf
7. Crystal, D. (2010). *The Cambridge encyclopedia of language*. (3rd ed.) Cambridge University Press. – 524 p.
8. Enazarov, T. J. (2021). Shahrisabz tumani hududi joy nomlarining tarixiy-qiyosiy tadqiqi. Toshkent: Nodirabegim. April, 2023.

9. O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati (tuzuvchilar: Xudoyberganov va boshq.). (2022). Toshkent: Donishmand ziyosi. – 624 b.
10. Penny, R. (2002). *A history of the Spanish language*. (2nd ed.) Cambridge University Press. – 420 p.
11. Campbell, L. (2020). *Historical linguistics: An introduction* (4th ed.). Edinburgh University Press. – 520 p.
12. Baxronova, D. (2024). Prototurkiylarning Amerika qit’asiga ko‘chishi: leksik parallellizm va etimologik-semantik tadqiq. *SCIENCEPROBLEMS.UZ. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари*, 11 (4), 288-295.
13. Baxronova D. (2023) Achchiq suv yeganmisiz? https://ziyouz.uz/ajoyibotlar/achchiq-suv-eganmisiz/
14. Baxronova, D., & Tairova, F. (2025). Tarixiy toponimlar: arab tili ta’sirida shakllangan ispan va o‘zbek geonomik modeli. *«ACTA NUUz»*, 1(1.6), 248-252.
15. Rahmatov, L. (2019). *Dunyo mamlakatlari: Avstraliyadan Hindistongacha*. Toshkent, “Yangi kitob”. – 848 b.
16. Fausto, B. (2014). *A concise history of Brazil*. (2nd ed.) Cambridge University Press. – 472 p.
17. Adelaar, W. F. H., & Muysken, P. C. (2004). *The languages of the Andes*. Cambridge University Press. – 748 p.
18. Thomason, S., & Kaufman, T. (1992). *Language contact, creolization, and genetic linguistics*. University of California Press. – 428 p.
19. Crow, J. A. (1992). *The epic of Latin America* (4th ed.). University of California Press. – 992 p.
20. Agnew, J. (2003). *Geopolitics: Re-visioning world politics*. (2nd ed.) Routledge. – 168 p.
21. Nahuatl Dictionary/Diccionario del náhuatl». Nahuatl Dictionary. Whp.uoregon.edu. Consultado el 25 de octubre de 2015. https://es.wikipedia.org/wiki/Persea_americana#cite_note-2ec5ddb1-61
22. Malaret, A. (1970). Lexicón de Fauna y Flora. Madrid: Comisión Permanente de la Asociación de Academias de la Lengua Española. pp. vii, 569 p.
23. Bourdieu, P. (1999). *Language and symbolic power*. Harvard University Press. – 320 p.
24. Anderson, B. (2006). *Imagined Communities: Reflections on the Origin and Spread of Nationalism.* T. ed. Verso. – 256 p.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 4 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 March 2026
Accepted: 01 April 2026
Published: 15 April 2026

Article / Original Paper

ANALYSIS OF KHALID HUSAINI'S "A THOUSAND SUNRISES"

Quvvatova Shakhlo Chorievna
Bukhara State University
III stage basic doctoral student
E-mail: kuvvatova.shaxlo@gmail.com

Abstract. This article provides an in-depth literary analysis of Khaled Hosseini's novel A Thousand Splendid Suns. It explores the fate of Afghan women in the context of war, political upheaval, and patriarchal oppression. Through the characters of Mariam and Laylo, the novel conveys themes of sacrifice, love, resistance, and human dignity. The article examines the novel's plot, character development, stylistic features, and historical background, highlighting its literary and social significance. This work is intended for students, literary scholars, and readers interested in contemporary world literature and gender studies.

Keywords: Khaled Hosseini, A Thousand Splendid Suns, Afghan literature, women's fate, war literature, patriarchal society, character analysis, contemporary fiction, sacrifice, female resilience.

XOLID HUSAYNIYNING "MING QUYOSH SHU'LASI" ASARI TAHLILI

Quvvatova Shaxlo Choriyevna
Buxoro davlat universiteti
III bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xolid Husayniyning "Ming quyosh shu'lasi" asari chuqur adabiy tahlil qilinadi. Asarda tasvirlangan Afg'oniston ayollarining og'ir taqdiri, urush va siyosiy to'qnashuvlarning inson ruhiyatiga ta'siri, ayollarning jasorati va mehribonligi asosiy tahlil nuqtasiga aylangan. Maqolada Maryam va Laylo obrazlari orqali patriarxal jamiyatdagi ayollar holati, fidoyilik va insoniylik g'oyalari yoritiladi. Shuningdek, roman syujeti, badiiy uslubi, tarixiy konteksti hamda uni adabiy va ijtimoiy hodisa sifatida o'rganish imkoniyatlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Xolid Husayniy, "Ming quyosh shu'lasi", Afg'on adabiyoti, ayollar taqdiri, urush adabiyoti, patriarxal jamiyat, obrazlar tahlili, badiiy roman, jasorat, mehr va fidoyilik.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N34

Xolid Husayniy mashhur yozuvchilardan biri bo'lib Afg'oniston zaminida tug'ilib Amerika diyorida yashayotgan ijodkor hisoblanadi. Uning badiiy asarlari, asosan, insonlar yengib o'tishi kerak bo'lgan qiyinchiliklarni, millatning sabr-bardoshi, jasorati hamda sadoqatini shuningdek, urushning yomon tomonlari va uning salbiy oqibatlarini namoyon etadi. Bundan tashqari, u har doim insonlarni ta‟lim olishga, qaram bo'lmaslikka, o'z fikrlarini erkin bayon qilishga chaqirishga harakat qilgan. Asarlarining mazmun-mohiyati va dolzarbligi tufayli ular dunyo bo'ylab xaridorgirligi bilan ajralib turadi. Haqiqatdan ham, "Ming quyosh shu'lasi" romani — afg'on ayollari hayoti timsolida ularni oilalaridan ayiruvchi urush balosini tasvirlovchi asar. O'zining badiiy mahorati, ramzlarni to'g'ri usulda qo'llay olishi orqali afg'on-amerikalik yozuvchi Xolid Husayniy ushbu romanda Afg'onistonning ayanchi holatini ko'rsatib beradi [4]. Birinchi o'rinda biz ramz ya'ni timsollar haqida qisqacha bilimga ega bo'lishimiz

kerak. Bu badiiy vosita ijodkor tomonidan foydalanilgan element bo‘lib, u kitobxonga matnni chuqur anglashi uchun turli xil ishlatiladi.

Zamonaviy adabiyotda inson taqdirini urushlar, siyosiy to‘qnashuvlar va ijtimoiy notinchliklar fonida ochib berish orqali chuqur mazmun berish ko‘plab yozuvchilar ijodining bosh mezoniga aylangan. Amerikalik afg‘on yozuvchisi Xolid Husayniy ham o‘zining “Ming quyosh shu’lasi” nomli romanida aynan shunday yondashuvdan foydalangan. Ushbu asar Afg‘oniston tarixidagi fojiali davrlarni, urushlar va siyosiy notinchliklarning oddiy insonlar, ayniqsa ayollar hayotiga qanday ta’sir qilganini chuqur tahlil etadi [1]. Ming Quyosh Shu’lasi romani Afg‘onistonning so‘nggi bir necha o‘n yilliklar davomida boshidan kechirgan og‘ir sinovlari, jumladan, Sovet-Afg‘on urushi, fuqarolar urushi va Tolibonning hokimiyat tepasiga kelishi kabi tarixiy voqealar fonida ikki ayol – Laila va Mariyamning taqdirini qamrab oladi. Xolid Husayniy urush va siyosiy keskinliklar oddiy insonlar hayotiga, ularning oilaviy munosabatlariga, shaxsiy orzu-umidlariga qanday dahshatli zarba berishini o‘z asarida mahorat bilan tasvirlaydi. Ayollarning jamiyatdagi o‘rni, ularga nisbatan qo‘llaniladigan adolatsizliklar, zulm va zo‘ravonliklar romanda asosiy mavzulardan biri sifatida ko‘tariladi. Laila va Mariyamning boshidan kechirganlari, ularning bir-biriga bo‘lgan mehr-muhabbati va fidoyiligi og‘ir sharoitda ham insoniy qadriyatlarning saqlanib qolish mumkinligini ko‘rsatib beradi.

Asarda urush va siyosiy beqarorlikning ta’siri nafaqat ayollar, balki erkaklar va bolalar hayotida ham o‘z aksini topgan. Hokimiyat uchun kurashlar, xalqning tinch va osoyishta hayotidan ajralishi, ko‘chalarda hukm surayotgan vahima va qo‘rquv muhiti tasviridan ko‘rinib turadi. Xolid Husayniy o‘z qahramonlari orqali urushning inson ruhiyatiga, ularning kelajakka bo‘lgan ishonchiga qanday salbiy ta’sir qilishini ochib beradi. Biroq, shunga qaramay, umid va mehr tuyg‘ulari yo‘qolmaydi. Qahramonlarning irodasi, qiyinchiliklarga qarshi kurashi va bir-biriga madad bo‘lishga intilishi asarga chuqur insonparvarlik mohiyatini bag‘ishlaydi. “Ming Quyosh Shu’lasi” zamonaviy adabiyotda ijtimoiy va siyosiy voqelikni inson taqdiri bilan bog‘lab tahlil qilishning yorqin namunasidir. Romanda ko‘tarilgan muammolar, ya’ni urushning oqibatlari, ayollarga nisbatan zo‘ravonlik, murosasizlik kabi mavzular nafaqat Afg‘oniston, balki dunyoning ko‘plab mintaqalarida dolzarb hisoblanadi. Xolid Husayniy asari orqali o‘quvchini voqelikka chuqurroq nazar tashlashga, urushning azob-uqubatlarini tasavvur qilishga va insoniylik qadriyatlarini qadrlashga undaydi. Bu esa asarning nafaqat badiiy, balki ijtimoiy ahamiyatini ham belgilab beradi.

Ushbu asarda insoniylik, mehr, jasorat, erk uchun kurash kabi abadiy g‘oyalar o‘z ifodasini topgan. Ayniqsa, asardagi ikki bosh qahramon — Maryam va Layloning fojiali, ammo shonli taqdirlari roman g’oyasining asosiy yo’nalishlarini belgilaydi. Maqola davomida romanning syujeti, obrazlar tizimi, asosiy g‘oyalari, badiiy xususiyatlari va tarixiy konteksti chuqur tahlil qilinadi. Asarning mazmuni hamda syujeti ikki ayol va bir taqdir haqida ekanligini asarni o‘qish davomida anglab olishimiz qiyin emas. Roman ikki qismdan iborat, ya’ni birinchi qismda Maryam, ikkinchi qismda Layloning taqdiri yoritiladi. Asarda syujet to‘qnashuvi Maryam va Layloning taqdiriy kesishmasi orqali yuzaga chiqadi. Ularning har biri o‘z sharoitida o‘sib-ulg‘ayadi. Maryam — haromi farzand, jamiyatda inkor qilingan shaxs, Laylo esa zamonaviylik va ta’limni qadrlovchi oilada voyaga yetgan. Ammo Afg‘onistondagi urush va to‘qnashuvlar natijasida ularning hayot yo‘llari kesishadi — har ikkalasi bir erkakka turmushga

chiqadi. Bu yerda yozuvchi ayollar hayotining umumiyligini ko‘rsatadi, ya’ni sinfiy farqlarga qaramay, patriarxal jamiyatda har bir ayol jabrdiyda sifatida tasvirlangan [2].

Maryam — hayoti davomida muhabbat va e’tirof izlagan ayol. Laylo esa mehr bilan ulg‘aygan, ammo hayot uni sabrga va kurashga chorlaydi. Bu ikki ayol o‘rtasidagi munosabat esa avval raqobatdan, keyin esa onalik va singillik mehriga aylanadi [3]. Har ikkala obrazlarni tahlil qilar ekanmiz, asarda ular mehr va jasorat timsollari sifatida keltirilganligiga yana bir bor amin bo‘lamiz [4].

Bundan tashqari, Maryam fidoyilik va sabr timsoli sifatida ham gavdalanadi. Maryam jamiyat tomonidan rad etilgan, otasi tomonidan tan olinmagan, onasi tomonidan kamsitilgan qizdir. Uning butun hayoti davomida izlagani — muhabbat va qadrlanishdir. U hayotida biror marta ham shodlikni to‘liq his qilmagan. Biroq Layloni va uning farzandlarini asrash orqali o‘zini inson sifatida kashf qiladi. Bu — Maryamning insoniy kamolotga yetganining dalilidir [5].

Laylo esa o‘zgaruvchan jamiyatda o‘zligini saqlab qolgan ayol sifatida tasvirlanadi. Laylo — Afg‘oniston ayollarining yangi avlodi timsoli [6]. U zamonaviy fikrlaydi, ta’limli, ma’rifatli, ma’naviyatli, bir olam orzulari bor qiz. Urush uning orzularini vayron qilsa-da, u ruhan sinmaydi. Farzandlari uchun kurashadi, jamiyatdagi zulmga qarshi ichki norozilik bilan yashaydi. Tolibon davridagi qattiq tartiblar uning hayotini doimiy nazorat ostida tutadi, ammo u o‘z shaxsiyatini saqlab qolishga harakat qiladi [7].

Rashid — asarda hukmronlik va zo‘ravonlik timsoliga yaqqol misol bo‘la oladi. U o‘ziga to‘q, ammo aqliy jihatdan zaiflashgan, qadriyatlarni tushunmaydigan erkak. U Maryam va Layloni faqat o‘z ehtiyojini qondirish vositasi deb biladi. Rashid orqali muallif Afg‘oniston jamiyatidagi erkaklarning hukmronlik va zo‘ravonlik xususiyatlarini fosh qiladi. Ayniqsa, ayollarga bo‘lgan munosabatda u faqat kuch orqali muloqot qiladi [8].

Bunday olib qaraganda roman asosan ayollarning qahramonligi va kurashi haqida. Afg‘on jamiyatida ayollar taqdiriga chizilgan cheklovlar, diniy va madaniy parda ortida yashiringan erkaklarning zo‘ravonlarcha hukmronligi — asarning bosh mavzusi. Maryam va Laylo esa bu zulmga qarshi turishadi. Ular kurashadi — so‘z bilan emas, balki yashab, sabr qilib, mehr berib kurashadi. Maryam Layloning hayotini asrash uchun o‘z hayotini qurbon qiladi. Bu fidoyilik — insoniy buyuklikning namunasi [9]. Layloning kelajakda ta’lim sohasida ishlashi — umid timsolidir. Asar yakunida Layloning Kobulga qaytishi — hayotning davomiyligi, xalqning barhayotligi va ayolning qayta tiklanishi g‘oyasini ifodalaydi. Ming Quyosh Shu’lasi asari chinakamiga ayollarning ruhiy kuch-qudrati, ularning fidokorligi va zulmga qarshi kurashdagi chidamliligi haqida hikoya qiladi. Romanda tasvirlangan Afg‘on jamiyatida ayollarga qo‘yilgan cheklovlar, erkaklar hukmronligi ostida ularning ojiz ahvolga tushishi va hatto o‘z hayotlarining egasi bo‘la olmasligi kabi vaziyatlar diqqatga sazovordir. Maryam va Laila bu qiyinchiliklarga ojizona emas, balki ichki kuch va sabr-toqat bilan qarshi turadilar. Ularning kurashi nafaqat zo‘ravonlikka, balki umidsizlikka, jamiyatning ayollarga nisbatan bo‘lgan noto‘g‘ri qarashlariga qarshi ham yo‘naltirilgan. Maryamning Laila va uning farzandlari uchun o‘z jonini fido qilishi, bu fidoyilikning naqadar ulug‘vor va insoniy qadriyatlarga sazovor ekanligini ko‘rsatadi. Bu harakat oddiy bir xaloskorlik emas, balki zulm girdobida qolgan boshqa bir insonning kelajagini ta’minlash yo‘lidagi oliyjanob jasoratdir.

Romanning yakunida Laila va uning farzandlarining kelajak haqidagi umidlari, ayniqsa, ta’lim orqali dunyoni o‘zgartirish istagi, umidning kuchli timsoliga aylanadi. Ta’lim va bilim orqali ayollar o‘zlarining ijtimoiy o‘rnini mustahkamlab, jamiyatda faol ishtirok eta oladi.

Lailaning o‘qituvchilik faoliyatini davom ettirishi, bu nafaqat shaxsiy maqsad, balki kelgusi avlodlar uchun ham yangi imkoniyatlar yaratish istagidir. Kobulga qaytishi esa bu umidning yana bir tasdig‘i bo‘lib, urush va zulmdan jabr ko‘rgan shaharda hayotning davom etayotganini, insonning tiklanish kuchi va xalqning barhayotligini anglatadi. Bu qaytish, avvalo, ayolning kuchini, uning oila va jamiyat qurishdagi o‘rni va ta’sirini ko‘rsatib beradi. “Ming Quyosh Shu’lasi” nafaqat Afg‘onistonning yaqin tarixidagi fojialarni aks ettiruvchi asar, balki ayollarning ichki dunyosi, ularning sabot-u bardoshi, o‘z baxti va yaqinlari uchun kurashishga tayyor ekanligini ko‘rsatuvchi kuchli voqea. Kitob orqali o‘quvchi ayollarning jamiyatdagi qiyin ahvolini, ularning boshidan kechirayotgan ruhiy va jismoniy azoblarini teran anglab yetadi. Biroq, asar yakunida qoldirilgan umid nurlari insonni taslim bo‘lmaslikka, qiyinchiliklarga qaramay, yaxshilik va sevgini qadrlashga undaydi. Maryam va Laila kabi qahramonlar obrazlari orqali Xolid Husayniy ayol qahramonligining eng oliy ko‘rinishlarini, ya’ni mehr, fidoyilik va kelajakka ishonchni namoyon etadi.

Roman Afg‘oniston tarixining Sovet istilosi, fuqarolar urushi, Tolibon hokimiyati, AQSH bosqini kabi davrlarini qamrab oladi. Bu tarixiy fon voqealarga kontekst beradi, ammo asarning markazida doimo odamlar — ularning ruhiy holati, ichki iztiroblari turadi. Roman tarixiy voqealarga asoslangan. Har bir siyosiy o‘zgarish oddiy odamlarning hayotiga qanday ta’sir qilganiga e’tibor qaratiladi. Sovet davrida boshlanadigan islohotlar, mujohidlar davridagi tartibsizlik, Tolibon rejimi va AQSH bosqinidan so‘nggi o‘zgarishlar bir-birini almashtirib, faqat xalq uchun iztirob manbai bo‘lib qoladi. Ayollar holati esa har bir davrda og‘irligicha qoladi [10].

Yozuvchi badiiy tilni juda nozik ishlatadi. Psixologik tasvirlar, ichki monologlar, atrof-muhitga berilgan tasvirlar orqali voqealar chuqurroq aks etadi. Masalan, Maryam qatl qilinishidan oldin o‘z hayotini eslaydi — bu sahna juda kuchli dramatik va estetik kuchga ega. She’riy jumlalar va o‘zbek, fors tilidagi iboralar Afg‘on madaniyatiga xos muhit yaratadi. Romanning nomi Hamidulloh Xalilning she’ridagi “Yana ming quyosh shu’lasi to‘kiladi bu shaharga...” misralaridan olingan. Bu satr Kobul shahrining go‘zalligini tasvirlasa-da, aslida Maryam va Laylodek ayollarning ichki nuriga ishora qiladi.

“Ming quyosh shu’lasi” asari dunyoda 40 dan ortiq tilga tarjima qilingan. U faqat Afg‘oniston emas, butun dunyo ayollarining taqdiriga daxldor. Roman adabiyot orqali zulmni fosh qilish, insonparvarlik g‘oyasini targ‘ib qilishning kuchli namunasi hisoblanadi. Universitetlarda bu asar adabiy tahlil, gender tadqiqotlari, urush va travma adabiyoti doirasida o‘rganilmoqda. Shuningdek, u nafaqat san’at asari, balki tarixiy guvohlik sifatida ham baholanadi.

Xolid Husayniyning “Ming quyosh shu’lasi” asari — ayollar taqdirini butun jamiyat darajasida ko‘tarib chiqqan, badiiy kuchga ega, ijtimoiy ahamiyati yuqori bo‘lgan roman. Asar orqali muallif insoniy qadriyatlar, ayollarning fidoyiligi, urushning dahshati va hayotga bo‘lgan ishonch haqida chuqur falsafiy xulosalarni bizga yetkazadi. Maryam va Layloning hayoti — minglab ayollar hayotining timsolidir. Ularning jasorati, mehribonligi va fidoyiligi — eng og‘ir sharoitlarda ham insoniylik so‘nmasligini isbotlaydi. Aynan shu jihatlar “Ming quyosh shu’lasi”ni zamonaviy adabiyotda alohida o‘ringa ko‘taradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Хоссейни Х. Тысяча сияющих солнц. – Москва: Иностранка, 2010.
2. Hosseini, Khaled. A Thousand Splendid Suns. – New York: Riverhead Books, 2007.

3. Xusanboyeva, D. “Zamonaviy adabiyotda ayol obrazining talqini.” // Adabiyotshunoslik jurnali, 2021, №2, 45–52-betlar.
4. Karimova, S. “Urush adabiyoti va insoniylik motivlari.” // Tafakkur, 2022, №1, 30–35-betlar.
5. Mohammadi, F. “Representation of Afghan Women in Contemporary Fiction.” // Journal of Middle Eastern Literature, Vol. 35, No. 1, 2020, pp. 75–89.
6. Ahmad, A. “Postcolonial Gender and the Image of the Muslim Woman.” // Critical Inquiry, 2009, Vol. 36, No. 2, pp. 245–263.
10. Faulkner, L. “Literary Trauma and Women’s Resistance in War Novels.” // Women’s Studies Quarterly, 2019, Vol. 47, No. 3, pp. 115–132.
11. UNESCO. Education and Women in Afghanistan: A Brief Overview. – Paris: UNESCO Publications, 2020.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 4 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 March 2026
Accepted: 01 April 2026
Published: 15 April 2026

Article / Original Paper

THE ROLE OF PROVERBS AND SAYINGS IN THE FOLKLORE GENRE

Elmuratova Zamira Khodjamuratovna
Teacher, Nukus state pedagogical institute named after Ajiniyaz
E-mail: zamira.x@bk.ru

Abstract. This article describes the role and importance of proverbs and sayings in folklore. It explains their meaning, language features, and functions in society. Proverbs and sayings are shown as important tools that reflect people's life experience, worldview, and values. The article also highlights their role in education, clear communication, and preserving cultural heritage.

Keywords: proverb, language, important, folklore,history, cultural, function, tradition, generation, symbol, basis.

NAQLLAR VA MAQOLLARNING FOLKLOR JANRIDAGI ROLI

Elmuratova Zamira Xodjamuratovna
O‘qituvchi, Nukus davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada naql va maqollarning folklordagi o‘rni va ahamiyati yoritiladi. Ularning mazmuni, til xususiyatlari va jamiyatdagi vazifalari tushuntiriladi. Naql va maqollar xalqning hayotiy tajribasi, dunyoqarashi va qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim vosita sifatida ko‘rsatiladi. Shuningdek, ular yosh avlodni tarbiyalash, fikrni aniq va qisqa ifodalash hamda madaniy merosni saqlashda muhim rol o‘ynashi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: naql, til, muhim, tarix, madaniy, folklor, urf-odat, avlod, ramz, asos.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N35

Kirish. Naql va maqollar xalq og’zaki ijodining eng muhim va qadimiy janrlaridan biri bo’lib, ular folklor tizimida alohida o’rin egallaydi. Ushbu birliklar qisqa, ixcham, lekin mazmunan chuqur bo’lib, xalqning ko’p asrlik tajribasi, kuzatuvlari va hayotiy xulosalarini o’zida mujassam etadi.

Naql va maqollar umumlashtiruvchi xarakterga ega bo’lib, ular muayyan bir shaxs yoki hodisaga emas, balki umumiy hayotiy qonuniyatlarga ishora qiladi. Shu jihatdan ular didaktik va normativ funksiyani bajaradi. Ular orqali jamiyatda qabul qilingan axloqiy me’yorlar, ijtimoiy munosabatlar va qadriyatlar ifodalanadi.[7]

Lingvistik nuqtai nazardan maqollar turg‘un iboralar hisoblanadi. Ularning tarkibi odatda o‘zgarmas bo‘lib, tayyor shaklda qo‘llaniladi. Bu xususiyat ularning og‘zaki nutqda oson yodda saqlanishi va avloddan avlodga uzatilishini ta’minlaydi. Naql va maqollar sintaktik jihatdan to‘liq gap shaklida yoki qisqartirilgan konstruksiya ko‘rinishida bo‘lishi mumkin.

Semantik jihatdan maqollar ko‘pincha ko‘chma ma’noga ega bo‘ladi. Ular metaforik, allegorik va obrazli ifoda vositalari orqali chuqur mazmunni yetkazadi. Shu sababli maqolni tushunish uchun uning bevosita grammatik shakli emas, balki kontekstual va madaniy mazmuni muhim ahamiyat kasb etadi.

Pragmatik jihatdan maqollar nutq jarayonida muhim kommunikativ vazifani bajaradi. Ular fikrni asoslash, isbotlash, umumlashtirish yoki ta’sirchanlikni oshirish uchun qo‘llaniladi. Shu jihatdan maqollar nutqning argumentativ va ekspressiv imkoniyatlarini kengaytiradi.

Naql va maqollar folklor tizimida quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:

Didaktik funksiya — insonni tarbiyalash, axloqiy me’yorlarni singdirish;

Kognitiv funksiya — hayotiy tajribani umumlashtirish va bilim berish;

Kommunikativ funksiya — nutqda fikrni ixcham va aniq ifodalash;

Madaniy funksiya — milliy qadriyatlar va an’analarni saqlash va uzatish;

Normativ funksiya — ijtimoiy xulq-atvor qoidalarini belgilash.

Folklor xalqning tarixiy xotirasi, ma’naviy dunyosi va ijtimoiy ongini ifodalovchi murakkab madaniy tizim sifatida qaraladi. U og‘zaki ijod mahsuli bo‘lib, avloddan avlodga og‘zaki tarzda o‘tadi va jamiyatning turli qatlamlarida muhim kommunikativ va tarbiyaviy vazifalarni bajaradi. Folklor tarkibidagi janrlar orasida naql va maqollar alohida o‘rin egallaydi. Ular qisqa, ixcham, ammo chuqur mazmunli ifodalar bo‘lib, xalq tajribasi, kuzatuvlari va hayotiy xulosalarini o‘zida mujassam etadi.

Naql va maqollar folklor tizimining eng barqaror va keng tarqalgan elementlaridan biri hisoblanadi. Ularning asosiy xususiyati – umumlashtirilgan fikrni ixcham shaklda ifodalash, shuningdek, ijtimoiy normalarni mustahkamlash va axloqiy qadriyatlarni targ‘ib qilishdir. Ushbu janrlar xalqning dunyoqarashi, mentaliteti va madaniy identifikatsiyasini aks ettiradi.

Mazkur ilmiy ishda naql va maqollarning folklordagi o‘rni, ularning funksional xususiyatlari, til va madaniyat bilan bog‘liqligi, shuningdek, tadqiqotchilar qarashlari asosida nazariy jihatlari tahlil qilinadi.

Naql va maqollarni o‘rganish paremiologiya deb ataluvchi ilmiy yo‘nalish doirasida amalga oshiriladi. Bu soha xalq og‘zaki ijodining ushbu qismini lingvistik, madaniy va sotsiologik nuqtai nazardan tadqiq etadi. Tadqiqotchilar naql va maqollarni nafaqat til birligi sifatida, balki madaniy kod sifatida ham talqin qiladilar.

Xalq og‘zaki ijodi bo‘yicha olib borilgan dastlabki ilmiy izlanishlarda naql va maqollar xalq donishmandligining qisqa shakli sifatida baholangan. Tadqiqotchilar ularni jamiyatning tajribasini umumlashtiruvchi vosita sifatida ko‘rib, ularning tarbiyaviy va didaktik ahamiyatini alohida ta’kidlaganlar.

Folklorshunoslikda maqollarni o‘rganishda struktural va semantik yondashuvlar muhim o‘rin tutadi. Struktur yondashuv maqollarning shakliy xususiyatlarini, ularning grammatik va sintaktik tuzilishini tahlil qiladi. Semantik yondashuv esa ularning mazmuniy qatlamlarini, metaforik va obrazli ifodalanishini o‘rganadi.

Shuningdek, ba’zi tadqiqotchilar naql va maqollarni kommunikativ akt sifatida ko‘rib chiqadilar. Ularning fikricha, maqollar nutq jarayonida muayyan pragmatik vazifani bajaradi va suhbatning mazmunini kuchaytiradi yoki aniqlashtiradi.

Madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan qaraganda, naql va maqollar xalqning mental modeli, qadriyatlari va ijtimoiy me’yorlarini ifodalaydi. Ular orqali jamiyatning axloqiy prinsiplari, mehnatga munosabati, tabiatga qarashi va ijtimoiy munosabatlari haqida xulosa chiqarish mumkin.

Turli mintaqalardagi folklor an’analari maqollar tizimining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, turli tillardagi maqollarni qiyosiy o‘rganish ularning umumiy va o‘ziga xos jihatlarini aniqlash imkonini beradi.

Naql va maqollar jahon va mintaqaviy folklorshunoslikda keng o‘rganilgan bo‘lib, bu borada turli davr va maktablarga mansub olimlar muhim nazariy qarashlarni ilgari surganlar. Ularning fikrlari mazkur janrlarning tabiati, funksiyalari va madaniy ahamiyatini tushunishda asosiy manba hisoblanadi.

Klassik olimlardan biri hisoblangan Archer Taylor maqollarni xalq tajribasini umumlashtiruvchi qisqa va barqaror ifodalar sifatida talqin qiladi. Uning ta’kidlashicha, maqollar universal xarakterga ega bo‘lib, ular turli xalqlar madaniyatida o‘xshash funksiyalarni bajaradi. Teylor maqollarning barqarorligi va an’anaviyligi ularning og‘zaki madaniyatdagi o‘rnini belgilab beradi, deb hisoblaydi.[6]

Nemis olimasi Wolfgang Mieder esa maqollarni madaniy kontekst bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganadi. Uning fikricha, maqollar faqat lingvistik birlik emas, balki madaniy kod sifatida namoyon bo‘ladi. Mider maqollarning metaforik tabiatiga alohida e’tibor qaratib, ular orqali jamiyatning qadriyatlari va dunyoqarashi aks etishini ta’kidlaydi.[3]

Folklorshunos Alan Dundes folklorni madaniy tizim sifatida qarab, unda maqollarning alohida o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Uning nuqtai nazaricha, maqollar jamiyatning yashirin qoidalari va ijtimoiy me’yorlarini ifoda etuvchi vositadir. Dandes folklor orqali xalqning mental modeli va jamoaviy tafakkuri namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi.[1]

Rus folklorshunosligida ham maqollar tadqiqi muhim o‘rin egallagan. Masalan, Grigorii Permyakov maqollarni struktura va semantika nuqtai nazaridan tahlil qilib, ularni barqaror til birliklari sifatida qarashni taklif etadi. Uning ishlarida maqollarning ichki tuzilishi, ularning formulalashgan xususiyati va ma’no tipologiyasi keng yoritilgan.[5]

Boshqa tadqiqotchilar maqollarni kommunikatsiya vositasi sifatida o‘rganadilar. Ularning fikricha, maqollar nutq jarayonida argumentatsiyani kuchaytirish, fikrni aniqlashtirish va ta’sirchanlikni oshirish vazifasini bajaradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, maqollar pragmatik funksiyaga ega bo‘lib, ular konkret kommunikativ vaziyatda mazmunga qo‘shimcha ma’no beradi.

Turkiy xalqlar folklorini o‘rgangan olimlar esa maqollarni milliy madaniyat, urf-odatlar va tarixiy tajriba bilan bog‘liq holda talqin qiladilar. Ularga ko‘ra, har bir xalqning maqollari uning tabiiy muhiti, ijtimoiy hayoti va qadriyatlar tizimi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu sababli, maqollar orqali xalqning hayot tarzi va dunyoqarashini o‘rganish mumkin.[9]

Tadqiqotchilar fikrlari shuni ko‘rsatadiki, naql va maqollar nafaqat til birligi, balki murakkab madaniy-folkloriy fenomen sifatida qaraladi. Ular lingvistik, semantik, pragmatik va madaniy jihatdan ko‘p qirrali bo‘lib, jamiyat hayotida muhim o‘rin tutadi.

Maqollar folklorning boshqa janrlari bilan ham uzviy bog‘liqdir. Ular ertaklar, dostonlar, rivoyatlar va qo‘shiqlar tarkibida uchrashi mumkin yoki alohida mustaqil birlik sifatida qo‘llaniladi. Shu bilan birga, maqollar nutq madaniyatining ajralmas qismi sifatida kundalik muloqotda faol ishlatiladi.

Tarixiy jihatdan maqollar jamiyatning uzoq davom etgan ijtimoiy tajribasi asosida shakllangan. Ular og‘zaki an’ana orqali saqlanib, vaqt o‘tishi bilan barqaror shaklga ega bo‘lgan. Har bir xalqning maqollari uning tarixiy rivojlanishi, tabiiy sharoiti va ijtimoiy tuzilmasi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Maqollar xalq tafakkurining mahsuli sifatida kollektiv ongni ifodalaydi. Ular individual muallifga ega emas, balki jamoaviy ijod natijasi hisoblanadi. Shu sababli maqollar anonim va universal xususiyatga ega bo‘ladi.

Ilmiy yondashuvda maqollarni o‘rganish bir nechta yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi: lingvistik, semantik, struktural, pragmatik va madaniy tahlil. Har bir yondashuv maqollarning turli jihatlarini ochib beradi va ularning murakkab tabiatini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Naql va maqollar folklorning muhim elementi bo‘lib, ular xalqning tarixiy xotirasi, madaniy qadriyatlari va ijtimoiy tajribasini ifodalaydi. Ular til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni namoyon etadi hamda jamiyat hayotida kommunikativ, didaktik va madaniy funksiyalarni bajaradi.

Naql va maqollar folklor tizimining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ular xalqning ijtimoiy va madaniy hayotida keng qo‘llaniladi. Ular orqali xalq o‘zining hayotiy tajribasini umumlashtiradi va keyingi avlodlarga yetkazadi.

Folklorda naql va maqollar quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

Birinchidan, ular axloqiy-me’yoriy funksiyani bajaradi. Ya’ni, jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor qoidalarini mustahkamlaydi va insonlarni to‘g‘ri yo‘nalishga undaydi.

Ikkinchidan, naql va maqollar ta’limiy vazifani bajaradi. Ular orqali yosh avlodga hayotiy tajriba, donolik va ijtimoiy bilimlar yetkaziladi.

Uchinchidan, ular kommunikativ vosita sifatida xizmat qiladi. Nutq jarayonida maqollar fikrni qisqa va aniq ifodalash imkonini beradi.

To‘rtinchidan, naql va maqollar madaniy identifikatsiya vositasi hisoblanadi. Ular xalqning o‘ziga xos madaniy xususiyatlarini aks ettiradi.

Naql va maqollar til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni namoyon etadi. Til orqali ifodalangan maqollar madaniy qadriyatlarni saqlab qoladi va ularni avloddan avlodga uzatadi.

Har bir xalqning maqollari uning tarixiy tajribasi, tabiiy sharoiti va ijtimoiy tuzilmasi bilan chambarchas bog‘liq. Shu sababli, maqollarni o‘rganish orqali muayyan xalqning madaniy modelini tushunish mumkin.

Maqollar tilning obrazli va metaforik imkoniyatlarini kengaytiradi. Ular nutqni boyitadi va ekspressivlikni oshiradi. Shu bilan birga, maqollar tilning barqaror birliklari sifatida lingvistik tizimda muhim o‘rin tutadi.

Turli tadqiqotchilar naql va maqollarni turlicha talqin qilganlar. Ba’zi olimlar ularni lingvistik birlik sifatida o‘rganishgan bo‘lsa, boshqalari ularni madaniy va sotsiologik hodisa sifatida tahlil qilganlar.

Paremiologiya sohasida olib borilgan tadqiqotlar maqollarning universal va milliy jihatlarini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqotchilar maqollarni xalq tafakkurining mahsuli sifatida ko‘rib, ularning semantik va pragmatik xususiyatlarini o‘rganadilar.

Shuningdek, ayrim olimlar maqollarni diskursiv birlik sifatida qaraydilar. Ularning fikricha, maqollar nutq jarayonida muayyan funksiyani bajaradi va kommunikatsiyani samarali qiladi.

Xulosa. Naql va maqollar folklor janrining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ular xalqning madaniy, ijtimoiy va ma’naviy hayotida katta ahamiyatga ega. Ular orqali xalq o‘zining tajribasini umumlashtiradi, qadriyatlarini ifodalaydi va avlodlarga yetkazadi.

Ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, naql va maqollar nafaqat til birligi, balki murakkab madaniy fenomen sifatida qaralishi lozim. Ularning strukturaviy, semantik va funksional xususiyatlari folklor tizimida muhim o‘rin tutadi.

Shu sababli, naql va maqollarni o‘rganish nafaqat lingvistika, balki madaniyatshunoslik, sotsiologiya va folklorshunoslik uchun ham dolzarb ilmiy yo‘nalish hisoblanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Dundes, A. (1965). The study of folklore. Prentice-Hall.
2. Finnegan, R. (1992). Oral traditions and the verbal arts: A guide to research practices. Routledge.
3. Mieder, W. (2004). Proverbs: A handbook. Greenwood Press.
4. Norrick, N. R. (1985). How proverbs mean: Semantic studies in English proverbs. Mouton de Gruyter.
5. Permyakov, G. L. (1988). Foundations of structural paremiology. Nauka.
6. Taylor, A. (1931). The proverb. Harvard University Press.
7. Abdullayev, F. (1990). O‘zbek xalq maqollari. Toshkent: Fan nashriyoti.
8. Maqollar va matallar to‘plami. (2010). Toshkent: Sharq nashriyoti.
9. Qoraqalpaq xalq naqıllari. Nukus: Qoraqalpaqstan baspası

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 4 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

12.00.00 – YURIDIK FANLAR – LAW

Received: 16 March 2026
Accepted: 01 April 2026
Published: 15 April 2026

Article / Original Paper

PROCEDURAL AND LEGAL FOUNDATIONS OF APPEALING COURT DECISIONS THAT HAVE NOT ENTERED INTO LEGAL FORCE

Shayzakov Shodiyor Ibragimovich,
Head of Center at the Law
Enforcement Academy, PhD in Law,
Associate Professor, Independent Researcher

Abstract. This article analyzes the procedural and legal foundations for appealing judicial acts that have not entered into legal force in the appellate procedure. The article reveals the essence and content of the institution of appeal, its place and significance in civil proceedings, as well as the specific features of full and incomplete appeal. In addition, it examines in detail the range of subjects entitled to file an appeal complaint or prosecutorial protest, the procedure and time limits for filing a complaint, the grounds for restoring a missed deadline, the requirements imposed on the form and content of the complaint, the attached documents, the powers of a representative, the prosecutor's protest, the state duty, as well as issues related to filing in electronic form. The author evaluates the institution of appeal as an important procedural guarantee for eliminating factual and legal errors that may be committed by the court of first instance, ensuring a lawful and well-grounded judicial act, and effectively protecting the rights and legitimate interests of persons.

Keywords: appeal, appeal complaint, appellate protest, court of first instance, judicial act not entered into legal force, civil procedure, procedural foundations, time limit for filing a complaint, restoration of a missed deadline, procedural requirements, prosecutor's protest, representative's authority, state duty, electronic document, legality of a judicial act.

QONUNIY KUCHGA KIRMAGAN SUD HUJJATLARI USTIDAN APELLYATSIYA TARTIBIDA SHIKOYAT QILISHNING PROTSESSUAL-HUQUQIY ASOSLARI

Shayzakov Shodiyor Ibragimovich
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
markaz boshlig'i, yu.f.f.d.(PhD), dotsent,
mustaqil izlanuvchi
E-mail: sh.shayzakov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada qonuniy kuchga kirmagan sud hujjatlari ustidan apellyatsiya tartibida shikoyat qilishning protsessual-huquqiy asoslari tahlil qilingan. Maqolada apellyatsiya institutining mazmun-mohiyati, uning fuqarolik protsessidagi o'rni va ahamiyati, to'liq hamda to'liq bo'lmagan apellyatsiya turlarining o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, apellyatsiya shikoyati yoki protestini berish huquqiga ega subyektlar, shikoyat berish tartibi, muddatlari, muddatni tiklash asoslari, shikoyatning shakli va mazmuniga qo'yilgan talablar, ilovalar, vakil vakolati, prokuror protesti, davlat boji hamda elektron shaklda murojaat qilish masalalari batafsil ko'rib chiqilgan. Muallif apellyatsiya institutini birinchi instansiya sudi tomonidan yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan faktik va huquqiy xatolarni bartaraf etish, qonuniy va asosli sud hujjatini ta'minlash hamda shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilishning muhim protsessual kafolati sifatida baholaydi.

Kalit so'zlar: apellyatsiya, apellyatsiya shikoyati, apellyatsiya protesti, birinchi instansiya sudi, qonuniy kuchga kirmagan sud hujjati, fuqarolik protsessi, protsessual asoslar, shikoyat berish muddati, muddatni tiklash, protsessual talablar, prokuror protesti, vakil vakolati, davlat boji, elektron hujjat, sud hujjati qonuniyligi.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N36

Kirish. Fuqarolik sud ishlarini yuritishda sud hujjatlarining qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini ta’minlash huquqiy davlatning muhim belgilaridan biri hisoblanadi. Sud tomonidan qabul qilingan har qanday hal qiluv qarori, ajrim yoki qaror faqatgina moddiy va protsessual huquq normalariga muvofiq bo‘lgan taqdirdagina shaxs huquq va erkinliklarining samarali himoyasini ta’minlay oladi. Biroq, amaliyot shuni ko‘rsatadiki, birinchi instansiya sudi tomonidan ish holatlarini to‘liq aniqlamaslik, dalillarga noto‘g‘ri baho berish yoki huquq normalarini qo‘llashda xatolarga yo‘l qo‘yilishi mumkin. Bunday vaziyatlarda apellyatsiya instituti qonuniylik va adolatni tiklashning muhim protsessual vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Apellyatsiya tartibida qayta ko‘rishning o‘ziga xos jihati shundan iboratki, u sud hujjatini oddiy formal tekshirish bilan cheklanib qolmay, balki ishni mohiyati bo‘yicha takroran ko‘rib chiqish imkonini ham beradi. Shu bois apellyatsiya birinchi instansiya sudida yo‘l qo‘yilgan faktik va huquqiy xatolarni bartaraf etish, ish bo‘yicha qonuniy va asosli yakuniy xulosaga kelish hamda manfaatdor shaxslarning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda alohida ahamiyat kasb etadi. Apellyatsiya bosqichi fuqarolik protsessining mustaqil bosqichi sifatida birinchi instansiyada ko‘rilgan ishning natijalarini qayta baholash orqali sudlov sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Apellyatsiyaning eng asosiy jihati — bu sud qarorini tekshirish jarayonida ishning mohiyati bo‘yicha ikkinchi bor, ya’ni takroran ko‘rib chiqilishidir.

“Ishlarni ikki marta ko‘rib chiqishga yo‘l qo‘yish zarurati shu bilan izohlanadiki, sudyalar ishlarni hal etishda ixtiyoriy yoki beixtiyor xatolarga yo‘l qo‘yishlari mumkin, bunday xatolar esa tuzatilishini talab etadi” [1].

“Ishni mohiyati bo‘yicha shunday ikki marta ko‘rib chiqish natijasida uning faktik tomoni to‘la va to‘g‘ri aniqlangan deb hisoblanadi, chunki quyi instansiya sudining kamchiliklari va xatolari ishni apellyatsiya tartibida yangidan ko‘rish chog‘ida, tabiiy ravishda, aksariyat holatlarda bartaraf etiladi” [2].

Apellyatsiya tartibida tekshiruvdan keyin qonun chiqaruvchi taftish instansiya sudiga murojaat qilish huquqini beradi. Ushbu sud sud hujjatlarini ishni mohiyati bo‘yicha qayta ko‘rmasdan, faqat huquq normalarining to‘g‘ri qo‘llanilganligi nuqtai nazaridan tekshiradi.

Demak, faqat birinchi instansiya va apellyatsiya (yoki kassatsiya) instansiyasi sudlarigina ishni mohiyati bo‘yicha ko‘radi. Apellyatsiya sudining ishni ikkinchi bor mohiyati bo‘yicha ko‘rish faoliyati mazmuni esa qonunda belgilangan apellyatsiya turiga bog‘liq bo‘ladi.

So‘z ishni takroran, ya’ni ikkinchi bor ko‘rib chiqish haqida borayotgani uchun, shuni yodda tutish muhimki, ikkinchi instansiya sudining faoliyati o‘z-o‘zidan yuzaga kelmaydi. U faqat manfaatdor shaxs tomonidan apellyatsiya shikoyati yoki protesti berilgan taqdirdagina apellyatsiya instansiyasi sudi tomonidan amalga oshiriladi. O‘z navbatida, apellyatsiya shikoyati (protesti) esa birinchi instansiya sudining qarori mavjud bo‘lmagan holatda berilishi mumkin emas.

Adabiyotlar tahlili. A.X.Golmsten to‘g‘ri ta’kidlaganidek, yuqori (apellyatsiya) sudida protsessual huquqiy munosabatning vujudga kelishiga quyi sudning (birinchi instansiya sudining) noto‘g‘ri hal qiluv qarori sabab bo‘ladi, apellyatsiya sudida protsessual huquqiy munosabatning yuzaga kelish asosi esa apellyatsiya shikoyati yoki protestining berilishidir [3]. Yangi huquqiy munosabat birinchi instansiya sudida mavjud bo‘lgan protsessual huquqiy

munosabatdan o‘zining elementlari va mazmuniga ko‘ra farq qiladi. S.M.Mixaylovning “ishni takroran ko‘rish o‘z-o‘zidan mavjud emas, balki sud hujjatining to‘g‘riligini tekshirish uchun mavjud” degan fikrni ilgari suradi [4].

Avval hal etilgan ish apellyatsiya instansiyasi sudi tomonidan sud qarorining qonuniyligi va asosliligini tekshirish maqsadida ikkinchi marta ko‘rib chiqiladi.

Aynan shu takroran ko‘rish talabi apellyatsiya instansiyasi sudining ikki asosiysi belgisini belgilaydi:

sud qarorini tekshirish va ishni mohiyati bo‘yicha ko‘rib chiqish.

Shuningdek, fuqarolik protsessual huquqi nazariyasida to‘liq apellyatsiya va to‘liq bo‘lmagan (cheklangan yoki yuridik) apellyatsiya turlariga ajratib ko‘rsatiladi [5].

To‘liq apellyatsiya o‘z ildizlarini Rim imperiyasidan oladi. Sud qarorlarini shikoyat qilish vositasi sifatida apellyatsiya o‘zining yakuniy shakllanishi va mustahkamlanishiga imperator Yustinian hukmronligi davrida (527-565 yillar) erishgan. Aynan shu davrda apellyatsiya tartibida ish yuritish ishni takroran ko‘rib chiqish shakliga kirgan bo‘lib, bunda taraflarga qo‘shimcha dalillar taqdim etish va ularni bevosita sud majlisida tekshirishga yo‘l qo‘yilgan (judicium novum) (5-band).

To‘liq bo‘lmagan apellyatsiyaning kelib chiqishi esa M.Lorensning ta’kidlashicha, qadimgi german huquqi davriga taalluqlidir [6].

Bu ikki turdagi apellyatsiya yuzasidan chuqur tadqiqot o‘tkazish talab etiladi.

Qonuniy kuchga kirmagan birinchi instansiya sudlarining hal qiluv qarorlari, ajrimlari va qarorlari ustidan apellyatsiya tartibida shikoyat berish yoki protest keltirish huquqiga ega bo‘lgan subyektlar tomonidan shikoyat (protest) apellyatsiya instansiyasi sudi nomiga yoziladi. Lekin apellyatsiya shikoyati (protesti) hal qiluv qarori qabul qilgan sudga beriladi.

Apellyatsiya shikoyatini (protestini) qaysi sud nomiga yozish va berish masalasida olimlar o‘rtasida munozaralar mavjud bo‘lib, aksariyat protsessualist olimlar apellyatsiya shikoyatini apellyatsiya instansiyasi sudi nomiga yozib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri yuqori sudlarga yuborishni taklif qilsalar, boshqalari esa yuqori sudlar nomiga yozilsa-da, biroq ish ko‘rgan sud orqali yuborish kerakligi haqida fikr bildiradilar [7]. Huquqshunos olim E.Egamberdiev bunday qoida o‘rnatilganligining asosiy sababi, ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ma’lum ma’noda qulayliklar yaratib berish bilan birga, sudning qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori ustidan apellyatsiya tartibida shikoyat berish, protest keltirish uchun belgilangan muddat o‘tmasdan turib, uni hech kim birinchi instansiya sudidan talab qilib ololmasligidir deb ko‘rsatadi [8].

Tahlil va natijalar. Ko‘pgina xorijiy mamlakatlar fuqarolik protsessual kodeksida apellyatsiya shikoyati (protesti) bevosita qaror qabul qilgan birinchi instansiya sudi nomiga yoziladi. Jumladan, Rossiya Federatsiyasi FPK 321-moddasida apellyatsiya shikoyatlari, taqdimnomalar hal qiluv qarori qabul qilgan sud orqali apellyatsiya instansiyasiga berilishi nazarda tutilgan [9].

Apellyatsiya shikoyati (protest)ni berish huquqiga vakolatli bo‘lmagan shaxs tomonidan berilgan holatda birinchi instansiya sudi shikoyat (protest)ni FPKning 195-moddasi tartibida qaytarish haqida ajrim chiqaradi. Arizani qaytarish to‘g‘risidagi ajrim ustidan shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin.

Bunday sud amaliyotini Latviya, Belorussiya Respublikalari va Rossiya Federatsiya fuqarolik protsessual qonunchiligida kuzatish mumkin.

Qonuniy kuchga kirmagan birinchi instansiya sudlarining hal qiluv qarorlari, ajrimlari va qarorlarining qonuniy, adolatli va asoslantirilganligi tekshirish uchun berilgan apellyatsiya shikoyati (protesti) FPKning 388-moddasida nazarda tutilgan protsessual harakatlarni amalga oshirish uchun ham bevosita birinchi instansiya sudlari nomiga beriladi.

Sud amaliyotida ba'zi holatlarda taraflar shikoyatni apellyatsiya instansiyasiga yuborish holatlari ham uchraydi. Bunday holatlarda shikoyat tegishliligi bo'yicha hal qiluv qarori qabul qilgan birinchi instansiya sudiga yuboriladi. Birinchi instansiya sudi FPKning 388-moddasida belgilangan harakatlarni amalga oshirib, kelib tushgan shikoyat (protest) sanasini ko'rsatgan holda ro'yxatga oladi.

Qonun apellyatsiya shikoyati (protesti) sudga ishda ishtirok etuvchi shaxslarning soniga qarab ko'chirma nusxalari bilan birga taqdim etish tartibini belgilashidan maqsad, protsess ishtirokchilarini shikoyat (protest) mazmuni bilan xabardor bo'lishi, o'z manfaatlarini himoya qilishi uchun sharoit yaratishdan iborat. Bu talab elektron hujjat tarzida yuborilgan apellyatsiya shikoyati (protesti) nisbatan tatbiq etilmaydi.

Fuqarolik protsessual qonunchiligi talabiga ko'ra, apellyatsiya shikoyati (protesti) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning soniga mutanosib ravishda ko'chirma nusxalari bilan birga taqdim etish majburiyat hisoblanib, sud zarur deb hisoblagan holatlarda apellyatsiya shikoyati bergan shaxs yoki protest keltirgan prokuror zimmasiga apellyatsiya shikoyatiga yoxud protestga ilova qilingan yozma materiallarning ko'chirma nusxalarini ishda ishtirok etuvchi shaxslarning soniga qarab mutanosib ravishda taqdim etish majburiyatini yuklashi mumkin.

Qonunda apellyatsiya muddatini belgilashdan maqsad, ikkinchi instansiya sudida ishning tez ko'rilishini ta'minlash va ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ko'rilgan ish materiallari bilan tanishish hamda ish yuzasidan chiqarilgan qarorga rozi bo'lmaganida, shikoyat (protest) bildirishga imkoniyat berishdan iborat [10].

Birinchi instansiya sudlarining hal qiluv qarori ustidan apellyatsiya tartibida shikoyat berish yoki protest keltirish huquqiga ega subyektlar bir oy muddat ichida shikoyat (protest) berishlari yoki elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan elektron hujjat tarzida yuborilishi mumkin.

Hal qiluv qarori ustidan apellyatsiya shikoyati (protesti) berilganida, hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirmaydi. FPK 266-moddasida ko'rsatilgan darhol ijro etilishi lozim bo'lgan hal qiluv qarorlari ustidan apellyatsiya tartibida shikoyat berilgan taqdirda mazkur qarorlar ijrosi to'xtatilmaydi.

Qonun apellyatsiya shikoyati berishning umumiy muddatidan tashqari, maxsus apellyatsiya muddatlarini ham belgilaydi. Bunday muddatlar qatoriga soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko'rib chiqilgan ishlar bo'yicha hal qiluv qarori ustidan apellyatsiya shikoyati (protesti) hal qiluv qarori qabul qilinganidan keyin o'n kun ichida berilishi mumkin.

Birinchi instansiya sudlari hal qiluv qarori qabul qilishi bilan apellyatsiya shikoyati (protesti) keltirish huquqi paydo bo'lib, apellyatsiya muddati qonunchilik va O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining "Sudlar tomonidan fuqarolik ishlarini apellyatsiya, kassatsiya tartibida ko'rishning ayrim masalalari to'g'risida"gi Plenum qaroriga ko'ra, apellyatsiya shikoyati (protesti) berish muddati o'tishining boshlanishi, tegishlicha, sud hujjati qabul qilingan yoki qonuniy kuchga kirgan kundan hisoblanadi [11].

Qayd etish kerakki, birinchi instansiya sudlari tomonidan o'ta murakkab ishlar yuzasidan asoslantirilgan hal qiluv qarorini tayyorlash uchun besh kunga kechiktirilishi

fuqarolik protsessual qonunchiligida belgilangan. Bunday holatlarda ham apellyatsiya shikoyati (protesti) berish muddati hal qiluv qarori qabul qilingan kundan hisoblanadi. Chunki, hal qiluv qarorining xulosa qismi sud ishning muhokamasi tugallangan majlisning oʻzidayoq e'lon qilinadi.

Birinchi instansiya sudlari tomonidan FPK 262-moddasida koʻrsatilgan qoʻshimcha hal qiluv qarorlari qabul qilingan holatlarda ham sharhlanayotgan moddada belgilangan apellyatsiya muddatlariga rioya qilinishi kerak. Qoʻshimcha hal qiluv qarori ustidan apellyatsiya shikoyati (protesti) berish muddati ham asosiy hal qiluv qarori chiqarilgan kundan hisoblanadi. Yuqoridagi Plenum qaroriga asosan, qoʻshimcha hal qiluv qarori ustidan apellyatsiya shikoyati (protesti) berish muddati ham asosiy hal qiluv qarori qabul qilingan kundan hisoblanadi.

FPK 264-moddasiga muvofiq, birinchi instansiya sudining hal qiluv qarori ustidan apellyatsiya shikoyati (protesti) berilgan taqdirda, u ish apellyatsiya instansiyasi sudi tomonidan koʻrib chiqilganidan keyin qonuniy kuchga kiradi. Mazkur qoida apellyatsiya shikoyati (protesti) hal qiluv qarorining bir qismiga berilgan hollarda ham qoʻllaniladi.

Apellyatsiya shikoyati (protesti) belgilangan muddat oʻtgandan keyin berilganida apellyatsiya shikoyatini (protestini) bergan shaxsga qaytariladi. Biroq, qonun muddatni tiklash ehtimolini nazarda tutadi. Apellyatsiya shikoyati (protesti) berish muddatini tiklash haqida taraflar birinchi instansiya sudga iltimosnoma beriladi.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar qonunda belgilangan muddatni sud uzrli deb topgan sabablarga koʻra oʻtkazib yuborgan boʻlsa, sud tomonidan mazkur muddat FPK 155-moddasiga muvofiq tiklanadi hamda bu haqida ajrim chiqariladi.

Sud tomonidan uzrli deb topilishi mumkin boʻlgan sabablar jumlasiga ishda ishtirok etuvchi shaxslarning oʻz vaqtida shikoyat keltirish imkoniga ega boʻlmaganligini tasdiqlovchi holatlar, xususan, ularning bunga imkon bermaydigan darajada kasalligi, xizmat safariga ketganligi, hal qiluv qarorini oʻz aybiga bogʻliq boʻlmagan holatlarga koʻra kech olganligi, yaqin qarindoshining vafot etganligi kabi asosli sabablarni kiritish mumkin. Bunday holatlarning qatʼiy roʻyxati qonun bilan belgilanmagan boʻlib, sud tomonidan shikoyat berish uchun oʻtkazib yuborilgan muddatning uzrli ekanligi haqiqiy holatlardan kelib chiqib baholanadi [12].

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2024-yil 25-martdagi "Sudlar tomonidan fuqarolik ishlarini apellyatsiya, kassatsiya tartibida koʻrishning ayrim masalalari toʻgʻrisida" 9-sonli qarorida, jismoniy shaxsning kasalligi, uning oilaviy sharoiti (oila aʼzosining oʻlimi yoki ogʻir kasalligi), shuningdek, boshqa holatlar, agar ular qonunda belgilangan muddatda shikoyat berishni istisno etgan yoxud jiddiy ravishda qiyinlashtirgan boʻlsa, uzrli sabablar deb topilishi mumkin.

Apellyatsiya shikoyati (protesti) berish muddati tiklanganda, sud hal qiluv qarori ijrosini toʻxtatish masalasini hal qiladi.

Apellyatsiya shikoyati (protesti) berish muddatini uzrsiz sabablarga koʻra oʻtkazib yuborilganida birinchi instansiya sudi tomonidan oʻtkazib yuborilgan muddatni tiklashni rad etish haqida ajrim chiqariladi. Mazkur ajrim ustidan apellyatsiya tartibida xususiy shikoyat berilishi yoki prokuror xususiy protest keltirishi mumkin. Apellyatsiya instansiyasi shikoyatni (protestni) asosli deb topgan taqdirda, birinchi instansiya sudining ajrimini bekor qilib, oʻtkazib yuborilgan muddatni tiklaydi.

FPKning 385[1]-moddasida o‘tkazib yuborilgan muddat, agar iltimosnoma hal qiluv qarori qabul qilingan kundan e’tiboran uch oydan kechiktirmay berilgan va muddatni o‘tkazib yuborish sabablari uzrli deb topilgan bo‘lsa, apellyatsiya shikoyati (protesti) berayotgan shaxsning iltimosnomasiga ko‘ra apellyatsiya instansiyasi sudining sudyasi tomonidan tiklanishi mumkin. Apellyatsiya shikoyatini (protestini) berishning o‘tkazib yuborilgan muddatini tiklash haqida apellyatsiya shikoyatini (protestini) ish yuritishga qabul qilish to‘g‘risidagi ajrimda ko‘rsatiladi.

FPKning 386-moddasida apellyatsiya shikoyati yoki protestining shakliga qo‘yilgan talablar belgilangan bo‘lib, ko‘rsatilgan talablar juda muhim. Ushbu talablarga rioya qilmaslik shikoyatni harakatsiz qoldirishga olib keladi.

Apellyatsiya shikoyati yoki protest qaysi sud nomiga berilayotgani albatta ko‘rsatilishi kerak. Agar shikoyat beruvchi jismoniy shaxs bo‘lsa, uning familiyasi, ismi, otasining ismi, yashash joyi yoki joylashgan yeri, agar shikoyat beruvchi yuridik shaxs bo‘lsa, uning rekvizitlari to‘liq ko‘rsatilishi lozim. Prokuror tomonidan protest keltirilganida, uning pochta manzili ham ko‘rsatilishi kerak bo‘ladi. Shuningdek, shikoyat (protest)da ishning raqami, shikoyat qilinayotgan (protest keltirilayotgan) hal qiluv qarori, ajrim, qaror qabul qilingan sana va ushbu sud hujjatlarini chiqargan sud aniq ko‘rsatilishi shart.

Apellyatsiya shikoyati, protestning muhim qismi bu shikoyat bergan shaxsning yoki protest keltirgan prokurorning talablari, ya’ni sud qarorini asossiz yoki qonunga xilof deb hisoblash uchun asoslar keltiriladi. Bunday asoslar keltirilishida shunga e’tibor berish kerakki, shikoyat yoki protest faqatgina birinchi instansiya sudiga kiritilgan da’vo talabi doirasida bo‘lishi kerak. Apellyatsiya shikoyati yoki protestda dastlabki instansiyada ko‘rib chiqilmagan da’volar ko‘rsatilishi mumkin emas.

Apellyatsiya shikoyati yoki protestga qo‘yilgan protsessual talablardan shikoyat (protest) berayotgan shaxsning iltimosi hamda shikoyatga (protestga) ilova qilingan yozma materiallarning ro‘yxati bo‘lishi majburiy rekvizitlardan hisoblanadi.

Fuqarolik protsessual qonunchiligiga ko‘ra, har bir tarafga o‘zining talablari va e’tirozlariga asos qilib ko‘rsatgan holatlarni isbotlash majburiyati yuklatilganligidan kelib chiqib, apellyatsiya shikoyati bergan shaxs tomonidan shikoyatda keltirilgan vajlarini tasdiqlovchi dalillarni shikoyatga ilova qilish maqsadga muvofiqdir.

Apellyatsiya instansiyasi sudi har qanday dalillarni, ular birinchi instansiya sudi muhokamasida bo‘lganligidan yoki yangidan taqdim etilgan yoxud talab qilib olinganidan qat’i nazar, tekshirishga haqli.

Apellyatsiya instansiyasi sudi yangi taqdim qilingan dalillarni tekshirishni rad qilishni ajrimda asoslantirishi lozim.

Apellyatsiya instansiyasi sudi ishda ishtirok etuvchi shaxslarning ekspertiza o‘tkazish, dalillarni ta’minlash va talab qilib olish, guvohlarni so‘roq qilish haqidagi va boshqa iltimosnomalarini ular birinchi instansiya sudi tomonidan rad etilganligi sababligina, rad etishga haqli emas.

Dalillar birinchi instansiya sudi uchun belgilangan tartib bo‘yicha tekshiriladi [13].

Sudda vakillikning vakolatlarini rasmiylashtirish tartibi va shakllari FPKning 7-bobida belgilangan bo‘lib, vakilning sud hujjati ustidan apellyatsiya tartibida shikoyat qilish vakolati alohida xususiyatga ega. FPK 69-moddasi mazmuniga ko‘ra, vakilga sud hujjati ustidan shikoyat qilish vakolati unga berilgan ishonchnomada to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatilishi kerak.

Plenum qarorida ishda qatnashayotgan shaxs vakili, shu jumladan, advokat, sud hujjati ustidan apellyatsiya, kassatsiya tartibida shikoyat qilishga bunday huquq vakolat beruvchi tomonidan berilgan ishonchnomada maxsus ko‘rsatilgan holdagina haqli ekanligi ko‘rsatilgan [14].

FPK 68-moddasidan kelib chiqib, davlat boshqaruvi organlarining, mansabdor shaxslarning vakillari tegishli organ rahbarining yoki mansabdor shaxsning imzosi bilan beriladigan ishonchnoma bo‘yicha apellyatsiya instansiyasida harakat qiladi.

Tashkilot nomidan beriladigan ishonchnoma tashkilot rahbari tomonidan imzolanib, imzo tashkilotning muhri bilan tasdiqlanadi. Tashkilotlarning rahbarlari sudga o‘z xizmat lavozimlarini yoki vakolatlarini tasdiqlaydigan hujjatlarni taqdim etadi.

Shikoyat (protest) elektron shaklda berilgan taqdirda FPK 5-moddasi talablaridan kelib chiqib, manfaatdor shaxsning elektron imzosi tasdiqlanishi kerak.

Apellyatsiya protesti prokuror yoki uning o‘rinbosarlari tomonidan keltiriladi va imzolanadi. Prokuror o‘rinbosarlari sifatida tuman prokurori, viloyat prokurori va Bosh prokurorning o‘rinbosarlarini tushunish lozim.

Apellyatsiya shikoyati keltirilayotgan shaxslar tomonidan muayyan hujjatlar ilova qilinishi belgilangan. Apellyatsiya shikoyati berishning muhim shartlaridan biri davlat boji va pochta xarajatlari to‘langan bo‘lishi kerak. Sudlarning hal qiluv qarori ustidan apellyatsiya shikoyati berilganligi uchun qonunda belgilangan tartibda va miqdorda davlat boji undiriladi. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 6-yanvardagi “Davlat boji to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan sudlarning qarorlariga berilgan apellyatsiya shikoyatlaridan da’vo arizasi yoki boshqa arizalar, shikoyatlar berilganda to‘lanadigan stavkaning 50 foizi miqdorida to‘lanadi [15]. Davlat bojini to‘lashni kechiktirishga qonun hujjatlarida belgilangan hollarda yo‘l qo‘yiladi. Sud taraflarning mulkiy ahvoliga qarab, ulardan birining yoki ikkalasining davlat daromadiga undiriladigan sud xarajatlarini to‘lashni kechiktirishga yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lashga yo‘l qo‘yishi, shuningdek bu xarajatlarning miqdorini kamaytirishi mumkin.

Prokuror tomonidan protest keltirilganida protestga davlat boji va pochta xarajatlari to‘langanligi haqidagi hujjatlar ilova qilinmaydi. O‘zbekiston Respublikasi “Davlat boji to‘g‘risida”gi Qonunining 8-moddasi 25-bandiga asosan prokuratura organlari — davlatning, yuridik va jismoniy shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab qilingan da’volar hamda beriladigan arizalar yuzasidan davlat bojini to‘lashdan ozod qilingan [16].

FPKning 51-moddasida prokuror sud xarajatlaridan to‘lashdan ozod qilinganligi nazarda tutilgan. FPKning 127-moddasiga asosan sud xarajatlarini davlat boji va ishni ko‘rish bilan bog‘liq chiqimlar tashkil qiladi.

Prokuror, yuqori turuvchi prokuror va ularning o‘rinbosarlari prokurorning ishtirokida ko‘rilgan ish bo‘yicha hamda qonunda prokurorning ishtirok etishi nazarda tutilgan bo‘lib, biroq u sud muhokamasining vaqti va joyi to‘g‘risida tegishli tarzda xabardor qilinmasdan ko‘rilgan ishlar bo‘yicha sud hujjati ustidan apellyatsiya protesti keltirishga haqli.

Fuqarolik protsessual qonunchiligiga asosan prokuror ishtirokisiz ko‘rib chiqilgan ish bo‘yicha apellyatsiya protestiga FPK 383-moddasining birinchi qismida ko‘rsatilgan shaxslarning mazkur protestni keltirish uchun asos bo‘lib xizmat qilgan murojaatining ko‘chirma nusxasi ilova qilinadi.

Birinchi instansiya sudlariga apellyatsiya shikoyati (protest) bergan shaxslar tomonidan FPK 385, 385^1, 386, 387-moddalari talablariga rioya qilingan bo‘lishi shart.

Birinchi instansiya sudi FPK 194, 195-moddalari asosida qabul qilingan arizani qaytarish haqidagi yoki arizani qabul qilishni rad etish to‘g‘risidagi ajrim ustidan apellyatsiya shikoyati yoki protest keltirilganida, unga sud tomonidan qaytarilgan ariza va unga qo‘shib berilgan hujjatlar ham ilova qilinadi. Apellyatsiya instansiyasida ajrim bekor qilingan taqdirda, apellyatsiya shikoyati sudga dastlabki murojaat qilingan kunda berilgan deb hisoblanadi.

Apellyatsiya shikoyatini (protestini) berish paytida ilova qilinishi lozim bo‘lgan hujjatlarga oid talablarga rioya qilinmasligi, ya’ni shikoyat vakil tomonidan berilganda vakil huquqlarini tasdiqlovchi hujjatning ilova qilinmasligi, vakolatli prokuror yoki uning o‘rinbosari tomonidan imzolanmaganligi, apellyatsiya shikoyati nusxalarining ishda ishtirok etuvchi shaxslar soniga mutanosib ravishda berilmaganligi, apellyatsiya shikoyatiga ilova qilinishi lozim bo‘lgan hujjatlarning mavjud emasligi, shuningdek davlat boji to‘lovi amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hujjatning topshirilmaganligi birinchi instansiya sudining ajrimi bilan apellyatsiya shikoyati (protesti) harakatsiz qoldirishga asos bo‘ladi.

Sud FPK 385-387-moddalarining normalarida ko‘rsatilgan talablarni kengaytirilgan holda talqin qilishi mumkin emas.

Rossiya Federatsiya fuqarolik protsessual qonunchiligiga ko‘ra, apellyatsiya shikoyati yoki prokuror taqdimnomasi FPK 322-moddasi nazarda tutilgan talablarga javob bermasa hamda davlat boji to‘lanmagan bo‘lsa, besh kun muddat ichida sud kamchiliklarni bartaraf etish uchun real muddatlarni belgilab, ajrim chiqaradi [17]. Ushbu holatda ko‘rish mumkinki, ushbu protsessual talablar milliy qonunchilik bilan o‘xshash bo‘lib, faqatgina sud necha kun muddat ichida harakatsiz qoldirish haqida ajrim chiqarishi qonunchiligimizda sud ixtiyoriga havola qilingan. Sud amaliyotida bu muddat hal qiluv qarori ustidan shikoyat qilish (protest keltirish) uchun belgilangan muddat o‘tgan vaqtdan e’tiboran o‘n kun ichida ishni kelib tushgan shikoyat (protest) bilan birga apellyatsiya instansiyasi sudiga yuborishi kerakligi haqidagi talabdan kelib chiqib, birinchi instansiya sudlari tomonidan hal etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2024-yil 25-martdagi “Sudlar tomonidan fuqarolik ishlarini apellyatsiya, kassatsiya tartibida ko‘rishning ayrim masalalari to‘g‘risida” 9-sonli qarorida FPK 386-moddasi talablariga javob bermaydigan, shuningdek, FPK 387-moddasi talablari buzilgan holda berilgan shikoyat (protest) sudyaning ajrimi bilan harakatsiz qoldirilib, qaytariladi [18].

Sud tomonidan chiqarilgan ajrimda ko‘rsatilgan kamchiliklar belgilangan muddatda bartaraf etilsa, shikoyat (protest) dastlab sudga taqdim etilgan kunda berilgan hisoblanadi, aks holda, shikoyat (protest) berilmagan hisoblanadi. Mazkur ajrim apellyatsiya shikoyati (protesti) bergan shaxsga imzo qo‘ydirib topshiriladi yoki unga pochta orqali yoxud axborot tizimi orqali elektron hujjat tarzida yuborilishi ham mumkin.

Biroq, fuqarolik protsessual qonunchiligida sud tomonidan kamchiliklarni bartaraf etish uchun berilgan muddat davomida taraflar uzrli sabablar bilan ajrimda ko‘rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etishga ulgurmagan holatlarda taraflar ushbu muddatni uzaytirish haqida sudga iltimosnoma bilan murojaat qilish mexanizmi mavjud emas. Sud amaliyotida bunday holatlarda apellyatsiya shikoyati (protesti) qaytariladi. Manfaatdor shaxs yangidan sudga murojaat qilishi lozim bo‘ladi. Bu borada ayrim davlatlarning fuqarolik protsessual qonunchiligida sud kamchiliklarni bartaraf etish uchun berilgan muddat davomida ajrimda ko‘rsatilgan holatlarni uzrli sabablar bilan bartaraf etolmagan bo‘lsa, sud bu muddatni yana uzaytirishi mumkin.

Manfaatdor shaxs sudning apellyatsiya shikoyatini yoki protestini harakatsiz qoldirish haqidagi qaroriga rozi bo‘lmagan taqdirda, ya’ni unda ko‘rsatilgan vajlar bilan kelishilmaganda va shikoyatni qaytarish haqidagi ajrimi ustidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Fuqarolik ishlari bo‘yicha birinchi instansiya sudining ajrimlari to‘g‘risida” 2019-yil 25-oktyabrdagi 19-sonli qarorining 15-bandiga asosan arizani qaytarish haqidagi ajrimi ustidan apellyatsiya tartibida xususiy shikoyat yoki xususiy protest keltirilishi mumkin [19].

Xulosa sifatida aytish mumkinki, apellyatsiyaning asosiy mazmuni sud qarorini tekshirish bilan bir vaqtda ishni mohiyati bo‘yicha takroran ko‘rib chiqishdan iborat ekani, aynan shu jihat uni boshqa qayta ko‘rish shakllaridan ajratib turadi. Shuningdek, apellyatsiya munosabati birinchi instansiyadagi protsessual huquqiy munosabatning oddiy davomi emas, balki apellyatsiya shikoyati yoki protesti berilishi bilan vujudga keladigan mustaqil protsessual bosqich hisoblanadi.

To‘liq va to‘liq bo‘lmagan apellyatsiyaning mazmun-mohiyatiga ham alohida e’tibor qaratildi. To‘liq apellyatsiya ishni mohiyati bo‘yicha deyarli yangidan ko‘rishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, to‘liq bo‘lmagan apellyatsiya birinchi navbatda sud qarorining qonuniyligi va asosliligini tekshirishga qaratilgani ta’kidlandi. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy fuqarolik sud yurituvi vazifalariga eng muvofiq model sifatida to‘liq bo‘lmagan apellyatsiya samaraliroq ekani haqidagi nazariy yondashuvlar yoritildi.

Shu bilan birga, apellyatsiya shikoyati yoki protestini berish tartibi, uning kim tomonidan, qaysi sud nomiga va qaysi sud orqali berilishi, muddatlari, muddatni tiklash asoslari, shakli va mazmuniga qo‘yilgan talablar, ilovalar, davlat boji, prokuror protesti, vakil vakolati, elektron shaklda murojaat qilish kabi muhim protsessual masalalar batafsil tahlil qilindi. Apellyatsiya shikoyatini rasmiylashtirishda qonun talablariga rioya etmaslik uni harakatsiz qoldirish yoki qaytarishga olib kelishi, shu sababli mazkur bosqichda protsessual intizom va aniqlik hal qiluvchi ahamiyatga ega ekani asoslantirildi.

Apellyatsiya instituti birinchi instansiya sudi tomonidan yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan faktik va huquqiy xatolarni bartaraf etish, ish bo‘yicha qonuniy va asosli sud hujjati qabul qilinishiga erishish, shuningdek fuqarolar va tashkilotlarning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquq va manfaatlarini samarali himoya qilishning muhim kafolati sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur institutning to‘g‘ri qo‘llanilishi fuqarolik sud yurituvida qonuniylik, adolat va protsessual kafolatlarni ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Васьковский Е. В. Курс гражданского процесса. Т. 1. С. 182.
2. Малышев К. И. Курс гражданского судопроизводства. Т. 2. С. 77.
3. Гольмстен А. Х. Учебник русского гражданского судопроизводства. СПб., 1913.
4. Михайлов С. М. Оценка доказательств судом второй инстанции в гражданском судопроизводстве: автореф. дис. ... канд. юрид. наук. М., 2001. С. 19.
5. Борисова Е.А. Апелляция, кассация, надзор по гражданским делам: учеб. пособие / Е.А.Борисова. — 4-е изд., перераб. и доп. — М.:Норма : ИНФРА-М, 2024. с.186
6. Lorenz M. Über die volle Berufung im deutschen und beschränkte Berufung im österreichischen Zivilprozeßrecht // Zeitschrift für Deutschen Zivilprozeß. Bd. 65. 1952 (Heft 3). S. 170. Это журнал немецкого гражданского процесса (т. 65, 1952 г., часть 3).
7. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga sharhlar. -Toshkent: TDYuI nashryoti, 2010. – 780 bet.

8. Egamberdiev E. Sud hal qiluv qarorlari, ajrim va qarorlarining qonuniyligi va asoslantirilganligini tekshirish: O‘quv qo‘llanma. – O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi. – T., 2016. -24 bet.
9. “Гражданский процессуальный кодекс Российской Федерации” от 14.11.2002 N 138-ФЗ (ред. от 30.12.2021) (с изм. и доп., вступ. в силу с 01.02.2022)
10. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga sharhlar. -Toshkent: TDYuI nashryoti, 2010. – 777-778 bet.
11. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Sudlar tomonidan fuqarolik ishlarini apellyatsiya, kassatsiya tartibida ko‘rishning ayrim masalalari to‘g‘risida” 2024 yil 25 martdagi 9-sonli qarori / https://lex.uz/docs/6881055
12. Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudga murojaat qilish tartibi [Matn] / X.Yodgorov va boshqalar – Toshkent: Baktria press, 2016. -163 b.
13. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Sudlar tomonidan fuqarolik ishlarini apellyatsiya, kassatsiya tartibida ko‘rishning ayrim masalalari to‘g‘risida” 2024 yil 25 martdagi 9-sonli qarori / https://lex.uz/docs/6881055
14. O‘sha manba. 2-bandi.
15. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 07.01.2020 y., 03/20/600/0023-son, 14.03.2020 y., 03/20/610/0299-son.
16. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat boji to‘g‘risida”gi Qonuni, 07.01.2020 y. / “Xalq so‘zi” gazetasi, №4 (7506)
17. Гражданский процессуальный кодекс Российской Федерации от 14 ноября 2002 г. N 138-ФЗ, 323-статья. (ред. от 30.12.2021) (с изм. и доп., вступ. в силу с 01.02.2022)
18. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Sudlar tomonidan fuqarolik ishlarini apellyatsiya tartibida ko‘rish amaliyoti to‘g‘risida” 2021 yil 20 apreldagi 14-sonli qarori / www.sud.uz
19. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Fuqarolik ishlari bo‘yicha birinchi instansiya sudining ajrimlari to‘g‘risida” 2019 yil 25 oktabrdagi 19-sonli qarori / www.sud.uz

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 4 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 March 2026
Accepted: 01 April 2026
Published: 15 April 2026

Article / Original Paper

ISSUES OF IMPROVING THE SYSTEM OF EXEMPTION FROM LIABILITY AND REDUCTION OF FINES FOR REPORTING ANTI-COMPETITIVE AGREEMENTS IN UZBEKISTAN

Umarova Kholiskhon Nomoz kizi
Lecturer, Tashkent State University of Law
E-mail: xolisxonumarova2310@gmail.com

Abstract. This article analyzes the legal foundations of exemption from liability and reduction of fines for reporting anti-competitive agreements and concerted practices in Uzbekistan, as well as practical challenges in its application and possible directions for improvement based on foreign experience.

Keywords: competition, anti-competitive conduct, concerted practices, exemption from liability, reduction of fines, competent authority, cartel, leniency program.

O‘ZBEKISTONDA RAQOBATGA QARSHI KELISHUVLAR HAQIDA XABAR BERGANLIK UCHUN JAVOBGARLIKDAN OZOD QILISH VA JARIMALARNI KAMAYTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Umarova Xolisxon Nomoz qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekistonda raqobatga qarshi kelishuvlar va muvofiqlashtirilgan harakatlar haqida xabar berganlik uchun javobgarlikdan ozod qilish hamda jarimalarni kamaytirish institutining huquqiy asoslari, amaliy muammolari va xorijiy tajriba asosida uni takomillashtirish yo‘nalishlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: raqobat, raqobatga zid xatti-harakatlar, muvofiqlashtirilgan xatti-harakatlar, javobgarlikdan ozod qilish, jarimalarni kamaytirish, vakolatli organ, kartel, yumshatuvchi dastur.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N37

Kirish. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatni himoya qilish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Raqobatga qarshi kelishuvlar, xususan kartel bitimlari bozor mexanizmlarining buzilishiga, narxlarning sun’iy oshishiga va iste’molchilar manfaatlarining cheklanishiga olib keladi[1], [5]. Shu sababli, ushbu turdagi huquqbuzarliklarni aniqlash va ularga qarshi samarali kurashish mexanizmlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, kartel kelishuvlari yuqori darajada yashirin xarakterga ega bo‘lib, ularni aniqlash an’anaviy nazorat vositalari orqali murakkab hisoblanadi [4], [5]. Shu bois ko‘plab rivojlangan davlatlar tajribasida “leniency” – ya’ni huquqbuzarlik haqida birinchi bo‘lib xabar bergan subyektni javobgarlikdan ozod qilish yoki unga nisbatan sanksiyalarni yengillashtirish instituti keng qo‘llaniladi [4], [7], [11].

O‘zbekiston Respublikasida ham ushbu institutning asosiy elementlari joriy etilgan bo‘lsa-da, uning amaliy samaradorligi yetarli darajada ta’minlanmagan [1], [3]. Xususan, normativ-huquqiy asoslarning yetarli darajada aniqlashtirilmaganligi, protsessual

kafolatlarning cheklanganligi hamda tadbirkorlik subyektlarining ushbu mexanizmga nisbatan ishonch darajasining pastligi tizimning to‘liq ishlashiga to‘sqinlik qilmoqda [1], [3], [5].

Mazkur maqolaning maqsadi esa O‘zbekistonda raqobatga qarshi kelishuvlar va muvofiqlashtirilgan haqida xabar berganlik uchun javobgarlikdan ozod qilish va jarimalarni kamaytirish tizimini kompleks tahlil qilish hamda uni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mazkur tadqiqot davomida O‘zbekiston Respublikasining amaldagi raqobat qonunchiligi, xususan “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-iyuldagi PF-6019-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 1-maydagi 256-son qarori, shuningdek Yevropa Ittifoqi, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Chili va Yaponiya tajribasi o‘rganildi. Shu bilan birga, kartel huquqbuzarliklarini aniqlash va yumshatuvchi dasturlar samaradorligini baholashga doir xorijiy ilmiy adabiyotlar, xususan Spagnolo va Wills kabi olimlarning qarashlari tahlil qilindi.

Tadqiqotda qiyosiy-huquqiy tahlil, formal-yuridik tahlil, tizimli yondashuv, normativ-huquqiy hujjatlarni sharhlash, xorijiy amaliyot va ilmiy qarashlarni solishtirish metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodologik yondashuvlar orqali amaldagi milliy tizimning afzallik va kamchiliklari, shuningdek uni takomillashtirishning huquqiy yo‘nalishlari aniqlab olindi.

Muhokama va natijalar. Tovar va moliya bozorlarida raqobatga qarshi kelishuvlar hamda muvofiqlashtirilgan harakatlar eng yashirin va eng xavfli huquqbuzarliklardan biri hisoblanadi. Bunday harakatlar, avvalo, narxlarni sun’iy shakllantirishga, bozorlarni bo‘lib olishga, tenderlarda raqobatni cheklashga, shuningdek iste’molchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga zarar yetkazilishiga olib keladi [1], [5]. O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonunida raqobatni cheklovchi kelishuvlar va muvofiqlashtirilgan harakatlar taqiqlangan, ularni aniqlash tartibini belgilash esa Vazirlar Mahkamasi vakolatiga kiritilgan [1]. Shu bilan birga, Qonunning 20-moddasida kartel yoki muvofiqlashtirilgan harakat ishtirokchisi bo‘lgan va bu haqda vakolatli davlat organiga birinchi bo‘lib ixtiyoriy murojaat qilgan shaxs ma’muriy va moliyaviy javobgarlikdan ozod qilinishi nazarda tutilgan [1].

Mazkur qonuniy norma amalda ishlashi uchun uning protsessual mexanizmlari alohida tartibga solinishi zarur. Xususan, “birinchi bo‘lib murojaat qilgan shaxs” tushunchasini aniqlash, arizalarni navbat asosida qabul qilish, dalillarning yetarliligi va qo‘shimcha qiymatini baholash, marker mexanizmini qo‘llash, shuningdek keyingi murojaatchilar uchun jarimani kamaytirish tartibini belgilash talab etiladi [3], [4], [5]. Ushbu masalalar alohida metodik tartibda mustahkamlanmasa, 20-modda deklarativ norma bo‘lib qolishi, amaliyotda esa turlicha yondashuvlar shakllanishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-iyuldagi PF-6019-sonli “Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni 1-ilovasi — “2020–2024-yillarda tovar va moliya bozorlarida raqobatni rivojlantirish strategiyasi”da quyidagilar orqali til biriktirishlar va “kartel” kelishuvlarini bartaraf etish chora-tadbirlarini kuchaytirish va halol raqobatni rag‘batlantirish nazarda tutilgan:

ijtimoiy ahamiyatga ega va monopol turdagi tovarlar va xizmatlar narxlarini doimiy kuzatib borishning yangi mexanizmini ishlab chiqish;

til biriktirishlar va “kartel” kelishuvlariga qarshi kurashish bo‘yicha huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan bitimlar tuzish;

“kartel” kelishuvlarini aniqlash maqsadida “yumshatuvchi holatlar” dasturi samaradorligini oshirish yo‘li bilan jamoatchilik bilan hamkorlikni kuchaytirish;

raqobat to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun, shu jumladan “kartel” kelishuvlari va til biriktirishlarga nisbatan ta’sir choralari va jarima sanksiyalarini qayta ko‘rib chiqish [2].

Amaldagi huquqiy tartibga ko‘ra, “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonunning 19-moddasida raqobatga qarshi kelishuv va muvofiqlashtirilgan harakat tushunchasi, shuningdek ularning asosiy turlari belgilangan [1]. Jumladan, raqobatchilar o‘rtasida narxlarni sun’iy belgilash yoki saqlab turish, bozorni bo‘lib olish, ishlab chiqarish va realizatsiya hajmlarini cheklash, tenderlarda kelishilgan harakatlarni sodir etish kabi holatlar taqiqlanadi va o‘z-o‘zidan haqiqiy emas deb topiladi [1]. Qonunning 20-moddasi raqobatga qarshi kelishuv yoki muvofiqlashtirilgan harakat ishtirokchisi bo‘lgan, bu haqda vakolatli davlat organiga birinchi bo‘lib ixtiyoriy ravishda ariza bilan murojaat qilgan jismoniy shaxs, xo‘jalik yurituvchi subyekt yoki yuridik shaxslar birlashmasini ma’muriy va moliyaviy javobgarlikdan ozod etishni nazarda tutadi [1]. Biroq mazkur moddada ariza topshirish shakli, uni ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi, arizalarning navbatini aniqlash mezoni, dalillarning talab etiladigan hajmi, keyingi murojaatchilarga nisbatan qanday huquqiy oqibatlar qo‘llanishi, shuningdek kartel tashkilotchisi yoki majburlovchi subyektga nisbatan qanday cheklovlar qo‘llanilishi aniq belgilanmagan [1], [3], [5].

Bundan tashqari, Qonunning 35- va 37-moddalarida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik haqidagi ishlarni qo‘zg‘atish va ko‘rib chiqish vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshirilishi, bunday ishlarni qo‘zg‘atish uchun tekshiruvlar, o‘rganishlar hamda murojaatlar asos bo‘lishi, ishlarni qo‘zg‘atish va ko‘rib chiqish tartibi esa Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanishi nazarda tutilgan [1]. Qonunning 42-moddasiga ko‘ra esa raqobatga qarshi kelishuvlar va muvofiqlashtirilgan harakatlar uchun xo‘jalik yurituvchi subyektlarga, qoida tariqasida, tegishli bozorda realizatsiya qilingan tovar tushumining 5 foizi miqdorida moliyaviy sanksiya qo‘llaniladi [1].

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 1-maydagi 256-son “Tovar va moliya bozorlarida monopoliyaga qarshi tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorining 4-ilovasi “Raqobatga qarshi kelishuvlarni va muvofiqlashtirilgan harakatlarni aniqlash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 6-bobida raqobatga qarshi kelishuv va muvofiqlashtirilgan harakat bo‘yicha javobgarlikdan ozod etish tartibi berilgan bo‘lsa-da, u mazmunan “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonunning 20-moddasini aynan takrorlash bilan cheklanadi.

Shundan kelib chiqib, amaldagi holatda javobgarlikdan to‘liq ozod qilish instituti qonunda mavjud bo‘lsa-da, uning protsessual va tashkiliy asoslari to‘liq ishlab chiqilmagan. Bu esa amaliyotda quyidagi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin:

birinchidan, bir nechta ishtirokchilar bir vaqtning o‘zida murojaat qilgan vaziyatda ustuvorlikni aniqlash qiyinlashadi;

ikkinchidan, faqat birinchi xabar bergan ishtirokchigina javobgarlikdan ozod bo‘lganligi bois dalillarning ahamiyatiga emas, balki vaqt bo‘yicha birinchi xabar berganlik faktiga qaraladi;

uchinchidan, yangi va muhim dalil keltirmagan keyingi murojaatlarni baholash mezonlari yetishmaydi. Shu sababli Qonundagi umumiy normani aniq tartib-taomillar bilan to‘ldirish amaliy zarurat hisoblanadi.

Xalqaro amaliyotda bunday dastur kartellarni aniqlashning eng samarali vositalaridan biri sifatida qo‘llaniladi [4], [5]. Yevropa Komissiyasining kartel ishlari bo‘yicha dasturida korxona kartel haqida xabar berib va dalillar taqdim etib, to‘liq immunitet yoki jarimaning kamaytirilishiga erishishi mumkin [4]. Bunda faqat birinchi bo‘lib murojaat qilgan va Komissiyaga tekshiruv o‘tkazish yoki huquqbuzarlikni aniqlash imkonini beradigan dalillarni taqdim etgan korxona jarimadan to‘liq ozod qilinadi [4]. Keyingi murojaatchilar esa faqat Komissiya ixtiyoridagi dalillarga nisbatan sezilarli qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan dalillarni bergan taqdirdagina jarima kamaytirilishidan foydalanishi mumkin [4]. Yevropa Ittifoqida shuningdek marker mexanizmi ham mavjud bo‘lib, u ariza beruvchining navbatdagi o‘rnini ma’lum muddatga saqlab turadi [4].

Yevropa Ittifoqining axborotnomalariga ko‘ra, yashirin kartellarni aniqlash ko‘pincha ishtirokchi korxonalar bilan hamkorliksiz imkonsiz hisoblanadi [4]. Shu sababli, Komissiya bunday noqonuniy amaliyotlarda ishtirok etgan, biroq ularni fosh etishda hamkorlik qilgan subyektlarni rag‘batlantirishni jamoat manfaatiga mos deb hisoblaydi [4]. Kartellarni aniqlashda yoki huquqbuzarliklarni isbotlashda hal qiluvchi hissa qo‘shgan korxona muayyan shartlar asosida to‘liq jarimadan ozod qilinishi mumkin [4]. Komissiya kartel to‘g‘risida birinchi bo‘lib yetarli ma’lumot va dalillarni taqdim etgan xo‘jalik yurituvchi subyektni jarimadan to‘liq ozod qiladi [4]. Agar murojaat vaqtida Komissiyada kartelni aniqlash uchun yetarli dalillar mavjud bo‘lsa, bunday immunitet berilmaydi [4].

O‘zbekistonda mavjud amaliyotdan Yevropa Ittifoqining ajralib turuvchi jihatlaridan biri shundaki, immunitet shartlariga javob bermagan subyektlar ham kartel to‘g‘risida ma’lumot taqdim etish orqali jarimani kamaytirish huquqiga ega bo‘lishi mumkin. Jarimani kamaytirish uchun taqdim etilgan dalillar Komissiyada mavjud materiallarga nisbatan sezilarli qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lishi lozim. Jarimani kamaytirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi [4].

birinchi ariza beruvchi uchun 30–50% gacha;

ikkinchi ariza beruvchi uchun 20–30% gacha;

keyingi ariza beruvchilar uchun 20% gacha.

Spagnolo fikricha, yumshatuvchi dastur kartelni beqarorlashtiradi, chunki karteldan chiqib, organlarga xabar berish kartelda qolishdan ko‘ra foydaliroq bo‘lib qoladi. Shuni ham aytib o‘tish lozimki, olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, mazkur dastur joriy qilingandan keyin kartellar albatta zaiflashganini tasdiqlagan dalillar topilmagan. Biroq dastur organlarga qo‘shimcha ma’lumot yetkazib, jarimalarning asosliroq bo‘lishiga yordam bergan hamda ishni ko‘rib chiqish muddatini taxminan 1,5 yilga qisqartirgan. Shu bilan birga, nazariy jihatdan ular kartel ishtirokchilari o‘rtasida ishonchsizlikni kuchaytirib, kelishuvni ichidan beqarorlashtirishi mumkin.[6], [9].

Amerika Qo‘shma Shtatlarida Willsning ta’kidlashicha, yumshatish dasturi monopoliyaga qarshi kurash organlari bilan hamkorlik evaziga qoidabuzarliklar uchun jarimalardan immunitet berish yoki jarimalarni kamaytirish sifatida ta’riflanishi mumkin [9]. Amerika Qo‘shma Shtatlarida Adliya Vazirligi bunday dasturni kartellarni aniqlash uchun eng muhim tergov vositasi ekanligini ta’kidlaydi. Lotin Amerikasining bir qancha davlatlari,

jumladan Argentina, Braziliya, Chili, Meksika kabi davlatlarda ham ushbu amaliyot allaqachon joriy etilgan [7].

Qo‘shma Shtatlarda bunday dastur 1978-yilda paydo bo‘lgan. Biroq 1993-yildan keyingina Adliya Vazirligi o‘zining Korporativ yumshoqlik va Shaxsiy yumshoqlik siyosatini e’lon qilgan. AQShning yumshoqlik dasturi faqat qattiq kartellar (hardcore cartels)ga nisbatan amal qiladi. Mazkur dasturga muvofiq, ma’lum shartlar bajarilgan taqdirda, quyidagi subyektlar jinoiy javobgarlikdan to‘liq ozod qilinishi mumkin:

birinchi bo‘lib vakolatli organga murojaat qilgan kompaniya;

yoki birinchi bo‘lib vakolatli organga murojaat qilgan jismoniy shaxs.

Hozirgi kunda AQSh dasturi ikki asosiy mexanizmga asoslanadi [7].

A turdagi dastur — to‘liq jinoiy immunitet. Bu faqatgina huquqbuzarlik haqida vakolatli organ tekshiruv boshlashidan oldin xabar berilgan taqdirda qo‘llaniladi. Mazkur immunitet kompaniyaning yuqori lavozimli rahbarlari, direktorlar va xodimlariga ham tatbiq etiladi. Bunda ular tergov davomida vakolatli organ bilan to‘liq hamkorlik qilishi shart.

B turdagi dastur — tekshiruv boshlanganidan keyin murojaat qilgan shaxslar uchun to‘liq immunitet. Bu mexanizm huquqbuzarlikni isbotlash uchun hali yetarli dalillarga ega bo‘lmagan taqdirda qo‘llaniladi. Ushbu turdagi immunitet ham A turdagi mexanizmida nazarda tutilgan shaxslar doirasiga nisbatan tatbiq etiladi [7].

Kartel ishtirokchilaridan ikkinchi yoki undan keyinroq murojaat qilgan shaxslar ham javobgarlikdan to‘liq ozod etilmasa-da, agar ular huquqbuzarlikni tan olib, tergov bilan hamkorlik qilsa, ularga nisbatan qo‘llaniladigan sanksiya miqdori kamaytirilishi mumkin. Bunday qaror vakolatli organ tomonidan har bir ish bo‘yicha alohida baholash asosida qabul qilinadi.

Bundan tashqari, bunday kompaniyalar “Amnesty Plus” dasturidan ham foydalanish imkoniyatiga ega. Ushbu dasturga ko‘ra, agar kompaniya o‘zi ishtirok etgan boshqa raqobatga qarshi huquqbuzarlikni aniqlashda ham vakolatli organ bilan hamkorlik qilsa, unga nisbatan qo‘llaniladigan sanksiya qo‘shimcha ravishda kamaytirilishi mumkin [7].

Mazkur dasturdan foydalanishni istagan kompaniya yoki jismoniy shaxs kartelni tashkil qilgan yoki boshqa ishtirokchilarni kartelga majburan jalb qilgan bo‘lmasligi lozim.

Chili Milliy iqtisodiy prokuraturasi materiallariga ko‘ra, delación compensada dasturi kartelda ishtirok etgan shaxslar yoki kompaniyalarga, agar ular huquqbuzarlikni isbotlashga olib keluvchi dalillarni taqdim etsa, sanksiyalardan ozod bo‘lish yoki ularni kamaytirish imkonini beradi [10]. Chili tizimi huquqiy aniqlik berish va organ diskretsiyasini cheklash maqsadida maxsus leniency guideline bilan mustahkamlangan [10]. Mazkur yondashuv O‘zbekiston uchun protsessual metodika ishlab chiqishda muhim qiyosiy manba bo‘lishi mumkin [3], [10]. Noqonuniy xatti-harakatni uyushtirgan yoki boshqalarni unda ishtirok etishga majburlaganlar mazkur huquqdan chetlashtiriladi.

Ammo mazkur yengillikni qo‘llash uchun ham bir qancha talablar mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

yetarli dalillarni to‘plashga samarali hissa qo‘shadigan aniq, to‘g‘ri va tekshirilishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlarni taqdim etishi;

Milliy iqtisodiy prokuratura sudga shikoyat bergunga qadar yoxud ishni tugatish haqida qaror qabul qilmagunga qadar yengillik to‘g‘risidagi arizani oshkor qilmasligi;

arizani topshirgandan so‘ng noqonuniy xatti-harakatda ishtirok etishni darhol to‘xtatishi.

Umuman olib qaraganda, Chilida raqobat huquqi bo‘yicha mutaxassislarning xulosasiga, shuningdek 2020-yildagi Raqobat organlari tomonidan o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, yengillik siyosati kartelni to‘xtatishning eng kuchli vositasi sifatida e’tirof etiladi. [12]

Yaponiyada yengillik siyosati 2006-yildan beri qo‘llanib kelinadi, 2020-yildan esa qayta ko‘rib chiqildi. Yengillik tizimiga ko‘ra, Yaponiya Adolatli Savdo Komissiyasi (JFTC) qoidabuzarlik uchun ma’muriy jarima solinganda, jarima stavkasi korxonalarning JFTC tergovidagi hamkorlik darajasiga qarab kamayadi. Mazkur dastur bo‘yicha murojaat qilgan ariza beruvchilar JFTC tergovidagi hamkorlikka undashga qaratilgan va bozor tadqiqotlari davomida olingan ma’lumotlardan ma’lumot beruvchining shaxsiy roziligi asosida ishlarni aniqlash uchun foydalanadi.

Yaponiyaning Adolatli Savdo Komissiyasi (Japan Fair Trade Commission) rasmiy ma’lumotlariga ko‘ra, kartel va tender kelishuvlari bo‘yicha yumshatuvchi holatlar dasturi mavjud bo‘lib, kompaniyalar mustaqil ravishda huquqbuzarlikni xabar qilishi va materiallar taqdim etishi orqali qo‘shimcha to‘lovdan ozod bo‘lishi yoki uni kamaytirishga erishishi mumkin. Komissiya 2024-moliya yilida dastur doirasida 109 ta o‘zini o‘zi xabar qilish arizasini olganini bildirgan. Bu esa mazkur mexanizm kartellarni ochishda amaliy jihatdan ishlayotganini ko‘rsatadi.

Agar kompaniya jazolovchi choralarni qo‘llashdan ozod etilishi yoki jarimani kamaytirishni xohlasa, belgilangan tartibda hisobot taqdim etishdan tashqari quyidagi shartlarni ham bajarishi lozim:

ariza beruvchi hisobotni topshirishdan oldin JICA yoki tashqi ishlar vazirligidan firibgarlik amaliyoti yuzasidan hech qanday so‘rov olmagan, Adolatli Savdo Komissiyasi yoki boshqa davlat organlari tomonidan jazolanmagan, shuningdek hibsga olinmagan yoki jinoiy javobgarlikka tortilmagan bo‘lishi kerak;

ariza beruvchi hisobot topshirilgandan keyin hech qanday firibgarlik amaliyotini sodir etmasligi, shuningdek xabar qilingan holatlardan tashqari boshqa firibgarlik amaliyotlaridan xabardor emasligi va kelgusida hech qanday firibgarlik amaliyotlarida ishtirok etmasligi haqida deklaratsiya taqdim etishi kerak;

ariza beruvchi firibgarlik amaliyoti sodir etilgan loyiha bo‘yicha tender jarayonidan chiqishi kerak (agar shartnoma hali imzolanmagan bo‘lsa);

hisobot topshirilgan kundan boshlab uch hafta ichida ariza beruvchi firibgarlik amaliyotlarining takrorlanishining oldini olish bo‘yicha tegishli choralarni ishlab chiqishi hamda choralarni qo‘llashdan ozod etish yoki ularni kamaytirish qaroridan keyin ushbu choralar ijrosi holati yuzasidan hisobot taqdim etishini ko‘rsatuvchi yozma deklaratsiyani topshirishi kerak;

choralardan ozod etish yoki ularni kamaytirish qo‘llanilgandan so‘ng kompaniya firibgarlik amaliyotlarining takrorlanishining oldini olish bo‘yicha ko‘rgan choralarining amalga oshirilish holati haqida uch yil davomida kamida yiliga bir marta JICAga hisobot taqdim etishi shart. Agar kompaniya uzrli sabablarsiz bunday hisobotni taqdim etmasa, choralarni qo‘llashdan ozod etish yoki ularni kamaytirish bekor qilinadi [11].

Ixtiyoriy ravishda xabar berish masalasiga kelsak, ariza beruvchi JICA loyihalari doirasida o‘ziga ma’lum bo‘lgan barcha firibgarlik amaliyotlari haqida xabar berishi shart.

Shuningdek, u xabar qilingan holatlardan tashqari boshqa firibgarlik amaliyotlaridan xabardor emasligini va kelgusida hech qanday firibgarlik amaliyotlarida ishtirok etmasligini tasdiqlashi kerak. Shu sababli, agar choralarni qo‘llashdan ozod etish yoki ularni kamaytirish berilganidan keyin muayyan vaqt ichida ilgari xabar qilinmagan firibgarlik amaliyotlari aniqlansa yoki ariza beruvchi yangi firibgarlik amaliyotlarini sodir etsa, qoida tariqasida, u immunitet olish huquqidan mahrum bo‘ladi. Bundan tashqari, ariza beruvchining firibgarlik amaliyotlarini takroran sodir etgani inobatga olinib, yangi firibgarlik amaliyotlari xabar beruvchining murojaati va shunga o‘xshash holatlar natijasida aniqlangan bo‘lmasa, unga nisbatan yanada og‘irroq jazolar qo‘llanishi mumkin [11].

Xulosa. Yuqoridagilarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 1-maydagi 256-son “Tovar va moliya bozorlarida monopoliyaga qarshi tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorining 4-ilovasiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish hamda unda raqobatga qarshi kelishuvlar va muvofiqlashtirilgan harakatlar to‘g‘risida xabar berganlik uchun javobgarlikdan ozod qilish yoki jarimani kamaytirish tartibini belgilovchi normalarni nazarda tutish taklif etiladi.

Mazkur qo‘shimchalarda quyidagi asosiy mexanizmlarni belgilash maqsadga muvofiq hisoblanadi:

birinchidan, raqobatga qarshi kelishuv yoki muvofiqlashtirilgan harakatlar to‘g‘risida vakolatli davlat organiga birinchi bo‘lib ixtiyoriy ravishda murojaat qilgan hamda huquqbuzarlikni aniqlash uchun yetarli dalillarni taqdim etgan xo‘jalik yurituvchi subyektni ma’muriy va moliyaviy javobgarlikdan to‘liq ozod qilish;

ikkinchidan, vakolatli organga keyingi bo‘lib murojaat qilgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan faqat jarimani kamaytirish mexanizmini qo‘llash hamda buni taqdim etilgan dalillarning huquqbuzarlikni aniqlashdagi yangi va muhim ahamiyatga egaligi bilan asoslash;

uchinchidan, arizalarni navbat asosida qabul qilish mexanizmini joriy etish, ya’ni ariza beruvchi subyektning ustuvorlik tartibidagi o‘rnini qayd etish va dalillarni taqdim etish uchun zarur muddat belgilash;

to‘rtinchidan, raqobatga qarshi kelishuvni tashkil etgan yoki boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlarni bunday kelishuvga majburan jalb qilgan subyektlarga nisbatan javobgarlikdan to‘liq ozod qilish choralarini qo‘llamaslik;

beshinchidan, arizalarni qabul qilish, ro‘yxatdan o‘tkazish, ko‘rib chiqish, dalillarni baholash, shuningdek vakolatli organ bilan hamkorlik qilish majburiyatlari hamda qaror qabul qilish tartibini aniq belgilash;

oltinchidan, mazkur tartib doirasida taqdim etilgan ma’lumotlarning maxfiyligini ta’minlash hamda tijorat siri va boshqa qonun bilan qo‘riqlanadigan ma’lumotlarni himoya qilish mexanizmlarini mustahkamlash.

Mazkur qaror loyihasining qabul qilinishi O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonunining 19-, 20-, 35-, 37- va 42-moddalarini amaliy jihatdan to‘liq ishlashini ta’minlashga, raqobatga qarshi kelishuvlarni aniqlash samaradorligini oshirishga, tadbirkorlik subyektlari uchun aniq va samarali huquqiy tartibni shakllantirishga hamda tovar va moliya bozorlarida halol raqobat muhitini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ-850, 03.07.2023. https://lex.uz/docs/-6518381
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6019-son Farmoni, 06.07.2020. https://lex.uz/ru/docs/-4887654
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Tovar va moliya bozorlarida monopoliyaga qarshi tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 256-son qarori, 01.05.2024. https://lex.uz/ru/docs/-6907023
4. European Commission. Commission Notice on Immunity from fines and reduction of fines in cartel cases, OJ C 298, 08.12.2006. https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=oj:JOC_2006_298_R_0017_01
5. Whish, R., Bailey, D. *Competition Law*. 11th ed. Oxford University Press, 2021. https://www.researchgate.net/publication/273736895_Competition_Law_by_R_Whish_and_D_Bailey_Oxford_Oxford_University_Press_2012_7th_edition_1015_pp_3699_ISBN_978-0-19-958655-4
6. Spagnolo, G. *Leniency and Whistleblowers in Antitrust*. https://www.researchgate.net/publication/5009832_Leniency_and_Whistleblowers_in_Antitrust
7. U.S. Department of Justice, Antitrust Division. *Leniency Policy*; *Antitrust Division Leniency Policy and Procedures*. https://www.justice.gov/atr/page/file/1490246/dl?inline
8. U.S. Department of Justice, Antitrust Division. *Leniency Policy for Individuals*. https://www.justice.gov/atr/leniency-policy
9. Wills, W.P.J. *The Use of Leniency in EU Cartel Enforcement*. https://www.researchgate.net/publication/308984258_The_Use_of_Leniency_in_EU_Cartel_Enforcement_An_Assessment_After_Twenty_Years
10. Fiscalía Nacional Económica (Chile). *Leniency Guideline / Internal Guidelines on Leniency in Cartel Cases*. https://www.fne.gob.cl/wp-content/uploads/2017/04/Guidelines_Leniency_Cartel_Cases.pdf
11. Japan Fair Trade Commission. *Annual Report of the JFTC FY2024*; leniency program materials. https://www.jftc.go.jp/file/AR2024-2025_1.pdf
12. Leniency program. https://centrocompetencia.com/en/leniency-programs/

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 4 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 March 2026
Accepted: 01 April 2026
Published: 15 April 2026

Article / Original Paper

FROM SECULARISM TO POST-SECULARITY: MODELS OF INTERACTION BETWEEN THE RELIGIOUS AND THE SECULAR IN MODERN SOCIETY

Aminova Nargiza
Senior Lecturer, Department of Political Science, (PhD)
University of World Economy and Diplomacy (UWED)

Abstract. The article examines the intellectual transition from classical secularism of the modern era to post-secular forms of religious–secular interaction in the 21st century. Drawing on the works of C. Taylor, H. Cox, B. Anderson, J. Habermas, H. de Vries and J. Casanova, it analyzes key concepts describing the transformation of religion under modernization, globalization and cultural pluralism. A comparative analysis is offered of national models of secularism — French laïcité, the Anglo-Saxon model, and the Soviet tradition of state atheism. The study explores the formation of the post-secular condition, characterized by the return of religion to the public sphere, the strengthening of its social role and the emergence of hybrid institutional regimes.

It is argued that post-secularity does not replace the achievements of modernity but complements them with new forms of dialogue, cooperation and normative synthesis. The findings are relevant for understanding contemporary religion–state relations and for analyzing societies in search of balanced models of secularism.

Keywords: secularization; post-secularity; laïcité; Anglo-Saxon model; de-privatization of religion; Habermas; Taylor; religion and the public sphere.

ОТ СЕКУЛЯРИЗМА К ПОСТСЕКУЛЯРНОСТИ: МОДЕЛИ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ РЕЛИГИОЗНОГО И СВЕТСКОГО В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ

Аминова Наргиза
Старший преподаватель (PhD)
кафедры Политология УМЭД
E-mail: Asiya2653785@gmail.com

Аннотация. Статья посвящена анализу интеллектуальной эволюции от классического секуляризма модерна к постсекулярным формам религиозно-светского взаимодействия в XXI веке. На основе работ Ч. Тейлора, Х. Кокса, Б. Андерсона, Ю. Хабермаса, Х. де Вриса и Х. Касановы рассматриваются ключевые концепты, описывающие трансформации религии в условиях модернизации, глобализации и культурного плюрализма. Проводится сравнительный анализ национальных моделей секулярности — французского лаицизма, англосаксонской модели и советского государственного атеизма, а также обсуждается формирование постсекулярного состояния, характеризуемого возвращением религии в публичную сферу, усилением ее социальной роли и возникновением гибридных режимов взаимодействия религиозного и светского.

В работе обосновывается, что постсекулярность не отменяет достижения модерна, но дополняет их новыми формами диалога, кооперации и нормативного синтеза. Полученные выводы важны для понимания религиозно-государственных отношений в современном мире и для анализа социальных процессов в странах, находящихся в поиске сбалансированной модели светскости.

Ключевые слова: секуляризация, постсекулярность, лаицизм, англосаксонская модель, де-приватизация религии, Хабермас, Тейлор, религия и государство, публичная сфера.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N38

Введение. Секуляризм, как ключевая идеологическая и институциональная опора модерного общества, долгое время воспринимался как универсальный и необратимый процесс вытеснения религии из публичной сферы. Однако начиная со второй половины XX века нарастают признаки того, что классическая теория секуляризации не объясняет сложность современных трансформаций религиозности. Религия не исчезает — она меняет формы, возвращается в политическое пространство, участвует в формировании идентичностей и становится частью глобальных культурных процессов. Эти изменения сформировали интеллектуальную рамку постсекулярности, предполагающую сосуществование и диалог религиозного и секулярного, а не их взаимное исключение.

Цель статьи — раскрыть историческую и теоретическую эволюцию от секуляризма к постсекулярности и проанализировать современные модели религиозно-светского взаимодействия. Материал опирается на исходный текст, дополненный актуальными научными дебатами и аналитическими интерпретациями.

Методологическая основа работы включает теоретический анализ классических и современных подходов к секуляризации и постсекулярности с опорой на труды Ч. Тейлора, Х. Кокса, Б. Андерсона, Ю. Хабермаса, Х. де Вриса и Х. Касановы. Особое внимание уделяется эволюции понятий «секуляризация», «постсекулярность» и «де-приватизация религии», а также их практическому применению в различных национальных контекстах [1]. Дополнительно используются сравнительный, историко-документальный и контент-анализ. Сравнительный подход позволяет сопоставить французскую, англосаксонскую и советскую модели секулярности с точки зрения институциональных, культурных и правовых особенностей. Историко-документальный анализ обращается к нормативным актам, регулирующим религиозную сферу (Закон 1905 года во Франции, Первая поправка к Конституции США, советское законодательство и идеологические документы). Контент-анализ научной литературы и эмпирических исследований помог выявить тенденции трансформации религиозных институтов и религиозной активности в XX–XXI веках. Совокупность этих методов позволил зафиксировать ключевые тренды секуляризации и постсекулярности и описать новые формы взаимодействия религиозного и светского в современном обществе.

Обсуждение. ***Классическая модель секуляризма*** сформировалась в эпоху модернизации и Просвещения как концепция разделения религии и государства. Предполагалось, что развитие науки и рационального мышления неизбежно ведёт к ослаблению влияния религии на общественную, политическую и культурную жизнь. Доминировавшая в XIX–XX веках теория секуляризации исходила из того, что модернизация и рационализация приводят к постепенному и необратимому упадку религии. Со второй половины XX века этот линейный взгляд начал подвергаться критике. Исследователи, среди которых Чарльз Тейлор, Харви Кокс и Бенедикт Андерсон, показали, что секуляризация представляет собой не просто утрату веры, а глубокую культурную трансформацию, меняющую способы самопонимания человека, его представления о смысле жизни и характер общественных институтов [2].

Так, канадский философ и политический мыслитель Чарльз Тейлор интерпретирует секуляризацию как изменение «условий веры», а не как простое уменьшение количества верующих. В книге «Секулярный век» (A Secular Age) он описывает переход западных обществ от эпохи, в которой религиозное мировоззрение было фактически безальтернативным, к ситуации, где вера и неверие становятся равноправными и конкурирующими опциями [3]. Тейлор критикует «теорию вычитания», согласно которой научное объяснение мира автоматически вытесняет религию, и показывает, что секуляризация связана с формированием особого типа «исключительного гуманизма», предполагающего возможность жить «полноценной» жизнью без обращения к трансцендентному. В этом контексте религия перестаёт быть само собой разумеющейся нормой, но сохраняется как осознанный и рефлексивный выбор индивида.

Харви Кокс, американский теолог, предлагает богословское переосмысление секуляризации. В книге «Мирской град» (1965) он трактует её не как упадок религии, а как процесс освобождения человека и мира от сакрализации политической власти и природы [4]. Согласно Коксу, библейский монотеизм разрушил представление о природе как о мистическом пространстве и превратил её в сферу человеческой ответственности, а пророческая традиция подорвала легитимность абсолютной политической власти и идолопоклонства. В этом смысле секуляризация выступает следствием христианства, а не его антагонистом. Церковь, по мысли Кокса, должна научиться действовать в секулярном мире на равных с другими общественными акторами, участвуя в политике и социальной жизни без претензий на монополию.

Американский политолог и историк Б.Андерсон интерпретирует секуляризацию через призму формирования национализма. В работе «Воображаемые сообщества» он показывает, как на фоне упадка религиозных и династических легитимаций нация становится новой формой «сакрального сообщества», предлагая мифы общего прошлого, символику преданности и коллективную идентичность [5]. Религиозные функции частично переносятся на национальное государство, а секуляризм порождает новую идеологию с элементами сакрализации. Тем самым секуляризация не столько уничтожает религию, сколько перераспределяет сакральное между новыми формами социальной и политической идентичности.

Особое значение для понимания секулярности имеют национальные модели, среди которых выделяются французский лаицизм, англосаксонская модель и советский вариант «государственного атеизма».

Французский лаицизм сложился на основе Закона 1905 года о разделении церкви и государства, юридически закрепившего свободу совести, и запрет на официальное признание или финансирование религий [6]. Его ядро составляют три принципа: свобода совести, равенство граждан перед законом и строгая государственная нейтральность в религиозных вопросах. Государство не должно демонстрировать приверженность какой-либо конфессии, а религиозные практики существенно ограничены в государственных учреждениях, прежде всего в системе образования. Запрет ношения «выразительных религиозных знаков» в школах (закон 2004 года) и ограничения на определённые формы религиозной одежды иллюстрируют стремление предотвратить доминирование любой религиозной группы. При этом лаицизм не

является разновидностью государственной атеистической доктрины: его задача — не подавление веры, а правовое обеспечение нейтрального публичного пространства, в котором индивидуальные религиозные и нерелигиозные практики защищены, но не навязываются другим.

Англосаксонская модель, характерная для США, Великобритании, Канады и Австралии, сочетает институциональное разделение церкви и государства с высокой степенью свободы религиозного выражения в публичной сфере [7]. Её можно кратко охарактеризовать формулой institutional separation but public accommodation: государство не устанавливает официальной религии, не субсидирует религиозные организации и не вмешивается во внутреннюю жизнь конфессий, но одновременно гарантирует свободу вероисповедания и выражения религиозных убеждений. Первая поправка к Конституции США (1791) закрепляет запрет на учреждение государственной религии и защиту свободы религиозной практики, что создаёт правовую основу для широкого религиозного плюрализма. В отличие от французского лаицизма, религиозные символы и риторика активно присутствуют в публичном пространстве, включая политику и медиа. Тем самым англосаксонская модель демонстрирует возможность секулярности, которая не вытесняет религию, а фиксирует для неё безопасные и институционально гарантированные рамки, способствующие социальной интеграции и признанию многообразия.

Советская модель секулярности представляла собой радикальный вариант государственного атеизма, ориентированного на максимальное вытеснение религии из общественной жизни [8]. В отличие от французского или англосаксонского вариантов, где ведущими принципами выступают нейтральность государства или защита свободы совести, советский подход исходил из тезиса о религии как идеологическом противнике социалистического проекта. Государство стремилось разрушить институциональные основы религии и заменить религиозные формы солидарности коммунистической идеологией. Использовались три основные группы инструментов: репрессии против религиозных деятелей и организаций, жёсткий административный контроль за религиозной деятельностью и масштабная атеистическая пропаганда, формировавшая образ атеизма как нормативного мировоззрения. В результате религия была вытеснена преимущественно в частную сферу, формально сохраняя право на существование, но практически лишаясь влияния на публичное пространство. Долгосрочными последствиями стали низкий уровень религиозной грамотности, разрыв институциональной преемственности и устойчивое недоверие к религиозным организациям. Советский опыт показал, что принудительная секуляризация может временно уменьшить общественное влияние религии, но не способна окончательно устранить её из культурной памяти и личного опыта.

Сравнительный анализ моделей секулярности нашел свое отражение в нижеследующей таблице.

Сравнительные модели секулярности

Параметры сравнения	Французский лаицизм	Англосаксонская модель	Советская модель (государственный атеизм)
Историческая основа	Закон 1905 г. о разделении церкви и государства; длительный конфликт между республиканской властью и католической церковью.	Первая поправка к Конституции США (1791); традиция религиозного плюрализма и уклон от вмешательства государства.	Октябрьская революция; марксистско-ленинская идеология; попытка создать общество без религии.
Ключевой принцип	Строгая нейтральность государства в религиозных вопросах и недопущение религиозной символики в государственных учреждениях.	Институциональное разделение, но максимальная свобода публичного религиозного выражения.	Искоренение религии как «пережитка»; формирование обязательного атеизма как нормы.
Степень свободы религии	Высокая в частной сфере, ограниченная в публичных государственных пространствах (школы, госслужба).	Очень высокая как в частной, так и в публичной сфере; религия активно присутствует в политике, медиа, гражданском обществе.	Формальная свобода декларировалась, но фактически религия жестко ограничивалась; репрессии, контроль, пропаганда атеизма.
Публичное присутствие религии	Минимальное; религиозные символы ограничены.	Максимально допустимое; религиозные символы, риторика и организации свободно действуют.	Почти отсутствует; религия вытеснена в частную сферу.
Отношение государства к конфессиям	Государство не признаёт и не финансирует религии, запрещено любое особое покровительство.	Государство не устанавливает официальную религию, но обеспечивает равные условия для всех конфессий.	Государство рассматривает религию как идеологическую угрозу; контроль и подавление.
Социальная функция религии	Индивидуальная, приватная; ограниченное влияние на публичный дискурс.	Значимая социальная, культурная и политическая роль; участие в общественных дебатах.	Сильно подавлена; заменена светской идеологией (атеизм, коммунизм).
Цель секулярности	Создание нейтрального публичного пространства и защита равенства граждан.	Защита свободы совести и плюрализма; включение религии в демократическую публичную сферу.	Создание атеистического общества и устранение религии как института.
Инструменты реализации	Ограничения в сфере образования; запреты на религиозные символы; правовая нейтральность.	Юридические гарантии свободы; минимальное вмешательство государства; поддержка плюрализма.	Репрессии, административный контроль, атеистическая пропаганда; разрушение религиозных институтов.
Долгосрочные последствия	Стабильная светская модель, но высокий уровень общественных дебатов о религиозной идентичности мигрантов.	Широкий религиозный рынок, активная политизация религии.	Разрыв религиозной традиции, низкая религиозная грамотность; быстрый религиозный ренессанс после 1991 г.
Современная актуальность	Используется как строгий образец светскости в ряде стран ЕС.	Служит моделью либеральной светскости, учитывающей религиозный плюрализм.	Не воспроизводится; рассматривается как пример провала принудительной секуляризации.

Сравнение французской, англосаксонской и советской моделей позволяет заключить, что секуляризм не является единым универсальным принципом и всегда укоренён в конкретном историческом и политическом контексте. В ряде постсоветских стран, включая Узбекистан, складывается умеренный, институционально ориентированный вариант секулярности, при котором государство юридически закрепляет светский характер политической системы, но признаёт религию важной частью культурной идентичности, стремясь сочетать идею светскости с задачами социальной стабильности и воспитания граждан.

Понятие постсекулярности описывает ситуацию, в которой прогнозы классической теории секуляризации о неизбежном упадке религии не сбываются. Несмотря на процессы модернизации и рационализации, религиозные практики и организации продолжают играть заметную роль в политической, культурной и социальной жизни.

Постсекулярность фиксирует переход к обществу, где религия и секулярное знание сосуществуют и вступают в сложные формы взаимодействия. Среди ключевых тенденций можно выделить возвращение религии в публичную сферу, усиление духовного плюрализма и появление гибридных форм сочетания рационального и сакрального. Религиозные организации становятся важными участниками общественных дискуссий, социальной и благотворительной активности, медиапространства; при этом растёт число новых религиозных движений, индивидуализированных и смешанных практик, выходящих за рамки традиционных конфессиональных форм. Люди конструируют мировоззренческие системы, в которых научное мышление не отменяет религиозных или духовных ориентиров, а дополняет их там, где требуется ответ на вопросы смысла, моральной ответственности и общего блага.

В постсекулярном дискурсе особое место занимают интерпретации Юргена Хабермаса, Хента де Вриса и Хосе Касановы [9].

Так, Ю. Хабермас рассматривает религию как важный ресурс моральной мотивации и партнёра демократической публичной сферы. По его мнению, универсальные ценности — права человека, достоинство личности, идеи солидарности — формировались, в том числе, внутри религиозных традиций, и их секулярные версии сохраняют следы этого происхождения. Рационального дискурса государства и гражданского общества недостаточно для устойчивой мотивации нравственного поведения; религия способна укреплять чувство ответственности и ориентировать граждан на общее благо, оставаясь при этом одним из равноправных участников публичной коммуникации, а не претендуя на доминирование [10].

Хент де Врис предлагает концепцию «нормальной возвращаемости» религии. Он подчёркивает, что религиозные практики не исчезают в условиях модернизации, а адаптируются к новым социальным условиям как устойчивый элемент человеческого опыта. Возвращение религии в публичное пространство не означает реставрации прежних форм господства, а указывает на способность духовных ориентиров встраиваться в плюралистическое культурное поле, сосуществуя с научным и рациональным знанием [11].

Хосе Касанова вводит понятие де-приватизации религии, обозначающее её выход за пределы сугубо частной сферы и превращение в активного участника публичных процессов. Религиозные организации и верующие выступают в роли акторов, влияющих на формирование общественных норм, политических решений и ценностных дебатов, не добиваясь при этом теократического контроля над государством. В качестве иллюстраций Касанова приводит роль католицизма в общественных трансформациях

Польши и Латинской Америки, а также деятельность транснациональных религиозных сетей [12].

Интерпретации Хабермаса, де Вриса и Касановы демонстрируют, что в постсекулярном обществе религия не исчезает, а преобразует свои формы присутствия, закрепляя за собой по меньшей мере три функции: укрепление моральных ориентиров и демократических ценностей; адаптацию к культурному многообразию и участие в публичной жизни; расширение пространства диалога и социальных взаимодействий.

На этом фоне формируются ***модели взаимодействия религиозного и светского,*** отражающие различные способы интеграции веры в публичную жизнь при сохранении плюрализма.

Так, к примеру, *диалоговая модель* предполагает равноправие религиозных и секулярных позиций и строится на межмировоззренческом диалоге, в котором ни одна из сторон не обладает монополией на истину, а религиозные аргументы рассматриваются как легитимный ресурс общественной дискуссии и формирования общих моральных ориентиров. *Регулятивная* - акцентирует роль государства, обеспечивающего равные условия для разных конфессий, задающего рамки публичного присутствия религии и предотвращающего её чрезмерную политизацию; она позволяет сохранять светский характер политической системы при одновременной защите свободы совести. *Интегративная модель* рассматривает религию как фактор социальной сплочённости и культурной идентичности, допускающий включение религиозных ценностей в деятельность образовательных и социальных институтов при отказе от претензий на политическое доминирование, а *коммуникативная*, связанная с концепцией Хабермаса, делает акцент на переводе религиозных аргументов в язык, понятный всем участникам публичного дискурса, что обеспечивает возможность согласования норм в условиях мировоззренческого плюрализма и поддерживает демократический характер публичного пространства.

Модели взаимодействия религиозного и светского в современном обществе

Анализ всех этих моделей демонстрируют, что постсекулярность не сводится к простому «возвращению религии» после периода секуляризации. Речь идёт о сложном и многоплановом процессе сосуществования, взаимодействия и взаимной адаптации религиозных и светских мировоззрений, в ходе которого формируются гибридные режимы религиозно-государственных отношений. Религия выходит за пределы исключительно частной сферы и интегрируется в публичное пространство, участвуя в политической, социальной и культурной жизни; одновременно усиливается индивидуализация веры, рост новых и смешанных форм духовности, а также поиск баланса между рациональным и сакральным.

Заключение. Секуляризация XIX–XX веков создала основу для формирования светских институтов, однако ожидания классической теории о неизбежном угасании

религии не оправдались. Постсекулярность фиксирует возвращение религии в публичную сферу, её адаптацию к современным социальным и политическим условиям и сосуществование множества мировоззрений. Осмысление этих процессов необходимо для анализа религиозно-государственных отношений в XXI веке и прогнозирования дальнейших трансформаций моделей взаимодействия религиозного и светского в глобальном и национальном контекстах.

Литература/References/Adabiyotlar:

1. Тейлор, Ч. A Secular Age / Ч. Тейлор. – Cambridge, MA: The Belknap Press of Harvard University Press, 2007. /Кокс, Х. Мирской град / Х. Кокс. – Москва: Восточная литература, 1995/Андерсон, Б. Воображаемые сообщества / Б. Андерсон. – Москва: Канон-Пресс, 2001. /Habermas, J. Religion in the Public Sphere / J. Habermas // European Journal of Philosophy. – 2006. – Vol. 14, № 1. / Political Theologies: Public Religions in a Post-Secular World / ed. by H. de Vries. – New York Fordham University Press, 2006./ Casanova, J. Public Religions in the Modern World / J. Casanova. – Chicago: University of Chicago Press, 1994. https://doi.org/10.1111/j.1468-0378.2006.00241.x, https://academic.oup.com/fordham-scholarship-online/book/22588?utm
2. Taylor, Charles. *A Secular Age*. Cambridge, MA: The Belknap Press of Harvard University Press, 2007. Cox, Harvey. *The Secular City: Secularization and Urbanization in Theological Perspective*. New York / London: (первое издание) The Macmillan Company, 1965; Revised edition, Princeton, NJ: Princeton University Press (2013). Anderson, Benedict R. O'G. *Imagined Communities: Reflections on the Origin and Spread of Nationalism*. London & New York: Verso, 1983; Revised and extended edition, London & New York: Verso, 1991. https://academic.oup.com/princeton-scholarship-online/book/14741, https://en.wikipedia.org/wiki/Imagined_Communities?
3. Тейлор, Ч. A Secular Age / Ч. Тейлор. – Cambridge, MA: The Belknap Press of Harvard University Press, 2007. https:// lawcat.berkeley.edu/record/
4. Кокс, Х. Мирской град / Х. Кокс. – Москва: Восточная литература, 1995. https://openlibrary.org/works/OL3482989W
5. Андерсон, Б. Воображаемые сообщества / Б. Андерсон. – Москва: Канон-Пресс, 2001. https://libcat.ru/
6. Закон Франции «О разделении церкви и государства» от 9 декабря 1905 г. / Journal Officiel de la République Française. – 1905.
7. Casanova, J. Public Religions in the Modern World / J. Casanova. – Chicago: University of Chicago Press, 1994. https://press.uchicago.edu/
8. De Vries, H. (ed.). Political Theologies: Public Religions in a Post-Secular World / H. de Vries. – New York: Fordham University Press, 2006. https://www.fordhampress.com/9780823226443/political-theologies/
9. Habermas, J. Religion in the Public Sphere / J. Habermas // European Journal of Philosophy. – 2006. – Vol. 14, № 1.; de Vries, H. (ed.). Political Theologies: Public Religions in a Post-Secular World / H. de Vries. – New York: Fordham University Press, 2006; Casanova, J. Public Religions in the Modern World / J. Casanova. – Chicago: University of Chicago Press, 1994. https://philpapers.org/rec/HABRIT? https://press.uchicago.edu/ucp/books/book/chicago/P/bo3683997.html?utm_source=chatgpt.com
10. Habermas, J. Religion in the Public Sphere / J. Habermas // European Journal of Philosophy. – 2006. – Vol. 14, № 1. https://philpapers.org/rec/HABRIT?
11. De Vries, H. (ed.). Political Theologies: Public Religions in a Post-Secular World / H. de Vries. – New York: Fordham University Press, 2006.
12. Casanova, J. Public Religions in the Modern World / J. Casanova. – Chicago: University of Chicago Press, 1994. https://press.uchicago.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 4 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 March 2026
Accepted: 01 April 2026
Published: 15 April 2026

Article / Original Paper

ANALYSIS OF THE CONCEPT OF PARTICIPATION IN CONSTRUCTION

Amirov Agzamkhan Aktamovich
National University of Uzbekistan
Faculty of Social Sciences
Department of Legal Studies Lecturer,
Independent Researcher

Abstract. This article provides a comparative-legal and doctrinal-normative analysis of the concept of participation in construction, exploring its distinctive features, essential characteristics, and the author's definition of the concept of participation in construction in detail.

Keywords: participation in construction, shared contract, parties, legal and natural persons, builder, shareholder, commercial banks, residential and non-residential premises, multi-apartment buildings, public relations, private relations, "single life cycle of housing" principle, "escrow" account.

QURILISHDA ULUSHLI ISHTIROK ETISH TUSHUNCHASINING TAHLILI

Amirov Agzamxon Aktamovich
O'zbekiston milliy universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti
"Huquqiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi,
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada qurilishda ulushli ishtirok etish tushunchasining qiyosiy-huquqiy hamda doktrinal-normativ tahlilini olib borish orqali qurilishda ulushli ishtirok etish tushunchasining o'ziga xos jihatlari hamda muhim bo'lgan xususiyatlari hamda qurilishda ulushli ishtirok etish tushunchasiga mualliflik ta'rifi atroflicha muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: qurilishda ulushli ishtirok etish, ulushli shartnoma, taraflar, yuridik va jismoniy shaxslar, quruvchi, ulushdor, tijorat banklari, turar va noturar joylar, ko'p kvartirali uylar, .ommaviy munosabatlar, xususiy munosabatlar, "uy-joyning yagona hayotiy sikli" tamoyili, "eskrou" hisobvarag'i.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N39

Kirish. Bizga ma'lumki, qurilishda ulushli ishtirok etish tushunchasining qiyosiy-huquqiy hamda doktrinal-normativ tahlilini olib borish hamda ushbu faoliyatning asosiy jihatlarini aks ettirgan holda uning aniq, konkret tushunchasini shakllantirish qurilishda ulushli ishtirok etishda iste'molchilar huquqlarini himoya qilish faoliyati samaradorligini oshirishga ma'lum bir ma'noda xizmat qiladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2025-yil 26-dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida bildirgan quyidagi fikrlarni, ya'ni: "Umuman, 2026-yilda qurilish ishlari hajmini 11 foizga ko'paytirib, 30 milliard dollarga yetkazishni reja qilyapmiz. Buning iqtisodiyotga qanday ta'sir ko'rsatishini hisoblab ko'raylik. Qurilish materiali, uy-ro'zg'or uchun to'qimachilik mahsulotlari, elektr texnikasi, mebelsozlik kabi tarmoqlar, ushbu obyektlarga

xizmat koʻrsatadigan servis sohalari uchun qoʻshimcha 5 milliard dollarlik bozor boʻladi. Bu – 300 mingta qoʻshimcha yangi ish oʻrni degani. [11]", – ta'kidlaganligi qurilishda ulushli ishtirok etish tushunchasining tahlili naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligini koʻrsatadi. Biz ushbu maqolamizda qurilishda ulushli ishtirok etish tushunchasining qiyosiy-huquqiy hamda doktrinal-normativ tahlilini olib borish orqali qurilishda ulushli ishtirok etishning oʻziga xos jihatlari hamda muhim boʻlgan xususiyatlarini ochib berish hamda qurilishda ishtirok etish tushunchasiga mualliflik ta'rifini berishga harakat qilamiz.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Oʻzbekistonda qurilishda ulushli ishtirok etish tushunchasining tahlili tegishincha H.R.Rahmonqulov, I.B.Zokirov, O.Oqyulov, Sh.N.Roʻzinazarov, I.I.Nasriyev, S.B.Boboqulov, S.S.Gulyamov, D.M.Karaxodjayeva, N.F.Imomov, M.X.Baratov, I.R.Rustambekov, Q.M.Mehmonov, MDH davlatlari miqyosida A.V.Ashaulov, M.I.Braginskiy, O.L.Kapitsa, A.A.Makovskaya, V.V.Melnik, Y.V.Romanets, L.G.Sayfulova, K.I.Sklovskiy, G.A.Samsonyan, A.N.Levushkin, Y.X.Akchulpanova, O.P.Frolova va A.G.Sherbinin tomonidan, xorijiy mamlakatlarda esa Christian Campell, Stoll Heinrich, Medicus Dieter, Remy Phillipe, Savaux Eric, Aubry Helene, Magnus Ulrich, J.Smith va R.Gordon tomonidan atroflicha oʻrganilgan. Xususan, G.A.Samsonyan fikriga koʻra, qurilishda ulushli ishtirok shartnomasi – fuqarolik huquqiy shartnomalarning bir shakli boʻlib, unda ishtirokchi qurilish ishlariga mablagʻ kiritadi va ishlar tugagach, obyektdagi ulushini oladi [5]. Shuningdek, Y.X.Akchulpanova ta'kidlashicha, qurilishda ulushli ishtirok etish shartnomasi – fuqarolik huquqiy munosabat boʻlib, u qurilish uchun mablagʻ jalb qilish va qurilgan obyektni mulk toifasiga oʻtkazish munosabatlarini tartibga soladi [4; 180-188-betlar]. Shu bilan birga, J.Smith fikricha, fuqarolik huquqida ulushli qurilish loyihalarida ishtirok etish – shartnomaviy tartib boʻlib, unda har bir ishtirokchining huquqlari va majburiyatlari uning hissasiga muvofiq belgilanadi, bu esa shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlaydi [3]. Ya'ni, G.A.Samsonyan, Y.X.Akchulpanova va J.Smith mazkur ta'riflarida bevosita qurilishda ulushli ishtirok etish tushunchasiga shartnomaga ta'rif berish orqali urgʻuni qaratadi. Huquqshunos olim A.N.Levushkinning fikricha, qurilishda ulushli ishtirok etish – fuqarolik, xoʻjalik va korporativ huquqning shartnomaviy normalari orqali tartibga solinadi va bu qurilish loyihalarida quruvchilar va investorlar oʻrtasidagi munosabatlarni tashkil etish huquqiy mexanizmni ta'minlashga qaratilgan munosabat [1]. Yuqoridagi ta'rifdan koʻrinib turibdiki, A.N.Levushkin qurilishda ulushli ishtirok etish tushunchasini huquq sohalarining interditsiplinar (sohalararo) yondashuv nuqtai nazardan yoritib bermoqda. O.P.Frolova ta'kidlashicha, qurilishda ishtirok etish shartnomasida sud amaliyoti va qonunchilikdagi oʻzgarishlar tufayli muhim shartlar aniq emas hamda shartnoma bilan bogʻliq huquqiy nizolar va shu sababli, taraflarning huquqlarini himoya qilish mexanizmlarida yetarlicha huquqiy kafolatlar yetishmaydi [6; 83-86-betlar]. Shu bilan birga, R.Gordon fikricha, ulushli qurilishda ishtirok – infratuzilmalarga xususiy investitsiyalarni ragʻbatlantiradigan, shu bilan birga kichik aksiyadorlarning huquqlarini himoya qiladigan, bu esa uni davlat-xususiy sheriklik uchun samarali vositaga aylantiradigan mexanizm hisoblanadi [2]. Tahlilimizdan anglashilmoqdaki, barcha huquqshunos va iqtisodchi olimlar qurilishda ulushli ishtirok etish tushunchasiga ta'rif berishda sohaviy, uning qaysidir bir funksiyasi, xususiyati yoki jihatini asos sifatida olib ta'rif berishga harakat qiladi.

Muhokama va natijalar. Oʻzbekistonda qurilishda ulushli ishtirok etish tushunchasining oʻziga xos jihatlari quyidagilarda namoyon boʻladi:

Birinchidan, qurilishda ulushli ishtirok etish ish bajarishga oid munosabatlar sohasiga kirishi. Bizga ma’lumki, fuqarolik huquqida ishni bajarish va xizmatlar ko‘rsatish sohasi bir-biridan farqlanadi. Yuridik adabiyotlarda shartnomaviy munosabatlarda ish va xizmatni bir-biridan farqlanishi bilan bog‘liq turli fikrlar mavjud. Ayrim mualliflar ular o‘rtasidagi farq sifatida bajarilgan ishlarning ashyoviy xususiyatda bo‘lishligini ta’kidlashsa, boshqalari esa, bajarilgan ishlar (masalan, ilmiy tadqiqot ishlari pudrati shartnomasi bo‘yicha bajariladigan ishlar) ashyoviy bo‘lmagan xususiyatga egaligini qayd qilishadi [7; 80-90-betlar]. Shuningdek, N.Narmatovning fikricha, xizmatlar deganda, qonun hujjatlariga muvofiq ijrochi faoliyatining nomoddiy natijasi bilan bog‘liq bo‘lgan hamda shaxsiy ehtiyojlarni haq evaziga qondirishga qaratilgan muayyan harakat yoki muayyan faoliyatning amalga oshirilishi tushuniladi. Bu o‘rinda muallifning xizmatga nisbatan “nomoddiy natija” sifatida bergan ta’rifi hech qanday shubha uyg‘otmaydi. Shuningdek, muallif xizmatlarning doirasi va turlari kengligini e’tiborga olgan holda uni shaxsiy xarakterda bo‘lishi yoki bo‘lmasligi, qondirilayotgan ehtiyojlardagi roli, nomoddiy natijaga erishish kafolatlanganligi, EHMdan foydalangan yoki foydalanmagan holda ko‘rsatilishi, madaniy, ma’rifiy xizmatlar mezoni asosida tasniflashga qaratiladi [8; 30-40-betlar]. Ushbu fikrlardan kelib chiqqan holda ta’kidlash mumkinki, qurilishda ulushli ishtirok etish faoliyati oqibatida ko‘chmas mulk (turar yoki noturar joylar) vujudga kelishi hamda ishlarning ashyoviy xususiyatga egaligi qurilishda ulushli ishtirok etish ish bajarishga oid munosabatlar sohasiga kirishini anglatadi.

Ikkinchidan, qurilishda ulushli ishtirok etish tushunchasiga qonunchilik hujjatlarida ko‘p kvartirali uylarni qurish nuqtai nazaridan ta’rif berilganligi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-maydagi PQ-4732-son qarori bilan tasdiqlangan “Ko‘p kvartirali uylarni ulush kiritish asosida qurish to‘g‘risida”gi Nizom 3-bandi to‘rtinchi xatboshisida ulush kiritish asosida qurilish – ko‘p kvartirali uylarni quruvchilar va ulushdorlarning mablag‘lari hisobidan qurish, rekonstruksiya qilish va qayta ixtisoslashtirish ekanligi belgilab qo‘yilgan [9]. Ushbu ta’rifdan anglashimiz mumkinki, qurilishda ulushli ishtirok etish – ulushdorlar tomonidan quruvchiga pul mablag‘lari kiritish evaziga kelajakda yaratiladigan ko‘chmas mulk (turar va noturar joy)ga mulk huquqini qo‘lga kiritishga qaratilgan investitsiya, pudrat hamda oldi-sotdi elementlarini o‘z ichiga oladigan fuqarolik-huquqiy munosabat hisoblanadi.

Uchinchidan, qurilishda ulushli ishtirok etish faoliyati ulushli shartnoma asosida amalga oshirilishi lozimligi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-yanvardagi “Uy-joy qurilishi sohasini yanada rivojlantirish, turar va noturar joy obyektlarini ulush kiritish asosida qurish jarayonini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-11-son Farmoni 2-bandiga asosan, 2025-yil 1-iyuldan boshlab, obyektlarni qurishda qurilish-pudrat tashkilotlari, developerlar va buyurtmachilar tomonidan ulushdorlarning pul mablag‘larini qurilishga ulush kiritish asosida jalb qilish faqat notarial tasdiqlangan va kadastr organlarida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan obyekt qurilishida ulush kiritish asosida ishtirok etish shartnomasi (ulushli shartnoma) bo‘yicha amalga oshiriladi [10]. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-maydagi PQ-4732-son qarori bilan tasdiqlangan “Ko‘p kvartirali uylarni ulush kiritish asosida qurish to‘g‘risida”gi Nizom 3-bandiga asosan, ko‘p kvartirali uylarni ulush kiritish asosida qurilishda ishtirok etish to‘g‘risidagi shartnoma – ko‘p kvartirali uylarni ulush kiritish asosida qurish bo‘yicha quruvchi va ulushdor o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi hamda mazkur Nizom talablariga

muvofiq hisobga qo‘yilgan yozma shakldagi bitimdir [9]. Mazkur Nizom 4-bandiga asosan, quruvchi ulushdorlar bilan tuzilgan shartnomalar vakolatli davlat organi (O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, viloyatlar qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmalari hamda Toshkent shahri Qurilish bosh boshqarmasi) tomonidan hisobga qo‘yilganidan so‘ng qurilish obyektini qurish uchun ulushdorlarning mablag‘larini jalb qilishga haqli. Ya’ni, bundan anglashimiz mumkinki, ulushli shartnoma – quruvchi va ulushdor o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soladigan, davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladigan va notarial tasdiqlangan, shartnoma davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan boshlab tomonlar birgalikda qurilish-montaj ishlari tugallangan obyektdan foydalanishi uchun ruxsatnoma berilgunga qadar munosabatlarni qamrab oladigan hamda kadastr organlarida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan obyekt (turar joy va noturar joy) qurilishida yozma shaklda ulush kiritish asosida ishtirok etish shartnomasi hisoblanadi;

To‘rtinchidan, qurilishda ulushli ishtirok etish faoliyati taraflari jismoniy va yuridik shaxslar bo‘lishi mumkinligi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-maydagi PQ-4732-son qarori bilan tasdiqlangan “Ko‘p kvartirali uylarni ulush kiritish asosida qurish to‘g‘risida”gi Nizom 3-bandiga binoan, ulushdor — qurilish majmuasida bir yoki bir nechta qurilish obyektini mulk huquqi bilan olish maqsadida ulush kiritish asosida qurilishda ishtirok etish to‘g‘risida shartnoma tuzgan jismoniy yoki yuridik shaxs hisoblanadi [9]. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-yanvardagi “Uy-joy qurilishi sohasini yanada rivojlantirish, turar va noturar joy obyektlarini ulush kiritish asosida qurish jarayonini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-11-son Farmoni 1-bandiga asosan, turar va noturar joy obyektlarini ulush kiritish asosida qurishda ulushdor – jismoniy va yuridik shaxslar hisoblanadi [10]. Xususan, jismoniy shaxslar deyilganda, O‘zbekiston Respublikasi, fuqarolari, chet el fuqarolari, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, tadbirkorlik subyekti sifatida dehqon xo‘jaligi, oilaviy tadbirkorlik va yakka tartibdagi tadbirkorlik, yuridik shaxs sifatida esa tijorat (to‘liq shirkat, kommandit shirkat, mas’uliyati cheklangan jamiyat, aksiyadorlik jamiyati, ishlab chiqarish kooperativlari, xususiy korxona, dehqon xo‘jaligi, oilaviy korxona, fermer xo‘jaligi) va notijorat yuridik shaxslar (matlubot kooperativi, jamoat birlashmalari, jamoat fondlari, muassasalar, yuridik shaxslarning birlashmalari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari) nazarda tutilmoqda.

Beshinchidan, qurilishda ulushli ishtirok etishda xususiy munosabatlar bilan birgalikda ommaviy munosabatlar ham mavjud ekanligi. Ya’ni, qurilishda ulushli ishtirok etish munosabati “quruvchi va ulushdor o‘rtasidagi sof xususiy munosabat” emas. Balki, davlat ham qurilishda ulushli ishtirok etishda iste’molchilar huquqlarini himoya qilishda “maxsus talablar” qo‘yadi. Ushbu “maxsus talablar” ommaviy munosabatlar sifatida namoyon bo‘ladi. Bunga misol sifatida, “uy-joyning yagona hayotiy sikli” tamoyilini joriy etilishini olishimiz mumkin. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-yanvardagi “Uy-joy qurilishi sohasini yanada rivojlantirish, turar va noturar joy obyektlarini ulush kiritish asosida qurish jarayonini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-11-son Farmoni 1-bandiga binoan, turar va noturar joy obyektlarini ulush kiritish asosida qurish jarayonida jismoniy va yuridik shaxslarning (ulushdor) huquqlari himoya qilinishini ta’minlash, mavjud yer resurslaridan samarali (intensiv) foydalangan holda

uy-joylar qurilishini tashkil qilish, uy-joy qurilishi sohasida investitsiya loyihalarini amalga oshirish muddatlarini qisqartirish, uy-joylarni ulush kiritish va ipoteka krediti asosida sotib olishning ishonchli va samarali imkoniyatini yaratish hamda uy-joylar qurilishida energiya samarador qurilish materiallaridan foydalanishni ommalashtirish “uy-joyning yagona hayotiy sikli” tamoyili hisoblanadi [10].

Oltinchidan, qurilishda ulushli ishtirok etishda tijorat banklari taraf sifatida ishtirok etish mumkinligi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-yanvardagi “Uy-joy qurilishi sohasini yanada rivojlantirish, turar va noturar joy obyektlarini ulush kiritish asosida qurish jarayonini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-11-son Farmoniga [10] asosan, tijorat banklarining taraf sifatida ishtirok etishi mumkinligi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- ulushli shartnoma bo‘yicha mablag‘lar ulushdor tomonidan vakolatli tijorat bankida quruvchi, ulushdor va tegishli tijorat banki o‘rtasida tuziladigan shartnoma asosida ochilgan “eskrou” hisobvarag‘iga ularning hisobini yuritish uchun joylashtirilishi va deponentlanishi;
- ulushdorlarning uchinchi shaxslar oldidagi majburiyatlari va quruvchining majburiyatlari yuzasidan “eskrou” hisobvarag‘i bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turish, mablag‘larni xatlash yoki hisobdan chiqarishga yo‘l qo‘yilmasligi;
- obyektni qurish ishlarini moliyalashtirish tijorat banklari tomonidan loyihaviy moliyalashtirish orqali ajratiladigan kredit mablag‘lari hisobidan amalga oshirilishi mumkinligi;
- birinchi bosqichda quruvchi tomonidan obyektni qurish ishlari umumiy hajmining kamida 30 foizi o‘z mablag‘lari hisobidan amalga oshirilgandan so‘ng tijorat banki tomonidan quruvchiga maqsadli kredit ajratish tizimi yo‘lga qo‘yilishi.
- Shuningdek, mazkur Farmon 3-bandiga binoan, qurilishga ulushdorlarning mablag‘larini jalb qilish 2025-yil 1-iyuldan 2025-yil 31-dekabrga qadar “eskrou” hisobvaraqlari orqali hamda hozirda amalda bo‘lgan ulushli ishtirok etish tartibida to‘g‘ridan-to‘g‘ri jalb qilish mexanizmi bo‘yicha parallel ravishda taraflarning tanloviga ko‘ra amalga oshiriladi, 2026-yil 1-yanvardan boshlab faqat “eskrou” hisobvaraqlari orqali amalga oshiriladi. Ya’ni, 2026-yil 1-yanvardan boshlab tijorat banklari qurilishda ulushli ishtirok etishda majburiy ishtirok etishi lozim bo‘lgan tarafga aylanadi.

Xulosa. Yuqorida qiyosiy-huquqiy hamda doktrinal-normativ tahlildan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, qurilishda ulushli ishtirok etish tushunchasining quyidagi o‘ziga xos xususiyatlari mavjud:

- qurilishda ulushli ishtirok etish ish bajarishga oid munosabatlar sohasiga kirishi;
- qurilishda ulushli ishtirok etish tushunchasiga qonunchilik hujjatlarida ko‘p kvartirali uylarni qurish nuqtai nazaridan ta’rif berilganligi;
- qurilishda ulushli ishtirok etish faoliyati ulushli shartnoma asosida amalga oshirilishi lozimligi;
- qurilishda ulushli ishtirok etish faoliyati taraflari jismoniy va yuridik shaxslar bo‘lishi mumkinligi;
- qurilishda ulushli ishtirok etishda xususiy munosabatlar bilan birgalikda ommaviy munosabatlar ham mavjud ekanligi;

- qurilishda ulushli ishtirok etishda tijorat banklari taraf sifatida ishtirok etish mumkinligi.

Demak, yuqorida biz ta'kidlab o'tgan qurilishda ulushli ishtirok etishning o'ziga xos jihatlaridan kelib chiqqan holda, qurilishda ulushli ishtirok etish tushunchasiga quyidagi ta'rifni berish maqsadga muvofiq hisoblanadi: *"Qurilishda ulushli ishtirok etish – ulushdorlar (jismoniy va yuridik shaxslar) tomonidan quruvchiga pul mablag'lari kiritish evaziga kelajakda yaratiladigan ko'chmas mulk (turar va noturar joy)ga mulk huquqini qo'lga kiritishga qaratilgan investitsiya, pudrat hamda oldi-sotdi elementlarini o'z ichiga oladigan, ulushli shartnoma asosida yuzaga keladigan ommaviy va xususiy huquqiy munosabatlar yig'indisi hisoblanadi".*

Adabiyotlar/Литература/References:

1. A. N. Levushkin // Contractual regulation of participation in shared-equity construction, Courier of Kutafin Moscow State Law University, 2023, https://www.researchgate.net/publication/368677656 Contractual regulation of participation in shared-equity construction in the structure of development activities.
2. Gordon, R., "Equity Participation in Infrastructure Projects", Canadian Journal of Economics, 2018.
3. Smith, J., Construction Law and Contractual Arrangements, 2019, UK.
4. Акчулпанова Е.Х. Правовое регулирование договора участия в долевом строительстве: Дис. . кандидат юрид. наук. Казань, 2006.
5. Г. А. Самсонян // К вопросу о правовой природе договора участия в долевом строительстве, «Молодой ученый», 2024, https://moluch.ru/archive/502/110400.
6. Фролова О. П. О правовой природе договора участия в долевом строительстве, его существенных условиях и об актуальных способах защиты сторон договора // Актуальные исследования. 2024. №43 (225). Ч.I, https://apni.ru/article/10341-o-pravovoj-prirode-dogovora-uchastiya-v-dolevom-stroitelstve-ego-sushestvennyh-usloviyah-i-ob-aktualnyh-sposobah-zashity-storon-dogovora.
7. Mualliflar jamoasi. Fuqarolik huquqi. Toshkent: Ilm ziyo, 2008.; Гражданское право. Под ред. А. П. Сергеева, Ю. К. Толстого. М.: Проспект, 2006.; Брагиский М., Витрянский В. Договорное право. М.: Статут, 2006.
8. N.Narmatov. Xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatini fuqaroviy huquqiy tartibga solish muammolari. / Mas'ul muharrir H.Rahmonqulov. Toshkent.: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti, 2009.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-maydagi PQ-4732-son qarori bilan tasdiqlangan "Ko'p kvartirali uylarni ulush kiritish asosida qurish to'g'risida"gi Nizom // (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 28.05.2020-y., 07/20/4732/0681-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.04.2021-y., 06/21/6218/0398-son, 19.06.2021-y., 07/21/5152/0578-son, 24.07.2021-y., 06/21/6269/0704-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son; 29.08.2023-y., 06/23/151/0661-son).
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-yanvardagi "Uy-joy qurilishi sohasini yanada rivojlantirish, turar va noturar joy obyektlarini ulush kiritish asosida qurish jarayonini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-11-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.02.2025-y., 06/25/11/0097-son.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2025-yil 26-dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida so'zlagan nutqi, https://president.uz/oz/lists/view/8834.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 4 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 March 2026
Accepted: 01 April 2026
Published: 15 April 2026

Article / Original Paper

THEORETICAL FOUNDATIONS OF SUKUK AND THE STAGES OF ITS HISTORICAL DEVELOPMENT: THE ROLE OF SUKUK IN THE MODERN CAPITAL MARKET

Mamatmurodov Farrux Farxod ugli
Tutor of Private law
Tashkent state university of law

Abstract. This annotation examines the theoretical foundations of sukuk, the historical sources of its formation, and its place in the modern capital market. The study treats sukuk as one of the key financial instruments of Islamic finance, possessing a distinct legal and economic nature. Particular attention is paid to the features that differentiate sukuk from conventional bonds, especially their linkage to tangible assets, their reliance on profit-and-risk sharing principles, their compliance with the prohibition of riba (interest), and their conformity with Sharia requirements. In this regard, sukuk is viewed not merely as an alternative method of raising capital, but as an independent investment mechanism that combines elements of property rights, contractual obligations, and corporate relations. The annotation also highlights the historical background of sukuk. It notes that the earliest foundations of sukuk can be traced to classical Islamic commercial and contractual practices, while its modern form emerged much later under the influence of globalization in financial markets, the expansion of Islamic banking, and the growing demand for Sharia-compliant long-term financing instruments. The historical and evolutionary development of sukuk is considered in stages: from early theoretical ideas and limited practical applications to its transformation into a sophisticated capital market instrument used by sovereign issuers, international financial institutions, and private entities. In addition, the study emphasizes the importance of sukuk in the contemporary capital market. It argues that sukuk plays a significant role in mobilizing investment, financing infrastructure and socially significant projects, diversifying sources of capital, and broadening the range of investors. It is further noted that, in the context of the transformation of the global financial system, sukuk has become not only an instrument of Islamic economies but also a recognized component of the international capital market. On this basis, the annotation concludes that a comprehensive study of the theoretical, historical, and institutional dimensions of sukuk is essential for improving national legislation and for facilitating the effective introduction of this instrument into the practice of emerging capital markets.

Keywords: sukuk, Islamic finance, capital market, securities, investment instrument, Sharia-compliant financing, asset-based financing, risk and profit sharing, financial instruments, historical development.

SUKUKNING NAZARIY POYDEVORI HAMDA TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI: ZAMONAVIY KAPITAL BOZORIDAGI O‘RNI

Mamatmurodov Farrux Farxod o‘g‘li
Xususiy huquq fakulteti tyutori
Toshkent davlat yuridik universiteti
E-mail: mamatmurodovfirdavs@gmail.com
http://www.orcid.org/0009-0002-4169-366X

Annotatsiya. Ushbu annotatsiyada sukukning nazariy poydevori, uning tarixiy shakllanish manbalari hamda zamonaviy kapital bozoridagi o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda sukuk islom moliyasi tizimining muhim moliyaviy instrumenti sifatida ko‘rib chiqilib, uning an’anaviy obligatsiyalardan farqli jihatlari, xususan, real aktivlar bilan bog‘liqligi, foyda va riskni taqsimlashga asoslanishi, foiz taqiqi bilan uyg‘unligi hamda shariat talablariga mos huquqiy tabiatiga alohida e’tibor qaratiladi. Shuningdek, sukukning dastlabki tarixiy ildizlari klassik islom savdo va muomala amaliyotlari bilan bog‘liqligi, keyinchalik esa zamonaviy moliya tizimi ehtiyojlari ta’sirida u mustaqil

investitsion vosita sifatida shakllanganligi yoritiladi. Annotatsiyada sukukning tarixiy-evolyutsion rivojlanish bosqichlari ketma-ketlikda ochib berilib, uning dastlabki nazariy qarashlardan tortib, bugungi kunda xalqaro moliya bozorlarida qo‘llanilayotgan murakkab emissiya mexanizmlarigacha bo‘lgan taraqqiyot yo‘li baholanadi. Bundan tashqari, sukukning zamonaviy kapital bozoridagi iqtisodiy va huquqiy ahamiyati, ayniqsa uzoq muddatli investitsiyalarni jalb qilish, infratuzilmaviy loyihalarni moliyalashtirish, moliyaviy inklyuzivlikni kengaytirish hamda muqobil investitsiya instrumentlari qatorini boyitishdagi roli ochib beriladi. Tadqiqotda sukukning xalqaro moliya tizimida tobora keng qo‘llanilayotgani, uning nafaqat islomiy mamlakatlar, balki g‘arb davlatlari kapital bozorlarida ham barqaror instrument sifatida namoyon bo‘layotgani qayd etiladi. Shu asosda maqolada sukukning nazariy mohiyati, tarixiy taraqqiyoti va amaliy qo‘llanilishi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik yoritilib, uning zamonaviy kapital bozoridagi o‘rni kompleks baholanadi. Mazkur tadqiqot sukukni huquqiy va iqtisodiy nuqtai nazardan chuqurroq anglashga, shuningdek, uni milliy qonunchilik va kapital bozori amaliyotiga joriy etish istiqbollarini belgilashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: sukuk, islom moliyasi, kapital bozori, qimmatli qog‘ozlar, investitsiya instrumenti, shariatga muvofiq moliyalashtirish, aktivga asoslangan moliyalashtirish, risk va foydani taqsimlash, moliyaviy instrumentlar, tarixiy rivojlanish.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N40

Kirish. Bugungi investitsiya munosabatlari mamlakat iqtisodiyotining turli sohalarida, og‘ir sanoat, yengil sanoat, energetika, qishloq xo‘jaligi, moliya-bank sohasi va boshqa tarmoqlarida kapital oqimini rivojlantirish va shu orqali yalpi ichki mahsulotini (YaIM) oshirish har bir davlatning ustuvor vazifalaridan biridir. Sababi, investitsiyalarni jalb qilish va ularni davlatning muhim sektorlariga samarali yo‘naltirish, ayniqsa rivojlanayotgan davlatlarda aholining turmush darajasi sifatini yaxshilash, aholining bandiligi oshirish va qashshoqlikka qarshi kurashishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Investitsiya so‘zining ma’nosiga to‘xtaladigan bo‘lsak, investitsiya lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, investire — “kiydirmoq, joylashtirmoq” degan ma’noni anglatadi. Umuman olganda investitsiya iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne’matlar hamda ularga doir huquqlar hisoblanib, ushbu faoliyat investitsiya faoliyati investitsiyani amalga oshirish bilan bog‘liq harakatlari majmuidir. Investitsiya faoliyati tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishning bir ko‘rinishidir [1, 6-bet].

Investitsiyaning yana bir ijobiy jihati shundaki, bu davlatning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy sohalariga ham o‘zining ijobiy ta’sirini o‘tkazadi. Bugungi kunga kelib, Janubiy Koreya, Xitoy, Janubi-sharqiy Osiyo davlatlari ham asosan investitsiyalarni jalb qilish va ularni sohalarga samarali yo‘naltirish orqali texnologik jihatdan rivojlangan davlatlar qatoriga kirdi.

Biroq, 2020-yildagi jahonda yuz bergan COVID-19 pandemiyasi, hozirda kuchayib borayotgan geosiyosiy qarama-qarshiliklar, muhim jahon savdo yo‘llarida joylashgan davlatlardagi lokal mojarolar investitsiya oqimlariga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu kabi jahon investitsiya oqimlariga ko‘rsatilayotgan salbiy ta’sirlar rivojlanayotgan davlatlarning iqtisodiy, moliyaviy va ijtimoiy barqarorligiga putur yetkazmoqda.

Bu kabi murakkab jarayonlar qarshisida iqtisodiy jihatdan hali mustahkam poydevorlarga ega bo‘lmagan rivojlanayotgan davlatlar o‘zining iqtisodiy-moliyaviy holatini yaxshilash maqsadida investitsiya oqimlarini jalb qilishga, investorlar uchun qulay tadbirkorlik muhitini yaratishga harakat qilmoqda.

Bugungi kundagi eng investitsion jozibador mamlakatlardan biri bo‘lgan Malayziya misolida oladigan bo‘lsak, 1970-yillardan boshlab hukumat mamlakatga investitsiya oqimini oshirish maqsadida investorlar uchun qulay muhit shakllantirdi. Bunda birinchi navbatda investitsiyaviy munosabatlarni tartibga soluvchi, investorlarning huquqlarini himoya qiluvchi, shuningdek, ularga qulay tadbirkorlik imkoniyatini yaratib beruvchi qonunchilik normalari

qabul qilindi, mavjudlari esa yangilandi. Bu esa mamlakatda investorlar uchun ishonchli tadbirkorlik muhitini shakllantirdi. Natijada, Malayziyada iqtisodiy o‘sish sur’ati 1990-yillarga kelib, 7-8% ni tashkil qildi. “Macrotrends.net” nomli investitsiyaviy ma’lumotlarni taqdim qilib boruvchi internet tarmog‘idagi ma’lumotiga ko‘ra Malayziyaga kiritilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiya miqdori 1971-yilda 100 million AQSH dollaridan 2021-yilda 20.25 milliard dollarga oshgan. Hatto, 2020-yilda jahonda yuz bergan COVID-19 pandemiyasi davrida ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri kiritilgan investitsiya miqdori 4 milliard dollardan oshgan. AQShning iqtisodiy tadqiqot markazi bo‘lgan Milken Instituti tomonidan e’lon qilingan “2024-yilgi Global Imkoniyatlar Indeksi (GOI)” ga ko‘ra, Malayziya Osiyoning rivojlanayotgan va taraqqiyot yo‘lidagi davlatlari orasida eng yaxshi umumiy investitsiya sharoitiga ega mamlakat deb topilgan. Butun dunyo bo‘yicha esa Malayziya umumiy reytingda 27-o‘rinni egallab, Tailand (37-o‘rin) va Xitoy (39-o‘rin) dan ko‘ra yuqoriroq o‘rin egallagan.

Shu jumladan O‘zbekiston ham o‘zining iqtisodiy barqarorligini yaxshilash maqsadida tadbirkorlar uchun kapital bozorini kengaytirish, chet el tadbirkorlari uchun investitsion jozibadorlikni oshirish borasida muhim qadamlarni allaqachon tashlagan.

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2024-yil natijalari yakuni sarhisobi bo‘yicha o‘tkazilgan yig‘ilishda mamlakatimizga so‘ngi yetti yillikda jami 188 milliard AQSH dollariga yaqin investitsiyalar kiritilganligi aytilib, buning natijasi o‘laroq investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 30 foizdan oshganligi va barqaror iqtisodiy o‘sishga sabab bo‘layotganligi aytildi. Bundan tashqari, yig‘ilish davomida prezident bugungi jahonda kuzatilayotgan murakkab vaziyatlar va o‘zgarishlar oqibatida eksport-logistika zanjirlari qiyinlashayotganligi ta’kidlab, bunday holatda ichki imkoniyatlarni to‘liq safarbar qilib, iqtisodiy taraqqiyot sur’atlarini oshirish zarurligi aytib o‘tdi.

O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risi” dagi PF-158-sonli Farmonining 2030-yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko‘rsatkichlarining 45-bandida 2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish belgilab o‘tilgan bo‘lib, ushbu ko‘rsatgichga erishish uchun iqtisodiyotda transformatsiya va institutsional islohotlarni izchil davom ettirish, mamlakatda qulay investitsion va ishbilarmonlik muhitini ta’minlash hamda muvozanatlashgan pul-kredit siyosatini amalga oshirish, shuningdek, asosiy kapitalga kiritiladigan investitsiyalar hajmining yillik o‘rtacha 7 foiz atrofida o‘sishini ta’minlash ustuvor maqsadlardan biri qilib qo‘yilgan.

Bundan tashqari ushbu ko‘rsatgichning 49-bandida O‘zbekistonning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirish va qimmatli qog‘ozlar bozorini jadal rivojlantirish uchun mamlakatimizda 250 milliard dollarlik investitsiyalarni o‘zlashtirish, jumladan 110 milliard dollar xorijiy investitsiyalar va 30 milliard dollar davlat-xususiy sheriklik doirasidagi investitsiyalarni jalb qilish, erkin muomaladagi qimmatli qog‘ozlar savdolari hajmini 8 milliard dollarga yetkazish, umumiy qiymati 150 milliard dollarlik 500 dan ziyod strategik ahamiyatiga ega bo‘lgan texnologik va infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirish, Pay va venchur jamg‘armalar faoliyatini yo‘lga qo‘yish orqali portfel investitsiyalar hajmini 2 barobarga oshirish asosiy vazifalar sifatida belgilangan.

Mamlakatimizda aholi mablag‘larini mobilizatsiya qilish, ya’ni aholida bo‘sh turgan mablag‘larni ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va boshqa turli xil foydali loyihalarga yo‘naltirish bo‘yicha katta imkoniyatlar yaratilmoqda. Bunga misol tariqasida O‘zbekiston

Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida” O‘RQ-683-sonli Qonuniga asosan Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar ham obligatsiyalar chiqarish va joylashtirish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Dastlab, O‘zbekistonda faqat aksiyadorlik jamiyatlari va tijorat banklarigina korporativ obligatsiya chiqarish huquqiga ega bo‘lgan. Hozirda, O‘zbekistonda aholi aksiyadorlik jamiyatlari va mas’uliyati cheklangan jamiyatlar tomonidan chiqarilgan aksiya va obligatsiyalarni olish orqali o‘z mablag‘larini mobilizatsiya qilishi mumkin.

Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariyining 2024-yil 1-choragi davomidagi faoliyati natijalari yuzasidan chiqarilgan hisobotiga ko‘ra 2024-yilning 9 oyi davomidagi faoliyat natijalari to‘g‘risidagi hisobotga ko‘ra, 2024-yilning 1-oktyabrdagi holatiga ko‘ra, Markaziy depozitariyda 680 ta aksiyadorlik jamiyatining 205 822,36 mlrd.so‘m umumiy nominal qiymatga ega 23 117,53 mlrd. dona aksiyasi chiqarilgan.

2024-yilning 9 oyi davomida aksiya chiqarilishlari hajmi 16,110,24 mlrd. so‘mga, aksiyalarning soni esa 5,170,13 mlrd. donaga ko‘paydi.

Markaziy depozitariyda, shuningdek, 39 emitent tomonidan chiqarilgan 1 405,7 mlrd.so‘m umumiy miqdorga ega 1,26 mln.dona korporativ obligatsiyalar bo‘lib, umumiy 32 ta MChJ tomonidan 801,5 mlrd.so‘m ga ega 695,2 ming dona korporativ obligatsiyalar chiqarilgan.

Bundan ko‘rinib turibdiki, aksiyadorlik jamiyatlari va mas’uliyati cheklangan jamiyatlar tomonidan aholining mablag‘larini mobilizatsiya qilish orqali kapital bozor muhitiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Biroq, bularni chet el davlatlaridan keladigan investitsiya oqimlarini mamlakatimizga kelishini yanada oshirish, mahalliy investitsiya muhitini yaxshilash uchun yetarli deb bo‘lmaydi. Sababi, aholimizning aksar qismi moliyaviy savodxonligining yuqori emasligi, mablag‘ jamg‘arishning an’anaviy usullaridan keng foydalanishi, shuningdek, qadriyatlari tufayli an’anaviy qimmatli qog‘ozlarni sotib olishni xohlamaydi.

O‘zbekistonda o‘tkazilgan Jahon banki/Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) tomonidan 2018-yilda o‘tkazilgan so‘rov natijalariga ko‘ra, so‘rovda qatnashgan firmalarning 64 foizi bank moliyalashtiruvidan foydalanganini, 8 foizi esa oila a’zolari va do‘stlarining yordamini olganini bildirgan. Shunga qaramay, O‘zbekistondagi kichik va o‘rta biznes subyektlarining katta qismi o‘z o‘sishini ichki manbalar hisobidan moliyalashtiradi — 64 foizi o‘zini-o‘zi moliyalashtirishini qayd etgan [2, 6-bet].

Shuningdek, biz 2020 yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi loyihasi doirasida aholi, biznes vakillari va tijorat banklari o‘rtasida o‘tkazgan so‘rovnoma davomida 27 ta tijorat banki, 2235 nafar tadbirkor hamda 4938 jismoniy shaxs ishtirok etgan. Ushbu so‘rovnoma natijalariga ko‘ra biznes vakillarining 38%, hamda jismoniy shaxslarning 55% diniy qarashlari sababli an’anaviy kreditlardan foydalanmasliklarini aytishgan.

Biznes vakillarining 61% i va jismoniy shaxslarning 75% i agar islom bank-moliya muassasalari O‘zbekistonda faoliyat boshlasa, o‘z moliyaviy amaliyotlarini islom moliya muassasalarida olib borish istagini bildirgan. Biznes vakillarining 47% i va jismoniy shaxslarning 55% i islom banklari xizmat haqi yuqori bo‘lsa ham ular bilan ishlayverishini aytishgan, chunki bu ularning diniy dunyoqarashlari bilan bog‘liq ekanligini aytib o‘tgan.

O‘zbekiston aholisining 90% idan ko‘proq qismi musulmon ekanligini hisobga olsak, aholining ko‘pchiligi islomda taqiqlangan faoliyat turi bilan shug‘ullanadigan aksiyadorlik

jamiyatlarining aksiyalarini yoki foizga asoslangan obligatsiyalarni sotib olmasligi, an’anaviy banklarning foizga asoslangan omonat va kredit xizmatlaridan foydalanmasligi tabiiydir.

Bundan ko‘rinib turibdiki, chet el davlatlari, xalqaro tashkilotlardan keladigan investitsiyalarni yanada jalb qilish, mahalliy investitsiya muhitini yaxshilash va aholining qo‘lidagi mablag‘larni ko‘proq mobilizatsiya qilish uchun an’anaviy moliyaviy vositalar va xizmatlarga muqobil bo‘la oladigan, eng muhimi mahalliy aholining e’tiqodi va dunyoqarashiga mos keladigan muqobil moliyaviy vositalarni joriy qilish zarur.

Bugungi kunda aholisining ko‘pchilik qismi musulmon bo‘lgan davlatlarda aholining e’tiqodi, talab va takliflaridan kelib chiqib, an’anaviy moliyaviy xizmatlarga muqobil bo‘la oladigan islom moliyasi xizmatlarini joriy qilish tobora rivojlanib bormoqda. Islom moliyasi xizmatlari an’anaviy moliyaviy xizmat turlariga mos ravishda o‘zining muqobil moliyaviy xizmat turlarini taklif qiladi. Xuddi shundek, bugungi kunda aksiya va obligatsiyalar, umuman an’anaviy moliyaviy vositalarga muqobil sifatida islom moliyasi sukuk moliyaviy vositasini taklif qilmoqda.

Sukuk real aktivlarga asoslangan, shariatga muvofiq investitsion vosita bo‘lib, u moliyalashtirilgan loyihadan yoki mulkdan keladigan daromadni aks ettiradi hamda investorlar o‘rtasida egalik, foyda va riskni taqsimlashni o‘z ichiga oladigan qimmatli qog‘ozlarning shariat talablaridan kelib chiqadigan bir turidir.

Islom moliya institutlari uchun buxgalteriya hisobi va audit tashkilotiga (AAOIFI) ko‘ra sukukka quyidagicha ta’rif beradi:

Sukuk — bu teng qiymatdagi sertifikatlar bo‘lib, ular moddiy aktivlar, ulardan foydalanish huquqi (usufruct) va xizmatlar yoki muayyan loyiha yoxud maxsus investitsiya faoliyati aktivlariga nisbatan bo‘linmagan (ulushli) egalikni ifodalaydi [3, 468-bet].

Sukuk so‘zi “Sakk” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, huquqiy instrument, dalolatnoma, chek degan lug‘aviy ma’nolarni anglatadi. Bundan tashqari tarixda qog‘oz hujjatlarga muhr bosish ma’nosida ham keng qo‘llanilgan. Professor De Vroedening ta’kidlanishicha, AQShda “check” so‘zi Britaniya ingliz tilidagi “cheque” shakli bilan bog‘liq bo‘lib, zamonaviy G‘arb tilidagi “cheque” so‘zi arab tilidagi “sakk” so‘zidan kelib chiqqan [4, 710-bet]. Marmara universiteti professori Ismail Eris ham De Vroedening ushbu fikrini qo‘llab quvvatlab, Joseph Schacht kabi sharqshunos olimlarning bir necha tadqiqotlarini o‘rganishi natijasida “cheque” (chek) so‘zi g‘arbiy tillarda bugungi kunda ishlatilayotgan shaklda musulmon dunyosidan olingan bo‘lib, uning etimologik ildizi arab tilidagi “ṣakk” so‘ziga borib taqaladi.” degan fikrga kelgan [5, 111-bet].

Yuqorida keltirilgan De Vroede va Ismail Erisning ilmiy qarashlari shuni ko‘rsatadiki, “sukuk” atamasining etimologik ildizi bo‘lgan “ṣakk” (sakk) so‘zi nafaqat lug‘aviy, balki tarixiy-huquqiy mazmunga ham ega bo‘lgan. O‘rta asrlarda musulmon savdo amaliyotida “ṣakk” yozma majburiyat hujjati, to‘lov topshirig‘i yoki muayyan moliyaviy huquqni tasdiqlovchi dalolatnoma sifatida qo‘llanilgan. Bu esa islom sivilizatsiyasida moliyaviy-huquqiy institutlar rivojlanganligini ko‘rsatadi.

G‘arb tilidagi “cheque” (chek) atamasining arab tilidagi “ṣakk” so‘zidan kelib chiqqani haqidagi ilmiy qarashlar shuni anglatadiki, zamonaviy moliyaviy hujjatlar va to‘lov vositalarining ayrim shakllari musulmon savdo-huquqiy tajribasidan ta’sirlangan. Bu jarayon, ayniqsa, O‘rta asrlarda islom dunyosi va Yevropa o‘rtasidagi savdo aloqalari orqali yuz bergan. Natijada, moliyaviy munosabatlarda qo‘llaniladigan yozma to‘lov hujjatlari G‘arb huquqiy

tizimlariga moslashgan holda shakllangan. Shu nuqtai nazardan, “sukuk” atamasining tarixiy ildizi oddiy terminologik o‘xshashlik emas, balki moliyaviy-huquqiy institutlarning evolyutsion rivojlanishini aks ettiradi. Dastlab yozma to‘lov hujjati ma’nosini anglatgan “ṣakk” so‘zi vaqt o‘tishi bilan investitsiya sertifikati mazmunini olgan “sukuk” tushunchasiga transformatsiya qilingan. Bu esa islom moliya tizimi tarixan real savdo va mulkiy munosabatlarga asoslanganligini ko‘rsatadi. Demak, bugungi kunda keng qo‘llanilayotgan “cheque” (chek) so‘zi bilan “sukuk” atamasining etimologik bog‘liqligi shuni tasdiqlaydiki, islom huquqiy-amaliyoti zamonaviy moliyaviy instrumentlarning shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Shu jihatdan, sukuk instituti yangi ixtiro emas, balki tarixiy savdo-huquqiy tajribaning zamonaviy kapital bozoriga moslashtirilgan shakli sifatida talqin qilinishi mumkin.

Umuman olganda sukuk Islom qonunchiligi yoki shariatga muvofiq ravishda olingan huquqlar, majburiyatlar yoki daromadlarni transfer qilish shartnomasini o‘zida ifoda etuvchi hujjat sifatida ta’riflanishi mumkin. Karabuk universiteti professori Ijaz Ahmadning ta’kidlashicha sukuk, ya’ni “sakk” so‘zining ko‘plik shakli, o‘rta asrlardagi Islom davrida savdo va boshqa biznes faoliyatidan kelib chiqadigan moliyaviy majburiyat va burchlarni o‘tkazish vositasi sifatida keng qo‘llanilgan [6, 108-bet].

Sukuk so‘zidan arab lug‘atida foydalanishning ikki xil ma’nosi mavjud bo‘lib, birinchi ma’nosi urish, hujum qilish, tegish harakat fe’llarini bildirib [7, 457-bet], ikkita narsani bir-biriga qattiq va kuch bilan tegishini anglatadi, misol uchun eshikni yopish, shapaloq berish, nayza otish harakat fe’lini anglatsa, ikkinchi ma’nosi qaydlar yoziladigan kitob, yozma hujjat, shuningdek, qarz, mol-mulk, iqtisodiy tranzaksiyalar va moliyaviy huquqlarni o‘zida aks ettiradigan qaydnoma degan ma’nolarni berib, hozirgi zamonda qo‘llaniladigan sukuk atamasi arab tilida yuqoridagi ikkinchi ma’nodan kelib chiqqan.

Ba’zi tadqiqotchilar islomning dastlabki davrlaridayoq sukukdan moliyaviy majburiyatlarni o‘zida ifoda etuvchi moliyaviy vosita sifatida foydalanganligini ta’kidlaydi [8, 72-bet]. Sharqshunos olim A.L.Udovitchning izlanishlariga ko‘ra ushbu davrda ham qarz munosabatlarining rasmiy yozma qog‘oz shakllari mavjud bo‘lgan. Olimning keltirishicha, bunday yozma hujjatlar “Geniza” hujjatlari deb yuritilgan [9, 309-311-betlar]. XII asrga taalluqli bo‘lgan Qohira geniza hujjatlarida ham hozirgi zamonaviy chek shakliga juda o‘xshash bo‘lgan moliyaviy hujjatlar mavjud bo‘lgan va bu hujjatlarda to‘lanishi kerak bo‘lgan summa, uning mazmuni, sana va hujjatni bergan shaxsning ismi ko‘rsatilgan [10]. Yana bir sharqshunos olim Paul Vallely O‘rta asrlar davrida sakkdan tovarlar yetkazib berilganda ular uchun to‘lov qilish majburiyatini bildiruvchi yozma va’da sifatida xavfli hududlar orqali naqd pul olib o‘tishga hojat qoldirmaslik uchun ishlatilganligini ta’kidlaydi [11, 11-bet]. Sukuklarning o‘sha davrdagi tabiatidan kelib chiqsak ular bir necha davlatlar o‘rtasidagi savdo-sotiq munosabatlarida muomalada bo‘lgan. Bu esa ushbu moliyaviy instrumentning qo‘shni hududlarga tarqalishiga olib kelgan.

Bundan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, sukuklar dastlab o‘zida investitsiyaviy munosabatlarni aks ettirmagan, balki qarz munosabatlariga asoslangan huquq va majburiyatlarni belgilovchi oddiy yozma moliyaviy hujjat bo‘lgan.

Bu borada tadqiqotchi A.Jumagulov ham o‘zning maqolasida fikr bildirgan bo‘lib, A.Jumagulovning fikriga ko‘ra ham sukuk dastlab hozirgi zamonaviy shaklidan ancha yiroq bo‘lib, faqatgina to‘lov usuli sifatida va insonlarning huquqlarini qayd etish uchun ishlatilingan [12, 35-bet].

Sukukning bu shakldagi muomalasi XIV asrlarga qadar yaqin sharq musulmon mamlakatlarida amalda bo‘lgan. Umuman olganda sukukning tadrijiy rivojlanish tarixini olimlar turli xil davrlarga bo‘lib o‘rganadilar. Olimlar sukukning dastlabki paydo bo‘lish davri, sabablari va maqsadlari haqida yetarli tarixiy ma’lumotlarga ega. Biroq, sukukning hozirgi zamonaviy ko‘rinishidagi shaklida foydalanish davrlari aynan qaysi yillarga borib taqalishida yakdil va ishonchli ma’lumotlar yo‘q. Professor Mohamed Ariff, Meysam Safari va Shamsher Mohamadlarning birgalikda olib borgan tadqiqotlariga ko‘ra, bugungi sukukning ilk zamonaviy shaklidan foydalanish 1285-yillarga borib taqaladi. Ularning ta’kidlashlaricha, Usmonli imperiyasi salib yurishlari vayron bo‘lganidan keyin imperiya infratuzilmasini rekonstruksiya qilish maqsadida xazina aktivlarining bir qismini qarz beruvchi jamoatchilik mulkiga ajratish orqali katta miqdorda mablag‘ olgan va bu zamonaviy sukuk munosabatlarining ilk unsurlarini o‘zida mujassam etgan.

Islom moliyasi bo‘yicha yetuk mutaxassislardan biri bo‘lmish professor Murat Sizakchaning fikriga ko‘ra, zamonaviy sukukning ildizlari XV-XVIII asrlarga taqalib, zamonaviy sukukning belgilarini uchta asosiy qismlarga bo‘ladi. Bular daromadni yaratish, sekyuritarizatsiya, maxsus maqsadli tashkilot (special purpose vehicle – SPV) tashkil qilish. Sizakcha zamonaviy sukukning paydo bo‘lishini aynan sukuk munosabatlarida ushbu 3 ta tarkib mavjud bo‘lgan davrlarga bog‘lab boshlaydi. Uning ta’kidlashicha, sukukning daromad manbaini shakllantirish tarkibiy qismining paydo bo‘lishini XV asrdagi Usmonli turklar imperiyasida keng qo‘llanilgan “naqd vaqf” larga bog‘laydi. Unda vaqf sifatida ajratilgan kapital xayriya maqsadlarida mablag‘ yig‘ish uchun investitsiya qilinadi, bu esa vaqf (xayriya mulki) tashkil etilishining asosiy sababidir. Naqd vaqfga ko‘ra uy egasi uyini vaqf tashkilotiga sotadi va uyni qayta sotib olguniga qadar uyda ijara asosida istiqomat qiladi. Bu vaqf tashkiloti va uy egasi o‘rtasidagi “oldi-sotdi va ijara” munosabatlarini yuzaga keltiradi. Sizakchaning fikricha, zamonaviy ijara sukukining mohiyati aynan naqd vaqfda yotadi. Unda vaqf sifatida ajratilgan kapital xayriya maqsadlarida mablag‘ yig‘ish uchun investitsiya qilinadi, bu esa vaqf (xayriya mulki) tashkil etilishining asosiy sababidir.

Sizakchaning tadqiqotlariga ko‘ra, sukukning sekyutarizatsiya tarkibiy qismining ilk paydo bo‘lish davrlarini 1775-yillardagi Usmonli imperiyasida “ishom” tizimining joriy qilinishi bilan bog‘laydi.

Ishom — bu mavjud bo‘lgan daromad manbaiga asoslangan bo‘lib, bu tizimda yangi daromad yaratish (bugungi sukuklardagi kabi) zarurat bo‘lmagan. Bu tizim orqali davlat o‘z daromad oqimini oldindan sotish yo‘li bilan mablag‘ yig‘gan.

Agar bir Sizakchaning taqdiqoqtlariga suyanadigan bo‘lsak, XVIII asrlarning so‘ngida Usmonli turklar imperiyasida ishom tizimining joriy qilinishi zamonaviy sukukning yana bir tarkibiy qismi paydo bo‘lishiga sabab bo‘lganligini tushunib yetamiz.

Sukukning uchinchi tarkibiy qismi bo‘lmish maxsus maqsadli tashkilot SPVning kelib chiqishini Sizakcha vaqf institutiga bog‘liqligini ta’kidlab o‘tadi. Bunga asosiy sabab sifatida SPV va vaqfda ham benefitsiarlarga (foyda oluvchilarga) xizmat qiladigan aktivining ishonchli fond sifatida tashkil etilishini o‘z ichiga olishini aytadi.

Sizakchaning bu fikrini Shabana Hasan, Khairunnisa Musari, Abdulkarim kabi olimlar ham tasdiqlagan. Ularning qarashlariga ko‘ra, ushbu ikki instrumentni bir-biriga muvofiqlashtirish imkoni mavjud bo‘lib, vaqf aktivlarini rivojlantirish uchun sukuk orqali vaqfni sekyutarizatsiya qilish mumkin [13, 46-bet].

Sizakcha sukukning SPV tarkibi va vaqf o‘rtasidagi bu darkadagi muvofiqlik ajablanarli emasligi, bunga sabab zamonaviy SPVlar ommaviy huquq trustlari sifatida tashkil etilishini aytib, ingliz trustlari ham salib yurishlari davrida yaqin sharqdagi musulmon davlatlaridan ko‘chirilganligi ta’kidlaydi.

Demak, yuqoridagilardan xulosa qilsak SPVlarning ilk paydo bo‘lish davrlarini XII-XIII asrlarga bog‘lasak bo‘ladi. Shu sababli ham Sizakcha sukukning evalyutsion rivojlanish davrini ikkiga bo‘ladi. Biroq A.Jumagulov sukukning tadrijiy-evalyutsion rivojlanishini uch davrga bo‘ladi. Uning fikricha bu davrlar ilk, o‘rta va hozirgi davrdir [14, 34-bet]. Sukukning tadrijiy-evalyutsion rivojlanishini davrlarga bo‘lishda A.Jumagulovning fikrlariga qo‘shilaman. Sababi, yuqorida olib brogan muhokamalarimizda oydinlashyaptiki, sukuk dastlabki davrda o‘zida investitsiyaviy munosabatlarni aks ettirmagan va oddiy naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirishdagi moliyaviy vosita bo‘lgan. Bu davr asosan VI-XIII asrlarni o‘z ichiga olib, Arab xalifaligi davrlarida rivojlangan. O‘rta davr esa XIII-XIX asrlarni o‘z ichiga olib, aynan bu davrda sukuk o‘zida ilk investitsiyaviy munosabatlarni aks ettira boshlagan. Bu davr Usmonli turk imperiyasi hukmronlik qilgan davrlarga mos keladi va Usmonli turk imperiyasi davrida yo‘lga qo‘yilgan moliyaviy tizimlar sukukning rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan.

Sukukning rivojlanish davridagi uchinchi bosqich XX asrdan hozirgi davrgacha bo‘lgan muddatni o‘z ichiga oladi. Tadqiqotchi A.Jumagulovning fikriga ko‘ra sukukning bu davri quyidagi belgilari bilan yuqoridagi ikki davrdan farqlanadi: Bu davrda sukuk bozorini shakllantirish va uni huquqiy jihatdan tartibga solish jarayoni boshlanib, davlatlar tomonidan sukuk emissiyasini yo‘lga qo‘yish maqsadida maxsus qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilina boshlandi. Shu orqali sukukni chiqarish, ro‘yxatdan o‘tkazish, muomalaga kiritish hamda nazorat qilish tartiblari bosqichma-bosqich huquqiy maydonga kiritildi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab AQSHda qimmatli qog‘ozlar bozori taraqqiy etib, ular uchun huquqiy baza shakllanib, olimlar qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borganidan so‘ng islom olamida zamonaviy sukukning nazariy asoslarini keng miqyosda va oddiy usulda yaxshiroq tavsiflashning imkoni paydo bo‘ldi [15, 294-bet].

Sukuk faoliyatini tartibga solish, tartib va qoidalar ishlab chiqish, sukuk faoliyati uchun barchaga umumiy bo‘lgan yagona standartlar ishlab chiqishda Xalqaro islomiy moliya tashkilotlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro islomiy moliya tashkilotlarining tashkil etilishi tarixi 1970-yillarga borib taqaladi. 1970-yillardan boshlab Yaqin Sharq musulmon davlatlari iqtisodida sezilarli o‘sish boshlandi. Buning zamirida 1975-yili 22 davlat ishtirokida Islom taraqqiyot banki tashkil etildi. Islom taraqqiyot banki islom moliyasi xizmatlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri tartibga solmasa-da bu qoidalarni va umumiy standartlarni ishlab chiquvchi institutlarning tashkil etilishida katta ahamiyat kasb etgan.

Ushbu institutlardan biri bu 1991-yili tashkil etilgan Islomiy moliyaviy institutlar uchun buxgalteriya va audit (AAOIFI) tashkilotidir. Ushbu tashkilot islomiy moliya sohasidagi xalqaro standartlar ishlab chiquvchi tashkilot bo‘lib, uning asosiy vazifalari shariat standartlarini ishlab chiqish, buxgalteriya va audit standartlari, mutaxassislar tayyorlash va konsultatsiyadan iboratdir. AAOIFI xalqaro tashkilotlar ichida birinchi bo‘lib sukuk qimmatli qog‘ozlari uchun umumiy standartlar ishlab chiqqan. AAOIFI 2003-yili investitsiya sukuklari to‘g‘risida 17-sonli shariat standartlarini qabul qilib, birinchi marta sukukka nisbatan aniq ishlab chiqilgan ta’rif berilgan. Ushbu standart sukukning turlari, egalik qilish, foyda olish, emissiya masalalari

bo‘yicha shariatga asoslangan tartib-qoidalarni o‘z ichiga olib, sukuk faoliyatini yo‘lga qo‘yayotgan davlatlar uchun aniq standartlarni taqdim etdi.

Sukuk faoliyatini tartibga soladigan xalqaro tashkilotlardan yana biri Islomiy moliyaviy xizmatlar kengashi (IFSB) bo‘lib, ushbu tashkilot 2002-yili Islom taraqqiyot banki tashabbusi bilan tashkil etilgan. IFSB islom moliyasi institutlari uchun standartlar ishlab chiqadi. IFSB standartlari asosan islomiy moliyaviy institutlar uchun shaffoflik, oshkoralik, ehtiyotkorlikka asoslangan tartibga solish va nazorat qilish tizimlarini rivojlantirishga qaratilgan. Sukuk faoliyatini tartibga solish bo‘yicha IFSB standartlari sukuk egalari uchun xavflarni (kredit, bozor, likvidlik riski) qanday aniqlash va boshqarish bo‘yicha ko‘rsatmalar beradi. IFSB 2017-yilda 19-sonli “Sukuk bo‘yicha oshkoralik talablari” nomli alohida standartlar ham ishlab chiqqan. Bu standartlar sukuk investorlariga nisbatan axborot berish talablari, shariatga muvofiqlikning qanday talablarga javob berishi kerakligi, sukukni kapital aktivi sifatida baholash mezonlari bo‘yicha tartib-qoidalarni belgilab beradi.

Xalqaro islom moliyaviy bozori (IIFM) 2002-yili islomiy moliyaviy bozorda xalqaro (chegara orti) bitimlar uchun yagona va shariatga muvofiq hujjat shakllarini, mahsulot shablonlarini ishlab chiqish maqsadida tashkil etilgan. IIFM islomiy moliyaviy vositalar uchun yagona hujjat shakllarini ishlab chiqish orqali islomiy moliyaviy bozorlarda tuziladigan xalqaro bitimlardagi huquqiy noaniqliklarni oldini oladi. IIFM sukuk faoliyatini tartibga solishdagi roli sukuk bo‘yicha yo‘riqnomalar, tahlillar va bozordagi amaliy tadqiqotlarni chop etish, sukuk tuzilmalarini standartlashtirish orqali ularning shaffofligini va ishonchliligini oshirish, moliyaviy institutlar va nazorat organlari uchun sukuk bo‘yicha texnik yordam va o‘quv dasturlari ishlab chiqishdan iborat bo‘lib, bevosita tartibga soluvchi organ emas. Biroq, tartibga solish jarayoni uchun yagona hujjat shakllari va yuridik asoslar yaratish orqali moliyaviy institutlar va nazorat organlariga ko‘mak beradi.

Yuqorida IIFM, AAOIFI va IFSB xalqaro tashkilotlarning tashkil topishining sabab, maqsad, va vazifalarini tahlil qilar ekanmiz ularning bevosita nazorat qiluvchi yoki tartibga soluvchi organ emas, balki nazorat qiluvchi va tartibga soluvchi moliyaviy institutlarga bu faoliyat doirasida umumiy standartlar ishlab chiqish orqali ko‘mak beruvchi, muvofiqlashtiruvchi, tushuntirishlar beruvchi tashkilotlardir.

Yuqoridagi xalqaro tashkilotlar tashkil etilib, sukuk faoliyati bo‘yicha standartlar, qoidalar va tavsiyalar ishlab chiqish boshlanganidan so‘ng ko‘plab musulmon davrlarida sukuk faoliyatini tashkil etish, nazorat qilish, ular uchun normativ hujjatlar ishlab chiqish yanada osonlashdi.

Dastlab sukukdan foydalanish Iordaniyada amalga oshirildi. Iordaniyada Avfaq, islom ishlari va muqaddas joylar vazirligida ko‘lami kengroq loyihalarni moliyalashtirish uchun yetarli darajada mablag‘ yo‘qligi tufayli vaqf mulklarini qayta modernizatsiya qilish, shuningdek, Islomiy moliyalashtirish instrumentlarining mavjud emasligi sababli sukukdan foydalanish zaruratini paydo qildi. Iordaniyada 1981-yilda “Muqarada obligatsiyalari to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilingan. Bu islomiy qimmatli qog‘ozlar tarixidagi dastlabki va muhim qadamlardan biri bo‘ldi. Ushbu qonunga ko‘ra, muqodara obligatsiyalariga ega bo‘lgan investor ushbu loyihadan keladigan foydaga ulushdor bo‘lgan. Bu esa shariat tamoyillaridan biri bo‘lgan foyda va zararni taqsimlash talablariga qisman mos keladi. Biroq obligatsiya muddati tugagandan keyin Iordaniya hukumati uning nominal qiymatini to‘liq to‘lash kafolatini o‘z zimmasiga olganligi sababli islomiy moliya mutaxassislari tomonidan ushbu obligatsiyalar

shariat talablariga to‘liq mos kelmasligi to‘g‘risidagi fikrlarni yuzaga chiqargan. Shu sababli, shariat talablariga to‘liq javob beruvchi yangi qonunga ehtiyoj sezildi. 2012-yilda esa “30-sonli Islomiy moliya sukuki” Qonuni qabul qilindi. Bu qonun shariat talablariga to‘liq mos kelib, sukuk faoliyatini shariatga muvofiqligi yuzasidan nazorat qiluvchi organlarni tashkil etdi.

2000-yillarga kelib, Malayziyada ham sukuk faoliyatini joriy qilish va tartibga solish bo‘yicha muhim qadamlar tashlana boshlandi. Jumaldan, 2006-yil Malayziyada Qimmatli Qog‘ozlar Komissiyasi (Securities Commission, SC) tomonidan sukuk faoliyati bo‘yicha qo‘llanmalar chiqarila boshlandi. Ushbu qo‘llanmalar sukuk qimmatli qog‘ozlarini emissiya qilish va tartibga solish bo‘yicha tartib-qoidalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu qo‘llanmalarning chiqarilishi . Malayziyada sukuk faoliyatini tartibga soluvchi birinchi normalar to‘plami bo‘ldi. Ammo, buning o‘zi sukuk faoliyati tartibga solish bo‘yicha yetarli imkoniyatlarni taqdim qilmadi. 2013-yilda “Islomiy moliyaviy xizmatlar to‘g‘risida”gi Qonun (Islamic Financial Services Act, IFSA) qabul qilindi. Ushbu qonunning qabul qilinishidan maqsad sukuk faoliyatini nazorat qilish va investorlarning huquqlarini himoya qilishdan iborat edi.

Sukuk faoliyatini joriy qilish va tartibga solish bo‘yicha fors ko‘rfazi davlatlari ham ko‘plab muhim qadamlarni tashladi. Jumladan, Saudiya Arabistoni –yilda “Kapital bozori to‘g‘risida”gi Qonunni qabul qildi. Ushbu qonun Malayziyadagi “Islomiy moliyaviy xizmatlar to‘g‘risida”gi Qonun kabi mamlakatda sukuk qimmatli qog‘ozlarini emissiya qilish, ularning shariat talablari doirasida amalga oshirish ustidan nazorat qilish va investorlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilingan edi.

Qatarda 2008-yilda yuqoridagi qonunlar kabi sukuk faoliyatini tartibga soluvchi 13-sonli “Kapital bozori to‘g‘risida”gi Qonun, Birlashgan Arab Amirligida 2015-yilda “Tijorat kompaniyalari to‘g‘risida” gi 2-sonli Federal farmon qabul qilindi. Ushbu qonunlarning vazifasi ham yuqorida keltirib o‘tilgan qonunlardan katta farq qilmaydi.

Xulosa. Bugungi globallashuv, geosiyosiy beqarorlik va investitsiya oqimlaridagi tebranishlar sharoitida davlatlarning barqaror iqtisodiy o‘sishini ta’minlash, avvalo, kapitalni samarali jalb qilish va uni ustuvor tarmoqlarga yo‘naltirish bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘zbekiston ham so‘nggi yillarda investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish, kapital bozorini kengaytirish va qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish borasida sezilarli islohotlarni amalga oshirmoqda. Biroq amaldagi an’anaviy moliyaviy vositalar va xizmatlar mavjud ehtiyojlarni to‘liq qoplay olmayotgani, ayniqsa aholining muayyan qismi diniy e’tiqodi, moliyaviy odatlari va investitsion xulq-atvori sababli foizga asoslangan instrumentlarga ehtiyotkorona yondashayotgani muqobil moliyaviy vositalarni joriy etish zaruratini kuchaytiradi. Shu ma’noda, sukuk nafaqat islom moliyasining mahsuli, balki real aktivlarga tayanuvchi, foyda va riskni taqsimlashga asoslangan, investitsiya muhitini diversifikatsiya qiluvchi zamonaviy kapital bozori instrumenti sifatida alohida ahamiyatga ega.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sukukning tarixiy ildizi arab tilidagi “sakk” tushunchasiga borib taqalib, u dastlab oddiy yozma moliyaviy hujjat va to‘lov vositasi sifatida shakllangan bo‘lsa-da, keyinchalik bosqichma-bosqich investitsiyaviy mohiyat kasb etib, bugungi zamonaviy sekyuritizatsiya, SPV va daromad keltiruvchi aktivlar bilan bog‘liq murakkab huquqiy-moliyaviy instrumentga aylangan. Ayniqsa, AAOIFI, IFSB va IIFM kabi xalqaro institutlar tomonidan umumiy standartlarning ishlab chiqilishi sukuk bozorining institutsional shakllanishiga, investorlar ishonchini mustahkamlashga va milliy qonunchiliklarni uyg‘unlashtirishga xizmat qildi. Iordaniya, Malayziya va Fors ko‘rfazi davlatlari tajribasi shuni

tasdiqlaydiki, sukukni huquqiy jihatdan aniq tartibga solish, shariat nazorati mexanizmlarini belgilash va investor huquqlarini kafolatlash ushbu instrumentni samarali joriy etishning asosiy shartidir. Demak, O‘zbekiston uchun sukukni joriy etish investitsiya manbalarini kengaytirish, aholining bo‘sh mablag‘larini safarbar etish va kapital bozorini yangi bosqichga olib chiqishning istiqbolli huquqiy-iqtisodiy yo‘nalishidir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Investitsiya huquqi. Toshkent 2009, 6-bet;
2. Tadjibaeva D. Small and Medium-Sized Enterprise Finance in Uzbekistan: Challenges and Opportunities // ADBI Working Paper. — Tokyo: Asian Development Bank Institute, 2019. — № 997. — B. 6.
3. Investment Sukuk. — Manama (Bahrayn): Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions, 2017. — B. 468.
4. Ahmed E.R., Islam M.A., Hashim F. Sukuk – History and Development // Journal of Business and Management. — 2013. — Vol. 6, No. 5. — B. 710.
5. Eris I. Historical Origins of Sukuk as a Popular Instrument in Modern Islamic Finance // Journal of Islamic Economics, Banking and Finance. — 2013. — Vol. 9, No. 1. — B. 111.
6. Eris I. Historical Origins of Sukuk as a Popular Instrument in Modern Islamic Finance // İslam Hukuku Araştırmaları Dergisi. — 2021. — № 38. — B. 108.
7. Ibn Manẓūr M. Lisān al-ʿArab. — Bayrut: Dār Ṣādir, nashr yili ko‘rsatilmagan. — J. 1. — B. 457.
8. Jaffer S. (ed.). Islamic Asset Management: Forming the Future for Shari’a-Compliant Investment Strategies. — London: Euromoney Books, 2004. — B. 72.
9. Udovitch A.L. Partnership and Profit in Medieval Islam. — Princeton: Princeton University Press, 1981. — B. 309–311.
10. Goodwin J. Lords of the Horizons: A History of the Ottoman Empire. — London: Vintage Books, 2003.
11. Vallely, P. (2006). How Islamic inventors changed the world. The independent, 11.
12. “SUKUK: YANGI HUQUQIY INSTITUTGA TARIXIY NAZAR”. A.Jumagulov, 35-bet.
13. Musari Kh. The Evolution of Waqf and Sukuk toward Sukuk-Waqf in Modern Islamic Economy // Journal of Islamic Monetary Economics and Finance. — 2016. — Vol. 2, No. 1. — B. 46.
14. Jumag‘ulov A.E. Sukuk: tarixiy nazar yangi huquqiy institutga // Yurisprudensiya: huquqiy ilmiy-amaliy jurnal. — Toshkent: Toshkent davlat yuridik universiteti, 2025. — № 2 (5-son). — B. 34.
15. Barbour D., Norton J., Slover T. Asset Securitisation in Emerging Market Economies: Fundamental Considerations // Yearbook of International Financial and Monetary Law. — Oxford: Oxford University Press, 1997. — B. 281, 294.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 4 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 March 2026
Accepted: 01 April 2026
Published: 15 April 2026

Article / Original Paper

TYPES AND LEGAL BASIS OF EXEMPTION FROM CRIMINAL LIABILITY

Kabilov Sardor Asrolovich
Master's student of the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan
E-mail: sadakaba1983@gmail.com

Abstract. The article describes the types of exemption from criminal liability from a legal point of view and also refers to the scientific views of scientists in this regard. Also, in the process of analysis, the grounds for applying each type of exemption from liability, its significance and essence are highlighted.

Keywords: release from criminal liability, discretionary, imperative, amnesty, reconciliation, remorse, public danger.

JINOIY JAVOBGARLIKDAN OZOD QILISH TURLARI VA UNING HUQUQIY ASOSLARI

Kabilov Sardor Asrolovich
O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
magistratura tinglovchisi

Annotatsiya. Maqolada jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning turlari huquqiy jihatdan yoritib berilgan bo‘lib, bu borada olimlarning ilmiy qarashlariga ham murojaat qilingan. Shuningdek, tahlil jarayonida javobgarlikdan ozod qilish turlarining har birini qo‘llash asoslari, uning ahamiyati va mohiyati yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: jinoiy javobgarlikdan ozod qilish, diskretsion, imperativ, amnistiya, yarashuv, pushaymon bo‘lish, ijtimoiy xavflilik.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N41

Ma’lumki, jinoyatchilikka qarshi kurash tizimida muhim o‘rin tutadigan asosiy omillardan biri sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish uchun jinoiy javobgarlikning qonunchilikda belgilanganligi hamda uni qo‘llashning maqsadga muvofiqlik darajasidir. Jinoiy javobgarlikning mavjudligi davlatning jinoyatchilikka nisbatan qat’iy munosabatini ifoda etib, jamiyatda qonuniylik va huquq-tartibotni ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, jinoiy javobgarlik faqat jazo tayinlash orqali emas, balki uni qo‘llashda oqilona va differensial yondashuvni talab etadigan huquqiy institut sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi jinoyat qonunchiligi mazkur yondashuvni inobatga olgan holda, nafaqat jazo choralarini, balki ayrim hollarda shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilishni nazarda tutuvchi normalarni ham o‘z ichiga oladi. Bu davlatning jinoiy-huquqiy siyosatidagi insonparvarlik, adolat va mutanosiblik tamoyillarining ustuvorligini ko‘rsatadi. Xususan, jinoyat sodir etgan shaxsning o‘zining sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishiga bo‘lgan munosabati, jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi, yetkazilgan zararning qoplanganligi hamda shaxsning jinoyatdan keyingi xulq-atvori kabi omillar jinoiy javobgarlikdan ozod qilish masalasini hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish normalarining mavjudligi jinoyatchilikka qarshi kurash tizimida jazoning mutlaq ustuvor ekanligi emas, balki huquqiy ta’sir choralarini individuallashtirish va ijtimoiy adolatni ta’minlashga qaratilgan kompleks yondashuv ustuvor ekanligini anglatadi. Bu esa jinoiy-huquqiy qonunchilikning samaradorligini oshirish, shaxs huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda jamiyatda huquqiy barqarorlikni ta’minlashda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Xususan, bu borada A.Yakubov quyidagicha fikrlarni bayon etadi: “ayrim hollarda aybdor shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortmasdan ham jinoyatlarning umumiy va maxsus oldini olish maqsadlariga erishish mumkin”[1; 351-b].

Jinoyat huquqi nazariyasida jinoiy javobgarlikdan ozod etish bir necha asoslarga koʻra klassifikatsiyalashni nazarda tutuvchi qator konsepsiyalar ishlab chiqilgan boʻlib, bular: *birinchisi,* diskretsion (jinoiy javobgarlikdan ozod etish huquqni muhofaza qilish organi vakolatiga taalluqli boʻlgan) va *ikkinchisi,* imperativ (jinoiy javobgarlikdan ozod etish huquqni muhofaza qilish organining majburiyati hisoblangan)[2;43-b].

Albatta D.Qurbonovning bu boradagi haqli e’tirofidan kelib chiqib, aytishimiz mumkinki, **diskretsion javobgarlikdan ozod etish** deganda, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish masalasi huquqni muhofaza qiluvchi organlar vakolati doirasiga kiritilgan holat tushuniladi. Bunda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud jinoiy javobgarlikdan ozod qilish uchun qonunda nazarda tutilgan barcha asoslar mavjud degan xulosaga kelgan taqdirda, shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish haqida qaror qabul qilishi mumkin. Bunga aybdorning oʻz qilmishiga chin koʻngildan pushaymon boʻlganligi, jabrlanuvchi bilan yarashganligi, sharoitning oʻzgarganligi kabi asoslarga koʻra jinoiy javobgarlikdan ozod qilish kabi asoslarni misol qilishimiz mumkin.

Oʻz navbatida, **imperativ turdagi jinoiy javobgarlikdan ozod etish** huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun majburiy xususiyatga ega boʻlgan javobgarlikdan ozod qilish shakli hisoblanadi. Bunday holatlarda qonunda nazarda tutilgan asoslar mavjud boʻlsa, vakolatli organ shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod etishga majbur boʻladi. Masalan, javobgarlikka tortish muddatining oʻtib ketganligi, shaxsning kasalligi sababli javobgarlikdan ozod qilinishi, amnistiya aktiga asosan jinoiy javobgarlikdan ozod etish kabilar shuningdek, Jinoyat kodeksining Maxsus qismida jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning asoslari toʻgʻridan-toʻgʻri koʻrsatilgan holatlar mavjud boʻlgan holatlar shular jumlasidan.

Sh.Berdiyev ham D.Qurbonovga oʻxshash fikrlarni ilgari surgan boʻlib, unga koʻra, “qonunni qoʻllash muqobil qoidaga ega boʻlmagan, yuzaga kelgan jinoiy-huquqiy munosabatlar bilan vakolatli davlat organlari tomonidan, ularning xohish-istagidan qat’iy nazar, soʻzsiz qoʻllanilishi shart boʻlgan asoslar jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning majburiy (imperativ) normalari hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, huquqni qoʻllayotgan vakolatli mansabdor shaxs yoki organ normalarni qonunda yoki amnistiya aktida koʻrsatilganidek bajarishi shart” [3; 116-b].

M.Usmonaliyev javobgarlikdan ozod qilishni qoʻllanishi mumkin boʻlgan shaxslarning sodir qilgan jinoyatlarining ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab guruhga ajratadi. Ya’ni olimga koʻra, birinchi guruhga sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasidan qat’i nazar, javobgarlikdan ozod qilishni qoʻllanishi mumkin boʻlgan jinoyatlar boʻlib, bular javobgarlikka tortish muddatining oʻtib ketganligi munosabati bilan jinoyat uchun javobgarlikdan ozod qilish, kasallik tufayli javobgarlikdan ozod qilish, amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilish.

Ikkinchi guruh esa faqat ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan va uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyat sodir etganlarga nisbatan qo‘llanishi mumkin bo‘lgan javobgarlikdan ozod qilish bo‘lib, bular qilmish yoki shaxs maxsus ijtimoiy xavfliligini yo‘qotganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish, aybdor o‘z qilmishiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish va yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish[4; 534-b].

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining “Javobgarlikdan va jazodan ozod qilish” asoslarini belgilab beruvchi beshinchi bo‘limining XII bobi “Javobgarlikdan ozod qilishning turlari” deb nomlanib, u 64-68-moddalarni o‘z ichiga oladi. Bunda, 64-moddada javobgarlikka tortish muddatining o‘tib ketganligi munosabati bilan jinoyat uchun javobgarlikdan ozod qilish, 65-moddada qilmish yoki shaxs ijtimoiy xavfliligini yo‘qotganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish, 66-moddada aybdor o‘z qilmishiga amalda pushaymon bo‘lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish, 66^1-moddada yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish, 67-moddada kasallik tufayli javobgarlikdan ozod qilish, 68-moddada amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilish kabi jinoiy javobgarlikdan ozod qilish turlarining asoslari belgilab berilgan.

Ushbu yuqorida sanab o‘tilgan moddalarda nazarda tutilgan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish asoslarini huquqiy jihatdan tahlil qiladigan bo‘lsak, ushbu asoslarni vaqt bo‘yicha, shaxsga bog‘liq holatlar bo‘yicha va davlatning to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llash uchun qabul qiladigan huquqiy akti kabi omillar bilan bog‘liq turlarga ajratish mumkin deb hisoblaymiz.

JKning 64-moddasida **javobgarlikka tortish muddatining o‘tib ketganligi munosabati bilan jinoyat uchun javobgarlikdan ozod qilish** asoslari keltirilgan bo‘lib, mazkur moddaga ko‘ra, ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyat sodir etilgan kundan boshlab ikki yil, uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyat sodir etilgan kundan boshlab to‘rt yil, og‘ir jinoyat sodir etilgan kundan boshlab sakkiz yil, o‘ta og‘ir jinoyat sodir etilgan kundan boshlab o‘n to‘rt yil o‘tgan bo‘lsa, shaxs javobgarlikdan ozod qilinadi[5].

Demak, JKning 64-moddasida jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab, jinoiy javobgarlikka tortish muddatlari belgilangan bo‘lib, agar shaxs ushbu moddada belgilangan muddat davomida javobgarlik masalasi hal qilinmasa, jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishi belgilangan. Lekin qonun albatta javobgarlik muqarrarligini tan olgan holda shuni inobatga olganki, agar jinoyat sodir etgan va jinoiy javobgarlikka tortilishi kerak bo‘lgan shaxs tergov yoki suddan yashirinsa, muddatning o‘tishi to‘xtatilishligi va aybdor ushlangan yoki aybini bo‘yniga olib arz qilgan kundan boshlab muddat o‘tishi qayta tiklanadi.

Yuridik adabiyotlarda muddat o‘tishining boshlanish vaqtini aniqlash yuzasidan olimlar turli xil holatlarni qayd qilganlar. Xususan, Kabulovning ta’kidlashicha, qonunda muddatlar o‘tishining ikki turi belgilangan bo‘lib, bular: -differensial (tabaqalashtirilgan) muddat va universal (umumiy) muddatlardir. Unga ko‘ra, differensial muddatning o‘tishi jinoyatlarning tasnifidan kelib chiqadi va JKning 64-moddasi 1-qismiga muvofiq, jinoyat sodir etilgan kundan boshlanadi. Universal muddat esa JK 64-moddasi 5-qismida belgilangan qoidalarga asoslanib, shaxs jinoyat sodir etgan kundan boshlab yigirma besh yil muddat o‘tishini anglatadi [6; 361-b].

Qilmish yoki shaxs ijtimoiy xavfliligini yo‘qotganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish asoslari JKning 65-moddasida belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra, ishni tergov qilish yoki sudda ko‘rish vaqtida sharoit o‘zgarganligi tufayli sodir etilgan qilmish

ijtimoiy xavfliligini yo‘qotganligi yoki jinoyat sodir etgan shaxs ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo‘qotganligi javobgarlikdan ozod qilishga asos bo‘ladi**[5]**. Biz yuqorida huquqshunos olim D.Qurbonovni diskretsion javobgarlikdan ozod etish haqidagi fikriga aynan mazkur moddada nazarda tutilgan javobgarlikdan ozod qilish turini misol tariqasida keltirishimiz mumkin. Ya’ni, sodir etilgan qilmish o‘zining ijtimoiy xavfliligini yo‘qotishi yoki jinoyat sodir etgan shaxs o‘zining ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo‘qotgan deb topish vakolati dastlabki tergov va sud organlariga berilgan. Ushbu asos bo‘yicha javobgarlikdan ozod qilish sharti sodir etilgan qilmish yuzasidan sud hukmi chiqmasdan sharoit o‘zgarishi tufayli qilmish yoki shaxs o‘zining ijtimoiy xavfliligini yo‘qotishini nazarda tutadi.

JKning 66-moddasi **aybdor o‘z qilmishiga amalda pushaymon bo‘lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish**ni nazarda tutadi. Bunda, ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan yoki uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan shaxs, agar u aybini bo‘yniga olish to‘g‘risida arz qilgan, chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan, jinoyatning ochilishiga faol yordam bergan va keltirilgan zararni bartaraf qilgan bo‘lsa, javobgarlikdan ozod qilinishi, Jinoyat kodeksi Maxsus qismining tegishli moddasida alohida ko‘rsatilgan hollarda esa, jinoyat sodir etgan shaxs o‘z qilmishiga amalda pushaymon bo‘lgan taqdirda javobgarlikdan ozod qilinishi lozimligi belgilangan[5].

H.Ochilov va E.Turg‘unboyevga ko‘ra, aybdor o‘z qilmishiga amalda pushaymon bo‘lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilishning ikkita, ya’ni obyektiv va subyektiv asoslari mavjud[7; 110-b].

Yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish JKga 66^1-modda sifatida O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuniga asosan kiritilgan bo‘lib, bunda ijtimoiy xavfli qilmish oqibatida jabr ko‘rgan shaxs (jabrlanuvchi) bilan jinoyat sodir etgan shaxsning yarashganligi munosabati bilan aybdor sud ajrimi asosida javobgarlikdan ozod qilinishini nazarda tutadi. Yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilishda aniq shartlar belgilangan bo‘lib, bunda birinchidan- sodir etilgan jinoyat JK 661-moddasi 1-qismida aniq ko‘rsatib o‘tilgan jinoyatlar bo‘lishligi; ikkinchidan- surishtiruv, dastlabki tergov va sud majlisining istalgan bosqichida jabrlanuvchi bilan yarashish to‘g‘risidagi ariza berilganligi; uchinchidan- agar shaxs ilgari og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyatlari uchun muqaddam sudlangan bo‘lsa, uning ushbu jinoyati uchun sudlanganlik holati tugallangan yoki olib tashlangan bo‘lishligi, to‘rtinchidan- shaxs o‘z aybiga iqror bo‘lishligi; beshinchidan- jabrlanuvchiga yetkazilgan zararning qoplagan bo‘lishligi lozim hisoblanadi.

Shu bilan birga, og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyatlarni sodir etganlik uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilinmaydi[5].

Agar jinoyat sodir etgan shaxsda hukm chiqarilguniga qadar o‘z harakatlarining ahamiyatini anglay olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan tarzda ruhiy holatning buzilishi yuzaga kelgan bo‘lsa, u javobgarlikdan ozod qilinadi. Bunday shaxsga nisbatan sud tomonidan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilishi mumkin[5]. Shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning ushbu turi JKning **kasallik tufayli javobgarlikdan ozod qilish deb nomlangan** 67-moddasida o‘z aksini topgan.

Kasallik tufayli javobgarlikdan ozod qilish asoslariga, shaxs jinoyat sodir etgan vaqtida aqli raso shaxs bo‘lganligi va jinoyat sodir etgandan keyin shaxs hukm chiqarilgunga qadar, o‘z

harakatlarining ahamiyatini anglay olmaydigan va o‘z harakatlarini boshqara olmaydigan darajada ruhiy kasallikka chalinib qolganligi va aqli noraso deb topilganidir[7; 112-b].

Shuningdek, kasallik tufayli javobgarlikdan ozod qilishda agar ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxs aqli noraso bo‘lsa, sud tomonidan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llaniladi. Lekin shu bilan birga agar, aqli noraso shaxslar sodir etgan qilmishlari uchun JKning 64-moddasida nazarda tutilgan javobgarlikka tortish muddatlari o‘tmasdan sog‘aygan taqdirda umumiy asoslarga ko‘ra javobgarlikka tortiladi. Sud tomonidan tibbiy yo‘sindagi majburlov chorasi qo‘llanilgan holatlarda javobgarlikka tortish muddati majburlov chorasi qo‘llanilgan kundan boshlab hisoblanadi.

Jinoyat kodeksining 68-moddasiga asosan, jinoyat sodir etgan shaxs **amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilinishi** mumkin[5]. Amnistiya- grekcha so‘z bo‘lib, amnestia – gunohdan o‘tish, kechirish degan ma’nolarni anglatadi. Amnistiya akti asosida jinoyat sodir etgan nomuayyan shaxslar doirasi jinoiy javobgarlik yoki jazodan to‘liq yoki qisman ozod etiladi yohud jazosi yengillashtiriladi. Yanada aniqroq aytadigan bo‘lsak, qabul qilingan amnistiya aktiga ko‘ra, jinoyatni sodir etgan ma’lum shaxslar toifalariga jinoiy-huquqiy ta’sir choralarini qo‘llamasdan tuzalish imkoniyati beriladi yoki bunday choralar qo‘llanilgan shaxslarning ahvoli yengillashtiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi yigirma uchinchi bandiga asosan[8], O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti amnistiya to‘g‘risidagi hujjatlarni qabul qilish haqida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdimnoma kiritadi hamda 95-moddasi 7-bandida qayd etilganidek[8], O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan amnistiya to‘g‘risidagi hujjatlarni qabul qiladi. Amnistiya akti davlat va xalq uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi sanalar munosabati bilan qabul qilinadigan hujjat bo‘lib, bunda mazkur hujjat qabul qilingan kunga qadar sodir etilgan jinoyatlarga nisbatan tatbiq qilinadi.

Amnistiya akti ma’muriy huquqbuzarlik yoki jinoyat sodir etgan muayyan toifa shaxslarga nisbatan davlat tomonidan ko‘rsatiladigan insonparvarlik ifodasi bo‘lib, bundan ko‘zlangan maqsad mazkur shaxslarga nisbatan ma’muriy yoki jinoyat-huquqiy ta’sir choralari qo‘llamagan holda ularning axloqan tuzalishi uchun imkoniyat berish yoxud bunday choralar qo‘llanilgan shaxslar holatini yengillashtirishdir[9].

Shaxsni javobgarlikdan ozod qilishning boshqa ayrim turlaridan farqli ravishda amnistiya aktini qo‘llash uchun jabrlanuvchining roziligi talab etilmaydi. Surishtiruvchi, tergovchi taqdimnomasi, prokurorning iltimosnomasi, sudning amnistiya aktini qo‘llash to‘g‘risidagi qaroridan norozi bo‘lgan jabrlanuvchi ular ustidan umumiy asoslarda shikoyat berishi mumkin bo‘ladi. Lekin, agar amnistiya akti qo‘llanilishiga e’tiroz bildirgan shaxs tomonidan ayblov hukmi chiqarilgandan so‘ng jinoyat ishini amnistiya aktiga muvofiq tugatish to‘g‘risida ariza berilishi, agar hukmni bekor qilish uchun boshqa asoslar bo‘lmasa, uning apellyatsiya, kassatsiya, taftish tartibida bekor qilinishiga olib kelmaydi.

A.Yakubovning fikricha, Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning aksariyat turlari shartsizdir. Shaxsni javobgarlikdan ozod qilish uchun asos bo‘ladigan protsessual hujjatni qabul qilinishi uzil-kesil hisoblanadi. Zero, Jinoyat kodeksida shaxsning bundan keyingi xatti-harakatlariga hech qanday talab qo‘yilmaydi[10].

Lekin davlat tomonidan amnistiya aktiga asosan javobgarlikdan ozod qilish siyosatiga, barcha huquqshunos olimlar bir xilda ijobiy fikrda bo‘lmaganlar. Xususan, Ch.Bekkariyaning

fikricha, “jazo yengillashtirilgan sari jamiyatda shafqat va kechirimli bo‘lishga zarurat kamayib boraveradi”. Shu sababli, jazolar to‘g‘ri tayinlangan, sud adolatli bo‘lishi ta’minlangan, qonun hujjatlarida esa kechirishga o‘rin bo‘lmasligi lozim[11].

Javobgarlikdan ozod qilishning ushbu turi haqida quyidagicha xulosa qilish mumkinki, amnistiya instituti O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan vakolatlar asosida amalga oshirilib, davlatning insonparvarlik siyosati ifodasi hisoblanadi va bu hujjat muayyan ijtimoiy ahamiyatga ega sanalar munosabati bilan Prezident tashabbusi (taqdimnomasi)ga ko‘ra, Senat tomonidan qabul qilinib, qabul qilingan vaqtga qadar sodir etilgan jinoyatlarga nisbatan qo‘llaniladi. Amnistiya aktida jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik chegarasi hamda tatbiq etiladigan shaxslar doirasi aniq belgilanadi va uni qo‘llash jabrlanuvchining roziligini talab etilmaydi. Shu bilan birga, amnistiyani qo‘llash jarayonida protsessual huquqiy kafolatlar saqlanib qoladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. A.S.Yakubov Jinoyat huquqi. Umumiy qism. -T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2009 – B 351
2. D.R.Qurbonov “Jinoyat qonunchiligini liberallashtirish sharoitida jinoiy javobgarlikni qo‘llash muammolari”. Diss. Samarqand 2008.
3. Sh.Berdiyev “Jinoyat qonunlarining liberallashtirilishi jarayonida jinoiy javobgarlikdan ozod qilishni takomillashtirish muammolari” Diss. -Toshkent.: 2011.
4. M.Usmonaliyev. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. —T., “Yangi asr avlodi”, 2010
5. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. https://lex.uz/docs/111453
6. R.Kabulov, A.A.Otajonov va boshq. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. –T.: O‘zbekiston Respublikasining IIV Akademiyasi, 2012.-B.361.
7. H.R.Ochilov, E.O.Turgunboyev “Jinoyat huquqi” (Umumiy qism). O‘quv-uslubiy qo‘llanma // mas’ul muharrir: yu.f.d. F.Toxirov. – T.: nashriyoti, 2013.
8. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi https://lex.uz/docs/6445145
9. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining 22.12.2006-yildagi “Sudlar tomonidan amnistiya aktlarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi 16-son Qarori.
10. A.S.Yakubov Jinoyat huquqi. Umumiy qism. -T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2009 - B 211.
11. Chezare Bekkariya. On Crimes and Punishments (ital. Dei delitti e delle pene, 1764).

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 4 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 March 2026
Accepted: 01 April 2026
Published: 15 April 2026

Article / Original Paper

ETHYL ALCOHOL, ALCOHOLIC BEVERAGES AND TOBACCO PRODUCTS ILLEGAL TRANSPORTATION ACROSS THE CUSTOMS BORDER

Nosirov Bekzod O‘ktam o‘g‘li
Researcher at the Law Enforcement Academy
E-mail: beknosirovliv@gmail.com

Abstract. This article analyzes the theoretical and legal foundations of offenses related to the illegal transportation of ethyl alcohol, alcoholic beverages, and tobacco products across the customs border. The study also examines the causes of such violations, their socio-economic risks, and the legal norms regulating liability for these offenses.

Keywords: Customs law; Crimes related to violation of customs legislation; Administrative and criminal liability; Ethyl alcohol; Alcoholic products; Tobacco products.

ETIL SPIRTI, ALKOGOL VA TAMAKI MAHSULOTLARINI BOJXONA CHEGARASIDAN NOQONUNIY OLIB O‘TISH

Nosirov Bekzod O‘ktam o‘g‘li
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada etil spirti, alkogol va tamaki mahsulotlarini bojxona chegarasi orqali noqonuniy ravishda olib o‘tish bilan bog‘liq huquqbuzarliklarning nazariy va huquqiy asoslari tahlil qilingan. Shuningdek, huquqbuzarliklar sabablari, ijtimoiy-iqtisodiy xavfliligi va qonunchilik normalari keng qamrab olingan.

Kalit so‘zlar: Bojxona huquqi, bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarni buzish bilan bog‘liq bo‘lgan jinoyatlar, ma’muriy va jinoiy javobgarlik, etil spirti, alkogol mahsulotlari, tamaki mahsulotlari.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N42

Kirish. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli iqtisodiy va huquqiy islohotlar natijasida mamlakatimizda xalqaro savdo hajmi sezilarli darajada oshib, iqtisodiy rivojlanish yuqori sur’atlarda amalga oshmoqda. Mazkur jarayonlar nafaqat milliy ishlab chiqarish hajmining ortishiga, eksport-import operatsiyalarining kengayishiga, balki davlat byudjeti daromadlarining ko‘payishiga ham xizmat qilmoqda. Natijada mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi, investitsion jozibadorlikning ortishi hamda xalqaro iqtisodiy hamkorlikning kengayishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Bunday sharoitda bojxona organlarining faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bojxona organlari davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash, milliy bozorni noqonuniy tovarlardan himoya qilish, bojxona to‘lovlari orqali davlat byudjetini shakllantirish hamda tashqi savdo faoliyatini tartibga solish jarayonida muhim vazifalarni bajaradi. Shuningdek, bojxona organlari xalqaro savdo munosabatlarida qonunchilik talablariga rioya etilishini

nazorat qilish, kontrabanda va boshqa bojxona qonunbuzarliklarining oldini olish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, transport va logistika tizimlarining rivojlanishi hamda xalqaro savdo hajmining ortib borishi ayrim turdagi huquqbuzarliklar va noqonuniy iqtisodiy faoliyat shakllarining yuzaga kelishiga ham sabab bo‘lmoqda. Ayniqsa, ayrim tovarlarni bojxona chegarasi orqali noqonuniy olib o‘tish, bojxona nazoratidan yashirish, qalbaki hujjatlardan foydalanish yoki bojxona to‘lovlaridan bo‘yin tovlash holatlari amaliyotda uchrab turadi. [1]

Bojxona nazorati masalalarining dolzarbligi ayniqsa etil spirti, alkogol va tamaki mahsulotlarini noqonuniy olib o‘tish bilan bog‘liq huquqbuzarliklar misolida yaqqol namoyon bo‘ladi. Mazkur tovarlar iqtisodiy jihatdan yuqori qiymatga ega bo‘lib, ularning noqonuniy aylanmasi davlat byudjetiga sezilarli darajada zarar yetkazishi mumkin. Bundan tashqari, bunday mahsulotlarning noqonuniy ravishda mamlakat hududiga olib kirilishi milliy ishlab chiqaruvchilar faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi hamda bozordagi raqobat muhitini buzishi mumkin. [2]

Shuningdek, sifati kafolatlanmagan hamda sanitariya-gigiyena talablariga javob bermaydigan alkogol va tamaki mahsulotlarining noqonuniy ravishda muomalaga kiritilishi fuqarolarning sog‘lig‘i uchun jiddiy xavf tug‘diradi. Shu sababli etil spirti, alkogol va tamaki mahsulotlarini bojxona chegarasi orqali noqonuniy olib o‘tish bilan bog‘liq huquqbuzarliklarni o‘rganish hamda ularning oldini olish mexanizmlarini takomillashtirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. [3]

Asosiy qism. Globallashuv jarayonlari, transport va logistika tizimlarining rivojlanishi hamda savdo hajmining keskin oshishi bojxona sohasida yangi turdagi huquqbuzarliklar yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Ayniqsa, Bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona nazoratidan yashirib yoxud bojxona hujjatlari yoki vositalariga o‘xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo‘li bilan foydalangan holda yoki deklaratsiyasiz yoxud boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib, etil spirti, alkogol va tamaki mahsulotlarini hamda taqiqlangan yoki cheklangan boshqa tovarlarning noqonuniy aylanmasi amaliyotda keng uchramoqda. [4].

Bojxona to’g’risidagi qonun hujjatlarini buzish jinoyatlarining o’ziga xos xususiyati shundaki, ular aksariyat hollarda katta moddiy qiymatga ega bo’lgan tovarlar bilan bevosita bog’liq. Etil spirti, alkogol va tamaki mahsulotlari aynan shunday tovarlar sirasiga kiradi.

Shu nuqtai nazardan, bojxona qonunchiligi, huquqbuzarlik va uning oldini olish mexanizmlari, ma’muriy hamda jinoiy javobgarlik masalalari mamlakatimizda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash va fuqarolar farovonligini oshirish borasida muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Etil spirti, alkogol va tamaki mahsulotlarini bojxona chegarasidan noqonuniy olib o‘tish bilan bog‘liq huquqbuzarliklar uchun O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 227^{19}-moddasida hamda Jinoyat kodeksining 182-moddasida javobgarlik belgilangan. [5]

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 182-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning obyekti davlat tomonidan o‘rnatilgan bojxona faoliyati tartibi, xususan tovarlar va boshqa predmetlarni bojxona chegarasi orqali olib o‘tish, bojxona nazoratini amalga oshirish hamda bojxona to‘lovlarini undirish bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. [6]

Xalqaro tajribada ham bojxona sohasidagi huquqbuzarliklar, ayniqsa alkogol va tamaki mahsulotlarining noqonuniy aylanishi davlat iqtisodiy xavfsizligiga jiddiy tahdid sifatida baholanadi. **World Customs Organization** ekspertlarining ta'kidlashicha, yuqori aksiz stavkalariga ega bo'lgan mahsulotlar, xususan etil spirti, alkogol va tamaki mahsulotlari ko'pincha noqonuniy savdo va kontrabanda predmetiga aylanadi. Bunday holatlar davlat byudjeti daromadlarining kamayishiga, noqonuniy iqtisodiy faoliyatning kengayishiga hamda iste'molchilarning sog'lig'iga xavf tug'diruvchi sifatsiz mahsulotlarning tarqalishiga olib keladi. Shu sababli ko'plab davlatlarda bojxona nazoratini kuchaytirish, risklarni boshqarish tizimini joriy etish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish bojxona qonunbuzarliklariga qarshi kurashning muhim yo'nalishlari sifatida qaraladi. [7]

Xalqaro tadqiqotlarda alkogol va tamaki mahsulotlarining noqonuniy aylanmasi global iqtisodiyot uchun muhim muammolardan biri sifatida ko'rib chiqiladi. **Organisation for Economic Co-operation and Development** ma'lumotlariga ko'ra, aksiz solig'i yuqori bo'lgan mahsulotlar ko'pincha noqonuniy savdo va kontrabanda predmetiga aylanadi. Bunday holatlar davlat byudjetiga sezilarli zarar yetkazibgina qolmay, balki noqonuniy iqtisodiy faoliyatning kengayishiga ham sabab bo'ladi. Shu bois ko'plab davlatlar bojxona nazoratini kuchaytirish, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash hamda risklarni boshqarish tizimlarini joriy etish orqali ushbu turdagi huquqbuzarliklarning oldini olishga intilmoqda. [8]

Shuningdek, Yevropa mamlakatlari tajribasida ham tamaki va alkogol mahsulotlarining noqonuniy olib o'tilishi iqtisodiy va ijtimoiy xavfsizlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi qayd etiladi. **European Commission** hisobotlarida ta'kidlanishicha, noqonuniy tamaki mahsulotlari savdosi davlatlar byudjetiga katta miqdorda zarar yetkazadi hamda sog'liq uchun xavfli, sifatsiz mahsulotlarning tarqalishiga olib keladi. Shu sababli Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida bojxona nazoratini kuchaytirish, mahsulotlarni markirovka qilish tizimini joriy etish va davlatlararo axborot almashinuvini rivojlantirish kontrabandaga qarshi kurashning muhim mexanizmlaridan biri hisoblanadi. [9]

2024 yilda *World Economics & Finance Bulletin* jurnalida chop etilgan **"Smuggling of tobacco products, its impact on the economy and public health"** nomli maqola muallifi, ilmiy tadqiqotchi va mutaxassis Boykabilov Bahodir Mustafayevichning ta'kidlashicha "Tamaki mahsulotlarini smuggling (noqonuniy olib o'tish) — bu nafaqat davlat byudjeti uchun muhim yo'qotishlarga olib keladigan iqtisodiy muammo bo'libgina qolmasdan, balki aholining, ayniqsa yoshlarning sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatadi." [10]

Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, tamaki mahsulotlarining noqonuniy aylanmasi global bozorning taxminan **10–11,6%** ini tashkil etadi va bu holat davlatlar uchun yillik **40–50 milliard AQSh dollari miqdorida soliq yo'qotishiga** sabab bo'lmoqda. Mahalliy statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston bozorida tamaki mahsulotlarining noqonuniy ulushi **12,4%** ga yetgan hamda davlat byudjeti **390,6 milliard so'm** soliq tushumidan mahrum bo'lgan. [11]

Xulosa. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib aytish mumkinki, bojxona sohasida sodir etiladigan huquqbuzarliklar, xususan etil spirti, alkogol va tamaki mahsulotlarini bojxona chegarasi orqali noqonuniy olib o'tish bilan bog'liq jinoyatlar davlatning iqtisodiy xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan muhim omillardan biri hisoblanadi. Bunday huquqbuzarliklar davlat byudjeti daromadlarining kamayishiga, noqonuniy iqtisodiy faoliyatning kengayishiga hamda

sifatsiz mahsulotlarning noqonuniy aylanmasi orqali fuqarolar sog‘lig‘iga xavf tug‘dirishiga olib keladi.

Shu sababli bojxona qonunchiligini takomillashtirish, bojxona nazoratini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida kuchaytirish hamda huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan samarali mexanizmlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, xalqaro tajribani o‘rganish va davlatlararo hamkorlikni rivojlantirish orqali kontrabanda va bojxona sohasidagi boshqa huquqbuzarliklarga qarshi kurashish samaradorligini yanada oshirish mumkin.

Taklif va tavsiyalar. 1. Alkogol va tamaki mahsulotlarini noqonuniy aylanuvini oldini olish maqsadida markirovkalash hamda raqamli kuzatuv tizimini joriy qilish juda yaxshi samara bergan bo‘lardi. World Health Organization tavsiyalariga ko‘ra, tamaki mahsulotlari uchun “track and trace” (kuzatish va nazorat qilish) tizimi kontrabanda va noqonuniy savdoni kamaytirishda samarali vosita hisoblanadi. Mazkur tizim orqali mahsulotning ishlab chiqarishdan tortib iste’molchigacha bo‘lgan harakatini nazorat qilish mumkinligi qayd etilgan.

2. World Customs Organization tajribasida davlatlar o‘rtasida tezkor axborot almashinuvi kontrabanda holatlarini aniqlash va oldini olishda muhim ahamiyat kasb etishi belgilangan. Shu sababli, Bojxona organlari o‘rtasida xalqaro axborot almashinuvi tizimini kuchaytirish, xalqaro elektron ma’lumot almashish mexanizmlarini rivojlantirish taklif etiladi.

3. Ayrim davlatlar tajribasida (Yevropa mamlakatlari, AQSh) aksiz solig‘i yuqori bo‘lgan mahsulotlarni noqonuniy olib o‘tganlik uchun moliyaviy jarimalar va musodara choralarini kuchaytirish amaliyoti qo‘llaniladi. Shu kabi mexanizmlarni milliy qonunchilikda joriy etish orqali bojxona qonunchiligida javobgarlik choralarini takomillashtirish taklif etiladi. Buning natijasida bojxona huquqbuzarliklarining oldini olish samaradorligida ancha o‘sishgan erishilgan bo‘lar edi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. World Customs Organization. *Illicit Trade Report.* – Brussels, 2023.
2. World Health Organization. *WHO Report on the Global Tobacco Epidemic.* – Geneva, 2021.
3. European Commission. *Stepping up the fight against cigarette smuggling and other forms of illicit trade in tobacco products.* – Brussels, 2013.
4. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi
5. O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi
6. O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi
7. World Customs Organization. *Illicit Trade Report*. – Brussels, 2023.
8. Organisation for Economic Co-operation and Development. *Illicit Trade: Converging Criminal Networks*. – Paris, 2016.
9. European Commission. Report on the implementation of the Tobacco Products Directive (2014/40/EU). – Brussels: European Commission, 2021.
10. Boykabilov B.M. (2024). *Smuggling of tobacco products, its impact on the economy and public health*. *World Economics & Finance Bulletin (WEFB)*, Vol. 30, pp. 129–137,
11. World Health Organization. *WHO Report on the Global Tobacco Epidemic.* – Geneva: WHO, 2021.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 4 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 March 2026
Accepted: 01 April 2026
Published: 15 April 2026

Article / Original Paper

GENDER-BASED VIOLENCE ENHANCED BY ARTIFICIAL INTELLIGENCE: CHALLENGES TO INTERNATIONAL HUMANITARIAN LAW AND GAPS IN LEGAL REGULATION

Sabirova Kuvanchai Babamuratovna
Lecturer at Abu Rayhon Beruniy University
Independent Applicant

Abstract. This article examines the transformation of gender-based violence under the influence of artificial intelligence (AI). The rapid spread of deepfakes, automated harassment systems, and algorithmic amplification of hate speech poses unprecedented challenges to the international human rights protection system. Based on an analysis of UN statistical data, UN Women documents, a comparative legal study of 24 national AI regulatory strategies, and relevant international conventions, systemic gaps in legal regulation are identified. The author substantiates the thesis that existing international treaties, including the Budapest Convention on Cybercrime and the Istanbul Convention, do not cover the specifics of algorithm-mediated violence. The article proposes avenues for harmonizing international law in light of technological realities, including the development of an additional protocol, the implementation of "safe by design" principles, and the extension of liability to platform developers.

Keywords: artificial intelligence, gender-based violence, digital violence, deepfake, international humanitarian law, human rights, cybercrime, Istanbul Convention.

ГЕНДЕРНОЕ НАСИЛИЕ, УСИЛЕННОЕ ИСКУССТВЕННЫМ ИНТЕЛЛЕКТОМ: ВЫЗОВЫ МЕЖДУНАРОДНОМУ ГУМАНИТАРНОМУ ПРАВУ И ПРОБЕЛЫ В ПРАВОВОМ РЕГУЛИРОВАНИИ

Сабирова Куванчай Бабамуратовна
Преподаватель университета Абу Райхон Беруний
Самостоятельный соискатель

Аннотация. В статье исследуется феномен трансформации гендерного насилия под воздействием технологий искусственного интеллекта (ИИ). Стремительное распространение дипфейков, автоматизированных систем домогательств и алгоритмического усиления языка вражды создает беспрецедентные вызовы для международной системы защиты прав человека. На основе анализа статистических данных ООН, документов Структуры «ООН-женщины», сравнительно-правового исследования 24 национальных стратегий регулирования ИИ и релевантных международных конвенций выявляются системные пробелы в правовом регулировании. Автор обосновывает тезис о том, что действующие международные договоры, включая Будапештскую конвенцию о киберпреступности и Стамбульскую конвенцию, не охватывают специфику насилия, опосредованного алгоритмами. В статье предлагаются направления гармонизации международного права с учетом технологических реалий, включая разработку дополнительного протокола, имплементацию принципов «безопасности по дизайну» и распространение ответственности на разработчиков платформ.

Ключевые слова: искусственный интеллект, гендерное насилие, цифровое насилие, дипфейк, международное гуманитарное право, права человека, киберпреступность, Стамбульская конвенция.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N43

Цифровая трансформация, обещавшая расширение прав и возможностей и глобальную связанность, обернулась для миллионов женщин и девочек появлением нового пространства системного насилия. По данным Структуры «ООН-женщины», 44% женщин и девочек в мире — 1,8 миллиарда — не имеют доступа к правовой защите от домогательств и преследования в Интернете. Менее чем в 40% стран мира действуют законы, непосредственно направленные на противодействие киберпреследованию. Эта ситуация усугубляется стремительным развитием технологий искусственного интеллекта (ИИ), которые не только создают новые формы насилия, но и многократно усиливают существующие [1].

Особую тревогу вызывает тот факт, что технологический прогресс опережает развитие правовых механизмов. Как справедливо отмечает Директор-исполнитель Структуры «ООН-женщины» Сима Бахус, «то, что начинается в Интернете, не остается в Интернете. Цифровое насилие проникает в реальную жизнь, сея страх, заставляя замолчать и, в худших случаях, приводя к физическому насилию и фемициду». Законы должны развиваться вместе с технологиями, однако существующие международные договоры разрабатывались в эпоху, когда генеративные нейросети не были доступны широкому кругу пользователей.

Цель настоящего исследования — выявить пробелы в международно-правовом регулировании, возникающие при квалификации актов гендерного насилия, совершенных с использованием технологий ИИ, и предложить направления для гармонизации существующих норм международного гуманитарного права.

Методологическую основу исследования составляет комплекс общенаучных и специально-юридических методов. Формально-юридический метод применен для анализа положений ключевых международных документов: Конвенции Совета Европы о киберпреступности (Будапештская конвенция), Конвенции Совета Европы о предотвращении и борьбе с насилием в отношении женщин и домашним насилием (Стамбульская конвенция), а также Общих рекомендаций Комитета CEDAW. Сравнительно-правовой метод использован при изучении национальных стратегий регулирования ИИ (Chile, Canada, Australia, UK) и подходов к криминализации дипфейков в различных юрисдикциях. Статистические данные базируются на актуальных отчетах Структуры «ООН-женщины» (2025–2026) [2], Всемирного банка и Association for Progressive Communications [3].

Понятие и виды гендерного насилия, усиленного искусственным интеллектом.

Термин «технологически опосредованное гендерное насилие» (technology-facilitated gender-based violence, TFGBV) получает все более широкое признание в международном экспертном сообществе. Под ним понимаются действия, совершаемые с использованием информационно-коммуникационных технологий, которые направлены против женщин в силу их гендерной принадлежности или оказывают на них непропорциональное воздействие. Интеграция ИИ трансформирует традиционные формы насилия, придавая им новые качественные характеристики: автоматизацию, масштабируемость, анонимность и персонификацию.

На основе анализа докладов ООН и научной литературы можно выделить следующие основные виды гендерного насилия, усиленного ИИ:

Дипфейк-порнография без согласия (non-consensual deepfake pornography). Данный вид насилия представляет собой создание реалистичных изображений или видеороликов порнографического содержания с использованием лиц реальных людей без их ведома и согласия. Согласно данным Структуры «ООН-женщины», 98% всех дипфейк-видео в сети являются порнографическими, и почти все они созданы с использованием изображений женщин. За период с 2019 по 2023 год количество дипфейк-видео увеличилось на 550%, а инструменты для их создания стали общедоступными и зачастую бесплатными.

Российские исследователи Е.В. Завгороднева и А.Г. Голощапова отмечают, что «обращено внимание на высокую степень выбора женщин и несовершеннолетних в качестве жертв при создании глубоких порнодипфейков». Дипфейк-технологии позволяют создавать контент, который невозможно отличить от подлинных изображений, что делает защиту жертв крайне затруднительной.

Автоматизированные домогательства и кибersталкинг (automated harassment and cyberstalking). ИИ-алгоритмы используются для автоматизации преследования: боты могут круглосуточно отправлять угрожающие сообщения, комментарии, создавать фейковые аккаунты для слежки. Как отмечается в исследовании APC, современные инструменты позволяют осуществлять «скоординированные кампании домогательств» с использованием ИИ, что непропорционально часто затрагивает женщин-журналисток, политиков и правозащитниц. Согласно статистике, каждая четвертая женщина-журналист получает онлайн-угрозы физического насилия, включая угрозы убийством.

Секс-шантаж с использованием ИИ (AI-powered sextortion). Злоумышленники используют сгенерированные ИИ изображения для шантажа жертв, угрожая распространением компрометирующих материалов. Отличие от традиционного секс-шантажа заключается в том, что для создания угрозы не требуется реальных интимных изображений жертвы — достаточно фотографии из социальных сетей, на основе которой ИИ генерирует компрометирующий контент [4].

Гендерная дезинформация (gendered disinformation). Координированные кампании по распространению ложной информации, имеющей гендерную окраску, направленные на дискредитацию женщин в публичном пространстве. Как указывается в докладе UN Women, такие кампании нацелены на то, чтобы «заставить замолчать, пристыдить и запугать женщин и девочек», вытесняя их из публичного пространства[5].

Доксинг (doxing). Публичное раскрытие личной информации жертвы (адреса, номера телефонов, данные паспорта) с использованием автоматизированных инструментов сбора данных. ИИ позволяет агрегировать информацию из множества источников и создавать подробные досье на жертв.Важно подчеркнуть, что эти формы насилия не являются изолированными: они часто комбинируются и усиливают друг друга. Кроме того, исследователи обращают внимание на то, что «инструменты для "раздевания" применяются не на изображениях мужчин. Они явно нацелены на женщин. Это яркий пример вредоносной технологии. Ничего нейтрального в ней нет» [6].

Важно понимать, что граница между онлайн и офлайн насилием в данном контексте стирается. Например, доксинг (публикация личных данных) может привести к преследованию в реальной жизни, а созданные ИИ дипфейки — к репутационным

потерям и психологическим травмам. Искусственный интеллект не создает проблему гендерного насилия с нуля, а скорее выступает катализатором, усиливая и видоизменяя уже существующие формы насилия, делая их более масштабными, доступными и трудно контролируемыми.

Ключевую роль в понимании того, как ИИ вписывается в эту проблему, играет концепция, разделяющая два пути воздействия:

1. Встроенный вред (Embedded Harms): Насилие, заложенное в самих системах ИИ из-за предвзятости данных, на которых они обучаются. Алгоритмы могут воспроизводить и усиливать сексистские и дискриминационные стереотипы.

2. Злонамеренное использование (Malicious Use): Использование инструментов ИИ злоумышленниками для причинения вреда, например, для создания дипфейков или автоматизации кибербуллинга.

ИИ делает традиционные виды онлайн-агрессии более опасными и трудно устранимыми:

- Автоматизированные кампании домогательств и травли (кибербуллинг): Если раньше организация травли требовала усилий, то теперь ИИ позволяет создавать ботов, которые могут массово и круглосуточно отправлять оскорбительные сообщения, угрозы или дискредитирующий контент. Подготовка такой кампании может занять всего 15-20 минут.

- Гендерная дезинформация: Создание и распространение ложной информации, часто сексуализированного или порочащего характера, для дискредитации женщин в публичном поле — политиков, журналисток, активисток.

- Синтезированный голосовой фишинг (Vishing) и мошенничество: Использование ИИ для клонирования голоса с целью вымогательства или создания компрометирующих ситуаций.

- Усиление кибersталкинга: GPS-трекеры и приложения для слежки, а также анализ цифрового следа жертвы с помощью ИИ позволяют преследователям получать пугающе точные данные о местоположении и распорядке дня человека.

Масштабы проблемы и группы риска.

Проблема носит глобальный характер. По данным ООН, до 58% женщин и девочек сталкиваются с той или иной формой технологически усиленного насилия. Исследования также показывают, что 73% женщин-журналисток испытывают на себе цифровое насилие в ходе работы.

Некоторые группы подвержены еще большему риску из-за пересекающихся форм дискриминации (intersectionality) :

- Публичные женщины: Политики, журналистки, правозащитницы.

- Молодые женщины и девушки (58% из них сталкивались с онлайн-домогательствами) .

- Женщины с множественной дискриминацией: Черные женщины, женщины из числа коренных народов, мигрантки, женщины с инвалидностью, ЛГБТКИ+ люди.

Одной из главных проблем является отставание права от технологий. По данным Всемирного банка, менее чем в 40% стран мира действуют законы, прямо защищающие женщин от кибер-домогательств. Это означает, что около 1,8 миллиарда женщин не имеют законодательной защиты от этих новых форм насилия. Во многих странах

действия, разрушающие жизнь жертве, остаются в "серой" правовой зоне — они могут быть ужасными (awful), но формально законными (lawful).

В международных документах проблема TFGBV также часто рассматривается фрагментарно, без учета специфики рисков, создаваемых ИИ.

Таким образом, гендерное насилие, усиленное ИИ, представляет собой сложный и быстрорастущий вызов, требующий скоординированных действий на глобальном уровне: обновления законов, внедрения этических стандартов при разработке ИИ ("безопасность по дизайну") и повышения цифровой грамотности населения.

Заключение. Проведенное исследование позволяет сделать ряд выводов относительно характера и масштаба вызовов, которые гендерное насилие, усиленное искусственным интеллектом, создает для международного гуманитарного права и современной системы правового регулирования.

Прежде всего, исследование подтверждает, что искусственный интеллект не порождает феномен гендерного насилия, но качественно трансформирует его. Технологии машинного обучения и генеративные модели выступают не просто нейтральными инструментами, а активными катализаторами, многократно усиливающими традиционные формы дискриминации и насилия. Алгоритмы, встроенные в существующие социальные иерархии, способны автоматизировать процесс поиска жертв, масштабировать производство вредоносного контента и делать атаки скоординированными и труднопредсказуемыми. В результате цифровое насилие приобретает системный характер, последствия которого сопоставимы с реальным физическим уроном.

Ключевой проблемой, выявленной в ходе анализа, является критический разрыв между скоростью технологического развития и реакцией международно-правовой системы. Традиционные нормы, включая инструментарий международного гуманитарного права, оказываются недостаточно адаптированы к реалиям цифровой среды. Наиболее остро эта проблема проявляется в трех аспектах. Во-первых, трансграничный характер интернета и анонимность, обеспечиваемая технологиями, создают юрисдикционные сложности при идентификации правонарушителей. Во-вторых, специфика цифровых доказательств вступает в противоречие с устоявшимися процессуальными требованиями. В-третьих, сохраняется неопределенность в вопросе ответственности технологических платформ за контент, генерируемый или распространяемый с использованием их инфраструктуры.

Анализ современных подходов к регулированию искусственного интеллекта демонстрирует их фрагментарность. Большинство национальных и международных стратегий в области искусственного интеллекта не учитывают гендерное измерение технологического насилия.

Существенным препятствием для эффективного правоприменения остается сохраняющийся цифровой разрыв и культурная специфика. Модерирующие алгоритмы, обученные преимущественно на данных из англоязычного сегмента интернета, часто не распознают локальные формы насилия и дискриминационные практики, характерные для стран Глобального Юга. Это требует выработки гибких подходов, учитывающих языковое и культурное разнообразие.

Таким образом, противодействие гендерному насилию, усиленному искусственным интеллектом, требует не точечных законодательных изменений, а комплексной трансформации подходов к управлению технологиями. Без встраивания принципов гендерного равенства и уважения прав человека в саму логику разработки и внедрения искусственного интеллекта технологический прогресс рискует закрепить и усугубить существующие формы неравенства, придав им новые, более изощренные и трудноуловимые формы.

Литература/References/Adabiyotlar:

1. Цифровое насилие усиливается, однако почти половина женщин и девочек в мире все еще не имеют правовой защиты от него, https://eca.unwomen.org/ru.
2. https://www.unwomen.org/sites/default/files/2026-01/brochure-un-women-strategic-plan-2026-2029-ru.pdf
3. Конвенция о ликвидации всех форм дискриминации в отношении женщин: https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/cedaw.shtml
4. КИБЕРСТАЛКИНГ: ПОНЯТИЕ И КЛАССИФИКАЦИЯ https://cyberleninka.ru/article/n/kiberstalking-ponyatie-i-klassifikatsiya
5. Генеральная Ассамблея https://docs.un.org/ru/A/78/288
6. https://www.kaspersky.ru/resource-center/definitions/what-is-doxing.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 4 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 March 2026
Accepted: 01 April 2026
Published: 15 April 2026

Article / Original Paper

ISSUES OF USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE CAPABILITIES IN THE INSTITUTION OF MEDIATION

Urinboyeva Muxlisa Ma'rufovna
Independent researcher at the law enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan
E-mail: m.urunboyeva@gmail.com

Abstract. This article provides a scientific and practical analysis of the possibilities of using artificial intelligence technologies to improve the institution of mediation. The author highlights the essence and content of mediation, its history, legal nature, foreign experience, and the regulatory and legal framework for its application in the Republic of Uzbekistan. The article also analyzes the main problems encountered in the practice of mediation in our country, including the low level of public awareness, the shortage of qualified mediators, the weak financial sustainability of non-governmental mediation centers, insufficient coordination between courts and mediators, and barriers related to the psychological acceptance of mediation. The paper substantiates the use of modern solutions to address these problems, such as artificial intelligence-based interactive platforms, chatbots, online learning systems, virtual simulations, automated analysis and forecasting tools, and information exchange platforms. In conclusion, it is emphasized that the introduction of artificial intelligence technologies into the field of mediation can contribute to increasing the effectiveness of pre-trial dispute resolution, reducing the workload of courts, improving the quality of mediators' activities, and fostering a culture of reconciliation in society.

Keywords: mediation, artificial intelligence, alternative dispute resolution, mediator, ADR, chatbot, NLP, virtual simulation, legal technologies, pre-trial dispute resolution, legal culture, psychological acceptance, information platform, institution of mediation.

MEDIATSIYA INSTITUTIDA SUN'IY INTELLEKT IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH MASALALARI

Urinboyeva Muxlisa Ma'rufovna
O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada mediatsiya institutini takomillashtirishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilingan. Muallif mediatsiyaning mazmun-mohiyati, tarixi, huquqiy tabiati, xorijiy tajribasi hamda O'zbekiston Respublikasida uning normativ-huquqiy asoslarini yoritgan. Shuningdek, mamlakatimizda mediatsiya instituti amaliyotida uchrayotgan asosiy muammolar, jumladan aholi o'rtasida xabardorlik darajasining pastligi, malakali mediatorlar yetishmasligi, nodavlat mediatsiya markazlarining moliyaviy barqarorligi sustligi, sudlar va mediatorlar o'rtasida koordinatsiyaning yetarli emasligi hamda mediatsiyaning psixologik qabul qilinishi bilan bog'liq to'siqlar tahlil qilingan. Maqolada mazkur muammolarni hal etishda sun'iy intellektga asoslangan interaktiv platformalar, chatbotlar, onlayn ta'lim tizimlari, virtual simulyatsiyalar, avtomatlashtirilgan tahlil va prognozlash vositalari, axborot almashinuv platformalari kabi zamonaviy yechimlardan foydalanish asoslab berilgan. Xulosa sifatida, sun'iy intellekt texnologiyalarini mediatsiya sohasiga joriy etish nizolarni sudgacha hal qilish samaradorligini oshirish, sudlar yuklamasini kamaytirish, mediatorlar faoliyati sifatini yaxshilash va jamiyatda murosa madaniyatini rivojlantirishga xizmat qilishi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: mediatsiya, sun'iy intellekt, nizolarni muqobil hal qilish, mediator, ADR, chatbot, NLP, virtual simulyatsiya, huquqiy texnologiyalar, sudgacha hal etish, huquqiy madaniyat, psixologik qabul qilish, axborot platformasi, mediatsiya instituti.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N44

Kirish. Mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti munosabatlari rivojlanib borgan sari bunday munosabatlarning subyektlari – tomonlar o‘rtasida turli-tuman: fuqarolik-huquqiy, oilaviy, biznes, ta’lim, ijtimoiy-mehnat munosabatlariga doir nizolar vujudga kelishi tabiiy holdir. Ayniqsa, bunday nizolar orasida oilaviy huquqiy munosabatlarga doir hamda mulkiy nizolar salmoqli o‘rin egallaydi. Odatda, nizolashayotgan tomonlar masalaning yechimini topish maqsadida an’anaviy yo‘lni tanlaydilar, ya’ni sudlarga murojaat qiladilar. Biroq, milliy huquq tizimimizda ishni sudgacha olib bormasdan, nizolarni boshqa muqobil yo‘llar – apellyatsiya kengashlari, hakamlik sudlari va mediatsiya instituti yordamida ham hal etish imkoniyatlari mavjud.

Hozirgi kunda rivojlangan xorijiy davlatlar huquq tizimida nizoni sudgacha olib bormasdan, muqobil yo‘l bilan hal qilishga qaratilgan **mediatsiya instituti** alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti ustavining 33-moddasida vositachilik (mediatsiya) nizolarni hal etishning ustuvor vositasi sifatida tan olingan [1]. Shuningdek, Yevropa parlamenti va Kengashining 2008-yilda qabul qilingan 52-direktivasida fuqarolik va tijorat nizolarida “Mediatsiya” tushunchasiga “taraflar boshlab bergan yoki sud tomonidan tayinlangan yoxud milliy qonunchilik bilan belgilanganidan qat’i nazar, ikki yoki undan ortiq nizolashuvchi taraflarning nizoni hal etish to‘g‘risida kelishuvga erishish maqsadida uchinchi shaxsga murojaat etish jarayoni”, deya ta’rif berilgan [2]. “Mediatorlar xulqining Yevropa kodeksi”da esa ushbu atamaga “ikki yoki undan ortiq tomon ushbu tomonlarga nizoni sud qarorisiz kelishuv tartibida hal etishga yordam berish uchun uchinchi tomon – vositachini jalb qilishga rozilik berish orqali o‘tadigan istalgan jarayon”, deya ta’rif berilgan [3].

Adabiyotlar tahlili. Mediatsiya ilk bor zamonaviy atama sifatida XX asrda shakllangan bo‘lsada, uning ildizi qadimgi sivilizatsiyalarga borib taqaladi. Jumladan, qadimgi Xitoyda Konfutsiy ta’limotida “yarashtirish” ijtimoiy uyg‘unlikning asosi sifatida talqin qilingan. Islom huquqida sulh va vosita institutlari mavjud bo‘lib, ular mediator funksiyasini bajargan.

Avvalo mediatsiya tushunchasiga alohida to‘xtaladigan bo‘lsak, ushbu so‘z lotin tilidagi “mediare” so‘zidan olingan bo‘lib, “vositachilik qilish, kelishtirish maqsadida aralashish” degan ma’nolarni anglatadi.

Mediatsiya – bu bir-birini tushunish va nizoli holatni bartaraf etuvchi bitim tuzishga erishish maqsadida xolis shaxs – mediator (vositachi) ishtirokida taraflarning erkin muzokaraga kirish yo‘li bilan nizoni muqobil hal qilish usulidir.

Mediatsiyani qo‘llash dastlab ilk marotaba Vavilon, Qadimgi Yunoniston va Qadimgi Rimda qayd etilgan. Rim huquqida “Yustinian kodeksi”dan boshlab (miloddan avvalgi VI asr) bahs-munozaralarni hal qilish uchun vositachilik tan olingan. Rimliklar bahs-munozaralarni hal qiluvchi mutaxassislarni “medium” – “vositachi” so‘zi bilan ifodalashgan. “Medium”larga alohida hurmat bilan munosabatda bo‘linib, ular ruhoniylar bilan bir qatorga qo‘yilgan. Mediatsiya texnologiyasi asosan savdoda qo‘llanilgan.

Markaziy Osiyo an’analarida oqsoqollarning, el orasida obro‘ga ega yoshi ulug‘ insonlarning nizolashayotgan tomonlarni kelishtirish amaliyoti keng qo‘llangan – bu mediatsiyaning tarixiy prototiplari hisoblanadi.

XX asrning ikkinchi yarmida AQShda “Alternative Dispute Resolution (ADR)” konsepsiyasi paydo bo‘lib, keyinchalik Yevropa davlatlariga ham keng yoyilgan. Buning asosiy

sabablari – sud tizimi yuklamasining haddan ziyod ortib ketganligi, ishni sudda ko‘rish bilan bog‘liq iqtisodiy xarajatlarni kamaytirish zarurati, ijtimoiy nizolarning murakkablashuvi va boshqalar hisoblangan. Shundan so‘ng mediatsiya global miqyosda institutsional tus ola boshlagan.

Mediatsiyaning maqsadi – nizolashuvchi taraflarning nizolarini mustaqil, o‘zaro foydali shartlar asosida hal etish imkoniyatini topishga ko‘maklashishdan iborat bo‘lib, uning asosiy tamoyillariga ixtiyoriylik, taraflarning tengligi, betaraflik, mediatorning xolisligi, konfidensiallik (maxfiylik) kabilar kiradi. Mediatsiya jarayoni muzokaralardan iborat bo‘lib, uning muvaffaqiyati nafaqat taraflarning kelishmovchiliklarini hal etishga bo‘lgan irodasi va intilishiga, balki mediatorning tajribasi va mahoratiga ham bog‘liqdir. Umuman olganda, mediatsiya – bahs-munozaralarni uchinchi betaraf tomon ishtirokida tartibga solishga doir huquqiy texnologiya hisoblanadi.

Mediatsiyaga nisbatan jamiyatda vujudga kelgan ehtiyoj o‘tgan asrda yangi kasb – mediatorlik kasbining dunyoga kelishiga turtki bergan. Mediatorlar dalillarni tekshirmaydi va taraflarning talablari qonuniyligiga baho bermaydi, aksincha, ularning asosiy vazifasi – taraflar o‘rtasida bir-birlarini tushunishga, taraflar uchun maqbul shartlarda muammoni hal etish imkoniyatlarini izlash va hal etishga ko‘maklashishdan iboratdir. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, mediatsiya – majburiy kuchga ega bo‘lmagan, taraflarning ixtiyoriyligiga asoslangan konfidensial jarayon. U nizolashayotgan taraflarning ixtiyoriga ko‘ra tanlab olingan betaraf uchinchi shaxsning vositachiligida shartnomaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqqan nizoni o‘zaro murosa – yarashuv yo‘li bilan huquqiy asosda hal etish jarayoni bo‘lib, betaraf uchinchi shaxs mediator deb nomlanadi.

Tahlil va natijalar. Hozirgi zamonaviy dunyoda mediatsiya instituti – ko‘plab davlatlar huquqiy jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Mediatsiyaning yanada rivojlanishi va dunyo bo‘ylab keng yoyilishiga, yuqorida ta’kidlanganidek, hozirgi Amerika modeli – “Alternative Dispute Resolution (ADR)” ulkan ta’sir ko‘rsatgan. Jahonning aksariyat davlatlarida mediatsiya instituti qonun bilan tartibga solingan bo‘lib, nizolarning asosiy qismi sudga murojaat etilmasdan, muzokaralar yo‘li bilan hal qilib kelinmoqda. Nizolashuvchi shaxslar mediatorni o‘zlari tanlaydilar va mediatsiya jarayoniga ixtiyoriy kirishadilar. Sudda tomonlar sudyani tanlay olmaydi, shuningdek, sudga faqat yashash joyi bo‘yicha murojaat qilish tartibi amal qiladi. Agar sudning vazifasi tomonlarning qaysi biri haq yoki aybdorligini aniqlashdan iborat bo‘lsa, mediatsiya tomonlarning kelishuviga erishishga hamda mediatorning yordami bilan nizoni hal qilishning turli xil yechimlarini muhokama qilishga qaratilgan. Sudda nizolashayotgan tomonlar sud qaroridan norozi bo‘lgan taqdirlarida ham uni bajarishga majbur bo‘lsalar, mediatsiyada barcha qarorlar faqat tomonlarning o‘zaro kelishuvi asosida qabul qilinadi va ular ixtiyoriy ravishda uni bajarish majburiyatini oladilar.

Mediatsiya sud jarayoniga nisbatan maxfiy tarzda o‘tkaziladi va har bir tomon istagan vaqtida uni davom ettirishdan bosh tortishi mumkin, sudda esa aksincha, muzokaralarni istalgan vaqtda tugatib bo‘lmaydi, jarayon ham oshkora bo‘ladi.

Hech kimga sir emas, respublikada barcha sudlarning ish hajmi shu darajada yuqoriki, ishlarni ko‘rib chiqish bir necha oy va undan ortiq vaqtga cho‘zilib ketadi, mediatsiya jarayoni esa juda qisqa muddatda ham yakunlanishi mumkin. Mediatsiya sud jarayoniga qaraganda iqtisodiy jihatdan ham birmuncha tejamli bo‘ladi.

Mediator va sudyalar o‘rtasidagi farq tomonlarning da’volarini va ularning huquqlarini belgilovchi omillarni tahlil qilish uchun qo‘llanilishi kerak bo‘lgan muayyan standartlar yoki qoidalarning yo‘qligidadir. Mediatsiyaning yana bir afzalligi uning maxfiyligi, shuningdek vositachining tomonlarga o‘zlariga mos keladigan har qanday yechimni ishlab chiqishda yordam berish huquqidir. Mediatsiya shartnomasi nizoli tomonlarning o‘zaro roziligi bilan tuziladi. Nizoni shu tarzda hal qilish to‘g‘risidagi band nizoni muzokaralar jarayonida hal qilishning eng qulay va sodda variantidir.

Mediatsiyadan foydalangan holda muzokaralar nizo yuzaga kelgan bosqichda, shuningdek nizoli tomonlar nizolarni hal qilishning boshqa jarayonlariga, shu jumladan sud protseduralariga kirganda ham foydalanishlari mumkin. Faoliyat ko‘rsatkichlariga ko‘ra, nizolarni mediatsiya usuli bilan hal qilish nizoning barcha bosqichlarida muvaffaqiyatli bo‘ladi. Intellektual mulk to‘g‘risidagi nizolarda vositachilik qilish, ayniqsa tomonlarning nizoni o‘zi yoki nizoda ko‘rsatilgan faktlarni yoki intellektual mulk huquqlarini sir saqlashi o‘ta muhim bo‘lgan taqdirda yanada dolzarb bo‘ladi.

Bugungi kunda yurtimizda, asosan, mediatsiya, hakamlik sudlari va apellyatsiya kengashi sudgacha nizolarni hal qilish vositasi bo‘lib bormoqda.

Mediatsiya instituti O‘zbekiston Respublikasiga XXI asrdan boshlab kirib keldi. Milliy huquqiy tizimimizda mediatsiya instituti O‘zbekiston Respublikasining 2018 yil 3 iyulda qabul qilingan va 2019 yil 1 yanvardan kuchga kirgan O‘RQ-482-son “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonuni bilan tartibga solinadi. Ushbu Qonunning maqsadi asosan nizolarni tartibga solishning muqobil usullarini rivojlantirish uchun huquqiy shart-sharoitlar yaratish, sud tizimiga tushadigan ish hajmini kamaytirishdan iborat.

Qonunning qabul qilinishi xalqimizning tarixan shakllangan, biroq hozirda anchayin unutilayozgan “murosai madora” degan qadriyati hamda an’analarini qayta jonlantirishi muqarrar. Nizolarni muqobil hal etish vositasi sifatida mediatsiya fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilishda, sudlar ishini yengillashtirishda va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda o‘zining dolzarbligi va samaradorligini isbotlamoqda.

Bir nechta sabablarga ko‘ra, hozir O‘zbekiston uchun mediatsiya muhim. Negaki, so‘nggi yillarda mamlakatimizda izchillikda katta o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Islohotlar, biznes muhitining yaxshilanishi, o‘sib borayotgan iqtisodiyot va aholi sonining ortib borishi, bularning barchasi o‘z navbatida nizolar sonining ortishiga olib keladi. Mediatsiya munosabatlarni buzishga emas, balki ularni saqlab qolishga qaratilgan bo‘ladi. Bu, ayniqsa, kichik biznes uchun ayniqsa muhimdir, ya’ni, bu iqtisodiy jihatdan juda samarali: sudlar va ijro etuvchi idoralarga ortiqcha bosimning oldi olinadi, o‘z navbatida, ularning ish samaradorligi ortadi, jarayonda ishtirok etuvchi biznes esa muammolarini tezda hal etadi va jarayonda uzilish bo‘lmaydi.

Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 2023-yilda respublikada mediatsiya orqali hal etilgan nizolar soni avvalgi yilga nisbatan 21 foizga oshgan, mediatorlar soni esa 4500 nafarga yetgan [4]. Bu O‘zbekistonda mediatsiyaning amaliyotda sekin-astalik bilan bo‘lsada, kengroq qo‘llanilayotganidan dalolat beradi. Nizolarni sudga yetkazmasdan, tomonlar o‘rtasida kelishuvga erishish – bu eng oqilona va insoniy yondashuv bo‘lib, ijtimoiy barqarorlikning kafolatidir.

O‘zbekistonda mediatorlarni tayyorlash dasturi bo‘yicha maxsus o‘quv kurslari mavjud bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2019-yil 31-yanvardagi 54-mh-son buyrug‘i bilan “Mediatorlarni tayyorlash dasturi” tasdiqlangan [5]. Ushbu dastur O‘zbekiston

Respublikasining “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonuni 12-moddasiga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, uning asosiy maqsadi mediatorlarni tayyorlash, ularga muzokaralar olib borish texnologiyasi, stress holati va kelishmovchiliklarni boshqarish haqida tayanch bilimlar berish, nizolarni hal qilish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishdir.

Mediatorning faoliyati professional yoki noprofessional asosda amalga oshirilishi mumkin.

Professional asosdagi mediator faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan mediatorlarni tayyorlash dasturi bo‘yicha maxsus o‘quv kursidan o‘tgan, shuningdek “Professional mediatorlar reyestri”ga kiritilgan shaxs amalga oshirishi mumkin.

Noprofessional asosdagi mediator faoliyatini 25 yoshga to‘lgan va mediator vazifalarini bajarishga rozilik bergan shaxs amalga oshirishi mumkin. Bunday shaxslar ham O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan mediatorlarni tayyorlash dasturi bo‘yicha maxsus o‘quv kursidan o‘tishi mumkin.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari tomonidan “Professional mediatorlar reyestri” yuritiladi, ushbu reyestr ularning rasmiy veb-saytlarida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining rasmiy veb-saytida joylashtiriladi. Shaxs mediatorlarni tayyorlash dasturi bo‘yicha maxsus o‘quv kursidan o‘tganidan so‘ng ushbu reyestrga kiritiladi.

Mediatorning faoliyati tadbirkorlik faoliyati hisoblanmaydi.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda mediatsiya institutining amaliyotga joriy etilishi bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Respublikada bir qancha mediatorlar markazlari va tashkilotlari faoliyat yuritmoqda, mediatorlar ro‘yxati shakllantirilgan va ularning malakasini oshirish bo‘yicha muntazam seminar va treninglar tashkil etilmoqda. Biroq, **tizimda bir qator kamchiliklar hamda hal etilishi lozim bo‘lgan muammolar** ham mavjud. Jumladan, aholi orasida xabardorlik darajasining pastligi, malakali mediatorlarning yetishmasligi, nodavlat mediatsiya markazlari moliyaviy barqarorlik darajasining pastligi, sudlar va mediatorlar o‘rtasida koordinatsiya to‘liq shakllanmaganligi hamda mediatsiya institutining psixologik qabul qilinishi sekin kechayotganligi shular jumlasidandir.

Fikrimizcha, O‘zbekistonda mediatsiya institutini amaliyotga keng tatbiq etishdagi muammolarni hal qilishda an’anaviy tashkiliy-huquqiy usullar bilan bir qatorda **sun’iy intellekt** imkoniyatlaridan ham keng foydalanish mumkin. Buni quyida mavjud muammolar kesimida ilmiy asosda tahlil etamiz.

Aholi orasida mediatsiya haqida xabardorlik darajasining pastligi. Aholi orasida mediatsiya instituti, uning ishlash tartibi hamda normativ-huquqiy asoslari haqida ma’lumotlarning yetarli darajada tarqatilmasligi, fuqarolar ushbu tizimning afzalliklari va zarurligi haqida kamdan-kam ma’lumotga ega ekanliklari ushbu institutning ommalashishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Sun’iy intellekt va ma’lumotlarni tizimli tahlil qilish vositalari yordamida aholining mediatsiya instituti haqida xabardorlik darajasini oshirish mumkin. Masalan, sun’iy intellekt yordamida interaktiv onlayn platformalar yaratish, foydalanuvchilarga mediatsiya jarayonlari, uning afzalliklari va qanday ishlashini tushuntiruvchi videolar va maqolalar taqdim etish mumkin. Tabiiy tilni qayta ishlash *(Natural Language Processing – NLP)* texnologiyalarini

qo‘llagan holda, interaktiv chatbotlar orqali odamlarni mediatsiya tizimiga qiziqtirish va savollariga tezkor javob berish imkoniyatlarini yaratish mumkin.

Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlarda va mobil ilovalarda algoritmik tahlil orqali odamlarning qiziqishlariga mos ravishda mediatsiya bilan bog‘liq reklama va ma’lumotlarni targ‘ib qilishni avtomatlashtirish mumkin. Bu aholi orasida mediatsiya tizimi haqida qiziqishni kuchaytirib, ularning tizim haqidagi bilimlarini kengaytirishga yordam beradi.

Malakali mediatorlarning yetishmasligi. O‘zbekistonda mediatorlar soni va ularning malakasi hali ham yetarli darajada emas. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining rasmiy saytidagi professional mediatorlar reyestriga nazar tashlaydigan bo‘lsak, yuqorida ta’kidlaganimizdek, rasmiy ravishda ro‘yxatdan o‘tgan professional mediatorlar soni respublika bo‘yicha jami 4,5 ming nafardan ortiqroq bo‘lib, tezlik bilan rivojlanayotgan, ko‘p sonli aholiga ega mamlakatimiz uchun bu raqamlar albatta yetarli emas. Ushbu ko‘rsatkich ham respublikada mediatsiya jarayoni samaradorligining yuksalishiga jiddiy to‘siq bo‘lib kelmoqda.

Fikrimizcha, sun’iy intellekt yordamida mediatorlarni tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish imkoni mavjud. Masalan, professional va noprofessional mediatorlar uchun sun’iy intellektga asoslangan onlayn ta’lim platformalarini yaratish, bunday platformalar ichida turli simulyatsiyalar va virtual mashg‘ulotlar orqali mediatorlarning amaliy ko‘nikmalarini oshirish mumkin. Virtual reallik *(Virtual Reality – VR)* va kengaytirilgan reallik *(Augmented Reality – AR)* texnologiyalari yordamida mediatorlar haqiqiy muhitda nizolarni qanday hal qilishni o‘rganadilar. Asosiysi, virtual muhitda xatolar “kechiriladi” va hech qanday oqibatlarni keltirib chiqarmaydi.

Shuningdek, onlayn reyestrga kiritish uchun sun’iy intellekt yordamida professional mediatorlikka nomzodlar orasidan munosiblarini tanlash va baholash tizimini yaratish mumkin. Buning natijasida ushbu tizimda inson aralashuvi kamayishiga va shaffoflikka erishiladi. Tabiiy tilni qayta ishlash *(NLP)* tizimi yordamida mediatorlar tomonidan ishlab chiqilgan protokollarni va qarorlarni tahlil qilish, ularning samaradorligini baholash va malakalarini yanada oshirish bo‘yicha tavsiyalar berish mumkin.

Nodavlat mediatsiya markazlari moliyaviy barqarorligi darajasining pastligi. Nodavlat mediatsiya markazlari ko‘pincha moliyaviy jihatdan qiyinchiliklarga duch keladi, bu esa ularning xizmatlarini kengaytirishga va samarali faoliyat yuritishlariga to‘sqinlik qiladi. Bunday sharoitda kuchli amaliy ish tajribasiga ega professional mediatorlarning qo‘shimcha daromad manbalarini qidirishlari va boshqa faoliyat turiga “ko‘chib o‘tishlari” holatlari ko‘p kuzatiladi.

Sun’iy intellekt va neyrotarmoq tahlillari yordamida mediatsiya markazlarining moliyaviy barqarorligini oshirish uchun avtomatlash-tirilgan moliyaviy tahlil va prognozlash tizimlarini yaratish orqali markazlarning moliyaviy barqarorligi darajasini yaxshilash va daromadlarni oshirish mumkin. Shuningdek, ayrim sodda mediativ jarayonlarni hamda hujjatlashtirish ishlarini avtomatlashtirish orqali xodimlar xizmat yuklamasini kamaytirish yoki ularning ish vaqtlari samaradorligini oshirishga erishish ham mumkin bo‘ladi. Qolaversa, sun’iy intellekt yordamida mediatsiya markazlarining daromadlarini va xarajatlarini tahlil qilib borib, ularning moliyaviy barqarorligini yaxshilash uchun strategik tavsiyalar ishlab chiqish imkoniyati ham mavjud.

Bundan tashqari, sun’iy intellekt yordamida donorlar va investorlardan mablag‘ jalb qilishni avtomatlashtirish, turli neyrotarmoq algoritmlari yordamida moliyaviy qo‘llab-

quvvatlovchilarni topish, mediatsiya markazlariga mos keladigan grantlar va boshqa mablag‘lar haqida ma’lumotlar to‘plash mumkin.

Sudlar va mediatorlar o‘rtasida koordinatsiyaning yetishmasligi. Sudlar va mediatorlar o‘rtasida samarali hamkorlikning yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagani sud-huquq tizimi faoliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Avvalo, institutlararo koordinatsiyaning sustligi nizolarni muqobil hal etish mexanizmlarining to‘laqonli ishlashiga to‘sqinlik qiladi. Natijada, mediatorlar tomonidan erishilgan kelishuvlarning sudlar tomonidan tan olinishi, inobatga olinishi yoki ijro jarayoniga integratsiya qilinishi lozim darajada tizimlashtirilmaydi. Bu esa nizolarni hal etishning izchilligi, protsessual intizom va huquqiy aniqlik tamoyillariga ziyon yetkazadi.

Shuningdek, sud organlari va mediatsiya institutlari o‘rtasida yagona axborot almashinuvi platformalarining yo‘qligi yoki yetarlicha rivojlanmaganligi nizolar holati, jarayon bosqichlari hamda qarorlar ijrosini muvofiqlashtirishni qiyinlashtiradi. Bunday muvofiqlashtirishning sustligi tizim samaradorligini pasaytirib, ish yuritish muddatlarining cho‘zilishiga, resurslarning samarasiz sarflanishiga va fuqarolarning sud-huquq tizimiga bo‘lgan ishonchi susayishiga olib kelishi mumkin.

Shuningdek, sudlar va mediatorlar o‘rtasidagi institutsional va protsessual koordinatsiyaning yetarli darajada shakllanmagani mediatsiya jarayonining huquqiy tizimga chuqur integratsiyalashuvini sekinlashtiradi. Shu bois, mazkur yo‘nalishda normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, axborot tizimlarining uyg‘unlashtirilgan holda joriy etilishi hamda o‘zaro hamkorlikning aniq mexanizmlarini belgilash dolzarb vazifa hisoblanadi.

Sun’iy intellekt tizimlari yordamida sudlar va mediatorlar o‘rtasidagi aloqani yaxshilash, masalan, avtomatlashtirilgan muhokama platformalarini yaratish orqali mediatorlar va sudlar o‘rtasidagi ma’lumotlar almashinuvini tezlashtirish mumkin. Tabiiy tilni qayta ishlash va neyrotarmoq o‘rganishi yordamida mediatorlar tomonidan yuborilgan hujjatlar va qarorlar tahlil qilinib, sudlarga tegishli ma’lumotlarni tezda yetkazib berish, shuningdek, bunday hujjatlarning sud amaliyotiga va huquqiy pretsedentga qay darajada mutanosibligini baholash imkoniyatlari mavjud.

Bundan tashqari, sun’iy intellekt yordamida sud va mediatorlar o‘rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish, qarorlarni va jarayonlarni kuzatib borish, ular orasida samarali aloqalarni ta’minlash va kelgusida yanada takomillashtirish uchun tegishli tavsiyalar ishlab chiqish ham mumkin.

Mediatsiya institutining psixologik qabul qilinishi darajasi pastligi. Mediatsiya institutining psixologik qabul qilinishi darajasi pastligi ushbu tizimning amaliy samaradorligini sezilarli darajada cheklab qo‘ymoqda. Avvalo, aholining nizolarni hal etishning muqobil mexanizmlariga nisbatan psixologik tayyorgarligi yetarli emasligi mediatsiyaga bo‘lgan ishonchsizlikni kuchaytiradi. Jamiyatda an’anaviy sud jarayonini “adolatning yagona kafolati” sifatida qabul qilish holati saqlanib qolayotganligi mediatsiyaning teng huquqli va adolatli mexanizm sifatidagi ijtimoiy legitimatsiyasini susaytiradi. Natijada, mediatorning vositachilik roli, uning betarafligi va jarayonning yuridik kuchga ega bo‘lishi borasidagi bilimlar yetishmasligi turli shubha va stereotiplarga sabab bo‘ladi.

Shuningdek, mediatsiyaning psixologik qabul qilinishi ijtimoiy ong va huquqiy madaniyat darajasi bilan ham chambarchas bog‘liq. Huquqiy ongning nisbatan pastligi sharoitida tomonlar mojaroni konstruktiv muloqot orqali hal qilish qobiliyatiga kamroq ega

bo‘ladilar, bu esa mediatsiya jarayonining mohiyati – ixtiyoriylik, o‘zaro ishonch va murosaga tayyorlik tamoyillarini zaiflashtiradi. Aholi o‘rtasida “murosa – zaiflik belgisi”, “kelishuv – da’vodan voz kechish” yoki “yon berish – aldanib qolish” kabi noto‘g‘ri psixologik tasavvurlarning mavjudligi mediatsiya institutining ommalashuviga to‘sqinlik qiluvchi jiddiy omillardan biridir.

Natijada, mediatsiya institutining psixologik qabul qilinishi sust bo‘lgani uchun ushbu tizimning amaliy natijalari to‘liq namoyon bo‘lmaydi, mojarolarni sudgacha bosqichda hal etish imkoniyatlari kengaymaydi va sudlar yuklamasini kamaytirishga qaratilgan islohotlarning samaradorligi pasayadi. Shu bois, **mediatsiya madaniyatini shakllantirish,** aholining psixologik tayyorgarligini oshirish, mediatorlar faoliyati ustidan ishonchni kuchaytiruvchi kommunikatsion strategiyalarni rivojlantirish hamda ijtimoiy ongda mediatsiya institutining qadr-qimmatini mustahkamlash dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. Ishonch bilan aytish mumkinki, ushbu masalalar yuridik fanlar va sotsiologiya fanlari bo‘yicha dissertatsiyalar darajasida tadqiq qilishga ham arzirli masalalardir.

Psixologik to‘siqlarni yengish uchun sun’iy intellekt yordamida interaktiv platformalar va virtual terapevtlar yaratish, masalan, insonning psixologik holatini tahlil qilish va mediatsiya jarayoniga tayyorligini aniqlash uchun sun’iy intellekt algoritmlaridan foydalanish mumkin. Bu yordamida mediatorlar mijozlar bilan samarali ishlash uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarga ega bo‘ladilar. Shuningdek, sun’iy intellekt yordamida mediatsiya jarayonining foydali ekanligini ko‘rsatish uchun individual va guruh simulyatsiyalarini yaratish mumkin. Bu esa odamlarning mediatsiya tizimiga bo‘lgan ishonchini oshirishga yordam beradi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, O‘zbekistonda mediatsiya institutining muvaffaqiyatli rivojlanishi va samarali ishlashi uchun sun’iy intellekt texnologiyalari keng imkoniyatlar yaratadi. Aholi orasidagi xabardorlikni oshirish, mediatorlarning malakasini rivojlantirish, nodavlat mediatsiya markazlarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash, sudlar va mediatorlar o‘rtasidagi koordinatsiyani yaxshilash hamda mediatsiya tizimining psixologik qabul qilinishini o‘zgartirish uchun sun’iy intellekt vositalaridan samarali foydalanish nafaqat mediatsiya institutining rivojlanishiga, balki butun ijtimoiy tizim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Qolaversa, nizolarni sudgacha hal qilish tizimida sun’iy intellekt imkoniyatlari bilan “qurollangan” mediatsiya jarayonini qo‘llash natijasida sudlarda ishlar soni va xizmat yuklamasi kamayishiga, nizolar tez va kam xarajat bilan hal etilishiga, tomonlar o‘zaro kelishuv asosida murosa qilishga intilishlari rag‘batlantirilishiga, qisqacha qilib aytganda, O‘zbekistonda mediatsiya institutining amaliyotdagi joriy holati sezilarli darajada takomillashishiga erishiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. United Nations Charter, Chapter VI: Pacific Settlement of Disputes// www.un.org/en/about-us/un-charter/chapter-6
2. Directive 2008/52/EC of the European Parliament and of the Council // https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX:32008L0052
3. Yevropeyskiy kodeks povedeniya mediatorov www.norma.uz/raznoe/evropeyskiy_kodeks_povedeniya_mediatorov_izvlecheniya
4. www.adliya.uz/professional-mediatorlar-reyestri
5. www.lex.uz/ru/docs/-4185961

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 4 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 March 2026
Accepted: 01 April 2026
Published: 15 April 2026

Article / Original Paper

ISSUES OF APPLYING THE PRINCIPLE OF HUMANISM IN THE QUALIFICATION OF CRIMES RELATED TO VIOLATIONS OF TRAFFIC SAFETY OR THE OPERATION OF VEHICLES IN CASES INVOLVING CLOSE RELATIVES

Majidov Islomjon Dilshod o‘g‘li,
Master’s Student at the Law
Enforcement Academy
E-mail: islomjonmajidovv@gmail.com

Abstract. Currently, an increase in the number of road traffic accidents is being observed in our country. This article analyzes issues of criminal liability предусмотred under Article 266 of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan. In particular, the objective and subjective elements of this crime, as well as circumstances significant for its qualification, are scientifically examined. Additionally, the article analyzes problems related to cases where the victim in road traffic accidents is a close relative of the виновный driver, and puts forward substantiated proposals and recommendations for addressing these issues.

Keywords: road traffic safety, criminal liability, road traffic accidents involving close relatives, crime qualification, legal foundations for ensuring road traffic safety.

YAQIN QARINDOSHLAR BILAN BOG‘LIQ HOLATLARDA TRANSPORT VOSITALARI HARAKATI YOKI ULARDAN FOYDALANISH XAVFSIZLIGI QOIDALARINI BUZISH JINOYATLARINI KVALIFIKATSIYA QILISHDA INSONPARVARLIK PRINSIPINI QO‘LLASH MASALALARI

Majidov Islomjon Dilshod o‘g‘li
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistratura tinglovchisi

Annotatsiya. Hozirgi kunda mamlakatimizda yo‘l-transport hodisalarining soni ortib borayotgani kuzatilmoqda. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 266-moddasida nazarda tutilgan jinoiy javobgarlik masalalari tahlil qilingan. Jumladan, ushbu jinoyat tarkibining obyektiv va subyektiv belgilari, shuningdek uni kvalifikatsiya qilishda ahamiyatga ega bo‘lgan holatlar ilmiy jihatdan yoritilgan.
Shu bilan birga, maqolada sodir etilgan yo‘l-transport hodisalarida jabrlanuvchining aybdor haydovchiga yaqin qarindosh bo‘lishi bilan bog‘liq muammolar tahlil qilingan hamda ularni bartaraf etish yuzasidan asosli taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: yo‘l harakati xavfsizligi, jinoiy javobgarlik, yaqin qarindoshlar ishtirokidagi yo‘l-transport hodisalari, jinoyatni kvalifikatsiya qilish, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashning huquqiy asoslari.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N45

Kirish. Transport vositalari zamonaviy jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining ajralmas qismi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Ular insonlarning harakatlanishi, yuk tashish, iqtisodiy aloqalarni ta’minlash hamda hududlar o‘rtasidagi integratsiya jarayonlarini rivojlantirishda asosiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ayni paytda, transport infratuzilmasining jadal rivojlanishi va avtotransport vositalari sonining ortishi jamiyatda bir

qator yangi muammolarni, jumladan, yo‘l harakati xavfsizligi bilan bog‘liq tahdidlarni yuzaga keltirmoqda.

Ma’lumki, transport vositalari o‘z tabiatiga ko‘ra yuqori xavf manbai hisoblanadi. Ulardan noto‘g‘ri yoki ehtiyotsiz foydalanish inson hayoti va sog‘lig‘iga jiddiy zarar yetkazishi, og‘ir oqibatlarga olib kelishi mumkin. Xususan, yo‘l harakati qoidalariga rioya etmaslik natijasida yuzaga kelayotgan yo‘l-transport hodisalari nafaqat moddiy zarar, balki insonlar o‘limi va jarohatlanishi kabi og‘ir ijtimoiy oqibatlarni keltirib chiqarmoqda. Bu esa mazkur sohada huquqiy tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Shu munosabat bilan davlat tomonidan yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash, ushbu sohada huquqbuzarliklarning oldini olish, aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish hamda jamiyatda huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Bu borada jinoyat-huquqiy vositalar muhim o‘rin tutadi, chunki aynan ular orqali eng xavfli huquqbuzarliklarga nisbatan ta’sir choralari qo‘llaniladi.

Shu bilan birga, transport vositalari harakati xavfsizligi qoidalarini buzish bilan bog‘liq jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish jarayonida muayyan murakkab holatlar yuzaga kelmoqda. Ayniqsa, yaqin qarindoshlar ishtirok etgan holatlarda sodir etilgan yo‘l-transport hodisalarida jinoyatga huquqiy baho berishda nafaqat formal-yuridik, balki axloqiy va ijtimoiy omillarni ham inobatga olish talab etiladi. Bunday holatlarda insonparvarlik prinsipini qo‘llash masalasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Insonparvarlik prinsipi jinoyat huquqining asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib, u shaxsning qadr-qimmatini hurmat qilish, jazo tayinlashda uning shaxsiy xususiyatlari va ijtimoiy holatini hisobga olishni nazarda tutadi. Shu jihatdan, yaqin qarindoshlar bilan bog‘liq holatlarda jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda mazkur prinsipni to‘g‘ri va asosli qo‘llash, bir tomondan, adolatni ta’minlashga, ikkinchi tomondan esa, jinoyat huquqini gumanizatsiya qilishga xizmat qiladi.

Shuning uchun mazkur tadqiqot transport vositalari harakati xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyatlarini kvalifikatsiya qilishda insonparvarlik prinsipini qo‘llashning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, uning natijalari qonunchilikni takomillashtirish va huquqni qo‘llash amaliyotini samarali tashkil etishda muhim ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin.

Yo‘l harakati qoidalarini buzish ko‘p hollarda kichik huquqbuzarlik sifatida qabul qilinsa-da, ayrim holatlarda bu harakatlar og‘ir oqibatlarga olib keladi. Har yili minglab insonlar yo‘l-transport hodisasi natijasida turli darajada tan jarohatlari oladi yoki vafot etadi. O‘zbekistonda sodir etilgan yo‘l-transport hodisalarini tahlil qiladigan bo‘lsak, respublikamizda 2023 yilda 9.839 ta yo‘l-transport hodisalari sodir etilib, 9.209 nafar fuqarolar tan jarohatlari olgan va 2.282 nafar fuqarolar halok bo‘lgan [1]. 2024 yilda 9364 ta yo‘l-transport hodisalari sodir etilib, 8901 nafar fuqarolar tan jarohati olgan va 2199 kishi vafot etgan [2]. 2025 yilda 9.226 ta yo‘l-transport hodisalari sodir etilib, 8.901 nafar fuqarolar tan jarohatlari olgan va 2.188 nafar fuqarolar halok bo‘lgan [3]. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotiga tayanib ma’lum qilinishicha, YTHlar odam o‘limining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish uchun jinoiy javobgarlik O‘zbekiston Respublikasi JKsining 266-moddasida nazarda tutilgan. 266-modda bo‘yicha jinoyat subyekti — 16 yoshga to‘lgan va transport vositasini boshqaruvchi aqli raso jismoniy shaxs hisoblanadi.

Jinoyat huquqida aybdorlik jinoyat tarkibining subyektiv tomon elementi sifatida qaraladi. Jinoyat tarkibida subyektiv tomonning bo‘lmasligi jinoiy javobgarlikni istisno qiladi[4]. Yo‘l-transport hodisalari ehtiyotsizlik orqali sodir etilib, bunda haydovchi o‘ziga ishonib transport vositasini yuqori tezlikda boshqaradi, svetoforning taqiqlovchi chirog‘ida chorrahaga kirib boradi, mast holatda transport vositasini boshqaradi, piyodalarga yo‘l bermasdan harakatlanadi va boshqa yo‘l-harakati qoidalariga rioya etmasdan harakatlanishi natijasida sodir bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi JKning 19-moddasiga ko‘ra, jinoyat shaxsning aybli qilmishlari orqali sodir etilgan taqdirdagina jinoyat hisoblanadi. Aybsiz shaxs javobgarlikka tortilmaydi [5].

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi JKning 266-moddasiga asosan, transport vositasini boshqaruvchi shaxs tomonidan transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazsa yoxud odam o‘limi, boshqa og‘ir oqibatlarga olib kelsa, jinoiy javobgarlik yuzaga keladi [6].

Yo‘l-transport hodisalarida aybdorlik masalasi boshqa jinoyatlardan farq qiladi. Chunki haydovchining aybdorlik masalasini hal qilishda yo‘l harakati qoidalarini buzganligini aniqlash hamda haydovchining harakatlari sodir bo‘lgan YTH bilan sababiy bog‘lanishda ekanligini aniqlash shart. Haydovchining aybdorligini aniqlashda quyidagilarga e’tibor qaratiladi:

- Haydovchining harakatlarida ehtiyotsizlik shaklida ayb mavjudligi;
- Haydovchining yo‘l harakati qoidalarini buzganligi;
- Haydovchining harakatlari va sodir bo‘lgan YTH o‘rtasida sababiy bog‘lanish mavjudligi.

YTHlarda aybdorlikni belgilash quyidagi huquqiy manbalar asosida amalga oshiriladi:

- O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi (266-modda);
- Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks;
- “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonun;
- Sud amaliyoti va Plenum qarorlari;
-O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.

Aybdorlikni aniqlash nafaqat haydovchining javobgarlikka tortilishi, balki jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni qoplash, javobgarlikni muqarrarligini ta’minlash nuqtai nazaridan ham katta ahamiyatga ega.

Yaqin qarindoshlar jabrlanuvchi bo‘lgan holatlarda aybdorlikni aniqlash muammolari. Yaqin qarindoshlar jabrlanuvchi sifatida qatnashgan YTHlarda qator huquqiy va psixologik muammolar yuzaga keladi:

1. Huquqiy jihatdan – qarindoshlik munosabatlari javobgarlikni bekor qilmaydi, qonun oldida barcha teng[7].

2. Amaliyotda – jabrlanuvchining aybdor haydovchiga yaqin qarindoshligi aybdorlikni yo‘qotuvchi asos emas, ammo jazo tayinlashda yengillashtiruvchi holat sifatida baholanmoqda.

3. Psixologik jihatdan – sodir bo‘lgan YTH oqibatida haydovchining yaqin qarindoshi og‘ir tan jarohati olishi yoki vafot etishi haydovchining ruhiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tahlil va natijalar. O‘zbekiston Respublikasida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash, inson hayoti va sog‘lig‘ini himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi YTH oqibatlarini huquqiy

jihatdan to‘g‘ri baholash va jazo tayinlashda JKning 7-moddasiga asosan insonparvarlik prinsipini qo‘llab aybdor haydovchiga jazo tayinlash dolzarb masala hisoblanadi. Amaliyotda yo‘l-transport hodisasi natijasida yaqin qarindoshi vafot etgan bo‘lsa, haydovchi tushkunlikka tushib qoladi. Bu haydovchiga sodir etgan yo‘l-transport hodisasi uchun jazoday tuyuladi. O‘zbekiston Respublikasi JKning 42-moddasi 2-qismiga asosan «jazo mahkumni axloqan tuzatish, uning jinoiy faoliyatni davom ettirishiga to‘sqinlik qilish hamda mahkum, shuningdek boshqa shaxslar yangi jinoyat sodir etishining oldini olish maqsadida qo‘llaniladi» deb ko‘rsatilgan. Toshkent viloyatining tuman-shahar sudlari tomonidan marhum jabrlanuvchi aybdor haydovchining yaqin qarindoshi bo‘lgan yo‘l-transport hodisalari yuzasidan chiqarilgan hukmlari tahlil qilinganda ba’zi aybdor haydovchilarga nisbatan tergov davrida ehtiyot chorasi sifatida uy qamog‘i qo‘llanilgan yoki ozodlikni cheklash jazosi berilayotganligi aniqlangan. Misol uchun, 2024-yil 7-may kuni JIB Bo‘stonliq tuman sudi tomonidan chiqarilgan hukmiga ko‘ra, haydovchi Sherimov Bobur Rustamovichni ukasi I.Sherimov vafot etganligi yuzasidan JKning 266-moddasi 2-qismi bilan aybdor deb topilib, unga nisbatan 4 yil muddatga ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan[8]. Shuningdek, 2025-yil 11-sentyabr kuni JIB Qibray tuman sudi tomonidan chiqarilgan hukmiga ko‘ra, haydovchi Xalilxojayev Olimxoja Artikxojayevichni onasi Z.Xalilxo‘jayeva vafot etganligi yuzasidan JKning 266-moddasi 2-qismi bilan aybdor deb topilib, unga nisbatan 3 yil muddatga axloq tuzatish ishlari jazosi tayinlangan. Lekin haydovchi O.Xalilxo‘jayevga tergov davrida uy qamog‘i ehtiyot chorasi qo‘llanilgan [9]. Ushbu ikkala holatlarda sodir etilgan yo‘l-transport hodisasi natijasida haydovchining yaqin qarindoshi vafot etganda haydovchiga nisbatan tergov davrida uy qamog‘i ehtiyot chorasi qo‘llanilishi yoki jazo sifatida ozodlikni cheklash jazosi qo‘llanilishi insonparvarlik prinsipiga to‘g‘ri keladimi degan savol tug‘iladi. Chunki yo‘l-transport hodisasi oqibatida haydovchining yaqin qarindoshi og‘ir tan jarohati olishi yoki vafot etishi holatlari haydovchining ruhiy holatiga sezilarli darajada salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa haydovchi tomonidan chuqur aybdorlik hissi va ruhiy iztiroblarni keltirib chiqarib, ayrim hollarda psixologik jazo sifatida ham talqin qilish mumkin.

Jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan u axloqan tuzalishi va yangi jinoyat sodir etishining oldini olish uchun zarur hamda yetarli bo‘ladigan jazo tayinlanishi yoki boshqa huquqiy ta’sir chorasi qo‘llanilishi kerak. Jazolashdan ko‘zlangan maqsadga ushbu Kodeks Maxsus qismining tegishli moddalarida nazarda tutilgan yengilroq choralarni qo‘llash orqali erishib bo‘lmaydigan taqdirdagina og‘irroq jazo choralari tayinlanishi mumkin» deb ko‘rsatilgan.

III. Xorijiy davlatlar amaliyoti va qiyosiy tahlil

Qozog‘iston Respublikasi: JK 345-moddasida transport vositalarini boshqaruvchi shaxslar tomonidan yo‘l harakati qoidalarini yoki transport vositalaridan foydalanish qoidalarini buzish uchun javobgarlik belgilangan, lekin JKning 68-moddasida yo‘l-transport hodisasi natijasida ehtiyotsizlik bilan yaqin qarindoshlari yoki turmush o‘rtog‘ining o‘limiga sabab bo‘lgan holatda haydovchi agar u jabrlanuvchi yoki ariza beruvchi bilan, jumladan mediatsiya tartibida yarashsa va yetkazilgan zararni qoplasa, jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin[10].

Belorussiya Respublikasi: JK 317-moddasiga ko‘ra transport vositasini boshqarayotgan shaxs tomonidan yo‘l harakati qoidalarini yoki transport vositalaridan foydalanish qoidalarini buzilishi, ehtiyotsizlik oqibatida yengil, og‘ir tan jarohati yetkazilishi yoki odam o‘limiga sabab bo‘lsa jinoiy javobgarlik belgilangan [11]. Lekin Belorussiya JPKning 26-moddasini

4-qismiga koʻra JKning 317-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan, ehtiyotsizlik orqali ogʻir tan jarohati yetkazishga olib kelgan jinoyatlarda, agar ular jabrlanuvchining oila a'zolari, yaqin qarindoshlari yoki u asosli ravishda yaqin deb hisoblaydigan boshqa shaxslar tomonidan sodir etilgan boʻlsa, ushbu jinoyat ishi xususiy-ommaviy ayblov ishlari hisoblanadi hamda faqat jinoyatdan jabrlangan shaxsning, uning qonuniy vakili yoki yuridik shaxs vakilining arizasi asosida qoʻzgʻatilishi belgilab qoʻyilgan [12].

Turkiya Respublikasi: JKda transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish uchun alohida moddada javobgarlik nazarda tutilmagan, JKning 85-moddasida ehtiyotsizlik bilan bir insonning oʻlimiga sabab boʻlsa jinoiy javobgarlik belgilangan hamda JKning 89-moddasida ehtiyotsizlik bilan boshqa shaxsning badaniga ogʻriq yetkazgan yoki uning sogʻligʻi yoki idrok qilish qobiliyati buzilishiga sabab boʻlsa javobgarlik belgilangan. Lekin JKning 22-moddasining 6-qismida ehtiyotsiz harakat natijasida yuzaga kelgan oqibat aybdorning shaxsiy va oilaviy ahvoli nuqtai nazaridan uni shunchalik darajada jabrlanuvchiga aylantirgan boʻlsaki, qoʻshimcha ravishda jazo tayinlashga hojat qolmasa, jazo tayinlanmaydi va ongli ehtiyotsizlik holatida esa tayinlanadigan jazo yarmidan oltidan birigacha kamaytirilishi mumkinligi koʻrsatilgan [13].

Xorijiy davlatlar qonunchiligining qiyosiy tahlili shuni koʻrsatadiki, yoʻl-transport hodisalarida ehtiyotsizlik orqali yetkazilgan zarar, ayniqsa yaqin qarindoshlar doirasida sodir etilgan holatlarda, jinoiy javobgarlik masalasiga nisbatan bir qator davlatlarda differensial va insonparvar yondashuv qoʻllaniladi.

Jumladan, Qozogʻiston Respublikasi amaliyotida yarashuv instituti va yetkazilgan zararni qoplash orqali jinoiy javobgarlikdan ozod qilish imkoniyati nazarda tutilgan boʻlib, bu mexanizm taraflar oʻrtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tiklashga xizmat qiladi. Belorussiya Respublikasi qonunchiligida esa bunday turdagi jinoyatlar ayrim holatlarda xususiy-ommaviy ayblov ishlari sifatida baholanib, ish qoʻzgʻatilishi jabrlanuvchi irodasiga bogʻliq qilib qoʻyilgan. Turkiya Respublikasida esa aybdor shaxsning oilaviy va shaxsiy ahvoli, shu jumladan u oʻzi ham ma'lum darajada jabr koʻrgan holatlar inobatga olinib, jazo tayinlanmasligi yoki yengillashtirilishi mumkinligi belgilangan.

Mazkur yondashuvlar umumlashtirilganda, ularda quyidagi umumiy tendensiyalar kuzatiladi:

– jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini individual baholash;

– jabrlanuvchi irodasini ustuvor ahamiyatga ega deb e'tirof etish;

– yaqin qarindoshlik munosabatlarini huquqiy baholashda hisobga olish;

– jazolashdan koʻra, ijtimoiy adolat va kelishuvni ta'minlashga ustuvorlik berish.

Shu nuqtai nazardan, Oʻzbekiston Respublikasida ham yoʻl-transport hodisalari bilan bogʻliq jinoyatlar boʻyicha amaldagi normalarni takomillashtirishda insonparvarlik, adolat va proporsionallik tamoyillarini yanada kuchaytirish zarurligi asoslanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 266-moddasi 4-qismini takomillashtirish nuqtai nazaridan, yaqin qarindoshlar ishtirokida sodir etilgan yoʻl-transport hodisalariga nisbatan jazo qoʻllash masalasi alohida huquqiy yondashuvni talab qiladi. Amaldagi qonunchilikda mazkur turdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda insonparvarlik tamoyilini kuchaytirish zarurati kuzatiladi.

Shu munosabat bilan, agar yoʻl-transport hodisasi natijasida jabrlanuvchi shaxs yoki uning qonuniy vakili tomonidan haydovchiga nisbatan da'vo mavjud boʻlmasa, ayniqsa ular

o‘rtasida yaqin qarindoshlik munosabatlari mavjud bo‘lgan hollarda, jinoiy javobgarlikning qat’iy jazo choralari — jumladan, ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish kabi sanksiyalarni qo‘llamaslik maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bunday yondashuv, bir tomondan, jinoyat huquqidagi adolat va insonparvarlik prinsiplarini ta’minlashga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, oilaviy munosabatlar doirasida yuzaga kelgan mojarolarni keskinlashtirmaslik va ularni ijtimoiy jihatdan yumshatishga qaratilgan. Shuningdek, mazkur holatda davlatning jazolash funksiyasidan ko‘ra, ijtimoiy kelishuv va taraflarning irodasini inobatga olish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Shu bois, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 266-moddasi 4-qismini quyidagi mazmunda to‘ldirish maqsadga muvofiq: yaqin qarindoshlar ishtirokida sodir etilgan yo‘l-transport hodisalarida, agar jabrlanuvchi yoki uning qonuniy vakili tomonidan haydovchiga nisbatan da’vo bildirilmagan bo‘lsa, ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish jazolari qo‘llanilmaydi.

Xulosa va takliflar. Yuqorida amalga oshirilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yo‘l-transport hodisalari bilan bog‘liq jinoyatlarda, ayniqsa yaqin qarindoshlar o‘rtasida sodir etilgan holatlarda, jinoiy javobgarlikni belgilash va jazo tayinlash masalalariga nisbatan differensial, adolatli hamda insonparvar yondashuvni ta’minlash alohida ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, milliy qonunchilikni takomillashtirish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Qarindoshlik munosabatlarining huquqiy ahamiyatini qayta baholash. Jinoyat huquqida qarindoshlik munosabatlarini aybdorlikni istisno etuvchi (ya’ni jinoiy javobgarlikni bartaraf etuvchi) holat sifatida emas, balki jazoni individuallashtirishga xizmat qiluvchi muhim omil sifatida baholash maqsadga muvofiq. Bu yondashuv jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi, shaxsning aybi va uning shaxsiy holatlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mazkur omil sud tomonidan jazo tayinlashda yengillashtiruvchi holat sifatida inobatga olinishi lozim.

2. Yaqin qarindoshlar ishtirokidagi yo‘l-transport hodisalarini alohida statistik hisobga olish. Amaliyotda mazkur toifadagi ishlarning alohida hisobga olinmasligi ularning huquqiy tabiati va ijtimoiy xususiyatlarini chuqur tahlil qilish imkonini cheklaydi. Shu bois, yaqin qarindoshlar ishtirokida sodir etilgan yo‘l-transport hodisalarini alohida statistik kategoriya sifatida yuritish maqsadga muvofiq. Bu esa kelgusida qonunchilikni takomillashtirish, profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish va huquqni qo‘llash amaliyotini samarali tashkil etish uchun zarur empirik bazani shakllantiradi.

3. Jinoyat kodeksiga qo‘shimcha normalar kiritish orqali jazo siyosatini liberallashtirish. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga tegishli qo‘shimcha va o‘zgartishlar kiritib, agar yo‘l-transport hodisasi natijasida jabrlanuvchi shaxs aybdor haydovchiga yaqin qarindosh bo‘lsa va u (yoki uning qonuniy vakili) tomonidan da’vo bildirilmagan bo‘lsa, aybdorga nisbatan ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish jazolarini qo‘llamaslikni nazarda tutuvchi normani O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga kiritish maqsadga muvofiqdir. Mazkur norma, bir tomondan, insonparvarlik va adolat tamoyillarini ta’minlasa, ikkinchi tomondan, oilaviy munosabatlar doirasida yuzaga kelgan ijtimoiy nizolarni yanada chuqurlashtirmaslikka xizmat qiladi.

Taklif etilgan yondashuvlar jinoyat qonunchiligini liberallashtirish, jazoni individuallashtirish mexanizmlarini kuchaytirish va insonparvarlik tamoyillarini amaliyotga

keng joriy etishga qaratilgan. Bu esa, o‘z navbatida, huquqni qo‘llash amaliyoti samaradorligini oshirish, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini muvozanatli himoya qilish hamda jamiyatda ijtimoiy adolatni ta’minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. https://senat.uz/oz/post/post-2179.
2. https://onews.uz/yangiliklar/2025-yili-yth-larda-halok-bolgan-va-jabrlanganlar-soni
3. https://onews.uz/yangiliklar/2025-yili-yth-larda-halok-bolgan-va-jabrlanganlar-soni
4. Ochilov X.R., Xaydarov Sh.D., Shamsidinov Z.Z. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. - 2021– B. 39
5. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. – T.: Adolat, 2025. – Modda 19.
6. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. – T.: Adolat, 2025. – Modda 266.
7. O‘zbekiston Respfublikasi Konstitutsiyasi, T.: Adolat, 2025. – 18-modda
8. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. – T.: Adolat, 2025. – Modda 42
9. https://public.sud.uz/report/CRIMINAL. Jinoyat ishi raqami 1-1106-2401/142
10. https://public.sud.uz/report/CRIMINAL). Jinoyat ishi raqami 1-1107-2503/262
11. https://adilet.zan.kz/rus/docs/K1400000226
12. https://pravo.by/document/?guid=3871&p0=hk9900275
13. https://pravo.by/document/?guid=3871&p0=hk9900295
14. https://www.mevzuat.gov.тр/мевзуат?МевзуатНо=5237&МевзуатТур=1&МевзуатТертип=5

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 4 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 March 2026
Accepted: 01 April 2026
Published: 15 April 2026

Article / Original Paper

BALANCE OF RIGHTS AND OPPORTUNITIES: UZBEKISTAN'S PATH TOWARD GENDER JUST

Habibullayev Muhammadrajab Obidjon oglu
Fergana State University
student of jurisprudence

Scientific advisor: Candidate of Legal Sciences, Associate Professor, Dadaboyeva Jumagul Anvarovna

Abstract. This article discusses the reforms carried out in the Republic of Uzbekistan to ensure gender equality, their legal foundations, and practical outcomes. It analyzes the content of gender policy based on the Law "On Guarantees of Equal Rights and Opportunities for Women and Men," the Law "On Protection of Women from Harassment and Violence," and the Family Code. The paper examines measures taken to create equal opportunities for women and men in political, economic, and social spheres, as well as the integration of the gender approach into public administration. Issues such as increasing women's political participation, expanding their representation in leadership positions, ensuring equality in family relations, and reducing gender stereotypes are scientifically and practically substantiated. In conclusion, it is emphasized that gender equality in Uzbekistan is viewed not only as a legal but also as a moral and ethical value, serving as an essential factor in the country's sustainable development and the realization of the "New Uzbekistan" concept.

Keywords: gender equality, women's rights, equal opportunities, state policy, Family Code, UN Sustainable Development Goals, New Uzbekistan.

HUQUQ VA IMKONIYATLAR MUVOZANATI: O'ZBEKISTONDA GENDER ADOLAT SARI YO'L

Habibullayev Muhammadrajab Obidjon o'g'li
Farg'ona davlat universiteti
Yurisprudensiya yo'nalishi talabasi
E-mail: muhammadrajabh18@gmail.com

Ilmiy rahbar: Yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Dadaboyeva Jumagul Anvarovna

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida gender tengligini ta'minlash yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning huquqiy asoslari va amaliy natijalari yoritilgan. Maqolada "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonun, "Ayollarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonun hamda Oila kodeksi normalari asosida gender siyosatining mazmuni tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy sohalarda ayollar va erkaklar uchun teng imkoniyatlarni yaratish, davlat boshqaruvi tizimida gender yondashuvni tatbiq etish bo'yicha qabul qilinayotgan chora-tadbirlar tahlil etilgan. Ayollarning siyosiy faolligini oshirish, rahbarlik lavozimlarida ularning ulushini ko'paytirish, oilaviy munosabatlarda tenglikni ta'minlash, gender stereotiplarni kamaytirish kabi masalalar ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslab berilgan. Xulosa o'rnida, gender tengligi mamlakatda nafaqat huquqiy, balki ma'naviy-axloqiy qadriyat sifatida qaralib, jamiyatning barqaror rivojlanishi va "Yangi O'zbekiston" g'oyalarini ro'yobga chiqarishda muhim omil ekani ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: gender tengligi, xotin-qizlar huquqlari, teng imkoniyatlar, davlat siyosati, Oila kodeksi, BMT maqsadlari, Yangi O'zbekiston.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N46

Gender tenglikni ta’minlash masalasi dunyo bo‘ylab muhim ahamiyatga ega. BMT tomonidan qabul qilingan hujjatlarda, xususan, 2015-yil qabul qilingan 70-sonli rezolyutsiyada bu o‘z ifodasini topgan. BMT Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida mamlakatimizda “O‘zbekistonning 2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalari” qabul qilingan. O‘zbekistonning 2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi 5-maqsad – “Gender tenglikni ta’minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish”dir. Bu esa, o‘z navbatida, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va boshqa choralarni qamrab oladi. Ushbu vazifalarni bajarish uchun barcha davlat organlari va tashkilotlari, muassasalari, shuningdek, davlat ahamiyatidagi jamoat tashkilotlari mas’ul.

2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi kengash tashkil etildi. Ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida milliy qonunchiligimizda ham o‘zgarishlar ro‘y berdi. Xususan, “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi.[1] Qonun bilan ilk bor milliy qonunchiligimizda “gender” tushunchasiga ta’rif berildi. Unga ko‘ra, gender – xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan, siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta’lim, ilm-fan sohalarida namoyon bo‘ladigan ijtimoiy jihat[2] hisoblanadi.

“Gender” tushunchasining lug‘aviy ma’nosi lotincha “genus”, ya’ni “jins” ma’nosini anglatadi.[3] Agarda, biologik jins insonlarni ayol va erkaklarga ajratadigan bo‘lsa, gender – bu ayol va erkaklarning jamiyatdagi o‘rnini ajratishga qaratilgan. Jamiyatda ayol va erkaklarning o‘z o‘rnini topishi va belgilashi uchun davlat ularga bir xil sharoit va imkoniyat yaratib berishi gender tenglikni ta’minlashda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Qonunning 4-moddasiga muvofiq, xotin-qizlar va erkaklarga teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta’minlashning asosiy prinsiplariga qonuniylik, demokratizm, teng huquqlilik, jins bo‘yicha kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik, ochiqlik va shaffoflik kiradi. Bu prinsiplar davlat siyosatining barcha yo‘nalishlarida gender tenglikni ta’minlash, jamiyatda adolatli muhitni shakllantirish hamda har bir fuqaroning huquq va erkinliklarini kafolatlashga xizmat qiladi. Masalan, demokratizm prinsipi erkak va ayollarning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy hayotda teng ishtirok etish huquqini, ochiqlik va shaffoflik prinsipi esa bu jarayonlarda oshkoralikni ta’minlaydi.

Gender-huquqiy ekspertizani o‘tkazish vakolatlari barcha davlat organlari va boshqa tashkilotlarga yuklatilgan. Har bir idora o‘z faoliyati yo‘nalishidan kelib chiqib, normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini tahlil qiladi hamda gender-huquqiy ekspertiza xulosasini tayyorlaydi. Bu jarayon orqali hujjatlarni qabul qilish oqibatlari baholanadi, ularning qo‘llanilishi jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan kamsitish xususiyatiga ega xavflar aniqlanadi va ularni bartaraf etishga yo‘naltirilgan tavsiyalar ishlab chiqiladi. Shu tariqa, qonunlar ishlab chiqishdan tortib ularni amaliyotga joriy etishgacha bo‘lgan bosqichlarda gender tenglik prinsiplari doimo nazarda tutiladi.

Mazkur qonunning yana bir muhim jihati shundaki, unda gender statistikasi yuritish tartibi ham belgilangan. Davlat statistika organlari jamiyat hayotining barcha sohalarida xotin-qizlar va erkaklarning ahvolini aks ettiradigan statistik axborotni yig‘ish, unga ishlov berish,

saqlash, tahlil qilish va e’lon qilish bilan shug‘ullanadi. Bunday ma’lumotlar asosida mamlakatda gender tengligiga oid muammolarni chuqur o‘rganish, mavjud tafovutlarni aniqlash va ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish imkoniyati paydo bo‘ladi. Bu esa davlat siyosatini yanada maqsadli va samarali amalga oshirishga xizmat qiladi.

Qonun shuningdek, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini, bu yo‘nalishdagi boshqaruv mexanizmlarini ham belgilab bergan. Ushbu yo‘nalishda muvofiqlashtiruvchi organ sifatida O‘zbekiston Respublikasi gender tengligini ta’minlash masalalari bo‘yicha komissiya faoliyat yuritadi. Mazkur komissiyaning asosiy vazifasi – xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, milliy harakatlar rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish, hamda bu boradagi xalqaro standartlarga rioya etilishini ta’minlashdir. Komissiya har yili Oliy Majlisga amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobot taqdim etadi. Bu tizim davlat boshqaruvi organlari faoliyatida shaffoflik va javobgarlikni oshiradi. Qonunda insonlarning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy huquqlarini ta’minlashda gender tenglikni saqlashga oid normalar ham belgilangan. Masalan, davlat xizmati sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng imkoniyatlar yaratish, lavozimlar bo‘yicha kadrlar zaxirasini shakllantirishda jinsiy tenglikni ta’minlash, zarur hollarda vaqtinchalik maxsus choralar qo‘llashga ruxsat berilishi nazarda tutilgan. Bunday choralar, masalan, rahbarlik lavozimlariga ayollar ulushini oshirish, ularning boshqaruvdagi ishtirokini kengaytirish kabi maqsadlarda qo‘llanilishi mumkin.

Siyosiy sohada esa xotin-qizlarning faol ishtirokini kengaytirish uchun muhim chora-tadbirlar ko‘zda tutilgan. Saylov kodeksining 70 va 91-moddalariga muvofiq, siyosiy partiyalar tomonidan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlarga ko‘rsatiladigan nomzodlarning kamida o‘ttiz foizi ayollardan iborat bo‘lishi shart. Bu norma xotin-qizlar va erkaklarga teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlash prinsiplariga to‘liq mos keladi hamda ularning siyosiy faolligini oshirishga xizmat qiladi. Shu tariqa, ayollar ham siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonlarida erkaklar bilan teng ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Iqtisodiy sohada ham qonun xotin-qizlar va erkaklar uchun teng sharoitlarni ta’minlashni belgilaydi. Davlat organlari va tashkilotlar rahbarlari jamiyatning iqtisodiy resurslaridan teng foydalanish imkonini yaratishlari shart. Davlat esa o‘z navbatida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda, moliyaviy yordam va kreditlar ajratishda erkaklar va ayollar o‘rtasida teng imkoniyatlarni kafolatlaydi. Bu iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy adolatni ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, qonunda ayrim holatlar jinsiy kamsitish sifatida qaralmasligi ham alohida qayd etilgan. Masalan, bola tug‘ish, ona suti bilan oziqlantirish, muddatli harbiy xizmatga chaqirish, gender siyosatini amalga oshirishda vaqtinchalik maxsus choralar ko‘rish, xotin-qizlar va erkaklarning mehnatini muhofaza qilishda reproduktiv salomatlikni saqlash kabi holatlar kamsitish hisoblanmaydi. Chunki bu holatlar biologik, ijtimoiy va huquqiy jihatdan asoslangan farqlardir. Shunday qilib, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro huquqiy majburiyatlari milliy qonunchilik tizimining muhim tarkibiy qismiga aylangan. Xususan, ayollar va erkaklarning teng huquq hamda imkoniyatlarini ta’minlash borasidagi xalqaro me’yorlar mamlakatimiz qonunchiligida mustahkam huquqiy asos sifatida o‘z ifodasini topgan. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun xalqaro huquqning ilg‘or tamoyillariga tayanadi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 58-moddasida “Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar”[5] degan

norma mustahkamlab qo‘yilgani ham ushbu sohada davlat siyosatining poydevorini tashkil etadi. Bu qonuniy asoslar mamlakatda gender siyosatini amalda tatbiq etish uchun mustahkam zamin yaratdi. Bugungi kunda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni rahbarlik lavozimlariga tayyorlash, tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Misol uchun, har bir viloyat, tuman va shahar hokimliklarida xotin-qizlar masalalari bo‘yicha maslahatchi lavozimi joriy etilgan. Shuningdek, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” kabi tizimlar orqali ayollarning ijtimoiy muammolarini hal etish, ularni moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Bundan tashqari, ayollarni zo‘ravonlikdan himoya qilish masalasi ham gender siyosatining ajralmas qismi sifatida ko‘rilmoqda. 2019-yilda qabul qilingan “Ayollarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun jamiyatda ayollarning sha’ni, qadr-qimmatini himoya qilishga qaratilgan eng muhim hujjatlardan biridir. Bu qonun orqali ayollar nafaqat jismoniy, balki ruhiy va iqtisodiy tazyiqlardan ham himoya qilinmoqda. Shu bilan birga, qonun fuqarolarning, ayniqsa, erkaklarning gender masalalariga nisbatan ongli munosabatini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Xalqaro maydonda ham O‘zbekiston gender tengligi sohasida faol ishtirok etmoqda. Mamlakatimiz BMTning “Ayollar kamsitilishining barcha shakllarini bartaraf etish to‘g‘risida”gi konvensiyasi (CEDAW), “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” hamda “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt” kabi hujjatlarni ratifikatsiya qilgan. Bu esa O‘zbekistonning gender siyosati nafaqat milliy, balki global darajada ham tan olinganini ko‘rsatadi.

Ayni paytda, O‘zbekistonda ayollarning davlat boshqaruvidagi ulushi sezilarli darajada ortib bormoqda. Parlamentdagi deputatlarning qariyb 32 foizini ayollar tashkil etmoqda[4], bu esa Markaziy Osiyoda eng yuqori ko‘rsatkichlardan biridir. Shuningdek, ayollar sud tizimida, huquqni muhofaza qiluvchi organlarda, ilm-fan va ta’lim sohasida ham faoliyat yuritmoqda. Bu holat davlatning gender siyosatini amalda muvaffaqiyatli amalga oshirayotganidan dalolat beradi.

Shunga qaramay, gender tengligi masalasida hali bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalar ham mavjud. Ayrim joylarda ayollarning iqtisodiy mustaqilligini ta’minlash, ularni kasb-hunarga o‘qitish, bandlikni oshirish bo‘yicha ishlarni yanada kuchaytirish zarur. Eng muhimi, jamiyatda gender stereotiplarini bartaraf etish, ya’ni ayolni faqatgina uy va oilaga bog‘lab qo‘yuvchi qarashlardan voz kechish muhimdir. Ayol va erkakning jamiyatdagi o‘rni bir-birini to‘ldiruvchi, teng hamkorlik asosida shakllanishi lozim.

Shunday ekan, gender tengligi — bu faqat huquqiy yoki siyosiy masala emas, balki ma’naviy-axloqiy qadriyatdir. Agar jamiyatda adolat, teng imkoniyat va o‘zaro hurmat tamoyillari ustuvor bo‘lsa, bu mamlakatning barqaror rivojlanishiga, oilalarning mustahkamligiga va fuqarolarning baxtiyor hayot kechirishiga xizmat qiladi.

Demak, O‘zbekistonda gender tengligini ta’minlash borasidagi sa’y-harakatlar izchil davom etmoqda. Bu jarayonning markazida inson qadri, ayol sha’ni, erkak mas’uliyati va o‘zaro hurmat tamoyillari turadi. Bunday yondashuv esa jamiyatning har tomonlama yuksalishiga, “Yangi O‘zbekiston”ning ma’naviy poydevori mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

“Xotin-qizlar va erkaklarga teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunning 10-moddasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash sohasidagi davlat boshqaruvi O‘zbekiston Respublikasida tizimli tarzda yo‘lga

qo‘yilganligi belgilangan. Ushbu jarayonni muvofiqlashtirish va nazorat qilishda bir nechta asosiy davlat institutlari faoliyat yuritadi. Avvalo, bu boradagi umumiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi mas’uldir. Vazirlar Mahkamasi gender siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilab beradi, tegishli qarorlar va davlat dasturlarini tasdiqlaydi hamda ularning bajarilishini nazorat qiladi[2].

Shuningdek, Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo‘yicha Respublika komissiyasi mamlakat miqyosida gender tengligini ta’minlashning muhim mexanizmi hisoblanadi. Mazkur komissiya davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda faoliyat yuritib, ayollarni ijtimoiy-siyosiy hayotga jalb etish, ularning huquqlarini himoya qilish, shuningdek, gender stereotiplarini kamaytirishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqadi. Komissiya nafaqat siyosiy darajadagi tashabbuslarni ilgari suradi, balki joylardagi xotin-qizlar faoliyatini muvofiqlashtirishda ham muhim o‘rin tutadi. Hududlarda viloyat, tuman va shahar darajasida xotin-qizlar masalalari bo‘yicha kengashlar va ishchi guruhlar tashkil etilgan bo‘lib, ular Respublika komissiyasi bilan uzviy hamkorlikda ishlaydi. Bundan tashqari, gender tengligi sohasidagi davlat boshqaruvining yana bir muhim bo‘g‘ini — davlat organlarining o‘z vakolatlari doirasidagi faoliyatidir. Har bir vazirlik, idora yoki muassasa o‘z sohasida ayollar va erkaklar uchun teng sharoit yaratish, kamsitish holatlarining oldini olish, ish joylarida teng imkoniyatlar tizimini joriy etish bo‘yicha ichki siyosat yuritadi. Masalan, Ta’lim, Bandlik, Sog‘liqni saqlash, Ichki ishlar, Adliya vazirliklari o‘z yo‘nalishlari bo‘yicha gender tengligi masalalariga alohida e’tibor qaratmoqda. Shu tarzda, O‘zbekistonda gender tengligini ta’minlashda davlat siyosati markazdan joylarga qadar izchil tizim asosida tashkil etilgan. Har bir bo‘g‘inning maqsadi — erkaklar va ayollar uchun teng huquq va imkoniyatlarni amalda ta’minlash, jamiyatda adolat, hurmat va o‘zaro ishonch muhitini yaratishdir.

O‘zbekiston Respublikasining Oila va Mehnat kodekslarida ham ayollarning erkaklar bilan teng huquqli ekanligini ifodalovchi qator qoidalarni ko‘rish mumkin. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 2-moddasida oilaviy munosabatlarni tartibga solish erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlanib tuzgan ittifoqi, er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi, ichki oilaviy masalalarning o‘zaro kelishuv yo‘li bilan hal qilinishi ustuvorligi tamoyillari asosida amalga oshirilishi belgilangan. Bundan tashqari, ushbu qonunda ona va bola manfaatlarini muhofaza qilish ayollarning mehnati va sog‘ligini saqlashga doir maxsus tadbirlar ko‘rish, mehnatni onalik bilan bog‘lab qo‘shib olib borish uchun ayollarga sharoit yaratish, onalik va bolalikni huquqiy himoya qilish, moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash yo‘li bilan ta’minlanadi, deb ko‘rsatilgan (Oila kodeksi 4-modda)[6–123-bet].

Oila kodeksi jamiyatimizda oilaviy munosabatlarni tartibga soluvchi eng muhim hujjatlardan biridir. Unda xotin-qizlarning oiladagi o‘rni va huquqlari aniq belgilab qo‘yilgan. Kodeksga ko‘ra, ayollar nikoh tuzish, oila qurish va oilaviy hayotda erkaklar bilan teng huquqlarga egadirlar. Bu degani, ayollar o‘z fikrini erkin bildirish, oilaviy qarorlar qabul qilishda ishtirok etish, farzand tarbiyasida teng mas’ul bo‘lish huquqiga ega. Shuningdek, Oila kodeksi onalik va ota-onalik huquqlarini ham davlat darajasida himoya qiladi. Ya’ni, ona bo‘lgan ayollar, bolalar tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchi ota-onalar huquqlari qonun bilan kafolatlanadi. Bu orqali davlat oilaning mustahkamligi va farzandlarning sog‘lom, barkamol bo‘lib ulg‘ayishini ta’minlashga harakat qiladi.

Kodeksda ota-onalarning farzandlari oldidagi burchlari ham aniq yozilgan. Unga ko‘ra, ota-onalar voyaga yetmagan, mehnat qobiliyatidan mahrum yoki yordamga muhtoj farzandlarini boqish, ularning ta’lim olishi va tarbiyasiga sharoit yaratishlari shart. Shu bilan birga, farzandlar ham ota-onalariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, ularni asrab-avaylash, zarur paytda yordam berishlari lozim.

Umuman olganda, Oila kodeksi va “Xotin-qizlar hamda erkaklarga teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun O‘zbekiston jamiyatida inson huquqlarini ta’minlash, oila institutini mustahkamlash va gender tengligini qaror toptirish yo‘lida muhim o‘rin tutadi. Bu hujjatlar orqali davlat erkak va ayolning huquqiy jihatdan tengligini, ularning oilaviy va ijtimoiy hayotdagi o‘rni bir xil darajada e’tirof etilishini kafolatlaydi. Ayniqsa, ayollarning jamiyatdagi faolligini oshirish, ularning mehnat, ta’lim, siyosat va oilaviy hayotdagi ishtirokini kengaytirish bo‘yicha huquqiy asoslar yaratilgan. Shuningdek, Oila kodeksi oila a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, mas’uliyat va mehr-oqibatni mustahkamlashga xizmat qiladi. Unda ota-onalarning farzandlar oldidagi burchlari, farzandlarning esa ota-onalar oldidagi majburiyatlari aniq belgilangan bo‘lib, bu oila muhitida sog‘lom axloqiy tamoyillarni shakllantirishga yordam beradi. Kodeks oilaning nafaqat iqtisodiy, balki ma’naviy barqarorligini ta’minlashga, bolalarning sog‘lom va barkamol avlod sifatida voyaga yetishiga asos bo‘ladi.

Gender tengligi borasidagi qonun esa ayollar huquqlarini himoya qilish bilan birga, erkaklar uchun ham adolatli va muvozanatli ijtimoiy muhitni yaratadi. Bu orqali jamiyatda diskriminatsiyaga qarshi kurash kuchayadi, teng imkoniyatlar siyosati hayotga tatbiq etiladi. Shu bilan birga, mazkur qonun xalqaro standartlarga mos ravishda ishlab chiqilgani O‘zbekistonning inson huquqlarini ta’minlash borasidagi sa’y-harakatlarini yanada kuchaytiradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Saxipjamol JOLDASOVA, yuridik fanlari nomzodi. “Gender tenglik ta’minlanadi”
2. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Gender
4. Kun.uz ma’lumotnomasi https://kun.uz/48548464#!
5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
6. Inson huquqlari, Darslik. Toshkent-2021
7. https://uz.wikipedia.org/wiki/Gender_tadqiqotlar

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 4 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI – PEDAGOGICAL SIENCE

Received: 16 March 2026
Accepted: 01 April 2026
Published: 15 April 2026

Article / Original Paper

TEACHING STUDENTS THE INTERPRETATION OF THE SPIRITUAL HERITAGE OF TIMURIAN QUEENS IN HISTORICAL, SCIENTIFIC, AND LITERARY SOURCES

Kurbanova Dilafruz Toshturdiyevna
Acting Associate Professor
Department of Pedagogy and Psychology (PHD)
Samarkand Branch of the Tashkent International University of Kimyo

Abstract. This article analyzes the spiritual heritage of the Timurid queens as interpreted in historical, scientific, and literary sources. Particular attention is given to the activities of prominent women of the Timurid era such as Saraymulk Khanum, Gawharshad Begum, Gulbadan Begim and others, highlighting their contributions to state governance, science, culture, and charitable activities. Based on historical sources, tazkiras, and modern scholarly research, the article reveals the role and significance of women in the spiritual and intellectual life of the Timurid period. It also examines the importance of the spiritual heritage of Timurid queens for contemporary cultural and educational development.

Keywords: Timurid period, Timurid queens, spiritual heritage, historical sources, scientific and literary sources, Saraymulk Khanum, Gawharshad Begum, women's activities, culture and enlightenment, charity.

TEMURIY MALIKALAR MA'NAVIY MEROSINING TARIXIY, ILMIY-ADABIY MANBALARDAGI TALQININI TALABA-QIZLARGA O'RGATISH

Qurbonova Dilafruz Toshturdiyevna
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
Samarqand filiali Pedagogika va psixologiya kafedrasi
(PHD) p.f.b.f.d. v.b.dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Temuriy malikalar ma'naviy merosining tarixiy, ilmiy va adabiy manbalarda aks etishi tahlil qilinadi. Xususan, Temuriylar davrida faoliyat yuritgan malikalar - Saroymulkxonim, Gavharshodbegim, Gulbadanbegim va boshqa ayol siymolarning davlat boshqaruvi, ilm-fan, madaniyat hamda xayriya ishlari rivojiga qo'shgan hissasi yoritiladi. Maqolada ularning faoliyati tarixiy manbalar, tazkiralar va ilmiy tadqiqotlar asosida o'rganilib, Temuriylar davrida ayollar ma'naviy-ma'rifiy hayotining o'rni va ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, Temuriy malikalar merosining bugungi kun madaniy-ma'rifiy taraqqiyotidagi ahamiyati ham tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Temuriylar davri, Temuriy malikalar, ma'naviy meros, tarixiy manbalar, ilmiy-adabiy manbalar, Saroymulkxonim, Gavharshodbegim, ayollar faoliyati, madaniyat va ma'rifat, xayriya ishlari.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N47

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev yoshlarni vatanparvarlik, milliy iftixor ruhida tarbiyalash, buning uchun tarixni yaxshi o'rgatish, bu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish masalasida "Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga

o’rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur”, – deya ta’kidlagan edi [1].

Biz yurtimizni yangi bosqichga, yangi yuksak marraga olib chiqmoqchi ekanmiz, bunda bizga yorug‘ g‘oya kerak. Bu g‘oyaning zamirida xalqimizning o‘zligini anglash yotadi. Haqqoniy tarixni bilmasdan turib esa o‘zlikni anglash mumkin emas. Fanda bizning tarixiy ildiz-tomirlarimizni aniqlaydigan, milliy g‘ururimizni yuksaltiradigan yangi yo‘nalishlar paydo bo‘lishi kerak. Bugungi kunda umummilliy harakatga aylangan “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi zamirida yuqori ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega o‘zbek qizi siymosini yaratish zarurati ushbu ilmiy tadqiqotimizni yozilishiga turtki berdi.

Jahon tarixida ijtimoiy hayotning barcha sohalarida erkaklar bilan bir qatorda faoliyat ko’rsatayotgan buyuk jasorat sohibalarining nomlari faxr bilan tilga olinadi. Ayollar orasidan buyuk hukmdorlar, oqila, maslahatgo‘ylar, etuk donishmandlar, iste’dodli olimalar, suxandonlar, shoiralar, tarixchilar, zukko san’atshunoslar etishib chiqqan. Jumladan, massagetlar hukmdori To’maris, qadimiy Palmiraning hukmdori Zinoviya, ispan qirolichasi Izabella, arman malikasi Tamara, Buyuk Britaniya bosh vaziri Margarit Tetcher, Pokiston bosh vaziri Benazir Buxutto, Germaniya kansleri Angela Merkel, Braziliya prezidenti Dilma Russel, Hindiston bosh vaziri Indira Gandilar o‘z davrining etuk siyosatdon hukmdorlari bo‘lishgan. Bunday hukmdor, olima, shoira va donishmand ayollar G‘arbda barmoq bilan sanalsa-da Sharq mamlakatlarida ular ko‘pchilikni tashkil qiladi. Dunyo ta’lim tizimida shaxsni jismoniy va ma’naviy jihatdan tarbiyalash masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Yetakchi oliy ta’lim muassasalari va ilmiy markazlarida talaba-qizlarni o‘zi taxtga o‘tirgan, hukmdorlarga rafiqalik yoki qizlik mavqeyiga tayanib, ulkan tadbirlarni amalga oshirgan va shu tufayli tarixda nomlari qolgan ayollar faoliyati hamda ularning ma’naviy merosini o’rganishga bag‘ishlangan bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

Tariximizda XIV-XVI asrlar chuqur iz qoldirgan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu davrda iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohada muhim o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Bir so‘z bilan aytganda tarixda Temur va temuriylar davri sivilizatsiyasi yuzaga keldi. Markazlashgan davlatning tashkil topishi natijasida maorif, ilm-fan, madaniyat, qurilish va obodonchilik ishlari yuqori pog‘onaga ko‘tarildi. Ayniqsa, ta’lim-tarbiya sohasini rivojlantirishga e’tibor qaratildi. Amir Temur va temuriylar davri tarixi haqqoniy va xolisona o’rganila boshlandi. Aniqrog‘i, bu davr tarixini yoshlar ongiga singdirishda milliy mafkuramiz nuqtai-nazaridan yondashilayotganligi e’tiborga molikdir. Amir Temur va temuriylar davridagi maorif va ta’lim-tarbiyaga oid rivojlanishida bevosita temuriy malikalarning o’rni beqiyos bo‘lgan. Erkakka hurmat, sharm-hayo, uyat, andisha, iymon-e’tiqodlilik o‘zbek ayoliga xos fazilat. Shu bois, azaldan tajribali, andishali, sadoqatli, iboli, hayoli, mehribon onalar tarbiyalayotgan farzandlar g‘ururli, e’tiqodli, iymoni butun, mehnatsevar bo‘lib voyaga etishgan. Bu esa bugungi kunda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar qatorida temuriy malikalar ma’naviy merosi asosida talaba-qizlarda ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirdi. Birgina Temur va temuriylar sulolasiga mansub xotin-qizlardan ayrimlariga to‘xtalib o‘taylik. Saroymulk xonim Amir Temurning rafiqasi, Qozonxonning qizi (1341-1408), Gavharshod begim Shohruh Mirzoning rafiqasi (1379-1457), Xonzoda begim Umarshayx Mirzoning to‘ng‘ich qizi, Boburning opasi (1477-1544), Gulbadan begim Zahriddin Muhammad Boburning uchinchi qizi (1523-1603), Nurjahon begim (Mehriniso) Jahongirshohning suyukli xotini

(1577-1645), Mumtozmahal (Arjumand bonu) Shohjahonning xotini (1594-1631), Zebuniso begim Avrangzeb Olamgirning katta qizi (1639-1702) shular jumlasidandir.

Ushbu malikalar to‘g‘risida ko‘pgina qo‘lyozma toshbosma asarlarda tegishli ma’lumotlar uchraydi. Chunonchi, Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma”si, Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”si, Ibn Arabshohning “Ajoyib ul-maqdur fi axbori Taymur” (Temur haqidagi xabarlarda taqdir ajoyibotlari), Hofizi Abro‘yning “Zubdat ut-tavorixi Boysung‘uriy”, Kamoliddin Abdurazzoq Samarqandiyning “Matlai sa’dayi va majmai baxrayn” (Ikki saodatli yulduzning chiqishi va ikki dengizning qo‘shilish joyi), Foseh Xavofiyning “Mujmal-i Fosehiy” (Fosehiyning tarixlar majmuasi), Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”, G‘iyosiddin Muhammad Xondamirning “Habib us-siyar fi axbor ofrod ul-bashar” (Inson xabarlarida do‘stlarning tarjimai holi), Gulbadan begimning “Humoyunnoma” kabi asarlarida qimmatli ma’lumotlar berilgan.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha Sohibqiron bobomiz hayoti va ijodiga nazar tashlar ekanmiz, u oila a’zolari, farzandlari va oddiy xalqni yuksak axloqiy qoidalarga amal qilishga undagan, mamlakat sultoni sifatida talab qilganligining guvohi bo‘lamiz. Uning barcha tarbiyaviy g‘oyalari oilasiga, farzandlariga, ahli ayoliga, amiru-ulamolariga, saroy ayollariga bo‘lgan munosabatlari orqali namoyon bo‘lgan. Xotin-qizlarga bo‘lgan hurmati, ularni ona, qiz, zaifa sifatida e’zozlash, har qanday xavf-xatardan himoya qilishi sog‘lom farzandlarni dunyoga kelishi uchun zamin hisoblangan. Xotin-qizlar oila tayanchlari, hayotning davomiyligini ta’minlovchi ulug‘ kuch sifatida e’zozlangan. Shuning uchun temuriy malikalar fahm-farosatli, zukko, tadbirkor, ziyrak, oqila, ma’rifatli, insonparvar, dono bo‘lib etishgan. Ushbu fazilatlardan kelib chiqqan holda bugungi kunda tobora dolzarbligi ortib borayotgan jamoat orasida o‘zini tutish qoidalari, xushmuomalalik odobi, yoshga qarab muloqotda bo‘lish, salomlashish, hol-ahvol so‘rash qoidalari, kundalik turmush tartibi, kiyinish, kiyim tanlash me’yorlari, orastalik bilan bog‘liq talablar, mehnat qilish va mehnatga munosabat odobi kabi xislatlarni talaba-qizlarimizda ma’naviy-axloqiy qadriyat sifatida takomillashtirib borishimiz zaruriyatga aylanmoqda. Pedagogikada tarbiyaning asosan uchta tipologiyasi qayd etilib, ular qattiqqo‘llikka asoslangan avtoritar, yumshoqlikka asoslangan liberal hamda demokratik prinspiga asoslangan tarbiya turlaridir. Yoshlar tarbiyasining samaradorligi, ularda ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni takomillashtirish har bir oila, ta’lim muassasasida tarbiyaning qaysi prinsip asosida tashkil etilganiga bog‘liq. Temuriy malikalar ma’naviy merosi asosida talaba-qizlarda ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni takomillashtirish ham kafolatlangan samaradorlik bera oladi, deb hisoblaymiz.

Bu haqda tarixchi olim Turg‘un Fayziyevning temuriy malikalarga bag‘ishlangan tadqiqot ishlari e’tiborga molik [2]. Olim Temur va temuriylar davri tarixini, jumladan, temuriy shahzodalar va malikalar haqidagi ma’lumotlarni to‘plab, tahlil qilib, ko‘plab tarixiy manbalarga tayanib 1995-yilda “Temuriylar shajarasi” kitobini nashr ettirdi. Xarakterli jihati shundaki asarda temuriy malikalar, ularning kelib chiqishi, insoniy fazilatlari, shajaralari to‘g‘risida batafsil ma’lumot beradi. Olimning temuriy malikalarga bag‘ishlangan yana bir risolasi Sharqning bulbuli deb nom olgan Zebuniso begimga bag‘ishlangan. Muallif XVII asrda boburiylar xonadonida tug‘ilib voyaga etgan Zebunisoning hayoti va faoliyati, madaniy merosiga oid ma’lumotlarni fors tilidagi manbalar orqali bayon qiladi.

Izzat Ahmedov tomonidan nashrga tayyorlangan “Dunyo malikalari” to‘plamida muallif ko‘pgina tarixiy hujjatlar, manbalardan foydalanib, dunyo mamlakatlarining aksariyatida

mashhur va tarixiy shaxsga aylangan ayollarning insoniyat tarixiga qo‘shgan salmoqli hissalari, ko‘rsatgan xalq qahramonlarining jasoratlari, davlatni qanday boshqarganliklari, oilaparvarligi, insoniy fazilatlarni kengroq yoritishga harakat qilgan. Ushbu to‘plamda temuriy malikalardan Saroymulk xonim, Gavharshod begim, Xonzoda begim, Gulbadan begim, Jahonoro begim, Zebuniso begimlar haqida ulardagi insoniy fazilatlar to‘g‘risida yozgan. Jumladan, “...Saroymulkxonim nozik did va farosat bilan o‘zgalardan ajralib turadigan, husn-latofat bobida ham benazir ayollardan edi. Saltanat ishlarida o‘z maslahatlari bilan qatnashib turar, ayniqsa, ilm-ma’rifatga alohida e’tibor ila qarab, tolibi ilmlarga homiylik qilar edi”, - deb ta’kidlaydi muallif [3].

Boburning eng sevimli farzandlaridan biri Gulbadan begim bo‘lgan. U saroyda katta obro‘-e’tiborga sazovor bo‘lgan. Shu bois, Gulbadan begim akasi Xumoyun vafotidan keyin ham uzoq yillar yashab Boburiylar avlodi to‘g‘risida “Humoyunnoma” asarini yozadi. Ushbu asar oradan bir necha asr o‘tsa ham avloddan avlodga o‘tib kelmoqda. Manbalarga qaraganda Gulbadan begim o‘z davrining oqila, donishmand ayollaridan biri edi. U “Humoyunnoma” asarida saroy ahlining turmush tarzi, tarixiy asarlarda uchramaydigan Bobur shoh xonadonining nozik xususiyatlari, oilaviy sharoitlari, to‘y va aza bilan bog‘liq udumlar, uy-ro‘zg‘or asboblari, kiyim-kechak turlari va boshqa jihatlar haqida batafsil bayon qiladi.

“Humoyunnoma”da XVI asrda Bobur ayniqsa, Humoyun saroyidan xotin-qizlar ahvoli va ularning feodal jamiyatda tutgan o‘rinlari haqida ko‘p fikr-mulohazalar bildirilgan. Gulbadan begimning yozishicha “begimlar” ayrim hollarda davlatda katta o‘rin tutganlar. Masalan, Gulbadan begimning o‘zi Humoyun davrida davlat miqyosida diplomatik munosabatlarda ishtirok etgan. Ular shodlik kunlarida mardona kiyimlar kiyishganlar va chavandozlik, tirandozlik kabi o‘yinlarda faol qatnashganlar [4].

“Humoyunnoma” asarida ta’kidlanishicha o‘rta asr tarixchilari orasida bizga faqat ikkita xotin-qiz manbashunosning nomi ma’lum. G‘arbdagi olima – tarixchi vizantiyalik malika Anna Komen (XI-XII asr) bo‘lib, u o‘z otasi va akasining tarixini yaratgan. O‘rta Sharqda esa O‘rta Osiyo, Hindiston va qisman Afg‘oniston tarixining ma’lum bir davrini mohirona aks ettirgan Gulbadan begim o‘z davrining murakkab feodal munosabatlarini nihoyat chuqur fahmlay olgan va u voqealarni ta’sirli jumlalarda bayon qila olgan ajoyib shaxsdir [5].

Amir Temur yaratgan “Temur tuzuklari” faqat tarixiy jihatdan emas, balki falsafiy, ijtimoiy-pedagogik, psixologik fikrlarga boyligi jihatidan ham alohida ahamiyatga ega. Undagi ta’lim-tarbiyaga oid g‘oyalardan o‘z davrida va undan keyingi davrlarda ham keng foydalanilgan [6].

Shuningdek, muallif “...1399 — yilda Temur Xalil Sultonni uylantirib qo‘ydi. O‘zining Sherbeka og‘o degan singlisi va amirzoda kuyovi Alining qizi Jahonsulton begimni olib berdi. Jahonsulton begim oppoq yuzli, bo‘yi sal pastroq bo‘lsa ham qomati qarag‘aydek tippa-tik va tekis, sochlari quyuq, kamgap, kamsuqum, ammo metin irodali qiz edi. Qilichbozlikni, ot minishni ham o‘rinlatar, sochlarini telpak ostiga qistirib, ro‘moli bilan tang‘ib, yigitlar qatori jang-jadalga ham kirib ketaverar edi”, — deb ta’kidlaydi [4].

Bu gapning hech qanday mubolag‘ali joyi yo‘q ekanligini tarixchi Ibn Arabshoh: “Temur askari ichida ayollar ham ko‘p bo‘lardi. Erkak jangchilarga qarshi turib, nayza sanchishda, qilich bilan zarba berishda va kamondan otishda erkaklardan ham ortiqroq ish qilgan paytlari ko‘p bo‘lardi”, — deb yozdi.[7]

Zebuniso begim Zahiriddin Muhammad Boburning pannevarasi Abu Zafar Muhiddin Muhammad Avrangzeb Olamgirning qizidir. U o‘z zamonasining fozila ayollaridan Hafiza Maryam Bonu qo‘lida savod chiqargan. Zebuniso begim zabardast shoira, etuk olima, usta tanbur chertuvchi sozanda va mohir xattot bo‘lib etishadi. Arab-fors tillarining sarfu nahv (morfologiya va sintaksis)ini, fiqh (qonunshunoslik), mantiq, falsafa, tarix fanlarini puxta o‘zlashtiradi. Zebuniso begim himmatli bo‘lib, olimlarga, shoirlarga va san’at ahillariga g‘amxo‘rlik hamda homiylik ko‘rsatib, ularga maosh ham to‘lab turgan. Fikrimizni “Olami Islom” tazkirasidagi “Zebuniso begim otasi hukmdorlik bilan qozonolmagan shuhratni ilm va odob bilan qozongan” jumlalari tasdiqlaydi.

Tadqiqotchi R.Aleuva “Amir Temurning mafkuraviy-tarbiyaviy qarashlari” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida sohibqiron bobomizning o‘tmishdagi madaniy-ma’naviy merosiga, ota-bobolarimizdan qolgan bilim va hayot tajribalariga alohida e’tibor berganligini qayd etadi [8].

Yangi O‘zbekiston barpo etilayotgan sharoitda talaba-qizlarimizda yuksak axloqiy sifatlarni shakllantirish o’quv-tarbiya jarayonining muhim, ajralmas qismiga aylanmoqda. Mustaqil ijodiy fikrlay oladigan, kasbiy tayyorgarlik bilan bir qatorda ma’naviy pok, axloqiy-ijtimoiy faol qizlarni kamol toptirish davr talabi bo‘lib qolmoqda.

Bugungi globallashuv davrida yoshlarning milliy tarix va ma’naviy merosga bo‘lgan qiziqishini oshirish muhim vazifalardan biridir. Temuriy malikalar faoliyatini talaba-qizlarga o‘rgatish orqali ularda milliy g‘urur, tarixiy xotira va ma’naviy qadriyatlarga hurmat tuyg‘ulari shakllanadi.

Oliy ta’lim muassasalarida tarix, adabiyot va madaniyat fanlari doirasida Temuriy malikalar merosi haqida maxsus mavzularni o‘rganish talaba-qizlarning ilmiy dunyoqarashini kengaytiradi. Shuningdek, seminarlar, davra suhbatlari, ilmiy konferensiyalar hamda tarixiy obidalarga ekskursiyalar tashkil etish bu bilimlarni yanada mustahkamlashga yordam beradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Temuriylar davri nafaqat siyosiy va iqtisodiy taraqqiyot, balki ilm-fan, madaniyat va ma’naviyat yuksalgan davr sifatida ham tarixda muhim o‘rin egallaydi. Bu jarayonda Temuriy malikalar - Saroymulkxonim, Gavharshodbegim, Gulbadanbegim va boshqa ayol siymolar katta rol o‘ynagan. Ularning ilm-fan, madaniyat, bunyodkorlik hamda xayriya ishlari orqali jamiyat ma’naviy hayotiga qo‘shgan hissasi tarixiy, ilmiy va adabiy manbalarda keng yoritilgan. Ushbu merosni talaba-qizlarga o‘rgatish orqali ularda milliy qadriyatlarga hurmat, tarixiy xotira va ayollarning jamiyatdagi o‘rni haqidagi tasavvurlar yanada boyiydi. Temuriy malikalar faoliyatini o‘rganish talaba-qizlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini mustahkamlashga, ularni ilmga intilish va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shishga undaydi.Shulardan keli chiqib, quyidagi mulohazalarni tavsiya qilish mumkin:

- Oliy ta’lim muassasalarida Temuriy malikalar merosiga bag‘ishlangan mavzularni tarix, adabiyot va madaniyat fanlari doirasida kengroq yoritish maqsadga muvofiq.
- Talaba-qizlar uchun tarixiy manbalar va ilmiy-adabiy asarlar asosida maxsus seminar va davra suhbatlari tashkil etish tavsiya etiladi.
- Temuriy malikalar faoliyati haqida ilmiy maqolalar, referatlar va tadqiqot ishlarini tayyorlashga talaba-yoshlarni jalb qilish zarur.
- Muzeylar, tarixiy obidalar va madaniy maskanlarga ilmiy-ma’rifiy ekskursiyalar tashkil etish orqali tarixiy merosni amaliy ravishda o‘rganish samarali bo‘ladi.

– Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlardan foydalanib, Temuriy malikalar merosini o‘qitish jarayonini yanada qiziqarli va samarali tashkil etish lozim.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2022. - 440 b.
2. Fayziyev T. Temuriy malikalar. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994. – 40 b.
3. Ahmedov I. Dunyo malikalari. –Toshkent: Zarqalam nashriyoti, 2005. –140 b.
4. Gulbadan begim. Humoyunnoma. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2016. – 60 b.
5. Davletshin M., Shoumarov G‘. Zamonaviy o‘zbek oilasining psixologik xususiyatlari. – Toshkent, 1993. – 32 b.
6. Fayziyev T. Temuriylar shajarasi. – Toshkent: Info kapital books nashriyoti, 2020. – 368 b.
7. Ibn Arabshoh. Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur. – Toshkent.: Mehnat nashriyoti, 1992. – 192 b.
8. Aleuva R. Amir Temurning mafkuraviy-tarbiyaviy qarashlari: ped. fan…(PhD) diss. – Toshkent, TDPU, 2006. – 134 b.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 4 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 March 2026
Accepted: 01 April 2026
Published: 15 April 2026

Article / Original Paper

SUMMATIVE ASSESSMENT AS A CONTEXT FOR DEVELOPING STUDENTS' CRITICAL THINKING COMPETENCE: THE PROBLEM DIMENSION

Tursunaliyev Shaxzod Sherali o'g'li
Independent Researcher
Termez State Pedagogical Institute
Termez, Uzbekistan
E-mail: shaxzodtursunaliyev@terdpi.uz
http://www.orcid.org/0009-0003-0644-4518

Abstract. The article examines why the development of critical thinking becomes difficult under summative assessment conditions. Through theoretical analysis, the paper identifies contradictions between control, measurement, reasoning, and feedback, and formulates pedagogical conditions under which summative assessment can support, rather than suppress, higher-order thinking.

Keywords: summative assessment, critical thinking, competence, pedagogy, school education, assessment criteria, feedback, higher-order thinking.

YIG'MA BAHOLASH O'QUVCHILARNING TANQIDIY FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH KONTEKSTI SIFATIDA: MUAMMOLI O'LCHOV

Tursunaliyev Shaxzod Sherali o'g'li
Mustaqil tadqiqotchi
Termiz davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Maqolada tanqidiy fikrlashni rivojlantirish nima uchun umumlashtiruvchi baholash sharoitida qiyinlashishi ko'rib chiqiladi. Nazariy tahlil orqali maqola nazorat, o'lchov, mulohaza yuritish va fikr-mulohaza o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni aniqlaydi va umumlashtiruvchi baholash yuqori darajadagi fikrlashni bostirish o'rniga qo'llab-quvvatlashi mumkin bo'lgan pedagogik shartlarni shakllantiradi.

Kalit so'zlar: summativ baholash, tanqidiy fikrlash, kompetensiya, pedagogika, maktab ta'limi, baholash mezonlari, fikr-mulohaza, yuqori darajadagi fikrlash.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N48

Introduction. In contemporary school education, critical thinking is recognized not as an optional intellectual advantage but as a core educational outcome. A learner who can compare positions, distinguish fact from opinion, evaluate evidence, identify contradictions, construct arguments, and make reasoned judgments is better prepared for academic study, social participation, and lifelong learning. For that reason, the issue of critical thinking has moved from the margins of pedagogy to the center of curriculum reform. At the same time, schools remain strongly dependent on assessment systems that classify performance, record progress, and certify mastery. When these two vectors meet, a serious methodological question emerges: can the logic of summative assessment create real conditions for the development of critical thinking, or does it mainly reward reproduction and short-term performance?

Summative assessment has a stable institutional role. It is usually organized at the end of a topic, a unit, a semester, or another completed stage of instruction. Its main function is to summarize achievement and to provide an official judgment about the level of mastery reached by the learner. In practice, however, this function often shapes the entire educational process long before the final task is administered. Teachers adjust instruction to the anticipated assessment format, students adapt their strategies to what will be checked, and school success becomes linked to the ability to produce measurable results within limited time. Under such conditions, thinking may be valued only when it can be quickly translated into observable and easily scoreable answers. This tendency creates tension with the nature of critical thinking, which develops through inquiry, uncertainty, comparison, interpretation, and the justification of conclusions [1, p. 7].

The pedagogical problem therefore is not simply that critical thinking is difficult to assess. The deeper problem is that summative assessment can change the very culture of learning. If the dominant message of the classroom is that value lies in the single correct answer, students may gradually avoid ambiguity, risk, and reflective reasoning. If, on the contrary, the assessment system is constructed around evidence-based judgment and clear criteria for argument quality, summative assessment may become a powerful stimulus for intellectual growth. The purpose of this article is to analyze the development of students' critical thinking competence under conditions of summative assessment as a pedagogical problem, to identify the main contradictions that produce this problem, and to determine the methodological conditions under which it can be addressed productively.

Literature Review and Methodology. The literature on critical thinking is broad, yet several stable ideas can be identified. Researchers describe critical thinking as a complex competence that includes interpretation, analysis, inference, explanation, self-regulation, and reasoned evaluation. In other words, critical thinking is not identical to the possession of information. It is a way of working with information and with one's own judgments. Facione's influential consensus statement presented critical thinking as a purposeful, self-regulatory form of judgment grounded in interpretation and evaluation [4]. Later educational research expanded this view by emphasizing transfer, reflection, problem solving, and the ability to justify claims in authentic contexts [2]. These positions are important because they show that critical thinking includes both cognitive operations and dispositional readiness: students must know how to reason and must also be willing to question, weigh alternatives, and revise earlier assumptions.

Assessment theory, however, raises another dimension of the problem. Summative assessment is expected to provide comparability, transparency, and efficiency. It often relies on standardized criteria, limited time, and tasks that can be scored with acceptable reliability. This design works relatively well when the target outcome is factual recall, procedural accuracy, or recognition of an already established answer. It becomes more problematic when the target outcome is argument quality, depth of interpretation, selection of evidence, or the transfer of knowledge to unfamiliar situations. Brookhart argues that higher-order thinking should be assessed through tasks that require students to use knowledge rather than merely repeat it, yet such tasks are inevitably more demanding in design and scoring [2]. The methodological challenge is therefore structural rather than accidental: the qualities that make summative

assessment administratively convenient are not always the qualities that make critical thinking pedagogically visible.

The contemporary policy literature also points to this contradiction. International educational discussions increasingly treat critical thinking as a key competence for the twenty-first century because students must navigate complex information environments, misinformation, social disagreement, and rapidly changing knowledge. OECD materials describe critical thinking as one of the essential capacities needed for responsible participation in modern life [6]. Yet the same systems often remain attached to narrow accountability mechanisms in which assessment results are used for comparison, ranking, and external reporting. When assessment becomes strongly test-driven, it can narrow both teaching and learning. Harlen and Deakin Crick demonstrated that a dominant orientation toward summative testing may weaken students' intrinsic motivation, limit opportunities for exploratory learning, and encourage performance strategies based on grade optimization rather than understanding [5].

The methodological basis of this article is theoretical and analytical. The article draws on comparative analysis of major pedagogical and assessment studies, conceptual interpretation of the category of critical thinking competence, and problem-based examination of classroom assessment logic. The aim is not to measure a local sample empirically but to reveal the pedagogical mechanisms through which summative assessment either constrains or supports critical thinking development. Such a theoretical approach is justified because the problem begins at the level of educational design. Before instruments are applied in practice, the conceptual relationship between competence, task format, criteria, feedback, and institutional control must be clarified. The analysis therefore focuses on how assessment goals, learning activities, and scoring practices interact in school settings.

Discussion. The first contradiction lies between the developmental nature of critical thinking and the control-oriented nature of summative assessment. Critical thinking grows through repeated practice: students compare viewpoints, formulate hypotheses, test interpretations, encounter counterarguments, and gradually learn to justify decisions. Summative assessment, by contrast, enters the process at the endpoint and fixes the result in the form of a grade, level, or judgment. When the endpoint logic dominates the whole learning cycle, development is compressed into performance. Students begin to ask not what makes an argument convincing, but what answer the examiner expects. In this sense, the problem is not only in the final task itself. The problem is that the final task can reorganize classroom priorities long before it appears. Teaching becomes oriented toward measurable outputs, and thinking becomes subordinate to score production [1, p. 16].

The second contradiction concerns visibility. Critical thinking is multidimensional, yet simplified marking schemes often register only the final product. A student may arrive at a correct answer through memorization, guessing, or superficial pattern recognition, while another student may demonstrate complex reasoning but produce an incomplete final response. If assessment focuses exclusively on outcome accuracy, the thinking process remains pedagogically invisible. Such invisibility is dangerous because students quickly learn what is rewarded. If they are rewarded only for short and final correctness, they may conclude that explanation, evidence selection, doubt, and revision are unnecessary. For critical thinking to develop, students must see that the quality of reasoning itself has educational value. This

requires rubrics and tasks that make argument structure, use of evidence, coherence, and interpretive depth assessable components rather than background features [2].

A third contradiction is linked to time and standardization. Genuine critical thinking requires mental space. Students need time to read attentively, identify assumptions, compare alternatives, and reconsider earlier conclusions. Standard summative procedures often minimize this space because schools seek uniform administration and rapid scoring. Under severe time pressure, learners select the safest and fastest route. They prefer closure over exploration and brevity over justification. Even when a test formally includes analytical items, the surrounding conditions may push students toward defensive strategies rather than thoughtful engagement. This is one reason why the mere addition of open questions does not automatically produce critical thinking. The entire assessment situation must allow reasoning to unfold in a meaningful way.

The fourth contradiction concerns feedback. In many classrooms, summative assessment ends with a mark. Once the grade is recorded, the pedagogical value of the task is exhausted. Yet critical thinking cannot mature if students never analyze the strengths and weaknesses of their reasoning. A grade alone does not explain whether the student misunderstood the evidence, built a weak comparison, ignored a counterargument, or failed to justify a conclusion. Black and Wiliam showed that assessment becomes educationally powerful when it informs subsequent learning and reveals the gap between current and desired performance [1, p. 9]. Therefore, even summative evidence must be reintroduced into the learning cycle through post-assessment reflection, error analysis, and criterion-based discussion.

A fifth contradiction involves teacher readiness. Critical thinking does not develop through declarative appeals alone. Teachers need methodological competence in designing intellectually rich tasks, selecting authentic materials, using balanced rubrics, and distinguishing between subject knowledge and reasoning quality. Without such readiness, even well-intentioned assessment reform remains formal. A rubric may be present, but it may measure linguistic fluency instead of argument strength, or product neatness instead of interpretive depth. This is why the problem under discussion should be defined as methodological and not merely organizational. The issue is embedded in teacher preparation, classroom culture, curriculum goals, and the philosophy of assessment itself [7].

Results. The theoretical analysis allows the main problem dimensions to be systematized. These dimensions show that the difficulty of developing critical thinking under summative assessment is produced by several interconnected factors rather than by one isolated flaw.

Table 1.

Main problem dimensions in developing critical thinking under summative assessment conditions

Problem dimension	Typical manifestation in school practice	Effect on critical thinking development	Required methodological response
Goal–assessment mismatch	End-point tasks emphasize recall, recognition, or mechanical reproduction	Students learn to search for predetermined answers instead of justified judgments	Include analytical, comparative, interpretive, and argument-based tasks in final assessment
Invisible reasoning	Scoring focuses on the final answer and not on the quality of evidence or explanation	Reasoning processes lose value in the eyes of learners	Use rubrics that assess logic, evidence, justification, and transfer
Time-pressure standardization	Uniform formats and tight time limits dominate assessment events	Students avoid complexity, hesitation, and intellectual risk	Combine standard items with open performance components and adequate working time
Closed feedback cycle	Assessment ends with a grade, rank, or formal score	Results do not contribute to further development of thinking	Transform summative evidence into reflection, correction, and planning
Insufficient teacher readiness	Tasks imitate critical thinking but actually test memory or language display	Higher-order competence is declared but not genuinely cultivated	Develop teachers' assessment literacy and task-design competence

Systematization of these dimensions makes it possible to draw an important conclusion: the obstacle is not summative assessment as such, but the narrow way in which it is usually interpreted and implemented. When assessment is reduced to control, comparability, and score extraction, critical thinking is marginalized. When assessment is reimagined as evidence-based judgment about the quality of reasoning, it can serve both accountability and development. This shift requires more than cosmetic reform. It demands alignment between learning objectives, instructional tasks, summative instruments, and interpretive criteria.

The analysis also suggests several pedagogical conditions for productive practice. First, critical thinking must be articulated in operational terms within subject-specific learning outcomes. Teachers and students need to know what counts as analysis, justification, comparison, inference, and evaluation in a concrete discipline. Second, summative tasks should be cognitively authentic. They should ask learners to interpret data, compare positions, solve non-routine problems, defend conclusions, or evaluate evidence rather than merely reproduce a learned formulation. Third, the assessment criteria should be shared in advance and formulated in language that describes qualities of reasoning. Fourth, the results of summative assessment should be discussed after administration so that students can see how stronger

reasoning differs from weaker reasoning. Fifth, teachers need sustained methodological support, including exemplars, moderation practices, and collaborative review of student work.

From a broader pedagogical perspective, the problem under discussion is part of a larger transition in education from knowledge transmission to competence formation. In a transmission model, summative assessment naturally gravitates toward checking retention. In a competence model, however, assessment must reveal how knowledge is mobilized for judgment and action. Critical thinking occupies a central place in this transition because it connects knowledge, reflection, and responsible decision making. Therefore, the development of critical thinking under summative assessment conditions should be interpreted as a test of whether educational systems are genuinely prepared to assess what they claim to value. If schools formally declare higher-order thinking as an outcome but continue to reward mainly reproductive responses, the contradiction becomes systemic rather than local.

Conclusion. The development of students' critical thinking competence under conditions of summative assessment is a genuine pedagogical problem because it reveals a mismatch between the complexity of the targeted competence and the logic of traditional end-point control. Critical thinking requires inquiry, evidence, reflection, justification, and revision. Summative assessment, when narrowly organized, tends to favor speed, certainty, comparability, and measurable closure. The resulting tension influences not only final tasks but also everyday classroom priorities, student motivation, and teacher decision making.

The analysis makes it possible to formulate several final propositions. Critical thinking cannot be reduced to isolated correct answers. It must be assessed through tasks and criteria that make reasoning visible. Summative assessment should not remain detached from development; its results must return to the learning process through reflection and criterion-based feedback. Teacher assessment literacy is a decisive condition for change because poorly designed tasks can imitate higher-order thinking without actually cultivating it. Finally, educational reform in this area must move beyond the opposition between assessment and competence. The central question is methodological: under what conditions can summative assessment preserve its certifying role while also supporting the formation of thoughtful, evidence-oriented, critically minded learners? Precisely this question defines the scientific and practical relevance of the problem.

References/Adabiyotlar/Литература:

1. Black P., Wiliam D. Assessment and classroom learning // Assessment in Education: Principles, Policy & Practice. 1998. Vol. 5. No. 1. P. 7–74.
2. Brookhart S. M. How to Assess Higher-Order Thinking Skills in Your Classroom. Alexandria: ASCD, 2010. 173 p.
3. De Florio I. From Assessment to Feedback: Applications in the O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. “5–9-sinf o‘quvchilarining bilimlari sifatini nazorat qilishning reyting tizimi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarorga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida. 2117-2-son. 2025-yil 5-fevral.
4. Умаров, Азиз (2025) РОЛЬ ДИАЛОГИЧЕСКОЙ РЕЧИ В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ: МЕТОДИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 5 (1). pp. 408-412. ISSN 2181-1342
5. Q.J. Nuriddinov TALABALARDA AKADEMIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION SHAKL VA USLUBLARI // Inter education & global study. 2025. №3. URL:

https://cyberleninka.ru/article/n/talabalarda-akademik-madaniyatni-shakllantirishning-innovatsion-shakl-va-uslublari (дата обращения: 17.03.2026).
6. Nuriddinov K. J. PSYCHO-PEDAGOGICAL DETERMINANTS IN THE FORMATION OF ACADEMIC CULTURE AMONG STUDENTS IN PEDAGOGICAL UNIVERSITIES //Educational Research in Universal Sciences. – 2025. – Т. 4. – №. 5. – С. 96-100.
7. Black P., Wiliam D. Assessment and Classroom Learning. Assessment in Education. 1998. Vol. 5. No. 1. P. 7–74.
8. Умаров А. А. ОЦЕНКА УРОВНЯ ВЛАДЕНИЯ РУССКИМ ЯЗЫКОМ В УЗБЕКСКИХ ШКОЛАХ //INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2023. – Т. 2. – №. 14. – С. 130-134.
9. Butler H. A. Predicting Everyday Critical Thinking: A Review of Critical Thinking Assessments. 2024.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 4 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 March 2026
Accepted: 01 April 2026
Published: 15 April 2026

Article / Original Paper

HISTORICAL FORMATION AND SOCIAL FOUNDATIONS OF EDUCATION AND UPBRINGING OF CHILDREN WITH AUTISM SPECTRUM DISORDERS

Abdullayeva Surayyo Ashrafkhanovna
independent researcher (PhD),
National Pedagogical University of Uzbekistan

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the historical development of education and upbringing of children with autism spectrum disorders, as well as their social foundations. It explores the evolution of scientific understanding of autism, from early descriptions of the condition to contemporary interdisciplinary research. The study also examines changes in societal attitudes toward children with autism, including the transformation of stereotypes and social approaches to their support and inclusion. The paper discusses the main stages in the development of special education systems, the formation of defectology and special pedagogy, and the implementation of inclusive education as a significant social institution. Furthermore, it highlights modern pedagogical and psychological methods used in teaching children with autism, as well as issues related to their social adaptation and integration into society. The findings emphasize the importance of a comprehensive, systematic, and socially oriented approach in organizing education for children with autism spectrum disorders.

Keywords: autism spectrum disorders, autism, special education, defectology, inclusive education, social adaptation, developmental disorders, educational system, pedagogical approaches, historical development.

AUTISTIK SPEKTR BUZILISHLARIGA EGA BOLALAR TA'LIMI VA TARBIYASINING TARIXIY SHAKLLANISHI HAMDA IJTIMOIY ASOSLARI

Abdullayeva Surayyo Ashrafxanovna
O'zbekiston milliy pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada autistik spektr buzilishlariga ega bolalar ta'limi va tarbiyasining tarixiy shakllanish jarayoni hamda uning ijtimoiy asoslari kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotda autizm tushunchasining ilmiy muomalaga kirib kelishi, uning dastlabki talqinlari hamda XX–XXI asrlarda olib borilgan ilmiy izlanishlar asosida shakllangan zamonaviy qarashlar yoritiladi. Maqolada maxsus ta'lim tizimining rivojlanish bosqichlari, defektologiya va maxsus pedagogikaning shakllanishi, shuningdek inklyuziv ta'lim modelining joriy etilishi va uning ahamiyati tahlil etiladi. Bundan tashqari, autistik bolalarning ijtimoiylashuvi, ta'lim jarayonida qo'llaniladigan zamonaviy pedagogik va psixologik metodlar, ularning samaradorligi ham muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari autistik spektr buzilishlariga ega bolalar bilan ishlashda kompleks, tizimli va ijtimoiy yo'naltirilgan yondashuvning zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: autistik spektr buzilishlari, autizm, maxsus pedagogika, inklyuziv ta'lim, ijtimoiy moslashuv, defektologiya, rivojlanish buzilishlari, ta'lim tizimi, pedagogik yondashuvlar, tarixiy rivojlanish.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N49

Kirish. Hozirgi kunda autistik spektr buzilishlariga ega bolalar ta'limi va tarbiyasi global miqyosda dolzarb muammolardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. So'nggi yillarda autizm tashxisi qo'yilgan bolalar sonining ortib borayotgani, ushbu toifadagi bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirish, ularning sifatli ta'lim olishini ta'minlash va jamiyatda munosib o'rin egallashiga ko'maklashish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Shu bois mazkur masala nafaqat pedagogika

va psixologiya, balki ijtimoiy siyosat darajasida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Autistik spektr buzilishlari murakkab nevropsixologik holat bo‘lib, u bolalarning ijtimoiy muloqoti, nutq rivoji hamda xulq-atvorida o‘ziga xos o‘zgarishlar bilan namoyon bo‘ladi. Tarixiy jihatdan qaralganda, autizm uzoq vaqt davomida yetarlicha o‘rganilmagan, noto‘g‘ri talqin qilingan yoki umuman e’tibordan chetda qolgan. Faqat XX asrning o‘rtalaridan boshlab ushbu sohada ilmiy izlanishlar kuchayib, autizm alohida rivojlanish buzilishi sifatida tan olina boshlandi. Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, autistik spektr buzilishlariga ega bolalar bilan ishlash jarayoni tarixiy rivojlanish bosqichlarini, jamiyatning ularga bo‘lgan munosabatini hamda ta’lim tizimidagi o‘zgarishlarni chuqur tahlil qilishni talab etadi. Ayniqsa, inklyuziv ta’lim tizimining joriy etilishi, maxsus pedagogika yondashuvlarining takomillashuvi va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining rivojlanishi ushbu sohani yangi bosqichga olib chiqdi. Shu bilan birga, autistik bolalarning ijtimoiylashuvi, ularning jamiyatga moslashuvi va mustaqil hayot kechirish imkoniyatlarini kengaytirish masalalari ham alohida e’tiborni talab qiladi. Bu jarayonda oila, ta’lim muassasalari va jamiyatning o‘zaro hamkorligi muhim omil hisoblanadi. Ushbu maqolaning maqsadi autistik spektr buzilishlariga ega bolalar ta’limi va tarbiyasining tarixiy shakllanishi hamda ijtimoiy asoslarini tahlil qilish, shuningdek zamonaviy ta’lim yondashuvlarining samaradorligini yoritishdan iborat.

“Autizmning alohida klinik holat sifatida tavsiflanishi bilan birga, unga bo‘lgan pedagogik munosabat ham asta-sekin shakllana boshladi. Ilk bosqichlarda bu ko‘proq tibbiy-psixiatrik muolaja shaklida bo‘lib, pedagogik aralashuvga juda oz e’tibor qaratildi”[1; 176-b]. Bolalar asosan izolyatsiyalangan muassasalarda, tengdoshlaridan va jamiyatdan ajratilgan holda parvarish qilindi. Bunday yondashuvning asosida bolaning muloqotga kirishmasligi va o‘quv topshiriqlariga munosabat bildirmasligi ularni «o‘qitib bo‘lmaydigan» toifaga kiritish tarzidagi noto‘g‘ri xulosa yotardi.

“Ammo keyinroq ma’lum bo‘ldiki, bu bolalar o‘qita olmaydigan emas, balki ularga mos metodlar ishlab chiqilmagan edi. Vaziyat 1960-70-yillardan boshlab o‘zgara boshladi”[2; 256-b.]. Aynan shu davrda autistik bolalar bilan ishlovchi pedagoglar va psixologlar ularning o‘rganishga qodir ekanligini, biroq buning uchun maxsus pedagogik muhit, tuzilgan faoliyat va individual yondashuv zarurligini kuzata boshladilar. Bu e’tiqod hali keng tan olinmagan bir paytda bir qator tadqiqotchilar empirik kuzatishlar asosida autistik rivojlanishga xos bo‘lgan o‘rganish mexanizmlarini aniqlay boshladilar. Vizual idrokning kuchliligi, tartib va ketma-ketlikka qiziqish, muayyan mavzularga chuqur qiziqish kabi xususiyatlar endi «muammo» sifatida emas, balki pedagogik qurilishda tayanch bo‘la oladigan resurslar sifatida ko‘rina boshladi. Shu davrda AQShda autistik bolalar bilan ishlashning ilk tizimli pedagogik modeli sifatida TEACCH dasturi (Treatment and Education of Autistic and Related Communication-handicapped Children) yaratildi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ushbu dasturning asoschilari autistik bolalarning o‘rganish uslubi boshqalarnikidan sifat jihatidan farq qilishini va bu farqni nuqson sifatida emas, balki o‘ziga xos xususiyat sifatida qabul qilish zarurligini asosladilar. TEACCH yondashuvida muhitni bolaning ehtiyojiga moslashtirishga asosiy e’tibor qaratildi: fizik makonni tuzilgan holda tashkil etish, vizual jadvallar va ko‘rsatmalardan foydalanish, kun tartibini oldindan aniqlashtirish, vazifalarni qismlarga bo‘lib taqdim etish kabi tamoyillar joriy etildi. Bu tamoyillar hozir ham zamonaviy korreksion pedagogikaning asosini tashkil etadi. Shu bilan bir qatorda, xulq-atvor tahlili asosidagi yondashuvlar ham rivojlana boshladi. Ushbu

yo‘nalishda bolaning xatti-harakati funksional tahlil qilinib, u orqali bolaning nima aytmoqchi yoki nima qilmoqchi ekanligini anglashga urinildi. Musbat mustahkamlash, ko‘nikmani kichik bosqichlarga bo‘lib o‘rgatish, tabiiy muhitda mashq qilish va oilaviy hayotga integratsiya qilish tamoyillari shu davrda shakllanib, keyinchalik dunyo miqyosida eng keng qo‘llaniladigan korreksion metodologiyalar qatoriga kirdi. Bolalarning tajribalari va ota-onalarning kuzatuvlari asosida to‘plangan empirik ma’lumotlar ushbu yondashuvlarning ilmiy asosini tobora kuchaytirdi.

“1980-yillar va 1990-yillarda autistik spektr buzilishlari bo‘lgan bolalar bilan korreksion-pedagogik ishning ijtimoiy sharoitlari sifat jihatidan yangilandi”[3; 198-b.].

Muhokama. Bu o‘zgarishda uchta asosiy omil hal qiluvchi rol o‘ynadi. Birinchisi — diagnostika standartlarining takomillashishi bo‘lib, bu autistik spektr buzilishlari bo‘lgan bolalarning maktab tizimida tanilishi va ularga xizmat ko‘rsatilishi imkonini berdi.

Ikkinchisi — ota-onalar tashkilotlari va advokatsiya harakatlarining kuchayishi bo‘lib, bu davlat siyosati darajasida o‘zgarishlar olib keldi. Uchinchisi esa maxsus ta’lim sohasidagi qonunchilik bazasining kengayishi bo‘lib, autistik bolalarga maktab tizimida yordam ko‘rsatish majburiyatini huquqiy jihatdan belgilab berdi.

Ushbu ijtimoiy va huquqiy o‘zgarishlar natijasida autistik spektr buzilishlari bo‘lgan bolalar uchun maktab tizimida maxsus dasturlar, individual ta’lim rejalari, ko‘p tarmoqli mutaxassislar jamoasi va oilaviy hamkorlik mexanizmlari joriy etila boshlandi. Bu esa korreksion-pedagogik ishning nafaqat mazmunini, balki uni tashkil etish shakl va usullarini ham tubdan o‘zgartirdi. Endilikda bola faqat muassasaga joylashtirilmay, balki uning individual rivojlanish profili asosida shaxsiy ta’lim marshrutini shakllantirishga intilindi. Ushbu yondashuv nafaqat samarali, balki insonparvarlik jihatidan ham yanada to‘g‘ri ekanligini amaliyot tasdiqladi.

“2000-yillardan boshlab butun dunyoda inklyuziv ta’lim g‘oyasining kuchayishi korreksion-pedagogik ishning yangi ijtimoiy sharoitini vujudga keltirdi” [4; b-784]. Inklyuziya tamoyiliga ko‘ra, barcha bolalar, shu jumladan autistik spektr buzilishlariga ega bolalar ham, tengdoshlari bilan bir ta’lim muhitida bo‘lishlari, shu bilan birga ularga zarur bo‘lgan individual qo‘llab-quvvatlash xizmatlarini olishlari kerak. Bu yondashuv nafaqat ta’lim samaradorligini oshirish maqsadida, balki bolaning ijtimoiy integratsiyasi, identifikatsiyasi va tenglik huquqini ta’minlash nuqtai nazaridan ham muhim hisoblanadi. Biroq inklyuziyaning samarali bo‘lishi uchun faqat jismoniy yaqinlik emas, balki metodik, kadrlar va tashkiliy tayyorgarlik ham zarur ekanligi vaqt o‘tishi bilan tobora yaqqolroq namoyon bo‘ldi.

“Yevropa mamlakatlarida, ayniqsa Skandinaviya davlatlarida, autistik spektr buzilishlariga ega bolalarga ko‘rsatiladigan yordam tizimi yuqori darajada rivojlangan” [5; 1500-b.]. Bu davlatlarda erta skrining va tashxis, erta aralashuv xizmatlari, maktab davrida intensiv individual qo‘llab-quvvatlash va kattalik davriga o‘tish jarayonida ijtimoiy ta’minot kabi bosqichlar yagona zanjir sifatida bir-birini davom ettiradi. Bunday yondashuv davlat siyosati, ilmiy maktablar va jamiyatning bahamjihat ishtiroki natijasida shakllangan bo‘lib, uni bir zumda boshqa mamlakatlarga ko‘chirib bo‘lmaydi. Biroq unda mujassam bo‘lgan tamoyillar — ertangi xizmat, oila markazi, fanlararo hamkorlik va ijtimoiy integratsiya - universal ahamiyatga ega. “Osiyo mamlakatlarida, xususan Yaponiya, Janubiy Koreya va Xitoyda ham autistik spektr buzilishlariga ega bolalar bilan korreksion-pedagogik ishning rivojlanishi kuzatilmoqda. Bu mamlakatlarda ham ilmiy tadqiqotlar, maxsus ta’lim xizmatlari va oilaviy

qo‘llab-quvvatlash tizimlari jadal rivojlanmoqda” [6; 384-b.]. Biroq bu jarayonning o‘ziga xos tomoni shundaki, mazkur mamlakatlarda uning kechishi mahalliy madaniy va ijtimoiy normalar, oilaviy qadriyatlar hamda ta’lim tizimining tuzilishi bilan bog‘liq holda farq qiladi. Bu esa korreksion-pedagogik ishning universalligi bilan birga mahalliy moslashuvning ham muhimligini ko‘rsatadi. Markaziy Osiyo va postsovet makonida autistik spektr buzilishlariga ega bolalar bilan ishlashning tarixi o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Natijalar. Sovet davrida maxsus ta’lim tizimi ko‘proq defektologiya fani doirasida rivojlangan bo‘lib, u nutq buzilishlari, eshitish yoki ko‘rishning zaifligi, aqliy rivojlanishdagi kechikish kabi holatlarni qamrab olardi. Autistik xususiyatlar esa ko‘pincha ushbu toifalar ichida, ayniqsa «aqliy rivojlanishdagi kechikish» yoki «shizofreniya» tashxislari ostida yashiringan holda qolgan. Bu esa bu toifadagi bolalar uchun maxsus metodikalar ishlab chiqilishini sekinlashtirdi. Sovet davrida defektologiya maktabining ijobiy tomoni shundaki, u tuzatish va kompensatsiyaga asoslangan yondashuv, jamoaviy ish uslubi va oilaviy hamkorlikka oid ba’zi an’analarni shakllantirgan edi. Biroq bu tizim asosan segregatsiya modeli, ya’ni bolalarni umumiy ta’limdan ajratib, ixtisoslashtirilgan muassasalarda o‘qitish tamoyiliga tayanar edi. Autistik spektr buzilishlariga ega bolalar esa bunday muassasalarda ham ko‘pincha o‘z ehtiyojlariga mos bo‘lmagan muhitda ta’lim olar edi, chunki ushbu muassasalar odatda boshqa toifadagi bolalarga mo‘ljallangan edi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin ta’lim va ijtimoiy himoya sohasida muhim islohotlar amalga oshirildi. Bolalar huquqlari bo‘yicha xalqaro konvensiyalarga qo‘shilish, inklyuziv ta’lim tamoyillarini bosqichma-bosqich joriy etish, maxsus ta’lim muassasalarini modernizatsiya qilish va yangi xizmat shakllarini yo‘lga qo‘yish shu islohotlarning asosiy yo‘nalishlari bo‘ldi. Shu jarayonlarda autistik spektr buzilishlariga ega bolalarga nisbatan ham alohida ilmiy va amaliy e’tibor qarata boshlandi. Maxsus ta’lim, logopediya va korreksion psixologiya yo‘nalishlari bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash tizimi ham asta-sekin yangilana bordi.

Respublikamizda autistik spektr buzilishlariga ega bolalar bilan ishlashning ijtimoiy sharoitlarini tavsiflaydigan bir necha muhim omil mavjud. Birinchidan, erta tashxis qo‘yish tizimining rivojlanishi hududlar bo‘yicha notekis kechmoqda.

Shaharlarda bolalar psixiatriyasi, neyropsixologiya va logopediya xizmatlari nisbatan yaxshi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, ayrim hududlarda mutaxassislar va diagnostik vositalar yetarli emas. Ikkinchidan, ijtimoiy ongda autistik spektr buzilishlariga bo‘lgan munosabat ham hali yetarli darajada shakllanmagan.

Ko‘pgina oilalar bolaning o‘ziga xos rivojlanish xususiyatlarini dastlab tushunmay, mutaxassisga kechroq murojaat qilishi mumkin. Bu esa erta aralashuvning samarasi yo‘qolishiga olib keladi.

Respublikamizda maxsus ta’lim tizimida inklyuziv yondashuvga o‘tish jarayoni hukumat tomonidan qo‘llab-quvvatlanmoqda. Umumta’lim maktablarida resurs sinflari va moslashtirilgan dasturlar yaratish, maktabgacha ta’lim tashkilotlarini inklyuziv muhitga tayyorlash, pedagog va logopedlarning malakasini oshirish bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Biroq bu jarayon hali to‘liq shakllanib ulgurgani yo‘q.

Xususan, autistik spektr buzilishlariga ega bolalar bilan ishlovchi mutaxassislar uchun maxsus tayyorgarlik kurslari, zamonaviy ilmiy asoslangan metodikalar va amaliy ko‘nikmalarni

rivojlantirishga mo‘ljallangan tizimli dasturlar kamchilik qiladi. Bu esa amaliyotda professional yondashuvlarning sifatini pasaytiruvchi omil bo‘lib qolmoqda.

Oilalarning roli Respublikamiz sharoitida ayniqsa muhim. Mahalliy mentalitet va an’analarga ko‘ra, bola tarbiyasi va rivojlanishi asosan oila mas’uliyati sifatida qabul qilinadi. Bu bir tomondan bolaga ota-onasining chuqur e’tibor qaratishini ta’minlasa, ikkinchi tomondan muammo haqidagi ma’lumot va yordam manbalari yetarli bo‘lmagan hollarda oilani yakkalanishga olib kelishi mumkin. Shu sababli autistik spektr buzilishlariga ega bolalar bilan korreksion-pedagogik ishning samaradorligi ko‘p jihatdan oilaga ko‘rsatiladigan metodik, psixologik va ijtimoiy yordamning darajasiga ham bog‘liq.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, xorij mamlakatlaridagi tajriba va Respublikamiz amaliyoti o‘rtasida bir qator farqlar mavjud. Xorijda korreksion -pedagogik ish tizimi uzoq yillar mobaynida shakllanib, mustahkam metodik, huquqiy va institutsional asosga ega bo‘lgan bo‘lsa, Respublikamizda ushbu tizim shakllanish bosqichida bo‘lib, jadal rivojlanish yo‘lida davom etmoqda. Biroq aynan shu bosqich yangi g‘oyalar va yondashuvlar uchun eng ijodiy zamin ham bo‘lishi mumkin. Chunki xorijiy tajribani o‘rganish va uni milliy sharoitga moslashtirib joriy etish imkoniyati mavjud bo‘lganda, ilgari bu yo‘lni bosib o‘tganlarga xos xatolarni takrorlashdan qochish mumkin.

Respublikamizda autistik spektr buzilishlariga ega bolalar bilan korreksion-pedagogik ishni rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlari qatorida quyidagilar alohida ahamiyatga ega.

Birinchidan, erta tashxis va erta aralashuv xizmatlarini kengaytirish va ularning sifatini oshirish zarur.

Ikkinchidan, mutaxassislar tayyorlash tizimini zamonaviy ilmiy yondashuvlar bilan boyitish lozim.

Uchinchidan, oilaviy hamkorlikni kuchaytirishga, ota-onalar uchun metodik va psixologik yordam dasturlarini ishlab chiqishga e’tibor qaratish kerak.

To‘rtinchidan, korreksion-pedagogik ish amaliyotini ilmiy tadqiqotlar bilan doimiy bog‘liq holda olib borish, mahalliy sharoitga mos metodikalar ishlab chiqish va ularning samaradorligini o‘lchash muhim. Beshinchidan, jamiyatda autistik spektr buzilishlariga ega bolalarga nisbatan tushunish va qabul qilish muhitini kengaytirish uchun ma’rifiy ishlarni faollashtirish zarur.

Umuman olganda, xorij mamlakatlari va Respublikamizda autistik spektr buzilishlariga ega bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik ishning tarixiy va ijtimoiy sharoitlari tahlili bir qator muhim xulosalarga olib keladi.

Birinchisi: ushbu sohaning rivojlanishi chiziqli emas, u ilmiy bilimlarning to‘planishi, ijtimoiy munosabatning o‘zgarishi, huquqiy muhitning shakllanishi va amaliy tajribaning boyishi bilan birgalikda kechadi.

Ikkinchisi: har qanday mamlakatda korreksion-pedagogik ishning samaradorligi nafaqat metodlar sifatiga, balki ularni amalga oshiruvchi ijtimoiy tizimning yaxlitligiga ham bog‘liq.

Uchinchisi: xorijiy tajriba universal tamoyillar va moslashuvchan yondashuvlarni taqdim etsa-da, ularni har bir milliy kontekstda qayta talqin qilish va mahalliy sharoitga moslashtirish zarur.

To‘rtinchisi: autistik spektr buzilishlariga ega bolalar bilan korreksion-pedagogik ishning markazida doimo bola — uning individual imkoniyatlari, ehtiyojlari va istiqboli — turishi lozim.

Mazkur xulosalar dissertatsiyaning keyingi bo‘limlarida ko‘rib chiqiladigan nazariy va amaliy masalalarga metodologik poydevor vazifasini o‘taydi. “Autistik spektr buzilishlariga ega bolalarda nutq rivojlanishi va logopedik mashg‘ulotlar samaradorligi masalalarini tarixiy va ijtimoiy kontekstdan ajratib o‘rganib bo‘lmaydi” [7; 11-b.]. Chunki har qanday metodika muayyan ijtimoiy muhit, ilmiy an’analar va pedagogik madaniyat doirasida shakllanadi va shu muhitda o‘z samarasini namoyon qiladi. Shu ma’noda ushbu paragrafda yoritilgan tarixiy va ijtimoiy sharoitlar nafaqat o‘tgan tarixning bayoni, balki hozirgi korreksion-pedagogik amaliyotni yanada chuqurroq anglash uchun zarur ilmiy kontekstdir.

Har qanday ilmiy tadqiqotning samaradorligi ko‘p jihatdan uning qanday nazariy-metodologik asosga tayanishiga bog‘liq. Muammoni aniqlash, uni o‘rganish usullarini tanlash, olingan ma’lumotlarni talqin qilish va xulosalar chiqarish -bularning barchasi tadqiqotchining metodologik yo‘nalishi bilan belgilanadi.

Autistik spektr buzilishlari muammosi o‘zining murakkabligi, ko‘p qirraliligi va fanlararo xarakteri bilan tadqiqotchi oldiga o‘ziga xos metodologik talablar qo‘yadi.

Ushbu talablarga to‘liq javob berish uchun faqat bitta nazariy maktab yoki yagona metodologik yondashuv bilan cheklanib bo‘lmaydi. Shu sababli zamonaviy ilmiy amaliyotda autistik spektr buzilishlari muammosi integrativ, ko‘p darajali va transditsiplinar metodologiya asosida o‘rganiladi.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini shakllantirish jarayonida avvalo ushbu muammoning qaysi ontologik pozitsiyadan — ya’ni qanday tabiatga ega hodisa sifatida — ko‘rilishi aniqlanishi lozim. Zamonaviy ilmiy qarashlar autistik spektr buzilishlarini na faqat tibbiy holat, na faqat pedagogik muammo, na faqat ijtimoiy farq sifatida emas, balki inson neyrobiologiyasi, ijtimoiy muhit va rivojlanish jarayonlarining o‘zaro ta’siridan yuzaga keladigan murakkab ko‘p omilli holat sifatida talqin qiladi. Bu ontologik pozitsiya metodologiyaga ham ta’sir qiladi: tadqiqotchi faqat simptomlarni kuzatish yoki faqat miya faoliyatini o‘lchash bilan chegaralanmay, balki bolaning ijtimoiy muhiti, oilaviy konteksti, ta’lim sharoitlari va individual rivojlanish dinamikasini ham qamrab oluvchi yondashuv tanlashi zarur bo‘ladi.

Metodologik asosning ikkinchi muhim qismi epistemologik pozitsiya, ya’ni bilim qanday yo‘l bilan olinishi va u qanchalik ishonchli hisoblanishi haqidagi savolga javobdir. Autistik spektr buzilishlari tadqiqotlarida zamonaviy ilmiy amaliyot ko‘proq dalillarga asoslangan yondashuv tamoyilini qabul qiladi. Bu tamoyilga ko‘ra, korreksion amaliyotda faqat ilmiy jihatdan tekshirilgan, takrorlanadigan va obyektiv o‘lchov vositalari bilan tasdiqlangan usullar tavsiya etiladi. Shu bilan birga, har bir bolaning o‘ziga xosligi va ta’lim jarayonining murakkabligi sababli faqat miqdoriy ma’lumotlar bilan chegaralanib bo‘lmaslik ham tan olinmoqda. Shu sababli tadqiqotlarda miqdoriy (kuzatuv natijalari, statistika, test ko‘rsatkichlari) va sifat (klinik kuzatuv, suhbat, amaliyot holati tahlili) metodlari birgalikda qo‘llaniladi.

Autistik spektr buzilishlari muammosining nazariy asoslarini ko‘rib chiqishda L.S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasi alohida metodologik ahamiyat kasb etadi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, “bolaning yuqori psixik funksiyalari dastlab ijtimoiy faoliyat va

muloqot jarayonida tashqi vositalar orqali shakllanib, keyinchalik ichki psixik jarayonga aylanadi" [8; 287-b.]. Bu tamoyil autistik spektr buzilishlari bo‘lgan bolalar bilan ishlashda ham muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi: agar bola mustaqil ravishda muloqotga kira olmayapti, demak unga tashqi tayanch, strukturalashgan yordam va maqsadli ijtimoiy o‘zaro ta’sir sharoiti zarur. Vigotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" tushunchasi ham ushbu kontekstda alohida ahamiyatga ega, chunki u bolaning hozirgi imkoniyati bilan unga yordam bilan erishishi mumkin bo‘lgan imkoniyat o‘rtasidagi masofani ko‘rsatib beradi. Aynan shu masofada pedagog va logopedning aralashuvi eng samarali bo‘ladi.

A.R. Luriyaning neyropsixologik maktabi ham autistik spektr buzilishlari tadqiqotlarining nazariy-metodologik asosiga muhim hissa qo‘shgan. Luriya ishlab chiqqan yuqori psixik funksiyalarning tizimli-dinamik lokalizatsiyasi nazariyasiga ko‘ra, murakkab psixik jarayonlar miyaning muayyan bir qismida emas, balki turli miya tuzilmalarining birgalikdagi faoliyatida amalga oshadi. Ushbu nazariya autistik spektr buzilishlarida kuzatiladigan qiyinchiliklarni, masalan, nutq, diqqat, xotira va xulq-atvorni boshqarishdagi muammolarni yagona, yaxlit tizim doirasida ko‘rib chiqishga imkon beradi. "Neyropsixologik tekshiruv metodologiyasi bolaning rivojlanish profilini shakllantirishda, ya’ni qaysi funksiyalar nisbatan saqlangan, qaysilari o‘ziga xos rivojlanganini aniqlashda asosiy asbobga aylanadi" [9; 384-b.].

A.N. Leontevning faoliyat nazariyasi ham ushbu tadqiqotning muhim nazariy asoslaridan birini tashkil etadi. Faoliyat nazariyasiga ko‘ra, "bolaning psixik rivojlanishi va ko‘nikmalarning shakllanishi avvalo faoliyat jarayonida — ya’ni maqsadli, motivatsiyalangan va vositachilikka asoslangan harakatlar orqali – kechadi". Bu tamoyil autistik spektr buzilishlari bo‘lgan bolalar bilan korreksion ishni tashkil etishda ham amaliy yo‘l-yo‘riq beradi. Nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirish uchun bola uchun mazmunli bo‘lgan faoliyat, ya’ni uning qiziqishini uyg‘otadigan va ichki motivatsiyani faollashtiruvchi vaziyat yaratilishi zarur. Aks holda, mexanik mashqlar orqali shakllangan ko‘nikma real muloqot vaziyatlarida qo‘llanilmaydi.

Autistik spektr buzilishlari muammosining metodologiyasida xulq-atvor tahlili tamoyillari ham muhim nazariy o‘rin egallaydi. Xulq-atvor tahlilining asosiy metodologik qoidasiga ko‘ra, xulq-atvor tasodifiy emas, balki muayyan antesedent (sabab) va konsekvent (oqibat) omillar orqali shakllanadi va saqlanadi. Ushbu tamoyil autistik spektr buzilishlari bo‘lgan bolalarda kuzatiladigan muammoli xulq-atvorni tushuntirishda ham, uni o‘zgartirishga qaratilgan korreksion ishni rejalashtirishda ham samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Xulq-atvorning funksional tahlili, ya’ni muayyan xatti-harakat qanday maqsadga xizmat qilayotganini aniqlash bolaga mos muqobil ko‘nikmalarni shakllantirishda metodologik asos hisoblanadi.

Inkluziv ta’lim paradigmasi ham zamonaviy autistik spektr buzilishlari tadqiqotlarining muhim nazariy-metodologik asoslaridan biri sifatida qaraladi. Inkluziya nafaqat bolani umumiy sinfga joylashtirish degan ma’noni anglatmaydi, balki har bir bolaning o‘ziga xosligini tan olgan holda unga barcha uchun qulay ta’lim muhiti va individual qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatish tizimini yaratishni bildiradi.

Autistik spektr buzilishlari bo‘lgan bolalar uchun inkluziv yondashuv nafaqat ta’lim samaradorligini oshirishi, balki ijtimoiylashuv, tengdoshlar bilan muloqot va o‘z imkoniyatlarini anglash imkoniyatini ham kengaytirishi ilmiy tadqiqotlar bilan tasdiqlangan.

Shu sababli inkluziv ta’lim nazariyasi mazkur dissertatsiyaning metodologik asoslaridan birini tashkil etadi.

Zamonaviy tadqiqot metodologiyasida bioekologik rivojlanish modeli ham autistik spektr buzilishlarini o‘rganishda keng qo‘llaniladi. Ushbu modelga ko‘ra, “bolaning rivojlanishi uning atrofidagi muhit qatlamlari — mikrosistema (oila, sinf, tengdoshlar), mezosistema (maktab va oila o‘rtasidagi munosabat), ekzosistema (mahalla, ta’lim tizimi) va makrosistema (ijtimoiy-madaniy kontekst) — bilan o‘zaro ta’sirida shakllanadi” [11; 384-b.]. Bu model autistik spektr buzilishlari bo‘lgan bolaga yordam ko‘rsatishda faqat bolaning o‘ziga emas, balki uni o‘rab turgan barcha muhit qatlamlariga e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatadi. Shu sababli korreksion-pedagogik ish faqat mutaxassis kabineti bilan cheklanmay, oila, maktab va jamiyatni ham qamrab olgan holda tashkil etilishi lozim.

Tadqiqotning empirik qismi uchun ham aniq metodologik asoslar belgilanishi kerak. Autistik spektr buzilishlarini o‘rganishda qo‘llaniladigan empirik metodlar quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi.

Birinchidan, kuzatuv metodlari, ya’ni bolaning tabiiy muhitdagi va maxsus tashkil etilgan sharoitlardagi xulq-atvorini tizimli qayd etish.

Ikkinchidan, standartlashtirilgan diagnostika vositalari, masalan, nutq rivojlanishi, ijtimoiy ko‘nikmalar va xulq-atvorni baholovchi shkala hamda test tizimlari.

Uchinchidan, eksperimental metod, ya’ni korreksion dasturning samaradorligini nazorat va eksperimental guruhlar orqali taqqoslab baholash.

To‘rtinchidan, miqdoriy ma’lumotlarni qayta ishlash uchun matematik-statistik usullar, masalan, korrelyatsion tahlil, mezonlar o‘rtasidagi farqni aniqlash uchun statistik testlar va dinamik o‘zgarishlarni kuzatish.

“Sifat tadqiqot metodlari ham ushbu muammoni o‘rganishda muhim o‘rin tutadi. Ota-onalar bilan o‘tkaziladigan chuqur suhbatlar, mutaxassislarning klinik kuzatuvlari, individual holat tahlillari (case-study) va ish tajribasini refleksiv o‘rganish usullari bolaning rivojlanishini miqdoriy ko‘rsatkichlar bilan to‘liq aks ettirib bo‘lmaydigan jihatlarini ochib berishga imkon beradi” [12; 192-b.].

Masalan, bola bilan o‘rnatilgan emotsional aloqaning sifati, ota-onalarning korreksion jarayonga munosabati yoki yangi ko‘nikma o‘zlashtirilganda bola tomonidan namoyon bo‘lgan his-tuyg‘ularni sifat metodlari orqali o‘rganish maqsadga muvofiq. Shu sababli zamonaviy tadqiqot metodologiyasida miqdoriy va sifat metodlarini birlashtirishning ahamiyati kuchaymoqda.

Mazkur dissertatsiyaning metodologik asosini belgilashda yana bir muhim tadqiqot obyektini bolaning rivojlanish profili sifatida emas, balki korreksion-pedagogik jarayon sifatida ko‘rish zarurligidir. Ya’ni tadqiqotchi faqat autistik spektr buzilishlari bo‘lgan bolada nima o‘zgarganini emas, balki qanday pedagogik ta’sir qaysi sharoitda, qaysi bolalar guruhida, qanday ko‘rsatkichlar bo‘yicha qancha o‘zgarish berganini o‘lchashi lozim. Bu metodologik pozitsiya tadqiqotni korreksion-pedagogik amaliyotga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq holga keltiradi va olgan natijalarning amaliy qo‘llanilishini ta’minlaydi.

Xulosa. Shuni ta’kidlash joizki, autistik spektr buzilishlari muammosini o‘rganishda tadqiqot etikasi ham metodologiyaning muhim tarkibiy qismidir.

Bolalar bilan olib boriluvchi har qanday tadqiqot ota-onalarning yozma roziligini, bolaning farovonligi va xavfsizligini asosiy ustuvor sifatida qabul qilishni, ma’lumotlarning

maxfiyligini ta’minlashni va tadqiqot jarayonining shaffofligini talab qiladi. Shu bilan birga, autistik spektr buzilishlari bo‘lgan bolalar bilan eksperimental ish o‘tkazishda ularning ishtiroki ixtiyoriy bo‘lishi, kerak bo‘lsa istalgan vaqtda to‘xtatilishi mumkinligi ham metodologik jihatdan ta’minlanishi lozim.

Avtistik spektr buzilishlari tadqiqotlarida diagnostika metodologiyasi ham alohida muhim o‘rin egallaydi. Zamonaviy diagnostika yondashuvi bir martalik tekshiruvdan ko‘ra dinamik baholashni afzal ko‘radi. Dinamik baholash bolaning muayyan bir paytdagi rivojlanish darajasini emas, balki uning o‘rganish qobiliyatini, yordam bilan erishishi mumkin bo‘lgan natijasini va rivojlanish potensialini aniqlashga qaratilgan. Bu yondashuv Vigotskiyning yaqin rivojlanish zonasi tushunchasi bilan metodologik jihatdan chambarchas bog‘liq bo‘lib, korreksion ish rejasini bolaning joriy holati emas, balki uning potensiali asosida qurishga imkon beradi.

Tadqiqot metodologiyasida standartlashtirilgan va nostandartlashtirilgan usullarning uyg‘unlashtirilishi ham muhim tamoyil sifatida qaraladi.

Standartlashtirilgan usullar — turli tadqiqotchilar va muhitlarda taqqoslash imkonini beruvchi, ishonchlilik va validlik ko‘rsatkichlari tasdiqlangan baholash vositalari — autistik spektr buzilishlari muammosini o‘rganishda obyektivlikni ta’minlaydi.

Nostandartlashtirilgan usullar esa individual rivojlanish xususiyatlarini, mahalliy kontekstni va sifat jihatdan o‘ziga xos ko‘rsatkichlarni qayd etishga imkon beradi.

Ikkalasining birgalikda qo‘llanilishi tadqiqot natijalarining to‘liqligini va amaliy foydaliligini oshiradi.

Uchinchi tamoyil — dinamik baholash, ya’ni bolaning rivojlanish natijalarini bir martalik emas, balki doimiy va ko‘p komponentli kuzatuv orqali o‘lchash.

To‘rtinchi tamoyil — amaliyotga yo‘naltirilganlik, ya’ni tadqiqot natijalarining bevosita korreksion-pedagogik amaliyotga tatbiq etilishi uchun yo‘naltirilganligi.

Beshinchi tamoyil — etik mas’uliyat, ya’ni tadqiqot ishtirokchilarining huquqlari va xavfsizligini ta’minlash.

Autistik spektr buzilishlari muammosining nazariy-metodologik asoslarini shakllantirish bu muammoning tabiati, uni o‘rganishning ilmiy tamoyillari va korreksion-pedagogik amaliyotga bo‘lgan munosabatni belgilaydi. Vigotskiy, Luriya va Leontev kabi klassik psixologik maktab vakillari ishlab chiqqan tamoyillar zamonaviy xulq-atvor tahlili, inkluziv ta’lim paradigmasi va bioekologik rivojlanish nazariyasi bilan uyg‘unlashgan holda mazkur dissertatsiyaning nazariy poydevoriga aylanadi. Shu poydevor asosida autistik spektr buzilishlari bo‘lgan bolalarda logopedik mashg‘ulotlar samaradorligini oshirish uchun xulq-atvor menejmentiga asoslangan integrativ korreksion model ishlab chiqish ilmiy jihatdan asoslanган va metodologik jihatdan izchil yo‘nalish ekanligi ko‘rsatiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Baron-Cohen, S. Autism and Asperger Syndrome. - Oxford: Oxford University Press, 2008. - 176 p.
2. Prizant B. Uniquely Human: A Different Way of Seeing Autism. – New York: Simon & Schuster, 2015. - 256 p.
3. Mesibov, G.B., Shea, V., Schopler, E. The TEACCH Approach to Autism Spectrum Disorders. – New York: Springer, 2005. - 198 p.
4. Paul, R. Language Disorders from Infancy through Adolescence. – St. Louis: Mosby, 2007. - 784 p.

5. World Health Organization. ICD-11 for Mortality and Morbidity Statistics. – Geneva: World Health Organization, 2019. - 1500 p.
6. Greenspan, S.I., Wieder, S. Engaging Autism. - Cambridge, MA: Da Capo Press, 2006. – 384 p.
7. Prizant, B.M. Uniquely Human: A Different Way of Seeing Autism. – New York: Simon & Schuster, 2015. – 11 p.
8. Выготский, Л.С. Мышление и речь. М: Педагогика, 1982. - 287 с.
9. Лурия, А.Р. Основы нейропсихологии. М: Академия, 2003. - 384 с.
10. Леонтьев, А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – Москва: Политиздат, 1975. - 304 с.
11. Greenspan, S.I., Wieder, S. Engaging Autism. – Cambridge, MA: Da Capo Press, 2006. - 384 p.
12. Hobson, P. The Cradle of Thought. – London: Macmillan, 2002. - 192 p.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 4 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 March 2026
Accepted: 01 April 2026
Published: 15 April 2026

Article / Original Paper

DIDACTIC POTENTIAL OF INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN DEVELOPING STUDENTS' PROFESSIONAL COMPETENCE

Gaffarova Dilfuza Shavkat qizi
PhD candidate at Navoi State University

Abstract. This article examines the didactic potential of innovative educational technologies in developing students' professional competence in higher education. The study analyzes modern pedagogical approaches, interactive teaching methods, and the use of information and communication technologies in the learning process. The role of innovative technologies in fostering independent thinking, problem-solving skills, and creative abilities of students is substantiated. Based on the analysis of scientific research, effective ways of implementing innovative educational technologies into the educational process are proposed.

Keywords: innovative educational technologies, professional competence, didactic potential, interactive methods, problem-based learning, information and communication technologies, learning process, independent learning.

TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

G'affarova Dilfuza Shavkat qizi
Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimida talabalar kasbiy kompetentligini rivojlantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalarining o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interaktiv metodlar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, talabalarning mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish hamda ijodiy yondashuv ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metodik yechimlar asoslab berilgan. Ilmiy adabiyotlar tahlili asosida innovatsion ta'lim texnologiyalarining samaradorligi aniqlanib, ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish bo'yicha xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion ta'lim texnologiyalari, kasbiy kompetentlik, didaktik imkoniyatlar, interaktiv metodlar, muammoli ta'lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, o'quv jarayoni, mustaqil ta'lim, pedagogik yondashuv, ijodiy fikrlash.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N50

Kirish. Hozirgi globallashuv sharoitida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, uning sifatini oshirish va xalqaro talablar darajasiga olib chiqish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish, ayniqsa innovatsion ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki zamonaviy jamiyat nafaqat chuqur bilimga ega bo'lgan, balki mustaqil fikrlay oladigan, muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qiladigan va o'z kasbiy faoliyatini samarali tashkil eta oladigan mutaxassislarni talab etmoqda.

Talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirish murakkab va ko'p bosqichli jarayon bo'lib, u nafaqat nazariy bilimlarni egallashni, balki amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishni ham

o‘z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan, innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish, ularning o‘quv jarayonidagi ishtirokini oshirish hamda mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy o‘qitish usullari ko‘pincha talabalarni passiv tinglovchi sifatida qoldiradi. Innovatsion yondashuvlar esa ularni o‘quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi, natijada bilimlarni o‘zlashtirish darajasi va sifati sezilarli darajada oshadi. Ayniqsa, interaktiv metodlar, muammoli ta’lim, modulli o‘qitish, axborot texnologiyalariga asoslangan yondashuvlar talabalarning ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda samarali vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Shu bilan birga, ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning didaktik imkoniyatlarini chuqur o‘rganish, ularni samarali qo‘llash metodikasini ishlab chiqish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi. Chunki mavjud tajribalar ko‘rsatadiki, innovatsion yondashuvlar to‘g‘ri tashkil etilgandagina kutilgan natijani beradi.

Mazkur maqolaning maqsadi – innovatsion ta’lim texnologiyalarining didaktik imkoniyatlarini tahlil qilish hamda ular asosida talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning samarali yo‘llarini aniqlashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Hozirgi kunda oliy ta’lim tizimida matematik fanlarni, xususan matematik analizni o‘qitish jarayoni tubdan yangilanib, innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etilmoqda. Ta’lim mazmunining modernizatsiyalashuvi, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi hamda talabalarning mustaqil bilim olishga bo‘lgan ehtiyojining ortishi o‘qitish metodlarini takomillashtirishni talab etmoqda. Shu jihatdan matematik analiz fanini o‘qitishda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Matematik analiz o‘zining yuqori darajadagi abstraktligi, mantiqiy murakkabligi va nazariy yo‘nalganligi bilan ajralib turadi. Mazkur fan doirasida funksiyalar, limit, uzluksizlik, hosila va integral kabi tushunchalarni o‘zlashtirish talabalardan chuqur tafakkur va analitik yondashuvni talab qiladi. An’anaviy o‘qitish usullari ko‘pincha ushbu tushunchalarni yetarli darajada tushunarli va qiziqarli shaklda yetkazib bera olmaydi. Shu sababli innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish zarurati yuzaga keladi.

Ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, matematik fanlarni o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Xususan, N.M. Muxitdinova o‘z tadqiqotida oliy ta’lim muassasalarida matematik bilimlarni zamonaviy ta’lim texnologiyalari asosida shakllantirish metodikasini ishlab chiqib, unda interfaol yondashuvlar talabalar bilimini chuqurlashtirish va ularning o‘quv jarayonidagi faolligini oshirishga xizmat qilishini asoslab beradi. Bu esa matematik analizni o‘qitishda innovatsion metodlarning muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi [1].

Shuningdek, S.H. Xoliqov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda differensial tenglamalarni o‘qitishda Case-study texnologiyasidan foydalanish samarali ekanligi ko‘rsatib berilgan. Muallif ushbu yondashuv orqali talabalarda muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, mustaqil qaror qabul qilish hamda nostandart masalalarni yechish ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkinligini ta’kidlaydi. Bu esa matematik analiz fanini o‘qitishda ham muammoli ta’lim elementlarini keng qo‘llash zarurligini asoslaydi [2].

D.N. Ashurova o‘z ilmiy ishida algebra va sonlar nazariyasi fanini o‘qitishda innovatsion dasturiy vositalarni qo‘llash metodikasini ishlab chiqqan. Xususan, Mathcad, Maple va

Mathematica kabi matematik paketlarni muammoli ta’lim texnologiyalari bilan integratsiyalash orqali talabalar bilimini chuqurlashtirish, ularning ijodiy va tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyati yaratilishi asoslab berilgan. Mazkur yondashuv matematik analiz fanini o‘qitishda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi, chunki bu fan ko‘plab hisoblashlar va vizual tasvirlarni talab qiladi [3].

G.K. Izetaevaning tadqiqotida matematik analiz fanini modulli texnologiya asosida o‘qitish metodikasi ishlab chiqilgan bo‘lib, unda o‘quv materialini modullarga ajratish orqali talabalarning bilimlarni tizimli va izchil o‘zlashtirishi ta’minlanadi. Ushbu yondashuv talabalarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda ularning matematik tafakkurini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi [4].

Matematik tushunchalarni chuqur o‘zlashtirishda texnologik yondashuvning o‘rni G.L. Barbashovaning tadqiqotlarida o‘z ifodasini topgan. Muallif matematik analizning asosiy tushunchalarini o‘qitishni uch bosqich — ko‘rgazmali, amaliy va nazariy-mantiqiy darajalarda tashkil etish zarurligini asoslab beradi. Bu esa talabalar tomonidan matematik tushunchalarni faqat nazariy jihatdan emas, balki amaliy jihatdan ham anglash imkonini yaratadi [5].

O.E. Belova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa integral hisoblashni o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish metodikasi ishlab chiqilgan. Muallifning fikricha, vizuallashtirish, tizimlilik va kompleks yondashuv asosida tashkil etilgan o‘qitish jarayoni talabalarning bilim darajasi, ijodiy faolligi va mustaqil ishlash ko‘nikmalarini oshiradi. Bu esa matematik analiz fanini o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning samaradorligini tasdiqlaydi [6].

Bundan tashqari, V.Y. Belash tomonidan ishlab chiqilgan didaktik model bo‘lajak matematika o‘qituvchilarini zamonaviy ta’lim jarayonini loyihalash va amalga oshirishga tayyorlashda muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu yondashuv pedagogik faoliyatni innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi [7].

Yuqorida keltirilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, matematik analiz fanini o‘qitishda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha muayyan yondashuvlar ishlab chiqilgan va ularning samaradorligi ilmiy jihatdan asoslangan. Biroq mavjud tadqiqotlarda asosan alohida mavzular yoki fanlar kesimida metodikalar taklif etilgan bo‘lib, matematik analiz fanida talabalarni nostandart masalalarni yechishga yo‘naltirilgan kompleks metodika yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Shu bois ushbu yo‘nalishda ilmiy izlanishlarni davom ettirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Zamonaviy ta’lim tizimida matematik fanlarni, xususan, matematik analizni o‘qitish jarayoni tubdan yangilanib bormoqda. Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida bilim berish jarayoni an’anaviy yondashuvdan bosqichma-bosqich innovatsion modelga o‘tmoqda. Bu esa o‘qitishning mazmuni, shakli va metodlarini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi [8].

Matematik analiz murakkab mantiqiy tafakkurni, abstrakt fikrlashni va chuqur nazariy tayyorgarlikni talab etadigan fanlardan biri hisoblanadi. Shu sababli uni samarali o‘qitish uchun faqatgina klassik ma’ruza uslubi yetarli bo‘lmay, balki interaktiv, muammoli va texnologiyalarga asoslangan metodlar zarur hisoblanadi. Hozirgi kunda innovatsion ta’lim texnologiyalari sifatida elektron ta’lim resurslari, masofaviy ta’lim platformalari, multimedia vositalari, simulyatsion dasturlar hamda interaktiv metodlardan keng foydalanilmoqda.

Matematik analizni o‘qitishda innovatsion yondashuvlarning joriy etilishi talabalarning faolligini oshirish, ularning mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda nazariy bilimlarni amaliy vazifalar bilan uyg‘unlashtirish imkonini bermoqda. Xususan, “muammoli ta’lim”, “klaster usuli”, “aqliy hujum”, “case-study” kabi metodlar talabalarda tahliliy va ijodiy yondashuvni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi matematik analizni o‘qitishda yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirdi. Grafik dasturlar, matematik modellashtirish vositalari va onlayn platformalar yordamida murakkab funksiyalarni vizual ko‘rinishda tahlil qilish, limitlar, hosilalar va integrallarni interaktiv tarzda o‘rganish imkoniyati paydo bo‘ldi.

Ammo amaliyot shuni ko‘rsatadiki, innovatsion texnologiyalarni joriy etishda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, pedagoglarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyasining yetarli darajada shakllanmaganligi, metodik ta’minotning to‘liq ishlab chiqilmaganligi va ayrim hollarda texnik vositalarning yetishmasligi bu jarayonni sekinlashtirmoqda.

Shunday bo‘lsada, matematik analizni o‘qitishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash bugungi kunning dolzarb talabi bo‘lib, u ta’lim sifatini oshirish, talabalarni zamonaviy bilim va ko‘nikmalar bilan qurollantirish hamda ularning kasbiy tayyorgarligini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi.

Amaliy matematika yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash bugungi ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki zamonaviy jamiyatda nafaqat bilimli mutaxassis, balki o‘z bilimini boshqalarga yetkaza oladigan, pedagogik kompetensiyalarga ega bo‘lgan kadrlar zarur.

Pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayoni ko‘p qirrali bo‘lib, u nazariy bilimlarni egallash, metodik ko‘nikmalarni shakllantirish hamda amaliy tajriba orttirishni o‘z ichiga oladi. Ayniqsa, matematik analiz kabi murakkab fanlarni o‘qitish uchun kelajak pedagogdan yuqori darajadagi mantiqiy tafakkur, tushuntirish qobiliyati va didaktik yondashuv talab etiladi [9].

Ilmiy-metodik jihatdan qaralganda, talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayoni quyidagi asosiy yo‘nalishlarni qamrab oladi:

- zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirish;
- darsni loyihalash va rejalashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish;
- o‘quv jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish;
- talabalar bilan samarali kommunikatsiya o‘rnatish;
- baholash va refleksiya jarayonlarini tashkil etish.

Mazkur jarayonda innovatsion ta’lim texnologiyalari alohida o‘rin tutadi. Chunki ular orqali talabalar nafaqat bilim oladi, balki o‘zlari ham kelajakda shu metodlarni qo‘llashni o‘rganadi. Bu esa “o‘rganish orqali o‘rgatish” tamoyilining amaliy ifodasidir.

Shuningdek, pedagogik tayyorgarlik jarayonida amaliy mashg‘ulotlar, pedagogik amaliyot va treninglar muhim ahamiyatga ega. Aynan shu bosqichlarda talabalar nazariy bilimlarini real ta’lim muhitida sinab ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Natijada, amaliy matematika yo‘nalishi talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlash ularning kasbiy kompetentligini oshirish, innovatsion fikrlashini rivojlantirish hamda zamonaviy ta’lim talablariga mos mutaxassis sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Talabalarda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish bugungi kunda ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismiga aylangan. Bu jarayon

nafaqat bilim berish, balki talabaning mustaqil faoliyatini tashkil etish, ijodiy fikrlashini rivojlantirish va amaliy koʻnikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi [10].

Didaktik nuqtai nazardan, innovatsion texnologiyalar ta’lim jarayonining barcha komponentlariga ijobiy ta’sir koʻrsatadi. Xususan, ular:

- oʻquv materialini vizuallashtirish imkonini beradi;
-murakkab tushunchalarni sodda va tushunarli shaklda yetkazadi;
- talabalarni faol ishtirok etishga undaydi;
- individual yondashuvni ta’minlaydi;
- oʻz-oʻzini nazorat qilish va baholash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Matematik analiz darslarida bu imkoniyatlardan samarali foydalanish orqali talabalar abstrakt tushunchalarni aniq tasavvur qila boshlaydi. Masalan, funksiyalarning grafigini dinamik tarzda koʻrsatish, hosila va integralning geometrik ma’nosini vizual tushuntirish talabalarning mavzuni chuqurroq oʻzlashtirishiga yordam beradi.

Bundan tashqari, innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar talabalarni mustaqil izlanishga yoʻnaltiradi. Elektron resurslar, onlayn platformalar va virtual laboratoriyalar orqali talabalar oʻz bilimlarini mustaqil ravishda mustahkamlash imkoniyatiga ega boʻladi.

Didaktik imkoniyatlarning yana bir muhim jihati – bu differensial yondashuvni amalga oshirishdir. Har bir talabaning bilim darajasi va oʻzlashtirish sur’atidan kelib chiqib, individual topshiriqlar berish imkoniyati ta’lim samaradorligini oshiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish talabalarning bilim, koʻnikma va kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi hamda matematik analiz fanini oʻqitish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi.

Mazkur bobda matematik analiz fanini oʻqitishda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning nazariy va metodik asoslari atroflicha tahlil qilindi. Oʻrganishlar shuni koʻrsatdiki, zamonaviy ta’lim tizimida matematik fanlarni oʻqitish jarayonini samarali tashkil etish bevosita innovatsion yondashuvlarni qoʻllash bilan chambarchas bogʻliqdir.

Birinchidan, matematik analiz fanini oʻqitishda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning hozirgi holati tahlili shuni koʻrsatdiki, ta’lim jarayoniga interaktiv metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamli vositalarni joriy etish talabalar faolligini oshirish, ularning mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda bilimlarni chuqur oʻzlashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu texnologiyalarni qoʻllashda ayrim tashkiliy va metodik muammolar mavjudligi ham aniqlandi.

Ikkinchidan, amaliy matematika ta’lim yoʻnalishi talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlashning ilmiy-metodik jihatlari tahlili natijasida ularning kasbiy kompetentligini shakllantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar muhim oʻrin tutishi asoslab berildi. Talabalarning nafaqat nazariy bilimlarga, balki darsni tashkil etish, metod tanlash va oʻquv jarayonini boshqarish koʻnikmalariga ega boʻlishi zarurligi ta’kidlandi.

Uchinchidan, dars mashgʻulotlarida innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanishga oid koʻnikmalarni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari oʻrganilib, bu jarayon talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish, ijodiy yondashuvini shakllantirish hamda individual ta’lim trayektoriyasini ta’minlashda muhim omil ekanligi aniqlandi.

Umuman olganda, innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish matematik analiz fanini oʻqitish samaradorligini oshirish, talabalarni nostandart masalalarni yechishga

tayyorlash hamda ularning kasbiy va metodik tayyorgarligini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur bobda olingan nazariy xulosalar keyingi boblarda amaliy jihatdan rivojlantirish va tajriba-sinov ishlarini tashkil etish uchun metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Muxitdinova N.M. Pedagogika oliy ta’lim muassasalari gumanitar yo‘nalishlarida matematika o‘qitish samaradorligini oshirish: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2020.
2. Xoliqov S.H. Bo‘lg‘usi matematika o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida differensial tenglamalar modulini o‘qitish metodikasini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2021.
3. Ashurova D.N. Oliy ta’lim tizimida innovatsion dasturiy-didaktik majmualar asosida o‘qitishni takomillashtirish (Algebra va sonlar nazariyasi misolida): pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2021.
4. Izetaeva G.K. Oliy ta’lim muassasalarida matematik analiz fanini modulli texnologiya asosida o‘qitish metodikasi: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Nukus, 2020.
5. Барбашова Г.Л. Технологический подход к обучению базовым понятиям математического анализа студентов педагогического вуза: диссертация кандидата педагогических наук. – Москва, 2019.
6. Белаш В.Ю. Подготовка бакалавров направления «Педагогическое образование» (математика) к проектированию и реализации элективных курсов экономико-математической направленности: диссертация кандидата педагогических наук. – Санкт-Петербург, 2018.
7. Белова О.Е. Методика обучения студентов педагогических вузов – будущих учителей математики интегральному исчислению с использованием информационных технологий: диссертация кандидата педагогических наук. – Москва, 2019.
8. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslari. – Toshkent: Fan, 2018.
9. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2017.
10. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2019.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 4 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 March 2026
Accepted: 01 April 2026
Published: 15 April 2026

Article / Original Paper

THE IMPACT OF VOLITIONAL QUALITIES OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS ON THE DEVELOPMENT OF BEHAVIORAL RESPONSES ENSURING EFFECTIVE SPORTS PERFORMANCE

Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich
Termez State Pedagogical Institute
Senior Lecturer, Physical Education Department
E-mail: profboks2020@gmail.com
https://orcid.org/0000-0001-5343-0539

Abstract. The article examines the influence of volitional qualities of primary school students on the formation of behavioral responses that ensure the effectiveness of sports activity within the context of physical education. The relevance of the study is determined by the need to develop stable personal characteristics in primary school students that contribute to the successful performance of motor actions and overcoming emerging difficulties. The paper analyzes theoretical approaches to understanding volitional regulation of behavior, reveals the structure of volitional qualities, and substantiates their role in the formation of behavioral responses.
The methodological framework of the study is based on systemic, activity-based, and personality-oriented approaches. The research methods include the analysis of scientific literature, pedagogical observation, and qualitative interpretation of the obtained data. The results of the study indicate a stable relationship between the level of development of volitional qualities and the effectiveness of sports activity among primary school students. It has been established that the development of persistence, self-control, and goal orientation contributes to the formation of stable behavioral responses. The study concludes that purposeful pedagogical influence is necessary for the development of the volitional sphere of students in the process of physical education.

Keywords: volitional qualities, primary school students, behavioral responses, physical education, sports activity, self-regulation, persistence, goal orientation, motivation, pedagogical conditions, personal development, activity effectiveness.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING IRODAVIY SIFATLARI SPORT FAOLIYATINING SAMARADORLIGINI TA’MINLOVCHI XULQ-ATVOR REAKSIYALARINING RIVOJLANISHIGA TA’SIRI

Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich
Termiz davlat pedagogika instituti
“Jismoniy madaniyat” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining irodaviy sifatlari jismoniy tarbiya jarayonida sport faoliyatining samaradorligini ta’minlovchi xulq-atvor reaksiyalarini shakllantirishga qanday ta’sir ko‘rsatishi ilmiy jihatdan tahlil etiladi. Tadqiqotning dolzarbligi boshlang‘ich ta’lim bosqichidagi o‘quvchilarda harakat faoliyatini muvaffaqiyatli bajarish hamda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yengib o‘tishga xizmat qiluvchi barqaror shaxsiy sifatlarni rivojlantirish zarurati bilan izohlanadi. Ishda xulq-atvorni irodaviy boshqarish masalasiga oid nazariy yondashuvlar ko‘rib chiqilib, irodaviy sifatlarning tuzilmasi ochib beriladi hamda ularning xulq-atvor reaksiyalarini shakllantirishdagi ahamiyati asoslab beriladi.
Tadqiqotning metodologik asosini tizimli, faoliyatga yo‘naltirilgan va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar tashkil etadi. Tadqiqot metodlari sifatida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatuv olib borish hamda olingan natijalarni sifat jihatidan talqin etish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida irodaviy sifatlarning rivojlanish darajasi bilan sport faoliyati samaradorligi o‘rtasida barqaror bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Xususan, qat’iyatlilik, o‘zini boshqarish va maqsadga yo‘naltirilganlik kabi sifatlarning

shakllanishi barqaror xulq-atvor reaksiyalarining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. Tadqiqot yakunida jismoniy tarbiya jarayonida o‘quvchilarning irodaviy sohasini rivojlantirish uchun maqsadli pedagogik ta’sir zarurligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: irodaviy sifatlar, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, xulq-atvor reaksiyalari, jismoniy tarbiya, sport faoliyati, o‘zini boshqarish, qat’iyatlilik, maqsadga yo‘naltirilganlik, motivatsiya, pedagogik sharoitlar, shaxs rivoji, faoliyat samaradorligi.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N51

Introduction. Modern trends in the development of the education system are aimed not only at the formation of subject knowledge and motor skills, but also at the development of students’ personal qualities that ensure their successful adaptation and self-realization in various types of activity [2, 4]. In this context, particular importance is attached to the development of the volitional sphere of personality, which serves as a key mechanism for behavioral regulation and the achievement of set goals [3, 4].

Physical education within the general education system is considered an effective means of comprehensive personality development, as motor activity creates conditions for the formation of not only physical but also psychological qualities. Among these, volitional qualities occupy a special place, as they ensure students’ ability to consciously regulate their actions, overcome difficulties, and achieve intended outcomes [1, 4, 8].

Primary school students are at a stage of active formation of voluntary behavior, during which the foundations of self-regulation, attentional stability, and goal-directed activity are developed. However, this age period is also characterized by impulsivity, insufficient development of behavioral control, and low resistance to internal and external obstacles. This necessitates purposeful pedagogical influence aimed at the development of volitional qualities as an essential component of personality [1, 7, 9].

Volitional qualities such as persistence, determination, endurance, goal orientation, and self-control function not only as individual psychological characteristics but also as functional regulators of behavior. They determine the nature of students’ behavioral responses in various situations, including sports activity, which requires a high level of organization, discipline, and the ability to overcome difficulties [5, 6].

Despite a considerable number of studies devoted to the problem of the formation of the volitional sphere, the issue of the mechanisms through which volitional qualities influence the development of behavioral responses ensuring the effectiveness of sports activity in primary school students remains insufficiently explored. Most existing studies focus either on the general characteristics of volitional qualities or on their role during adolescence, whereas primary school age requires separate and in-depth scientific consideration.

Thus, a contradiction arises between the necessity of developing volitional qualities in primary school students as a foundation for successful sports activity and the insufficient elaboration of pedagogical approaches to implementing this process within physical education.

The practical part of the study was carried out at Secondary School No. 7 in the Jarkurgan District, Surkhandarya Region, involving 4th-grade students. Within the framework of the experiment, the characteristics of the manifestation of volitional qualities and their influence on students’ behavioral responses during the performance of motor tasks were examined. The organization of the study included systematic pedagogical observation, analysis of students’ activity, and assessment of their ability to overcome difficulties in training conditions.

The aim of the study is to identify the influence of volitional qualities of primary school students on the formation of behavioral responses ensuring the effectiveness of sports activity.

Literature review and methodology. The problem of the formation of volitional qualities of personality has traditionally occupied a significant place in psychological and pedagogical research. In scientific literature, will is considered as a complex integrative construct that ensures conscious regulation of behavior and an individual's ability to purposefully overcome difficulties. Researchers emphasize that volitional qualities act as a linking mechanism between motivation, consciousness, and activity, thereby ensuring the stability and effectiveness of behavior.

Both classical and contemporary studies indicate that the development of the volitional sphere of personality proceeds in stages and is closely related to age-specific characteristics. Primary school students are characterized by an initial stage in the formation of voluntary behavior, in which dependence on external conditions and insufficient resistance to difficulties are observed. In this regard, the search for effective pedagogical means aimed at developing volitional qualities within structured activity becomes particularly relevant.

Contemporary research in the field of physical education confirms that motor activity creates a favorable environment for the development of volitional manifestations. The performance of physical exercises requires students to concentrate attention, regulate their actions, and demonstrate the ability to overcome fatigue and failure. However, despite the availability of theoretical developments, the issue of the relationship between volitional qualities and behavioral responses that ensure the effectiveness of sports activity remains insufficiently explored.

Within the framework of this study, theoretical provisions developed by the author in a series of scientific works devoted to the formation of the volitional sphere of students through physical education were also employed. In particular, an approach based on the identification of two groups of criteria for assessing volitional qualities is considered:

- expressive criteria, reflecting the stability of the manifestation of volitional characteristics in specific activity situations;

- generalized criteria, characterizing the breadth and universality of the manifestation of volitional qualities under various conditions.

The author's position is that volitional qualities should be considered not only as personal traits but also as dynamic regulators of behavior that are formed in the process of specially organized pedagogical activity. Particular importance is attributed to such qualities as persistence, goal orientation, initiative, and self-control, which serve as the foundation for the development of stable behavioral responses.

The methodological framework of the study is based on the following approaches:

- the systems approach, which allows volitional qualities to be considered as elements of the integral structure of personality;

- the activity-based approach, focused on examining the formation of volitional manifestations in the process of activity;

- the personality-oriented approach, ensuring consideration of the individual characteristics of primary school students.

The following research methods were employed:

- theoretical analysis of scientific literature;

- pedagogical observation of students' behavior during physical activity;

- questionnaire survey aimed at identifying the level of development of volitional qualities;

- qualitative analysis of behavioral responses in training situations.

The study was conducted within the framework of physical education classes among primary school students. Particular attention was paid to identifying the relationship between the level of development of volitional qualities and the nature of behavioral responses manifested during the performance of motor tasks.

The conducted literature review and the selected methodology made it possible to establish a scientifically grounded basis for investigating the influence of volitional qualities on the formation of behavioral responses ensuring the effectiveness of sports activity.

Discussion. In the group with a medium level, the indicators vary within the range of 51-67%, which reflects the instability of behavioral responses and their dependence on external motivation. Students with a low level of volitional qualities demonstrate the lowest indicators across all parameters, indicating an insufficient development of self-regulation mechanisms.

The analysis revealed that:

- a high level of volitional qualities is directly associated with the effectiveness of sports activity;

- a medium level requires targeted pedagogical intervention;

- a low level is characterized by unstable behavioral responses and reduced performance.

The obtained quantitative data confirm that volitional qualities serve as a significant factor in the formation of behavioral responses ensuring the effectiveness of sports activity in primary school students.

The data obtained in the course of the study not only make it possible to identify quantitative differences in the level of development of volitional qualities among primary school students, but also to reveal their causal relationships with the nature of behavioral responses in the process of sports activity.

The predominance of the medium level of development of volitional qualities (51.9%) can be explained by the age-related characteristics of primary school students. At this stage of development, voluntary behavior is still in the process of formation, which determines the partial development of self-regulation mechanisms. Students are capable of completing tasks under conditions of external control and motivation; however, in situations requiring prolonged volitional effort, their level of activity decreases. This explains the moderate indicators observed in such parameters as self-control (55.6%) and resistance to fatigue (51.9%).

A relatively high proportion of students with a low level (26.9%) indicates the presence of a risk group characterized by insufficient development of volitional regulation. Low indicators across all behavioral parameters (ranging from 25% to 39%) point to a weak ability to overcome difficulties and low motivational stability. This may be обусловлено both individual psychological characteristics and an insufficient level of pedagogical influence aimed at developing the volitional sphere.

At the same time, the presence of a group of students with a high level of volitional qualities (21.2%) confirms the possibility of effectively developing these qualities already at the primary school level. The high indicators of behavioral responses (78-92%) in this group indicate the formation of stable self-regulation mechanisms, enabling students to maintain activity and goal-directed behavior even under conditions of increased physical load.

A significant result of the study is the identification of a clear relationship between the level of volitional qualities and the indicators of behavioral responses. In particular, the difference between the groups with high and low levels in terms of striving for achievement exceeds 50%, which demonstrates the system-forming role of volitional qualities in the structure of activity. A similar pattern is observed across other parameters, including overcoming difficulties and self-control.

The obtained results make it possible to interpret volitional qualities as a key regulator of the transition from situational behavior to stable behavioral strategies. In the context of physical education, this is manifested in students' ability to maintain activity, regulate their actions, and remain oriented toward achieving results.

It should be noted that the identified indicators also reflect the influence of pedagogical conditions. In cases where the educational and training process includes elements of purposeful development of volitional qualities (such as the creation of problem situations, encouragement of effort, and development of self-control), a higher level of behavioral stability is observed. Conversely, the absence of such conditions leads to the predominance of situational responses and a decrease in the effectiveness of activity.

Thus, the obtained data confirm that quantitative differences in the level of development of volitional qualities are determined both by the age-related characteristics of primary school students and by the specifics of pedagogical influence. Volitional qualities function not only as personality traits but also as functional mechanisms that determine the effectiveness of sports activity through the formation of stable behavioral responses.

Results. During the pedagogical experiment conducted among 4th-grade students at Secondary School No. 7 in the Jarkurgan District, Surkhandarya Region, a diagnostic assessment of the level of development of volitional qualities and their influence on behavioral responses in the process of performing motor tasks was carried out.

A total of 52 primary school students participated in the study. The assessment of volitional qualities was conducted using an author-developed system of criteria, including indicators such as persistence, self-control, goal orientation, and activity. Based on the obtained data, three levels of development of volitional qualities were identified: high, medium, and low (Table 1).

Table 1

Level of Development of Volitional Qualities in Primary School Students (n = 52)

Level of Development	Number of Students	Percentage (%)
High	11	21.2%
Medium	27	51.9%
Low	14	26.9%

The analysis of the results showed that the medium level of development of volitional qualities predominates (51.9%), which indicates a partial formation of self-regulation skills and insufficient stability of behavior under conditions of physical load.

A high level was identified in 21.2% of students. This group is characterized by pronounced persistence, the ability to exercise self-control, and a strong orientation toward achieving set goals. These students demonstrate stable behavior and a high level of activity when performing motor tasks.

At the same time, 26.9% of students were classified as having a low level of development of volitional qualities. This group is characterized by difficulties in overcoming physical loads, rapid fatigue, and decreased motivation to complete tasks (Table 2).

Table 2

Dependence of Behavioral Responses on the Level of Development of Volitional Qualities (%)

Behavioral Indicators	High Level	Medium Level	Low Level
Active task performance	90.9%	63.0%	35.7%
Ability for self-control	81.8%	55.6%	28.6%
Overcoming difficulties	87.3%	59.3%	32.1%
Resistance to fatigue	78.2%	51.9%	25.0%
Striving for achievement of results	92.7%	66.7%	39.3%

The obtained data indicate a pronounced dependence of behavioral responses on the level of development of volitional qualities. Students with a high level demonstrate significantly more stable and goal-directed forms of behavior.

Conclusion. The conducted study made it possible to establish that the volitional qualities of primary school students act as a significant factor in the formation of behavioral responses ensuring the effectiveness of sports activity. The obtained results indicate a stable relationship between the level of development of the volitional sphere and the nature of students' behavior in the process of performing motor tasks.

It was found that the predominance of the medium level of development of volitional qualities is обусловлено age-related characteristics of primary school students, characterized by insufficient formation of voluntary behavioral regulation. At the same time, students with a high level of volitional qualities demonstrate more stable behavioral responses, including the ability for self-control, overcoming difficulties, and orientation toward achieving results. In contrast, a low level of the volitional sphere is accompanied by decreased activity, behavioral instability, and insufficient motivation to complete tasks.

It has been established that volitional qualities perform the function of a regulator of behavioral activity, ensuring the transition from situational reactions to stable forms of behavior. In the context of physical education, this is manifested in increased efficiency of motor activity and improved performance of educational and training tasks.

The practical significance of the study lies in substantiating the need for purposeful development of volitional qualities in primary school students through the implementation of specific pedagogical conditions aimed at fostering self-control, persistence, and goal orientation.

Thus, the development of the volitional sphere should be considered a priority direction of pedagogical activity aimed at enhancing the effectiveness of sports activity and the harmonious development of students' personalities.

References/Литература/ Adabiyotlar:

1. Abdullayev, Y. (2025). 7-9 yoshli o'quvchilarning harakat sifatlarini harakatli o'yinlar vositalari orqali rivojlantirish. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, *5*(2), 555–561. https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I2Y2025N88
2. Turdimurodov, D. Y. (2025). Organization of physical education for students of higher education institutions. *American Journal of Modern World Sciences*, *2*(3), 92–99. Retrieved from https://worldejurnal.ru/index.php/ajmws/article/view/661
3. Development of volitional qualities in senior school students by means of physical education. (2025). *Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations*, *4*(3), 253-256. https://doi.org/10.55640/
4. Turdimurodov, D. (2024). Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasining pedagogik shartlari. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, *4*(S/9), 570-575. https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI9Y2024N88
5. Turdimuratov, D. (2025). Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari jarayonida yuqori sinf o'quvchilarining irodaviy sifatlarini shakllantirish. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, *5*(S/2), 249-255. https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI2Y2025N41
6. Turdimuratov, D. (2025). Talabalar ta'limining samaradorligini oshirish va jismoniy sifatlarini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, *5*(2), 586-592. https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I2Y2025N93
7. Turdimuratov, D. (2025). Maktabgacha yoshdagi bolalarda irodaviy sifatlarni shakllantirishning pedagogik sharoitlari va qonuniyatlari. *Sport Ilm-Fanining Dolzarb Muammolari*, *3*(3), 119–124. Retrieved from https://sport-science.uz/index.php/journal/article/view/275
8. Yuldashevich, D. T. (2021). Formation and education of will in schoolchildren in the process of physical education lesson. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 64-74.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 4 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).